1. Введение. Обратная задача для квадратичного пучка уравнений Штурма-Лиувилля с периодическими коэффициентами на всей прямой исследована в работах Г.Ш.Гусейнова [1,2], Б.А.Бабажанова, А.Б.Хасанова, А.Б.Яхшимуратова [3] и др.

В этой работе получены формулы, выражающие производную по параметру от решений квадратичного пучка уравнений Штурма-Лиувилля. Полагая коэффициенты π -периодическими из полученных формул выведены важные тождества для решений. В частности, показана не зависимость от параметра спектра квадратичного пучка уравнений Штурма-Лиувилля с π -периодическими коэффициентами. Кроме того, выведена система уравнений Дубровина, а также приведен пример иллюстрирующий обратную задачу.

2. Основная часть. Рассмотрим квадратичный пучок уравнений Штурма-Лиувилля

$$T(\lambda, \tau)y \equiv -y'' + q(x + \tau)y + 2\lambda p(x + \tau)y - \lambda^2 y = 0, \quad x \in R, \quad (1)$$

где $p(x), q(x) \in C^1(R)$ действительные функции и τ действительный параметр. Обозначим через $c(x, \lambda, \tau)$ и $s(x, \lambda, \tau)$ – решения уравнения (1), удовлетворяющие начальным условиям $c(0, \lambda, \tau) = 1, c'(0, \lambda, \tau) = 0$ и $s(0, \lambda, \tau) = 0, s'(0, \lambda, \tau) = 1$, соответственно.

Теорема 1. Выполняются следующие тождества:

$$\frac{\partial c(x, \lambda, \tau)}{\partial \tau} = [\lambda^2 - q(\tau) - 2\lambda p(\tau)]s(x, \lambda, \tau) + c'(x, \lambda, \tau), \quad (2)$$

$$\frac{\partial s(x, \lambda, \tau)}{\partial \tau} = s'(x, \lambda, \tau) - c(x, \lambda, \tau), \quad (3)$$

$$\begin{aligned} \frac{\partial c'(x, \lambda, \tau)}{\partial \tau} = & [\lambda^2 - q(\tau) - 2\lambda p(\tau)]s'(x, \lambda, \tau) - \\ & - [\lambda^2 - q(x + \tau) - 2\lambda p(x + \tau)]c(x, \lambda, \tau), \end{aligned} \quad (4)$$

$$\frac{\partial s'(x, \lambda, \tau)}{\partial \tau} = -[\lambda^2 - q(x + \tau) - 2\lambda p(x + \tau)]s(x, \lambda, \tau) - c'(x, \lambda, \tau). \quad (5)$$

Доказательство. Для удобства временно введем обозначения

$$\theta(x) = c(x, \lambda, \tau), \quad \varphi(x) = s(x, \lambda, \tau).$$

Дифференцируя тождество $\theta'' - q\theta - 2\lambda p\theta + \lambda^2\theta = 0$ по τ и обозначая $u = \theta_\tau$ имеем $u'' - qu - 2\lambda pu + \lambda^2 u = (q_\tau + 2\lambda p_\tau)\theta$. Кроме того, дифференцируя начальные условия по τ имеем $u(0) = 0, u'(0) = 0$. Решая полученную задачу Коши методом функции Коши, учитывая начальные условия, выводим, что

$$\theta_\tau = \int_0^x [\varphi(x)\theta(z) - \theta(x)\varphi(z)][q_\tau(z + \tau) + 2\lambda p_\tau(z + \tau)]\theta(z)dz.$$

Используя равенства $q_\tau(z + \tau) = q'(z + \tau)$, $p_\tau(z + \tau) = p'(z + \tau)$, и интегрируя по частям, имеем

$$\begin{aligned} \theta_\tau = & \int_0^x [\varphi(x)\theta^2(z) - \theta(x)\theta(z)\varphi(z)]d[q(z + \tau) + 2\lambda p(z + \tau)], \\ & \theta_\tau = -\varphi(x)[q(\tau) + 2\lambda p(\tau)] + \\ & + \int_0^x [\theta(x)\varphi'(z) - 2\varphi(x)\theta'(z)] \cdot \theta(z)[q(z + \tau) + 2\lambda p(z + \tau)]dz + \\ & + \int_0^x \theta(x)\theta'(z) \cdot \varphi(z)[q(z + \tau) + 2\lambda p(z + \tau)]dz. \end{aligned}$$

Принимая во внимание, что $\theta(x)$ и $\varphi(x)$ решения квадратичного пучка (1), находим, что

$$\begin{aligned} \theta_\tau = & -\varphi(x)[q(\tau) + 2\lambda p(\tau)] + \\ & + \int_0^x [\theta(x)\varphi'(z) - 2\varphi(x)\theta'(z)] \cdot [\theta''(z) + \lambda^2\theta(z)]dz + \\ & + \int_0^x \theta(x)\theta'(z)[\varphi''(z) + \lambda^2\varphi(z)]dz, \\ \theta_\tau = & -\varphi(x)[q(\tau) + 2\lambda p(\tau)] + \\ & + \{\theta(x)\theta'(z)\varphi'(z) - \varphi(x)\theta'^2(z) + \lambda^2\theta(x)\theta(z)\varphi(z) - \lambda^2\varphi(x)\theta^2(z)\}\Big|_0^x. \end{aligned}$$

Отсюда следует тождество (2). Тождество (3) выводится аналогично. Дифференцируя (2) и (3) по x , получим (4) и (5). Теорема доказана.

Пусть теперь $p(x), q(x) \in C^1(R)$ являются действительными π -периодическими функциями и удовлетворяют условию: для всех функций $y(x) \in W_2^2[0, \pi]$, удовлетворяющих условиям $y'(0)\bar{y}(0) - y'(\pi)\bar{y}(\pi) = 0$ и $(y, y) = 1$, выполняется неравенство $(py, y)^2 + (qy, y) + (y', y') > 0$, где (\cdot, \cdot) – скалярное произведение пространства $L_2(0, \pi)$. Тогда спектр задачи (1) является действительной и совпадает с множеством

$$\sigma(T) = \{\lambda \in R \mid -2 \leq \Delta(\lambda) \leq 2\} = R \setminus \bigcup_{n=-\infty}^{\infty} (\lambda_{2n-1}, \lambda_{2n}),$$

где $\Delta(\lambda) = c(\pi, \lambda, \tau) + s'(\pi, \lambda, \tau)$. Интервалы $(\lambda_{2n-1}, \lambda_{2n})$, $n \in Z$ называются лакунами. Нумерация вводится таким образом, чтобы $\lambda_{-1} < 0 < \lambda_0$. Функция $\Delta(\lambda)$ называется функцией Ляпунова или дискриминантом Хилла для пучка (1).

Введем обозначение $\sigma_n = \sigma_n(\tau) = \text{sign}\{s'(\pi, \xi_n, \tau) - c(\pi, \xi_n, \tau)\}$, где $\xi_n = \xi_n(\tau)$, $n \in Z \setminus \{0\}$ собственные значения задачи Дирихле $y(0) = y(\pi) = 0$ для уравнения (1). Нетрудно видеть, что числа ξ_n совпадают с нулями функции $s(\pi, \lambda, \tau)$ и выполняются включения $\xi_n \in [\lambda_{2n-1}, \lambda_{2n}]$.

Граничные точки спектра λ_n и спектральные параметры ξ_n , σ_n называют спектральными данными квадратичного пучка (1). Восстановление коэффициентов p и q по спектральным данным называется обратной спектральной задачей для квадратичного пучка (1).

Из теоремы 1, в случае π -периодических коэффициентов получим следующие следствия.

Следствие 1. Если в формулах (2) и (5) положим $x = \pi$, и сложим полученные равенства, а также учтем π -периодичность коэффициентов p и q , то выводим, что $\Delta(\lambda)$ не зависит от τ . Отсюда следует независимость от τ спектра квадратичного пучка (1).

Следствие 2. Имеет место равенства

$$\frac{\partial s(\pi, \lambda, \tau)}{\partial \tau} = s'(\pi, \lambda, \tau) - c(\pi, \lambda, \tau), \quad (6)$$

$$\frac{\partial c'(\pi, \lambda, \tau)}{\partial \tau} = [\lambda^2 - q(\tau) - 2\lambda p(\tau)][s'(\pi, \lambda, \tau) - c(\pi, \lambda, \tau)], \quad (7)$$

$$\frac{\partial [s'(\pi, \lambda, \tau) - c(\pi, \lambda, \tau)]}{\partial \tau} = -2[\lambda^2 - q(\tau) - 2\lambda p(\tau)]s(\pi, \lambda, \tau) - 2c'(\pi, \lambda, \tau). \quad (8)$$

Используя формулы (6), (7), (8) и разложение

$$s(\pi, \lambda, \tau) = \pi \prod_{0 \neq k=-\infty}^{\infty} \frac{\xi_k - \lambda}{k} \quad (9)$$

можно доказать следующую лемму (см. [4], стр. 79-82).

Лемма 1. 1) если ξ_n не зависит от τ , то $\lambda_{2n-1} = \lambda_{2n}$;

2) если $\left. \frac{\partial \xi_n}{\partial \tau} \right|_{\tau=\tau_0} = 0$, то при $\tau = \tau_0$ выполняется $\xi_n = \lambda_{2n-1}$ или $\xi_n = \lambda_{2n}$;

3) если $\lambda_{2n-1} < \lambda_{2n}$, то ξ_n при изменении $\tau \in R$ заметает всю лауну $[\lambda_{2n-1}, \lambda_{2n}]$.

Из формулы (9) получим равенство

$$\left. \frac{\partial s(\pi, \lambda, \tau)}{\partial \tau} \right|_{\lambda=\xi_n} = \frac{\pi}{n} \cdot \frac{\partial \xi_n}{\partial \tau} \cdot \prod_{k \neq n, 0} \frac{\xi_k - \xi_n}{k}.$$

Подставляя это в (6) имеем

$$\frac{\pi}{n} \cdot \frac{\partial \xi_n}{\partial \tau} \cdot \prod_{k \neq n, 0} \frac{\xi_k - \xi_n}{k} = s'(\pi, \xi_n, \tau) - c(\pi, \xi_n, \tau). \quad (10)$$

Из тождества

$$[s'(\pi, \lambda, \tau) - c(\pi, \lambda, \tau)]^2 = (\Delta^2(\lambda) - 4) - 4c'(\pi, \lambda, \tau)s(\pi, \lambda, \tau)$$

следует, что

$$s'(\pi, \xi_n, \tau) - c(\pi, \xi_n, \tau) = \sigma_n \sqrt{\Delta^2(\xi_n) - 4}. \quad (11)$$

Из (10) и (11) выводим систему уравнений Дубровина

$$\frac{\partial \xi_n}{\partial \tau} = \frac{\sigma_n \sqrt{\Delta^2(\xi_n) - 4}}{\frac{\pi}{n} \cdot \prod_{k \neq n, 0} \frac{\xi_k - \xi_n}{k}}, \quad n \in Z \setminus \{0\}. \quad (12)$$

Используя разложение

$$\Delta^2(\lambda) - 4 = -4\pi^2 (\lambda - \lambda_{-1})(\lambda - \lambda_0) \prod_{0 \neq k = -\infty}^{\infty} \frac{(\lambda - \lambda_{2k-1})(\lambda - \lambda_{2k})}{k^2}$$

и равенство

$$\text{sign} \left\{ \frac{\pi}{n} \prod_{k \neq n, 0} \frac{\xi_k - \xi_n}{k} \right\} = (-1)^{n-1} \text{sign}(n)$$

систему уравнений Дубровина (12) можно переписать в следующем виде

$$\frac{\partial \xi_n}{\partial \tau} = 2(-1)^{n-1} \text{sign}(n) \cdot \sigma_n \sqrt{(\xi_n - \lambda_{2n-1})(\lambda_{2n} - \xi_n)} \cdot h_n(\xi), \quad n \in Z \setminus \{0\}, \quad (13)$$

где

$$h_n(\xi) = \sqrt{(\xi_n - \lambda_{-1})(\xi_n - \lambda_0) \prod_{k \neq n, 0} \frac{(\xi_n - \lambda_{2k-1})(\xi_n - \lambda_{2k})}{(\xi_n - \xi_k)^2}},$$

$$\xi = (\dots, \xi_{-1}, \xi_1, \dots).$$

Отметим, что в работе [3] система Дубровина выведена другим способом. Здесь мы вывели систему Дубровина, опираясь на идеи Б.М.Левитана для конечнозонных потенциалов.

Система уравнений Дубровина и следующие формулы первого и второго следов

$$p(\tau, t) = \frac{\lambda_{-1} + \lambda_0}{2} + \sum_{0 \neq k = -\infty}^{\infty} \left(\frac{\lambda_{2k-1} + \lambda_{2k}}{2} - \xi_k \right), \quad (14)$$

$$q(\tau, t) + 2p^2(\tau, t) = \frac{(\lambda_{-1})^2 + (\lambda_0)^2}{2} + \sum_{0 \neq k = -\infty}^{\infty} \left(\frac{(\lambda_{2k-1})^2 + (\lambda_{2k})^2}{2} - \xi_k^2 \right) \quad (15)$$

дают метод решения обратной задачи.

Пример 1. Пусть имеются только две непустые лакуны $(\lambda_{-1}, \lambda_0)$ и (λ_1, λ_2) , где $\lambda_{-1} < \lambda_0 < \lambda_1 < \lambda_2$, и спектральные параметры $\xi_1(0) = \lambda_1$, $\sigma_1(0) = +1$. Тогда система (13) и формулы следов (14) и (15) примут вид

$$\frac{d\xi_1}{d\tau} = 2\sqrt{(\lambda_2 - \xi_1)(\xi_1 - \lambda_1)(\xi_1 - \lambda_{-1})(\xi_1 - \lambda_0)}, \quad (16)$$

$$p(\tau) = \frac{\lambda_{-1} + \lambda_0 + \lambda_1 + \lambda_2}{2} - \xi_1(\tau), \quad (17)$$

$$q(\tau) + 2p^2(\tau) = \frac{\lambda_{-1}^2 + \lambda_0^2 + \lambda_1^2 + \lambda_2^2}{2} - \xi_1^2(\tau). \quad (18)$$

Используя начальные условия и $\xi_1 = \xi_1(\tau) \in [\lambda_1, \lambda_2]$, из (16) получим, что

$$\int_{\lambda_1}^{\xi_1} \frac{1}{\sqrt{(\lambda_2 - x)(x - \lambda_1)(x - \lambda_{-1})(x - \lambda_0)}} dx = 2\tau.$$

Если сделать замену переменных $z = \frac{1}{a} \sqrt{\frac{x - \lambda_1}{x - \lambda_0}}$, $a = \sqrt{\frac{\lambda_2 - \lambda_1}{\lambda_2 - \lambda_0}}$, $0 < a < 1$, то последнее

уравнение выглядит следующим образом

$$\int_0^{\frac{1}{a} \sqrt{\frac{\xi_1 - \lambda_1}{\xi_1 - \lambda_0}}} \frac{1}{\sqrt{(1 - z^2)(1 - k^2 z^2)}} dz = \tau \sqrt{(\lambda_2 - \lambda_0)(\lambda_1 - \lambda_{-1})},$$

где $k = \sqrt{\frac{(\lambda_2 - \lambda_1)(\lambda_0 - \lambda_{-1})}{(\lambda_2 - \lambda_0)(\lambda_1 - \lambda_{-1})}}$, $0 < k < 1$. Из определения эллиптической синус-функции

Якоби, отсюда следует, что

$$\frac{1}{a} \sqrt{\frac{\xi_1 - \lambda_1}{\xi_1 - \lambda_0}} = \operatorname{sn}(\tau \sqrt{(\lambda_2 - \lambda_0)(\lambda_1 - \lambda_{-1})}, k).$$

Решая последнее уравнение, получим

$$\xi_1 = \frac{\lambda_1(\lambda_2 - \lambda_0) - \lambda_0(\lambda_2 - \lambda_1) \operatorname{sn}^2(\tau \sqrt{(\lambda_2 - \lambda_0)(\lambda_1 - \lambda_{-1})}, k)}{\lambda_2 - \lambda_0 - (\lambda_2 - \lambda_1) \operatorname{sn}^2(\tau \sqrt{(\lambda_2 - \lambda_0)(\lambda_1 - \lambda_{-1})}, k)}.$$

Из формул следов (17), (18) находим $p(x)$ и $q(x)$.

3. Заключение. В этой работе получены формулы, выражающие производную по параметру от решений квадратичного пучка уравнений Штурма-Лиувилля. Полагая коэффициенты π -периодическими из полученных формул выведены важные тождества для решений. В частности, показана независимость от параметра спектра квадратичного пучка уравнений Штурма-Лиувилля с π -периодическими коэффициентами. Кроме того, выведена система уравнений Дубровина, а также приведен пример иллюстрирующий обратную задачу.

Список использованной литературы:

- (1). Гусейнов Г.Ш. О квадратичном пучке операторов Штурма-Лиувилля с периодическими коэффициентами. "Вестн. Моск. ун-та", сер. 1, мат., мех., 1984, № 3, с. 14–21.
- (2). Гусейнов Г.Ш. Спектр и разложения по собственным функциям квадратичного пучка операторов Штурма-Лиувилля с периодическими коэффициентами. Сб. Спектральная теория операторов и ее приложения, вып. 6, 1985, изд-во «Элм», Баку, с. 56–97.
- (3). Бабажанов Б.А., Хасанов А.Б., Яхшимуратов А.Б. Об обратной задаче для квадратичного пучка операторов Штурма-Лиувилля с периодическим потенциалом. Дифференциальные уравнения, 2005, т. 41:3, с. 298–305.
- (4). Hasanov A.B. Xill tenglamasi uchun teskari masalalar va ularning tatbiqlari. Toshkent, «Turon-Iqbol», 2013, 424 bet.

Ochilov Jamshid Abdurashidovich (O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali direktori; falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

TEXNOGEN SIVILIZATSIYA TARIXIY MEROSIGA VORISLIK VA UNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-DIDAKTIK MUAMMOLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnogen sivilizatsiya tarixiy merosiga vorislik va uni rivojlantirishning pedagogik-didaktik muammolari, xususan texnogen sivilizatsiya, tarixiy meros, vorislik fenomeniga kompleks-sistemali yondashilib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mantiqiy tushunchalar bilan aloqadorlikda falsafiy qonunlar va kategoriyalar konteksida tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** texnogen sivilizatsiya, texnologik madaniyat, texnogen sivilizatsiya globallasuvi, tarixiy qadriyatlar, tarixiy meros, vorislik.*

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ИСТОРИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ТЕХНОГЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ И ПЕДАГОГИКО-ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

***Аннотация.** В статье анализируются педагогические и дидактические проблемы преемственности и развития исторического наследия техногенной цивилизации, в частности феномен техногенной цивилизации, историческое наследие и преемственность в комплексном и системном подходе, в контексте философских законов и категорий, во взаимосвязи с социально-политическими процессами и логическими концепциями.*

***Ключевые слова:** техногенная цивилизация, технологическая культура, глобализация техногенной цивилизации, исторические ценности, историческое наследие, наследование.*

SUCCESSION TO THE HISTORICAL HERITAGE OF TECHNOGENIC CIVILIZATION AND PEDAGOGICAL-DIDACTIC ISSUES OF ITS DEVELOPMENT

***Annotation.** This article analyzes the pedagogical and didactic problems of the succession and development of the historical heritage of technogenic civilization, in particular, the phenomenon of technogenic civilization, historical heritage, and succession in a complex and systematic approach, in the context of philosophical laws and categories in connection with socio-political processes and logical concepts.*

***Keywords:** technogen civilization, technological culture, globalization of technogenic civilization, historical values, historical heritage, inheritance.*

Kirish. Har qanday sivilizatsiyaning muayyan bosqichi o'zidan oldingi bosqichning mantiqiy davomi – vorisi bo'lib, uning yangi rivojlanish darajasini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, biz ko'rayotgan mavzu doirasida ham vorislik “eskilik” va yangilik” o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish jarayonining qonuniyatlarini tahlil qilish masalasi bilan bevosita aloqadordir. “Vorislilik” tushunchasi va uning mazmuniga muqobil falsafiy qarashlar, undagi fikrlar erkinligini, pluralizmni tarixiy hodisalar kontekstida yondashishni taqozo qiladi. Zero, har qanday falsafiy dunyoqarashning vorislilik masalasida muayyan omil rolini yoki manfaatni mutlaqlashtirishi natijasida o'ziga xos ta'limoti shakllangan.

“Vorislilik” atamasining leksik mazmuni ajdodlardan qolgan biror narsa va hodisaga – merosga egalik qilish huquqi ma'nosini anglatadi. Lekin, vorislilikning falsafiy-mantiqiy mazmuni muayyan merosga egalik tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ajdodlardan avlodlarga qoldirilgan moddiy va ma'naviy merosga vorislilik, ularning holatini, individualligini emas, balki jarayonini ham o'z ichiga oladi, ya'ni, faqat egaligini ifodalamasdan uni ijodiy rivojlantirishni, avlodlarga transformatsiya qilishni ham aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda ilmiy va tahliliy metodlar qo'llanildi. Zamona-viy tadqiqotchilarning asarlari va ilmiy maqolalaridan tahlillar uchun foydalanildi. Xususan, B.O.Turayev, G.S.Sultonova, D.M.Bozorov, M.Q.Niyazimbetov, M.X.Ergasheva, I.I.Rizayev, A.T.Kuldoshev, J.A.Ochilov, Z.O.Muminova va X.X.Ashurmatovlarning “Sinergetika-2: nazariya va amaliyot” nomli monografiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 434-qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-81-farmonida belgilangan vazifalar doirasida tadqiqot ishining metodologiyasini boyitishda foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asoslarini obyektivlik, xolislik, ilmiy, tarixiy yondashuv, qiyosiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ontologiya, gnoseologiya va mantiq masalalari bilan tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, texnogen sivilizatsiya tarixiy merosiga vorislik va uni rivojlantirishning pedagogik-didaktik muammolari tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Natija va tahlillar. Tarixiy merosga vorislik fenomenini falsafa fani qonunlari va kategoriyalari tizimi kontekstida tahlil qilish, uning mazmunini, bir tomondan, kompleks-sistemali va izchil yoritishga, ikkinchi tomondan esa funksional konkretlashtirishga xizmat qiladi. Falsafa fani qonunlari tarixiy merosga vorislikning (ijtimoiy jarayon sifatida) ichki dinamik rivojlanish xususiyatlarini, ya'ni, ziddiyatlari xarakteri va manbalarini, harakatlantiruvchi motiv va mexanizmlarini; miqdor va sifat o'zgarishi ko'rsatuichlarini, baholash mezon va me'yorlarini, rivojlanish darajalarini; eskining asosida yangining shakllanish dinamikasini, inkorni inkor xususiyatlarining dialektik aloqadorliklarini aks ettiradi. Tarixiy meros dialektik inkor jarayonida eskini batamom mexanistik tarzda inkor qilish bo'lmasdan, balki uning ijobiy sifatleri shakllanayotgan yangilikning asosini tashkil qiladi.

Falsafa fani kategoriyalari (ayniqsa, juft kategoriyalar) tarixiy meros fenomenining mavjudlik holati, funksional ahamiyatini: mazmuni va shakli, sababi va oqibati, imkoniyati va voqeligi, zaruriyligi va tasodifiyligi, mohiyati va hodisasi, alohidaligi, maxsusligi va umumiyliigi kontekstida kompleks-sistemali, tarixiy-mantiqiy izchil o'rganish tamoyiliga ko'ra, uning barcha ijtimoiy hayot sohalari uchun universaligini asoslaydi. Shu jumladan, masalaga texnogen sivilizatsiya tarixiga vorislik nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, tadqiqot obyektimiz doirasida o'ziga xoslikni umumiylikni namoyon qilishini ko'ramiz.

Eng muhimi, hozirgi davrda fan, texnika, texnologiyaning jadal rivojlanishi va uning salbiy oqibatlari butun insoniyatni tashvishga, tahlikaga solmoqda. Texnogen jamiyatlar texnokratik boshqaruvga o'tib, jonli insonning insonparvarlik g'oyalarini oyoq osti qilish xavfi ham yo'q emas. Bunday sharoitda inson manfaatlarini milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usigina qutqarib qolishi mumkin [1;5-b.].

Hozirgi davrda yoshlarni texnogen sivilizatsiya asosi hamda natijasi bo'lgan texnologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hech kimda shubha uyg'otmaydi. Aksincha, uning istiqbol vazifalarini belgilashda turli faoliyat va kasbiyga ega barcha ijtimoiy tabaqalar xususiyatlarini, manfaatlarini e'tiborga olib tashkil maqsadga muvofiq. Shuning uchun respublikamizda milliy ta'lim-tarbiyani isloh qilishning hozirgi bosqichida texnogen sivilizatsiyani rivojlantirishga doir amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, uning asosiy yo'nalishi sifatida litseylar va kasb-hunar maktablari, kollejlilar, texnikumlari faoliyatlarini ko'rsatish mumkin.

Texnogen sivilizatsiya shaxsning faol hayotiy mavqeini (fuqarolik pozitsiyasini) belgilab berishini e'tiborga olganda, turli ta'lim va tarbiya yo'nalishlariga va jarayoniga bir butun tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq. Chunki ijtimoiy faoliyatning muhim sohasi bo'lgan ta'lim-tarbiya shaxsga, bir vaqtning o'zida, ikki yo'nalishda – ratsional va empirik darajada ta'sir ko'rsatadi, ya'ni, shaxs ijtimoiy faoliyatida empirik va ratsional bilimlarining o'zaro dialektik birligi yotadi. Lekin bu nisbatan mustaqil jarayonlarning har biri shaxs ma'naviy qiyofasi shakllanishida o'ziga xos ta'sir xususiyatlarga ega. Agar texnogen ta'lim yoshlarning intellektual tafakkuri, salohiyati potentsiali shakllanishiga ta'sir ko'rsatsa, tarbiya esa ularning kundalik hayoti tajribalari, malakalari, ko'nikmalari rivojlanishini maqsadga muvofiq yo'naltiradi. Boshqacha qilib aytganda, bir-biridan nisbatan mustaqil shu ikki faoliyat yo'nalishlarining organik birligi shaxs texnologik ongi va madaniyati shakllanishiga asos bo'ladi.

Texnogen ta'lim va tarbiyaning kompleks-sistemaliligi fanlararo yondashuv, integratsion jarayon bilan xarakterlanganligi uchun, insonning shaxs sifatidagi: siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va boshqa jihatlari o'ziga qamrab oladi. Bu falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, biologiya, geografiya va boshqa fanlarning texnogen sivilizatsiyani shakllantirish maqsadi doirasida uyg'unlashtirish zaruriyatini taqozo etadi. Xususan, texnogen ta'lim va tarbiya shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirish jarayonida tabiatshunoslik, texnika va ijtimoiy fanlarni integratsiyalashtiruvchi, umumlashtiruvchi imkoniyat sifatida xizmat qiladi.

Umuman, yoshlarda texnogen ong va tafakkurni tarbiyalash samarasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasi kabi yo'nalishlarining organik bog'lanishlariga bog'liq bo'lib, dolzarbliigi va zaruriyati quyidagi holatlar bilan taqozolangan, ya'ni, birinchidan, hozir kunda texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlari kuchayib va globallashtirib ketayotgan sharoitda, insoniyatni uning eskalatsiyasi tahdididan muhofaza qilish, ayniqsa, "ommaviy madaniyat"ning shaxs marginallashtiruvchiga, ijtimoiy begonalashuviga qarshi kurash zaruriyati bilan belgilanadi; ikkinchidan, texnogen ta'lim-tarbiya har tomonlama garmonik rivojlangan barkamol insonni shakllantirish maqsadlaridan kelib chiqqan bo'lib, uning ratsional-

konstruktiv usul-vositalarini yaratish imkoniyati tarzida qaralishi kerak, uchinchidan, insoniyatning texnogen sivilizatsiyani obyektiv hodisa sifatida e'tirof etishi, uning har qanday oqibatiga "ko'nikish effektini", ma'naviy immunitetini shakllantirishni ta'lim-tarbiyaga mutasaddi mutaxassislarning asosiy missiyasiga aylantirmoqda, to'rtinchidan, hozirgi davrda halqaro munosabatlar integratsiyasining tarixiy rivojlanish tendentsiyasi umuminsoniy-universal demokratik va gumanistik tamoyillarga asoslangan global texnogen ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish g'oyalarini ilgari surmoqda; beshinchidan, milliy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi va yo'nalishi texnogen sivilizatsiya kun tartibiga qo'yayotgan talablar asosida jahon standartlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Texnogen sivilizatsiya inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida texnologik madaniyat ilmiy tamoyillariga, ma'naviy-axloqiy normalariga, asosan, yashashni taqozo qilmoqda. Bu, birinchi navbatda, moddiy ishlab chiqarishning iqtisodiyoti va boshqaruvi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar texnologik madaniyatini: iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, ekologik va boshqa madaniyat yo'nalishlari bilan uzviy integratsiyalashtirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Zero, zamonaviy texnologiyaga oid nazariy bilim beradigan ta'lim tizimining asosiy vazifasi – yoshlarga nafaqat texnologiya madaniyati fani obyekti va predmeti, rivojlanish qonuniyatlari haqida bilim berish, balki insonning texnogen sivilizatsiya makonida yangicha tafakkur tarzini, madaniyatini shakllantirishdan ham iboratdir.

Respublikamizda texnogen sivilizatsiya tarixini konkret sohalar bo'yicha o'rganish asosida mutaxassislarning texnologik madaniyatini shakllantirishga oid qator ilmiy tadqiqotlar, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu, ayniqsa, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan "Ekologiya" fani doirasida ekologik texnologiya madaniyatini shakllantirishga doir o'quv predmetlari va kurslarini o'qitishda yaxshi yo'lga qo'yilgan. "Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi" [2]. Shuningdek, "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" "Tabiatni muhofaza qilish", "Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti", "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish", "Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish" va boshqa mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassis-kadrlar sohalariga oid texnologik madaniyatni ommaga transformatsiya qilishda muhim rol o'ynamoqda.

Oliy o'quv yurtlari talabalar bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida, ilmiy to'garaklari va ixtisoslashtirilgan talabalar ilmiy konstruktorlik byurolari va boshqa bo'linmalarda faol ishtirok etmoqdalar. Bu ilmiy tadqiqot natijalaridan talabalarning nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishida, kurs va malakaviy bitiruv ishlarini, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanilmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-farmoniga muvofiq, "Respublika ta'lim muassasalarida yoshlarning tabiatga bo'lgan mehrini uyg'otish, ularni tabiat himoyachisi sifatida tarbiyalash maqsadida vazirlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga bir qator topshiriqlar berilgan bo'lib" [3], ushbu topshiriqlarning ijrosi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin: "Umumta'lim maktablarining milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan yangi avlod darsliklariga ekologik savodxonligini oshirishga oid jami 132 soat kiritildi. Hozirda 10118 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 31916 ta ekologik-bilogik to'garagi tashkil etilgan bo'lib, ularda 473968 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilingan. To'garaklarda atrof-muhit muhofazasi va chiqindilardan oqilona foydalanish, suv va elektr energiyasidan maqsadli foydalanish kabi mavzularda mashg'ulotlar tashkil etiladi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida 219 ta "Barkamol avlod" bolalar maktablari faoliyat ko'rsatib, ularda 306 ming nafardan ortiq o'quvchilar jalb qilingan. Qolaversa, "Barkamol avlod" bolalar maktablarining 79 nomdagi to'garaklar o'quv dasturlari yangilanib, ekologiya yo'nalishidagi "Yosh ekolog va tabiatshunos", "Floristika va fauna", "Ekodizayn" va "Atrof-muhit muhandisi (injener-ekolog)" to'garaklari o'quv-dasturlari ishlab chiqilib, takomillashtirildi [4]. Ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash maqsadida ham Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) tashkil etildi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: birinchidan, yoshlarni istisnosiz qamrab oluvchi differensiallashgan ta'lim va tarbiya tizimida texnologik madaniyatning dastlabki elementlari, ilk amaliy ko'nikmalari oilada shakllanadi. Ikkinchidan, maktab ta'lim-tarbiyasi jarayonida o'qitilayotgan fanlar yoshlarning texnogen sivilizatsiya, texnologik madaniyat haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarini shakllantiradi. Uchinchidan, ta'lim-tarbiyaning maktabdan tashqaridagi ijtimoiy institutlari texnogen sivilizatsiya oqibatlariga nisbatan fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyati shakllanishida muhim rol o'ynaydi. To'rtinchidan, har bir kishining texnogen sivilizatsiyaini o'stirishda mehnat

jamoasining rolini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Chunki mehnat jamoalari ekologik faoliyatini ishlab chiqarishning muayyan sohalarida namoyon qiladi, ya'ni mehnat faoliyatini ekologiyalashtirish, aynan mehnat jamoalarida sodir bo'ladi. Beshinchidan, ta'lim-tarbiya tizimi shaxsni texnogen sivilizatsiya maqsadiga muvofiq shakllantirish imkoniyatlarini reallashtiradi, uning samaradorligi integratsiyalashuviga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Turayev B.O. va boshqalar. Sinergetika-2: nazariya va amaliyot. Monografiya, Toshkent, «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022, 404-bet.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4354743>
- (3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-farmoni. <https://lex.uz/docs/6479180>
- (4). <https://parliament.gov.uz/oz/articles/1769>
- (5). Ochilov J.A. Global texnogen sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya, Toshkent, "Turon zamin ziyo", 2017, 160-bet.

Xolova Umida (BuxDU tadqiqotchisi; ORCID:0009-0003-3624-3477)

TAMADDUNLAR TARAQQIYOTIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING NAZARIY VA TARIXIY ASOSLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ma'rifat tushunchasi o'z taraqqiyot bosqichida katta tarixiy davrni bosib o'tgan bo'lib, turli tarixiy davrlarda insoniyatning ilm-fanga bo'lgan intilishi va aql-idrok asosidagi taraqqiyoti orqali shakllangan va rivojlanganligi, ma'rifat tushunchasining kelib chiqishiga doir masalalar nazariy, tarixiy asoslari tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** ma'rifat, ma'rifatparvarlik, aql-idrok, ta'lim, tafakkur, g'oya, gumanizm, mukammal jamiyat, qonunlar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОНЦЕПЦИИ ПРОСВЕЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ ЦИВИЛИЗАЦИЙ

***Аннотация.** В данной статье рассматривается концепция просвещения, которая прошла через значительный исторический период своего развития, формировалась и развивалась через стремление человечества к науке и прогресс на основе разума и интеллекта в различные исторические эпохи. Проанализированы теоретические и исторические основы возникновения концепции просвещения.*

***Ключевые слова:** просвещение, просвещение, разум, образование, мышление, идея, гуманизм, совершенное общество, законы.*

THE THEORETICAL AND HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF ENLIGHTENMENT IN THE DEVELOPMENT OF CIVILIZATIONS

***Annotation.** This article discusses the concept of enlightenment, which has passed through a significant historical period of development, shaped and evolved through humanity's striving for science and progress based on intellect and reason in various historical periods. The theoretical and historical foundations of the emergence of the concept of enlightenment are analyzed.*

***Key words:** Enlightenment, enlightenment, intelligence, education, thinking, idea, humanism, social contract, perfect society, laws.*

***Kirish.** "Ma'rifat" so'zi arab tilidagi "arafa" ("bilmoq") so'zi o'zagidan yasalgan bo'lib "bilmoq", ma'nosini beradi. "مَعْرِفَةٌ" ("ma'rifatun") so'zi "bilish", "anglash" yoki "idrok etish" ma'nolarini ham anglatadi. Ma'rifat, tushunchasi diniy va ma'naviy bilimlarni ifodalashda ko'proq qo'llanilgan. Ya'ni, Alloh ma'rifatini anglash, Zot ma'rifatini tanish nuqtayi nazaridan ishlatilgan.*

***Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ma'rifat ma'naviy qaramlikdan chiqarib, insonga kuch-qudrat ilm, bilim beradi. Ma'rifatparvarlik harakati esa Renessans va islohot bilan boshlangan ijtimoiy va fikriy g'oyalarning amalda qo'llanilishini va har bir insonning bunga rioya qilish majburiyatini namoyon etishga urinishidir.¹ Undan tashqari, Abu Homid G'azzoliy ma'rifatga quyidagicha ta'rif bergan: "Ma'rifat" so'zining istilohiy ma'nosi maxsus lug'at kitoblarida "Yaratuvchini tanimoq, anglamoq" deya ta'riflangan.*

¹ Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir, 2006, s. 8.

Hikmatga ko'ra, Yaratuvchini tanish o'zining maqsadi Haqni tanish bo'lgan inson, avval, o'zini tanimog'i lozim.¹ Ma'rifatparvarlik harakatining asosini esa ma'rifatni targ'ib qilish va jamiyatni rivojlantirish maqsadida ilm-fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga bo'lgan intilish, harakat tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, matiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, qo'lyozma manbalarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

Talqin va natijalar. Ma'rifat tushunchasi o'zining kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonida bir qancha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tushuncha tarixan turli madaniyatlar va falsafiy an'analar orqali shakllangan. Quyida esa ma'rifat tushunchasining kelib chiqishi va qo'llanilish davrlariga doir ba'zi asosiy qarashlarni tasniflash mumkin:

1. Arab tilidan kelib chiqishi. "Ma'rifat" so'zi arab tilidagi "ma'rifah" (معرفة) so'zidan olingan bo'lib, bu so'z "bilish", "anglash" yoki "idrok etish" ma'nolarini anglatadi. Arab tilida ma'rifat, asosan, diniy va ma'naviy bilimni ifodalashda qo'llanilgan.

2. Qadimgi yunon falsafasi. Ma'rifat tushunchasining rivojlanishida qadimgi yunon falsafasi ham muhim rol o'ynagan. Platon va Aristotel kabi faylasuflar bilish va haqiqatni anglash masalalarini o'rganib, ma'rifatni insonning eng oliy maqsadi deb bilishgan. Aynan Platon ham o'z davrida donolik, aql-idrokka asoslanib, boshqarilgan davlatni mukammal tuzilishga ega deya ta'kidlagandi. Platon donolik deganda oddiy bilimni emas, balki eng oliy bilimni, ya'ni, davlatni boshqarish, uning ichki ishlarini yo'naltirish va tashqi munosabatlarini to'g'ri amalga oshirish qobiliyatini tushunadi.²

3. O'rta asrlarda rivojlanish. O'rta asrlar davomida musulmon olimlar, masalan, Ibn Sino, Al-Forobiy va Al-G'azzoliy kabi mutafakkirlar ma'rifat tushunchasini yanada rivojlantirgan. Ular aql, ilm va tajriba orqali ma'rifatga erishishning muhimligini ta'kidlagan. Bu davrda ma'rifat, ko'pincha, ilm-fan va din o'rtasidagi bog'liqlik sifatida ko'rilgan. Abu Homid G'azzoliy ma'rifatga quyidagicha ta'rif bergan: "Ma'rifat" so'zining istilohiy ma'nosi maxsus lug'at kitoblarida "Yaratuvchini tanimoq, anglamoq" deya ta'riflangan. Hikmatga ko'ra, Yaratuvchini tanish o'zining maqsadi Haqni tanish bo'lgan inson, avval, o'zini tanimog'i lozim.³ Sharq falsafasining o'ziga xos jihatlaridan biri bu ma'rifat tushunchasining Allohni tanish, anglash ma'nolarida qo'llanilishidir.

4. Ma'rifatparvarlik davri. XVIII asrda Yevropada ma'rifatparvarlik (Enlightenment) davri boshlandi. Bu davrda ma'rifat tushunchasi aql va ilmiy bilimlar orqali jamiyatni rivojlantirish g'oyasi bilan bog'langan. Ma'rifatparvarlar bilish va tafakkur orqali ijtimoiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga intilganlar.

5. Zamonaviy tushuncha. Bugungi kunda "ma'rifat" tushunchasi zamonaviy bilim, ta'lim va ma'naviyat bilan bog'liq holda tushuniladi. U nafaqat diniy yoki falsafiy kontekstda, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Ma'rifat insonning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga, bilimga intilishiga va boshqalar bilan aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. "Ma'rifat" so'zi, ko'pincha, bilim va aql-idrok orqali o'zini va atrof-muhitni anglash, chuqur tushunish jarayonini bildiradi.

Ma'rifat tushunchasining qamrovi keng bo'lib, quyida esa uning mohiyatini to'liq ochib beruvchi asosiy jihatlar:

1. Bilim va ilm. Ma'rifat – bilim olish, ilm-fan bilan shug'ullanishni anglatadi. Bu ma'noda ma'rifat ilmiy va madaniy taraqqiyot bilan bog'liq. Ma'rifat ilmiy va madaniy taraqqiyot uchun juda muhim hisoblanadi, chunki u bilim va anglash darajasini oshirib, insoniyat rivojiga katta hissa qo'shadi. Ma'rifat orqali insonlar ilmiy yangiliklarni yaratish va kashfiyotlar qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiradi. Ilm-fan sohasida ma'rifat olamni chuqur tushunish va tahlil qilishga imkon beradi.

2. Anglash jarayoni. Insonning o'z aql-idroki va tajribasi orqali dunyoni tushunishi va anglash jarayonini ifodalaydi. Ma'rifatta anglash jarayoni inson ongining bilim va tushuncha shakllanishi jarayonini anglatadi. Bu jarayon davomida inson atrofidagi olamni bilib olish, turli ko'rinishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan ma'lum bir ma'noni chiqarib olishga harakat qiladi. Anglash jarayonida idrok qilish, tushunish, tahlil qilish va turli xil mulohazalarga asoslangan xulosalar chiqarish kabi faoliyatlar ishtirok etadi.

3. O'rganish va o'zlashtirish. Ma'rifat, ko'pincha, bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish jarayoni sifatida ham talqin qilinadi. Bu jarajonda o'rganilgan bilimlar hayotga tatbiq etiladi.

¹ A.H.G'azzoliy. Ihyou ulumid din. T., "Matbaachi", 2024, 3-bet.

² Платон. Государство. М., "Академический проект", 2015, с. 380.

³ A.H.G'azzoliy. Ihyou ulumid din. T., "Matbaachi", 2024, 3-bet.

4. Ma'naviy yuksalish. Ko'plab holatlarda ma'rifat nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ma'naviy o'sishni ham anglatadi. Bu insonning ma'naviy jihatdan boyishi, o'zligini anglash va axloqiy tamoyillarni tushunish jarayonini bildiradi. Shuningdek, "ma'rifat" so'zi keng ko'lamli lug'aviy ma'nolarga ega bo'lib, ilm-fan va madaniyatdan tortib, ma'naviy-axloqiy jarayongacha bo'lgan tushunchalarni qamrab oladi.

Ma'rifatparvarlikning qamrov doirasi yuqori bo'lib, nafaqat ilm-fan jarayonlarini, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatlarini ham qamrab olishi bilan tavsiflanadi:

1. Ma'naviyat va axloqning rivojlanishi. Ma'rifatparvarlik faqat bilim olishni emas, balki axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashni ham targ'ib qiladi. Ma'rifatparvarlar insonni har tomonlama kamolga yetkazishni, ya'ni, nafaqat aqliy, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham rivojlanishni ta'minlashni o'z oldlariga maqsad qilib qo'ydilar. Ular odamlarga halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyat va ijtimoiy burch kabi fazilatlarini singdirishga harakat qildilar.

2. Madaniy uyg'onish va milliy o'zlikni anglash. Ma'rifatparvarlik milliy madaniyatni qayta tiklash va mustahkamlash yo'lida katta o'rin tutdi. O'z tarixini va madaniyatini bilish orqali xalq o'zligini anglab, o'z madaniy merosini qadrlay boshladi. Bu esa milliy uyg'onish va mustamlakachilikka qarshi harakatlar uchun zamin yaratdi.

3. Til va adabiyotning roli. Ma'rifatparvarlar adabiyotni keng qatlamlarga yetkazish orqali ma'rifat tarqatishni ko'zladilar. Tilni rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida ular asarlar yozib, ularni xalq tilida chop etishga harakat qildilar. Shuning uchun ham ular milliy til masalalariga juda katta e'tibor bilan qaradilar. Zotan, Fitrat ta'kidlagandidek, dunyoni eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili yana xud turkchadir.¹ Ma'rifatparvarlarimiz aynan ana shu holatdan, tilimizni qutqarib, tilimiz sofligini saqlashga harakat qilib, milliy tilimizni qayta shakllantirishga harakat qilganlar.

4. Innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar. Ma'rifatparvarlik nafaqat ta'lim va adabiyotga e'tibor qaratgan, balki zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni jamiyat hayotiga joriy etishni qo'llab-quvvatlagan. Ular ilm-fanning yutuqlarini qabul qilish va hayotda tatbiq etish orqali jamiyatni oldinga siljishga intilganlar.

5. Ommaviy ta'lim va bilimning keng tarqalishi. Ma'rifatparvarlar jamiyatning har bir a'zosi ta'lim olish imkoniyatini yaratishga intilganlar. Ular faqat boylar va aristokratlar emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga bilim olish huquqini berishga harakat qilganlar. Shu sababli ko'p joylarda yangi maktablar, kutubxonalar va ilmiy markazlar ochilgan. Zotan, mashhur ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limga mohir olim va olim, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartibli bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamonaga muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartibli "Dorulyatim"–yetimxonalar, "Dorulojizim"–kambag'alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkatlar barpo qilinsa, yuqorida dedigimiz kabi, xalqimiz orasida zamonaga loyiq ulum va fu-nundan boxabar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlang'on hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulub, sohili salomatga chiqq'on bo'lur eduk. Sohili salomatga chiquvimizga zamon musoid verurmi, vermasmi bilmaymiz,²deya ta'kidlagan fikri bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Hamma davrda ham ilm – fan, ma'rifat masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmaydi va jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuch bo'lib qolaveradi. Ma'rifat nafaqat diniy yoki milliy boylik, balki global ilmiy va madaniy taraqqiyotning asosi sifatida qadrlanadi. Umuman olganda, ma'rifat tushunchasi insoniyatning bilishga, rivojlanishga va komillikka intilishi natijasida shakllangan va turli davrlar hamda madaniyatlarda yangicha ma'nolar bilan boyib kelgan.

Xulosa. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ma'rifat juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'rifat zamonaviy Yangi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy va madaniy rivojlanishida, yosh avlodni tarbiyalashda va bilimli hamda yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, o'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar ma'rifatning muhimligini yana bir bor namoyon etadi. Ma'rifatdan uzoqlashgan jamiyatning halokati muqarrar. Bugun o'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab jahon hamjamiyatiga o'zining boy tarixi, ma'naviy xazinasi bilan qo'shilayotgan ekan, bu yo'nalishda ma'rifat-

¹ <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-tilimiz-1919/>

² A.Avloniy. Madaniyat to'lqunlari. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/abdulla-avloniy.html>

ning salmog'i beqiyos. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo'lish orqali o'zlikni anglash va rivojlanishning o'ziga xos yo'li shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatparvarlik—bu muayyan tarixiy davrning feodallikka qarshi yo'nalganligi, intilishi bilan xarakterlanadigan mafkuraviy oqimi ijtimoiy adolatsizlikni, cherkov jaholatini, falsafiy mistitsizmni tag-tomiri bilan yo'q qilish tarafdorlari bo'lgan. Ma'rifatchilik kengroq tushuncha bo'lib, u, o'z navbatida, uning tarkibiy qismi bo'lgan ma'rifatning o'zini ham o'z ichiga oladi.¹

Xaitov Lazizbek Azamatovich (BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)
HAKIM TERMIZIY MA'NAVIY MEROSINING TASAVVUFIIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Hakim Termiziy ma'naviy merosidagi “Buduvvu sha'n Abu Abdulloh Termiziy” (“Hakim Termiziy yo'lining boshlanishi”), “Adabun nafs” (Nafs odobi), “Riyozatun nafs” (Nafs riyozati), “Xatm ul-avliyo” (Valiylar muhri), “Ma'rifat ul-asror”, “Manozil ul-ibod min al-iboda” (Bandalarning bandachilikdagi manzillari), “Bayon ul-kasb” (Kasb-tirikchilik bayoni) kabi asarlaridagi tasavvufiy-falsafiy g'oyalari tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: falsafa, tasavvuf, nafs tarbiyasi, gnoseologiya, ilm, ma'rifat, bilim, hikmat, donishmandlik, inson, ontologiya, akmeologiya, valiylik (valoyat), rizq va kasb.

Хайтов Лазизбек Азаматович (Бухарский государственный университет, доцент кафедры “История ислама и источниковедение, философия”, доктор философии по философским наукам (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ХАКИМА ТЕРМИЗИ

Аннотация. В данной статье проведен анализ суфийско-философских идей великих мыслителей, таких как Хаким Термизи, в его духовном наследии, включая работы: “Будувву ша'н Абу Абдуллох Термизи” (“Начало пути Хакима Термизи”), “Адабун нафс” (“Одевание души”), “Рийозатун нафс” (“Усилия души”), “Хатм уль-авлийо” (Печать святых), “Ма'рифат уль-асрар” (“Познание тайн”), “Манозиль уль-ибод мин аль-ибода” (“Адреса поклоняющихся рабов”), “Баян ул-касб” (“Пояснение о средствах существования”).

Ключевые слова: философия, суфизм, воспитание души, gnoseология, знание, познание, мудрость, разумность, человек, онтология, акмеология, святительство (валият), удел и средства существования.

Xaitov Lazizbek Azamatovich (Bukhara state university, associate professor of the chair of “History of Islam and source studies, philosophy”, Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SPIRITUAL LEGACY OF HAKIM TIRMIZI

Annotation. This article provides an analysis of the Sufi-philosophical ideas of great thinkers, such as Hakim Tirmizi, within his spiritual legacy, including the following works: “Buduwu sha'n Abu Abdulloh Tirmizi” (“The Beginning of the Path of Hakim Tirmizi”), “Adabun nafs” (“The Clothing of the Soul”), “Riyozat un-nafs” (“The Efforts of the Soul”), “Khatm ul-awliya” (“The Seal of the Saints”), “Ma'rifatul asrar” (“Knowledge of the Secrets”), “Manazil ul-ibad min al-ibad” (“The Stages of the Servants' Worship”), “Bayan ul-kasb” (“Explanation of the Means of Subsistence”).

Keywords: philosophy, Sufism, soul cultivation, epistemology, knowledge, gnosis, wisdom, reason, human, ontology, acmeology, sainthood (wilayah), sustenance and livelihood.

Kirish. Jahon ilm-fanida, xususan, yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlarida Sharq mutafakkirlari ilmiy, falsafiy merosining qiyosiy tahlili asosida ma'rifatli zamonaviy shaxsni tarbiyalash, inson borlig'i, axloqiy poklik, hayotning ma'nosini anglash, ma'naviy kamolotga erishish, ilm va hunarga ega bo'lish, insonni ezgu faoliyatga yo'naltirishga oid qator fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan Hakim Termiziyning inson kamolotiga oid tasavvufiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ilm, ma'rifat, yaxshi xulq, hikmatni anglashga oid g'oyalarning insonparvar maqsadlarga asoslanganligini falsafiy-tarixiy tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Hakim Termiziy (820–932) “Hakim ul-avliyo” (Valiylar hakimi), “Qudvat ulavliyo” (Avliyolar mayog'i), “Mashoyixi kibor” (Ulug' shayx), “Olimi usuli ad-din” (Din usuli olimi), “Ash-Shayx” (Alloh ilmi bilimdoni), “Al-Alloma Sayyid” (Payg'ambar avlodlari), “Muhaddis” (Hadisshunos), “Az-Zohid” (Din-

¹ Д.Ш.Цырендоржиева, А.Ц.Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты “Вестник Бурятского государственного университета”, 14/2013, с. 35.

ning targ'ibotchisi), "Al-Hofiz" (Qur'onxon), "Al-Imom" (Hazrati Ali avlodlari), "Al-Orif" (Allohni tanigan), "Al-valiy" (avliyo, Allohning do'sti), "Al-Muazzin" (Azon aytuvchi), "Xoja" (Choriyorlar avlodi), "Mufassir" (Tafsirchi), "Al-Hakim" (Ilmning ichki sirlarini biluvchi), "Al-Olim", "Tabib", "Mintaqa tasavvufining otasi" kabi unvonlar bilan ulug'langan mutafakkirdir [1;6-b.].

Mutassavifning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy bo'lib, U Hakimiya ta'limotining asoschisidir. Hakim at-Termiziy o'z asarlarida islom tarixi, ta'limoti, tasavvuf nazariyasi, hadis ilmi, axloq-odob, turli tariqatlar haqida beqiyos mulohazalarini bayon etgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. Hakim Termiziyning ilmiy-ma'naviy merosidagi "Buduvvu sha'n Abu Abdulloh Termiziy" ("Hakim Termiziy yo'lining boshlanishi"), "Adabun nafs" (Nafs odobi), "Riyozatun nafs" (Nafs riyozati), "Xatm ul-avliyo" (Valiylar muhri), "Ma'rifatul asror", "Manozil ul-ibod min al-iboda" (Bandalarning bandachilikdagi manzillari), "Bayon ul-kasb" (Kasb-tirikchilik bayoni) kabi asarlaridagi tasavvufiy-falsafiy g'oyalari tahlili amalga oshirilgan [7;160-b.]. Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germenevtik tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Hakim Termiziy islom va tasavvuf falsafasining qator sohalarida ijod qilgan bo'lishiga qaramay, fanning, ayniqsa falsafa ilmi bilan ham shug'ullangan va o'zidan boy ma'naviy meros qoldirgan. Uning asarlarida qator falsafiy yo'nalishlar axloqshunoslik, antropologiya, gnoseologiya, aksiologiya, ontologiya, estetikaga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Bizning tadqiqotimizda Hakim Termiziyning "Buduvvu sha'n", "Adab un-nafs" (Nafs odobi), "Riyozatun nafs", "Navodir ul-usul", "Kasb-tirikchilik bayoni" (Bayon ul-kasb), "Masoil al-Maknuna", "G'ovr ul-umur", "Ma'rifat ul-asror", "Masoil ahli saraxs", "Al-imsol minal kitob sunna", "Bayonul farq", "Manozil ul-ibod min al-iboda" (Bandalarning bandachilikdagi manzillari), "Xatm ul-avliyo" kabi asarlari tahlil etilib, mutafakkirning tasavvufiy falsafiy g'oyalarini yoritishda ushbu asarlar metodologik ahamiyat kasb etishini tadqiqotlar asosida aniqladik:

"Buduvvu sha'n Abu Abdulloh Termiziy" ("Hakim Termiziy yo'lining boshlanishi") asari Hakim Termiziyning o'z hayot yo'li haqida o'zi yozib qoldirgan avtobiografik asari bo'lib, unda, asosan, o'zining ruhiy kechinmalari va hayotida sodir bo'lgan ba'zi faktlarni zikr etadi. Shuningdek, mazkur asar Hakim Termiziyning tarjimai holiga o'xshasa ham, unda majoz kuchli, ramziy holatlarga ko'proq urg'u beriladi. "Buduvvu sha'n"da shaxs holatlari va nafsga qarshi kurash bilan bog'liq hodisalar yetakchi o'rinda turadi. Allomaning hayoti va ilmiy ijodiy faoliyati haqida tarixiy asarlar va qomuslarda afsuslanarli darajada juda ham oz ma'lumotlar keltirilgan. Shu sababli ham tadqiqotimizda mutafakkirning hayot yo'li haqida o'zi yozib qoldirgan ma'lumotlariga tayanildi [2;25-42-b.].

Hakim Termiziy o'zining "Adab un-nafs" (Nafs odobi) asari nafs tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarini o'z ichiga olgan, nafs odobi haqidagi asar, ya'ni odob bu hol, ma'lum ma'noda nazariyadir. Asarda, avvalo, hayot, inson omili, nafs, qalb, aql va havo bahsi tevaragida, so'ng inson botinidagi nafs masalasi, unga qarshi kurash, uning odobi, nafsning zohiriy va botiniy alomatlari xususida fikr yuritadi. Asar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning tadqiqotlari markazida inson turadi. Mutasavvifning "Adabun nafs" (Nafs odobi) asari antropologik, gnoseologik va ontologik masalalarga bag'ishlangan, Hakim Termiziy nafs masalasini tahlil qilishda nafsni bilish (gnoseologiya), nafs inson borlig'ining muhim tomoni (ontologiya), nafsni tarbiyalashning axloqiy kamolotdagi o'rni (akmeologiya) masalalariga e'tibor qaratgan [2;56-b.].

Asarda inson va uning shaxsiyati tahlil qilinib, avvalo, insonning tabiiy (biologik) xususiyatlari tekshirilib, so'ngra islomiy omillarni (shar'iy matn va ahkomlar) keltirishga o'tiladi. Bunda ushbu omillarning insoniy fitratga nechog'lik muvofiqligi va unga bo'lgan turli ta'sirlari o'rganilgan.

"Riyozat un-nafs" (Nafs riyozati) asari Hakim Termiziyning "Adabun nafs" risolasining mantiqiy davomi yoki uning uzviy qismi deyish mumkin. Mazkur asar ruh tarbiyasiga oid asarlar orasida muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda Hakim Termiziy barcha narsani insonning ichki dunyosiga qalbi, nafs, aqli va ruhiyati, ya'ni asllarga qaytargan holda tushuntiradi. Bu asarda nafs riyozati mavzusi asosiy masala bo'lib, inson nafsini jilovlash uchun lozim bo'lgan usul va vositalar keltirilgan [2;246-b.].

"Xatm ul-avliyo" (Valiylar muhri) asari mutasavvifning tasavvuf nazariyasiga oid valiylik (valoyat) masalasiga bag'ishlangan. Mutasavvif tasavvuf nazariyotchilari orasida birinchi bo'lib valiylik haqidagi qarashlarini bir tizimga solish orqali tasavvufdagi valiylik haqidagi g'oyalarni ishlab chiqqan va valiylik nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. "Xatm ul-avliyo" asari muqaddima va 29 bobdan iborat bo'lib, o'rtaga tashlangan masalalar savol-javob shaklida bayon etilgan [3;18-b.]. Ya'ni, shogirdning savollari va ustozning unga bergan javoblari ko'rinishida yozilgan. Asarda tasavvuf tarixida birinchi marta avliyolik darajalari xatm-ul anbiyo va xatm ul-avliyo mavzulari tahlil etilgan. Shuningdek, asarda valoyatning o'n

xususiyati, avliyolik alomatlari, vahiy, ilhom, karomat, farosat, qurb kabi masalalar Qur'on va Hadisdan keltirilgan dalillar asosida yoritilgan. Hakim Termiziy "Xatm ul-avliyo" asarida nabiylilik, valiylik masalalarini o'rtaga tashlab, ilmiy-nazariy jihatdan asoslab, tasavvuf ta'limotining muhim mavzularidan biriga aylantirgan bo'lsa, keyingi davr olimlari Abulhasan Hujviriy, Abu Homid G'azzoliy, Ibn al-Arabi, Bahouddin Naqshbandlarning asarlarida bu mavzu tasavvufdagi komil inson haqidagi mukammal va tizimli ta'limotni yuzaga kelishiga zamin yaratgan.

Nafs va qalb tarbiyachisi valiyulloh Hakim Termiziy o'zining "Ma'rifat ul-asror" kitobida tasavvuf doirasidagi ibora va so'zlarning sirlarini ochib, ularni qanday ma'nolarga dalolat qilishi haqida tadqiqotlar olib borib, chuqur ilmiy mushohadalar asosida bayon qilgan. "Ma'rifat ul-asror" (Sirlar ma'rifati) asarida "shukr", "sabr", "rizo", "vara" kabi tasavvuf shayxlari orasida muomalada bo'lgan istilohlar haqida so'z yuritib, ularni sharhlab, izohlar bergan. Bu manba bizga Movarounnahr va Xuroson mintaqasi tasavvufida muomalada bo'lgan istilohlar, ularning o'z davrida anglatgan ma'nolari haqida mufassal ma'lumot beradi. "Ma'rifat ul-asror" asari tasavvuf ilmi tadqiqotchilari va tasavvuf ta'limoti va falsafasiga qiziquvchilar uchun juda foydali manbadir [4;69-b.].

"Manozil ul-ibod min al-iboda" (Bandalarning bandachilikdagi manzillari) asari ham tasavvuf falsafasiga bag'ishlangan. Hakim Termiziy bu asarida bandalarning ma'naviy kamolot manzillarini ta'riflab, inson kamolotining asosi bo'lgan "tavba" manzilidan to "qurbat" (Haqqa yaqinlik) manziliga qadar yetti manzilning xususiyatlari, talablari va ahamiyatini bayon qilgan. Bu asarni komil inson tarbiyasiga oid asarlar sirasiga kiritsak ham aslo mubolag'a bo'lmaydi. Dunyo manzillarini har qanday inson kezishi mumkin, ammo bandachilik manzillarini kezish faqat xos kishilarga nasib etadi. Ma'naviy manzillarni kezish uchun ilm, adab, ixlos, e'tiqod, muhabbat, sadoqat, axloq kabi fazilatlar hamda yo'l ko'rsatuvchi bir murshid (pir)i komilga bog'liq, deb hisoblagan [5;64-b.].

"Bayon ul-kasb" (Kasb-tirikchilik bayoni) risolasida Hakim Termiziyning rizq va kasb haqidagi g'oyalari asoslab berilgan [2;348-b.]. Haqiqiy inson mehnat qilib, halol kasbi-rizq-u ro'zisini topishi lozim degan bunyodkor g'oyani ilgari surgan. Hakim Termiziyning halol kasb va halol rizq haqidagi g'oyalari, keyinchalik, Xojagon va Naqshbandiya ta'limotiga ijobiy ta'sir etgan [6;160-b.].

Demak, tadqiqotimiz doirasida, Hakim Termiziy asarlaridagi quyidagi masalalar: inson kamolotida ma'naviy manzillarning ahamiyati, insonning o'zligini anglashi masalasi, qalb, qalbning pokligi, nafs, nafs tarbiyasi, halol mehnat, halol rizq kabi masalalar keng yoritilgan. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shuni qayd etib o'tish lozimki, Hakim Termiziy o'ziga xos ta'limot va maktabga ega bo'lgan mutasavvif sifatida e'tirof etilgan.

Xulosa. Hakim Termiziy Movarounnahr va Balx ijtimoiy-madaniy, ma'naviy hayotida ilm-fan rivojlanish pallasiga kirgan bir davrda yashab ijod qilgan. O'z davrining buyuk mutafakkiri bo'lganligi uchun Hakim nomi bilan ulug'lanib, Hakimiya ta'limotini asosladi. Olim o'zi yashagan davr ta'limotlarini chuqur o'rgangan. Hakim Termiziyning boy ilmiy-ma'naviy merosi Qur'on, hadis, fiqh, kalom, islom falsafasi, tasavvuf tarixi va nazariyasiga asoslangan. Hakim Termiziyning ma'naviy merosi keyingi davrlarda vujudga kelgan qator tariqatlar, ta'limotlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Allomaning tasavvufiy-falsafiy qarashlari Ibn Arabiy asarlari uchun asos bo'lgan. Shuningdek, Hakim Termiziy Bahouddin Naqshband kamolotiga bevosita ta'sir etgan va Naqshbandiya ta'limotining valoyat tushunchasining shakllanishiga ta'sir etgan ulug' va mo'tabar zotdir.

Yangi O'zbekistonda Hakim Termiziy ma'naviy merosini o'rganish, mutasavvif merosi asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1) Hakim Termiziy ma'naviy merosining inson kamolotidagi. Monografiya, Xaitov Lazizbek Azamatovich, "Bukhara Hamd Print" nashriyoti, Buxoro, 2023, 6-bet.

(2) Мухаммад Ҳақим Термизий рисолалари. Будувву шаън Абу Абдуллоҳ Мухаммад ал-Ҳақим ат-Термизий. Адаб ун-нафс. Риёзат ун-нафс. Баён ул-касб. Таржимон Ж.Чўтматов. Тошкент, "Movarounnahr", 2017, 25–42-бетлар.

(3) Ал-Ҳақим ат-Термизий. Хатм ул-авлиё .Валийлар муҳри. Таржимон Раҳимов К. Тошкент, "Noshir", 2017, 308-бет.

(4) Абу Абдуллоҳ Мухаммад ибн Али Ҳақим Термизий. Маърифат ул-асрор (Сирлар маърифати). Таржимон Абдулҳамид Мухаммад Турсунов. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2017, 69-бет.

(5) Абу Абдуллоҳ Мухаммад ибн Али Ҳақим Термизий. Мўминларнинг ибодатдаги даражалари (Манозил ул-ибод мин ал-ибода). Таржимон Абдуқаҳор Шоший. Ўзбекистон мусулмонлари идораси. Тошкент, "Movarounnahr", 2017, 64-бет.

(6). Abu Abdulloh Muhammad ibn Aliy ibn Hasan Hakim Termiziy. Saraхs axli sўragan masalalar. Kasbning ba'ni. Tarjimon shayх Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Toshkent, "Hilol", 2019, 160-bet.

(7). Oriqlar tasallisi. Hakim Termiziy asarlaridan сайланма. Tarjimon И. Усмонов ва бошқ; Тошкент, "Movarounnahr", 2018, 247-bet.

Karayev Nizam Abduraimovich (O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi; Karayev@inbox.ru)

AXLOQIY MADANIYATNING MOHIYATI VA MAZMUNI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada axloqiy madaniyatning mohiyati va mazmuni yoritilgan. Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo'ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yig'indisidir. Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o'z tajribasi orqali erishgan natijalaridir.*

***Kalit so'zlar:** axloq, xulq, me'yor, hatti-harakat, qoida, ong, tafakkur.*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ

***Аннотация.** В данной статье описывается сущность и содержание нравственной культуры. Нравственная культура проявляется в человеке через его поведение. Поведение – это совокупность нравственных действий, определяемых разумом и волей людей. Правила нравственной культуры являются результатом многовекового человеческого опыта.*

***Ключевые слова:** мораль, поведение, норма, поведение, правило, сознание, мышление.*

ESSENCE AND CONTENT OF MORAL CULTURE

***Annotation.** This article discusses the essence and content of moral culture. Moral culture is manifested in a person through his behavior. Behavior is the sum of moral actions determined by the consciousness and the will of people. The rules of moral culture are the results achieved by humanity through its own experience over the centuries.*

***Keywords:** morality, behavior, norm, behavior, rule, consciousness, thinking.*

Kirish. Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo'ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yig'indisidir. Kishilarning xulqi jamiyatda axloqiy madaniyatlarni shakllantirish, jamiyatning axloqiy muhitini yaratishda katta rol o'ynaydi. Xulqqa xos xususiyat elementi axloqiy xatti-harakatdir. Xatti-harakat kishining ijobiy yoki salbiy xislatlarini namoyon etadigan faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, xatti-harakat kishining ongli yo'naltirgan va yakunlangan harakati yoki faoliyatidir. Xatti-harakatlar to'g'ridan to'g'ri faoliyat qilishdangina iborat emas. Ular faoliyatsizlik – sukut, passivlik, loqaydlik yoki imo-ishora, qiliq, ohang tarzidagi munosabatlarda ham ifodalinishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods). Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalari hikmatlar, naqlar, matal-maqollar tarzida bayon etiladigan, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadigan, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradigan me'yorlardir [1]. Zero, insonning har bir xatti-harakati va niyati uning axloqiy madaniyatiga tegishli bo'lib, unda muayyan ijobiy faoliyat bilan birga, ezgulik va nafosat xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Ma'lumki, kishilik jamiyati doimo taraqqiyotda ekan, uning axloqiy madaniyatga oid qarashlari ham doimo o'zgarib, rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ham o'zgarib rivojlanib boraveradi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik - xushhulqlilikka, xushhulqlilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo'lga qo'yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan – badxulqlilikka, badxulqlilikdan – axloqsizlikka o'tishi mumkin.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasi "axloq insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur" degan so'zlar bilan boshlanadi [2]. Shuningdek, Avloniy "axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur" degan ifodalarni keltirib axloqiy madaniyatga urg'u beradi [3].

Shaxsning xulqida uning o'z-o'zini anglashi, mavjud ijtimoiy muhitining axloqiy talablari haqida tasavvurga ega bo'lishi ham muhimdir. Biroq xulq normalari haqidagi tasavvurlar, bilimlar bilangina kishilar xush axloqli bo'lib qolavermaydi. Axloq kodeksini yodlash bilan ish bitmaydi, balki shu xulq qoidalari chinqilgiga, zarurligiga chuqur ishonch bo'lish kerakki, ular kishilarning faoliyatida, xatti-hara-

katida o'zining amaliy ifodasini topmog'i lozim.

Natijalar (results). Kishi biron yaxshi axloqiy xatti-harakatni bajarishi uni axloqiy madaniyatini belgilamaydi. Qachonki o'sha fazilatli xulq vositasi uning xarakteridagi doimiy belgiga aylangan chog'dag u axloqiy madaniyatli bo'la oladi [4].

Shunday ekan, har qanday xatti-harakat xulq va faoliyat axloqiy madaniyatga oid bo'lavermaydi. Axloqiy madaniyat deganda shaxsning boshqa kishilarga muayyan munosabati ifoda qilinadigan xatti-harakatlari va xulqi ko'zda tutiladi. Bunda, albatta, shaxsda ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar uyg'unligi, jamiyatga ongli munosabatda bo'lishi, xulqida axloqiy motiv, nihoyat, axloqiy xatti-harakatning zaminida ma'lum darajada erkinlik, tanlash erkinligi bo'lishi lozim. Axloqiy madaniyat onglilik, ijtimoiylik va fuqarolikning eng oliy ifoda mezonidir. Bu talablar bo'lmasa, umuman, axloqiy madaniyatning bo'lishi, dargumon.

Axloqning madaniyatning yana bir ko'rinishi axloqiy munosabatlardir. Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy munosabatlarning har qanday turi singari, axloqiy munosabatlar ham axloq normalari bilan cheklangan, shaxs va jamiyat, kishilar o'rtasida aloqalar, bog'lanishlar tarzida mavjud bo'ladi. Shunga asosan, axloqiy munosabatlar o'z shakliga ko'ra, oila, jamoa, guruh, mahalladagi odamlar bilan bo'lgan munosabatlar turlariga bo'linadi. Ammo axloqiy munosabatlar – bu faqat aloqalar, bog'lanishlardangina iborat bo'lmay, ayni paytda, normativ asosga ega bo'lgan o'zaro ta'sirni kishining boshqa odamlar jamiyat oldidagi burchlarini ham o'z ichiga oladi.

Xulqda, kishining xatti-harakatlarida, uning ichki, ma'naviy dunyosi, fikri, tuyg'usi, intilishlari, odo-bi aks etadi. Jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy talablarning ham ijobiy, ham salbiy ko'rinishlari xatti-harakatda namoyon bo'ladi. Axloq, ong va faoliyat birligi tarzida, yaxshilik va yomonlikning, adolat yoki adolatsizlikning, vijdonlilik yoki vijdonsizlikni namoyon etadigan harakatlar yig'indisidir [5].

Muhokama (discussion). Axloqiy munosabatlar, odatda, stixiyali, moddiy munosabatlar asosida shakllana boshlaydi. So'ngra esa taraqqiy etib, moddiy munosabatlardan ajralib chiqib, mafkuraviy, g'oyaviy, ma'naviy munosabatlar sohasiga kirib boradi. Axloqiy munosabatlar kishilarning irodasidan tashqari paydo bo'lib, axloq normalarining qaror topishi, jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi jarayonida, albatta, kishilar ongi orqali o'tadi.

Axloqiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra, yo boshqarish, yoki qo'riqlash vazifalarini bajaradi. Boshqaruvchi axloqiy munosabatlar muayyan jamiyatning normalari talablariga muvofiq holda yuzaga keladi, ular majburiylik vazifalariga daxldordir. Qo'riqlovchi axloqiy munosabatlar shu normalarni buzuvchi xatti-harakatlar yuz berishi natijasida paydo bo'ladi va ijtimoiy ta'sir choralari amalga oshirishni ta'minlaydi. Demak, axloqiy munosabatlarning subyektii yakka shaxslar, guruhlar, oila, jamoa, davlatlar va h.k. bo'lsin, baribir, hamisha insonning o'zidir. Faqat odamlar va ijtimoiy hodisalargina emas, balki tabiat va uning elementlari ham axloqiy munosabatlarning obyekti bo'la oladi.

Axloqiy madaniyatning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud bo'lib, axloqiy madaniyat hodisa sifatida inson ijtimoiy faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllaridan, ya'ni, huquq, ishlab chiqarish ma'muriy nizomlardan o'z talablarini asoslashi va amalga oshirishi bilan farqlanadi. Axloqiy madaniyatda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etib, u barcha birdek qabul qilgan ommaviy namuna, odat, rasm-taomil jamoatchilik fikrlari bilan mustahkamlanadi hamda muayyan talab va mezonlarda baholash bilan ifodalanadi. Shuning uchun axloqiy madaniyatning talablari barchaga birdek joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo'ladi. Bu talablar nisbatan barqaror xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida axloqiy madaniyatning o'ziga xos normalari, ya'ni, mehnat axloqi, xizmat ko'rsatish axloqi, kasbiy, tadbirkorlik, diplomatiya etikasi, maishiy turmush, oila axloqi kabi normalarda ifodalanadi. Ushbu qoida va normalar axloqning yagona asosga ega bo'lgan nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etib, axloqiy madaniyatning taraqqiyoti jarayonida rivojlanib boradi. Umuman olganda, axloqiy madaniyatning tadqiqot doirasi keng qamrovli bo'lib, unda asosiy e'tibor inson faoliyati, insondagi xulq, odob, axloqning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi [6].

Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qilib, hamisha va hamma joyda axloqiy normalar ta'sirida namoyon bo'lib turadi. Ular axloqiy faoliyat, xulq, xatti-harakatlarda, atrof-dagi ijtimoiy borliqqa nisbatan axloqiy ta'sir ko'rsatishda yuzaga keladi. Axloqiy munosabatlarning baholovchi xarakteri bilan birga yo'naltiruvchi xarakterga egaligi ham uning o'ziga xos belgisidir. Axloqiy munosabatlarda, kishilarning faoliyati va xatti-harakatlari, ular munosabatlarining axloqiy-amaliy ifodasi sifatida asosiy o'rin egallaydi. Ayni paytda, axloqiy munosabatlar boshqa hamma ijtimoiy munosabatlar singari mustaqildir.

Jamiyat rivojlanib borgan sari uning axloqiy tizimi ham o'zgarishlarga ehtiyoj sezib boradi. Shu ma'noda har bir shaxs jamiyat ehtiyojlariga ko'ra, axloqiy jihatdan shakllanib, sayqallanib borsa, u ijtimoiylashadi. Jamiyatning barqaror taraqqiyot bosqichida tashqi kuchlar ta'sirining ortib borishi kishilarning, ayniqsa, yoshlarning ongi, ruhiyati va kayfiyatini milliy iftixorga moslashtirish ularning axloqiy madaniyati darajasini yuksaltirish orqali har tomonlama kamolotga yetkazish zaruratini vujudga keltiradi. Ushbu zaruratni faqatgina yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa (conclusion). Bugungu kunda jamiyatda oddiy fuqaro nazdida, nafaqat o'z kasbini e'zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolat timsoli sifatida gavdalanadigan ichki ishlar organlari xodimlari yuksak axloqiy madaniyatga ega bo'lishi, ularning o'z umrini millati va Vataniga hamda inson manfaatlariga bag'ishlagan yuksak axloq egasi sifatida o'zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bo'lib, o'sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi desak, xato bo'lmaydi. Agarda jamiyatda buning aksi bo'lsa, ya'ni, qonun himoyachisi bo'laturib, o'zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo'lida oqni qora, qorani oq deb tursa, bunday xodim axloqsizlik qilgan bo'ladi. Natijada oddiy fuqarolar nazdida, birgina axloqsiz kishi uchun butun jamiyatning adolatsiz ekanligi to'g'risida noto'g'ri tasavvur uyg'onib, bu tasavurning muntazam kuchayib borishi oxir-oqibat o'sha jamiyatni tanazzulga olib keladi. Eng asosiysi, insoniyat tarixida axloqsizlikning yuqori cho'qqisi bir millat yoki mamlakat uchun zarar yetkazib (totalitar tuzum hukmdorlari xatti-harakatlari misolida), umumbashariy miqyosdagi fojialarga olib kelganligi o'sh davrni o'rganuvchi deyarli barcha tadqiqotlarda asoslangan faktlar bilan yoritilganligi ham ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). L.Muhammadjanova, Abdulla Sher, G.Shadimetova. Axloq falsafasi. Darslik, Toshkent, 2023, 208-bet.
- (2). A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 1992, 11–71-betlar.
- (3). Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyandalari. Abdulla Avloniy. "Zabarjad media", 2022, 432-bet.
- (4). Гегель. Феноменология духа (Вступ. статья и комментарий Ю.П.Селиванова). М., Академический проект, 2008, с. 767 (Философские технологии: философия). ISBN 978-5-8291-1050-5.
- (5). В.Семёнов. О перспективах человека в XXI столетии. "Вопросы философии", Москва, 2005, №9, с. 27.
- (6). O.G'aybullayev. Shaxs ma'naviy kamoloni va estetik madaniyat. T., 2008, 107–120-betlar.

**Madraximov Atabek Abduraximovich (Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi;
e-mail:atabek@bk.ru)**

YOSHLARNING IJTIMOY MAS'ULIYATINI OSHIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI

***Annotatsiya.** O'zbek jamiyati ijtimoiy jarayonlarida yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini rag'batlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining muhim rol o'ynashi ushbu ishda tadqiq etilgan. Qiyosiy tadqiqotlar ushbu tashkilotlar yoshlarni jamiyat muammolarida ishtirok etishga qanday undashini, shu bilan faol fuqarolik va barqaror rivojlanishni shakllantirishini ko'rsatishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, yoshlar ishtiroki, ijtimoiy mas'uliyat, global istiqbol, O'zbekiston, qiyosiy tahlil.*

Мадрахимов Атабек Абдурахимович (преподаватель Ургенчского государственного педагогического института)

РОЛЬ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ МОЛОДЕЖИ

***Аннотация.** В данной работе исследована важная роль институтов гражданского общества в поощрении социальной ответственности молодежи в глобальном масштабе, а также в условиях Узбекистана. Сравнительные исследования помогают исследованию показать, как эти организации мотивируют молодежь к участию в проблемах общества, тем самым формируя активное гражданство и устойчивое развитие.*

***Ключевые слова:** гражданское общество, вовлеченность молодежи, социальная ответственность, глобальная перспектива, Узбекистан, сравнительный анализ.*

Madrahimov Atabek Abdurakhimovich (Teacher of the Urgench State Pedagogical Institute)
**THE ROLE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTES IN INCREASING THE SOCIAL
RESPONSIBILITY OF YOUTH**

***Annotation.** The important part civil society institutions play in encouraging social responsibility among young people in global, Russian, and Uzbek settings is investigated in this paper. Comparative*

studies help the research to show how these organizations inspire young people to participate in society problems, thereby fostering active citizenship and sustainable development.

Keywords: *Civil society, youth engagement, social responsibility, global perspective, Russia, Uzbekistan, comparative analysis.*

Kirish. Yoshlar orasidagi ijtimoiy mas'uliyat faol fuqarolik jamiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Globallashtirilgan dunyomizda yoshlar turli ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda, bu esa shaxsiy faollik va hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Ijtimoiy mas'uliyatni anglamoq jamiyatdagi o'z rolini tushunish, umumiy farovonlik yo'lida harakat qilishga tayyorlik va o'z hamda boshqalarning turmush sharoitini yaxshilashga intilish demakdir. Shuningdek, fuqarolik jamiyatlarining yoshlarga ta'siri ta'lim, ko'ngillilik va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali namoyon bo'lishini ta'kidlash lozim. Bu faoliyatlar fuqarolik pozitsiyasini, shuningdek, liderlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Fuqarolik jamiyati yoshlarni tarbiyalashda, ijtimoiy mas'uliyatini va jamiyat ehtiyojlariga daxldorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatiga tarixiy nazar solsak, ularning fuqarolik jamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin. Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati ko'plab tadqiqotchilar tomonidan fuqarolik jamiyati va huquqiy normalar doirasida muhokama qilinayotgan muhim mavzudir. Zamonaviy sharoitda yoshlar turli ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda va fuqarolik jamiyati institutlari mas'uliyatli xulq-atvorni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Xalqaro, maydonga nazar tashlasak, ushbu institutlar yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini rivojlantirishga qanday yordam berayotganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, yoshlar yangi sharoitlarga moslashib, norasmiy boshqaruv va huquq-tartibotning yangi shakllarini yaratadigan migratsiya bilan bog'liq holda yaqqol ko'zga tashlanadi [1]. Markaziy Osiyodagi huquqiy madaniyatlar va ishbilarmonlik muhitini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mas'uliyatning muhim jihati sifatida korrupsiyaga qarshi choralarni joriy etish kerak [2]. Bunday yondashuvlar yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish uchun barqaror platforma yaratishga yordam beradi.

Yoshlarni ijtimoiy masalalarga jalb etish fuqarolik jamiyati qanday tuzilganligi bilan bog'liq. Bu omillar yoshlar faolligiga ham yordam berishi mumkin. Masalan, davlat tuzilmalari fuqarolik ishtiroki muhimligini e'tirof etgan va uni qo'llab-quvvatlagan joylarda yoshlarning ijtimoiy tashabbuslardagi ishtiroki kuchayadi.

Ta'lim yoshlar uchun muhim bo'lib, u bilim va tanqidiy fikrlashni, shuningdek, fuqarolik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Madaniyatlar o'zaro ta'sir qiladigan dunyoda ta'lim muassasalari tajriba almashish va ijtimoiy faollik uchun joylarga aylanmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo huquqi jamg'armasi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning huquqiy ongi va faol fuqaroligiga ta'sir ko'rsatib, ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini oshiradi. Shu bilan birga, tarix va o'ziga xoslik zamonaviy muammolarga duch kelayotgan sobiq ittifoq mamlakatlarida ta'lim strategiyalari ko'p madaniyatli va inklyuziv jihatlarni hisobga olishi kerakligini yodda tutish kerak, bu esa ijtimoiy mas'uliyatni oshirish uchun ta'lim dasturlariga yangicha yondashuvlar zarurligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, ta'lim yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatiga ta'sir qiladi va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Tahlil va natijalar. Joriy ijtimoiy o'zgarishlarda yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatiga tengdoshlarning ta'siri muhim ahamiyatga ega. Yoshlar o'rtasidagi muloqot nafaqat aloqalarni mustahkamlashi, balki umumiy qadriyatlar va jamiyat oldidagi mas'uliyatni tushunishga yordam berishi mumkin. Global kontekstdan olingan misollar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning volontyorlik va jamoat loyihalarida ishtirok etish kabi tashabbuslari faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun joy bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlarda, masalan, yoshlarning davlat faoliyatida ishtirok etishi ularning ijtimoiy mas'uliyat hissini va ijtimoiy ishlarda ishtirok etishini oshiradi, deyiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining global misollari yoshlar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyatni yaratishga turlicha yondashishlarini ko'rsatmoqda. Yoshlar o'z qadriyatlarini va o'ziga xosligini izlaydi. Ko'p tomonlama yondashuv bu shunchaki variant emas, balki ko'proq tenglik va barqarorlik mavjud bo'lgan yaxshiroq dunyoni yaratish zaruriyatidir. Fuqarolik jamiyati faoliyatining asosiy jihatlari bu yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan taniqli tashkilotlardir. Amnesty International va Human Rights Watch kabi tashkilotlar yoshlarga jamiyat oldidagi majburiyatlarini tushunishga yordam beradi va ularni inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlarga jalb qiladi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy harakatlardagi faolligi, ularning global ijtimoiy-siyosiy masalalarni anglashni oshiradi. Markaziy Osiyoda ushbu misollardan ilhomlangan yoshlar tashabbuslari xorijiy yondashuvlarni mahalliy voqeikka moslashtiradi, ularni mintaqaning madaniy xususiyatlari bilan birlashtiradi.

Shunday qilib, global tashkilotlar nafaqat faol fuqarolarni o'qitishga yordam beradi, balki turli mamlakatlardan kelgan yoshlar o'rtasida tajriba va bilim almashish uchun joy bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda axloqiy tarbiyaning yangi strategiyasini yanada rivojlantirish va amalga oshirish uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yoshlar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining tayanch roliga asoslanish zarur. Ushbu strategiya, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni oshirish, ularning jamiyat to'qimasiga halollik va mas'uliyat bilan munosib hissa qo'shish uchun yetarli darajada jihozlanganligini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Inson huquqlari bo'yicha universal ta'lim axloqiy tarbiya o'quv dasturida mahalliy an'analar va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilishi kerak. Ushbu sintez natijasida yoshlar o'zlarining madaniy o'ziga xosligini saqlab qolgan holda global qarashlarni qadrlay oladilar. Bundan tashqari, bu ularni global fuqarolik va mahalliy jalb qilish uchun qurollantirib, keng ko'lamli istiqbolni shakllantiradi. Turli tajriba va amaliyotlar orqali yoshlarga dunyoning turli mintaqalaridagi tengdoshlari bilan muloqot qilish va fikr almashish imkonini beradigan platformalarni yaratish ularning ijtimoiy mas'uliyatini tushunishini kuchaytiradi. Ushbu platformalar fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va keng qamrovli va inkluziv auditoriyani kafolatlash uchun hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

Ushbu tashabbuslarni yanada samarali qo'llab-quvvatlash uchun hukumat axloqiy va ma'rifiy tashabbuslarni ilgari surishda a'lo darajada bo'lgan ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlarini rag'batlantirish, siyosiy qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirishni taklif qilishi kerak. Axloqiy tarbiya dasturlarining muntazam baholash mexanizmini amalga oshirish dasturlarni doimiy ravishda moslashtirish uchun ishtirokchilarning fikr-mulohazalaridan foydalanish orqali ularning doimiy dolzarbligi va samaradorligini kafolatlaydi [4]. Bundan tashqari, axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyatning ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli mediakampaniyalarni amalga oshirish yoshlarni jalb qilishning muvaffaqiyatli hikoyalarni yoritishi va axloqiy tarbiyaning shaxs, umuman, jamiyatga foydali ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Ushbu kompleks yondashuv axloqiy jihatdan asoslangan va barqaror, mahalliy hamjamiyatlarga ham, jahon hamjamiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan avlodni rivojlantirishga yordam beradi.

O'zaro bog'liqlikning kuchayishi sharoitida yoshlar, ko'pincha, turli ijtimoiy va ekologik loyihalarda ishtirok etadilar, bu esa o'z-o'zini namoyon qilish va birdamlikning muhim vositalariga aylanadi. Masalan, yaqinda yosh faollar tomonidan tashkil etilgan iqlimga qarshi Yashil makon harakatidagi yoshlarning faolligi ularning barqaror kelajak uchun kurashishga tayyor ekanliklarini ko'rsatmoqda. Bu shuni ko'rsatadiki, global mavzular mahalliy hamjamiyatlarga ta'sir qiladi va ularning ehtiyojlariga moslashadi. Tadqiqotda yoshlar harakati va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ta'sir ushbu tashabbuslarni qanday mustahkamlashi mumkinligi tahlil qilingan. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar harakatlarining samarali faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan ko'plab omillar mavjud, masalan, ijtimoiy va iqtisodiy to'siq, bu esa fuqarolik jamiyati tomonidan chuqur o'rganish va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Yoshlarning jamoat ishlariga jalb etilishi turli mamlakatlarda juda farq qiladi. Bu turli siyosiy madaniyatlar va fuqarolik jamiyatining holati bilan bog'liq. Germaniya va Kanada kabi barqaror demokratiyaga ega mamlakatlarda yoshlar tashkilotlari mahalliy muammolarni hal qilish uchun ko'ngilli loyihalar va tashabbuslarni tashkil etish orqali ijtimoiy mas'uliyatli xulq-atvorni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqotlarda fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga qanchalik yordam berishi ta'kidlandi. Butun dunyo va o'zbek misollari natijalari shuni ko'rsatadiki, bu guruhlar yoshlarning ijtimoiy tadbirlarga jalb etilishiga qanchalik ta'sir qiladi, shuning uchun ularning mahalliy hamjamiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish salohiyatini oshiradi. Tadqiqotga ko'ra, fuqarolik ishlarida faol ishtirok etayotgan yoshlarda ijtimoiy ong va faol fuqarolik tuyg'usi yaxshilanadi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati tashabbuslarining mahalliy sharoitlarga mos kelishi ularning ijtimoiy mas'uliyatni rag'batlantirishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Shu bilan birga, tadqiqot siyosiy, madaniy va moliyaviy elementlar tomonidan shakllantirilgan turli yosh guruhlar o'rtasida o'zgaruvchan darajadagi kirish va ishtirok etish kabi qiyinchiliklarni ham ta'kidlaydi. Ushbu qiyinchiliklar fuqarolik jamiyati tashabbuslarining turli muhitdagi afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun moslashuvchan rejalarni talab qiladi. Ushbu tadqiqot orqali fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ularning samaradorligi, asosan, kontekstli, inkluziv va yaxshi qo'llab-quvvatlanadigan loyihalarga bog'liq, degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Urinboev, Rustam (2020). Migration and Hybrid Political Regimes. Navigating the Legal Landscape in Russia. doi: <https://core.ac.uk/download/401691156.pdf>
- (2). N/A (2020) Central Asian Law: Legal Cultures, Governance and Business Environment in Central Asia. A Collection of Papers from Central Asian Guest Researchers Seconded to Lund University. doi: <https://core.ac.uk/download/401691207.pdf>
- (3). Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. T., "O'zbekiston" nashriyoti, 2022, 255-bet.
- (4). Farrell, William B. (2019). Fragmentation, Frustrated Revolt, and Off-Shore Opportunity: A Comparative Examination of Jihadi Mobilization in Central Asia and the South Caucasus. doi: <https://core.ac.uk/download/289199504.pdf>
- (5). Alexandrov, T. (2018). Ethno-cultural associations in Kazakhstan. The Soviet footprint and resources for civil society. doi: <https://core.ac.uk/download/162919719.pdf>
- (6). Lottholz, Philipp. (2022). Post-Liberal Statebuilding in Central Asia. doi: <https://core.ac.uk/download/520257426.pdf>

**Maxsumov Xamza Valixonovich (O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi;
KHMaxsumov@mail.ru)**

QADRIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA MAZMUNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadriyat tushunchasining mohiyati a mazmuni yoritilgan. Qadriyat-larning mohiyati, mazmuni bilan bog'liq muammolar tahlili uzoq tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Vatani-miz sivilizatsiyasida qadriyatlar uyg'unligi o'ziga xos bir emas, ikki renessansning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bugungi kunda barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga hamohang ravishda oilaviy qad-ryatlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: qadriyat, axloq, me'yor, qoida, oilaviy qadriyatlar, qadriyatlar falsafasi.

Махсумов Хамза Валихонович (соискатель института повышения квалификации

МВД Республики; Узбекистан; KHMaxsumov@mail.ru)

СУТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ ЦЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье описывается суть и содержание понятия ценности. Анализ проблем, связанных с сущностью и содержанием ценностей, имеет длительную историю постепенного развития. Гармония ценностей в цивилизации нашей страны создала почву не для одного, а для двух ренессансов. Сегодня в рамках всех социально-экономических и политических реформ особое внимание уделяется семейным ценностям.

Ключевые слова: ценность, мораль, норма, правило, семейные ценности, философия ценностей.

Maxsumov Xamza Valixonovich (Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan; KHMaxsumov@mail.ru)

THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF VALUES A CONTENT

Annotation. This article discusses the essence of the concept of values a content. The analysis of problems related to the essence and content of values has a long history of gradual development. The harmony of values in the civilization of our homeland has created the basis for the emergence of not one, but two unique renaissances. Today, in parallel with all socio-economic and political reforms, special attention is paid to family values.

Keywords: value, morality, norm, rule, family values, philosophy of values.

Kirish. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko'payib borgan sari, ularni hal qilishning ahamiyati ham ortib bormoqda. Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni bilan bog'liq muammolar tahlili uzoq tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Insonlar qadim zamonlardanoq o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa, voqea va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar.

Qadriyatlar falsafasi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o'z aksini topgan bo'lib, muayyan ilohiy qadriyatlarni milliy qadriyatlar bilan qorishiq holda ifodalab borgan. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish Spetamen, Alpomish, To'maris va Shiroq kabi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik tasvirlangan bo'lib, olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma'nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods). Qadriyatlar bir qator dunyoqarashlarning asosida yotganligi va o'sha dunyoqarashlarning markaziy qismini tashkil qilganligi bois ko'plab mutafakkirlar qadriyatlarining falsafiy tahliliga oid qarashlar va xulosalarni ilgari surganlar. Qadriyatlar falsafasiga oid tahlillar ko'hna Sharq va Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan ham qayd etilgan. Jumladan, qadriyatlar falsafasiga oid qarashlar Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Bedil, Maxtumquli, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ilmiy merosida qadriyatlar falsafasiga oid tahlillar berilgan. Zero, qadriyatlarining falsafiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni, xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqalishi va ushbu xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilganligi sababli ularning mohiyati va mazmuni ham keng talqin qilinganligi ayni haqiqatdir [1].

Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgani sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan. Ajdodlarimizning qadimgi kitobi "Avesto" diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. "Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga, kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma'naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o'rin berilgan. Asarda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar namoyon etilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, insonlar yaxshilik, yorug'lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalda bo'lishi lozimligi keltirilgan. Insonning bu jarayondagi qadri esa yaxshilikning g'alabasi uchun kurashda befarq turmasligi, yashash tarzi, ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy faoliyatida o'z ifodasini topib, o'ziga xos islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy va axloqiy qadriyatlarining rivojlanishiga zamin yaratgan.

Natijalar (results). Markaziy Osiyoda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII–XII asrlar katta ahamiyatga egadir. Bu davrda islom dinining ilohiy qadriyatlarini xalqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan.

Vatanimiz sivilizatsiyasida qadriyatlar uyg'unligi o'ziga xos bir emas, ikki renessansning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Natijada Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, At-Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab kabi allomalarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta'siri ham beqiyos bo'lgan. Qisqacha aytganda, o'sha davrdagi ma'naviy qadriyatlarga oid ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan holda rivojlanib borgan [2].

Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan qarashlari to'g'risida ham shunday fikrni aytish mumkin. Yuqorida nomlari tilga olingan asarlarga kelganda esa dunyoda ularga qiyoslaydigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining umumiy tizimlari izohlangan kitoblar barmoq bilan sanarli.

Tasavvufning eng asosiy namoyandalaridan biri bo'lgan Ahmad Yassaviy (1105–1166) diniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining o'sha zamonga mos keladigan shartlarini islom dini nuqtayi nazaridan ta'riflab bergan. Chunonchi, Ahmad Yassaviy o'zining "Devoni hikmat" asarida ma'naviy qadriyatlarining asosiy shakllari – poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi xislatlarga ta'rif bergan. Zero, aynan Yassaviya tariqati Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, madaniy merosga katta ta'sir ko'rsatib, ushbu tariqatning ma'naviy qadriyatlari, keyinchalik, mo'g'ul istilosidan ozodlikka erishish g'oyalari vujudga keltirgan. Shuningdek, ushbu ta'limot mo'g'ullar istilosidan oldingi davr qadriyatlarini, temuriylar davri bilan bog'laydigan ma'naviy asoslardan biri bo'lgan desak ham, xato bo'lmaydi [3].

Qadriyatlar falsafasida naqshbandiya tariqatining ham ilgari surgan g'oya va qarashlarning ham o'z o'rnini beqiyosdir. Naqshbandiya tariqati Sharqda keng yoyilgach unga Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi Sharqning zabardast mutafakkirlari chuqur hurmat bilan qaraganlar. Bunda tariqat g'oyasidagi "qo'l ishda, ko'ngil Yaratganda" bo'lishi, halollik, kamtarinlik kabi komil insonning asosiy fazilatlar tarqib qilingan [4].

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda jadid falsafasining o'ziga xos g'oyalari kurtak ochib boshlaganda sharqona qadriyatlarining o'ziga xos jaidlarga xos yo'nalishi vujudga kelib boshlagan.

Xususan, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida o'ziga xos ma'naviy qadriyatlar tizimi ta'riflab berilgan bo'lib, asarda g'ayrat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, nafs, vijdon, vatanni sevmoq, iffat, hayo, idrok, lafz, iqtisod, itoat, sadoqat, adolat, muhabbat va avf kabi qadriyatlar "yaxshi

xulqlar” nomi ostida tahlil qilingan. Ushbu asarda tilga olingan qadriyatlar o’sha davrda yurtimizda ma’naviy tushunchalarning ko’lami qanchalik keng bo’lganligini, tilimizning naqadar boyligidan dalolatdir [5].

O’tmish allomalarining umuminsoniy qadriyatlarni sharqona ta’riflash va tavsiflash orqali qadriyatlar falsafasidagi o’ziga xos sharqona qadriyat mezonlarning shakllangani guvohi bo’lamiz.

Muhokama (discussion). Qadriyatlar falsafasi namoyon bo’lishidagi turli holatlarning tahlilidan voqea va hodisalarning ketma-ketligi, vaqt va zamon realliklarini hisobga olish, bunday holatlarning uzluksiz takrorlanishi esa qadriyat tizimlarining ijtimoiy voqelik va taraqqiyot bilan bog’liqligini ifodalaydigan quyidagi muhim xulosaga kelish imkonini bermozda. Ana shu xulosa qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyot bilan bog’liqlik qonunining asosiy mazmunini ifodalagan holda hozirgi zamondagi o’zgarishlar bilan bog’liq nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etib, mazkur qoidalarni amaliyotga tadbiiq etishga zamin yaratdi. Aniqroq aytganda, mustaqillik qadriyati shakllandi. O’zbekistonda ro’y berayotgan murakkab o’zgarishlarning qadriyatlar sohasida namoyon bo’lishi respublika ijtimoiy hayotidagi o’zgarishlarning qadriyatlar omili va mezoni bilan bog’liq jihatlari amaliy ta’sir ko’rsatib, istiqbolga asoslangan yangi qadriyatlar tizimining shakllanishiga olib keldi. Natijada kishilarda qadriyat tuyg’usini to’g’ri talqin qilish orqali uni O’zbekistondagi yangi islohotlarning tarkibiy qismiga singdirib borishga imkon berildi. Bunda inson – jamiyatning eng oliy qadriyati, odamzod naslini davom ettiruvchi avlod vakili, har bir shaxsning yashash huquqi daxlsizligi va hamma narsa inson uchun shiori ostida inson qadriyatini oshirish taraqqiyotning asosiy mezoniga aylantirildi.

So’nggi yillarda Yangi O’zbekistonni barpo etish yo’lidagi tarixiy islohotlar, avvalo, inson qadri, xalq manfaatlarini har tomonlama himoya qilish harakatlari odamlarning ertangi kunga bo’lgan ishonchini yanada mustahkamlash, xalqimizni har tomonlama rozi qilishga qaratilmoqda. Barcha sohalar qatori xalqimizning tinch va osoyishta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo’lgan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash masalasi ustuvor ahamiyatga ega bo’lib, Vatanimiz, fuqarolar daxlsizligini ta’minlash, tinchlik va osoyishtalikning huquqiy asoslarini yaratish yo’lida muhim natijalarga erishib kelinmoqda.

Barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga hamohang ravishda oilaviy qadriyatlarga ham alohida e’tibor qaratilib, oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a’zolarini, ayniqsa, o’sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan assosiy tarbiya o’chog’i ekanligiga e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa (conclusion). Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – xalq tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, mahallalardagi ijtimoiy ahvolni o’rganish, muammoli va turmush sharoiti og’ir bo’lgan oilalarni o’z vaqtida aniqlab, ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad aholining farovon hayotini ta’minlash orqali sodir etilishi mumkin bo’lgan huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan. Oilaning tinchligi, farovonligi va barqaror rivojlanishi mamlakat tinchligi va aholining turmush darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Bugun yurtimizda ma’muriy hududlarda uyma-uy yurish orqali manzilli ishlarning olib borilishi natijasida mahallalarni har tomonlama o’rganish, ayniqsa, muammoli va notinch, ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan oilalarni hamda ijtimoiy og’ir ahvolga tushib qolgan ayollarni aniqlab, ularni ijtimoiy hayotning faol va namunali kishilariga aylantirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Aholini ijtimoiy, moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash hamda jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va uni keltirib chiqaradigan omillarni o’z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan bir qator manzilli dasturlar va chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy qadriyatlar yaratilganligi mamlakatimizdagi barcha mahalla va oilalarni hamda ulardagi mavjud muammolarni o’rganib, ularning yechimi bo’yicha aniq manzilga yo’naltirilgan ishlarni amalga oshirishga zamin yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- (1). Ўрта Осиё халқлари хурфикрлиги тарихидан. Т., “Фан”, 1990, 104-бет.
- (2). Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Т., “Ўзбекистон”, 1995, 6-бет.
- (3). Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Тошкент, Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004, 85-бет.
- (4). С.Рахмонов. Икки тариқатнинг буюк даҳолари (мавлони Жалолиддин Румий ва Хожа Баҳоуддин Нақшбанд мисолида). Самарқанд, СамДЧТИ нашриёти, 2021, 148-бет.
- (5). А.Авлоний. Туркий гулистон юхуд ахлоқ. Т., 1992.

Мардонова Феруза Бахроновна (доктор философии (PhD), доцент кафедры русского языка и литературы, Навоийский государственный университет)

РАЗВИТИЕ ИДЕИ СОДРУЖЕСТВА, МИРА, ТОЛЕРАНТНОСТИ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация. В данной статье проанализированы взгляды великих восточных мыслителей о мире, согласии, содружестве. Также отражены в социально-философских идеях гуманистические взгляды ученых.

Ключевые слова: мир, согласие, содружество, толерантность, духовное наследие.

Mardonova Feruza Baxronovna (falsafa dok. (PhD), Navoi davlat universiteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti)

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI MA’NAVIY MEROSIDA HAMDO‘STLIK, TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINING RIVOJI

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk Sharq mutafakkirlarining tinchlik, totuvlik va hamjihatlik haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, allomalarning ijtimoiy-falsafy goyalaridagi tolerantlik va гуманистический qarashlari o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: tinchlik, totuvlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik, ma’naviy meros.

Mardonova Feruza Baxronovna (Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor of the Department of Russian Language and Literature. Navoi State University)

DEVELOPMENT OF THE IDEA OF COMMONWEALTH, PEACE, TOLERANCE IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIA THINKERS

Annotation. The point of view of Eastern scientists about peace, kind and friendship are analyzed in this article. Scientists’ social-philosophical ideas of tolerance and humanistic point of view are also reflected in this article.

Key words: tolerance, peace, international harmony, spiritual inheritance, Commonwealth.

Введение. Как отмечают многие исследователи, некоторые Центральноазиатские мыслители вкладывали в традиционное понятие «багрикенглик» те или иные аспекты нынешнего понимания «толерантности», тем самым ещё более облегчая возможность его современного использования.

История социально-философской мысли Центральной Азии средних веков свидетельствует об успешной идейной борьбе против религиозного фанатизма и вражды через международное согласие и солидарность, религиозную толерантность и взаимное доверие, через стремление к экономическому культурному сотрудничеству с народами стран разных вероисповеданий. Бесконечно огромен вклад, возникший в то время теоретико-философских и духовно-нравственных идей, в достижении определённых результатов в области политики, экономики и права. В истории социально-философской мысли народов Центральной Азии подход к социальной культурно-нравственной сущности религии с точки зрения социально-экономического и культурно-духовного условия времени, применения её ценностей в условиях реальной жизни имел богатую традицию уже в начале средних веков. Основной заслугой религии в ней, в первую очередь, было воспитание людей в духе высокой нравственности, призыв к взаимному согласию и сотрудничеству, и в результате всё это привело к обеспечению стабильности, мира и благополучия, согласия среди людей.

Анализ источников. Наше исследование посвящено таким понятиям, как мир, содружество, толерантность, согласие. Источником исследования данных понятий является бесценное наследие великих мыслителей, как Абу Наср Фараби, Абу Райхон Беруни, А.Навои, А.Джами.

Методология исследования. В нашем исследовании основными методами анализа данных понятий являются описательный и исторический метод.

Анализ и результаты исследования. Мыслители Центральной Азии, обвиняя религиозный фанатизм и религиозную корысть, ставшие причиной усиления чувства, недоверия и вражды между народами и странами, выдвигали вперёд идеи религиозной толерантности, а также соглашения между представителями разных вероисповеданий. Такая традиция подхода к религии в средние века укреплялась попыткой практического применения этих идей к социальной, культурной и духовной жизни.

Одним из великих мыслителей, который последовательно разработал и попытался теоретически и философски обосновать идею установления мира и согласия между народами, жить в сотрудничестве и солидарности, был наш соотечественник Абу Наср Фараби. Он был сторонником эвдемонизма (счастья). Он утверждал, что сущность человеческая – удаиваться подлинного счастья.

тя. В своих многих произведениях Фараби, в частности, в трактатах «О взглядах жителей добродетельного города», «О достоинстве, о счастье и совершенстве» показал исторические и социальные причины происхождения человеческого коллектива. А также он показывает основную причину того, что люди не могут жить без помощи друг друга, только сотрудничество и взаимопомощь могут быть причиной возникновения человеческого коллектива, стабильности и развития общества. Об этом Фараби пишет так: «Человек, по своей природе, состоит таким образом, что для своего существования и для достижения высшего совершенства нуждается во многом. Он один не может всего этого достигнуть, для его достижения он нуждается в человеческом обществе. Каждый из членов общества обеспечивает его одним, в чём он нуждается. Каждый член общества бывает в таком положении по отношению друг к другу. Вот поэтому через соединение друг с другом люди достигают совершенства, к которому они стремятся» [1;302–303 с.]

Как и Абу Наср аль-Фараби, Ибн Сино своеобразно показал такие социальные явления, как солидарность, взаимное содружество, согласие, свобода, которые являются стремлением каждого индивида оберегать себя.[2;102 с.]. Коллективный строй станет стабильным на основе взаимной помощи и принципов содружества его членов. «Если между ними возникнет конфликт, то пусть каждый из них воспримет справедливость, полезной всем членам коллектива, а несправедливость поймут вредным для членов коллектива» [3;17 с.].

Следующий мыслитель своего времени, Абу Райхан Беруни приводит исторические сведения о том, что у нас, на Родине, расположенной на Великом шёлковом пути, в характере народа высокоразвиты национальная и религиозная толерантность. Вместе с тем, Беруни, как гуманный мыслитель, показывает, что такое положение и порядок впоследствии разрушились в результате различного грабежа, мародёрства и вражды. Например, в произведении «Минерология» Беруни пишет так: «Потребности у человека настолько разнообразны, что сам один не может их всех удовлетворить. Для удовлетворения недостаточно помощника. Потребности разнообразны, и их очень много. Только при помощи коллектива, состоящего из несколько человек, можно их удовлетворить. Для этого люди вынуждены создавать города» [4;11 с.]. Учёный эти свои мысли утверждает в произведении «Геодезия»: «И множественность (человеческих) потребностей и недостаточность удерживать себя от них, малочисленность средств самозащиты, многочисленность врагов заставило людей объединиться родственными связями в общество, в нём каждый его член бывает в отношениях взаимопомощи, занимаются работой удовлетворения своих и других потребностей» [5;83 с.].

Алишер Навои знаменит среди народов Востока в качестве великого государственного деятеля и поэта. В своих нравственно-философских воззрениях он выразил множество мыслей о сущности Человека и Мира. В шестнадцатой главе своего произведения “Хайрат ул-аброр” («Смятение праведных») Алишер Навои, ведя речь о «человечном человеке», даёт следующее определение человеку: это тот человек, который “сколько бы страданий ни испытывал, остается верным, с терпением переносит различные испытания и трудности и никому не желает зла, это человек человечества“. Наряду с этим в своих произведениях Навои останавливается на таких категориях, как дружба и согласие, справедливость и спокойствие. Призывая людей к просвещению, мыслитель критикует людей со злыми намерениями, он пишет:

*Сказал, любые дела делает человек,
С помощью разуменья познает человек.* [6;128 с.]

Эти строки Навои посвящены тому, что человек способен совершать самые разные дела, добрые и злые, мужественные и подлые, справедливые и невежественные. Если человек совершает дела с умом, то он формирует в себе прекрасные нравственные качества. Алишер Навои выступал за дружбу, согласие, взаимоуважение между людьми других народов, о чем свидетельствуют следующие его строки: «Поймите, люди всей земли, вражда плохое дело. Живите в дружбе меж собой, нет лучшего удела» [7;98 с.].

Такие традиции, которые происходили в социально-экономической и культурно-духовной жизни народов Центральной Азии, были продолжены в последующем этапе эпохи Возрождения со стороны таких мыслителей, как Ходжа Ахмада Яссави, Руми, Джамии. Они, под влиянием появившегося социально-политического и культурно-духовного условия, по-своему трактуя идеи предков о причине появления человеческих коллективов для процветания общества, воспевали, прежде всего, о прекращении войны и истребления между странами, вражды между религиями, конфликтов и споров между людьми. Также в прекрасных художественных эпизодах и примерах описывали желае-

мое общество, основанное на содружестве, согласии, на договорённости между людьми, где были приостановлены конфликты и вражда, где господствовала социальная справедливость.

Мыслители вышеупомянутых времён в вопросе войны излагали ряд передовых идей, которые выражали из идеи справедливости с точки зрения условий периода истории и идеи. Они беспокоились не только о своём народе и своей Родине, но и заботились о счастье, спокойствии других народов, оставаясь в этом вопросе верными идеям гуманности и заботы о народе.

Заключение. Таким образом, можно определить, что в ходе развития социально-философской мысли в Центральной Азии, в их духовном наследии отражены идеи добра, равенства всех граждан перед обществом, содружество рас и народностей, духовные и общечеловеческие ценности, формирующие социально-нравственные качества в контексте толерантности.

Важным составным компонентом, структурным элементом духовной жизни народов Узбекистана, одним из наиболее эффективных факторов духовно-нравственного формирования и развития узбекского народа, является духовное, особенно, общественно-философское наследие. Будучи весьма богатым и многогранным, оно, в зависимости от конкретных целей и потребностей, возникающих по ходу общественно-духовного процесса, предстаёт теми или иными своими аспектами. Особое значение общественно-философское наследие приобретает в плане решения проблемы социально-нравственного развития узбекского народа в контексте толерантности, поскольку, как показывают историко-философские исследования, особенно, последних лет, чрезвычайно богаты традициями разработки различных аспектов толерантности.

Исходя из анализа этих проведённых исследований и на основе их конкретного историко-философского материала, в данном случае выявляется современный статус и возможности использования традиций, в которых разработаны проблемы толерантности в общественно-философском наследии в социально-нравственном развитии узбекского народа в контексте формирования его толерантности.

Таким образом, можно утверждать, что достижение составляющих сущности понятий “толерантность”, “согласие”, “содружество” во все времена считалось актуальной темой и в настоящее время является одной из важных задач, не потерявших своего значения в условиях глобализации.

Список использованной литературы:

- [1]. Хайруллаев М.М. Фараби. Ташкент, 1975, с. 350.
- [2]. Ибн Сина. Избранные философские произведения. М., “Наука”, 1980, с. 200.
- [3]. Болтаев М. Абу Али ибн Синонинг фалсафий-ижтимоий таълимоти. Бухоро, 2001, 190-бет.
- [4]. Абу Райхан Беруни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия). М., 1963, с. 200.
- [5]. Абу Райхан Беруни. Определение границ мест для уточнения расстояния между населёнными пунктами (“Геодезия”). Т. III, М., 1966, с. 180.
- [6]. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 8-жилд, Т., 1991, с. 237.
- [7]. А.Навои. «Хамса». «Стена Искандера». «Садди-Искандари», 1485.

Abdusalomov Firuz (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Xorijiy tillar markazi katta o‘qituvchisi, dotsent; Toshkent, O‘zbekiston)

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURS MASALASI VA UNI O‘RGANISH
TENDENSIYALARI

Annotatsiya. XX asrning oxirlariga kelib, jahon tilshunosligida nutqiy tuzilmalarni, ular bilan bog‘liq faoliyatni muallif va muloqot jarayonini idrok etuvchi shaxs nuqtayi nazaridan tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratildi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasining shakllanishi, aynan nutqiy tuzilmalarni muloqot jarayonida o‘rganishga qaratilgan yondashuvlarning natijasi sifatida yuzaga keldi. Diskurs masalasi bo‘yicha bir qator ilmiy nazariyalar va qarashlar mavjud bo‘lib, ularning tahlili orqali turli nuqtayi nazarlarni umumlashtirish va o‘zaro munosabatlarini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Tarixan, “matn” atamasi diskurs bilan teng ma‘noda ishlatilgan bo‘lsa-da, keyinchalik, “matn” faqat yozma muloqot turiga, “diskurs” esa og‘zaki muloqotga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Shu sababli mazkur maqolada diskurs tushunchasining asosiy mohiyati va unga oid turli yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: diskurs, matn, harbiy diskurs, yondashuv, intensional tuzilish, og‘zaki va yozma diskurs.

ПРОБЛЕМА ДИСКУРСА И ТЕНДЕНЦИИ ЕЕ ИЗУЧЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ
ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. Конец XX века ознаменовался повышенным вниманием в мировой лингвистике к изучению любых речевых структур как результата речевой деятельности с точки зрения как их создателя, так и воспринимающего их субъекта в процессе коммуникации. В современной лингвистике появление понятия дискурса связано с изучением речевых структур в контексте коммуникативного процесса. Существуют различные научные теории и подходы к дискурсу, и их анализ, а также обобщение различных взглядов и выражение отношений между ними имеют важное значение. Исторически термин «текст» использовался как синоним дискурса, однако позднее «текст» стал ассоциироваться с письменной формой коммуникации, а термин “дискурс” – с устной. Поскольку термин “дискурс” является ключевым для рассматриваемой проблемы, в данной статье проводится анализ его определений и подходов к нему.

Ключевые слова: дискурс, текст, военный дискурс, подход, интенциональная структура, устный и письменный дискурс.

THE PROBLEM OF DISCOURSE AND TRENDS IN ITS STUDY IN MODERN LINGUISTICS

Annotation. At the end of the 20th century, there was an increased focus in the world of linguistics on studying any speech structures as a result of speech activity from the perspective of both the creator and the recipient of the communication. In modern linguistics, the emergence of the concept of discourse is associated with the study of speech structures within the communicative process. There are various scientific theories and approaches to discourse, and their analysis, as well as the generalization of different viewpoints and expressing relationships between them, hold significant importance. Historically, the term “text” was used as a synonym for discourse, but later “text” became associated with written communication, while the term “discourse” came to be associated with spoken communication. Since the term “discourse” is key to the issue being discussed, this article analyzes its definitions and the approaches to it.

Keywords: discourse, text, military discourse, approach, intensional structure, oral and written discourse.

Kirish. “Diskurs” atamasi lotincha “discursus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “mulohaza yuritish”, “harakat qilish”, “suhbat” kabi ma‘nolarni anglatadi. Fransuzcha “discours” esa “nutq” tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu atama tilshunoslik, falsafa va epistemologiya nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq qilingan bo‘lib, uni birinchi bo‘lib Emile Benveniste ilmiy jihatdan asoslab bergan. U Ferdinand de Sossyurning izdoshi sifatida uning til tizimi (langue) va nutq (parole) oppozitsiyalaridan farqli yondashuvni ilgari surib, “parole” tushunchasining o‘rniga “diskurs” atamasini kiritgan. Ushbu tadqiqot diskurs tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda uning amaliy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot usuli va muhokama. Tadqiqot davomida lingvistik tahlil va falsafiy-epistemologik yondashuvlar qo‘llanildi. Diskurs nazariyasiga oid ilgari olib borilgan ilmiy ishlar tahlil qilinib, ularning asosiy jihatlari qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, tarixiy va kognitiv metodlardan foydalangan holda diskurs tushun-

chasining shakllanishi hamda turli ilmiy maktablarda qanday talqin etilishi tadqiq qilindi. Tadqiqotda strukturalistik va poststrukturalistik paradigmalarga asoslangan terminologik yondashuvlar o'rganildi.

Diskurs, ilmiy va lingvistik nuqtayi nazardan, matn tushunchasidan kengroq va murakkabroq bo'lib, u nafaqat nutq jarayonini, balki shu jarayon natijasida paydo bo'lgan matnni ham o'z ichiga oladi. Diskurs jarayon sifatida ham, matn sifatida ham o'rganilishi mumkin. Matn, odatda, tayyor va turg'un bir mahsulot sifatida qabul qilinadi, diskurs esa doimiy ravishda rivojlanayotgan va o'zgarib borayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida qaraladi. Lingvistik adabiyotlarda diskurs tushunchasi doimiy ravishda o'zgarib turadi, chunki bu atama turli kontekstlarda, bir tomondan, matnning alohida qismlaridan, boshqa tomondan esa butunlay mustahkam bo'lgan nutq jarayonlarigacha bo'lgan hodisalarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Diskurs tushunchasi lingvistik tadqiqotlar sohasida turli yo'nalishlarga asoslanib keng o'rganilmoqda, ammo uning aniq ta'rifi hali shakllanmagan. Zellig Xarris tomonidan 1950-yillarda "Diskurs tahlili" maqolasida ilk bor tilshunoslikda qo'llanila boshlandi [8;13-b.]. Xarris diskursni faqat nutq yoki matn sifatida emas, balki uni tashkil etuvchi kommunikativ jarayon sifatida talqin qilgan. Diskurs nafaqat til birliklarining yig'indisi, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanadigan, fikr almashish, ta'sir o'tkazish va muloqotda qatnashuvning natijasi sifatida ham o'rganiladi.

So'nggi yillarda diskurs tilshunosligi keng tarqalib, zamonaviy lingvistika sohasida muhim tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Bu atamaning lingvistik kontekstda qo'llanilishi turlicha bo'lishiga qaramay, uning asosiy maqsadi an'anaviy nutq, matn va dialog tushunchalarini aniqlashtirish hamda ularni yanada rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarga yo'naltirilgan. Tilshunos olim A.Pardayev diskurs ta'rifini talqin qilishda, lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalangan holda, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro fikr almashish va ta'sir ko'rsatish maqsadida o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayonini ta'kidlaydi [11;78-b.]. Olimning fikricha, diskurs – bu jarayon bo'lib, insoniy faoliyat turi sifatida lisoniy va nolisoniy omillarning birgalikda, bir maqsad yo'lida amalga oshirilishi hisoblanadi.

Tilshunoslar diskurs tushunchasini turli xil nuqtayi nazarlardan tahlil qiladilar. Ushbu atama keng miqyosda qo'llanilishi bilan birga, turli semantik qirralarda talqin qilinmoqda. Dastlab, diskurs "bog'lanma matn" tushunchasini aks ettirgan bo'lsa, keyinchalik esa "suhbat" va "dialog" kabi kommunikativ shakllar bilan ham bog'lanib, kengaytirilgan. Diskurs zamonaviy tilshunoslik, semiotika va falsafada murakkab va aniqlashda qiyin bo'lgan tushunchalardan biri bo'lib, ayniqsa, ingliz va fransuz tillarida so'zlashuvchi madaniyatlarda keng tarqalgan. Ushbu madaniyatlarda "nutq" tushunchasi ijro, fikrlash va muloqot kabi ma'nolarni o'z ichiga olgan holda talqin qilinadi. Biroq rus tilida, ko'plab boshqa Yevropa tillariga o'xshab, bu atama uchun aniq ekvivalent mavjud emas va u turli kontekstlarga qarab "nutq", "so'z", "matn" yoki "fikrlash" kabi ma'nolarda tarjima qilinadi [9;113-b.].

Tilshunoslarning tadqiqotlari asosida, "diskurs" tushunchasi talqini bo'yicha uchta asosiy yondashuv mavjud. Ba'zi manbalarda, diskurs janrga o'xshash hodisa sifatida ko'riladi, bunda u nutqiy janrlarning o'ziga xos strukturasi ega bo'lib, maxsus til vositalaridan foydalanadi, maqsadli adresatga yo'naltirilgan, belgilangan kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladigan va axborot uzatish imkonini yaratadigan xususiyatlarga ega ekanligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, diskurs, axloqiy va etik qoidalarga asoslangan nutq shakli sifatida ham tushuniladi.

N.Abdurahmonovanning fikriga ko'ra, diskurs atamasi polisemiya hodisasi sifatida izohlanadi va matn tilshunosligida polisemantik tushuncha bo'lib, turli mualliflar tomonidan deyarli omonim ma'nolarda qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan talqinlar orasida "izchil matn", "matnning og'zaki so'zlashuv shakli", "dialog", "monolog", "ma'no jihatdan bog'liq gaplar guruhi" hamda "og'zaki nutqiy asar" kabi tushunchalar mavjudligi ta'kidlanadi [1;88-b.].

Debora Shifrin diskurs tushunchasini uch tomonlama yondashuv asosida tahlil qilishni taklif etadi [6;19-b.]. *Birinchi yondashuv* – tilshunoslikning formal yo'nalishiga asoslangan holda, diskursni shunchaki gap yoki so'z birikmasidan yuqori darajadagi til hodisasi sifatida ko'radi va uni "language above the sentence or above the clause" (gap yoki so'z birikmasidan yuqoridagi til) sifatida talqin qiladi. *Ikkinchi yondashuv* – diskursga funksional yondashuvni qo'llab-quvvatlab, uni "the study of discourse is the study of any aspect of language use" (diskurs tadqiqoti – tilning har qanday qo'llanilish jihatlarini o'rganish) hamda "tilning turli-tuman ishlatilishi" sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy kontekstdagi vazifalarini o'rganishga qaratilgan. *Uchinchi yondashuv* esa shakl va funksionaning o'zaro ta'sirini ta'kidlab, diskursni fikr ifodasi sifatida – "discourse as utterances" deb talqin qiladi. Ushbu ta'rifga ko'ra, diskurs "gapdan kattaroq" bo'lgan lisoniy tuzilmalarning oddiy yig'indisi emas, balki til ishlatilishining funksional jihatdan tashkil topgan va kontekstualashtirilgan birliklar majmuyidir.

Umuman olganda, diskurs izchil matn bo'lib, u faqat lingvistik jihatlar bilan cheklanmay, balki ekstralingvistik omillar, jumladan, pragmatik, sotsial-madaniy va psixologik faktorlar bilan ham uzviy bog'liq holda shakllanadi. U maqsadli ijtimoiy harakat sifatida talqin qilinib, nutqiy faoliyat, shaxslararo muloqot hamda inson ongidagi kognitiv jarayonlarning ajralmas komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, diskurs nafaqat lingvistik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy va psixologik jarayon bilan ham uzviy bog'liqdir. Benveniste tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv diskursning dinamik tabiatini ta'kidlab, uni an'anaviy til tizimidan farqlaydi. Tadqiqot davomida diskurs gap darajasidan yuqoriroq turuvchi lingvistik struktura sifatida qaralishi lozimligi aniqlangan. Diskurs lingvistik tushuncha sifatida XX asrning o'rtalarida tilshunoslikda shakllangan bo'lib, tilni pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda turli ma'nolarda qo'llanila boshlagan. Ushbu atama: so'z muqobili sifatida; frazalardan kattaroq lisoniy birlik sifatida; nutq vaziyatini hisobga olgan holda fikrning adresatga ta'siri nuqtayi nazaridan; suhbat va nutqda so'zlovchining pozitsiyasini aks ettirish jihatidan; lisoniy birliklardan foydalanish jarayoni sifatida; fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan shakli sifatida; matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq etishga qaratilgan nazariy konsepsiya sifatida izohlangan. Shu tariqa, diskurs tushunchasi tilshunoslikning turli yo'nalishlarida keng qamrovli tadqiqot obyektiga aylangan.

Diskurs bu matnni muloqot jarayonida dinamik holatda, ijtimoiy-madaniy kontekstda hamda lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'siri ostida o'rganishni nazarda tutuvchi murakkab kommunikativ-kognitiv hodisadir. U faqat lisoniy emas, balki nolisoniy axborot, jumladan, dunyo haqidagi bilimlar, hodisalar, qadriyatlar va inson fikrlash jarayonlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu omillar diskursni anglash, qabul qilish va talqin qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi.

Diskursning o'ziga xos jihati uning *antropotsentrik xarakteri* bo'lib, u muallif tomonidan modelashtiriladigan o'ziga xos badiiy olam manzarasini obrazli shaklda ifodalash imkoniyatiga ega. Shu sababli diskurs kommunikatsiyaning eng murakkab shakllaridan biri bo'lgan badiiy-adabiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Unda kommunikativ subyektlar faqat muallif va kitobxon bilan cheklanmay, balki badiiy asardagi personajlar ham diskurs jarayonida faol ishtirok etadi.

V.Z.Demyankov diskursning intensional tuzilishi tahlili asosida uning intensional gorizonti va *interpretatsiya konteksti* haqida fikr bildirib, uning *mantiqiy tuzilishga egaligini* qayd etadi va bu asosda diskursning boshlang'ich tuzilishi *konyunksiya, dizyunksiya va boshqa mantiqiy munosabatlar orqali bog'langan elementar propozitsiyalar ketma-ketligi* ko'rinishida namoyon bo'lishini ilgari suradi [10;219-b.]. Uningcha, diskurs tarkibiga faqatgina *bayon etilgan voqea-hodisalar va ularning qatnashchilari emas*, balki: a) hodisalardan keyingi holatlar – *hodisalar natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar*; b) hodisalarni aniqlashtiradigan fon – *voqea-hodisalarni to'g'ri talqin qilish uchun zarur bo'lgan kontekst*; d) voqea-hodisa qatnashchilarining bahosi – *hodisalarga turli tomonlar tomonidan berilgan baho va ularning subyektiv qabul qilinishi*; e) diskursni voqealar bilan solishtiradigan axborot – *diskursdagi ma'lumotlar va real voqealar o'rtasidagi bog'liqlik* kabi axborot elementlari ham kiradi.

XX asr oxirlarida tilshunoslikda yangi ilmiy yo'nalish – diskursologiya shakllandi. Ushbu tarmoq nutqiy muloqotni tadqiq etuvchi fan sifatida yuzaga chiqdi. Tadqiqotchilar nutq sathining maksimal birligi masalasida abzasni alohida birlik sifatida ajratish borasida shubha bildiradilar. Chunki abzasning shakllanishi, ko'pincha, subyektiv omillar, muallifning uslubiy xususiyatlari hamda grafik qoidalarga bog'liq bo'ladi. Sh.Safarov tadqiqotlarida nutqiy muloqotdagi eng yuksak birlik darajasiga faqat diskurs ko'tarilishi mumkinligi ta'kidlanadi [5;77-b.]. Bu yondashuv diskursni matndan ham yuqori darajadagi lingvistik va kommunikativ hodisa sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Diskurs ifodalanish vositasiga qarab ikkiga bo'linadi: og'zaki va yozma diskurs. Og'zaki diskurs – real vaqt rejimida shakllanadi, shuning uchun u takrorlash, ikkilanish, qisqartirish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Suhbat jarayonida so'zlovchilar tez fikrlashga va darhol javob berishga majbur bo'lgani sababli, nutqda noaniqlik, ortiqcha elementlar yoki grammatik jihatdan to'liq bo'lmagan jumlar uchrashi mumkin. Yozma diskurs esa oldindan rejalashtiriladi, tuzilishi puxta ishlanadi, grammatik va stilistik jihatdan aniq bo'lishi talab etiladi. U real vaqtda shakllanmagani uchun strukturaviy yaxlitlik va mantiqiy izchillik asosida quriladi. Shunday qilib, og'zaki diskurs interaktiv va dinamik bo'lsa, yozma diskurs statik va refleksiv (ya'ni, chuqur o'ylangan, puxta ishlangan) bo'lishi bilan ajralib turadi.

Diskursni tahlil qilishda uning shakllari, funksiyalari va muloqot jarayonidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz tahlillari asosida og'zaki va yozma diskurs bir-biridan ajralib turuvchi, lekin o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, ularning xususiyatlari alohida ko'rib chiqishni lozim deb topdik:

Mezonlar (xususiyatlar)	Ogʻzaki diskurs	Yozma diskurs
Rejalilik	koʻpincha rejasiz, tabiiy oqimda yuzaga keladi	oldindan rejalashtiriladi, tuzilishi aniq boʻladi
Intonatsiya va talaffuz	muhim rol oʻynaydi, hissiyot va urgʻularni yetkazishga xizmat qiladi	intonatsiya mavjud emas, lekin tinish belgilari, struktura yordamida ifodalanadi
Strukturaviy yaxlitlik	toʻliq boʻlmagan gaplar, uzilishlar boʻlishi mumkin	tuzilishi aniq, grammatik jihatdan yaxlit boʻladi
Tinglovchi (adresat) bilan aloqa	bevosita oʻzaro taʼsir mavjud (savol-javob, mimika)	oʻquvchi bilan bevosita aloqa yoʻq
Takrorlash va qisqartirish	koʻp uchraydi va tushunmovchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi	kamdan kam uchraydi, loʻndalik va aniq ifoda ustuvor hisoblanadi

Diskurs oddiygina til birliklarining toʻplami emas, balki muloqot jarayoni va ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan hodisadir. Diskursni toʻliq tushunish uchun faqatgina lingvistik tahlil yetarli emas, balki uning ijtimoiy, madaniy, pragmatik, psixologik va kommunikativ jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Diskursning asosiy xususiyatlari

1.	Maʼlumot va kommunikatsiya	Diskurs nafaqat maʼlum bir mavzudagi axborotni yetkazadi, balki uni qanday taqdim etish va qanday qabul qilish muhimligini ham oʻz ichiga oladi.
2.	Muloqot qatnashchilari	Diskursda adresant (nutq sohibi) va adresat (tinglovchi yoki oʻquvchi) oʻrtasidagi oʻzaro munosabat katta ahamiyatga ega. Kim gapiryapti, kimga moʻljallangan va qanday vaziyatda ekanligi diskurs mazmunini shakllantiradi.
3.	Muloqot vaziyati va konteksti	Diskurs doim maʼlum bir sharoit va muhitda yuzaga keladi, bu esa uning mazmuniga bevosita taʼsir qiladi. Masalan, siyosiy nutq, ilmiy maqola yoki norasmiy suhbat – har biri turli kontekstlarda yuzaga keladi va har xil tushuniladi.
4.	Makon va zamon munosabatlari	Qayerda va qachon sodir boʻlayotgani diskursning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, qadimgi matnni hozirgi zamonda oʻqish yoki boshqa madaniyat vakillarining diskursini tahlil qilishda makon va vaqt omillari alohida ahamiyat kasb etadi.
5.	Muloqot shakli va bayon uslubi	Ogʻzaki va yozma diskurs farqli tuzilishga ega boʻlib, har birining oʻziga xos grammatik va stilistik xususiyatlari bor. Masalan, ogʻzaki diskursda takrorlash va intonatsiya muhim boʻlsa, yozma diskursda tuzilma va mantiqiy izchillik ustuvor ahamiyatga ega.
6.	Muloqot qatnashchilari tomonidan baholanishi	Diskurs nafaqat obyektiv maʼlumotni yetkazadi, balki unda nutq sohibining subyektiv bahosi, nuqtayi nazari va pozitsiyasi ham aks etadi. Masalan, OAVda turli siyosiy voqealar bir xil faktlar asosida, lekin turlicha baholanib yoritilishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda diskursni turli mezonlar asosida tasniflash mumkin. Muloqot shakli, ishtirokchilari, vaziyat va maqsad kabi omillar diskursning turini aniqlashda muhim rol oʻynaydi.

T/r	Diskurs turlari	Subguruhlar	Xususiyatlari
1.	Muloqot shakliga koʻra	Ogʻzaki diskurs	Jonli muloqot, suhbat, maʼruza, intervyu, nutq. U bevosita va dinamik xususiyatga ega, intonatsiya va jestlar bilan boyitiladi.
		Yozma diskurs	Maqolalar, kitoblar, ilmiy ishlar, hujjatlar, qonunlar. Bu statik shakl boʻlib, mantiqiy izchillik va aniq tuzilmani talab qiladi.
2.		Individual diskurs	Shaxsiy bloglar, monologlar, shaxsiy kundaliklar, yakka suhbatlar.

	Ishtirokchilar soni va ma'lumot uzatish usuliga ko'ra	Ommaviy diskurs	OAV, siyosiy chiqishlar, reklama, targ'ibot-tashviqot materiallari, ijtimoiy tarmoqlardagi ommaviy postlar.
3.	Muloqot vaziyati va maqsadiga ko'ra	Akademik diskurs	Ilmiy maqolalar, konferensiya nutqlari, ta'lim darsliklari.
		Siyosiy diskurs	Saylovoldi nutqlari, rasmiy chiqishlar, qonunchilik munozaralari.
		Ilmiy diskurs	Fundamental tadqiqotlar, ilmiy jurnallar, laboratoriya hisobotlari.
		Diniy diskurs	Diniy marosimlar, va'zlar, muqaddas matnlar tafsiri
4.	Yangi shakllar	Interdiskurs	Turli diskurs turlarining o'zaro aralashuvi yoki bir-biriga ta'siri. <i>Masalan, ilmiy va ommaviy axborot vositalari diskursi o'zaro kesishishi natijasida ilmiy-ommabop maqolalar yuzaga keladi.</i>
		Subdiskurs	Keng diskurs ichida alohida ixtisoslashgan kichik tarmoq. <i>Masalan, siyosiy diskurs ichida "saylovoldi kampaniyalari diskursi" yoki diniy diskurs ichida "fatvo diskursi".</i>

Professor G.N.Manaenko ushbu masalani o'rganishga turli yondashuvlarni umumlashtirib, diskursni "inson faoliyatining har qanday sohasidagi subyektning ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, shuningdek, tashkil etish va talqin qilishning o'rnatilgan stereotiplari bilan belgilanadigan umumiy qabul qilingan nutq xatti-harakati turi" [4;160-b.] deb ta'riflaydi. Uning fikricha, diskurs to'rt murakkab jihatdan: muhit, ijtimoiy subyekt, mazmun va matndan tashkil topadi.

Insoniyatning ijtimoiy, kommunikativ aloqaga kirishi sababi ma'naviy va moddiy ehtiyojlari tufayli sodir bo'ladi. Ehtiyojlar esa, zamon va makonga qarab o'zgaradi. Bundan diskurs davr o'tishi bilan o'zgarib turuvchi hodisa ekanligi anglashiladi. Diskurs murakkab nutqiy kommunikativ hodisa bo'lib, unga matndan tashqari, matnni tushunish uchun zarur bo'lgan ekstralingvistik omillar ham kiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari diskurs tushunchasining lingvistik va falsafiy asoslarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Diskurs tilshunoslik bilan cheklanmay, ijtimoiy fanlar, falsafa va psixologiya doirasida ham muhim kategoriya sifatida o'rganilishi lozim. Bizningcha, diskurs tahlili turli fanlar orqali amalga oshirilishi mumkin: Lingvistik yondashuv diskurs tuzilishini, grammatik va semantik xususiyatlarini o'rganadi. Madaniy yondashuv nutqning ijtimoiy-madaniy kontekstda qanday shakllanishini tahlil qiladi. Siyosiy tahlil diskursda mafkura va hokimiyat munosabatlarini o'rganadi. Psixologik tahlil nutq ishtirokchilarining motivatsiyasi va ta'sirchanligini ko'rib chiqadi. Demak, diskurs bu shunchaki bog'langan gaplar yig'indisi emas, balki fikr almashinuvi orqali ijtimoiy haqiqatni shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni umumlashtirgan holda diskurs tushunchasi murakkab va ko'p qirrali abstrakt tushuncha ekanligi oydinlashadi va faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki kengroq ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida qo'llaniladi. Tadqiqot natijalari asosida diskursning quyidagi jihatlari misollar orqali dalillandi: abstrakt tushuncha (aniq chegaralarga ega bo'lmagan, turli tahlil yondashuvlariga ochiq hodisa); murakkab tuzilma (tizimlashtirish qiyin bo'lgan, ko'p sohadagi munosabatlarni qamrab oladi); ijtimoiy kontekst bilan bog'liqlik (har bir diskurs ijtimoiy, madaniy va siyosiy sharoitlarda shakllanadi); kommunikativ faoliyat mahsuli (matn yoki nutqiy jarayon sifatida yuzaga chiqadi); aniq vaqt va makon talabi (diskurs doim vaqt va makon sharoitlarida sodir bo'ladi); nutqiy harakat zarurati (har qanday nutq yoki yozuv diskursga aylanishi uchun maqsadli kommunikativ harakat bajarilishi lozim). Shu bois diskursni faqat til hodisasi sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va kognitiv fenomen sifatida ham tushunish lozim. Diskurs hodisasining semiotik va kognitiv o'ziga xos jihatlarni yanada chuqurroq tahlil qilish va uning amaliy qo'llanilishi imkoniyatlarini kengaytirish kelajakdagi ilmiy tadqiqotlarda tadqiq etiladigan dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abdurahmonova N. Tilshunoslikda diskurs va matn tushunchalarining chegaralari va bir-biri bilan munosabatlari. Toshkent, 2022.

(2). Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. London – Thousand Oaks – New Delhi, SAGE Publications. 1997, Vol.1, 352 p.

- (3). Gee J.P. An introduction to discourse analysis. Theory and practice. Routledge, 2005, p. 209.
- (4). Manaenko G.N. Nutq, matn va til bilan bog'liq nutq. Til. Matn. Nutq. Universitetlararo nashr. 1. Stavropol; Pyatigorsk. PGLU, 2003. 26–40-betlar.
- (5). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
- (6). Schiffrin D. Approaches to Discourse. Oxford, Cambridge, MA, 1994.
- (7). Shukurov U.I. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi. Filol.fan.dissert.avtoref., Andijon, 2023.
- (8). Zellig S.Harris. Discourse analysis (journal article). Linguistic society of America, 1952.
- (9). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990.
- (10). Демьянков В.З. Теория интерпретации в прикладной лингвистике. Проблемы вычислительной лингвистики и автоматической обработки текста на естественном языке. М., МГУ, 1980, с. 125–158.
- (11). Пардаев А. Сўз таърифи хусусида. «Интернаука», научный журнал, часть 2, Москва, 2017, № 11(15).

Abduraxmanova Madina Ulugbekovna (ADCHTI 1-kurs doktoranti; lady.abdurahmanova@bk.ru)
DISKURS ILMİY REFLEKSIYALARNING OBYEKTI SIFATIDA

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada diskurs tushunchasining ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan. Diskurs va matn o'rtasidagi tafovutlar aniqlangan. Milli va xorijiy tilshunos olimlarning bu ikki tushuncha borasidagi qarashlari tadqiqi amalga oshirilgan. Diskurs ijtimoiy-faoliyatli xarakterga ega ekanligi, kognitiv tabiatga egaligi, lisoniy va lisoniy bo'lmagan omillarning ta'sirini aks ettirishi, kommunikativ xilma-xilligi va o'zgaruvchanligi bilan ajralib turishi haqida mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** diskurs, matn, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya.*

Абдурахманова Мадина Улугбековна (докторант 1-курса АГИИЯ; lady.abdurahmanova@bk.ru)
ДИСКУРС КАК ОБЪЕКТ НАУЧНЫХ РЕФЛЕКСИЙ

***Аннотация.** В данной статье проанализированы научные подходы к понятию дискурса. Определены различия между дискурсом и текстом. Проведено исследование взглядов отечественных и зарубежных лингвистов на эти два понятия. Высказаны соображения о том, что дискурс имеет социально-деятельностный характер, когнитивную природу, отражает влияние лингвистических и нелингвистических факторов, отличается коммуникативным разнообразием и изменчивостью.*

***Ключевые слова:** дискурс, текст, лингвистика, культурология, психология.*

Abdurakhmanova Madina Ulugbekovna (1-year doctoral student at the ASIFL; lady.abdurahmanova@bk.ru)
DISCOURSE AS AN OBJECT OF SCIENTIFIC REFLECTION

***Annotation.** This article analyzes scientific approaches to the concept of discourse. The differences between discourse and text are defined. A study of the views of domestic and foreign linguists on these two concepts has been conducted. Considerations are expressed that discourse has a socio-activity character, cognitive nature, reflects the influence of linguistic and non-linguistic factors, and is characterized by communicative diversity and variability.*

***Keywords:** discourse, text, linguistics, cultural studies, psychology.*

Kirish. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya va bir qator shu kabi bir-biriga bog'liq fanlar negizida paydo bo'lgan diskursni tushinishda, eng avvalo, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish zarurdir. Dastavval, diskurs va matn o'rtasidagi tafovutga to'xtalish darkor.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Diskurs va matn tushunchasi an'anaviy ravishda ongli amallar bilan bog'liq hisoblangan, shuningdek, kognitiv jarayonlar realizatsiyasi natijalarini til tizimi belgilari yordamida mustahkamlashga ehtiyoj sanalgan. U yoki bu matnlar madaniyatni, qadriyatlarini, an'analarni bir avloddan keyingi avlodga yetib borishi va saqlanishidagi asosiy vositalardandir. Matn – bu terminning an'anaviy tushunilishi bo'yicha “aloqa, moslashish” degan ma'nolarni anglatadi. Matn bu barcha gumani-tar-falsafiy qarashlarning birlamchi omili bo'lib, tafakkurning hech narsaga bog'liq bo'lmagan haqiqatidir [1]. M.M.Baxtinning aynan mana shu konsepsiyasi tilshunoslikda matn tushunchasiga asos bo'ldi va XX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi. Matn tushunchasi borasida o'nlab ta'riflar keltirilgan bo'lib, ular turli-tuman yondashuvlar bilan amalga oshirilgan. L.G.Babenko, I.Y.Vasilyev va Y.V.Kazarin ta'kid-lashlaricha, matnning umumqabul qilingan ta'rifi yo'q. Turli olimlar bu xodisaga turlicha ta'rif beradilar. D.N.Lixachev matnda qandaydir g'oya ilgari suriladi, deydi [2]. O.L.Kamenskaya, matnning asosiy roli verbal kommunikatsiya vositasidaligidir, deydi [3]. A.A.Leontyev, matn bu nutqiy hosilaning funksional tugallanganligi, deydi [4]. I.R.Galperin matnning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir deydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Matnni tushunishga bo‘lgan turli yondashuvlarni o‘rganib, xulosa qilish mumkinki, matn “turli tipdagi lisoniy, mantiqiy va grammatik aloqalar bilan bog‘langan tartibga solingan ko‘plab gaplar yig‘indisi bo‘lib, u muayyan usullar bilan tashkillashtirilgan va yo‘nalgan axborotni yetkazuvchi” yaxlit bir butunlikni hosil qiluvchi mualliflik hosilasi, belgilarning izchilligi (til yoki boshqa belgilar tizimida)dir [6]. Nutqiy ijodiy jarayonlarning yakuniy natijasi bo‘lib, yozma hujjat ko‘rinishida o‘z aksini topuvchi, grammatik, mantiqiy va uslubiy bog‘liqlikka ega, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan va pragmatik yo‘nalishga ega bo‘lgan natijadir.

Shunday qilib, matnni murakkab, tugallangan bir butunning modeli sifatida qabul qilish mumkin. Matnning zamonaviy talqinida kommunikativ xususiyatga ega bo‘lgan masalalar, ya’ni, yaratiladigan matn birliklarining bir ma’noli ta’rifini ta’minlaydigan ratsional (asoslangan) kommunikatsiya sharoitlarini tahlil qilish oldingi planga qo‘yiladi. Har qanday jamiyat madaniyatining muhim elementi bo‘lgan, ushbu jamiyatda faoliyat yurituvchi nutq uning “konteksti”da sodir bo‘ladigan ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta’sir qiladi.

Ko‘rsatilgan individual ijodkorlik va ijtimoiy-madaniy muhit sintezi matndan ko‘ra kengroq kategoriya bo‘lgan diskurs kategoriyasini shakllantiradi.

“Diskurs” tushunchasi XX asrning 60-yillari oxirida tilshunoslarning ishlarida o‘z dolzarbligini topdi. Milliy lingvistik maktabdan yoki nazariy yo‘nalishidan qat’i nazar, ko‘p olimlar “diskurs” tushunchasini nutqqa aloqador bo‘lgan tadqiqotlarni o‘rganish va tavsiflash uchun qo‘llashadi. Diskur borasidagi tadqiqotlar ko‘p yillardan buyon davom etayotgan bo‘lishiga qaramasdan, ushbu ilmiy tushunchaga yakdil ta’rif mavjud emas. “Diskurs termini qo‘llanish doirasiga ko‘ra mashxur bo‘lsa-da, aniq ta’rifga ega emas, chunki matnlar yig‘indisi sifatida ham (P.Serio), nutq sifatida ham (N.D.Arutyunova, Y.S.Kubryakova), mentalitetning muayyan turi sifatida (Y.S.Stepanov) va muloqot vaziyatida nutq sifatida ham ta’riflanadi” [7].

Diskurs bu, eng avvalo, o‘ziga xos grammatikaga, so‘z boyligiga, o‘ziga xos so‘z tuzilishi va sintaksisga, semantikaga o‘zgacha dunyoga ega bo‘lgan matnlarda mavjud bo‘ladigan “tildagi tildir [8]. Ushbu ta’rif diskursning kommunikativ mohiyatini ta’kidlaydi, uni kommunikativ hamkorlikning hosilasi sifatida ko‘rib chiqadi, ammo e’tiborni aynan ana shu kommunikativ hamkorlikning o‘ziga hosliklariga qaratadi.

I.A.Yevstigneyevaning ta’rifiga ko‘ra, “diskurs muayyan makonda, vaqtda va boshqa kontekstlarda qaysidir kommunikativ harakat jarayonida kommunikanlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan muloqot hodisasi” [9]. Shunga muvofiq, matndan farqli o‘laroq, diskurs, ma’kon-vaqt kontekstida ko‘rib chiqiladi, kommunikativ munosabatning kechishida kontekst ta’siri bilan asoslanuvchi xususiyatlarga ega deb hisoblash mumkin

N.D.Arutyunovanning ta’kidlashicha, diskurs bu “hayotga singib ketgan nutq” [10], demak, hayotimizning kechishi kabi, muloqotning borishi ham har xilligi bilan tavsiflanadi, diskursning o‘zi esa vaziyatlar bilan bog‘liq kontekstlar ta’sirida o‘ziga xosliklarga ega bo‘ladi.

A.P.Kryachkova diskursni “turli xil til birliklari va standart nutqiy harakatlarning funksiyalari va semantikasi o‘zgarishi sodir bo‘ladigan o‘ziga xos belgilar tizimi” deb tushunadi [11]. Ushbu ta’rifda asosiy e’tibor o‘zaro hamkorlikning kechishi shartlari ta’sirida muayyan lisoniy vositalarning sezilarli o‘zgarishga uchrashiga qaratilmoqda.

Diskurs – bu “muayyan shaxsning kognitiv faoliyati natijasi” [12], lingvistik hamda ekstralingvistik komponentlarni o‘z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa. Bir tomondan, diskurs muloqotning yuzaga kelishi va qabul qilinishi sharoiti bilan, boshqa tomondan, uning ishtirokchilari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning dunyoqarashini, niyatlarini, qarashlarini va tajribasini aks [13]. Shuning uchun diskurs psixologik, sotsiomadaniy, pragmatik va boshqa omillar bilan birga ko‘rib chiqiladi. Vaziyatli kontekstlarni va tegishli diskurs turlarini bilish shaxsning vaziyatga mos xulq-atvorini ta’minlaydi, qo‘yilgan maqsadga erishishiga va muloqotning muvafaqqiyatli kechishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, keltirilgan ta’riflar tahlili asosida, diskurs murakkab kommunikativ hodisa, amalga oshirishda ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillarga asoslanadigan, kommunikanlarning o‘ziga xosliklari, o‘zaro munosabati va aynan qanday vaziyatda muloqot sodir bo‘layotganligiga asoslanadigan kommunikatsiyaning bir turi sifatida tushunilishi mumkin. O‘zaro hamkorlikning borishi, o‘ziga xosligi natijasida diskursning kommunikan shaxsiga, kontekstga va boshqa shu kabi omillarga bog‘liqligi kabi farqlari shakllanadi.

Bu kabi yondashuv amalga oshirilishi orqali matn va diskurs kategoriyalarini farqlash imkoni paydo bo‘ladi: agar diskurs nutq faoliyatining jonli, variativ, doimiy o‘zgarib turuvchi jarayoni bo‘lsa, shu bilan bir qatorda, lingvistik va ekstralingvistik omillarga asoslanadigan xilma-xil muloqot munosabatlari deb qaralsa, matn ushbu jarayonning bir natijasi “maxsuloti” deyish mumkin (ya’ni matn diskursning bir qismi

hisoblanadi) [14]. Yevropada diskursning asoschilaridan biri bo'lgan T.A. Van Deyk "matn" va "diskurs" tushunchalari o'rtasida aniq farq bor deb hisoblaydi: "Diskurs – amalda aytilgan matn, "matn" esa aytilgan-ning abstract grammatik tuzilishidir. Diskurs – nutqqa tegishli tushunchadir <...>, "matn" esa til tizimiga yoki aytilganing formal lingvistik bo'limlariga, lingvistik kompetensiyaga tegishli tushunchadir" [15].

L.V. Tsurikovaning ta'kidlashicha, til faoliyatining qonuniyatlarini o'rganar ekan, tadqiqotchi har doim "mahsulot" bilan, bu faoliyatning natijasi bilan ishlaydi, biroq tadqiqotchi bu "mahsulot"ni faqatgina muloqot ishtirokchilari tomonidan uning yaratilishi va qabul qilinishi xususiyatlari nuqtayi nazaridan yoki uning avtonomligi, yaxlitligi, nutq yaratishning yakuniy natijasi, ushbu natijani shakllantirishda ishtirok etgan lingvistik vositalarmajmuasi nuqtayi nazaridan o'rganishi mumkin. Shunga ko'ra, birinchi holda u diskurs bilan, ikkinchi holda esa matn bilan ishlaydi [14].

Diskursni tashkil etishga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

–gapiruvchini nutq faoliyatini amalga oshirishga undovchi motiv, maqsadlar, niyatlar;

–kommunikativ vaziyatni tahlil qilish, bu esa muloqot joyini, vaqtini va boshqa sharoitlarini hisobga olishni, adresat modelini yaratishni (uning ijtimoiy maqomini, tanishlik darajasini, kasbini, yoshini, etnik mansubligini, bilimini, adresat haqidagi tahminiy taassurotlarini va psixologik jihatlarini hisobga olishni) nazarda tutadi, ya'ni vaziyat psixologik, ijtimoiy-madaniy va etnografik darajalarda tahlil qilinadi;

–xotirada mavjud bo'lgan vaziyatli modellarga, ijtimoiy hodisalarga muvofiq keladigan kontekstual vaziyatning kognitiv obrazini yaratish.

Boshqacha qilib aytganda, diskurs ijtimoiy-faoliyatli xarakterga, kognitiv tabiatga ega, lisoniy va lisoniy bo'lmagan omillarning ta'sirini aks ettiradi, kommunikativ xilma-xilligi va o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

Diskurs doirasida ko'plab o'lchovlar mavjud bo'lib, ushbu tushunchani o'rganishga turli xil yondashuvlar, jumladan, strukturaviy-lingvistik, sotsiolingvistik, lingvomadaniy, pragmalingvistik yondashuvlar qo'llanishi mumkin [16]. Shunday qilib, diskurs, nutq, til, kognitiv, ijtimoiy va psixologik jihatlarni o'z ichiga olgan ko'p omilli, ko'p darajali hodisadir [17].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diskurs tuzilishini tushunishning yagona yondashuvi mavjud emas. L.Baxman nutqni hosil qilishning atributiv xususiyatlarini – kogerentlik (mantiqiylik) va bog'liqlik (kogeziya)ni ajratib ko'rsatadi [17]. Kogeziya deganda diskursning formal-grammatik bog'liqligi tushuniladi; kogerentlik esa diskurs mazmunining tematik, semantik, funksional bog'liqligini nazarda tutadi.

Diskurs tuzilishida propozitsiya, eksplikatura, referensiya, implikatura, presuppozitsiya va relevantlik kabi xususiyatlar ajratib ko'rsatiladi [17].

V.I.Karasik diskursning statusli-rolli, situativ-kommunikativ xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi, ular esa o'z ichiga muloqot sharoitlarini, sohasini, maqsadlarni, motivlarni, kommunikativ aktlarni amalga oshirish strategiyalarini, janr va uslubiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Olim kommunikativ strategiyalar diskursning ajralmas qismi sifatida qaralishini ta'kidlagani alohida ahamiyatga molikdir.

Bundan tashqari, tilshunos statusga yo'naltirilgan yoki institutsional va shaxsga yo'naltirilgan diskurs turlarini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi faoliyat sohasiga muvofiq kommunikatsiya xarakterini belgilaydi; ikkinchisi maishiy, kundalik muloqotda, badiiy adabiyotda ustuvor bo'ladi [18]. Biz amalga oshirayotgan tadqiqot doirasida tibbiy, ya'ni institutsional tipdagi diskurs alohida qiziqish uyg'otadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diskurs kategoriyasini tushunishga ko'plab yondashuvlarni umumlashtirib, quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin: diskurs bu ikki tomonlama jarayon bo'lib, unda pragmatik funksiyani amalga oshirish maqsadida so'zlovchi tilning leksik, grammatik, sintaktik, uslubiy, janrli, ijtimoiy-madaniy me'yorlariga muvofiq ravishda, ruhiy va hissiy omillarni yuqori darajada hisobga olgan holda, kogeziya, kogerentlik vositalarini qo'llash orqali axborotni kodlashni amalga oshiradi; qabul qiluvchi nuqtayi nazaridan esa diskurs bu pragmatik funksiyani amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladigan tilning leksik, grammatik, sintaktik, uslubiy, janrli, ijtimoiy-madaniy me'yorlariga muvofiq ravishda, ruhiy va hissiy omillarni yuqori darajada hisobga olgan holda, kogeziya, kogerentlik vositalarini qo'llagan holda diskursiv axborotni interpretatsiya (talqin) qilish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Сост. С.Г.Бочаров, примеч. С.С.Аверинцева и С.Г. Бочарова. М., "Искусство", 1979, с. 424; с. 281.

(2). Лихачев Д.С. Текстология. СПб., 2001, с. 758; с. 32.

(3). Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Учеб. пособие для ин-тов и фактов иностр. яз., М., "Высш. шк.", 1990, с. 152; с. 56.

- (4). Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. М., “Просвещение”, 1969, с. 124; с. 112.
- (5). Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., “Наука”, 1981, с. 140; с. 14.
- (6). Тураева З.Я. Лингвистика текста (текст: структура и семантика). Москва, “Просвещение”, 1986, с. 127; с. 11.
- (7). Акаева Э.В. Коммуникативные стратегии профессионального медицинского дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук, 10.02.01. Омск, 2007, с. 23; с. 6.
- (8). Степанов Ю.С. Альтернативный мир. Дискурс. Факт и принцип причинности. Язык и наука конца XX века. М., “Наука”, 1995, с. 35–73; с. 44.
- (9). Евстигнеева И.А. Методика развития дискурсивных умений студентов на основе современных информационных и коммуникационных технологий (английский язык, языковой вуз). Дисс. канд. пед. наук, Тамбов, 2013, с. 228; с. 27.
- (10). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярцева, М., Сов. энциклопедия, 1990, с. 136–137.
- (11). Крячкова А.П. Реализация стратегии дискредитации оппонента в политическом дискурсе Германии. Вестник МГИМО университета, 2015, № 3 (42), с. 157 – 160; с. 158.
- (12). Пушкин А.А. Прагмалингвистические характеристики дискурса личности. Личностные аспекты языкового общения. Межвуз. Сб. научн. Тр. Калинин. КГУ, 1989, с. 45–53; с. 48.
- (13). Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. М., 1990, с. 147 – 165; с. 147.
- (14). Пурикова Л.В. Дискурсивные стратегии как объект когнитивно-прагматического анализа коммуникативной деятельности. Вопросы когнитивной лингвистики. 2007, № 4 (013), с. 98 – 108; с. 99.
- (15). Цит. по Чиняева, В.В. Механизмы формирования и интерпретация имплицитных смыслов в различных типах коммуникативных высказываний. Дисс. канд. филол. наук, Санкт-Петербург, 2015, с.198; с. 127.
- (16). Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Сб. науч. тр., Волгоград, “Перемена”, 2000, с. 5–20; с. 5 – 6.
- (17). Евстигнеева И.А. Методика развития дискурсивных умений студентов на основе современных информационных и коммуникационных технологий (английский язык, языковой вуз). Дисс. канд. пед. наук, Тамбов, 2013, с. 228; с. 28.
- (18). Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Сб. науч. тр., Волгоград, “Перемена”, 2000, с. 5–20; с. 5 – 6.

**Uralov Azamat Begnarovich (Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent; azamaturalov06@gmail.com)
BA’ZI SINTETIK SHAKLLARNING HOSIL BO’LISHIDA NOMUTANOSIBLIKLAR**

***Annotatsiya.** Maqolada ikki shaklning bir mazmunga birikishi shaklga nisbatan nomutanosiblikni ko’rsatsa, ikki mazmunning bir mazmun ifodalab qolishi mazmunga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltirishi isbotlangan. Shuningdek, ikki so’zning yonma-yon, yondosh kelishi natijasida ikkinchi so’z o’z ma’no-vazifasidan uzoqlashib qoladi, dastlab, ko’makchi so’zga, so’ng esa qo’shimchaga aylanadi. Natijada ikki so’z va morfologik shakl o’rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelishi tadqiq etilgan.*

***Kalit so’zlar:** murakkab, sintetik, analitik va kengaygan shakllar, qo’shma, juft va takroriy so’zlar, asos, nomutanosiblik (asimetriya), birikuv, tarixiy taraqqiyot.*

**О НЕСООТВЕТСТВИИ, ВОЗНИКАЮЩЕМ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОБРАЗОВАНИЯ
ОТДЕЛЬНЫХ СИНТЕТИЧЕСКИХ ФОРМ**

***Аннотация.** В статье доказывается, что соединение двух форм в одно содержание свидетельствует о дисбалансе по отношению к форме, тогда как соединение двух содержаний, выражающих одно содержание, создает дисбаланс по отношению к содержанию. Кроме того, в результате расположения двух слов рядом второе слово отрывается от своего значения и функции и сначала становится вспомогательным словом, а затем наречием. В результате было исследовано возникновение несоответствия между двумя словами и морфологическими формами.*

***Ключевые слова:** сложные, синтетические, аналитические и развернутые формы, сложные, парные и повторяющиеся слова, основа, асимметрия, сочетание, историческое развитие.*

DISPARITIES IN THE FORMATION OF SOME SYNTHETIC FORMS

***Annotation.** The article proves that the combination of two forms into one content shows disproportion with respect to form, while the expression of one content by two contents creates disproportion with respect to content. Also, as a result of the juxtaposition of two words, the second word becomes distant from its meaning-function and first becomes an auxiliary word, and then an adverb. As a result, the emergence of disproportion between two words and morphological form is studied.*

Keywords: *complex, synthetic, analytical and expanded forms, compound, paired and repeated words, basis, disproportion (asymmetry), combination, historical development.*

Kirish. O'zbek tili morfologiyasida murakkab: sintetik, analitik va kengaygan shakllarning hosil bo'lishi hamda ularning til qurilishidagi o'rni va vazifasini belgilab olish, shuningdek, bunday birliklarda nomutanosiblik masalasini hal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tilshunolar grammatikada nomutanosiblikning sistema nomutanosibli, struktura nomutanosibli, amalda bo'lish yoki funksiyalashish nomutanosibli kabi uch turini belgilaydilar [1;25–31-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nomutanosiblik til tizimidagi turli sathlarning har xil taraqqiyot darajasi bilan bog'liq. Shuningdek, ayrim so'zlarning paradigmasi to'liq bo'lmaganligi ham nomutanosiblikdan dalolat beradi. Yaxlit shakllarni fransuz tilshunolari "ifodalanuvchilarning qo'shilishi" (Sh. Balli) hamda "amalgamalar" (A.Martine) deb nomlaganlar. Murakkab grammatik shakllarda ifodalovchi va ifodalanuvchining turlicha mutanosib yoki nomutanosib bo'lishi kuzatiladi. Mavzu doirasida murakkab shakllarning kelib chiqishi, rivojlanishi, taraqqiyoti va asl shakllarga nisbatan nomutanosibliklarini o'rganib chiqamiz.

Murakkab shakllar orasida sintetik shakllar ikki va undan ortiq qismlarning hosilasidan, yaxlitlashidan paydo bo'ladi (ular orasidagi bog'lanish juda zich bo'lib, bir mazmunga xizmat qiladi). Shakllanish nuqtayi nazardan bir necha birlikdan tashkil topgan bo'lsa-da, ular endi bir vazifa bajarish uchun xoslangan bo'ladi.

Tahlil va natijalar. *-digan, -yotgan* shakllari. Aslida, *-digan* (bara tururg'on), *-yotgan* (yotirgan) shakllari fe'l analitik shakllarining qisqarishidan paydo bo'lgan sifatdosh shakllaridir. *-gan* sifatdosh qo'shimchasi aniqlovchilik vazifasida fe'lning zamon shakllaridan so'ng shaxs-son qo'shimchalari egallaydigan pozitsiyada kela olmaydi. *Ishla-y-man, ishla-y-san, ishlay-di; ishla-y-miz, ishla-y-siz, ishla-ydi-lar* (III shaxsdagi *-di* elementi, aslida, *turur* shaklining qoldig'i ekanligi ma'lum: *ishlay durur – ishlay+dur – ishlaydir – ishlaydi*). Ayni shu yo'l zamon ko'rsatkichining shakllanish yo'lidir. Demak, darslik va ilmiy manbalarda *ishlaydi* ko'rinishidagi shakllardan *-di* shaxs-son ko'rsatkichi ma'no-vazifasi shu morfema vositasida ifodalanadi: *ishla-y-man, ishla-y-san, ishla-y-di; -di* esa "qoldiq" morfema sifatida shu vazifani ham bajaradi. Mazkur holat zamon asoslariga *-gan* affiksining qo'shila olmasligidan dalolat beruvchi muhim belgi hisoblanadi. *-digan* sifatdoshining soddalashuvi (*-di+gan*) tarixiy taraqqiyot bilan bog'liq. *-yotgan* sifatdoshining soddalashuvi esa *-yot* unsurini bugungi kunda ma'no anglatmay qolishi yoki asos tarkibiga yolg'iz qo'shila olmasligidadir. Demak, bu holat ham nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, *-ajak* shakli tarkibidagi *-a* unsurining tutashtiruvchi vazifasiga o'tishi ham nomutanosiblikning bir ko'rinishini ifoda etadi.

-adi shakli. O'zbek tiliga xos bo'lgan agglutinatív-analitik tuzilishdan kelib chiqib, shuni qayd etish kerakki, ikki so'zning yonma-yon, yondosh kelishi natijasida ikkinchi so'z o'z ma'no-vazifasidan uzoqlashib qoladi va dastlab ko'makchi so'zga, so'ng esa qo'shimchaga aylanadi. A.Nurmonovning fikricha, "grammatik qo'shimchalarning qo'shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o'zgartirmaydi" [2;141-b.]. Shu sababli morfologik shaklga aylangan birlik asosga yangi ko'rinishi bilan birikadi. Mustaqil so'zlarning fuziyaga uchrab morfologik shakllarga aylanishi diaxron jihatdan ko'p kuzatiladi. Bunday holatlarga fe'l so'z turkumi nisbatan ko'p tortiladi. Masalan, *kula turur – kuladur – kuladi; ko'rib turur – ko'ribdur – ko'radur – ko'radi* kabi misollarda ikki so'zning birikishi til morfem qurilishida *-adi* morfemasini hosil qilgan. Natijada ikki so'z va morfologik shakl o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelgan.

-guncha, -gancha shakllari. Sh.Rahmatullayevning fikricha, "oraga egalik qo'shimchasini "kiritish mumkinligi" *-guncha* yaxlit affiks emasligini isbotlab turadi: *-gun+im+cha*. Murakkab affiks ichiga forma o'zgartiruvchi affiksni kiritib bo'lmazligi – aksioma" [3;16-b.]. Tadqiqotda yuqoridagi fikr yana shu jihatni xarakterlaydiki, ayrim yaxlit til birligi – sintetik shakl (qo'shma affiks) qismlari orasida ma'lum vazifadagi mustaqil affiks paydo bo'lishi mumkin: jumladan, ravishdoshning *-guncha, -gancha* shakllarida shunday hodisa kuzatiladi: *kelguncha – kelgunimcha, kelguningcha, kelgunicha; kelgunimizcha, kelguningizcha, kelgunlaricha; kelgancha – kelganimcha, kelganicha...* *-guncha* sintetik shakli orasiga shaxs-sonning qo'shilib qolishi kuzatiladi va bu o'ziga xos nomutanosiblik hisoblanadi: *kel+gun (+im)cha* kabi.

Dunyo tillarida, jumladan, turkiy tillar va o'zbek tilida qo'shma va murakkab affikslar tarkibida morfologik shakllar (so'z o'zgartiruvchi affikslar)ning joylashuvi umumlisoniy xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslikda *-guncha* shakli *-gancha* shaklining tovush o'zgarishidan (*-guncha<-gancha*) paydo bo'lgan degan qarash bor. Sh.Rahmatullayev o'z vaqtida A.N.Kononov tomonidan taklif etilgan etimologiyaga tayangan holda (*-gun+cha: chog'*) *-gun* va *-gan* qismlari asli

bir affiksning ikki fonetik varianti (shakli) degan xulosaga keldi. Lekin bu shakllarning genetik tabiati, diaxron jihatdan tamomila boshqa ekanligi, keyinchalik, A.N.Kononov tomonidan alohida e'tirof etilgan edi: *-guncha* shakli, aslida, *-gu* (kelasi zamon sifatdoshi) hamda *-cha* (chegara affiksi yoki ekvativ); *-gan* esa *-g* (orttirma daraja ko'rsatkichi)+*n* (sifatdosh+ravishdosh affiksi)dan iborat; *-guncha* tarkibidagi *-n* egalik kategoriyasining qoldig'idir; *-guncha* affiksi tarkibidagi *-gun* o'tgan zamon sifatdoshi, buning ustiga, fe'l sifatlovchi deb tan olinadigan bo'lsa, u qanday qilib "kelasi vaqt chegarasi"ni bildirishi mumkin? [4;13-b.]. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda chog'ishtirish, o'xshatish, chegara, taxmin kabi ma'no ottenkalarini bildiruvchi yoki ifodalovchi *-cha* (chegara – ekvativ) affiksi amal qilgan. (Aslini qaraganda, bunday mazmunning keng ifodalanishi tildagi bir shaklga nisbatan olinadigan bo'lsa, mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqarmoqda). Ayni ana shu affiks, keyinchalik, *-larcha*: (yuzlarcha: chama, taxmin), *-tacha* (o'ntacha: taxmin), *-larcha* (bolalarcha: o'xshatish), *-gacha* (uygacha: chegara) qo'shma affikslari tarkibiga singishgan va yaxlitlashgan. Taraqqiyot natijasida soddalaşgan. Shu sababdan tilning qadimgi davridayoq affiks maqomiga to'la ega bo'lgan *-cha*, *-dek* morfemalarini goh yuklama – affiks, goh ko'makchi – affiks deb nomlash, ularning imlosini o'zgartirib, chiziqcha bilan yozishga asos yo'q. Yaxlit morfema orasiga sintaktik ehtiyoj tufayli egalik shakllarining orttirilishi o'z izohiga ega: ayrim hollarda yaxlit til birligining "uzilishi", oraga ba'zi elementlarning kiritilishi tipologik jihatdan xilma-xil tillarga xos hodisadir. Bu jarayon o'zbek tilida ham ko'plab kuzatiladi. *-guncha* – *-gancha* (ravishdoshi); *-gun* – *-gan* (ravishdosh); *-larcha* – *-tacha* (sonlarda taxmin) shakllari morfologik sintagmalar tarkibida shaklga nisbatan nomutanosiblikning diaxron ko'rinishini; *-larcha* (chama, taxmin: *yuzlarcha* – o'xshatish: *bolalarcha*), *-gacha* (ko'makchi affiks – qadar) shakllari esa morfologik sintagmalar tarkibida mazmunga nisbatan nomutanosiblikning sinxron ko'rinishini ifodalamoqda.

Sh.Rahmatullayev: "Tom ma'noda ikki affiksning qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab affiksdan, ikki morfemaning yonma-yon kelishini farqlash lozim", deb to'g'ri ta'kidlaydi. "Lekin, deb yozadi muallif, *-ga*, *-cha* murakkab affiks emas, chunki uning tarkibi *-ga* affiksiga va *-cha* morfemasiga ajraladi" [3;16–18-b.]. Keyingi birlik o'zidan oldin kelishik affiks qatnashuvini talab qiladi, go'yo "boshqaradi"; affiksga esa bunday xususiyat xos emas. Bu morfema tashqi ko'rinish asosidagina affiksga tenglashtirib yuborilgan, asli ko'makchi-affiks deb baholanishi to'g'ri: *Sirdaryoga qadar–Sirdaryogacha*, haqiqatan ham, bu o'rinda, qadar ko'makchisiga ma'nodosh, vazifadosh bo'lib kelayotganligi aniq. Shunga ko'ra, *-gacha* birikuvidagi holatda tub ma'nodagi qo'shma affiks hali shakllanmagan deb hisoblash lozim.

O'zbek tilshunosligida ko'makchilar o'zidan oldin kelgan so'zni "boshqaradi" degan an'anaviy qarash hamon mavjud. Holbuki, ko'makchilar (analitik vositalar) ham, kelishik affikslari (sintetik vositalar) ham ikki mustaqil so'z (ot+fe'l)ning birikishi (valentligi)ni ta'minlaydigan, ularning munosabatga kirishuvi uchun "ko'priq" bo'ladigan yordamchi birliklardir. Shu sababli ham ko'makchi birliklarini faqatgina boshqarish uchun xoslangan deyish to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun ular bir so'zga emas, balki ikki so'zga taalluqli bo'lgan, ularni "ushlab" turadigan morfemalardir. Solishtiring: *kitobcha*, *qizaloq*, *ko'chalar*; *ishchan*, *sizla* kabi so'zlardagi *-cha*, *-loq*, *-lar*, *-chan*, *-la* morfemalari bir so'zga taalluqli birliklardir.

"*-gacha* shaklida ikkinchi qism (-cha)ning ma'nosi aktual bo'lib, *-ga* – tutashtiruvchi (asemantik) birlikka aylangan; ikkinchidan, mustaqil shakl bo'lganidan, *-gacha* (uygacha, shahargacha) bog'lanib keladigan fe'llar bilan *-ga* jo'nalish kelishigi bog'lanadigan fe'llar farqlanadi" [5;42–48-b.]. Tutashtiruvchi birlikning ma'nosizlanishiga esa o'z vazifasini yo'qotishi sabab bo'lgan. Bunda *-ga* elementi jo'nalish kelishigi xususiyatida emas, ikki birlik *-ga+cha* soddalaşib, bir shaklga aylangan.

Demak, hozirgi tilda *-guncha*, *-gacha* kabi shakllar xuddi *-gudek* (kelgudek: *-gu*: kelasi zamon sifatdoshi), *-larcha* (o'nlaracha), *-tacha* (yuztacha) qo'shma affikslari kabi yaxlit til birliklari bo'lib, agar ularning tashkil etuvchilari alohida-alohida olib qaraladigan bo'lsa, til sistemasiga tegishli paradigmalardagi binar-oppozitivlik munosabatlariga putur yetadi. Chunki har bir til elementi, sodda yoki qo'shmaligidan qat'iy nazar, sinxron sistemada o'z o'rni va mavqeyiga ega. Albatta, ko'makchilar ham, yuklama va bog'lovchilar ham muayyan vazifada morfemik maydonga tortiladi. Morfem sintagmatikada ularning ham o'ziga xos o'rni va hissasi bor. Bunday birliklarni tarkibga ajratib o'rganib bo'lmaydi. Demak, shakllarning murakkablashuvi natijasida hosil bo'lgan analitik shakllar, sintetik shakllar, murakkab shakllar, kengaygan shakllarning tarkibi bugungi kunda yaxlit o'rganilib, asli mohiyatiga nisbatan nomutanosib bo'lib qolgan.

Umuman olganda, *-guncha* (*-kuncha*, *-quncha*), *-gancha* (*-kancha*, *-qancha*) ravishdosh shakllari o'z taraqqiyotida *-gan* sidatdoshi va yuqorida qayd etilgan *-cha* shakli yordamida hosil bo'lgan. Sifatdoshning ravishdoshga o'tishida miqdor, kuchaytiruv, qisman chegara ma'nolarini ifodalovchi *-cha* shaklining roli katta. *-cha* shaklining ravish yasashi, ravishga xos boshqa mazmunlarni ifodalashi *-gan* sifatdosh shakli bilan birikkan holda yangi mazmunning "o'sib chiqishiga" sabab bo'lgan. Natijada ilgari ifodalangan si-

fatdoshlik va kuchaytiruv mazmunlari ravishdoshning yangi shakliga “joy ajratib” bergan. Bu holat nomutanosiblikni yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, murakkab – sintetik shaklning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida sodda va qo‘shma birliklarning farqi ularning tuzilishida bo‘lib, ma’no jihatidan esa ular hamma vaqt ham farqli belgilarga ega emas. Shuning uchun sintetik shakllarni ma’noli qismlarga bo‘lish mumkin bo‘lsa-da, paradigma nuqtayi nazardan yaxlit shakl ko‘rinishda olib qarash, yaxlit shakl sifatida tahlil qilish lozim. Mazmun talabi bilan murakkablashgan shakllar tilda o‘ziga xos nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология, М., 1986, с. 25–31.
- (2). Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2011, 141-bet.
- (3). Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилидаги бир синтактик курилма хақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1992, 2-сон, 16-бет.
- (4). Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации. “Вопросы языкознания”, 1976, № 4, с. 13.
- (5). Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1979, 42–48-бетлар.

Ruzmetova Ozoda Alimovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ozoda2019581@gmail.com)

MATEMATIK TERMINLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TADQIQI

Аннотация. Ushbu maqolada lug‘atlar haqida muhokama borib, xususan, terminologik lug‘atlar va izohli lug‘atlar haqidagi masalalar ko‘rib o‘tilgan. Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Macmillan English dictionary” lug‘atlarida matematik terminlarni izohlanish masalalari tahlilga tortilgan. Tahlil natijasida umumadabiy va terminologik izohli lug‘atlarda terminlarning izohlanishi bir-biridan farq qilishi ma’lumligi ta’kidlangan.

Калит so‘zlar: termin, terminologiya, terminologik lug‘at, izohli lug‘at, izohlash, matematik terminlar.

ИЗУЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются словари, в частности, вопросы терминологических словарей и толковых словарей. В данной статье анализируются вопросы толкования математических терминов в словарях «Толковый словарь узбекского языка» и «Macmillan English dictionary». В результате анализа отмечается, что толкование терминов в общелитературных и терминологических толковых словарях отличается друг от друга.

Ключевые слова: термин, терминология, терминологический словарь, толковый словарь, объяснение, математические термины.

STUDY OF MATHEMATICAL TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES

Annotation. In this article, it is discussed dictionaries, in particular, issues of terminological dictionaries and explanatory dictionaries. This article analyzes the issues of explanation of mathematical terms in the dictionaries “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” and “Macmillan English Dictionary”. As a result of the analysis, it is noted that the explanation of terms in general literary and terminological explanatory dictionaries differs from each other.

Key words: term, terminology, terminological dictionary, explanatory dictionary, explanation, mathematical terms.

Кирish. Til taraqqiyotida tilning lug‘at tarkibi turli o‘zgarishlarga duch keladi. Bu o‘zgarishlar miqdor jihatdan yoki sifat jihatdan o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin, ya’ni, yangi leksik birliklar paydo bo‘ladi va boshqalari iste’moldan chiqadi, ba’zi so‘zlar yangicha ma’nolarda qo‘llanila boshlaydi, ba’zi bir boshqa so‘zlarning ayrim ma’nolari o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Izohli lug‘atlar muayyan tilning til boyligini ko‘rsatish, tilning muayyan davridagi holatini aniqlash kabi maqsadlarni ko‘zlagan holda tuziladi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati ham keng xronologik doirada o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, balki hozirgi zamon o‘zbek tilining keng iste’moldagi so‘z boyligini to‘plash va tavsiflashni, shuningdek, uning me’yorlarini belgilash va barqarorlashtirishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da “Izohli lug‘at”ga “Lug‘aviy birlikning ma’nosi keng izohlanadigan, grammatik, uslubiy va boshqa belgilari ham qayd etil-

ladigan lug‘at’¹, deb ta’rif berilgan. O‘z ta’rifidan kelib chiqqan holda, izohli lug‘atlar mukammallikni talab qiladi. Izohli lug‘atlarda so‘zlarning izohlari berilibgina qolmasdan, unda leksikaning me’yorlari belgilangan va barqarorlashgan bo‘ladi, ya’ni so‘zlarning imlosi, talaffuzi va ularning ishlatilish o‘rinlari keltiriladi. Shuningdek, kerakli o‘rinlarda so‘zlarning kelib chiqishi – etimologiyasi ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Terminologik lug‘atda muayyan bir soha terminologiyasini imkon boricha qamrab olish va shu sohada shakllangan ilmiy tushunchalar tizimini mantiqan izchil tavsiflash maqsadga muvofiq bo‘lsa, izohli lug‘atning vazifasi umumxalq tilining leksik-semantik tizimini muayyan til jamoasida qanday mavjud bo‘lsa, shundayligicha tavsiflashdan iborat.² Izohli lug‘atlarda tilning keng iste’modagi so‘zlari to‘plangan va izohlangan bo‘ladi. So‘zlarning izohi bilan bir qatorda, lug‘at ularning ma’nolarini ochib beruvchi misollar, iqtiboslar bilan dalillangan bo‘ladi.

O‘zbek tilining har ikkala izohli lug‘atiga termin tanlashda, ularning chegara va miqdorini belgilashda maxsus qo‘llanma va yo‘riqnomalarga imkon boricha rioya qilingan, boshqa tillardagi izohli lug‘at tuzish tajribalaridan unumli foydalanilgan. Masalan, o‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘atiga 60ga yaqin fan, texnika, san’at va madaniyat sohalari, ularning tarmoqlaridan 17–18 mingdan ortiqroq termin (bunda sof termin ham, umumadabiy tilda qo‘llaniluvchi ko‘p ma’noli so‘zlarning terminologik ma’nolari ham hisobga olingan) tanlab olingan va tegishli darajada izohlangan, zarur hollarda daliliy misollar (illustratsiyalar) bilan ta’minlangan.³ Shu fanlar qatoriga, albatta, matematika fani ham kiritilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning har ikkala nashrida ham matematik terminlar o‘ziga xos izohlangan.

A.Madvaliyevning “O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari”⁴ asarida 60 ga yaqin fan sohasi va tarmoqlaridan eng asosiy deb hisoblangan 21 soha bo‘yicha tanlanma yo‘l bilan izohli lug‘atlarga kiritilgan terminlar va terminologik ma’nolar miqdori xususida ma’lumot bergan va bu sohalar orasida matematika sohasi ham o‘rin olgan bo‘lib, ular quyidagicha ko‘rsatilgan:

3.1-jadval

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan matematik terminlar miqdori

Terminologik tizim	O‘TIL-2 da berilgan terminlar miqdori	O‘TIL-2 da yangi kiritilgan terminlar miqdori	O‘TIL-2 da berilgan, lekin O‘TIL-5 ga kirmagan terminlar miqdori	O‘TIL-5 dagi terminlarning umumiy miqdori
Matematika	198	55	3	250

Tadqiqoti obyektini sifatida tanlangan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (keyingi o‘rinlarda O‘TIL) va “Macmillan English dictionary” (keyingi o‘rinlarda MED) lug‘atlarida matematik terminlarni tahlilga tortdik.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada matematikaga oid terminlar, asosan, ularning izohlari har ikkala qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashligi, ba’zan qisman o‘xshashligi yoki izohi har ikkala tilda farqlanishiga ko‘ra tahlilga tortilgan. Tanlangan matematik terminlarning izohlarini taqqoslab o‘rganildi va ularning farqli hamda umumiy tomonlarini aniqlandi. Tadqiqotni yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tipologik (cho‘g‘ishtirma), tarixiy-etimologik, komponent va semik tahlil, statistik tahlil kabi metod va usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Har qanday tilda izohli lug‘atlarda terminlarni izohlash ma’lum tartibga amal qilgan holda amalga oshiriladi. O‘TILda ham terminlar izohi muayyan tartibga asoslanadi. Agar terminlar umumadabiy so‘zdan shakllangan bo‘lsa, bunday terminlarning umumadabiy tilga xos ma’nosi, avval, terminologik ma’nosi keyingi o‘rinda izohlanadi. Bu tartibni matematikaning asosiy terminlaridan hisoblangan, arifmetikaga tegishli bo‘lgan *qo‘shuv* – *addition* terminining izohi misolida ko‘rishimiz mumkin:

O‘zbek tilining izohli lug‘ati
QO‘SHUV 1. Qo‘shmoq (*fl. har.n*)

Macmillan English dictionary
addition [*ə'dɪf(ə)n*] *noun*

¹ Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T., O‘zRFA, “Fan”, 2013, 52-bet.

² Малаховский Л.В. Специальные термины в общем словаре: принципы отбора и толкования (на материале английской лексикографии). Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Л., 1976, с. 226.

³ Madvaliev A. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017, 191-бет.

⁴ Madvaliev A. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 190-бет.

2. *mat.* Qo‘shish amali

- 1 *something that you add to something else*
- 2 **MATHS** *the process of adding two or more numbers or amounts together to make a total*
- 3 *an extension that is added to a building*

Har ikkala lug‘atda ham, avvalo, umumadabiy tildagi ma‘nosi jihatdan va keyingi o‘rinda matematika terminologik sohasiga tegishlilikini bildirib turgan maxsus terminologik belgi qo‘yilib izohlangan.

O‘TILda so‘zning grammatik xususiyatiga to‘xtalib maxsus belgi ostida, ya‘ni *fl. har.n* kabi ko‘rsatilib, u fe‘lning harakat nomi shakli ekanligi qayd etiladi. MEDda mazkur birlik ot so‘z turkumiga tegishli ekanligi maxsus belgi (*noun*) orqali ifodalangan.

Yuqorida keltirilgan termin izohidan yana shuni aniqlash mumkinki, ularning izohi o‘zbek va ingliz tillarida hajm jihatdan va mazmun jihatdan farqlanadi. O‘TILda termin *amalni* ifodalashi ta‘kidlangan va so‘z ikkita o‘rinda ishlatilishini unga lug‘atda ikkita izoh berilishidan bilib olishimiz mumkin. MEDda bu termin *jarayon* sifatida qaralgan va to‘liq izoh berilgan; ya‘ni, *jami yig‘indini hosil qilish uchun ikki yoki undan ortiq sonlar yoki miqdorlarni birga qo‘shish jarayoni* kabi izohlangan va keltirilgan izohga qarab mazkur so‘z uchta o‘rinda foydalanilishini aytishimiz mumkin.

Matematikaga oid bir qator terminlar ham boshqa fan va soha terminlari kabi xuddi umumiste‘mol so‘zlarida uchraganidek ko‘p ma‘nolilik, ya‘ni polisemantik ma‘no xususiyatlariga ega. Lug‘at har bir so‘z uchun tuzilgan lug‘at maqolalaridan tashkil topgan bo‘ladi. Terminlarning ko‘p ma‘nolilik xususiyatlarini izohli lug‘atlarning lug‘at maqolalarida har bir ma‘nosi alohida shartli belgilar bilan ifodalanganligidan bilib olishimiz mumkin.

O‘zaro antonim bo‘lgan terminlar ma‘nosini bir-biriga qiyoslab ko‘rish ham har bir termin ifodalaydigan til hodisasining mohiyatini to‘g‘ri va aniq tushunishga yordam beradi. Shu sababli o‘zaro antonim bo‘lgan terminlarning har biri uchun tuzilgan lug‘at maqolasida (*zid*) belgisi bilan uning antonimi keltiriladi.¹ Ushbu berilgan fikrga asosan O‘TILda *manfiy* termini misolida uning antonimi sifatida *musbat* terminining keltirilishini uchratmadik, ammo ingliz tilida MED da *negative* – *manfiy* so‘zi har bir izohi oxirida maxsus zidlov belgisi (\neq) bilan uning antonimi *positive* – *musbat* so‘zi keltirilganini uchratdik.

Matematikaga oid terminlarning har ikkala qiyoslanayotgan tillarda so‘z birikmasi holatida ham ko‘p uchratamiz. Bunday tuzilishga ega bo‘lgan terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi o‘ziga xos tartibda amalga oshirilgan. Birikmalar, odatda, terminning lug‘at maqolasida yoki terminga keltirilgan misolda keltirilib o‘tilgan bo‘ladi. Izohning bunday keltirilishi birikma terminga tegishli bir komponent bo‘lib kela olishini ifodalaydi.

Ilyustrativ misolning qanday shaklda, ya‘ni so‘z birikmasi yoki gap shaklida bo‘lishi, shuningdek, uning ma‘lum manbadan olinishi kerakligi so‘zning, so‘z ma‘nosining xususiyatiga qarab belgilanadi. Masalan, ma‘noga berilgan izoh va boshqa qaydlarni shu so‘z ishtirokida tuzilgan so‘z birikmasi tasdiqlay olssa, shunday misolni berish va shu bilan cheklanish mumkin.²

Bu holatni o‘zbek va ingliz tillaridagi *algebraik ifoda* – *algebraic expression* birikma terminining izohli lug‘atlardagi izohida kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati
Ifoda [arabcha – anglatish, o‘rgatish; xabardor qilish; ifodalash, bayon qilish; ko‘rsatma]
1. bildiruvchi, aks ettiruvchi nutq birligi: so‘z, ibora, gap va b.
2. aks ettiruvchi yoki mujassamlantiruvchi belgi, holat, ramz.
3. biror matematik bog‘lanishni bildiruvchi formula:
algebraik ifoda.

Macmillan English dictionary
expression [ik’spreʃ(ə)n] noun
1 a word or phrase
2 a look on smb’s face that shows what their thoughts or feelings are
3 the act of showing what your thoughts or feelings are by your behavior or through art, music etc
4 **MATHS** a group of signs and numbers that show a particular quantity or idea: **algebraic expression**

Har ikkala qiyoslanayotgan lug‘atlarda ham so‘zga keltirilgan misol qismida, birikma termin, ya‘ni, *algebraik ifoda* – *algebraic expression* termini *ifoda* – *expression* so‘zining lug‘at maqolasi tarkibida kelti-

¹ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002, 7-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд (А-Д). Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 18-бет.

rilgan. O'zbek tilida so'zning uchinchi ma'nosida hech qanday maxsus belgisiz so'zning matematika bilan aloqador ma'nosi izohlangan va misolda *algebraik ifoda* deb ko'rsatish vositasida so'zning *algebraik* so'zi bilan birikkan holatda ishlatilishi ko'rsatilgan.

Ingliz tili izohli lug'atida ham *expression* so'zi xuddi o'zbek tiliga deyarli o'xshash tarzda izohlangan, ammo so'zning aynan matematikaga mansubligi xususiy leksikografik belgi bilan keltirilgan. Bu lug'atda ham *expression* so'zi *algebraic* so'zi bilan birikishi misolda keltirilgan.

Shunday terminologik birliklar borki, bularning aynan matematik terminologik ma'nosi umumadabiy izohli lug'atlarda berilmagan. Masalan, *nur* – *ray* terminining terminologik ma'nosi tahlil qilinayotgan har ikkala izohli lug'atda ham topilmadi. Bu termin maxsus tarjima lug'atida va ingliz tilida matematik terminlar izohli lug'atida, "Dictionary of Mathematics terms"¹ maxsus terminologik izohli lug'atida berilgan. Masalan, *Ray – a ray is like half of a line: it has one end point, and then goes off forever in a straight line/you can think of a light ray from a star as being a ray, with the endpoint located at the star.*²

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"³da bu termin *nur* – (*matematikada*) *yarim to'g'ri chiziq* kabi izohlangan. Shu o'rinda o'zbek tilida maxsus matematik terminlar izohli lug'ati shu kungacha yaratilmaganligini aytib o'tish o'rinlidir.

Xulosa va takliflar. Umumadabiy va terminologik izohli lug'atlarda terminlarning izohlanishi bir-biridan farq qiladi, shu sababli har bir sohaning terminologiyasini o'rganish uchun maxsus terminologik izohli lug'atlar yaratilishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chog'ishtirilayotgan har ikkala tillarning umumdabiy izohli lug'atlarida umumiste'mol so'zlarining izohi asosiy tamoyil bo'lganligi sabab, terminologik birliklar izohiga katta e'tibor qaratilmagan. Shunga asosan, muayyan sohaning terminlarini uyg'unlashtirish, unifikatsiyasiga erishish, ikki tilli (inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha) lug'atini yaratishning leksikografik mezonlari va uslubiy yondashuvlari zaruriyati aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T., O'zRFA "Fan", 2013, 52-bet.
- (2). Малаховский Л.В. Специальные термины в общем словаре: принципы отбора и толкования (на материале английской лексикографии). Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Л., 1976, с. 226.
- (3). Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 190–191-бетлар.
- (4). Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002, 7-бет.
- (5). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд (А-Д). Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 18-бет.
- (6). Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron's Educational Series, 2009, pp. 282–411.
- (7). Ўзбекистон миллий энциклопедияси (А ҳарфи). Т., Давлат илмий нашриёти, 330-бет.

Sapayeva Barno Shanazarovna (PhD, dotsent v.b., Ma'mun universiteti; e-mail:

sapayeva_barno@mamunedu.uz; ORCID 01009-0001-6461-252X)

QARDOSH BO'LMAGAN TILLARDA GAPNI BO'LAKLARGA AJRATISH VA SO'Z TARTIBI TADQIQIGA DOIR

Annotatsiya. Tilshunoslikda gapni tarkibiy qismlarga ajratish masalasi qadimdan e'tiborda bo'lib kelmoqda. Bu yo'nalishda yuzlab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, mazkur masala hanuzgacha to'liq o'rganilmagan va ayrim jihatlari hanuz sirli bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada gapni bo'laklarga ajratish va so'zlarning tartibini o'rganish bo'yicha olib borilgan tarixiy tadqiqotlar yoritiladi. Asosiy urg'u bu boradagi tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari va ularning izlanishlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: gaplarda so'z tartibi, tema, rema, kommunikativ yondashuv.

¹ Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron's Educational Series, 2009, 411 p.

² Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron's Educational Series, 2009, p. 282.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси (А ҳарфи). Т., Давлат илмий нашриёти, 330-бет.

Сапаева Барно Шаназаровна (PhD, н.о. доц., Университет Маъмуна; e-mail: sapaveva_barno@mamunedu.uz)

К ИЗУЧЕНИЮ ЧЛЕНЕНИЯ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ПОРЯДКА СЛОВ В НЕРОДСТВЕННЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Несмотря на то, что вопрос членения предложения на составляющие элементы начал изучаться в лингвистике много веков назад и по данной тематике накоплен обширный научный материал, проблема до сих пор сохраняет свою сложность и остается не до конца раскрытой. В статье прослеживается развитие научных представлений о структуре предложения и порядке слов в разных языках. Основное внимание сосредоточено на анализе трудов лингвистов, исследовавших указанные аспекты.

Ключевые слова: порядок слов в предложениях, тема, рема, коммуникативный подход.

Barno Sapaveva (PhD, Assoc. Prof., Mamun University; e-mail: sapaveva_barno@mamunedu.uz)

ON THE STUDY OF PARTS OF SENTENCES AND WORD ORDER IN UNRELATED LANGUAGES

Annotation. Although linguists have been investigating the segmentation of sentences for several centuries, and a substantial body of scholarly work has been produced on the topic, it continues to pose unanswered questions and remains insufficiently explored. This article explores the historical development of research on sentence segmentation and word order in linguistics. The primary emphasis is placed on examining the contributions and findings of linguists who have studied this area.

Key words: word order in a sentence, theme, rheme, communicative approach.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri tilning kommunikativ xususiyatlari va uning funksional vazifalarini oʻrganishdir. Gapni boʻlaklarga ajratish masalasida turli tilshunoslar har xil yondashuvlarga amal qilgan. Ular aktual boʻlinish jarayonida gapni, odatda, ikki asosiy qismga – bayonning boshlanish nuqtasi va asosiy mazmuniy yadrosiga ajratishgan. Tilshunos olimlar ushbu tarkibiy qismlarga oʻz ilmiy yondashuvlariga qarab turli nomlar bergan: “mavjud maʼlumot – yangi maʼlumot”, “tema – rema”, “kontrast markazi”, “kontrastiv – non-kontrastiv”, “aniq – noaniq”, “maʼlum – nomaʼlum”, “bayon foni – bayon maqsadi” kabi atamalar mavjud. Hozirgi davrda esa bu komponentlar, asosan, “tema” va “rema” tushunchalari orqali ifodalanmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Endi esa gapning kommunikativ tuzilishi, yaʼni aktual boʻlinishining tadqiqot tarixiga qisqacha nazar tashlaymiz.

Agar aktual boʻlinish nazariyasining shakllanish jarayoniga tarixiy-xronologik jihatdan yondashilsa, bu nazariyaning kamida uch asrlik tarixga ega ekani ayon boʻladi. Bugungi kunga kelib, gapdagi soʻz tartibi va aktual boʻlinish masalalariga oid juda koʻplab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Soʻnggi yigirma yil davomida gapning aktual boʻlaklarga ajratilishini ikki yoki undan ortiq tillar doirasida sinxron qiyosiy va tipologik jihatdan oʻrganishga boʻlgan ilmiy qiziqish ortdi. Natijada quyidagi tillar oʻrtasida tadqiqotlar olib borildi: ingliz va tatar tillari,¹ rus va ingliz tillari,² rus va tojik tillari,³ rus, boshqird va fransuz tillari,⁴ oʻzbek va ingliz tillari⁵ va boshqa tillar asosida ham ishlar bajarilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy mavzuni yoritishda qardosh boʻlmagan tillarda gaplarni aktual boʻlaklarga ajratish va gapda soʻz tartibi tadqiqiga doir ilmiy manbalar va olimlarning izlanishlari hamda fikrlari qiyosiy-chogʻishtirma usulda oʻrganildi. Shu usulda gapni boʻlaklarga ajratish va soʻz tartibini tadqiq qilishda har xil yondashuvlar kuzatildi va oʻziga xos xulosa chiqarildi.

¹ Хисматова Ч.Г. Актуальное членение повествовательного предложения в английском и татарском языках. Автореф. дис. канд. филол. наук, Казань, 2004, 27 с.

² Брылева Н.П. Актуальное членение и синтаксическая структура предложения в английском языке. Дисс. канд. филол. наук, М., 1978, с. 189; Сарымбетова А.А. Репрезентации темы и ремы в русском и английском языках. Автореф. дис. канд. фил. наук, Душанбе, 2019, с. 24.

³ Юсупова, З.Р. Актуальное членение предложения в русском и таджикском языках. Дис. канд. филол. наук, Душанбе, 2006, с. 165.

⁴ Саттарова А.Ф. Изучение актуального членения предложения в русском языке (в сопоставлении башкирском и французском). Дис. канд. пед. наук, М., 2002, с. 191.

⁵ Бекчаев Ё.Дж. Сравнительный анализ актуального членения предложения в английском и узбекском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук, Душанбе, 2020, с. 26.

Tahlil va natijalar. Shuni unutmaslik kerakki, gapning aktual bo‘linishi nazariyasi bevosita so‘z tartibi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab u zamonaviy tilshunoslikda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanib bordi.

Uzoq yillar davomida bu ta‘limot ilk bor fransuz tilshunosi Anri Veyl tomonidan ishlab chiqilgan, deb hisoblangan. Biroq rus olimi V.P.Danilenko bu fikrga qarshi dalillar keltirib, gapning aktual bo‘linishiga oid asosiy tushunchalar, ayniqsa, “rema” atamasi, XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq fransuz va nemis olimlarining ilmiy ishlari orqali aniq ifodalanganini ta‘kidlagan.¹

Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi tushunchasi XIX asrda psixologik yo‘nalish ta‘sirida shakllanib, so‘z tartibi masalasini tadqiq etish bo‘yicha yetakchi omilga aylangan.

Endi esa ayrim olimlarning aktual bo‘linish tarixi borasidagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Xususan, O.A.Krilova² bu nazariyaning rivojlanish tarixini to‘rtta bosqichga ajratadi:

XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asr boshlarigacha – so‘z tartibining qonuniyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan.

XIX asr oxiridan XX asrning birinchi yarmigacha – bu davr gapning aktual bo‘linishini psixologik talqinda o‘rganish davri hisoblanadi.

XX asrning birinchi yarmi – V.Matezius va qator sovet olimlari (germanistlar) tomonidan gapning aktual bo‘linishini lingvistik asosda tadqiq etish boshlangan.

XX asrning ikkinchi yarmi – O.A.Krilova fikricha, bu davr I.P.Raspopov ishlaridan boshlab, gapning aktual bo‘linishi haqidagi ta‘limotning zamonaviy bosqichiga asos solingan.

Yuqoridagi birinchi bosqichga Sh.Bato, Monbodd, I.Adelung, K.Bekker, T.de-Marse, N.Boze, A.Veyl kabi olimlarning ilmiy ishlari taalluqlidir. Ushbu tadqiqotlarda “aktual bo‘linish” termini shartli ravishda qo‘llanilgan, chunki, dastlab, bu atama “tema” va “rema” tushunchalariga nisbatan qo‘llanilgan.

I. Adelung ega haqida gapirganda, uni asosiy tushuncha sifatida ko‘rib chiqadi va u noaniq narsani bildiradi, deb hisoblagan. Shu sababli u “ega” va “kesim” terminlarining mazmunini, shuningdek, “subyekt” va “predikat” tushunchalarini o‘ziga xos tarzda talqin qilgan.

Anri Veylning tadqiqot ishida so‘z tartibini aktual bo‘laklanish bilan bog‘lashga ilk urinish amalga oshirilgan.³ I.Adelungdan farqli o‘laroq, A.Veyl ega deganda gapda nimaning ustida so‘z borayotgan bo‘lsa, o‘shani tushunadi, kesim esa ega haqida biror ma‘lumot beruvchi gap bo‘lagi sifatida talqin qilinadi.

“Ega bayonotning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, kesim esa bayonotning o‘zidir. Shu sababli, odatda, ega birinchi o‘rinda, kesim esa ikkinchi o‘rinda keladi. Biroq gapning birinchi o‘rnida boshqa bo‘laklar ham kelishi mumkin, agar ular bayonotning boshlang‘ich nuqtasi vazifasini bajarasa”.⁴

Demak, A.Veyl nuqtayi nazariga ko‘ra, gapdagi subyekt tematik vazifani bajaradi, ya‘ni, u tema bilan bog‘liq bo‘ladi, predikat esa rematik xarakter kasb etadi. Aksincha, I.Adelung “ega” tushunchasini “rema” bilan bog‘laydi.

Yuqorida qayd etilganidek, gapning aktual bo‘linishi nazariyasi so‘z tartibi muammosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu masala XVIII asr oxiridan boshlab, ilmiy tilshunoslikda muhim mavzulardan biriga aylangan.

N.Boze o‘z qarashlarida gapdagi tabiiy (to‘g‘ri) so‘z tartibini inson tafakkurining tabiiy oqimi bilan bog‘laydi, biroq bu tartib hodisalar rivojlanishining obyektiv ketma-ketligiga emas, balki ongda fikr yuritish tizimiga asoslangan, deb hisoblaydi. U bu holatni “analitik tartib” deb ham atagan. Uning fikricha, bu tartib fikrlashning mantiqiy va ketma-ket tuzilishini aks ettiradi, avvalo, subyekt tasvirlanadi, keyin uning belgilariga, so‘ngra bu belgilarni aniqlovchi qo‘shimcha ma‘lumotlarga o‘tiladi.

Boze bu tartibni universal deb hisoblab, gapda subyekt odatda predikatdan oldin kelishini, aniqlovchi esa undan keyin joylashishini asoslagan. Unga ko‘ra, teskari so‘z tartibi, ya‘ni inversiya – normativ tartibdan og‘ish sifatida qaraladi.

Shu davrda faoliyat olib borgan yana bir tilshunos Sh.Bato esa so‘z tartibining ikki shaklini ajratib ko‘rsatadi: grammatik va notiqlik tartibi. Keyinchalik, V.Matezius bu ikki tur tartibni obyektiv (grammatik) va subyektiv (notiqlik) deb ataydi. Sh.Bato grammatik tartibni sun‘iy deb baholagan, chunki bu tartib ko‘proq ilmiy yozma uslubda qo‘llanadi. Notiqlik tartibi esa og‘zaki va badiiy (jumladan, she‘riy) nutqda ishla-

¹ Даниленко В.П. У истоков учения об АЧП (период до А.Вейля). Филологические науки, № 5, М., 1990, с. 39.

² Крылова О.А. Порядок слов в русском языке. 3-е изд. М., 1986, с. 77–78.

³ Weil, H. De l'ordre des mots dans la langues anciennes comparées aux langues modernes. Paris, 1944, 32 p.

⁴ Крылова О.А. Порядок слов в русском языке. 3-е изд. М., 1986, с. 77–78.

tilgani uchun, u tomonidan tabiiy tartib sifatida talqin etilgan. U o'z qarashlarini quyidagicha umumlashtirgan: "Agar birinchi tartibni u 'ilm-fan tartibi' deb nomlagan bo'lsa, ikkinchisini esa qalb tartibi deb atagan".¹

Sh.Bato o'z tadqiqotlarida quyidagicha fikr bildiradi: "Notiqlik konstruksiyalarida asosiy obyekt doimo bir xil bo'lavermaydi. U ayrim hollarda harakat subyekti, boshqa hollarda esa harakat obyekt, ba'zida esa harakatning o'zi yoki uning sharoitlari, usuli sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Shunday ekan, fe'l, ravish, subyekt, aniqlovchi va fe'lga bog'liq boshqa birliklar vaqt-vaqti bilan gap boshida joylashishi mumkin".² Shundan kelib chiqilsa, Sh.Bato gapdagi so'z tartibini belgilovchi asosiy omil sifatida uning aktual bo'linishini ko'rsatadi. U notiqlik tartibiga ega bo'lgan gaplar grammatik tartibga ega konstruksiyalar bilan aynan bir xil axborotni ifodalaydi, degan fikrga qo'shilmaydi. Uning ta'kidlashicha, mazkur axborot tarkibiy jihatdan tema va rema elementlari orqali shakllanadi.

Bu masalani chuqur o'rgangan yana bir tilshunos K.Bekker bo'lib, uning ilmiy xizmati shundaki, u inversiyani gapning aktual bo'linish vositasi sifatida ko'rib chiqish bilan birga, mantiqiy urg'uning roliga ham alohida e'tibor qaratgan. Bekkerning fikricha, "inversiya va mantiqiy urg'uning kommunikativ tuzilmadagi roli o'zaro uyg'un, hatto teng".³

Ushbu qarashni u turli misollar orqali isbotlaydi. Masalan, "Der Mund des Gerechten bringt Weisheit" jumlasida mantiqiy urg'uning qaysi so'zga tushishiga qarab gapning tema va rema bo'linishi farqlanishi mumkin. Agar urg'u "Gerechten" (odamga nisbatan) so'zga tushsa, bu bo'lak rematik rol ni bajaradi, ya'ni yangi ma'lumot sifatida baholanadi. Aksincha, agar urg'u "Weisheit" (donolik) so'zga tushsa, u holda ushbu so'z rema sifatida ajralib turadi. Bu esa shuni anglatadiki, gapda aktual bo'linishni faqat so'z tartibi orqali emas, balki mantiqiy urg'u yordamida ham ifodalash mumkin.

Bekkerga ko'ra, mantiqiy urg'u – bu aktual bo'linishni ifodalovchi yanada universal vosita bo'lib, u inversiyadan ko'ra ko'proq imkoniyatlarga ega. Sababi inversiya gapning grammatik tuzilishiga bog'liq holda amal qiladi, ayniqsa, fleksiyasi (ya'ni so'z shaklini o'zgartiruvchi morfologik vositalar) kam bo'lgan tillarda. Bunday tillarda so'z tartibi qat'iy bo'lib, uni o'zgartirish imkoniyatlari cheklangan. Aksincha, mantiqiy urg'u tilning grammatik imkoniyatlaridan mustaqil holda, kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda axborotni ajratish imkonini beradi.

Gapning aktual bo'linishini o'rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlar davomida bu hodisaning mohiyati to'liq anglanmagan, atamalar tizimi esa hali shakllanmagan edi. Shunga qaramay, bir jihat ravshan bo'lib chiqqan – bu ham bo'lsa, gap bo'laklarining faqat grammatik belgilari ularning nutqdagi funksional vazifasini to'liq aniqlab bera olmaydi. Ayniqsa, hind-yevropa tillarida so'z tartibining qoidalari gapning rasmiy tuzilishiga emas, balki tema va rema o'rtasidagi semantik munosabatlarga asoslangan bo'ladi. Shu bois nafaqat oddiy so'z tartibi, balki undan og'ish bo'lgan invertlangan konstruksiyalar ham – gap bo'laklarining ketma-ketligidan tashqari, ularning mazmuniy-kommunikativ munosabatlaridan kelib chiqqan holda, ya'ni tema va rema o'rtasidagi bog'liqlik asosida tahlil qilinishi lozim.

Gapning aktual bo'linishi haqidagi qarashlarning navbatdagi bosqichi psixologik yondashuv doirasida shakllangan bo'lib, bu bosqich G.fon der Gabelents, G.Paul, V.P.Slanskiy, F.F.Fortunatov, A.M. Peshkovskiy kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Bu davrda gap, asosan, psixologik hukmning nutqiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, "gap bu til vositasida ifodalangan ramziy birlik bo'lib, u gapiruvchining ongida mavjud bo'lgan tasavvurlar tizimini ifodalaydi va bu tasavvurlar o'rtasidagi munosabatlarni tinglovchiga yetkazish vositasidir".⁴

Mazkur yondashuvda gap bo'laklari an'anaviy grammatik funksiyalardan ko'ra, psixologik subyekt va psixologik predikat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ya'ni, har qanday gap bo'lagi – mazmun va kontekstga qarab, bu ikki funksiyadan birini bajarishi mumkin. Bu esa gapdagi birliklarning rolini yanada nozik psixologik-me'yoriy jihatdan baholash imkonini yaratgan.

XIX asr nemis tilshunosi Georg fon der Gabelents psixologik yondashuvning asoschilaridan biri sifatida tan olinadi. U nutq jarayonida ketma-ket vujudga keladigan tasavvurlarni izchil o'rganib, gapning birinchi elementi sifatida psixologik subyektni ko'rsatgan. Unga ko'ra, bu birlik gap mazmunining asosiy mazmuniy markazini tashkil etadi. Ikkinchi komponent esa psixologik predikat bo'lib, gapiruvchi ushbu subyekt haqida bildiradigan axborotni ifodalaydi.

¹ Даниленко В.П. У истоков учения об АЧП (период до А.Вейля). Филологические науки, №5, М., 1990, с. 85.

² О'sha manba. 84 с.

³ О'sha manba. 87 с.

⁴ Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд. 7-ое. М., 1956, 226 с.

Xulosa. Bu bosqichdagi izlanishlar sintaksisda gapni ikki bo‘lakka – binar tuzilishga ajratish g‘o-yasini kengaytirgan bo‘lsa-da, bu tahlillar grammatik doira bilan cheklanmaydi. Asosiy yutuqlardan biri shundaki, tilshunoslar gapning grammatik tuzilmasi bilan uning kommunikativ-semantik tuzilishi har doim ham to‘g‘ridan to‘g‘ri mos kelmasligini tan oldilar.

Aynan shu nuqtadan boshlab, gapning aktual bo‘linishi bilan bog‘liq hodisalarni, jumladan, so‘z tartibi, intonatsiya, mantiqiy urg‘u, semantik urg‘u hamda ikkinchi darajali gap bo‘laklari – o‘rganishga yangicha yondashuv shakllandi. Bu tahlil, o‘z navbatida, so‘zlar ketma-ketligi va mazmun orasidagi ichki psixologik bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qildi.

**Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi (PhD, Andijon davlat chet tillari insituti dotsenti;
gavharxolisova@gmail.com),**

**Sobirjonov Ravshanbek Tolipjon o‘g‘li (filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi 2-kurs talabasi)
TIJORIY DISKURSNING NAZARIY TAHLILIGA DOIR MULOHAZALAR**

***Annotatsiya.** Tijoriy muloqot va tijoriy diskurs biznes-diskursning subtiplaridan biri, ishbilarmonlik muloqotini anglatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlilida aks etganidek, zamonaviy ilmiy adabiyotda tijoriy muloqotni, tijoriy diskursni tushunishga yondashuvlar mavjud emas. L.S.Vigotskiyning nazariyasi asosida A.A.Leontyev nutq faoliyatini “bir tomondan, muayyan natijaga erishishga yo‘naltirilgan murakkab jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, bu natija ayni paytda mazkur faoliyatning obyektiv harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** nutq faoliyati, samarali muloqot shakllari, muloqotning murakkab tabiati, tijoriy diskurs.*

ВОПРОСЫ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА КОММЕРЧЕСКОГО ДИСКУРСА

***Аннотация.** Коммерческая коммуникация и коммерческий дискурс являются одним из видов делового дискурса, под которым понимается деловое общение. В то же время, как показывает анализ научной литературы, в современной научной литературе отсутствуют подходы к пониманию коммерческой коммуникации и коммерческого дискурса. Основываясь на теории Выготского, А.А.Леонтьев определяет речевую деятельность как «с одной стороны, совокупность сложных процессов, направленных на достижение определенного результата, и этот результат является в то же время объективной движущей силой этой деятельности.*

***Ключевые слова:** речевая деятельность, формы эффективного общения, комплексный характер общения, коммерческий дискурс.*

REMARKS ON THE THEORETICAL ANALYSIS OF COMMERCIAL DISCOURSE

***Annotation.** Commercial communication and commercial discourse are one of the subtypes of business discourse, which means business communication. At the same time, as reflected in the analysis of scientific literature, there are no approaches to understanding commercial communication and commercial discourse in modern scientific literature. L.S.Based on Vygotsky's theory, A.A.Leontiev defines speech activity as "on the one hand, a set of complex processes aimed at achieving a certain result, and this result is at the same time the objective driving force of this activity.*

***Key words:** speech activity, forms of effective communication, complex nature of communication, commercial discourse.*

Kirish. Inson jamiyatida kommunikatsiya deganda fikrlar, bilimlar, his-tuyg‘ular, xatti-harakat sxemalari va boshqalar bilan almashish jarayoni tushuniladi. Muloqot inson mavjudligining ajralmas qismi hisoblanadi. Kundalik hayotda u biz uchun odatiy va tushunarli hodisa sifatida qabul qilinadi. Ammo barcha davrlarda inson muloqoti faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, lingvistlar va madaniyatshunoslar tomondan katta qiziqish uyg‘otib kelgan. Bu esa “Muloqot, bir qarashda, aniq va ravshan tuyuladigan tushunchalar qatoriga kiradi, ammo inson muloqoti murakkab va oson izohlab bo‘lmaydigan hodisadir”,¹ degan fikrni tasdiqlaydi. Miloserdovanning fikriga ko‘ra, muloqot hodisasi sodda ko‘rinishiga qaramay, aslida, ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, turli xil tushunchalar va ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Bu fikr shuni anglatadiki, muloqotni to‘liq anglash va uni izohlash uchun fanlararo yondashuv talab etiladi. Miloserdovanning ushbu fikri muloqotning murakkab tabiati va uni tadqiq etishda fanlararo yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Muloqot bir qarashda oddiy va tabiiy jarayon sifatida ko‘rinsa ham, uni chuqur tahlil qilganda, lingvistik, sotsiologik, psixologik, madaniy, hatto falsafiy jihatlarni o‘z ichiga oladigan ko‘p qirrali hodisa

¹ Милосердова О.А. Теоретические основы общения и коммуникации. Москва, 2001, с. 3.

ekani ayon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, tijoriy diskursni o'rganishda ham faqat lingvistik tahlil bilan cheklanib bo'lmaydi. Chunki tijorat muloqoti iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning samaradorligi, maqsadga yo'naltirilganligi va ta'sirchanligi ko'plab turli omillar ta'sirida shakllanadi. Shu bois tijoriy diskurs tadqiqotida kommunikativ strategiyalar, pragmatik usullar, ijtimoiy kontekst va madaniy omillarni ham hisobga olish muhim. Kommunikatsiya bu faqat axborot almashinuv jarayoni bo'lib qolmay, balki insoniy jamiyatni birlashtiruvchi asosiy omildir. O'zaro axborot almashinuv bu hodisaning mohiyatini – odamlarning birgalikdagi harakatlari va o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Tijorat va biznes sohasidagi kommunikatsiyaning maqsadi esa foyda olishga yo'naltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asrning 30-yillaridayoq V.fon Gumboldt tilning faoliyat xarakteriga e'tibor qaratgan edi: "Til – bu faoliyatning mahsuli (ergon) emas, balki faoliyatning o'zi (energeia)... Tilni haqiqiy va to'liq ma'noda faqat nutqiy faoliyat aktlarining yig'indisi sifatida tushunish mumkin".¹ Gumboldt tilni energiya, ya'ni doimiy harakat va ijod jarayoni sifatida ta'riflaydi.

Tijorat sohasida kommunikativ o'zaro ta'sirning xususiyatlarini aks ettiradigan yangi atamalar, tushunchalar haqida ham mulohaza yuritish kerak bo'ladi. Jumladan, Y.V.Danyushina "biznes-diskurs" tushunchasini "o'zaro ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi hodisa sifatida" ishbilarmonlik sohasiga va biznesning keng doirasiga kiritishni taklif qiladi. Mazkur yondashuvni amalga oshirishda tijoriy muloqot va tijoriy diskurs biznes-diskursning subtiplaridan biri, ishbilarmonlik muloqotini anglatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlilida aks etganidek, zamonaviy ilmiy adabiyotda tijoriy muloqotni, tijoriy diskursni tushunishga yondashuvlar mavjud emas. L.S.Vigotskiyning nazariyasi asosida A.A.Leontyev nutq faoliyatini "bir tomondan, muayyan natijaga erishishga yo'naltirilgan murakkab jarayonlar yig'indisi bo'lib, bu natija ayni paytda mazkur faoliyatning obyektiv harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi; boshqa tomondan esa inson faoliyatining yagona tizimi, ya'ni alohida faoliyatlarning birligi sifatida" talqin qilgan.

Tadqiqod metodologiyasi. Odamlar o'rtasidagi muloqotda xabarlarining uzatilishi xabarning ongli va maqsadli amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Bunda, ko'pincha, adresat (yoki adresatlar), uzatilayotgan xabarlar va ma'lumotni uzatishning aniq vaziyati hisobga olinadi. Shuningdek, bu jarayon mazkur etnokultura va jamiyatda qabul qilingan qoidalarga asoslanadi. Bu qoidalar irsiy bo'lmay, balki hayotiy va nutqiy tajriba to'plash jarayonida o'zlashtiriladi".² Susovning ushbu ta'kidlari kommunikatsiyaning ongli va ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu fikrlar nutqiy jarayonlarning nafaqat lingvistik, balki madaniy, psixologik va sotsial jihatlariga ham asoslangan holda tahlil qilinishini talab etadi. Nutq faqat so'zlar va jumlar yig'indisi emas, balki insonlar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi jarayoni bo'lib, u kommunikatsiyaning konkret ijtimoiy-madaniy sharoitlarida yuz beradi.³ Bu yondashuv tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha tamoyillarni ochib beradi:

1. Maqsadga yo'naltirilganlik. Xabarlarining uzatilishi maqsadli amalga oshiriladi, ya'ni, xabarni yuboruvchi kommunikativ jarayonni oldindan rejalashtiradi va maqsadiga erishishga intiladi. Bu, o'z navbatida, kommunikativ strategiya va taktikalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

2. Adresat omili. Xabarni qabul qiluvchi (adresat)ning ahamiyati katta. Uzaturvchi adresatning bilim darajasi, madaniy tajribasi va ehtiyojlarini hisobga olib, xabarni shunga moslashtiradi. Bu holat kommunikatsiyada pragmatik yondashuvning asosiy komponentidir.

3. Etnokulturaviy omillar. Kommunikatsiya etnik va madaniy xususiyatlarga bog'liq. Har bir jamiyat o'ziga xos qoidalar va konvensiyalarga ega bo'lib, ular muloqot jarayonida tilni qanday ishlatishni belgilaydi. Ushbu qoidalar irsiy bo'lmay, balki ijtimoiylashuv jarayonida o'zlashtiriladi. Bu masala tilni o'rganish va o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Kommunikativ tajriba. Nutqiy jarayon davomida insonlar hayotiy tajriba yig'adi va kommunikatsiya qoidalarini o'zlashtiradi. Bu tajriba pragmatik kompetensiya shakllanishining asosi hisoblanadi.

Susovning ushbu fikrlari kommunikatsiyaning lingvistik va madaniy jihatlarini birlashtirgan holda, uning universalligi va o'ziga xosligini tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, bu nuqtayi nazar psixolinguistika, sotsiolinguistika va interkultural kommunikatsiya tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Yangi geoiqtisodiy chaqiriqlar biznesda til va kommunikatsiyaning o'rganilishini yanada dolzarblik kasb etadi. Biz yangi sinergetik yo'nalish sifatida bizneslingvistika – til resurslarining biznesda qo'llanilishini o'rganadigan interdisipliner tadqiqot sifatida ajratish zarurligini asosladik. Bizning fikrimizcha, bu jarayon til va kommunikatsiyaning biznes-kontekstdagi faoliyatini tahlil qilishda diskursiv

¹ Гумбольдт В.фон. Язык и интеллектуальное развитие человечества. Москва, 2000, с. 70.

² Сусов, И.П. (2007). Основы теории коммуникации. Москва, "Флинта-Наука", с. 34.

³ Сусов, И.П. Основы теории коммуникации. Москва. "Флинта-Наука", 2007, с. 35.

yondashuvga asoslanishi kerak, bu esa N.D.Arutunovning ta'rifiga ko'ra, "nutqning hayotga singib ketishi"ni nazarda tutadi. Y.S.Stepanov ta'kidlashicha, "diskurs – bu til ichidagi til", ammo o'ziga xos ijtimoiy voqelik sifatida taqdim etilgan.¹ Bu tadqiqot, biznesdagi til va kommunikatsiyaning o'rganilishi bo'yicha dolzarb masalalarni ko'rib chiqadi. Yangi iqtisodiy sharoitlar va geoiqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa, globalizatsiya jarayonlari, biznesda tilning va kommunikatsiyaning yangi shakllarini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotda ilgari surilgan "biznes-diskurs" va "tarmoq biznes-diskursi" kabi tushunchalar, til va biznesning o'zaro aloqalarini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, biznes-diskursning tipologiyasini ishlab chiqish va uni tahlil qilish uchun yondashuvlarni aniqlash tadqiqotning ilmiy qiymatini oshiradi. Bu jarayonning muvaffaqiyati, tilshunoslik va biznes fanlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yanada chuqurlashishiga olib keladi.

Xulosa. So'nggi yillarda kommunikatsiya muammolariga, nafaqat tilshunoslikda, balki uning doirasidan tashqarida ham qiziqishning kuchayishi kuzatilmoqda. Maxsus nazariy tadqiqotlarning predmeti sifatida axborot suhbatlarini o'tkazish texnologiyalariga, ma'lumotlarni so'rashga, argumentativ muloqotlarga, ishbilarmon muzokaralarga va bir shaxsning ong mazmunini boshqa shaxsga eng yaxshi tarzda uzatish masalalariga bag'ishlangan masalalar alohida e'tiborga olinmoqda. Ushbu masalalar doimo klassik va zamonaviy shakldagi ritorikaning diqqat markazida bo'lgan. Aynan ritorika lingvistikaning yangi yo'nalishi – nutqiy kommunikatsiya nazariyasi uchun asosiy fanlardan biriga aylangan. Aloqa va axborot vositalarining rivojlanishi ommaviy kommunikatsiya hodisasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ishlab chiqarish faoliyatining insoniy tarkibiy qismiga bo'lgan qiziqish menejment sohasida kommunikatsiya muammosini oldinga surdi. Kommunikatsiya masalalarini o'rganish tarixi esa kommunikativ jarayonlarni modellashtirish usullarining yaratilishiga asoslangan holda kuzatiladi. Kommunikatsiya masalalariga e'tibor qaratish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Mazkur parcha kommunikatsiya nazariyasining rivojlanishi, ayniqsa, uning ritorika, menejment va ommaviy axborot vositalari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Tilni muloqot vositasi sifatida o'rganish lingvistik tizimdan tashqariga chiqib, uning ijtimoiy va amaliy funksiyalariga e'tibor qaratishni talab qiladi. Ritorikaning klassik va zamonaviy shakllari kommunikatsiya jarayonida mazmuni samarali yetkazish, tinglovchini ishontirish va muloqot samaradorligini oshirishning universal tamoyillarini taklif qiladi. Nutqiy kommunikatsiya nazariyasining rivojlanishi ushbu tamoyillarning lingvistik jihatdan tizimli tahlil qilinishiga sabab bo'ldi. Masalan, argumentatsiya, muzokaralar va axborot uzatish jarayonlari kognitiv, sotsiolingvistik va pragmatik yondashuvlar yordamida chuqur tadqiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Сосновская А.М. Деловая коммуникация и переговоры. Учеб. пособие, СПб., изд-во "СЗАГС", 2011, с. 8; с. 92 – 117.
- (2). Xolisova G., Murhanova M. Nutqning o'zaro ta'siri jarayonidagi analik va diskursiv xususiyatlari. "Pedagog" jurnali, Vo 16, 12-son (2023).
- (3). Xolisova G. Diskurs va diskursiv tahlil bo'yicha lingvistik yondashuvlar. Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024.

¹ Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с. 136 – 137.

Ochilova Ozoda Baxtiyorovna (UrDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasini o‘qituvchisi;
ozoda.ochilova.0708@gmail.com)

OMON MATJONNING TARIXIY XARAKTER YARATISH MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning tarixiy xarakter yaratish mahorati, o‘ziga xosliklari haqida gap boradi. Omon Matjon tarixiy asarlarida qahramonlar qiyofasini, ularning xatti-harakatlarini realistik tasvirlashga intiladi. Bu, ayniqsa, buyuk ajdodimiz, tasavvuf namoyandasi Najmiddin Kubro obrazi tasvirida yorqin ko‘rinadi. Adabiyotimizda ko‘plab janrlarda tarixiy mavzudagi asarlar yaratilgani ma‘lum. Turli janr va uslubda yozilgan bu asarlar uchun muayyan tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini davr voqealari asosida xolis talqin etish, tarixiy va badiiy haqiqat uyg‘unligiga erishish musharak maqsaddir.

Kalit so‘zlar: Shayx Najmiddin Kubro, tragediya, tarixiy xarakter, Omon Matjon, realistik tasvir, tarixiylik, badiiy obraz, “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”), tarixiy shaxs obrazi.

Очилова Озода Бахтияровна (преподаватель кафедры узбекского языкознания УрГУ)
МАСТЕРСТВО ОМОНА МАТЖОНА В СОЗДАНИИ ИСТОРИЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА

Аннотация. В данной статье рассказывается об умениях и особенностях поэта Омона Матжона в создании исторического персонажа. В своих исторических произведениях Амон Матжон стремится реалистично описать внешний вид героев и их поступки. Особенно это проявляется в образе нашего великого предка, деятеля суфизма Наджмуддина Кубро. Известно, что в нашей литературе создано множество жанров исторических произведений. Для этих произведений, написанных в разных жанрах и стилях, общей целью является непредвзятая интерпретация жизни и деятельности отдельных исторических деятелей, основанная на событиях времени, достижение гармонии исторической и художественной правды.

Ключевые слова: Шейх Наджмиддин Кубро, трагедия, исторический персонаж, Омон Матжон, реалистический образ, историчность, художественный образ, «Драваханим» («Торабекахоним»), образ исторической личности.

Ochilova Ozoda Bakhtiyorovna (teacher of the department of “Uzbek linguistics” of UrSU)
OMON MATJON'S SKILLS IN CREATING HISTORICAL CHARACTER

Annotation. This article discusses the skill and uniqueness of the poet Omon Matjon in creating historical characters. In his historical works, Omon Matjon strives to realistically depict the appearance of heroes and their actions. This is especially evident in the image of our great ancestor, the representative of Sufism, Najmiddin Kubro. It is known that works on historical themes have been created in many genres in our literature. For these works, written in different genres and styles, the common goal is to objectively interpret the lives and activities of certain historical figures based on the events of the period, and to achieve harmony between historical and artistic truth.

Keywords: Sheikh Najmiddin Kubro, tragedy, historical character, Amon Matjon, realistic depiction, historicity, artistic image, “Turabekakhonim” (“Turabekakhonim”), image of a historical figure.

Kirish. Keyingi yillarda jahon adabiyotida kuzatilganidek, o‘zbek adabiyotida ham tarixiy mavzudagi asarlar ko‘plab yaratilayotgani quvonarli hol. Sababi o‘zlikni anglash, komillik, barkamol shaxsni tarbiyalash tarixni chuqur o‘zlashtirishdan boshlanadi. Shuningdek, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir qo‘lyozma asarlar, ulardagi buyuk tarixiy shaxslar hayotini o‘rganish va xalqimizga havola etish bugungi kunning muhim vazifalaridandir. Mustaqillik davri adabiyotida xalqimizning shonli tarixini, dong taratgan tarixiy shaxslarni bugungi estetik, falsafiy, ijtimoiy va siyosiy tafakkur asosida qayta idrok va badiiy tadqiq etish zarurligi muhim masala sifatida ko‘rina boshladi. Garchi, “...birinchi navbatda, ularda qadimgi asl milliy qadriyatlar, qachonlardir yuz bergan tarixiy hodisalar yigirma birinchi asrning sog‘lomlashgan tafakkuri asosida qaytadan taroziga solinib, boshqadan o‘lchab ko‘rilganligi aks etganini aytish joiz. Tarix va undagi ulkan ijtimoiy evrilishlar odamlar tomonidan amalga oshirilishi, tarixiy shaxslar ma‘naviy qiyofasining tarixiy hodisalar ijtimoiy salmog‘ini tayin etishi ijodkorlarimiz tomonidan anglab yetilmoqda” [2; 110-b.].

Aslida, o‘zbek adabiyotida adabiy-tarixiy xarakter yaratishning yangi bosqichi XX asrning 70–80-yillaridan boshlangan bo‘lib, uning asosini xolislik va haqqoniylik tamoyillari tashkil eta boshladi va bu jarayon, asosan, milliy istiqloq davri badiiy-estetik tafakkurida yanada kengaydi. Tarixiy shaxsga bag‘ishlan-

gan asarlarda muayyan davr ruhi, muallif dunyoqarashi va janr xususiyatlari o'z ifodasini topib, voqelikka xolis munosabat bo'lishi zarur hisoblanishi ma'lum.

Har bir ijodkorning ijod xazinasi rang-barang mavzu, janr, obrazlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu holatni adib yoki shoirning iste'dodi, maqsadi va qiziqishlari doirasining ko'lami bilan izohlash mumkin. Ammo bu hodisa qanchalik yorqin bo'lsa ham unda ijodkorning muayyan jihatga bo'lgan kuchli moyilligi, aynan shu mavzularga ko'proq murojaat etishi namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslikni O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon ijodida ham kuzatish mumkin. Shoir Xorazm vohasida tug'ilib, voyaga yetgan. Tug'ilgan joy tuprog'ining har bir zarrasi inson uchun muqaddas va sir-sinoatga boy. Vatandarparvar farzand uchun uning shonli o'tmishi va ajdodlar turmush tarzi doimo qiziq. O'z xalqining haqiqiy vatanparvar farzandi bo'lgan Omon Matjon Xorazm xalqi madaniyati, tarixi, tarixiy shaxslari va taraqqiyoti bilan hamisha qiziqib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Omon Matjon ijodida tarixiy mavzudagi asarlarning salmog'i ancha yuqori. Uning Najmiddin Kubro, Beruniy va Pahlavon Mahmud, To'rabekaxonim siymolari yaratilgan asarlari shular jumlasidandir. Turli janr va uslubda yozilgan bu asarlar uchun muayyan tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini davr voqealari asosida xolis talqin etish, tarixiy va badiiy haqiqat uyg'unligiga erishish mushtarak maqsaddir. Bu maqsadning ifoda shakli har bir ijodkorda o'ziga xos va betakror bo'lib, uning badiiy iqtidori, mavzuga yondashish yo'nalishi, ijodiy metodi, shaxsiy mayli va boshqa omillar bilan bog'liqdir. N.Karimov, U.Normatov, J.Jumaboyeva, O'.Panayeva, B.Rahimova kabi qator adabiyotshunoslar tadqiqot-maqolalarida Omon Matjon ijodidagi tarixiylik, tarixiy siymolar obrazini yaratish mahorati kabi masalalarga alohida to'xtalanganlar.

“Tarix tili bilan zamon dardlarini ayta olgan” Omon Matjon ijodini chuqur tadqiq qilgan olim J. Jumaboyeva shoir ijodidagi tarixiylik masalasini batafsil o'rganadi. “Agar e'tibor bilan kuzatilsa, Omon Matjon ijodining ko'pchilik qismida tarixga murojaat zamirida yuzaga kelgan bir hozirjavoblikni kuzatishimiz mumkin. Shoir asarlarida tarixga suyanish barobarida uchta muhim g'oyaviy maqsadni ko'zlaydi. Bularning birinchisi – millat, Vatan tarixiga murojaat orqali zamondoshiga tengsiz ma'naviy xazinalarni bunyod etib ketgan ajdodlarini tanitish; ikkinchisi – ular qonida bobo-momolari qoldirgan bebaho meros-an'analari ruhini uyg'otish; uchinchisi – kelajakka ana shu ma'naviy xazinalardan qolgan durdonalarni avaylab yetkazishga da'vatdan iboratdir” [1;178-b.].

Omon Matjon asarlarida insonlar kurashchanlik ruhidan mahrum bo'lsa, bu holat nafaqat uning, balki butun insoniyatning fojiasidir degan g'oya ilgari suriladi.

Omon Matjon ijodidagi tarixiylik konsepsiyasi masalasini alohida tadqiq qilgan O'.Panayeva “O. Matjonning Xoja Ahror Valiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmudga bag'ishlangan asarlarida badiiy fantaziya usuli seziladi. Tarixiy shaxslarning yashagan zamonlari va makonlari aniq o'lchovga asoslangan”, degan fikrni keltiradi [6;33]. Taniqli adabiyotshunos U.Normatov esa Omon Matjonning bu xususdagi qiziqishlari haqida shunday yozadi: “...kechmish, tarixiy siymolar tasviri ijodida salmoqli o'rin tutadi. U tarixiy o'tmish yoki safar taassurotlari haqida yozganda ham birinchi galda zamondosh yurtdoshlari uchun zarur, qiziqarli, hayajonli biror jiddiy, ibratli gap aytishga tirishadi” [4;372-b.].

Bu fikrlar Omon Matjonning buyuk alloma Najmiddin Kubro badiiy siymosi tasvirlangan “Najmiddin Kubro” fojiasi hamda “Dravaxonim” (“To'rabekaxonim”) qissalari uchun ham tegishlidir. Turli janrlarda yozilgan bu asarlarda buyuk ajdodimiz Najmiddin Kubro hayoti, ibratli umr yo'lini yuksak badiiy mahorat bilan yarata olgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy xarakter yaratishda yozuvchining obrazga yondashuv uslubi, individual xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotda milliy xarakter yaratish borasidagi muammolar ham adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan bo'lib, davrning ma'naviy qiyofasi badiiy aynan badiiy asar qahramonlarning xarakter xususiyatlari orqali ochub beriladi. D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva hammuallifligida nashr qilingan “Adabiyotshunoslik lug'ati”da yunon tilidan olinib, “belgi, farqlovchi xususiyat” ma'nosini bildiruvchi “xarakter” tushunchasiga “badiiy xarakter muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi” deya ta'rif beriladi [5;352-b.].

Tahlil va natijalar. Xarakter yaratish tarixiy shaxs talqinidagi muhim jihatlardan biri bo'lib, Najmiddin Kubro xarakterining mohiyati, avvalo, uning o'zi mansub bo'lgan muhitiga, mo'g'ullar istilosi davridagi dolzarb masalalarga teran munosabatida, vatanparvarligida, tasavvuf va din peshvosi sifatidagi faoliyatida yanada ravshan namoyon bo'ladi. Najmiddin Kubro xarakteri tasvirlangan asarlarda alloma yashagan davr haqiqatining badiiy talqini, el-yurt ozodligi yo'lida jonini tikkan Vatan fidoyisi – mard, qahramon ajdodimizning adabiy obrazi turli rakurslarda aks ettiriladi. “O'z-o'zidan ma'lumki, har qanday ba-

diiy asarda ham xarakter hayot haqiqatini o'zida ifodalama, uning o'rnini uzundan uzun bayon, ta'rif va tavsiflar egallasa, u badiiylikdan mahrum bo'lib qoladi. Xarakter yaratish yozuvchining mahoratiga va ijodiy maqsadiga bog'liq. Asarda harakat qiluvchi xarakter o'zida hayot haqiqatining muhim jihatlari ifodalay olsagina, u kitobxonning inson haqidagi tasavvurini boyitib, ongiga ham, yuragiga ham ta'sir kuchini o'tkaza oladi" [3;10-b.]. Tarixiy voqealar asosidagi yoxud tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlardagi voqealar talqini ikki xil yo'nalishga ega. Birinchi yo'nalishda tarixiy shaxsning tarjimai holi talqini aynan aks ettirilib, tarixiy voqealar fon vazifasini bajarsa, ikkinchisida tarixiy shaxs hayotidagi muayyan voqealar yoki ularning bir qismi talqini vositasida muhim ijtimoiy-axloqiy muammolar yoritiladi.

Omon Matjon "Najmiddin Kubro" tarixiy fojiasini yozish uchun buyuk siymo haqida yaratilgan ko'pgina manbalar bilan mukammal tanishib chiqqanligini asarni o'qigan zukko kitobxon yaxshi ilg'aydi. Manbalardan ma'lumki, Najmiddin Kubro hayot yo'li va faoliyati Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo", Rashididdin Fazlullohning "Jome at-tavorix", Abdurahmon Jomiyning "Nafohot ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoim ul-muhabbat", Ali Safiyning "Rashohotu aynil-hayot", Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Ibn al-Karbaloyining "Ravzat ul-jinon", Xondamirning "Habib us-siyar", Sayfiddin Boharziyning "Avrod ul-ahbob va fusus ul-odob", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Habib us-siyar" kabi yana ko'plab boshqa asarlarda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Shayx haqida xalq og'zaki ijodida ham qator afsona va rivoyatlar, manoqiblar ham yaratilgan bo'lib, "Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro", "Shayx Najmiddin Kubro qissasi", "Ibn Hojib qissasi" kabi asarlar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, tasavvufga oid juda ko'plab manbalarda ham Najmiddin Kubroning qilgan xayrli amallari, martaba va mo'jizalari haqida fikr yuritiladi. Omon Matjon bu asarlardan unumli foydalangan holda, Shayx Najmiddin Kubro badiiy siymosini to'laqonli yarata olgan. Fojiada muallif o'ndan ortiq asosiy obrazlar va ko'plab yordamchi (ikkinchi darajali) qahramonlardan foydalanadi. Fojiada yetmish besh yoshli Shayx Najmiddin Kubro, Alouddin Muhammad Xorazmshoh, uning onasi Turkan xotun, o'g'illari – Jaloliddin Manguberdi, Qutbid-din O'zloq shoh (taxt vorisi), Rukniddin Gursanji, Vazir Alaviy Xeva'iy, Abdul Jalil, Abdul Xalil, Oychechak kabi asosiy obrazlar va ular bilan bir qatorda hojib, sharobdor, davatdor, munshi, darveshlar, maxfiy-lar, navkarlar kabi epizodik obrazlar ham mahorat bilan aks ettiriladi. Ayniqsa, bosh qahramon – Najmiddin Kubro obraziga alohida mas'uliyat bilan yondashadi. Chunki millat sha'nini so'nggi nafasigacha qo'riqlagan vatanparvar, mard va jasur inson, tavba va taqvo posboni (Abuljannob), dinning yulduzi (Najmiddin), ulamolarning yetugi (Tammatul Kubaro) – zamonlar va davronlar pardasi orqasidan zamonamizga boqib turgan Shayxi Valitarosh badiiy siymosini gavdalandirish har qanday adibdan yuksak mahorat, iqtidor, kuchli ilm va asosiysi, ruhiy yaqinlik, ilohiy quvvat talab etadi. Omon Matjon mana shu jihatlarning barchasini o'zida jamlagan betakror ijodkor sifatida tarixiy fojiada barcha imkoniyatlaridan unumli foydalangan.

Adib o'zining "Najmiddin Kubro" fojiasida Gurganjda Muhammad Xorazmshoh hukmronlik qilayotgan davr (1220–1221)larni qalamga oladi. Uning o'g'li Jaloliddin Manguberding, o'z davrida Xorazm ijtimoiy-adabiy muhitida yuqori mavqega ega bo'lgan mutasavvuf olim Najmiddin Kubroning istilochi bosqinchilarga qarshi mardlarcha kurashi, o'zining aziz jonidan kechib bo'lsa ham, Vatanini himoya qilish va shu yo'lda jon fido qilishi voqealari asarda juda ta'sirli lavhalarda bayon qilinadi. Bu orqali muallif Shayxning chin vatanparvar inson sifatidagi yorqin obrazini yaratadi. Fojiada voqelikni teran, hayotiy dalillar asosida tasvirlanishi, inson ma'naviy dunyosining chuqur tahlilga tortilishi, vatanparvarlik tuyg'usining o'zgacha bir ehtiros bilan ifodalanishi namoyon bo'lgan. Najmiddin Kubro butun umr inson pokligi, ilohiy ma'rifat uchun kurashdi, dunyoviylik bilan ilohiylikni qo'shdi, mardlik va ma'naviy yuksalishdan saboq berdi va ularning hammasiga uning hayoti ibrat namunasi bo'lib qoldi. Omon Matjon Najmiddin Kubro hayotining so'nggi yillarini tasvirlash orqali, insonning yashashdan maqsadi moddiy boyliklardan emas, balki ma'rifat va ruhiy boylik, ma'naviy yuksaklikdan iborat ekanligini ta'sirli lavhalar orqali ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon uslubida unga xos donishmandlik, ijodkorning tarixiy mavzuni yoritishga bo'lgan shaxsiy mayli, iqtidori, adabiy tur va janrlarda o'z salohiyatini namoyish eta bilish darajasi, shuningdek, chuqur falsafiylik va katta tajribaning, badiiy iqtidorning kuchi sezilib turadi. U realizm imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan. Asarlarida haqqoniylik va badiiy tasviriylik o'zaro tabiiy uyg'unlashgani yaqqol ko'rinadi. Tarixiy shaxslar obrazini to'laqonli gavdalandirishda badiiy to'qima qahramonlar xarakterlari bilan chambarchas bog'lagan holda ifodalanadi. Shuningdek, obrazilar harakat qilayotgan XIII asrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasi, ruhi va xalq hayotining tub mohiyati ham haqqoniy aks ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърлятида психологик тасвир маҳорати. Тошкент. “Фан”, 2004, 178-бет.
- (2). Йўлдошев Қ. Ёник сўз. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2006, 110-бет.
- (3). Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат (60–80-йиллар). Фил. фанл. номз. Автореферати, Тошкент, 2001, 10-бет.
- (4). Куронов Д., З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, “Академнашр”, 2013, 352-бет.
- (5). Норматов У. Ёниб, ўзгаларни уйғотмоқ не бахт. Сўнг сўз. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Сайланма. Тошкент, “Адабиёт ва санъат”, 1994, 372-бет.
- (6). Панаева У. Ҳозирги ўзбек шеърлятида тарихийлик концепцияси (Омон Матжон ижоди мисолида). Филол. фанлари номзоди ... дисс., Тошкент, 2005, 33-бет.

**Nazarova Dilafuz Ixtiyorovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti “O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o'qituvchi; ndilafuz476@gmail.com)
“MIFTOH UL-ADL” ASARINING MATNIY TADQIQI VA TAHLILI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'z davrining yetuk ijodkori Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning “Miftoh ul-adl” asarining 4656-D qo'lyozma nusxasi haqida ma'lumot beriladi. Ushbu qo'lyozma Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondining dublet fondida saqlanmoqda. Bugungi kunga qadar Xoja asarlarining bironta qo'lyozmasi to'liq holatda nashr etilmagan. Mazkur asar Sharq mumtoz adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadigan hikoyat janrining XVI asrdagi taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada “Miftoh ul-adl” asarining matniy tadqiqi va tahlili amalga oshiriladi.*

***Kalit so'zlar:** Xoja, hikoyat, “Miftoh ul-adl”, qo'lyozma manbalar, mumtoz, adabiyot, oyat, hadis, an'ana, tadqiq.*

Назарова Дилафруз Ихтиёровна (старший преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; ndilafuz476@gmail.com)

ТЕКСТОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “МИФТАХ УЛЬ-АДЛЬ”

***Аннотация.** В этой статье представлена информация о рукописном экземпляре 4656-D произведения “Мифтах уль-Адль” ведущего творца своего времени Ибадуллы Сайида Шахходжа ибн Абдулваххобходжа (Ходжа). Эта рукопись хранится в дублетном фонде рукописей Института Востоковедения имени Абу Райхана Беруни. На сегодняшний день ни одна рукопись произведений Ходжи не опубликована в полном виде. Это произведение сыграло важную роль в определении развития в XVI веке жанра повествования, который занимает особое место в классической восточной литературе. В этой статье будет проведено текстовое исследование и анализ произведения “Мифтах уль-адль”.*

***Ключевые слова:** Ходжа, хикаят, “Мифтах уль-адль”, рукописные источники, классика, литература, аят, хадис, традиция, исследовать.*

Nazarova Dilafuz Ikhhtiyorovna (Senior Lecturer, Department of “Uzbek Language and Literature”, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature: ndilafuz476@gmail.com)

TEXTUAL RESEARCH AND ANALYSIS OF THE WORK “MIFTOH UL-ADL”

***Annotation.** This article provides information about the manuscript copy 4656-D of the work “Miftoh ul-adl” by the outstanding writer of his time, Ibadulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja). This manuscript is stored in the duplicate fund of the manuscript fund of the Abu Rayhon Beruni Institute of Oriental Studies. To date, no manuscript of Xoja's works has been published in full. This work is of great importance in determining the development of the genre of the story, which occupies a unique place in the classical literature of the East, in the 16th century. This article presents a textual study and analysis of the work “Miftah ul-adl”.*

***Keywords:** Xoja, story, “Miftoh ul-adl”, and manuscript sources, classic, literature, verse, hadith, tradition.*

Kirish (Introduction). Ko'hna tarix tamaddunida o'zbek xalqi o'zining boy tarixi, buyuk ma'naviy merosi, an'analari bilan alohida o'rin tutadi. O'zbek mumtoz adabiyoti asrlar davomida sayqallanib, mavzu-mundariyasi boyib kelgan. Adabiyotimiz namoyandalari orasida o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biri Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja Xojadir. Podshohxoja o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”

va “Madsad ul-atvor” asarlari adabiyotimiz tarixida muhim adabiy-badiiy manba sifatida o‘rin olgan. Mazkur asarlarning mohiyati, ilmiy, adabiy va badiiy qiymatini to‘la yoritish uchun asl manba (qo‘lyozma)lar bilan ishlash muhim ilmiy ahamiyatga ega. Xoja asarlarining qo‘lyozma nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” nomlari bilan saqlanadi. Xoja asarlarining 885, 1791, 7731, 7788, 7796, 9161 hamda 4656-D inventar raqamli qo‘lyozma nusxalari mavjud. Bu qo‘lyozmalar ko‘chirilgan yili, hajmi, o‘lchami bilan bir-biridan farq qiladi.

– 885, 1791 inventar raqamli qo‘lyozmalarda “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari bir kitob qilib muqovalangan;

– 7796, 4656-D inv. raqamli qo‘lyozmada “Miftoh ul-adl” asarining o‘zi berilgan;

– 7731, 7788, 9161 inventar raqamli qo‘lyozmalarda esa faqat “Gulzor” asari berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asrning 30-yillaridan boshlab Xojaning hayoti va faoliyati, ijodiga oid ko‘plab ishlar e‘lon qilingan. Dastlabki ma‘lumotlar Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” (Toshkent–Samarqand, 1928) kitobida yoritiladi. Unda “Miftoh ul-adl” asari muallifi noma‘lum bo‘lib, XIV asr yodgorligi sifatida ko‘rsatilgan. Hikoyatlaridan namunalar keltiradi (8 ta hikoyatini). So‘ngra asar muallifi masalasini V.Zohidov ilmiy asoslab beradi [6;100–132-b.]. Ya‘ni, “Miftoh ul-adl” asarining muqaddimasida bu asar “shahzoda Temurbek”ka bag‘ishlanganligi aytilgan. V. Zohidov esa ishni “Shahzoda Temurbek kim?” ekanligini qidirishdan boshlaydi. XIV asrda Temur nomli ikki siyosiy arbob yashaganligini, biri To‘qlug‘ Temur, yana biri Amir Temur. XV asrda “shahzoda Temurbek” degan kishi bo‘lmaganligini aytadi. Bunday shaxs XVI asrda bo‘lganligi va bu Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temur Sultondir. Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja – Xoja nazarda tutgan kishi mana shu Temurdir, degan xulosaga keladi [6;100–101-b.]. Uning ilmiy xulosasi ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. Xoja ijodini tadqiq etgan olim Marg‘uba Mirzaahmedova o‘z tadqiqotida Fitratning darsligiga kiritilgan hikoyatlar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1791 inventar raqamli qo‘lyozmaga to‘g‘ri kelishiga aniqlik kiritadi va uning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining jami 7ta qo‘lyozmalari mavjudligini sanab o‘tadi. 1962-yilda esa professor V.Zohidov va S.G‘aniyeva tomonidan “Podshohxoja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”-dan” namunalarini nashr ettiradi [2;3–56-b.]. Bu nashr ishi Xoja ijodiga va uning asarlariga ilmiy e‘tiborning oshishiga sabab bo‘ldi.

“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1965-yil to‘rtinchi sonida A.Ibrohimovning “Xoja hayoti va ijodi haqida ba‘zi ma‘lumotlar” mavzusidagi maqolasi e‘lon qilinadi. Unda Xoja hayoti va faoliyatiga oid fikrlarga aniqlik kiritib, tug‘ilgan yilini, Hasanxoja Nisoriyning otasi ekanligini, Xoja hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan ayrim noaniqlik va kamchiliklarni qator dalillar asosida isbot qiladi. Bu maqola shu jihatdan ham ahamiyatlidir.

Xoja ijodini o‘rganishni Fitrat boshlab berhan bo‘lsa, S.Qosimov, I.Ahmedov, V.Abdullayev, V. Zohidov, S.Ganiyeva, N.Mallayev, B.Ahmedov, Q.Munirov, M.Mirzaahmedova, G.Aliyev, I.Bekjonov, A.Tohirjonovlar davom ettirdilar. Keyingi yillarda maktab va oliy ta‘lim muassasalari darslik, o‘quv qo‘llanmalaridagi ma‘lumotlar, asosan, M.Mirzaahmedova tadqiqotidan, V.Zohidov va S.G‘aniyeva nashr ishidan hamda yuqorida tilga olingan olimlarimiz ishlaridan foydalanilgan. Xullas, XIV asr yodgorligi sifatida qaralgan “Miftoh ul-adl” asari XVI asr namunasi ekanligi ochiqlandi. Keyingi yillarda ham Xoja ijodiga e‘tibor kuchaysa kuchaydiki, susaygani yo‘q. Xojaning falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlari S.G‘oziyev tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa [9;116-b.], til xususiyati jihatidan 2012-yilda turkiyalik olim professor Tanju Seyhan Xojaning “Miftoh ul-adl” asarining til xususiyatlarini (qiyosiy tilshunoslik) nuqtayi nazardan o‘rgangan [7;219-b.]. Bugungi kunda ham Xoja ijodiga qiziqish kamaygani yo‘q. Asarlarni o‘rganish va tadqiq etish davom etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ko‘rinib turibdiki, Xoja ijodi asrlar osha bugungi kunda ham o‘z ahamiyati yo‘qotmagan. Ko‘lab olimlarimiz izlanishlari va o‘rganishlariga qaramay, adib asarlarining to‘la tabdil varianti nashrga tayyorlanmagan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Xoja asarlarining 7 ta qo‘lyozmasidan biri haqida ma‘lumot bermoqchimiz. Bu 4656-D inv. raqamli qo‘lyozma. Qayd etilgan qo‘lyozmalar orasida faqat shu inventar raqamli qo‘lyozmaning muallifi aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, qolgan qo‘lyozmalarning ko‘chiruvchi(kotib)lari noma‘lumdir.

4656-D inv. raqamli qo‘lyozmaning yozilgan yili, qayerda yozilganligi noma‘lum. Ko‘chiruvchisi Mulla Ro‘zi Muhammad bin Bobojon. O‘zbek tilida. Kitob formati 18x11, matn hajmi 14x8. Qo‘lyozma 210 sahifadan iborat bo‘lib, 9 satrdan o‘rtacha nasta‘liq xatida qora tush bilan yozilgan. Qo‘lyozmaning yuza qismidagi muqovasi tushib qolgan, oxiri saqlangan. Qolgan muqovadan bilish mumkinki, jigarrang

qalin karton qog'oz, atrofi charmlangan, yuzidagi sahifasi yirtilgan. 1-86-betlariga diniy ma'lumotlar, 87^a sahifasidan "Miftoh ul-adl" asari bitilgan. Qo'iyozmaning 1-64-sahifalari oq rangda, 65-80-sahifalari qaymoq rangda, 81-86-betlari ko'k rangda, 87-136-varaqlari qaymoq rangda, 137-142-sahifalari pushti rangda, 143-149-betlari zangori rangda, 150-159, 164-165-sahifalari binafsha rangda, 16-173-betlari nim pushti rangda, 174-181-varaqlari sariq rangda, 182-207-betlari qaymoq rangdagi rangbarang qog'ozlarga yozilgan. "Miftoh ul-adl" asari boshlanadigan 87^aning yuqori qismiga *ملل روزی محمد بن باباجان* deyilgan. Shunga ko'ra, qo'lyozmani ko'chiruvchi kotib Mullo Ro'zi Muhammad bin Bobojon deyish mumkin. "Miftoh ul-adl" asarining ushbu qo'lyozma nusxasi fors-tojik tilidagi she'riy parcha bilan boshlangan:

دل بدست اور کہ حجی اکبر است
از هزاران کعبه یکدل بهتر است [1; 87^a-b.]

O'qilishi:

*Dil ba dast ovar, ki hajji akbar ast,
Az hazoron Ka'ba yak dil behtar ast.*

Mazmuni:

*Ko'ngilni qo'lga kirit(ovla)gilkim, buyuk Haj shudir,
Minglab Ka'badan bir dil yaxshiroq.*

"Miftoh ul-adl"ning 4656-D inv. raqamli qo'lyozmasi yuqoridagi she'riy parchadan so'ng, "Bismillahir rahmonir rohiym" bilan boshlanib, Allohga hamd keltiriladi. So'ngra bu kitobni nima uchun "jam" qilganligini, kimga bag'ishlagani va sultonlarga, beklarga, ulug'larga xizmat qilmoq uch turli bo'lib, ular: a) tan xizmati; b) til xizmati; d) ko'ngil xizmatidir. Bu uch xizmatni sharhlab, keyin "Miftoh ul-adl" asari boblari xususida to'xtaladi. Har bir bob nomlangan:

Avvalgi bob: Olimlarni bayon qilur.

Ikkinchi bob: Adl sultonlarni bayon qilur.

Uchinchi bob: Zolimlarni bayon qilur.

To'rtinchi bob: Sultonlarga'a mute' bo'lmoqni bayon qilur.

Beshinchi bob: Sultonlarga'a, vazirlarga'a mashvaratning bayoni.

Oltinchi bob: Hukm qilmoqning bayoni.

Yettinchi bob: Da'voning bayoni.

Sakkizinchi bob: Ont ichmakning bayoni.

To'qqizinchi bob: o'g'riliqning bayoni.

O'ninchi bob: Zino haddining bayoni.

O'n birinchi bob: (قزف) quzf haddining bayoni.

O'n ikkinchi bob: shurb haddining bayoni.

O'n uchinchi bob: ta'zir qilmoqning bayoni.

O'n to'rtinchi bob: g'azot qilmoq bayoni.

O'n beshinchi bob: sayd qilmoqning bayoni.

Asar boblaridan ko'rinib turibdiki, u o'zida ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-ta'limiy masalalarni mujassamlashtirgan. Har bir bobda Qur'on oyatlari, suralar, hadislar arab tilida berilgan, so'ngra ma'nosi izohlanib, ularni tasdiqlaydigan biror voqeani hikoya qilib, nazir hikoyatlar keltiradi va muallifning xulosasi bilan yakunlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Birinchi bobi "Bilmon olimlarning fazilati Tangri taoloning nazdida ulug' turur. Nechuk haq taolo har onda yod qilib turur" bilan boshlanadi. Oyati, hadis va ijodkorning shaxsiy fikr-mulohazalari sharhlanganidan so'ng "Imomi A'zam" haqidagi dastlabki hikoyati keltiriladi. Keyin "Tolibi ilm", "Iso alayhissalom", "Imomi A'zam Abu Hanifayi Kufiy va Shayboniy", "Imomi A'zam Abu Hanifayi Kufiy va bir kishi" deb nomlangan hikoyatlari keltiriladi. Birinchi bobda 5 ta hikoyat o'rin olgan bo'lib, 89^b sahifadan 111^a sahifagacha qamrab olingan. Birinchi bobning xulosasi sifatida muallif shunday fikrlarni bildiradi: "Qaysi omi kishi olim kishidan yuqori o'ltursa, go'yo Qur'on ustunda o'lturg'ondek bo'lg'oy. Qur'on ustunda o'lturg'onning gunohi bemiqdor bo'lsa, ul kishining guhoi shul miqdor bo'lg'oy. Va yana kim olimlarga'a ozor bersa, shol bo'lur" [1;111^a-b.]. Ikkinchi bob Qur'on oyati bilan boshlanadi. So'ng oyati ma'nosi izohlanadi. "Bir odam yana bir odamga'a o'zini baland tutib, bir ish buyursa, oni amr derlar. Agar o'zini past tutib buyursa, oni tazarru derlar. Va yana birda amr bo'lsa, holi bo'lmas. Tangri taolodin bo'lg'ay. Ya'ni har kim Alloh buyruqin tutsa, Alloh taolo ul kishiga bu dunyoda ne tilasa, tilakin bergay. Uch toifaning duosi Alloh taolo nazdida zoye bo'lmas, qabul bo'lur. Avval adl sultonlarning, ikkinchi mazlumlarning, uchinchi ro'zadorlarning. Ro'za ocharda har ne tilasa, qabul bo'lur va hamma duosi ijobat bo'lur. Bunga nazir hikoyat bu turur" [1;112^a-b.] deb "Dovud alayhissalom va boshiga

un qo‘ygan ayol” hikoyati beriladi. Undan keyin “Umar roziyallohu anhu va qush bo‘yniga ip taqayotgan bola”, “Qo‘shqar sultoni Hindiston sultonig‘a elchi yuborgani”, “Haj qilmoqni istagan shoh”, “Muhammad s.a.v me‘roj kechasi haqida”gi hikoyatlar keltiriladi. Bu bob “Adl sultonlarni bayon qilur” deb nomlangani bois, Podshohxoja shohlar, sultonlar, beklar adli, adolati tufayli shularga erishadi deb, quyidagilarni bayon etadi:

– Alloh taolo rahm qilg‘onlarg‘a rahm qilur, har kimsa yer yuzindaki odamlarg‘a rahm qilsa, ko‘k-dagi farishtalar ul rahm qilg‘on kishini Tangri taolodin “yorliqo” deb tilogoylar.

– Adl sultonlar va beklarda jon ochig‘i bo‘lmog‘oy, o‘lar vaqtida farishtalar behishtdin bir toboq meva olib kelgaylar, ular ul mevaning xushbo‘yliqidin jon bergoylar, jon bergonin bilmogoy va tuymog‘oylar;

– Dunyodin iymon birla borg‘aylar.

– Go‘r azobin tortmog‘oylar.

– Qiyomat kuni andog‘ issiq bo‘lg‘aykim, adl sultonlar va adl beklar Alloh taolo arshining soyasida bo‘lg‘ay.

– Adl podshoh va adl beklarning bir soat qilg‘on adlining savobi boshqalarning 70 yil qilg‘on ibodatidin ortuq bo‘lg‘oy.

– Adl sultonlar va adl beklar o‘lsalar, qiyomat kuni do‘zah o‘tig‘a kuymog‘ay.

– Adl sultonlar sirotidin bildurumdek بيلدورومديك o‘tg‘oylar.

– Adl sultonlar va adl beklar adlidin behisht ichinda bir dona injudin bir ko‘shk bino qilg‘oylar.

– Qiyomat kuni adl sultonlar va adl beklar musulmon bo‘lsalar, Alloh taolo diydorini ko‘rgoylar [1;120^a–126^a-b.].

Ikkinchi bobda ham 5ta hikoyat keltirilgan bo‘lib, bu bob 111^b sahifadan 126^a sahifani o‘z ichiga oladi. Uchinchi bob “Zolim sulton va zolim beklarning bayoni” bo‘lganligi bois, bu bobni ijodkor “Emdi bilmak kerak, har kim sulton yo bek bo‘lib, adl qilmoyin zulm qilsa, avval, bu dunyoda balog‘a giriftor bo‘lur. Qiyomat kuni yuzi qora bo‘lg‘oy. Payg‘ambar alayhissalom oyidilar: Alloh taolo osmonni uch nimarsa bilan ziynat berib turur. Avval kun birla, ikkinchi oy birla, uchinchi yulduz birla va yana uch nimarsa bilan yerni ziynat berib turur. Avval yamg‘ur, ikkinchi olimlarning adli birla, uchinchi sultonlarning adli. Adl bor joyda yamg‘ur yog‘ar, ilm o‘rganurlar. Va yana har yerda zolim sultonlar, zolim beklar bo‘lsa, alar zulmi sababidin yamg‘ur yog‘mas, xaloyiqlar najotda bo‘lur. Ilm ham o‘rganib bo‘lmas. Va yana aytib tururlarkim, har kim sulton yo bek bo‘lib, zulm qilsa, Alloh taolo ul kishiga er o‘g‘ul bermog‘oy va agar bersa dunyodin tez borg‘oy, atosining o‘rnin tutmog‘oy. Yo devona, yo aybli bo‘lg‘oy” [1;126^b–129^a-b.] deb, bunga nazir hikoyat qilib, “Sulaymon s.a.v.ning Allohdan farzand tilagani” haqidagi hikoyatni keltiradi. So‘ngra Xoja “Emdi bilmak kerakki, har kim sulton yo bek bo‘lib, pora olsa, haq ishin nohaq qilsa, oning ahvoli qiyomat kuni jon achchig‘i qattiq bo‘lg‘ay” deb “Muso alayhissalom va suv”, “Ali r.a.ning tushi”, “Shaytonning Alloh amri bilan Fir‘avn yoniga borishi”, “Nuh alayhissalom va teshilgan kema”, “Umar r.a.ning kecha-kunduz uxlamagani”, “Umar r.a.ning Shomga borgani”, “Tavis Yaman r.a.”, “Luqmoni hakim va xo‘jasi” kabi hikoyatlarni keltiradi.

Uchinchi bobda 10 ta hikoyat berilgan bo‘lib, ular 126^b–148^b sahifadan o‘rin olgan.

To‘rtinchi bob “Sultonlar, beklar va vazirlar birla mashvarat qilmoq bayoni” deb nomlangan bo‘lib, bu bob “Bir ishni qilmoqchi bo‘lsang, bir-biringiz birla mashvarat qiling. Mashvaratdin so‘ng Alloh taolog‘a tavakkul qiling” [1;148^a-b.] bilan boshlanib, bunga nazir hikoyat sifatida “Sulaymon payg‘ambar va uning duosi” hikoyati keltiriladi. Ortidan qolgan 8 hikoyat ham ketma-ketlikda beriladi. Ular: “Sulton Mahmud va vaziri”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy va Ayozi xos”, “Husrav shoh va vazirining xotini”, “Bir podshohning go‘zal ayollarga o‘chligi”, “Bir ayolning go‘zal yuzli o‘g‘li haqida”, “Sulton va uning vaziri”.

To‘rtinchi bobda 9 ta hikoyat o‘rin olgan. 148^b sahifadan 170^a sahifani qamrab oladi.

Beshinchi bob “Sultonlarg‘a mute’ bo‘lmoqning bayoni” deb nomlangan bo‘lib, Qur‘ondan oyat keltiriladi va sharhlanadi. Ortidan “Dovud alayhissalom va ikki kishi” haqidagi hikoyatni va qolgan 4ta hikoyatlarni ham beradi. “Iskandar Zulqarnayn va Mag‘rib sultoni”, “Iskandar Zulqarnayn va Doro”, “Horun ar-Rashidning o‘g‘li Ma‘mun va o‘gay onasi Zubayda”, “Shahid bo‘lgan Husayn r.a.”. Bu bobda 5 ta hikoyat joy olgan. 170^a sahifadan 180^a sahifagacha.

Oltinchi bob “Hukm qilmoqning bayoninda turur” nomi ostida 5 ta hikoyat berilgan. “Horun ar-Rashidning o‘g‘li Ma‘mun va uning kechalari shaharni kezishi”, “Amiral mo‘minin Ali va bir kishi”, “Bahrom Go‘r va uning vaziri Rostravshan”, “Anushirvoni odil...”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy va tolibi ilm” hikoyati bilan yakunlanadi. Oltinchi bob 180^b–190^a sahifagacha. Yettinchi bobdan o‘n beshinchi bobgacha (190^b–210^b sahifagacha) Podshohxoja mavzularga oid oyat va hadislardan namunalar keltirib, ularni sharhlagan. Davr ruhidan kelib chiqib, ommani insoniylikka, adolatga, poklikka chaqirgan. Bu chaqiriqlar bu-

gungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu qo‘lyozma juda ixcham, bezaklarsiz ko‘chirilgan. Kitobning oxirida “in kitob ro‘zi dushanba tamom” bilan tugallangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bizga ma’lum bo‘lgan “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining 7 ta qo‘lyozma nusxalari asosida asarning tanqidiy matnini yaratish mumkin. 1962-yili “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan parchalar alohida chop etildi (V.Zohidov va S.G‘aniyevlar nashrga tayyorlagan) [2;56-b.]. Xojaning har ikkala asari yuzasidan to‘liq nashr ishlari bugungu kungacha amalga oshirilmagan.

M.Mirzaahmedova esa Xoja hayoti va ijodini o‘rganib, uning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining o‘zimizdagi 7ta, SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Leningrad bo‘limi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan V-2188 inventar raqamli qo‘lyozmadan va P.Shamsiyevning shaxsiy arxivida saqlangan qo‘lyozmadan ham foydalanganligini ta’kidlaydi va bu qo‘lyozmalarning barchasi XVIII, XIX, XX asr mahsuli ekanligini qayd etadi [3;36–44-b.].

Shunday qilib, Xoja asarlarining qo‘lyozma nusxalarining biri haqidagi ma’lumotlarimiz, uning o‘z davrida va keyingi davrlarda nasriy hikoyat ustasi sifatida shuhrat qozonganligi hamda ommaning e’tiborida bo‘lganligidan dalolat beradi. Bunga uning asarlari turli davrlarda kotiblar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilgani yorqin misoldir. Bu qo‘lyozma nusxalarni qiyosiy-ilmiy tadqiq etish galdagi vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- (1). “Miftoh ul-adl”ning qo‘lyozma nusxasi. Inv № Д-4656, 210-varaq.
- (2). Пошшоҳўжа. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор”дан. Т., Ўздавнашр, 1962, 56-бет.
- (3). Мирзааҳмедова М. Хожа. Т., “Фан”, 1975, 130-бет.
- (4). Мирзааҳмедова М. Пошшоҳўжа ва унинг “Мифтоҳ ул-адл” ҳамда “Гулзор” асарлари. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент, 1966, 218-бет.
- (5). Тохиржонов А. Хожанинг янги топилган асари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1975, 3-сон, 70–73-бетлар.
- (6). Воҳидов З. Ўзбек адабиёти тарихидан. Т., “Ўзадабийнашр”, 1961. 265-бет.
- (7). Doç. Dr. Tanju Oral Seyhan. Pâdişâh hōca külliyyâtı: Miftâhü'l-adl. Kesit yayinlari. Istanbul, 2012, s. 219.
- (8). Иброхимов А. Хожа ҳаёти ва ижоди ҳақида баъзи маълумотлар. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 4-сон, Т., 1965.
- (9). Ғозиев С. Подшоҳўжа қарашларида ижтимоий ахлоқ масаласи. Илмий рисола. Т., А.Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти, 1999, 116-бет.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti; xulkarmuxammedova@gmail.com)
YOHANNA SHPIRI IJODIDA BOLALAR OBRAZI

***Annotatsiya.** Bolalar adabiyoti namunalarini bolalar dunyosi misolida ochib berishda olmon adibasini Yohanna Shpiri ijodini misol qilib keltirish mumkin. Yohanna Shpiri shveysariyalik adiba bolalar obrazlarini asar kontekstida ochib berar ekan ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham ko‘rsatib bergan.*

***Kalit so‘zlar:** bolalar, adabiyot, asar, obraz, sujet, tabiat, adiba.*

Мухаммедова Хулкар (доктор филологических наук (DSc) доцент, Узбекистанский государственный университет мировых языков; xulkarmuxammedova@gmail.com)

ОБРАЗ ДЕТЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ ЙОХАННЫ СПИРИ

***Аннотация.** Раскрывая образы детской литературы на примере мира детей, можно привести творчество немецкой писательницы Йоханны Спири. Швейцарская писательница Йоханна Спири раскрывает образы детей в контексте своего произведения, показывая также их особенности.*

***Ключевые слова:** дети, литература, роман, образ, сюжет, природа, писательница.*

Mukhammedova Khulkar (Doctor of philology (DSc) associate professor Uzbekistan state world Languages University; xulkarmuxammedova@gmail.com)

CHILDREN CHARACTER IN JOHANNA SPYRI'S NOVELS

***Annotation.** Revealing the images of children’s literature using the world of children as an example, we can cite the work of the Swiss writer Johanna Spyri. Swiss writer Johanna Spyri reveals the images of children in the context of her work, also showing their characteristics.*

***Key words:** children, literature, novel, character, plot, nature, female writer.*

Kirish. Bolalar adabiyotiga xos bo‘lgan asar kichik yoshdagi kitobxonlarning yosh xususiyatlariga, ularning saviyasiga xos, yoqin obrazlarga hamda soda va qiziqarli tarzda ifoda etilishi talab etiladi. Bunday

xususiyatni o'zida aks ettirgan badiiy asargina bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatish bilan birga, ularni to'g'ri tarbiya qila olish kuchiga ham egadir.

Bolalar dunyosini ochib berishda ularning o'ziga xos yosh xususiyatlarini inobatga olish, qolaversa, muhim xarakter kasb etuvchi voqea, hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda ifoda etishning uddasidan hamma yozuvchi ham chiqavermaydi. O'zbek bolalar adabiyotining fidoyi olimlaridan bo'lgan Rahmatulla Barakayev o'zbek bolalar adabiyoti tarixi, hozirgi o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillarini ochib berishda tarjima san'ati bilan chambarchas bog'likligini ko'rsatib o'tadi [2;26-b.]. Jahon adabiyotining klassik asarlar turkumida bolalarga xos bir qancha asarlarni ko'rish mumkindir. Bolalar adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan shveysariyalik adiba Yohanna Shpiri ijodi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bolalar adabiyotining yuksak namunasi bo'la olgan Yohanna Shpiri ijodi bugungi kunda ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Xaydining tinib-tinchimasligi buvi va bobosiga qayg'urishi va Klarani yurishga undashi juda teran ifoda etiladi. Hayotga zukko nigoh tashlagan Xaydi romanda asosiy obraz sifatida gavdalanirilgan. Tadqiqotchi Y.Pratikto adiba Yohanna Shpiri mo'jizali makonda bolalar obrazi orqali mo'jizani ko'rsata olganligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi Y.Pratikto fikriga ko'ra, bolalar dunyosida ro'y beruvchi voqea-hodisalarda o'ziga xos ishonch va do'stlik tuyg'usi mujassam bo'lib adiba tog'dagi tabiat mo'jizasini mana shu obrazlar orqali teran ifoda qilgan [5;38-b.]. Muallif roman chizig'ida barcha obrazlarni Xaydi birlashtirib turishini namoyon etgan. Amerikalik tadqiqotchi V.Kerolin esa Shpiri ijodining gultoji bu Xaydi, Xaydi obrazida kattalar ko'ra olmaydigan jixatlar mavjudligiga e'tibor qaratadi [1;112-b.].

Romanda asosiy obrazlarning mohiyatiga ko'ra, insonni tog'ri tarbiya qila olish xususiyati keng ochib berilgan. Adabiyotshunos M.Klarer "Adabiyotshunoslikka kirish" asarida didaktik xususiyatni asarda jonli ifoda etishda tasvirlanayotgan obrazlarning ichki va tashqi dunyosini hisobga olish zarurdir. Bolalar adabiyotining klassik asari sifatida Yohanna Shpirining "Xaydi" romanida didaktikaga kuchli e'tibor qaratilgan [4;68-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur asarni badiiy tahlil asosida ochib berishimizda unda xilma-xil vazifalar ko'zga tashlanadi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o'rganishdir. Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog'langan kishilar hayotining ma'lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Asardagi voqealar XIX asr Shveysariya qishoq, ya'ni Alp tog'lari hamda Frankfurt shaharidagi zodagon oilada sodir bo'ladi. Bu voqealarda davrning ijtimoiy, madaniy va axloqiy hayoti o'z aksini topadi. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka adiba Yohanna Shpirining munosabati aniqlanadi. Asar kontekstida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Asar sujeti va kompozitsiyasida didaktik xususiyat ham ko'zga tashlanadi. Asarning o'rgangan Ch.O.Brein, C.O.Dea, F.Hale, R.Frohlich, J.Winckler, R.Schindler, H.Zeller kabi tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida Yohanna Shpiri ijodini davr konteksti hamda biografik metod asosida ochib berishga harakat qiladilar.

Tahlil va natijalar. Yohanna Shpiri minglab kichik kitobxonlar bilan birga katta yoshdagi kitobxonlar e'tiborini ham o'ziga torta oldi. Uning qalamiga mansub "Xaydi – Heidis, Heidis Lehr– und Wanderjahre (Haydining o'quv yillari)" asari adibaga bir olam shuhrat olib keldi. Dastlab, olmon mamlakati, keyinchalik, inglizabon hamda Osiyo mamlakatlari adabiyotiga kirib kelgan "Haydi" romani, haqiqatda, bolalar adabiyotining yuksak namunasi bo'la oldi. 1880–1881-yillarda yaratilgan "Haydi" romani o'zbek tiliga Yo'ldosh Parda tomonidan tarjima qilingan.

Roman Frankfurt hamda Alp tog'larida sodir bo'lgan voqealarni o'zida aks ettiradi. Beg'ubor bolalar dunyosini adiba Piter, Klara va Haydi obrazlari orqali ochib beradi. Haydining bobosi Alp to'g'a tog' etagida yashar va qishloq aholisiga uncha ham qo'shilavermas kamgap inson edi. Piter ta'rificha, Alp to'g'a qattiqqo'l va biroz odamovi. Shunga qaramay, Haydi bobosi bilan juda yaxshi munosabatda bo'lishi Piterni ajablantirardi. Piterning o'zi ham maktabga borishiga qaramay bolalar bilan o'ynab ketavermasdi. U kattalarga xos ish yuritardi. Bu uning cho'ponlik qilishida deb tushunardi Xaydi. Maktabdan bo'sh vaqtlarida Piter cho'ponlik qilardi. U Alp tog'aning echkilarini tog' etaklarida o'tlatardi. Romanda ta'rif etilgan Alp tog'larining fusunkorligini adiba juda mahorat bilan ifoda etadi. Tabiat go'zalligini ifoda etishda turli tog' o'simliklarining nomlarini hamda buloqlar tasviriga e'tibor qaratadi. Mana shunday maskanda ulg'aygan Piter va Xaydi uchun, albatta, Frankfurtday zamonaviy shahar muhiti begonadir. Klara badavlat zodagonning kasalmand qizidir. Xaydi bilan do'stlashar ekan, unga shaharning ko'plab joylarini ko'rsatar va shahar odamlarining yashash tarzini ham tushuntirardi. Dastlab, Xaydi uchun shahr muhiti bog'iq tuyuldi. Bunday diqqinapas shahar Alp tog'larining go'zalligi oldida Xaydi uchun hech narsa emas. U Klaraga Alp tog'lari-

ning go‘zalligini tabiatning maftunkor ko‘rinishini tasvirlar ekan, Klara unga mahliyo bo‘lardi. Mana shunday suhbatlar natijasida Klara Alp tog‘lariga borishga qaror qiladi. Uning bu qarorini janob hakim hamda buvisi qo‘llab-quvvatlaydi.

Asardagi e‘tirof etish mumkin bo‘lgan ko‘rinishlardan biri bu qishloq maktabi hamda Piterning buvisi bilan bog‘liq voqealardir. Frankfurtdan o‘qishni o‘rganib kelgan Xaydi Piterning ham o‘qishni o‘rganishini istardi. Saba Piterning buvisida qadimiy xalq qo‘shiqlari jamlangan kitob bo‘lib, Xaydi buvisini ko‘rgani borganida xalq qo‘shiqlaridan o‘qib berardi. Ko‘zlari ojiz buvi esa bundan juda xursand bo‘lardi. Buvisini ana shunday xursand qilish Piterning ham qo‘lidan kelishini Xaydi yaxshi tushunardi. Maktabda tushlik uchun ajratilgan vaqtlarda Xaydi Piterga birma-bir hijjalab o‘qishni o‘rgata boshladi. Adiba buni quyidagicha asarda ifoda etadi:

–Endi sen o‘qishni o‘rganib olishing kerak.

–O‘rganyapman-ku, –javob qildi Piter.

–Yo‘q, sen sal boshqacharoq o‘rganishing kerak, – dedi Xaydi shoshilib, – ya‘ni o‘rganib olganlaringni amalda qo‘llay olishing kerak.

–Yo‘q, bu qo‘limdan kelmaydi. – dedi cho‘rt kesib Piter.

–Frankfurtdagi buvi ham Piterning bo‘lmag‘ur gaplariga ishonmagin deb tayinlaganlar, axir bu gaping hech kim ishonmaydi. Piter bu xabardan hayron bo‘lib qoldi. Frankfurtdagi buvi Xaydiga nega bunaqa dedi ekan-a.

–Senga o‘qishni o‘zim o‘rgataman va buning yo‘llarini ham o‘ylab qo‘yganman. Sen o‘qishni o‘rganib olishing kerak, so‘ngra har kuni kechqurun buvimga bittadan qo‘shiq o‘qib berasan.

–Yo‘q, to‘g‘ri kelmaydi, men qo‘shiq o‘qiy olmayman, – g‘o‘ldiradi Piter [3;26-b.].

Bolalar dunyosidagi murakkab ko‘rinishlaridan biri sifatida adiba aynan ta‘lim masalasiga e‘tibor qaratadi. Oddiy qishloq maktabidagi darslar jarayoni va Piterning o‘qishni yaxshi o‘zlashtira olmayotgani uning so‘zlaridan ham ko‘rinib turadi. Xaydi unga hijjalab o‘qishni o‘rgatar ekan, bunga astoydil kirishadi. Axir Piter buvisini xursand qilishi kerak. Bu esa uning o‘qishni o‘rganib olishi va buvisiga qo‘shiqlar o‘qib berishida namoyon bo‘ladi. Piterning buvisi keksayib qolgan, uni hamma narsa ham xursand qilavermaydi. Xaydi shuning uchun ham bunga qattiq kirishadi.

Alp tog‘lariga kelgan Klara Xaydi aytganidek, xayratga tushadi. U so‘lim tabiat og‘ushida yashayotgan Xaydiga xavas qiladi. Ikki qizaloqning tog‘dagi Alp tog‘aning uyida uchrashishi biram zavq bag‘ishlaydi. Klara yana tezda Frankfurtga qaytib ketishni istamaydi va buvisiga bu haqda aytadi. Alp tog‘larida qolgan Klara Xaydi va Piter bilan birga sayrga chiqadi. Uni Xaydi va Piter tepalikka olib chiqishga urinishadi. Uni yurishga majbur qilish va bunga undash, qolaversa, Klarada ham yurishga kuchli intilish paydo bo‘ladi. Juda ko‘p urinishlardan so‘ng Klaraning yurib ketishi bolalar bilan birga kattalarda ham hayrat uyg‘otadi. Romanda tasvirlangan do‘stlik, tog‘ muhiti bolalar obrazi bilan uyg‘un tarzda ifoda etiladi.

Xulosa. “Xaydi” romani, shubhasiz, bolalar adabiyotining klassik asari sifatida jahon adabiyotida keng e‘tirof etildi. Bugungi kungacha roman ko‘plab kitobxonlar tomonidan o‘rganilayotganligi ko‘plab yangi tadqiqotlarga zamin bo‘la olishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Caroline W. Changing Family Values. London, “Routledge”. 1999, p. 112.
- (2). Eshonqulov J. Bolalar adabiyotining zukko bilimdoni. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2024, 26-bet.
- (3). Yohanna Sh. Xaydi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1991, 43-bet.
- (4). Klarer M. An introduction to Literary Studies. New York, Routledge, 2010, p. 68.
- (5). Pratikto Y. Nature versus Materialistic world in Johanna Spyri’s Heidi. Surabaya. Universitas Airlangga Press, 2006, p. 38.

Marziyaev Janabay Kalibaevich (Qoraqalpoq davlat universiteti “Jurnalistika”
kafedrası mudiri, dotsent (PhD))

QORAQALPOG‘ISTONDA JURNALIST MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH: TARIX VA YUTUQLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston ommaviy axborot vositalari uchun jurnalist mutaxassislarini tayyorlash masalasi va Qoraqalpog‘ davlat universitetida tashkil qilingan jurnalistika ta’lim yo‘nalishini faoliyati, tarixi va bugungi kundagi yutuqlari o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jurnalistika, ta’lim yo‘nalishi, mutaxassislik, pedagog, Qoraqalpog‘ davlat universiteti, malaka, talaba, magistrant, xalqaro aloqa.

Марзияев Жанабай Калыбаевич (заведующий кафедрой журналистики Каракалпакского государственного университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент)
ПОДГОТОВКА КАДРОВ ЖУРНАЛИСТОВ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ИСТОРИЯ И ДОСТИЖЕНИЯ

Аннотация. В данной статье изучены и проанализированы вопросы подготовки журналистов для средств массовой информации Каракалпакстана и деятельность, история и современные достижения направления образования журналистики, созданного в Каракалпакском государственном университете.

Ключевые слова: журналистика, направление образования, специальность, педагог, Каракалпакский государственный университет, квалификация, студент, магистрант, международная связь.

Marziyaev Janabay Kalybaevich (Head of the Department of Journalism of Karakalpak State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, dotsent)

TRAINING JOURNALIST PERSONNEL IN KARAKALPAKSTAN: HISTORY AND ACHIEVEMENTS

Annotation. This article examines and analyzes the issues of training journalists for the mass media of Karakalpakstan and the activities, history, and modern achievements of the journalism education department established at Karakalpak State University.

Key words: journalism, field of study, specialty, teacher, Karakalpak State University, qualification, student, master's student, international relations.

Kirish (Introduction). Globallashuv davrida insoniyatning axborotga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shuning bilan birga, kun sayin axborotlar oqimining shiddat bilan o‘shishi, o‘z navbatida, insoniyat oldidagi muammolarning biri hisoblanadi. Ma’lumki, axborotlar bilan ishlashda jurnalist kadrlarning xizmati va hissasi alohida. Shu bois jurnalist mutaxassislardan o‘z sohasi bo‘yicha har tomonlama savodxonlik va zamonaviy tajriba talab qilinadi. Ayniqsa, bu yo‘nalishda jurnalist mutaxassislarni tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalaridagi jurnalistika ta’lim yo‘nalishlariga katta mas’uliyat yuklaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Nazariy adabiyotlardan esa M.Xudoykulov [2], K.T.Irnazarov [3], F.Mo‘minov [4], D.Bekbauliyev [5], Z.Kojikbaeva [6], T.Masharipova [7], Z.Orazimbetova [8], P.Allambergenovalar [9] tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlaridagi jurnalistika va uning dolzarb masalalariga oid ilmiy qarashlari mavzuni ochib berishda asosiy manba sifatida qo‘llanildi. Shuningdek, xorijlik tadqiqotchilardan E.P.Proxorov [10], M.S.Cherepaxov [11], E.I.Jurbina [12], A.A.Tertichniylar [13] asarlarini kiritishimiz mumkin. Ushbu asarlarda jurnalistika va uning ta’lim yo‘nalishidagi asosiy masalalari hamda jurnalistik faoliyatining o‘ziga xosligi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur ilmiy ishni o‘rganishda tarixiy, qiyosiy-tipologik, mantiqiy-eksperimental va an’anaviy tahlil usullari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qoraqalpog‘istonda oliy ma’lumotli va malakali jurnalist mutaxassislarni tayyorlash Qoraqalpog‘ davlat universitetida (o‘sha paytda T.Shevchenko nomidagi Nukus davlat universiteti), dastlab, 1983–1984-o‘quv yilidan boshlab yo‘lga qo‘yildi. O‘sha yili 21 ta talaba qabul qilingan bo‘lsa, keyingi o‘quv yilida esa 25 ta talaba qabul qilingan. Bundan so‘ng ta’lim yo‘nalishiga talabalarni qabul qilish ayrim sabablarga ko‘ra to‘xtatiladi. Lekin 1989–1990-o‘quv yilidan boshlab, yana yo‘lga qo‘yiladi. Mana shundan buyon universitetda jurnalistika ta’lim yo‘nalishi mamlakatimizga bir qancha oliy ma’lumotli jurnalist mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda.

1983-yilida, ta'lim yo'nalishi yo'lga qo'yilgan vaqtda, malakali ustozlardan K.Mambetov, E.Berdimuratov, Q.Maqsatov, Q.Sultanov, S.Ahmetov, A.Davletov, Y.Paxratdinov, G.Esemuratov, I.O'teuliyev Sh.Usnatdinov, K.Reymov, Sh.Ayapovlar talabalarga jurnalistika kasbining bilim va ko'nikmalaridan darslar berdi.

1989–1990-o'quv yilidan boshlab esa jurnalistika ta'lim yo'nalishiga yanada katta e'tibor qaratilib, “Qoraqalpoq adabiyoti” kafedrasida «Adabiyot nazariyasi va jurnalistika» kafedrasida bo'lib ochildi. Kafedraga filologiya fanlari doktori, professor K.Mambetov rahbarlik qiladi.

1988–1989-yillarda jurnalistika mutaxassisligini tamomlagan bir guruh yoshlar ishlab chiqarish sohasiga yo'llama olib, ulardan aksariyati respublikamiz ommaviy axborot vositalarining har xil sohaslarida o'z faoliyatini boshlaydi. Dastlabki bitiruvchilardan ilm-fanga qiziqishi bor yoshlardan Z.Kojikbayeva, D.Bekbauliyev, T.Masharipova, A.Abdimuratov, Z.Urazimbetovalar jurnalistika sohasi bo'yicha ilmiy ishlarini boshlab, hozirgi kunda ular ilmiy muvafaqqiyatlarga erishib, talaba-yoshlarga zamonaviy ilm-fan va bilim sirlarini o'rgatib kelmoqda.

1992-yildan boshlab, ta'lim yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilib, jurnalistika alohida kafedra sifatida faoliyat boshlaydi va kafedrani 2000-yilgacha filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Djumamuratova boshqaradi. 2000-yilda esa ozgina muddat A.Abdimuratov, 2001–2002-yillarda f.f.n. Z.Kojikbayeva, 2004–2006-yillarda B.Paluanov, 2006–2009-yillarda f.f.d., professor Y.Paxratdinov, 2009–2014-yillarda t.f.n. D.Bekbauliyev, 2014–2019-yillarda f.f.n. Z.Urazimbetova, 2019–2022-yillarda t.f.n. D.Bekbauliyev, 2022-yilning dekabr oyidan boshlab esa kafedraga filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Janabay Marziyayev rahbarlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-fevraldagi 88-qaroriga asosan, o'sha yili Jurnalistika alohida bo'lim sifatida va uning tarkibida “Jurnalistika” kafedrasida qayta tashkil qilinib, alohida o'z faoliyatini boshlaydi. O'sha paytda bo'limda jami 100 ga yaqin talabalar ta'lim olardi. Alohida bo'lim sifatida ish boshlagan bo'limga, dastlab, 1999–2000-yillarda fizika-matematika fanlari nomzodi, professor B.Abdikamalov, 2000–2002-yillarda f.f.d., professor Sh.Abdinazimov, 2002–2004-yillarda f.f.n., dotsent B.Genjemuratov, 2004–2005-yillarda B.Paluanovlar rahbarlik qildi.

2005–2006-o'quv yilidan boshlab esa ta'lim yo'nalishi qaytadan Filologiya fakulteti tarkibiga qo'shildi. Fakultet tarkibida o'sha paytda qoraqalpoq tili va adabiyoti, qozoq tili va adabiyoti, turkman tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishlari bor edi.

Kafedrada oliy ma'lumotli jurnalist mutaxassislarni tayyorlash bilan birga, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yo'nalishida va alohida e'tibor qaratildi. Hozirgi vaqtda kafedra O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Buxoro davlat universitetlarida yo'lga qo'yilgan jurnalistika ta'lim yo'nalishlari bilan o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot ishlari yo'nalishlarida hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Mana shunday hamkorlikdagi ishlar natijasida kafedra a'zolaridan M.Djumamuratova (1992), A.Abdimuratov (1997) va D.Bekbauliyevlar (1997), Z.Kojikbayeva (1998), Z.Urazimbetova (2006), B.Paluanov (2007), Q.Qalekeev (2009), A.Ayapov (2010), X.Atajanov (2012), T.Masharipova (2017), J.Marziyayev (2019), Q.Begniyazova (2019), A.Najimov (2012) va S.Esemuratovalar (2021), B.Nurabullayev (2022), E.Jarimbetov (2022), G.Kallibekova (2022) va G.Seitnazarovalar (2022), M.Kudaybergenov (2023), Y.Genjemuratovlar (2024) fan nomzodi (PhD) ilmiy ishlarini himoya qilib, ilmiy darajalarini olishga miyassar bo'ldi. Shuning bilan birga, kafedrada fan doktori ishlari ustida ham ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga ham keng e'tibor qaratilib, 2019-yilda Z.Urazimbetova, 2020-yilda T.Masharipova fan doktori ishlarini muvafaqqiyatli himoya qildi. Shuningdek, kafedra a'zolaridan 9 nafar professor-o'qituvchi dotsent ilmiy unvonini, bitta professor-o'qituvchi professor ilmiy unvonini olishga erishdi.

O'quv ishlari sohasida ham kafedra jamoasi bir qancha muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ya'ni, Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari pedagoglari o'rtasida o'tkaziladigan «Oliy ta'lim muassasalarining eng yaxshi pedagogi» tanlovlarida faol ishtirok etib, 2017-yilda f.f.n., dotsent M.Djumamuratova «Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi» nominatsiyasi bo'yicha, 2019-yilda esa PhD, dotsent T.Masharipova ham «Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi» nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi.

Shuning bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabr kuni «Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash to'g'risida»gi 816-qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 10-iyun kuni «O'quv adabiyotlarni nashr etishga taklif berish jarayonini raqamlashtirish to'g'risida»gi 197-buyrug'i asosida tayyorlangan «Jurnalistika va g'alaba kommunikatsiya asoslari» (F.Mo'minov, D.Bekbauliyev va boshqalar), «Media tili va stili masalalari» (Z.Urazimbetova), Xorij jurnalistikasi (X.Atajanov, J.Marziyayev), “Jamoatchilik bilan

bilan aloqalar (PR)” (J.Marziyayev, G.Kallibekova) nomli darsliklari va “OAV tipologiyasi” (X.Atajanov, J.Marziyayev), “Datajurnalistika” (Q.Begniyazova, B.Gulimova, T.Muxiyatdinova), “Jurnalistik tekshiruv” (J.Marziyayev, X.Atajanov), “Jurnalistik mahorat” (J.Marziyayev, X.Atajanov), “Zamonaviy jurnalistika nazariyasi va amaliyoti” (X.Atajanov, J.Marziyayev), “Kreativ va tanqidiy fikrlash” (Z.Kojikbayeva, G.Seitnazarova), “PR matnlar tipologiyasi” (K.Tleuov), “Media tili va stili” (J.Marziyayev, G.Kallibekova), “Mediada dizayn va vizualizatsiya” (J.Marziyayev, X.Atajanov), “Audivizual jurnalistika (Radiojurnalistika asoslari)” (B.Paluanov), “Fotorejurnalistika” (S.Esemuratova), “Fuqarolik jurnalistika” (S.Esemuratova), “Publitsistika nazariyasi va amaliyoti” (T.Masharipova), “Ekologiya va jurnalistika” (J.Marziyayev) o‘quv qo‘llanmalariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining nashr etish bo‘yicha guvohnomalari berildi va universitet tomonidan nashr etildi.

Professor-o‘qituvchilar tomonidan bir qancha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ham bosmadan chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ulardan D.Bekbauliyevning «Gazeta qanday chiqadi?», «Men redaksiyadan», Z.Qo‘jiqbaevaning «Talantga qanoat», «Qoraqalpog‘iston publitsistikasida sud ocherklari», «Reklama tilining izohli lug‘ati», M.Djumamuratova va Z.Urazimbetovalarning «Jurnalistika va adabiyot», «So‘z marjonini tizganlar», «Ochiq axborot tizimlarida informatsion-psixologik xavfsizlik», A.Abdimuratovning «Qoraqalpog‘iston fotojurnalistikasi tarixidan», Q.Qalekeevning «Qoraqalpog‘iston matbuoti va mustaqillik davridagi manaviy rivojlanish», taniqli jurnalist Sh.Usnatdinovning «Jurnalistikaga kirish», T.Masharipovanning «Jonli so‘z», «O‘zimni izlayman, ...», B.Paluanovning «Publitsistika asoslari» va «Radiojurnalistika janrlari», X.Atajanov va J.Marziyayevlarning «Matbuot tipologiyasi», «Tarjima nazariyasi», «Birlashgan portal imkoniyatlari», X.Atajanov, J.Marziyayev, M.Kudaybergenov, G.Kallibekovalarning «Xorij jurnalistikasi tarixi», A.Najimovning «Mustaqillik yillarida qoraqalpoq tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksikaning rivojlanishi» nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari nashr etilib, ta‘lim yo‘nalishi talabalarining mutaxassislik fanlaridan bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishida asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda jurnalistika sohasining ahamiyatli masalalariga bag‘ishlangan qator monografiyalar ham tayyorlanib nashr etilmoqda. Jumladan, Z.Urazimbetovanning «Qoraqalpog‘ vaqtli matbuoti tili» (2019), T.Masharipovanning «Publitsistika nazariyasining bir butun konsepsiyasi» (2016), A.Abdimuratovning «Pisatelskoe slovo – golos narodnoy sovesti» (2021), J.Marziyayevning «Mustaqillik yillari qoraqalpoq matbuotida ekologik muammolar talqini» (2022), E.Jarimbetovning «Qoraqalpog‘ matbuotida adabiyot masalalarining tahlili: yondashuvlar, tendensiyalar va muammolar» (2023), G.Kallibekovanning «Qoraqalpog‘iston tarmoq gazetalarning tili va uslubiy xususiyatlari» (2023), Q.Begniyazovanning «Jurnalistikada gipermatnning o‘ziga xos xususiyatlari va uni yaratish algoritimi» (2024), M.Kudaybergenovning «Hozirgi zamon Qoraqalpog‘iston bolalar matbuotining tematikasi va janriy-uslubiy xususiyatlari (2017–2021-yillar misolida)» (2024) nomli monografiyalari nashr qilindi.

Kafedra a‘zolaridan davlat mukofoti sovrindorlari va faxriy unvonlarga ham erishayotgan ustozlar qatori ortib bormoqda. Shulardan M.Djumamuratova (2022), A.Abdimuratov (2023) va D.Bekbauliyev (2023), B.Nurabullayevlar (2024) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashi Prezidiumining qaroriga muvofiq «Vatan fidoyisi» ko‘krak nishoni bilan, T.Masharipova «Yilning eng faol jurnalisti» nominatsiyasi g‘olibi (2014) va «Ibratli ayol» ko‘krak nishoni bilan, E.Jarimbetov (2022) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashining «Maqto‘v yorlig‘i» bilan mukofotlangan.

2020–2021-o‘quv yilidan boshlab, kafedra tarkibida Respublikamiz muassasa va tashkilotlariga Axborot xizmati (matbuot kotibi) mutaxassislarini tayyorlab berish maqsadida 60320200-Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta‘lim yo‘nalishi o‘z faoliyatini boshladi. O‘sha paytda ushbu mutaxassislikning qoraqalpoq guruhiga 30 nafar talaba, o‘zbek guruhiga 15 nafar talaba, rus guruhiga 6 nafar talaba qabul qilindi. 2024-yili ushbu talabalar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bakalavr darajasiga ega diplomlarini olib, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlab chiqarish o‘rinlariga ishga joylashib, xalq xizmati yo‘lida faoliyat olib bormoqda. Shuning bilan birgalikda, kafedra tarkibida 2018–2019-o‘quv yilidan boshlab, ta‘lim yo‘nalishining sirtqi bo‘limi ham yo‘lga qo‘yilib, bu esa Respublikamiz ommaviy axborot vositalari sohasida bir necha yillardan buyon faoliyatini olib borayotgan va ish sababli kunduzgi bo‘limda o‘quv imkoni bo‘lmagan yoshlar va xodimlar uchun katta imkoniyatlarning biri bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2003–2004-o‘quv yilidan kafedrada magistratura ta‘lim bosqichining yo‘lga ko‘yilishi Qoraqalpog‘istonda oliy magistr darajali va ilm-fanga dastlabki qadam tashlayotgan yoshlar qatorini ko‘paytirishga asos bo‘ldi. Mana shundan buyon bakalavriatura bosqichini tugatgan yoshlar magistratura bosqichida tahsil olib va uni muvafaqqiyatli tugatib, ilm-fan, pedagogika va respublikamizning boshqa da ishlab chiqarish sohaslarida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 2024–2025-o‘quv-yilidan kafedrada «Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar» va «Noshirlik ishi va muharrirlik» mutaxassisligi bo‘yicha ham magistrantlarni

tayyorlash yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda magistratura bosqichida 4 ta mutaxassislik majud bo'lib, ularda 30 ga yaqin magistrantlar ta'lim olmoqda.

Jurnalistika ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talaba-yoshlar orasidan davlat stipendiyasi va nomdor stipendiya tanlovi g'oliblari ham mavjud. Ulardan A.Urazimbetova «Zulfiya» nomidagi davlat mukofoti sohibi (2013), G.Nurimbetova Navoiy nomidagi davlat stipendiya g'olibi (2007), S.Esemuratova Berdaq nomidagi davlat stipendiyasi g'olibi (2015), G.Seytnazarova Prezident davlat stipendiyasi g'olibi (2016), A.Kemalova "Umid uchquni" ko'krak nishoni (2019) va "Mustaqillikning 30 yilligi" ko'krak nishoni bilan (2021), A.Qalbayeva "Umid uchquni" ko'krak nishoni (2021), D.Qallibekova "Mirzo Ulug'bek vorislari", "Eng yaxshi turizm loyihasi", "Uzbek voice" respublika ko'rik-tanlovlari g'olibi (2023) va 2024-yili O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi raisi tomonidan "Tashakkurnoma" bilan, D.Dauletbayeva Prezident davlat stipendiyasi g'olibi (2023), A.Dabilov Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi g'olibi (2023), O.Latipov I.Yusupov nomidagi davlat stipendiyasi g'olibi (2023), B.Jartibayeva Qozog'iston Respublikasi Qo'sh qanot jamg'armasi tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan "Altin quran" ko'krak nishoni bilan (2023) va Berdaq nomidagi davlat stipendiyasi g'olibi (2024), N.Baltaniyazova Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi g'olibi (2024), A.Abibullayev «Vatan fidoyisi» ko'krak nishoni bilan (2024), G.Kuanishbayeva «Kelajak bunyodkori» mukofoti (2024), G.Jaqsimuratova «Umid uchquni» ko'krak nishoni (2024) va I.Yusupov nomidagi davlat stipendiyasi g'olibi (2024), D.Saparbayeva «Umid uchquni» ko'krak nishoni (2024) mukofotlari bilan taqdirlangan talabalar qatori ko'paymoqda.

2023-yildan boshlab, kafedrada tayanch doktorantura bosqichi yo'lga qo'yildi, o'sha yili 3 nafar doktorant qabul qilingan bo'lsa, 2024-yilda 4 nafar doktorant, 2025-yilda 2 nafar doktorant va bitta erkin izlanuvchi qabul qilindi.

Kafedraning xalqaro aloqalari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yo'nalishda kafedra a'zolaridan B. Paluanov IAMCR (International Association for Media and Communication Research) tashkiloti a'zosi sifatida 2008-yilda Shvetsiyada o'tkazilgan konferensiyada o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi. Shuningdek, Polsha (2016), Qozog'iston (2020), Portugaliya (2017), Ispaniya (2018), AQSH (2023) xalqaro seminar va treninglarida faol ishtirok etib keldi. 2015-yilning iyul oyida esa Polshaning Poznan shahridagi Adam Michkeevich universitetining siyosiy fanlar va jurnalistika fakultetida tashkil qilingan «Yangiliklar savodxonligi» yozgi maktabida grant g'olibi sifatida ishtirok etib, malaka almashinuviga erishdi. Shuning bilan birga, B.Paluanov Yevropa Ittifoqining Erasmus Mundus dasturining TOSCA loyihasi doirasida grant g'olibi bo'lib, Portugaliyaning Portu universitetida 2011–2012-yillarda ilmiy stajirovkada o'z malakasini oshirib keldi. Shuningdek, kafedra a'zolaridan Y.Genjemuratov esa 2010–2014-yillarda va 2024-yilning oktabr-noyabr oylarida Polshaning Adam Michkeevich universitetida, erkin izlanuvchi J.Zarimbetova 2012–2015-yillarda Polshaning Krakov shahridagi Yagellonian universitetida, talaba shogirdlardan G.Axmedova 2012–2013-yillarda Latviyaning Latviya universitetida o'z bilim va tajribalarini orttirib kelgan bo'lsa, 2016-yilda magistrant B.Sultamuratov Yevropaning taniqli universitetlerida (Portugaliya, Belgiya, Slovakiya, Italiya), J.Iskenderov esa 2018-yilda Italiyaning Lakullya universitetida almashinuv dasturida ishtirok etdilar. I.Abiyev esa 2021–2022-o'quv yilida Polshaning Bialistok universitetida o'z malakalarini oshirdi.

Jurnalistika mutaxassisligini bitirgan bitiruvchilar orasidan jamiyatimizning har xil sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan yoshlarning aksariyati davlat mukofoti sovrindorlari va faxriy unvonlariga ega bo'layotganlari talaygina. Ulardan ayrimlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan jurnalist faxriy unvonlariga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlari esa ommaviy axborot vositalari sohasida o'tkazilib kelayotgan katta tanlovlarda, jumladan, "Oltin qalam", "Yilning eng faol jurnalisti" va boshqa tanlovlarda g'olib bo'lib kelmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'istonda malakali jurnalist mutaxassislarni tayyorlashda Qoraqalpog' davlat universitetida tashkil qilingan jurnalistika kafedrasini o'z faoliyatini yo'lga qo'yganidan buyon mamlakatimizning ommaviy axborot vositalari sohasiga, shuning bilan birgalikda, davlat boshqaruv organlari sohalarida ham yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda. O'z navbatida, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning jamiyatimizda yuz berayotgan voqea va hodisalarni egallagan kasbiy ko'nikmasi va burchi asosida haqqoniy yoritib hamda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarining rivojlanishida o'z hissalarini qo'shib kelayotganini yuqoridagi misollar orqali ham aniq ko'rsa bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Prezident Shavkat Mirziyoyevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. 27.06.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5294>; Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. Sh.M.Mirziyoyev. T., «O'zbekiston», NMIU, 2017, 48-bet.
- (2). Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. O'quv qo'llanma, Toshkent, "Tafakkur", 2011, 288-bet.
- (3). Ernazarov Q. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. T., O'zMU, 2002.
- (4). Mo'minov A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T., O'zMU, 1998.
- (5). Bekbauliev D.O. Davlat mustaqilligi yillarida Qoraqalpog'iston davriy matbuoti (1991–1994). Tarix f.n. diss. avtoreferati., T., 1997, 26-bet.
- (6). Kojikbayeva Z. Qaraqalpaq publitsistikasida sud ocherkleri. No'kis, "Qaraqalpaqstan", 2009, 32-bet.
- (7). Masharipova T. Publitsistika teoriyasiniñ bir butin konsepsiyasi. Ilimiy-metodologiyaliq analiz, T., "Mo'mtoz so'z", 2016, 292-bet.
- (8). Orazimbetova Z. Qaraqalpaq ku'ndelikli baspaso'zi tilinin' stillik o'zgeshelikleri. T., «Hihol media», 2019, 162-bet.
- (9). Allamberganova P. Jurnalistikada janr masalasi. O'zbekistonda xorijiy tillar. T., 2020, 1(30), 158–165-betlar.
- (10). Прохоров Е.П. Искусство публицистики. Размышления и раздоры. М., «Мысль», 1984, с. 359.
- (11). Черепанов М.С. Таинство мастерства публициста. М., «Мысль», 1989, с. 150.
- (12). Журбина Е.И. Повесть с двумя сюжетами. М., «Сов.писатель», 1979, с. 300.
- (13). Тертичный А.А. Жанры периодической печати. Учебное пособие, М., "Аспект Press", 2000, с. 310.
- (14). Marziyayev J.K. The principles of the development of present Karakslpakstan's mass media. International Scientific Journal (ISJ) Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 03 (83), 500. Impact Factor ICV=6.630. Published, 2020, p. 274–277. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.03.83.52>
- (15). Марзияев Ж.К. Роль и место публицистических жанров в современной каракалпакской печати. Вестник Челябинского государственного университета. Челябинск, № 6 (260), 2012, с. 88–92. <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-mesto-publitsisticheskikh-zhanrov-v-sovremennoy-karakalpakskoy-pechati/viewer>

Bahodirova E'zoza (O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetining mustaqil izlanuvchisi) INFOTEYNMENTNING TELEKANALLARDA PAYDO BO'LISHI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Maqolada infoteynmentning jahon telekanallarida paydo bo'lishi va asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu formatdagi ko'rsatuvlarga ehtiyojning yuzaga kelishi, shaxslashtirilgan axborot va unda boshlovchining o'rni ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** informatsiya, infoteynment, interteynment, dastur, telekanallar, ekran, efir, shaxslashtirilgan axborot.*

ПОЯВЛЕНИЕ ИНФОТЕЙНМЕНТА НА ТЕЛЕВИЗИОННЫХ КАНАЛАХ И ЕГО ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

***Аннотация.** В данной статье анализируется процесс появления инфотейнмента на мировом телевидении и рассматриваются его основные особенности. Исследуется растущий спрос на программы данного формата, роль персонализированной информации, а также значение ведущего а формировании инфотейнмент-контента.*

***Ключевые слова:** информация, инфотейнмент, интертейнмент, программа, телеканалы, экран, трансляция, персонализированная информация.*

THE EMERGENCE AND KEY FEATURES OF INFOTAINMENT ON TELEVISION CHANNELS

***Annotation.** This article examines the rise and defining characteristics of infotainment on global television channels. It explores the growing demand for programs in this format, the role of personalized information, and the significance of the presenter in shaping infotainment content.*

***Keywords:** information, infotainment, intertainment, program, TV channels, screen, broadcast, personalized information.*

Kirish (Introduction). 1980-yillarning o'rtalarida AQSH telekanallarida informatsion dasturlarning auditoriyasi torayib, reyting tushib ketdi. Bu esa medialarga iqtisodiy, moliyaviy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu zayl teleko'rsatuvlar mualliflari oldiga axborot berish mazmun-mohiyati va shakl-shamoyiliga

o'zgartirish kiritish vazifasi qo'yildi. Informatsion telekanallar axborot tayyorlash va auditoriyaga taqdim etishning eng ta'sirchan usullariga e'tibor qaratishdi. Bular ichida eng mashhuri infoteynment sanaladi.

Mazkur maqolada infoteynmentning jurnalistika rivojidagi o'rni, afzalliklari, kamchiliklari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, mahalliy va xalqaro misollar orqali amaliyotga tatbiqi ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maqolada ko'rib chiqilayotgan mavzu xalqaro amaliyotda XX asrning 80-yillarida kirib kelgani bois, uning ilmiy adabiyotlarda paydo bo'lishi ham shu davrlarga borib taqaladi. Xorijiy olim va mutaxassislarining mavzuga doir ko'plab maqolalari mavjud. Yangi asr boshlarida MDH olimlari asarlarida infoteynment xususida so'z boradi. N.Golyadkin, N. Kartoziya, N.Zorkov kabi amaliyotda infoteynmentni qanday qo'llash mumkinligini keng tahlil qilishgan. Shuningdek, mavzuga doir boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda infoteynment mavzusi yetarli darajada o'rganilmagan bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu mavzuga qiziqish ortgan. Xususan, A.Karimov, Y.Ortiqova, I.Rahmatullayeva kabi olimlarning soha bo'yicha ilmiy izlanishlari mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni o'tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Infoteynment, ingliz tilidagi "infotainment", ya'ni, "information" – informatsiya, "entertainment" ko'ngilochar so'zlari birikishidan yuzaga kelgan tomoshabinlarni ko'ngil ochish va xabardor qilishga qaratilgan teleko'rsatuv yoki radioeshittirishlarni taqdim etish usuli. Infoteynment sifatida tavsiflangan dasturlarda axborotlarni tanlash yoki uni taqdim etishda ko'ngilochar xususiyatlar inobatga olinadi. Infoteynment medianing turli janrlariga (tok-shoular, teleko'rsatuvlar va individual reportajlar) kirib boradi va mazkur usulning ajralib turadigan asosiy xususiyati tomoshabinlarning his-tuyg'ulariga ta'sir etish deb baholanadi [1].

Televizion jurnalistikaning rekreativ vazifasi bo'yicha qator tadqiqotlar olib borgan filologiya fanlari doktori, professor A.Karimov: "Infoteynmentchilar televizion axborotni, u qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir ko'rishda kishi qalbiga kirib boradigan, fikrlar uyg'otadigan qilib tayyorlashni taklif qilishmoqda" [2], deydi. Rossiyalik olim N.Zorkov rus telekanallariga axborot uzatishning mazkur yangi shakli – infoteynmentning kirib kelishiga doir tadqiqotida Amerika Qo'shma Shtatlarida XX asrning 80-yillarida paydo bo'lganini ta'kidlaydi [3]. Aynan infoteynment formatidagi birinchi haftalik mashhur informatsion-ko'ngilochar "60 minutes" dasturi bo'lib, AQSHdagi axborot uzatuvchi tijoriy teleradio SVS (Columbia Broadcasting System)da efigra uzatilgan. Unda boshlovchilar muhokama qilayotgan voqealarga o'z shaxsiy munosabatlari bilan qahramonlar ishtirokida kadrda namoyon bo'la boshlashdi. Mazkur formatdagi o'xshash dasturlar ABC ("20/20") va i CBS ("48 hours")da paydo bo'ldi. Fox News telekanali o'z konsepsiyasida infoteynment prinsiplarini asosiy vazifa sifatida qo'ydi [4].

Tadqiq etilayotgan yangi usul talablariga muvofiq, axborot dasturlari mualliflari lavhaning asosiy qahramonlari qatori kadrda ko'rinish berishadi va tomoshabinlarga to'g'ridan to'g'ri murojaat etib, "to'ntarilgan uchburchak"–"lid", "stend-ap"larini ko'z-ko'z qila boshlashadi. Muxbirlar reportaj, intervyu va boshqa janrlardagi materiallarda sharhni "o'zlashtirib", voqea-hodisalarga o'z munosabatlari bilan faol harakatga kirishdilar.

Ekran, efir televideniya boshlovchisi, sharhlovchisining kishi diqqatini o'ziga jalb qiladigan yana bir ish usuli bu o'zlashtirilgan (shaxslashtirilgan) axborotdir. Materialning infoteynmentga, uning yengil qabul qilinishiga turli yo'llar bilan erishiladi. Rossiya telekanallaridagi "Прожектор пересхильтон", "Профилактика", "Времячко" kabi ko'rsatuvlarda axborotni taqdim etishning yangi shakli, teleboshlovchilarning aktyorlik mahorati hisobiga material qiziqarli bo'lishiga erishilsa, qat'iy axborot janridagi materiallarning o'ziga jalb qiladigan jihatlari – o'tkir intellekt, original mazmun, chuqur mantiq, sharhlovchining o'ziga-gina xos bo'lgan xususiyatlari, uning yuksak mahorati bilan qo'lga kiritiladi.

Shaxslashtirilgan axborot (personifisirovannaya informatsiya)ning aksi, "shaxslantirilmagan axborot"ga ham izoh berib o'tsak. Shaxslashtirilgan (shaxsning o'ziga xos xislatlari – aqli, hissiyoti, dunyoqarashi, munosabatlari singdirilgan, so'z boyligi bilan jilo berilgan) axborotning odatdagi, uchinchi shaxs nomidan beriladigan hissiz, betaraf, yakrangdagi – shaxslashtirilmagan axborotdan farqli, inson diqqat-e'tiborini qozonib, uning aqli, qalbiga kirib boradi, hissiyoti va ichki dunyosiga ta'sir etadi va yodida uzoq saqlanib qoladi.

Boshlovchining his-tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan – shaxslashtirilgan axborot mazmun-mohiyati bilan, avvalambor, to'g'ri, aniq va xolis bo'lishi shart. Ayni paytda o'sha axborot boshlovchi(muxbir)ning voqelikka shaxsiy yondashuvi, nuqtayi nazari, nutq uslubi singdirilgan holda taqdim etiladi. Axborot orqali jur-

nalistning shaxsiy soʻzlash uslubi, oʻziga xos individual xislatlari aks etadi. Voqea-hodisalar jurnalistning ichki dunyosi chigʻirigʻi, uning ruhiyatidan oʻtgan, ichki kechinmalari bilan boyitilgan, tajribasi, malakasi bilan yoʻgʻrilgan, oʻzining shaxsiy nuqtayi nazari, maʼqullovchi yoki inkor etuvchi munosabati bilan sharhlanadi. Shaxslashtirilgan axborotda hissiyotlar tugʻyoni, mantiqiy urgʻular, voqea sharhida jurnalistning madaniyati, maʼnaviyati, shaxsiy yondashuvi gavdalanadi.

Shaxslashtirilgan axborotda boshlovchi efirga axborotni oʻz shaxsi, individualligini singdirgan holda auditoriyaga yoʻnaltiradi. Axborotni faqat oʻziga xos uslubda efirga berishi, ramzli, obrazli gaplari, maqulu matallari, qochirmalari-yu kinoyalari, ovozing faqat oʻziga xos boʻlgan ohangi bilan boyitadi. Odatda, u alohida soʻz, fikr, mantiqqa urgʻu berish uslubiga ega boʻladi. Boshlovchi ovozi ohangida hayrixohligi yoki norizoligi, maʼqullab hayratlanishi yoki ochiq inkor etib qoralashi, istehzo yoki mantiqiy asoslangan holda, tarafini olish maʼlum maʼnoda sezilib turadi. Sharhlovchi oʻqilayotgan matn mazmuniga ovozing ohangi bilan oʻz munosabatini oʻz xarakteriga, leksikasiga xos holda shaxslashtirib beradi.

Shoʻrolar davridagi sharhda (siyosiy-ijtimoiy, madaniy-maishiy, sanʼat masalalarida boʻladimi) boshlovchi nutqida davlat pozitsiyasi, nuqtayi nazari albatta aks etadi. Sharhlovchi maʼmuriy-buyruqbozlik tuzumi siyosati, qonun-qoidalari, talablarini ilgari surardi. Voqea-hodisa sharhida ham avtoritar munosabat, davlat monopoliyasi, mafkuraviy yondashuv mavjud edi. Har bir muhim voqea, hodisa sharhiga yuqoridan koʻrsatma, yoʻnalish berilar edi.

Mediamutaxassislar, dastlab, oshkoralik va qayta qurish davrida, keyinchalik, mustaqillik yillarida voqea-hodisalarni turli ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan turib yorita boshladilar. Bunda biz jamiyatda, OAV faoliyatida demokratik prinsip normalari qaror topayotganiga guvoh boʻlish mumkin. Bir soʻz bilan aytganda, kadrda efirga berilayotgan har bir materialning oʻz boshlovchisi, dastur egasi, muhimi, axborotning yangi yorqin shakli paydo boʻldi.

Yangiliklar asta-sekin “toza” termini bilan yuritiladigan:

– faqat fakt, raqam, maʼlumotlarni yetkazib beruvchi, tashqaridan hech qanday fikr, gʻoya qoʻshilmagan sof axborotga, ikkinchidan;

– oʻsha fakt, voqea, hodisa, yuqorida qayd qilinganidek, jurnalistning ichki prizmasidan oʻtadigan, uning munosabati, hissiyotu ehtiroslari bilan boyitiladigan, teletomoshabing maʼqul boʻladigan shaklda qayta ishlanadigan “yumshoq” axboriy-koʻngilochar yangiliklarga ajratildi.

Infoteynmentning birinchi nazariyotchisi, “60 minutes” axborot dasturining asoschisi Ron Xovard asosiy eʼtiborni kadrda chiqib, reportaj olib borayotgan jurnalist shaxsiga, muxbirga qaratdi. Xovard: “Jurnalist nima haqda gapirayotganiga qoʻshimcha tarzda qanday gapirayotani va ommaga qanday yetkazilayotgani ham muhim. Notiqning zerikarli, hissiz gapi-soʻzi, mavzu muhim boʻlsa ham, koʻpchilik uni diqqat bilan tinglamaydi, natija ham past boʻladi, u uxlatib qoʻyadi. Qiziq, obrazli, qochirimlar bilan gapiradigan yoqimli suhbatdosh esa, u nima haqda gapirmasin, oxirigacha eshitishadi” [5], deb taʼkidlaydi.

NBC (National Broadcasting Company) kompaniyasi prodyuseri Nil Shapiro informasion dasturlar soʻngida tomoshabinni oʻziga jalb etadigan yuqori sifatli, taʼsirchan videotasvir, grafika, fantaziya, maxsus effektlar bilan boyitilgan, shov-shuv boʻla oladigan televizion sujetlarni efirga uzatishni yoʻlga qoʻygan [6]. Tadqiqotchining fikricha, tomoshabin axborotdan boxabar boʻlish bilan birga, uni zoʻr qiziqish va maroq bilan tomosha qilishi lozim. Televizion lavhalarda oʻziga xos yangi kashfiyotlar – turli noanʼanaviy rakkurs va planlarda mahorat bilan ishlangan videokadrlar, kompyuter grafikasi yordamidagi maxsus texnik effektlar qoʻllanila boshlandi. Natijada quruq xabar va maʼlumotlar oʻrnini, zoʻr mahorat bilan tasvirga tushirilgan va koʻzni qamashtirib, qalbni rom etuvchi lavha va yangiliklar paydo boʻldi. Axborotning taʼsir kuchi, telejurnalist ishining, umuman, telejurnalistikaning samaradorligi ortdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shunday qilib, bu oʻzgarishlar quyidagilarni qamrab oldi:

– dasturlashda axborotning shov-shuvga sabab boʻla olish tamoyili joriylandi;

– rasmiy xabarlar hajmi qisqartirildi;

– amaliyotchilarga omma diqqatini torta oladigan tematik axborotlarni koʻpaytirish vazifasi yuklatildi;

– infoteynment jahon telekanallari tajribasidan milliy kanallargacha kirib bordi.

Yuqoridagi oʻzgarishlar natijasidpa axborotni efirga berish shakli, uslubi oʻzgardi. Jiddiy, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi xabarlar ham rasmiy, protokol til va uslubdan, shablon gap va iboralardan voz kechildi. Asosiy diqqat-eʼtibor, ularning oʻrniga, kichik boʻlsa ham, kishida qiziqish ish uygʻotuvchi yorqin detalarga berila boshlandi.

Jamoatchilik bilan doimiy muloqotda bo‘ladigan arboblarning, davlat rahbarlarning kiyimi, taqib chiqqan galstuklarining rangi, eʼfirda ilgari aytilishi shart, deb hisoblangan rangsiz, hissiz, sovuq iboralar o‘rniga o‘zaro jonli muloqot, ko‘cha-ko‘yda foydalanadigan oddiy gap, so‘z, iboralar ishlatila boshlandi. Ayni shu davrda boshlangan tendensiya, yangi asrning dastlabki yillarida yanada taraqqiy topdi. Telekanallar orasidagi ayovsiz raqobat ularning har birida o‘ziga xos jihatlar bo‘lishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). <https://ru.wikipedia.org/wiki/04.03.2025>.
- (2). Каримов А. Рекреативлик – замонавий тележурналистиканинг глобал қонуниятига сифатида. Монография, Т., “Адабиёт”, 2021.
- (3). Зорков Н.Н. Инфотейнмент на российском телевидении <http://www.relga.ru/Environ/WebObjects/tgu-www.woa/wa/Main?textid=735&level1=main&level2=articles>, 17.04.2016.
- (4). <https://ru.wikipedia.org/wiki/04.03.2025>.
- (5). <https://www.broadcasting.ru/articles/russkij-infotainment>, 10.03.2025.
- (6). Каргозия Н. “Программа “Намедни””: русский инфотейнмент. Меди@льманах, 2003, № 3, с. 10 – 25.

PEDAGOGIKA

Axrarova Fotima Baxromovna (O‘zMU dotsenti (PhD); e-mail: fatiman.b83@mail.ru)

ZAMONAVIY TILLARNI O‘QITISHDA METODIK TEXNOLOGIYALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация. Xorijiy tillarni o‘qitishda ma’lum bir texnik va pragmatik qoidalarga qaratilgan. Bunday texnologiyalardan foydalanish masalalari bilan pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari shug‘ullanadi. Pedagogik texnologiyalarni darslarda zamonaviy yangicha usullarda olib borish bugungi kunning talablaridan biridir. Pedagogik texnologiya asosan, XX asrning 30-yillarida ta’lim tarbiya mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va uslublar yig‘indisidan iborat.

Калит so‘zlar: chet til, pedagogik texnologiya, uslub, pedagogik master, pedagogik texnika, o‘qitish metodlari.

ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ СОВРЕМЕННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация. Как оказалось, обучение иностранному языку сосредоточено на определенных технических и прагматических правилах. Специфические характеристики педагогических технологий касаются вопросов использования таких технологий. Использование педагогических технологий на занятиях является одним из требований сегодняшнего дня. Педагогическая технология в основном состоит из комплекса методов и приемов, помогающих четко и эффективно организовать учебно-воспитательную деятельность в 30-х годах 20 века.

Ключевые слова: иностранный язык, педагогическая технология, метод, педагогический мастер, педагогическая техника, методика обучения.

FEATURES OF METHODOLOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MODERN LANGUAGES

Annotation. As it turns out, foreign language teaching focuses on certain technical and pragmatic rules. The specific characteristics of pedagogical technologies relate to the use of such technologies. Conducting Pedagogic technology in the classroom in modern new ways is one of the requirements of today. Pedagogic technology mainly consists of a set of methods and techniques that help to clearly and effectively organize educational activities in the 30s of the 20th century.

Key words: foreign language, pedagogical technology, method, pedagogical master, pedagogical technique, teaching methods.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy ta’lim standartlari asosida axborot olami tasavvur qilib bo‘lmas darajada ongu shuurimizni egallab borayotgan sharoitda xalqlarning madaniy integratsiyasi shiddat bilan o‘sayotganligiga tabiiy jarayon deb qarasaq, noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Chet tillarni chuqur o‘rgangan, dunyo xalqlari bilan erkin muomala qila oladigan, o‘z yurti, xalqi, davlati manfaatlarini yuksak bilim va iqtidor bilan himoya qilishga qodir mutaxassislargina bunday ulkan global muammolarni yechishga qodirdirlar¹. Zero, “bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallayotgan, intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”².

Zamonaviy tilni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni darslarda zamonaviy yangicha usullarda olib borish bugungi kunning talablaridan biridir. Pedagogik texnologiya asosan, XX asrning 30-yillarida ta’lim tarbiya mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi metodlar yig‘indisi bo‘lgan. Bu esa “pedagogik texnika”, uni amalga oshiruvchi “pedagogik master” (pedagogik mahorat ma’nosida) nomini olib, o‘sha davrda ta’limning eng samarali tadbiri hisoblangan. Har qanday fanni o‘quvchiga yetkazib berishda usullar muhim rol o‘ynaydi. J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonovlarning fikricha, harakatlarni amalga oshirish tizimi usul deb tanlangan, ma’lum yo‘ldan foydalangan holda, oldindan ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo‘llanadigan harakat usullariga aytiladi.³

¹ Sirojiddinov Sh. Chet tillarini o‘qitishda lingvodidaktika. “O‘zbekistonda xorijiy tillar”, iltiy-metodik elektron jurnal, № 1, 2014.

² Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.

³ Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T., “Fan va texnologiya”, 2008.

Ishning maqsadiga asoslanib, zamonaviy tilni o'qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanganda dars soati davomida yangi pedagogik texnologiyalar (texnik vositalar) asosida ish olib borish maqsadli va zifa deb qaraladi. Lekin o'qitishning texnik vositalarini rus olimlari TSO (texnicheskiye sredstva obucheniya) deb atashgan. TSO – o'qitish usuli, pedagog va talabalar tomonidan o'quv jarayonida foydalaniladigan turli xil obyektlar. Y.K.Babanskiy fikricha, "...faoliyat maqsadiga erishishga yordam beradigan barcha narsalar, ya'ni, uslublar, shakllar va maxsus o'quv qo'llanmalar to'plami, texnik o'quv qo'llanmalar dars yoki darsning maqsadlariga qarab belgilanadi",¹ deb ta'rif bergan.

Tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, xalq pedagogikasi xalqning o'zi yashab turgan zaminda asta-sekin yuzaga kelgan maqol, ibora, matal, ertak, qo'shiq kabi xalq ijodiy yodgorliklarida o'z ifodasini topgan. O'zbek faylasuflari jahon fani va madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shishga muvaffaq bo'lganlar. Masalan: Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mashhur olimlar o'z ilmiy va badiiy asarlarida ta'lim-tarbiya usullari haqida ko'plab ilg'or g'oyalarni ilgari surganlar.

T.N.Ajgibkova ta'limotida TSO – texnik qo'llanmalari o'quv jarayonini optimallashtirish maqsadida uni taqdim etish va qayta ishlash uchun ishlatiladigan didaktik qo'llab-quvvatlanadigan texnik vositalar to'plami. TSO nomidan ko'rinib turibdiki, bu o'quv materiallarini, ya'ni turli xil ma'lumotlarni yetkazib beruvchi. Ular bizning ta'lim jarayonimizda keng qo'llanilib kelyapti.

Har qanday fan fan sifatida o'zining ilmiy tadqiqot usullariga ega va bu usullar orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Pedagogika fani ham mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan usullari kabi izohlaydi.

Ilmiy tadqiqot metodlari qonuniyatlari aloqalarning bog'liqliklarini aniqlash va ilmiy nazariyalar yaratish maqsadida ilmiy axborot olish usuli sanaladi. "Metod" so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, metodik adabiyotlarda "o'qitish metodlari", "ta'lim metodlari" deb yuritiladigan bu tushunchani "o'rgatish metodlari" deb atash asosli. Chunki har qanday soha mutaxassisi bo'lish uchun, avvalo, UQISH (tushunib o'rganish) orqali o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi mumkin.²

Ch.K.Friz va R.Lado fikrlariga ko'ra, chet til amaliy va ta'limiy maqsadda o'rganiladi.³

Professor I.V.Rahmonov ta'rificha, "Metod – maqsad sari yo'naltirilgan sistema bo'lib, bu tushunchalar bir-birlari bilan shartli bog'langan usullardir".⁴ I.V.Rahmonovning ta'rifiga qo'shilgan holda, chet til o'qitish usullarini o'quvchiga bor mahorati bilan yetkazib bera oladigan mutaxassisni tushunamiz.

Tahlil va natijalar. Olimlarning fikriga ko'ra chet tilni o'rgatishning rivojlanish bosqichlarida turli metodlar, jumladan, quyidagi o'rgatish metodlari ko'proq qo'llanilgan.

1. Grammatik-tarjima metodi. Agar chet til o'qitish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng avval, grammatik-tarjima metodi shakllanganligiga guvoh bo'lamiz. U ikki ko'rinishda bo'lgan: leksik tarjima va tekstual (matn) tarjima. Zamonaviy malakali mutaxassisdan chuqur bilim kasbiy mahorat bilan birga kompyuter savodxonligi, albatta, chet tillardan birini bilish talab etiladi, chunki u o'z mehnat faoliyatida xorijiy manbalarda chop etilgan o'z kasbiga oid materiallarni o'qib, tarjima qila olishi, uni amaliyotga tatbiq qila bilishi, xorijlik hamkasbi bilan ishga doir fikr almasha bilishi kerak. Buning uchun zamonaviy mutaxassis ma'lum darajadagi so'z boyligiga ega bo'lishi lozim, shundagina u xorijiy tildagi matnni o'z ona tiliga tarjima qila olishi va fikrini xorijiy tilda ifodalay bilishi mumkin, shuning uchun ham tarjima chet tili o'qitish metodikasida muhim o'rin egallab kelgan.

2. Leksik tarjima metodi. Leksik tarjima metodida asosiy e'tibor leksik birliklar (so'zlar) va bir-biri bilan mantiqiy bog'liq bo'lishi shart bo'lmagan gaplarni tarjima qilishga qaratiladi. Bu ko'proq so'zlarni gaplarda ishlata bilish ko'nikmalarini shakllantirishda mashq qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu metodni til ko'nikmalari integratsiyasi kabi fanlarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Uest metodi. M.Uestning metodi quyidagi tamoyillarga asoslangan: 1. O'quvchi ikki tilni bilishi uchun ingliz tilini o'qishdan boshlab o'rganishi kerak. 2. Chet tilni o'rgatishning eng oson usuli o'qishdir. 3. O'quvchi o'qish orqali chet tilni o'rganayotganda tezda muvaffaqiyatga erishadi. 4. O'quvchi o'qish or-

¹ Аствацатуров Г.О. Дизайн мультимедийного урока. Волгоград, "Учитель", 2010.

² Pedagogika. (Munavvarov A.Q. umumiy tahriri ostida), T., "O'qituvchi", 1996.

³ Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.

⁴ Рахманов И.В. Очерк по истории методов преподавания новых иностранных языков. Автореф. докт. дисс., М., 1949. Основные направления в методике преподавания иностранных языков в XIX–XX вв.

qali chet tilni o'rganayotganda o'qituvchining tajribasi, mahorati muhim emas. 5. O'quvchi inglizcha o'qish malakasini egallay olsa, boshqa malaka ko'nikmalarini mustaqil o'rganib keta oladi. M.Uest so'z ma'nosini ochishda ona tilini, tarjimani qo'llashga qarshi emas edi. O'z metodi asosida qo'llanma va darsliklar yaratdi, ularni amalda qo'llab ko'rsatdi. Bugungi kunda uni tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarida qo'llash mumkin.

4. Audio-lingval metodi. To'g'ri metodning zamonaviy ko'rinishidan biri. Bu metod lotin va olmon so'zlaridan o'zlashgan (audire – hören – tinglamoq, lingua – zunge, rede, sprache – til). Olmon tiliga tinglash, gapirish, deb tarjima qilinadi. Bu metod filologiyada ham, nofilologik yo'nalishlarda ham qo'llanilib kelmoqda. Zamonaviy ta'lim standartlari asosida audio-lingval metod bilan dars olib borish talabada fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

5. Audio-vizual metod. Bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilish. Bunda tinglovchi uni qanday eshitish va qay holatda tinglashiga bog'liq. Asosan, chet tillarni o'rganishda ko'proq qo'llanadi. 3–4-kurs talabalari sinxron tarjima fanlarida qo'llasa, samarali natijalarga erishadi.

6. Ongli qiyoslash metodi. Chet tilni ona tiliga suyangan holda, nutq faoliyati turlarini qo'llash. Fikrlashning bu turi Edvard de-Bono tomonidan ishlab chiqilgan. Odatda, biz amaliy masalani yechish yo'lida qiyinchiliklarga ro'baro' bo'lamiz. "Olti qalpoqcha" usuli bunday qiyinchiliklarni yengish jarayonini olti bosqichda amalga oshirishning oddiy yo'lini taklif etadi. Har bir bosqich o'zining rangli qalpoqchasiga ega. Ya'ni, biz hamma narsa haqida birdaniga emas, balki navbatma-navbat fikr yuritimiz, natijada muammo-ning to'laqonli yechimiga erishamiz. Og'zaki nutq ko'nikmalari fanida talabaning erkin fikrlashida o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirishda samarali metod.

7. Kommunikativ metodi. O'qituvchining talabalar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'rnatish olish ko'nikmasi.

8. Problema (muammo)li o'qitish metodi. Intellektual faoliyat bilan bog'liq masalalarni hal qilish jarayonida yuzaga keladigan vaziyat. Siyosatshunoslik, yurisprudensiya, jinoiy javobgarlik kabi fanlarda talabalarining bir-biri bilan diskussiyaga kirishishida bu metod yaxshi samara beradi.

9. Intensiv metod. Mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo'lsa, u shunchalik tez o'zlashtiradi.

M.Uest metodi (Michael West) og'zaki nutq va o'qishni o'rganish hamda o'quv lug'atlarini tuzishda ilmiy xizmati katta.

Fikrimizcha, bu metodlarning vujudga kelishida, shubhasiz, pedagogika, psixologiya, shaxs psixologiyasi, lingvistika, psixolingvistika fanlarining rivojlanishi va ta'siri katta bo'ldi. Chet tilni o'rgatish metodlari haqidagi turli-tumanlik metodist olimlar orasida hamon yagona fikr yo'qligidan dalolat beradi. Masalan, I.V.Rahmonov va M.V.Lyaxovitskiylarning fikricha, chet tilni uchta umumiy metod orqali o'rgatish mumkinligini tadqiqotlarimiz davomida o'rganib chiqdik:

1. Namoyish qilish (demonstratsiya) metodi.
2. Tushuntirish metodi.
3. Mashq ishlatish yoki amaliy ishlarni tashkil qilish metodi.

Akademik olim R.K.Min-yar-Beloru-chev mazkur uch metodni boshqacha atamalar orqali nomlashni ma'qul ko'rgan.¹

1. Tushuntirish metodi.
2. Ko'rsatish metodi.
3. Mustahkamlash metodi.

I.L.Bim esa o'rgatish metodlarini quyidagicha to'rt usulda tasniflaydi:

1. Ko'rsatish.
2. Tushuntirish.
3. Mashq bajartirish.
4. Malakalarni amalda qo'llash.

Bu mashhur uch metodist olimlar R.K.Min-yar-Beloru-chev, I.V.Rahmonov va M.V.Lyaxovitskiylar-ning usullari ma'no jihatidan bir-biridan farq qilmaydi.

B.I.Passov, I.M.Mahmudovlar asarlarida metodlarning soni ko'paytiriladi:

1. Tushuntirish metodi (retseptiv metod yoki ko'rgazmali tushuntirish metodi).
2. Reproduktiv metod.
3. Muammo (problema)li o'qitish metodi.

¹ Chet til o'qitish metodikasi. Ishchi o'quv dastur, Qarshi davlat universiteti, 2006.

4. Evristik suhbat metodi.

5. Ilmiy izlanish yoki ilmiy tadqiqot o'tkazish orqali o'rgatish metodi.

Xulosa. Bunday turli-tuman tasniflanishda o'rgatish metodlari, usullari, tamoyillari o'zaro aralashtirilib yuborilganligiga ko'rish mumkin. Shu sabab yuqorida keltirilgan barcha metodlarni o'zida mujassamlashtiruvchi R.K.Minayar-Beloruchevni tasnifini tadqiqotimiz davomida ma'qul, deb topdik.

Taxlilarimiz davomida R.K.Minayar-Beloruchev nazariyasiga qo'shilgan holda, umumiy xulosaga kelib, uning tasnifidagi o'rgatish metodlarining umumiy xususiyatlari haqida to'xtalamiz.

Demak, dars jarayonining samaradorligi pedagogni o'quv faoliyatini tashkil qilishi va boshqarishga yo'naltirgan faoliyati qay darajada yaxshi rejalashtirilganiga, bu reja qanday amalga oshirilganligiga bog'liq, degan fikrga keldik. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish usullarining nazariy shakllanishi tarixiy muddat oralig'ida o'rganilayotgan muammo doirasida tahlil qilishda kechadi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1998.
- (2). Sirojiddinov Sh. Chet tillarini o'qitishda lingvodidaktika. "O'zbekistonda xorijiy tillar", ilmiy-metodik elektron jurnal, 1-son, 2014.
- (3). Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. «Fan va texnologiya», T., 2008.
- (4). Аствацатуров Г.О. Дизайн мультимедийного урока. "Учитель", Волгоград, 2010.
- (5). Ажгибова Т.Н. Технология применения аудиовизуальных средств обучения в вузах. "Инновации в образовании", 2004, № 2, 111–123 с.
- (6). Pedagogika. (A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida). "O'qituvchi", Toshkent, 1996, 9-bet.
- (7). Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi", Toshkent, 1996.
- (8). Рахманов И.В. Очерк по истории методов преподавания новых иностранных языков. Автореферат. докт.диссерт. М., 1949. Основные направления в методике преподавания иностранных языков XIX–XX вв.
- (9). Chet til o'qitish metodikasi. Ishchi o'quv dasturi, Qarshi davlat universiteti, 2006.

Abdalieva Periuza Isaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi)

ONA TILI VA O'QUV SAVODXONLIGINI O'QITISHDA O'QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitishda o'quv topshiriqlaridan foydalanish texnologiyasi haqida so'z yuritiladi. Ona tili va o'qish savodxonligida o'quv topshiriqlarining darsliklarda berilish xususiyati, o'quvchilarning bilim darajasini oshirishdagi samaradorligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, ona tili, o'quv topshiriqlari, didaktik vazifa, o'qish va yozishga o'rgatuvchi mashqlar, ko'rgazmali mashqlar, nutq ko'nikmasi.

Абдалиева Перюза Исаевна (преподаватель Нукусского государственного педагогического института)

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И УЧЕБНОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматривается технология использования учебных заданий в преподавании родного языка и грамотности чтения. Изучены особенности представления учебных заданий по родному языку и грамотности чтения в учебниках, их эффективность в повышении уровня знаний учащихся.

Ключевые слова: грамотность чтения, родной язык, учебные задания, дидактическая задача, упражнения на чтение и письмо, наглядные упражнения, речевые навыки.

Abdaliyeva Periuza Isaevna (Teacher, Nukus State Pedagogical Institute)

METHODOLOGY OF USING LEARNING TASKS IN TEACHING MOTHER TONGUE AND EDUCATIONAL LITERACY

Annotation. This article examines the technology of using learning tasks in teaching native language and reading literacy. The features of presenting learning tasks in native language and reading literacy in textbooks and their effectiveness in improving students' knowledge levels were studied.

Keywords: reading literacy, native language, learning tasks, didactic task, reading and writing exercises, visual exercises, speech skills.

Kirish (Introduction). Tilning ijtimoiy vazifasi nutq faoliyatida, ya'ni nutq sifatida odamlar orasida muloqat qilish, fikrlashni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Har xil davrlarda olimlar nutq faoliyati ta'rifiga turlicha yondashishgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini shakllantirish tizimi yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. A.Naurizbayeva, A.Najimova, A.Emberganovalar boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borgan [1].

Bir qator chet el olimlaridan A.Krivileva, A.Kucheryaviy, I.Mostovaya, N.Sagina va A.Chizx, G.Selixova o'quv topshiriqlari bo'yicha, T.A.Sluxay o'quv jarayonida matnli fikrlashni rivojlantirish, E.A. Baronenko, L.T.Larinoa, V.Y.Bluxov, T.M.Voiteleva, A.V.Koreneva, V.Korovina, R.I.Avanesov, A.P.Yeremeeva, E.I.Litnevskaya, V.A.Bogryanceva, E.S.Antonova, V.V.Babayceva, F.I.Buslaev, I.Y.Gats, F.F.Fortunovlar nutqni oshirish orqali nutqni rivojlantirishda metodik aloqalarga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Nutq faoliyati – insonlarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til yordamida o'zaro fikr almashuvlari, muloqatga kirishishi namoyon bo'ladi. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki va yozma. Nutq faoliyatini verbal yoki noverbal, tamomlangan yoki tamomlanmagan, yakka shaxslar orasida yoki guruhli kabi bir nechta turlarga ajratish mumkin.

Shu joyda nutq ko'nikmasi va lingvistik kompetensiyaning o'zaro farqiga borish o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uning vazifalari va samoradorligini anglashda zarurli ahamiyotga ega ekanligini aytish mumkin.

Nutq ko'nikmasi – o'z fikrini so'zlash vaziyatiga mos shaklda o'g'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tekis anglash, o'zgalar fikrini tushunish va munosabat bildira olish mahorati.

Nutq ko'nikmasi quyidagicha bo'ladi (1-rasm).



Tinglab tushunish – eshitilgan, vizual qabul qilingan ma'lumot mazmunini anglash ko'nikmasi tajribasi bo'lib, bu metod yoki usul emas.

O'qib tushunish – verbal (harf, so'z) yordamida ko'rsatilgan matn mazmunini tushunish.

So'zlash – fikrni so'zlash sharoitiga moslashtirib, og'zaki shaklda tasirli boyanlash ko'nikma/tajribasi.

Yozish – fikrni yozma shaklda so'zlash sharoitiga moslashtirib to'g'ri va mazmunli anglatish ko'nikma/tajribasi.

Biz maqolamizda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «ona tili va o'quv savodxonligi» fanlaridan davlat milliy dasturida keltirilgan bilim ko'nikmalar quyidagicha bildirilgan.

Sh.Yuldashevaning fikricha, "Ma'lumki, tinglab tushinish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Sababi so'zlovchining radio, magnitofon, televideniya orqali yoki muloqat vaqtida aytilgan so'zlarni tinglovchi darhol qabul qilib, mazmunini tushunib, yodda saqlab qolishi kerak. Bunday so'zlarni qaytadan o'qib olish uchun zarurlik bolmaydi. Tinglab tushunish so'zlash bilan mahkam bog'liklidir. Tinglab tushunish ko'nikmasi egallangan bo'lsa, o'quvchida so'zlash ko'nikmasi ham yaxshi rivojlanadi" [2].

Qadimda ijtimoiy boshqarishda nutq asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Har bir shaxs o'z zaruriyatlarini, maqsadi va tilaklarini nutq orqali yetkazib beradi, biroq natijasi qanday bolishi shu nutqning darajasi, bajarilishi – aytilishi, va tovushlar mostligiga bogliq. Jahon ta'lim tizimida o'quvchining o'z so'zini og'zaki aytishiga nutqiga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa, xalqaro tillarni o'qitishda qo'llanilib kelayotgan usullar ko'p vaziyatlarda o'zini oqlayapti. Chunonchi, ingliz, rus tillarini ikkinchi til sifatida o'qitishda aniq nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish bugingi tajribalarda o'z tastigini topyapti. Shu o'rinda so'z nutq ko'nikmasiga qo'yiladigan talab qoraqalpoq tilini davlat tili sifatida o'qitishga maxsus bir darajada mos keladi, biroq ona tili ta'limi uchun to'g'ri kelmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). "Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh kriteriyasi uning foydalilik va amalda qo'llana olish darajasi bolib topiladi. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr natijasini nutq sharoitiga mos og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tekis

anglatish ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuqori insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni taminlaydigan bilimlarni tushunamiz" [3]. Bunda o'quv topshiriqlar ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi zarurli omil hisoblanadi.

Asosan, qoraqalpoq auditoriyasida o'quvchilarga tovushlarni o'rgatishda faqat so'zlash va darsliktagi umumiy grafik chizmasi bilan cheklanib qolmasdan, tovushlarning aytilishi ifodalangan maxsus chizmalar asosida bilim berish, so'z so'zlash mashqlariga boricha darslarda ko'proq o'rin ajratish, yuqori sinflarda ulardan tizimli foydalanish adabiy til me'yorlarini egallashning, ta'sirli so'z so'zlashning zarurli omili ekanligini shu o'rinda alohida atab o'tish kerak.

Shunday qilib, bugungi kunning eng zarurli masalasi – qoraqalpoq tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirish hisoblanadi. Qoraqalpoq tili orqali o'quvchi fikrida olamning tillik ko'rinishi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar dars jarayonida o'quv predmeti emas, o'quvchilarda o'z-o'zidan terang o'ylash va milliy nomus shakllanadi. Shunda qoraqalpoq tilini o'rganishga o'quvchilarda katta qiziquvchilik uyg'onadi. Qoraqalpoq tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, turmishni, xalqning madaniy meroslarini o'rganishi kerak.

Pragmatik xarakterdagi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar so'rash va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o'rganadi. Mashqlar tarkibida berilgan gaplar, matnlar o'quvchining so'z boyligini oshirashga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammo bo'lib qolmoqda. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida anglash, tushunish, so'zlashish, insho yozishni o'rganib qolmasdan, topshiriqlar orqali o'quv adabiyotlariga yo'naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonish foyda qiladi.

Qoraqalpoq tilida tog'ri va ta'sirli so'zlash samarali foydalanishni o'rganish kerak, chunki siyosiy so'zlashlardan tortib, oddiy maishiy suhbat, yig'inlardagi individual so'zlashishgacha barchasida xalq tajribasidan o'tgan suhbatlar bir og'iz gapdan tushunadigan naql va aforizmlardan, obrazli so'zlardan foydalaniladi. Ushbu oquv materiallari ham, albatta, o'quv topshiriqlari orqali ko'nikmaga aylantiriladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ona tili ta'limida lingvistik kompetensiyalar ham nutq kompetensiyalarining o'zaro farqi anglash ham ta'lim jarayoniga to'g'ri qo'llanish kerak. Ona tili ta'limiga qo'llanilib kelgan tinglab tushunish, o'qib tushunish, so'zlashish va yozish ko'nikmalaridan ayrimlarini takomillashtirish, ona tili talablaridan kelib chiqip yangicha yondashishni talab qiladi. Masalan, so'zlashish ko'nikmasi o'zga tilni o'rganishga mos keladi. Tilning tashuvchilari ona tilida so'zlashishga o'rgatilmaydi, ona tili ta'limi o'quvchiga o'z fikrini so'zlashish vaziyatiga mos shaklda to'g'ri va tekis anglatishni o'rgatish kerak. Bunga so'zlashish ko'nikmasini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

“Ona tili va o'qish savodxonligi” fanining milliy o'quv dasturida og'zaki so'zlashish va tinglab tushunish ko'nikmalariga qoyilgan talablarni takomillashtirish, bu ko'nikmalarining standartini aniq belgilab olish kerak. Umumiy orta ta'lim maktablarining “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsliklarida og'zaki so'zlashishga tegishli o'quv topshiriqlar yozma nutqga nisbatan juda oz miqdorda berilganligi tahlillar orqali ko'rsatilgan.

O'quvchini to'g'ri va ta'sirli so'zlashga o'rgatish uchun unga didaktik ahamiyati katta bo'lgan proza-yik matnlarni yodlatish ham yoddan xatosiz aytishni tashkil etish, bu jarayonda fonetik mashqlar, leksik mashqlar, orfoepik mashqlarni tavsiya qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Nauruzbaeva A.S. Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim modernizatsiyasi dasturiy ta'minotini takomillashtirishning metodologik asoslari (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan boshlang'ich sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Nukus, 2024; Нажимова А.Д. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқини ўстиришга хизмат қилувчи машқлар тизими (таълим қорақалпоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида). Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф., Нукус, 2022, 54-бет; Yembergenova A.A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini takomillashtirish metodikasi (ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida). Ped. fan. fals. dok. (PhD). ...dis. avtoref., Nukus, 2023, 52-бет.

(2). Юлдашева Ш.Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар нутқий малакаларини ўстиришнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. ном. дисс., Т., 2008, 23–24-бетлар.

(3). Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма, Т., “Ўқитувчи”, 1996. 9-бет.

Dosbayeva Shahnoza Abdurahimovna (Namangan davlat universiteti; dosbayevashacnoza@gmail.com)
**MONTESSORI PEDAGOGIKASI ASOSIDA MANTIQIY FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Montessori pedagogikasining asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Maqolada Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillari, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mantiqiy masalalarga, va muammolarni yechish ko'nikmalariga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni bilan bog'liq shartlar yoritiladi. Montessori pedagogikasida o'yin orqali o'rganish, erkin faoliyat va yaratuvchanlikni rag'batlantirish kabi asosiy jihatlari ko'rsatiladi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o'quv materiallarining mosligi, o'quv muhitining qulayligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Montessori pedagogikasi, mantiqiy fikrlash, ta'lim jarayoni, mustaqil fikrlash, individual yondashuv, o'yin, pedagogik shart-sharoitlar, o'quv materiallari, o'quv muhit, yaratuvchanlik.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА
ОСНОВЕ ПЕДАГОГИКИ МОНТЕССОРИ**

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические условия, необходимые для развития логического мышления на основе педагогики Монтессори. В статье освещаются основные принципы педагогики Монтессори, условия, связанные с учебным процессом, ориентированным на развитие самостоятельного мышления, решение логических задач и навыков решения проблем. Подчеркиваются такие ключевые аспекты, как обучение через игру, свободная деятельность и стимулирование творческого подхода. Также рассматриваются соответствие учебных материалов для развития логического мышления и удобство учебной среды.

Ключевые слова: педагогика Монтессори, логическое мышление, учебный процесс, самостоятельное мышление, индивидуальный подход, игра, педагогические условия, учебные материалы, учебная среда, творческий подход.

**PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPING LOGICAL THINKING ON THE BASIS OF
MONTESSORI PEDAGOGY**

Annotation. In this article, the pedagogical conditions necessary for the development of logical thinking based on Montessori pedagogy are analyzed. The article highlights the main principles of Montessori pedagogy, the conditions related to directing students toward independent thinking, logical problems, and problem-solving skills. Key aspects such as learning through play, encouraging free activity, and fostering creativity are discussed. It also focuses on the suitability of educational materials and the comfort of the learning environment in developing logical thinking. The article examines the effectiveness of the Montessori pedagogy in the educational process and its importance in fostering the logical thinking of children from a scientific perspective.

Keywords: Montessori pedagogy, logical thinking, educational process, independent thinking, individualized approach, play, pedagogical conditions, learning materials, learning environment, creativity.

Kirish. Dunyoda maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini tashkil etishda Montessori pedagogikasidan foydalanish orqali bolalarning bilishga qiziqishini oshirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, bolalarda individual va jamoaviy fikrlashni shakllantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning texnologiyalarini ishlab chiqish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishning maqbul mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa Montessori pedagogikasi asosida maktabgacha yosh davridagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish yo'llarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, tarbiyalanuvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlashni o'rgatish, turli fan tarmoqlarini o'qishga qiziqishni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi".¹ Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni lug'at boyligini oshirish, jarayon va holatlar haqida erkin fikr yuritish, o'z xohish va istaklarini mustaqil bayon eta olishga tayyorlash, milliy va zamonaviy ilm-fan bilimlarini samarali o'rgatish va bular xususida mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatini o'stirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim aha-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi. <https://www.xabar.uz/jamiyat/prezident-raislidiga-videoselektor>.

miyat kasb etadi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarda turli holatlarga nisbatan mantiqiy fikr yutirishning pedagogik-psixologik va metodik xususiyatlarini aniqlashtirishning didaktik ta'minotini takomillash-tirishni nazarda tutadi.

Muhokama va natijalar. Montessori pedagogikasi, eng avval, his-tuyg'uni rivojlantirish zarur de-gan qoidaga suyanan. Ehtimol, ayni shu qarashi sabab ta'lim tizimida inqilob yasay olgandir. U tuzgan darsliklarning barchasi o'yin va harakatli mashg'ulot orqali bola hissiyotini tashqariga chiqarishga mos-lashtirilgan. Tarbiyachilarga ham kitobni shunchaki zerikarli ohangda o'qish, bilgan-ko'rganini quruq gap, bayon bilan emas, o'yin va taqdimotlar orqali ko'rsatish, o'rgatish talab etilgan.

Montessori metodining eng afzal jihatlaridan biri bolaning turli qoliplarga solinmasligidir. Sinf xo-nasi, guruhdagi emin-erkinlik bolalarni mashg'ulotlarda faol bo'lishga ruhlantirgan, amaliy mashg'ulot-larga bajonidil sho'ng'ishga undagan, eng muhimi, bola bevosita o'zini-o'zi tarbiyalay olgan. Montessori bolalarning materiallarni mustaqil tanlashi, erkin harakatlanishiga qo'yib berib, tajribalar o'tkazgan. Musta-qillik – ta'limning maqsadi, psixologik rivojlanishni kuzatish va bolalarga yetakchilik qilish tarbiyachining vazifasi bo'lsin, deydi. "Men hech qanday metodika kashf etganim yo'q, aksincha, bolalarning erkin yasha-shiga imkon berdim", deya qiziquvchilarning savoliga javob qaytaradi (1-rasm).



1-rasm. Montessori o'yinchoqlari.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etishda Montessori pedagogikasining qu-yidagi oltin qoidalariga amal qilish talab etiladi:

- bola faol bo'lishi muhim, uning ulg'ayishida kattalar ikkinchi o'rinda tursin, rahbar emas, ko'-makchi bo'lsin;
- erkin harakat va bola tanlovi;
- katta bolalar o'zidan kichiklarga bilganini o'rgatsin, ayni shu odat boshqalar haqida g'amxo'rlik qilish ko'nikmasini shakllantiradi;
- bola qarorni o'zi chiqarsin;
- mashg'ulotlar maxsus hozirlangan muhitda o'tilishi shart;
- kattalarning burchi – bolani qiziqтира bilish, keyin bolaning o'zi rivojlanib ketaveradi;
- bola ichidagi iste'dodni to'liq ko'rsatishi uchun unga erkin fikrlash, harakat va tuyg'u imkonini berish kerak, xolos;
- bolani tabiatdan bezdirish emas, do'st qilish kifoya;
- uni tanqid qilmang, qandaydir ortiqcha taqiq, cheklov bilan bo'g'mang;
- xato qilishga har bir bolaning haqqi bor, uni to'g'rilashni ham o'ziga qo'yib bering.¹

Pedagogik amaliyotda mashg'ulotlarni didaktik ta'minlash komplekslarini yaratishga katta e'tibor beriladi. Ular o'qitish malakasini oshirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligi, bilimlar tizimini o'zlashtirishda didaktik birlikni yaratish va bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi.

Mashg'ulotlarni o'quv-uslubiy ta'minlash uchun didaktik majmualarning afzalliklari quyidagilardan

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/12/montessori/>

iborat:

1) o'quv ma'lumotlarini yig'ish, tashkil etish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim etishning izchilligi;

2) didaktik materiallarning o'zaro bog'liqligi va yagona asosi;

3) didaktik majmuadan turli xil vositalarda foydalanish imkoniyati.¹

Bunday komplekslarning tarkibi va tuzilishi dinamik bo'lib, muayyan mavzuga bog'liq.

Didaktik ta'minot bilan ishlash quyidagilarga imkon beradi:

– tarbiyaviy mashg'ulotning tuzilishini o'zgartirish, bolalarning harakatlarini tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish;

– faol aqliy faoliyatni tashkil etish, bolalarning ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirish;

– bolalarning charchoqlarini kamaytirish, mashg'ulotga qiziqish va motivatsiyani rivojlantirish.²

Montessori pedagogikasining asosiy vazifalaridan biri bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdir.

Bu jarayon bolalarning faoliyatga qiziqishini oshirish va mustaqil o'qib-o'rganish imkoniyatini yaratadigan maxsus didaktik ta'minot va texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Quyidagi natijalar Montessori pedagogikasi asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar asosida kelib chiqdi:

1. Mustaqil o'rganish muhitining yaratilishi. Montessori tizimi bolalarda mustaqil faoliyatga undash orqali mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yaxshi tayyorlangan o'quv muhitida bola o'zining qiziqishlari asosida faoliyat yuritadi, bu esa tahliliy va mantiqiy fikrlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi.

2. Didaktik materiallar va vizual metodlardan foydalanish. Montessori metodikasi doirasida ishlab chiqilgan didaktik materiallar va vizual vositalar orqali bolalar mavzularni osonroq anglab yetadi. Bu materiallar konkret tajriba orttirish imkonini yaratadi va mantiqiy tahlil, bog'lanishlar o'rnatish jarayonlarini samarali tarzda rivojlantiradi.

3. Individual yondashuv. Har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlari va o'rganish uslublarini hisobga olish, mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni isbotladi: individual yondashuv orqali har bir bola o'z salohiyatini maksimal darajada namoyon etadi va bu mantiqiy fikrlash jarayonining chuqurlashishiga olib keladi.

4. Tajriba va amaliy faoliyatning ahamiyati. Montessori uslubida bolalarni faol tajribaga jalb etish, ularga kuzatish, eksperiment qilish va xatolardan o'rganish imkoniyatini berish mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Amaliy mashg'ulotlar orqali bolalar nazariy bilimlarni real vaziyatlarga tatbiq etishni o'rganadi.

5. O'yin asosidagi ta'lim metodlari. O'yin va interaktiv faoliyatlar mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'yin orqali ta'lim metodlari bolalarda analitik va mantiqiy tahlil ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu natijalar Montessori pedagogikasi asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni belgilaydi va ularning samaradorligini amaliy tajribalar bilan tasdiqlaydi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Montessori pedagogikasi asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar bolalar uchun turli xil amaliy va sensorli materiallar yordamida amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar bolalarga matematik, mantiqiy va geometrik tushunchalarni o'zlashtirishga, muammolarni hal qilishga va o'z fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradi. Montessori materiallari, masalan, rangli bloklar, geometrik shakllar, raqamlar va matematik to'plamlar bolalarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.

(2). Meinke H. Exploring the Pros and Cons of Montessori Education. 11/04/2019. https://www.rasmussen.edu/degrees/education/blog/pros_cons_montessori_education/

(3). Xayrullayev M. Forobiy ruhiy protsesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. T., "O'qituvchi", 1967, 79-bet.

(4). Xudoyazarov E.M. O'quvchilarda mantiqiy fikrlashning rivojlantirishning didaktik asoslari. Oriental Renaissance. Innovative, educational, natural and social sciences. 3(2), Feb., 2023, p. 289–297.

¹ Бочкарева, Е.В. Содержательные аспекты методического обеспечения образовательной деятельности в организациях СПО [текст]. "Среднее профессиональное образование", 2017, № 3, с. 33 – 34.

² Введение в общую дидактику. М., "Высш. шк.", 2015, 382 с.

(5). <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/12/montessori/>

(6). Бочкарева, Е.В. Содержательные аспекты методического обеспечения образовательной деятельности в организациях СПО [текст]. “Среднее профессиональное образование”, 2017, № 3, с. 33 – 34.

(7). Введение в общую дидактику. М., “Высш. шк.”, 2015, 382 с.

Asqarov Ahliddin Alisher o‘g‘li (University of Business and Science “Maktabgacha boshlang‘ich ta‘lim va jismoniy tarbiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi; ahliddinasqarov@gmail.com)
4–5-SINF O‘QUVCHILARINING SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA JISMONIY QOBILYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqola 4–5-sinf o‘quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali shakllantirish masalalarini yoritadi. Tadqiqot maqsadi sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash va ushbu jarayonni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar va jismoniy tarbiya bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, amaliy kuzatuvlar va eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy qobiliyatlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, 4–5-sinf o‘quvchilari, jismoniy tarbiya, tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik, moslashuvchanlik, fiziologik yetilish, jismoniy qobiliyat, moslashuvchanlik qobiliyatlari.

ФОРМИРОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ 4–5 КЛАССОВ ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. Данная статья освещает вопросы формирования физических способностей учащихся 4–5 классов посредством внеурочных занятий. Целью исследования является определение эффективности внеурочной деятельности в развитии физических способностей и разработка рекомендаций по оптимизации данного процесса. Представлены анализ научной литературы по физическому воспитанию, практические наблюдения и результаты экспериментального исследования.

Ключевые слова: физические способности, внеурочная деятельность, учащиеся 4–5 классов, физическое воспитание, скорость, сила, выносливость, ловкость, гибкость, физиологическое созревание, двигательные навыки, навыки адаптации.

DEVELOPING PHYSICAL ABILITIES OF 4TH–5TH GRADE STUDENTS THROUGH EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Annotation. This article addresses the issues of developing the physical abilities of 4th and 5th grade students through extracurricular activities. The aim of the research is to determine the effectiveness of extracurricular activities in developing physical abilities and to provide recommendations for optimizing this process. It presents an analysis of scientific literature on physical education, practical observations, and the results of experimental research.

Keywords: Physical abilities, extracurricular activities, 4th–5th grade students, physical education, speed, strength, endurance, agility, flexibility, physiological maturation, motor skills, adaptability skills.

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, shuningdek, ularni har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy mas‘uliyatli shaxslar etib voyaga yetkazish maqsadida zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Jismoniy tarbiya, o‘z navbatida, nafaqat jismoniy, balki irodaviy sifatlarni ham shakllantiradi. Bu jarayon yoshlarni aqliy va jismoniy jihatdan mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat sifatida ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda, yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitlarda, jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unumlilikni ta‘minlashga qodir, qiyinchiliklarga qarshi chidamli hamda vatan himoyasiga doimo tayyor bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurati yanada o‘zib bormoqda. Bunday yoshlar, faqatgina milliy iqtisodiyot va ijtimoiy tizim uchun emas, balki mamlakatimiz xavfsizligi uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va yoshlarni kamolotga yetkazish jarayonlarini yagona maqsadga yo‘naltirib boshqarish, jamiyatning kelajakdagi muvaffaqiyati va barqarorligi uchun zarurdir [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xorijiy olimlardan J.Ruis sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning bolalarning jismoniy faolligini oshirishdagi rolini o‘rganadi va ularning sedentar (kam harakatli) hayot tarziga qarshi kurashishdagi ahamiyatini ta‘kidlaydi (Ruiz. 2012). P.Andersson esa sport mashg‘ulotlarining bolalarning kognitiv qobiliyatlariga ta‘sirini o‘rganadi va ularning diqqatini jam-

lash qobiliyatini oshirishga, xotirasini mustahkamlashga va o'rganish jarayonini tezlashtirishga yordam berishini aniqlaydi (Andersson. 2016).

Jismoniy tarbiya ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi [3].

Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, shuningdek, ijtimoiy madaniyat darajasi jismoniy tarbiyaning maqsadiga umumiy yo'nalish beradi. L.Tolstoyning mashhur so'zi bilan aytganda: "Ma'nan sog'lom bo'lish uchun jisman bardam bo'lmoq kerak [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jismoniy qobiliyatlar insonning harakat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar majmuasini tashkil etadi. Bu qobiliyatlar individual xususiyatlarni, shu jumladan, tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi. Har bir qobiliyat o'zining maxsus o'rniga ega bo'lib, insonning jismoniy imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tezlik qobiliyatlari, masalan, tez yugurish yoki tez harakat qilish qobiliyatlari, insonning tezkor reaksiyalarini va harakatlarini samarali tarzda amalga oshirishga yordam beradi. Tez fikrlash ham shu turdagi qobiliyatga kiradi, chunki fikrlash tezligi jismoniy harakatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Kuch qobiliyatlari mushaklarning kuchini namoyon etish imkoniyatini bildiradi. Ushbu qobiliyatni uchta asosiy turga bo'lish mumkin: maksimal kuch, tezkor kuch va chidamli kuch. Har biri turli xil jismoniy faoliyatlarda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi, masalan, og'ir yuk ko'tarish yoki tezkor harakat qilishda.

Chidamlilik qobiliyatlari uzoq vaqt davomida jismoniy yuklamalarga bardosh berish qobiliyatini ta'riflaydi. Bunda umumiy chidamlilik va maxsus chidamlilik kabi ikki asosiy tur mavjud. Umumiy chidamlilik organizmning uzoq muddatli jismoniy faoliyatga qarshi turish qobiliyatini ifodalaydi, maxsus chidamlilik esa sport yoki boshqa maxsus faoliyatlarda ko'proq ishlatiladi.

Chaqqonlik qobiliyatlari harakatlarni tez va aniq o'zgartirishga qodir bo'lishni anglatadi. Bu qobiliyat sportchilarda va kundalik hayotda ham tezkor va aniq qarorlar qabul qilishda muhim o'rin tutadi.

Jismoniy qobiliyat	Guruh	Tadqiqot boshida	Tadqiqot oxirida	O'sish (%)
30 metrga yugurish (sekund)	Eksperimental	5.8	5.4	7%
	Nazorat	6.0	5.9	1.7%
Joyidan uzunlikka sakrash (sm)	Eksperimental	140	155	10.7%
	Nazorat	135	140	3.7%
Turnikda tortilish (marta)	Eksperimental	5	7	40%
	Nazorat	4	4.5	12.5%
Eglish (sm)	Eksperimental	10	13	30%
	Nazorat	9	10	11.1%
Chaqqonlik (sekund)	Eksperimental	12	11	8.3%
	Nazorat	12.5	12.3	1.6%

Moslashuvchanlik qobiliyatlari esa harakat amplitudasini oshirishni ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, sportchilar uchun muhimdir, chunki yuqori darajadagi moslashuvchanlik, o'z navbatida, jarohlardan saqlanish va jismoniy ko'rsatkichlarni yaxshilashga yordam beradi.

Tajriba jadvali. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruh o'quvchilari tadqiqot davomida barcha jismoniy qobiliyatlar bo'yicha sezilarli o'sishga erishgan, nazorat guruhida esa o'sish ko'rsatkichlari ancha past bo'lgan. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari mashg'ulotlar 4-5-sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'quvchilarning jismoniy qobiliyatlariga ta'sirini baholash uchun kompleks model ishlab chiqildi. Bundan tashqari, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish maqsadida yangi metodik yondashuvlar taklif etildi, jumladan, individual yondashuv, o'yin elementlaridan foydalanish va ota-onalarning ishtirokini ta'minlash. Tadqiqot shuningdek, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning bolalarning nafaqat jismoniy, balki psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Masalan, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchining ortishi, stressga chidamlilikning oshishi va jamoada ishlash qobiliyatining rivojlanishi kuzatildi.

Eksperimental guruhda turnikda tortilish ko'rsatkichi 40%ga oshgani, kuch qobiliyatlarining rivojlantirishida sinfdan tashqari mashg'ulotlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shuningdek, 30 metrga yugurish tezligining 7%ga oshishi tezlik qobiliyatlarining rivojlanishiga mashg'ulotlarning ta'sirini namoyon etadi.

Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, eksperimental va nazorat guruhlarining tadqiqot oxiridagi natijalari o'rtasida sezilarli farq mavjud ($p < 0.05$). Bu, o'z navbatida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning bolalar jismoniy rivojlanishidagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar, shuningdek, o'quvchilarga sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, intizomni oshirishga va jamoada ishlashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot natijalariga ko'ra, 4–5-sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlari turlicha darajada rivojlangan. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga muntazam qatnashadigan o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, qatnashmaydiganlarga nisbatan, sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan. Ayniqsa, tezlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi jismoniy qobiliyatlarda aniq farqlar kuzatildi. Bu natijalar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'quvchilarning jismoniy rivojlanishiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Mashg'ulotlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish. Bu o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning jismoniy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish imkonini beradi.

2. Mashg'ulotlarda turli xil jismoniy mashqlardan foydalanish. Mashqlarni xilma-xil va qiziqarli qilish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda ularning jismoniy qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

3. O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, sport turlarini tanlash. Bu mashg'ulotlarga qatnashishni yanada rag'batlantiradi va o'quvchilarda jismoniy faollikni oshiradi.

4. Ota-onalarni mashg'ulotlarga jalb etish va ularning qo'llab-quvvatlashini ta'minlash. Ota-onalar, o'z farzandlarining jismoniy rivojlanishini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ularning faol ishtiroki zarur.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarga jismoniy tarbiya darslarida olingan bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, bu mashg'ulotlar jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratadi, bolalarning sog'lig'ini mustahkamlaydi va ularni sport faoliyatlariga jalb etadi. Shunday qilib, sinfdan tashqari mashg'ulotlar nafaqat jismoniy rivojlanish, balki o'quvchilarning umumiy salomatligini yaxshilashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu tadqiqot 4–5-sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida, birinchi navbatda, jismoniy qobiliyatlarning bolalar rivojidagi o'rni, shuningdek, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning afzalliklari va ularni tashkil etish tamoyillari aniqlangan. Tadqiqotning amaliy qismi esa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'quvchilarning asosiy jismoniy qobiliyatlariga, masalan, tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlikka ta'sirini baholashga yo'naltirilgan.

Olingan natijalar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Eksperimental guruhda kuzatilgan o'sish ko'rsatkichlari, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini yanada mustahkamlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy omillar, jumladan, mashg'ulotlarning bolalarning yosh xususiyatlariga mosligi, turli xil jismoniy mashqlardan foydalanish va mashg'ulotlarning qiziqarli tashkil etilishi, jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlar siyosati" bo'yicha qarori (2021).
- (2). A.A.Asqarov. Jismoniy tarbiya va sport. Darslik, Namangan, 2024, 198–200-betlar.
- (3). F.A.Asqarov. Bolalar jismoniy tarbiyasi. O'quv qo'llanma, Namangan, 2022, 87–89-betlar.

(4). G'ulomov, G'. Maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirish yo'llari. Toshkent, 2010, 44–46-betlar.

**Jalolova Mohinabonu Xurshid qizi (Buxoro davlat Pedagogika instituti 3-kurs talabasi;
jalolovamohina776@gmail.com)**

FIZIKA O'QITISHDA ZAMONAVIY VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.** Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va kompyuter vositalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning bilimlarni yanada tez va samarali o'zlashtirishiga yordam bermoqda. An'anaviy ta'lim usullariga qo'shimcha ravishda virtual laboratoriyalar, interaktiv simulatsiyalar, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari va raqamli darsliklar keng qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada fizika ta'limida zamonaviy texnologiyalar va kompyuter vositalaridan foydalanish usullari, ularning samaradorligi va ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida fizik tajribalarni virtual muhitda bajarish, masalalarni interaktiv usullar bilan yechish va nazariy bilimlarni real hayot bilan bog'lash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar qo'llanilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda dars jarayonini yanada tushunarli va samarali qiladi.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, fizika ta'limi, kompyuter texnologiyalari, interaktiv ta'lim, virtual laboratoriyalar, simulatsiyalar, raqamli ta'lim, onlayn platformalar, sun'iy intellekt, innovatsion o'qitish usullari.*

**Жалолова Мохинабону Хуршид кизи (Бухарский государственный педагогический институт,
студент 3 курса; jalolovamohina776@gmail.com)**

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ И КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ

***Аннотация.** В современном образовательном процессе всё большую роль играют современные технологии и компьютерные средства. Особенно в преподавании физики инновационные подходы помогают учащимся быстрее и эффективнее усваивать знания. В дополнение к традиционным методам обучения широко применяются виртуальные лаборатории, интерактивные симуляции, образовательные программы на основе искусственного интеллекта и цифровые учебники. В данной статье рассматриваются способы использования современных технологий и компьютерных средств в преподавании физики, их эффективность и влияние на образовательный процесс. Также анализируются возможности выполнения физических экспериментов в виртуальной среде, решения задач с использованием интерактивных методов и связывания теоретических знаний с реальной жизнью. Результаты исследования показывают, что применение инновационных технологий повышает интерес учащихся к предмету, развивает их навыки самостоятельной работы и делает учебный процесс более понятным и продуктивным.*

***Ключевые слова:** современные технологии, преподавание физики, компьютерные технологии, интерактивное обучение, виртуальные лаборатории, симуляции, цифровое образование, онлайн-платформы, искусственный интеллект, инновационные методы обучения.*

**Jalolova Mohinabonu Khurshid qizi (Bukhara State Pedagogical Institute 3rd year student;
jalolovamohina776@gmail.com)**

USE OF MODERN AND COMPUTER TECHNOLOGIES IN PHYSICS TEACHING

***Annotation.** In today's educational process, modern technologies and computer tools play an increasingly important role. Especially in physics education, innovative approaches help students acquire knowledge more quickly and effectively. In addition to traditional teaching methods, virtual laboratories, interactive simulations, AI-based educational programs, and digital textbooks are widely used. This article explores the use of modern technologies and computer tools in physics teaching, their effectiveness, and their impact on the learning process. It also examines opportunities for conducting virtual physics experiments, solving problems through interactive methods, and connecting theoretical knowledge with real-life applications. The research results show that the integration of innovative technologies increases students' interest in the subject, enhances their independent learning skills, and makes the educational process more com-prehensible and productive.*

Keywords: *modern technologies, physics education, computer technologies, interactive learning, virtual laboratories, simulations, digital education, online platforms, artificial intelligence, innovative teaching methods.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi tezkor rivojlanib, zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, fizika kabi aniq fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki fizika nazariy bilimlarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, uning asosiy qismi tajriba va amaliyot bilan chambarchas bog'liq. An'anaviy dars usullari ba'zan o'quvchilarga murakkab tushunchalarni tushuntirishda yetarli bo'lmaydi. Shu bois kompyuter texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, simulatsiyalar va interaktiv darsliklar orqali fizika fanini o'qitish osonlashmoqda. Ushbu maqolada fizika ta'limida zamonaviy va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, ularning samaradorligi hamda o'quv jarayoniga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Y.K.Babanskiyning "Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari" (1) kitobi o'qituvchilar uchun mo'ljallangan ilmiy-uslubiy qo'llanma hisoblanadi. Ushbu asarda zamonaviy umumiy ta'lim maktablarida o'qitishning samarali metodlari, texnologiyalari va pedagogik yondashuvlari haqida to'liq tushuntirilib o'tilgan ekan

J.Talipova. "Noan'anaviy ta'limning didaktik asoslari" nomli dissertatsiya ishida ta'lim jarayonida noan'anaviy usullardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilganligi bilan bir qatorda, mazkur kitob zamonaviy ta'limda o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan asar ekan (2).

A.G'.Hayitov "Dars jarayonini kompyuterlashtirish xususida" maqolasida ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati, imkoniyatlari va amaliy jihatlari tahlil qilinibgina qolmay, maqola o'qituvchilarga dars jarayonini samarali tashkil qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan (3).

Dildora Haydarkulovna Toshpulatova, Alisher Abdurashidovich Berkinov, Bekzod Tirkashev. "Energy Parameters of Heterostructural Solar Photocells" (5) maqolasida heterotuzilma asosidagi quyosh fotoelementlarining energiya parametrlari tahlil qilingan. Tadqiqot quyosh energiyasidan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan maqolalardan biridir.

Asosiy qism. O'zbekiston mustaqillikka erishgach. hayotning barcha jabhalari singari, ta'lim tizimida ham islohotlar olib borildi. Bunda ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarni olib kirildi va ta'limni kompyuterlashtirish asosiy maqsadga aylandi. Axborot texnologiyalaridan, ayniqsa, fizika fanini o'qitishda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda har bir fizika o'qituvchisi murakkab mashg'ulotlar yoki murakkab mavzularni tushuntirishda multimediyadan foydalanadi yoki turli taqdimotlar orqali bu murakkab mashg'ulotlarni o'quvchilarga yetkazib beradi. Shular jumlasiga misol qilib virtual laboratoriyalarni ko'rsatish mumkin. Bunday laboratoriyalar yordamida qiyin va aniqlik ko'rsatkichi past bo'lgan laboratoriya ishlarini kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilarga tushuntirsa bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini, ya'ni, ma'ruza qismini qisqa muddat ichida multimediyadan foydalangan holda o'quvchilarga yetkazadi. Bugungi kunda fizik hodisalar modellari yaratilmoqda. Bunday modellarni, virtual fizik laboratoriyalarda namoyish qilish o'quvchilar intellektual salohiyati oshirishga xizmat qiladi.

Fizika tajriba va kuzatuvlarga asoslangan aniq fanlardan biri bo'lib, uni o'rgatishda vizual ko'rgazmalilik juda muhim ahamiyatga ega. Ilgari dars jarayonida, asosan, kitob, doska va laboratoriya jihozlari orqali tushuntirish usullari keng qo'llangan bo'lsa, hozirda interaktiv ta'lim texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, simulatsiyalar va multimediya vositalari yordamida darslarni samarali tashkil etish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida murakkab fizika qonuniyatlarini tushuntirish osonlashadi. Masalan, mexanika bo'limida jism harakati yoki elektr-magnit maydon tushunchalarini odatiy chizmalar bilan tushuntirish qiyin bo'lishi mumkin, biroq 3D modellash, interaktiv grafikalar va animatsiyalar orqali bu jarayon o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'ladi.

Kompyuter texnologiyalari ta'lim jarayonida turli usullarda qo'llanilishi mumkin. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Virtual laboratoriyalar. Fizika fanida tajriba o'tkazish juda muhim. Ammo barcha maktab va oliy ta'lim muassasalarida kerakli jihozlar yetarlicha bo'lmasligi mumkin. Virtual laboratoriyalar bu muammoni hal qilib, talabalarga tajribalarni kompyuter orqali bajarish imkonini beradi. Masalan, PhET (Physics Education Technology) kabi dasturlar fizikaviy jarayonlarni virtual muhitda ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Simulatsiyalar va interaktiv dasturlar. Murakkab fizik jarayonlarni tushuntirishda interaktiv dasturlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, elektr maydonning ta'sirini yoki yorug'likning turli muhitlarda sinishini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi dasturlar mavjud.

Elektron darsliklar va onlayn platformalar. An'anaviy darsliklarga qo'shimcha ravishda, elektron darsliklar va onlayn platformalar yordamida mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Coursera, Khan Academy, Udey kabi platformalarda fizika bo'yicha bepul va pullik kurslar mavjud bo'lib, talabalar o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari. Hozirgi kunda ba'zi universitetlarda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan ta'lim tizimlari joriy qilinmoqda. Ushbu tizimlar har bir talabaga individual yondashib, ularning bilim darajasini baholaydi va mos tavsiyalar beradi.

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonining sifatini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, quyidagi jihatlarda samaradorlik sezilarli darajada oshadi.

Tushunarli va qiziqarli ta'lim. Ko'rgazmali materiallar va interaktiv mashg'ulotlar talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni eslab qolishni osonlashtiradi.

Nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi. Virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar yordamida nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Mustaqil ta'lim olish imkoniyati. Internet va elektron resurslar orqali talabalar o'zlariga qulay vaqtda bilim olishlari mumkin.

O'quvchilarning faolligini oshirish. Kompyuter texnologiyalari yordamida dars jarayonida talabalar faolligi ortadi, ular mustaqil izlanishga undaladi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini sezilarli darajada o'zgartirdi va ayniqsa, fizika fanini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilgari nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun kitoblar va odatiy doska orqali tushuntirish yetarli bo'lsa, hozirda talabalar interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar va kompyuter simulatsiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa murakkab tushunchalarni ancha oson o'zlashtirishga yordam bermoqda.

Muhokamalar natijasida shuni ko'rish mumkinki, interaktiv va raqamli texnologiyalar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va dars jarayonini samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Ayniqsa, amaliy tajribalarni virtual muhitda bajarish orqali laboratoriya jihozlari yetishmovchiligi muammosi hal bo'lmoqda. Shu bilan birga, onlayn ta'lim platformalari mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi. Biroq texnologiyalardan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, barcha ta'lim muassasalari yetarli texnik baza bilan ta'minlanmagan, hamma joyda internet sifati yetarli darajada emas. Shuningdek, ayrim o'qituvchilar yangi texnologiyalardan foydalanishga to'liq tayyor emasligi ham kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, bu kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish mumkin.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish fizika fanini o'rganishni osonlashtiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini oshiradi va ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Kelajakda texnologiyalar yanada rivojlanib, fizika ta'limining yangi bosqichga chiqishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Xulosa. Zamonaviy texnologiyalar fizika ta'limini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam bermoqda. Virtual laboratoriyalar, simulatsiyalar, interaktiv darsliklar va onlayn platformalar orqali talabalarga murakkab fizik jarayonlarni tushuntirish osonlashdi. Ayniqsa, texnologiyalar yordamida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkoni paydo bo'ldi, bu esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Bugungi kunda o'qituvchilarning zamonaviy usullardan foydalanishi o'quv jarayonining sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib bormoqda. An'anaviy o'qitish usullariga innovatsion texnologiyalarni qo'shish orqali o'quvchilar fizika fanini yanada yaxshi tushunishlari va uni real hayotga tatbiq eta olishlari mumkin. Kelajakda texnologiyalarning yanada rivojlanishi bilan fizika fanini o'qitish jarayoni ham takomillashib boradi. Shuning uchun ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish ham talabalar, ham o'qituvchilar uchun foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Babanskiy Y.K. Hozirgi zamonumumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T., "O'qituvchi", 1990, 230-bet.
- (2). Talipova J. Noan'anaviy ta'limning didaktik asoslari. Ped. fan. nom. ... dis., T., 1995, 158-bet.
- (3). Hayitov A.G'. Dars jarayonini kompyuterlashtirish xususida. "Uzluksiz ta'lim", 2004, 3-son, 46-52-betlar.
- (4). Berkinov A. Technologies For The Development Of Educational And Creative Activities Of Students In The Process Of Solving Problems In Molecular Physics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2019, t. 7, № 12.

- (5). Dildora Haydarkulovna Toshpulatova, Alisher Abdurashidovich Berkinov, Bekzod Tirkashev. Energy parameters of heterostructural solar photocells. Academic research in educational sciences. 2021, № 11.
- (6). Bordovskaya N.A., Rean A.A. Pedagogika. Sankt-Peterburg, "Piter", 2000.
- (7). Varlamov S.D., Eminov P.A., Surkov V.A. Maktabda Microsoft Officedan foydalanish.
- (8). Fizika. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma, M., "IMA-press", 2003.
- (9). Uilyams R., McLean K. Maktabdagi kompyuterlar. Moskva, "Progress", 1998.
- (10). Vigotskiy I.R, Ta'limdagi kompyuter. "Informatika va ta'lim", 2000, 1-son.
- (11). Dyachuk P.P., Larikov E.V. Umumta'lim maktabida o'qitish uchun kompyuter texnologiyalarini qo'llash. Krasnoyarsk, "KSPU" nashriyoti, 1996.

**Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li (Termiz davlat Muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti "Yo'l muhandisligi" kafedrasida dotsenti; e-mail: eshquvvatov.ulugbek@mail.ru)
BO'LAJAK MUHANDISLARINING ELEKTRON AXBOROT MUHITIDA KASBIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

***Annotasiya.** Ushbu maqola ta'lim jarayonida muhandis kadrlarni elektron axborot muhitida ko'nikma malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirish texnologiyalar masalalari bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** talaba, ta'lim, tarbiya, masofaviy ta'lim olish shakllari, muhandis, ijod, qobiliyat, masofaviy ta'lim olish metodlari, o'quv jarayoni, qiziqish, ko'nikma, malaka, kasb.*

Эшқувватов Улугбек Абдулло угли (Термезский государственный инженерно-агротехнологический университет, доцент кафедры "Дорожного строительства"; e-mail: eshquvvatov.ulugbek@mail.ru)

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ В ЭЛЕКТРОННОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ

***Аннотация.** В данной статье изложены вопросы совершенствования требований к содержанию и качеству повышения квалификации инженерных кадров в электронной информационной среде в образовательном процессе на основе современных подходов, повышения их периодической и непрерывной методической подготовки в процессе профессиональной деятельности.*

***Ключевые слова:** студент, образование, воспитание, формы дистанционного обучения, инженер, творчество, способности, методы дистанционного обучения, учебный процесс, интерес, умение, квалификация, профессия.*

Eshquvvatov Ulugbek Abdulla o'g'li (Termez State University of engineering and agrotechnologies Associate professor of the Department of road engineering; e-mail: eshquvvatov.ulugbek@mail.ru)

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE ENGINEERS IN AN ELECTRONIC INFORMATION ENVIRONMENT

***Annotation.** This article describes the issues of improving the requirements for the content and quality of skill training of engineering personnel in the electronic information environment on the basis of modern approaches, increasing periodic and continuous methodological training during professional activities.*

***Keywords:** student, education, upbringing, forms of distance learning, engineer, creativity, abilities, methods of distance learning, educational process, interest, skills, qualifications, profession.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'limga nisbatan talab keskin ortganligi sababli, oliy ta'limni rivojlantirish hamda modernizatsiyalash yuzasidan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimizning Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-farmoni [1], 2019-yil 8-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF5847-farmoni [2] qabul qilindi. Mazkur farmonda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqishga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilangan.

Bo'lajak muhandislarning elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonini tizimli ravishda rivojlantirish jarayonning tuzilmasini, shuningdek, ular o'rtasidagi aloqalarni ajratib ko'rsatishini ifodalaydi. Bu har birining o'ziga xos xususiyati, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishga yordam beradi.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar bo'lajak muhandislarning elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Bunday tamoyil asosida tayyorlangan o'quv resurslari talabaning bilim darajasi, malakasi, psixologik xususiyatlari, guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim berishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish – pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini tashkil etish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu jarayon zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni hamda talabaning intellektual salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan kasbiy ko'nikma muammolari to'g'risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Mazkur tadqiqotimizda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg'u berilgan bo'lib, u mutaxassisda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Jahon miqyosida ko'plab rivojlangan mamlakatlarida muhandislarni tayyorlash sifatiga va muhandislik kvalifikatsiyalarini e'tirof etilishi (hisobga olinishi)ga qo'yiladigan talablarning ikki bosqichli tizimi mavjud.

Birinchi bosqich – akkreditatsiya protsedurasi natijasida texnika va qurilish sohasida bakalavrlar ta'limi dasturlarining sifatini baholash.

Ikkinchi bosqich – muhandislarning kasbiy kvalifikatsiyalarini ularni sertifikatlash va ro'yxatga olish orqali e'tirof etilishi.

Ta'lim dasturlarining sifatini va muhandislik kvalifikatsiyalarining xalqaro e'tirof etilishi (Professional Engineer) ikki bosqichli uslubda ta'minlanadi: ta'lim dasturlarining milliy mezonlari va akkreditatsiyadan o'tkazishning o'zaro tan olinishiga yo'naltirilgan. Mazkur tuzilma Vashington shartnomasi (Washington Accord, WA, 1989-yil) nomini olgan bo'lib, unga ko'ra shartnomani imzolovchilar: akkreditatsiya qilingan yoki boshqa imzolovchilar tomonidan tan olingan malaka, har bir imzolovchi tomonidan o'z yurisdiksiyasi doirasida malaka darajasiga teng ravishda tan olinadi [4].

Muhokama. Bo'lajak muhandislarni elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi vazifalarga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra, talabalarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirayotib, aniq bir mavzu bo'yicha darsning rivojlantiruvchi salohiyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq [6]. Talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarini aniqlash, takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda talabalar uchun faol ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni, o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa bu maqsad talabalarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining kasbiy ta'lim tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ayrim tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois kasbiy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda kompleks yondashuvni amalga oshirish boshlandi. Ta'lim va tarbiya ishlar jarayoni murakkab jarayon bo'lib, unda ta'lim muassasasining jamoasi, murabbiy va talabalarining o'zaro munosabatidagi yaxlitlik ta'minlanadi. Endilikda ushbu jarayon elektron formatdagi o'quv resurslari – rasmiy veb-saytlar, elektron formatdagi adabiyotlar, audio va videomateriallar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu vaziyatda kasbiy ta'lim jarayonlari ko'proq talabaning ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda.

Elektron formatdagi o'quv resurslarining afzalliklari qatoriga axborotlarning jamlanganligi, ko'rgazmaliligi, ya'ni, turli xil taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanganligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish jihatlarini kiritish mumkin. Bu resurslar talabada ijodiy fikrlashni, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish orqali resurslarni har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Bo'lajak muhandislarni elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish uchun quyidagi chora-tad-

birlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq (1-rasm).

No	BOSQICHLAR MAZMUNI	KUTILADIGAN NATIJA
1.	<u>Kasbiy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holatini tahlil qilish va baholash</u>	<u>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holati haqidagi dastlabki xulosalar olinadi</u>
2.	<u>Kasbiy ta'lim moddiy-texnik bazasini takomillashtirish yo'llarini belgilash</u>	<u>Kasbiy ta'lim jarayonlarining moddiy-texnik bazasi takomillashtiriladi</u>
3.	<u>Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etish va vazifalarini belgilash</u>	<u>Resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar shakllantiriladi, vazifalar belgilab beriladi</u>
4.	<u>Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish va foydalanish uchun tayyorlash</u>	<u>Kasbiy ta'limga oid elektron resurslar yaratiladi</u>
5.	<u>Elektron resurslardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish</u>	<u>Elektron resurslardan foydalanish mexanizmi ishlab chiqiladi</u>

1-rasm. Bo'lajak muhandislarni elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bosqichlari.

Rasmda bo'lajak muhandislarni elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bo'lajak muhandislarni elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda samarali foydalaniladi;
- bo'lajak muhandislarni elektron axborot muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning zamonaviy vositalari – elektron resurslarni joriy etish tizimlari yaratiladi.

Kasbiy ta'lim bo'yicha elektron resurslarni yaratishdagi didaktik tamoyillarga tayaniladi: ta'lim jarayonining kasbiy yo'nalganligi; texnologik dunyoqarashni shakllantirish; ilmiylik; tushunarliklik va qiziqarlilik; amaliyot bilan bog'langanlik; talabalarining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish; kasbiy ta'limning uzviyligi va uzluksizligi; aniq va abstrakt tushuncha va faktlarning birligi; bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish; ko'rgazmalilik.

Ishlab chiqilgan elektron resurslarni kasbiy ta'lim jarayoniga qo'llashdan oldin mutaxassislar guruhi uni o'rganadi. Bizning fikrimizcha, yaratilgan elektron resurslarning ilmiylik va taqdimot sifatini baholashda quyidagi holatlarga tayangan tizimni taklif etish mumkin:

- kasbiy ta'lim maqsadiga mosligi;
- o'quv faoliyati bayoni;
- axborotlarni taqdim etish darajasi;
- manba tuzilishi;
- ko'rinishi va dizayni;
- qo'shimcha illyustratsiya.

Elektron resurslar muayyan yo'nalishda bilimlar berishdan tashqari, talabalarda kasbiy fanlarga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak [7].

Elektron resurslar kasbiy ta'limning kundalik turmush va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonda, tabiat va jamiyatning ilmiy muammolarini tushunishda talabalarga ko'maklashishi, ularni rivojlantirishi lozim. Shuningdek, talabalarda o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishni davom ettirish imkoniyatlarini yaratishga yordam berishi kerak [8].

Yuqoridagi talablarni amaliyotga joriy qilish kasbiy ta'lim bo'yicha elektron resurslar majmuasining shakllanganlik darajasiga ko'ra, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkoniyatini beradi. Tadqiqot ish-

larimiz natijasida kasbiy ta'limga oid elektron resurslar majmuasini shakllantirish va amaliyotga joriy etishning quyidagi bosqichlari taklif etildi:

- elektron resurslar majmuasini shakllantirishning birinchi bosqichida matnli, audio, video, animatsiyali axborotlarning elektron versiyalari ishlab chiqiladi;
- ikkinchi bosqichda yaratilgan majmua resurslarini joylashtirish uchun dasturiy platforma ishlab chiqiladi;
- uchinchi bosqichda elektron resurslar majmuasi yaratilib, undan foydalanishning masofali yoki aralash-an'anaviy va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari faqatgina ma'lum bir sohada mutaxassis tayyorlash bilangina cheklanib qolmasdan, fanlararo integratsiya asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatini aniqlash, uni rivojlantirish va ro'yobga chiqarish bilan ham shug'ullanishi shart. Talabalar ta'limiy tadqiqotlar jarayonida va ta'lim amaliyotida elektron axborot ta'lim muhiti kengligi va xilma-xilligi nazarda tutilsa, bunga har xil kasbiy toifadagi pedagoglarni o'rgatish zarur bo'ladi.

Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning obyektiv murakkabligi, loyihalash jarayonida o'qituvchining metodik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus ishlab chiqiladigan dasturda hisobga olinishi lozim. Amaliyot ko'rsatdiki, elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish qator omillarga bog'liq. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi, elektron ta'lim resurslari, texnologik yondashuvlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-qarori. www.lex.uz.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 21-iyundagi qarori. www.lex.uz.
- (3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-qarori. www.lex.uz.
- (4). Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60 p.
- (5). Eshquvvatov U.A. Talabalarning muhandislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Monografiya, T., «Lesson Press», 2022, 146-bet.
- (6). Eshquvvatov U.A. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi. Pedagogik mahorat. 1/2023, 181–184-betlar.
- (7). Eshquvvatov U.A. Talabalarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatga tayyorlash. "Ilm sarchashmalari", 2/2023, 80–83-betlar.
- (8). Eshquvvatov U.A. Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. "Ta'lim, fan va innovatsiya", 2022, 3-son, 120–124-betlar.
- (9). Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma, T., "Noshir". 2009, 368-bet.
- (10). Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., "Moliya", 2003, 192-bet.
- (11). Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовка преподавателей для профессиональной подготовки учащихся "Сов. педагогика", Москва, 1985, № 2, с. 54–57.
- (12). Авазбоев А.И. Совершенствование подготовки учителей трудового и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебных предметов. Автореф. канд. пед. наук, Т., 2001, 21 с.

Kosimova Nargiza Dilmuratovna (Universitet of economics and pedagogic "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi professori, p.f.n., dotsent; kasimova.nargiza0707@gmail.com)

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KOMPLAYENS VA UNING MEXANIZMLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada muvofiqlikning ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ta'lim jarayonining samarali o'tishini ta'minlashda me'yoriy va standartlarga rioya qilish yoki ularga rioya qilish asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada turli xil muvofiqlik mexanizmlari, ta'lim muassasalarini tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarning umumiy ko'rinishi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, komplayens, zamonaviy ta'lim, pedagogik faoliyat, munosabat, muomala, kommunikativ kompetensiya.*

КОМПЛАЕНС И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается важность комплаенса как инструмента для повышения качества образования. Комплаенс, или соблюдение норм и стандартов, играет ключевую роль в обеспечении эффективного образовательного процесса. А также, в статье анализируются различные механизмы комплаенса, обзор законов и норм, регулирующих образовательные учреждения, и их влияние на качество образования.

Ключевые слова: качество образования, соответствие, современное образование, педагогическая деятельность, отношения, поведение, коммуникативная компетенция.

COMPLIANCE AND ITS MECHANISMS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Annotation. This article discusses the importance of compliance as a tool for improving the quality of education. Compliance, or adherence to norms and standards, plays a key role in ensuring an effective educational process. Also, the article analyzes various compliance mechanisms, an overview of laws and regulations governing educational institutions, and their impact on the quality of education.

Key words: quality of education, compliance, modern education, pedagogical activity, attitude, behavior, communicative competence.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy nufuzini yanada oshirish maqsadida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunining yangi nashri [1] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni [2] qabul qilindi. Qonun va farmon hujjatlari doirasida ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish, yuqori malakali intellektual, kreativ fikrleydigan kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish va boshqa vazifalarga yo‘naltirilgan ta‘lim sohasidagi ustuvor vazifalar belgilandi. Zero, ta‘lim sifatini oshirish uchun komplayens prinsiplarini joriy etish, ta‘lim muassasalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har bir yurtning kelajagi, istiqboli ma‘lum jihatdan mamlakatdagi ta‘lim tizimining eng muqobil usullari bilan ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog‘liq. Shu munosabat bilan, zamonaviy ta‘limda ilg‘or uslublarga murojaat etish, o‘quvchi, talaba shaxsi faolligiga asosiy e‘tiborni qaratishda o‘qituvchi komplayensi ta‘lim sifatini oshirishda yuksak natijaga erishishi aniq. Maqolaning mazmuni ham aynan ta‘limdagi innovatsion yo‘nalishga qaratilgan yosh o‘qituvchilarda “komplayens”ni shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish xususida fikr yuritiladi.

“Komplayens” so‘zi (ingl. so‘zdan “compliance” – muvofiqlik, rozilik, kelishuv) ma‘nosini bildiradi. Komplayens ilk marotaba 1906-yilda AQSH sog‘liqni saqlash va aholiga xizmat ko‘rsatish vazirligining faoliyatida qo‘llanilgan. Biroq komplayensni rivojlantirish uchun XX srning 60–70-yillardagi turli sohalarida, xususan, korrupsiya, soliq murojaatlari orqali natija olingan [3]. Komplayens munosabatlarini rivojlantirish bir necha saosiy elumentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Standartlarni belgilash:

- ta‘lim sohasidagi milliy va xalqaro standartlarga muvofiqlik;
- oliy ta‘lim muassasalari uchun akkreditatsiya talablari.

2. Ta‘lim jarayonini nazorat qilish;

- dasturlar va kurslarning sifati;
- ustozlar va talabalarning faoliyatini baholash.

3. Trening va rivojlanish:

- ustoz va yosh o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etish;
- talabalarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish.

4. Moliyaviy va resurslarni boshqarish:

- talabalar, ustozlar va boshqa manfaatdor tomonlardan fikr olish;
- talabalar uchun zamonaviy ta‘lim vositalarini ta‘minlash.

5. Fikr va takliflarni tinglash:

- talabalar, ustozlar va boshqa manfaatdor tomonlardan fikr olish;
- sifatni oshirish uchun takliflar qabul qilish, fidbek olish.

6. Ta‘lim samaradorligi baholash:

- talabalarining natijalarini tahlil qilish;
- ovoz berish va baholash tizimini joriy etish.

7. Mas‘uliyat va hisobot berish:

- tashkilotning ichki va tashqi hisobotlarini tayyorlash;
- komplayens prinsiplariga rioya qilish uchun mas'ul shaxslarni belgilash.

Zero, yosh o'qituvchilarda komplayensning shakllanishida uning ruhiy kechinmalari yoki hissiyoti insonlar hayotida asosiy rol o'ynaydi hamda ularning butun psixik faoliyatiga singib ketadi. Fiziologik jihatdan tahlil qilganimizda, komplayens ichki psixik holatning yuzaga kelishida boshqa hodisalar singari, miyaning asosiy funksiyasidir. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zining bilimi va tajribasi asosida o'quvchi yoki talaba shaxsini o'ziga ishontira olsa, bilimni yetkazib bera olsa, u, albatta, natijaga erishadi. Pedagogik faoliyatida komplayensni muhimligi shundaki, bu jarayon uning hissiy kechinmalari bilan bog'liq va bu hodisa bir kishidan ikkinchisiga tez va osonlik bilan o'tadi. Buning sabablaridan biri shuki, kechinmalar har xil tashqi ifodali noverbal harakatlarga ega: mimika, imo-oshora, xatti-harakatlar. Biror kishining tabassumi ham, yuzidagi ifodali qarashlari ham, jiddiy kayfiyati ham, odatda, boshqalarga "yuqadi". Masalan, o'quvchilarga o'qituvchi ta'sir etishi har bir darsda bilinadi. Agar o'qituvchi darsga yomon kayfiyatda, agressiv holatda kirib kelsa, bu ahvolni o'quvchilardan yashira olmasa, ular ham juda hayajonga tushadilar, asabiylashadilar, natijada o'quvchilar endi o'zlarini tegishlicha o'quv faoliyatiga diqqatini jalb eta olmaydilar. Agar o'qituvchi xotirjam hissi bilan emotsional ko'tarinki ruhda darsni boshlasa, bu jarayon o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu samarali o'quv mashg'ulot davomida ilmiy axborotlar yig'indisini berishdagina emas, balki ularda muayyan dunyoqarashni tarbiyalash mexanizmi ham samarali natija beradi.

O'zaro muloqotga kirishish jarayonida suhbatdoshlarni o'zaro tushunishga erishish subyektlarni bir-biri bilan ishonchli muloqotni o'rnatishda zamin vazifasini hamda komplayensni vujudga keltiradi. Komplayens ta'lim jarayonida huquqiy, etik va standartlarga rioya qilishni ta'minlash uchun muhim qoidalar mavjud:

1. Etik kodeksni o'rnatish. Talabalarga tashkilotning etik kodeksi, ta'lim muassasasining ichki tartib, o'dob-axloq qoidalariga urgatish.
2. Huquqiy talablar bo'yicha trening mashg'ulotlari. Talablar uchun huquqiy normalar, akkreditatsiya va lisenziyalash jarayonlari bo'yicha seminra treninglar tashkil etish.
3. Sifatni baxolash tizimlari. Talabalarga sifatni baholashning metodlari va standartlari haqida ma'lumot berish.
4. Fikr olish mexanizmlari. Talabalarni fikr bildirish va takliflar berish uchun anonim mexanizmlardan foydalanishga o'rgatish.

Tashkilot madaniyati. Talabalarga komplayens madaniyati va tashkilotning etik prinsiplari haqida o'qitish.

Tahlil va natijalar. Ushbu mexanizmlar orqali ta'lim sifatini ta'minlash, talabalarning bilim, ko'nikma va kommunikativ kompetensiyasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Rus olimlarining tahlillari quyidagilarni aniqlash imkonini beradi. M.V.Sturikovaning ta'rificha, kommunikativ kompetensiya – bu "ta'lim oluvchining har qanday so'z va iboralarni idrok etish qobiliyati va o'zining bilim, ko'nikma, amaldagi til me'yorlari, shaxsiy fazilatlarini, nolisoniy vositalarni qo'llash uquvi asosida orttirgan amaliy tajribalarini oshirishi haqida ta'kidlagan. Shuningdek, nutqiy muloqot orqali makon, turli vaziyatlarda muloqot va axloqiy munosabatlar aks etgan o'z nutqini yaratishga qodirligi, mavzu, unda maqsad, vazifalarning ahamiyati qanchalik muhimligini anglagan holda, ma'lum bir natijalarga erishishdir", deya izohlagan [4].

"Kommunikativ kompetensiya" atamasining ma'nosiga berilgan ushbu ta'rif tadqiqotchilarga tanish bo'lganligi uchun undan o'z ilmiy faoliyatlarida to'laqonli foydalanmoqdalar. Raqamli ta'limning paydo bo'lishi va uning negizida masofaviy ta'limning yaratilishi hamda OTMlarning ommaviy tarzda raqamli ta'limga o'tish jarayoni keskin tezlashdi. Bu esa raqamli iqtisodiyotning asosiy vakolatlarini yanada kengayishiga imkon bermoqda. Zero, professor-o'qituvchilarning diqqat-e'tibori ham ushbu rasmiy atama matniga ham e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Pedagogik faoliyatda talabalarning o'quv jarayonidagi muloqotlarida ham ma'lum bir o'ziga xos o'zgarishlar, xususiyatlar yuzaga keldiki, ushbu xususiyatlarning o'qituvchilar tomonidan hisobga olinishini taqozo etmoqda. Univesitet Iqtisodiyot va Pedagogika fakulteti talabalari o'quv rejasiga muvofiq keng ko'lamda ilmiy fanlarni egallab borishlari bilan bir qatorda, ushbu fanlarning ilmiy asoslari, toifa (kategoriya)-lari va terminologiyasini ham o'zlashtirib boradilar. Talabalar amaliy mashg'ulotlar, ilmiy konferensiyalar, ta'limiy tadbirlar, test sinovlari yoki boshqa og'zaki nazoratlar vaqtida (masalan, fanlarni kelib chiqish tarixini o'rganishda), hamkasblari bilan bo'lgan o'zaro muloqotda kasbiy ilmiy atamalardan unumli foydalanish holda aloqa o'rnatadilar.

Ilgari pedagogik faoliyatda subyektlar o'rtasidagi kommunikativ muloqot masalalari shunchaki, odatdagi oddiy masaladek qaralgan. Hozirda esa professor-o'qituvchilardan o'quv jarayonining dastlabki kunlaridanoq talabalarda kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu ikki asosiy – ilmiy va kasbiy-maishiy sathlarda amalga oshirish talab etilmoqda.

Ushbu holatlarda professor-o'qituvchining asosiy vazifasi talabaga kommunikativ kasbiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyani to'g'ri shakllantiruvchi asosiy omil hamda mutaxassisni o'z kasbining egasi sifatida tayyorlash sharti ekanligini tushuntirishdan iboratdir.

Birinchi guruh o'qituvchilari o'zlarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish yo'lida turibdi. Ikkinchi guruh talabalarini o'qitishning nazariy tarkibini noverbal va verbal muloqot masalalari, uning darajalari va vositalarini tahlil qilish kerakligini ko'rsatdi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda kishilarning shaxslararo muloqot jarayonida o'zaro ta'siriy jihatlari, samarali muloqot qilish shartlari va to'siqlari, o'qitish jarayonida va pedagogik faoliyatda nizoli va nizosiz muloqotlar, nizolarni vaziyatlarni boshqarish, o'qituvchi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarini ko'rib, tahlil qildik, pedagogik muloqot xususiyatlariga e'tibor qaratdik.

Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida fan nazariyasini o'rganish muloqot masalalarini hal qilish bilan birgalikda olib borildi, muloqot treninglari o'tkazildi. Birinchi guruhi o'qitishda boshqa muloqot usullari bilan bir qatorda, samarali "o'quvchi o'qituvchi ro'lda" uslubiy usul ham qo'llanildi. Ikki talabalardan iborat smena jamoasi (o'qituvchi hamkorligida) hamkasblari bilan dars loyihasini ishlab chiqdi, so'ngra talabalar o'zlari tuzgan dars loyihasi asosida dars o'tkazdilar. Darsning yakuniy-refleksiya bosqichida, ayniqsa, muloqot sohasi bundan mustasno bo'lmagan holda, bahs-munozara bilan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, yutuqlar tahlil qilindi.

Bunda biz birinchi guruh talabalarining amaliyotda talabalarga dars berish jarayoni va o'quvchilar bilan kasbiy muloqotda duch kelgan muloqot muammolarini ham ko'rib chiqdik. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun o'qituvchi nafaqat pedagogik o'zaro ta'sirning asosiy usullari va turlarini bilishi, balki o'quvchi yoshining psixologik-pedagogik xususiyatlarini, shaxsning motivatsion sohasini rivojlantirish qonuniyatlarini ham bilishi lozim bo'ladi.

Ikkinchi guruh talabalarini o'qitish tajribasi shuni ko'rsatdiki, talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga to'siq qiluvchi asosiy sabab maqsadni yetarli darajada puxta ishlab chiqmaslik va aniq qo'ya bilmaslikdir. Yosh o'qituvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha talabalar bilan mashg'ulotlarni loyihalashda muloqot sohasida aniq maqsadni qoyishni bilmaydilar. Barcha o'quvchilarni kommunikativ jarayonga jalb qilish, uning texnologiyalari va foydalanish metodikasi bo'yicha yetarli bilim, konikma va malakalarga ega emaslar.

Shu narsa aniqki, agar darsning kommunikativ maqsadlari aniqlanmagan bo'lsa, ularga erishish refleksiya ham amalga oshmaydi. Shuningdek, agar talabalar muloqot ko'nikmalarini egallashda nazoratni susaytirsalar, ularga kommunikativ kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirish mezonlari haqida batafsil ma'lumot berilmasa, ular o'rtasida kasbiy muloqot orqali tajriba orttirish jarayoni qiyin kechishi aniqlandi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha ko'nikmalarni takomillashtirish masalalari har ikkala guruh o'qituvchilari uchun dolzarb bo'ldi.

Birinchi yo'nalish – o'qituvchilarni talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning yangi usullari bilan tanishtirish. Masalan, darsning videoyozuvidan foydalanish va talabalar bilan muloqot sifati haqida bahs-munozaralar uyushtirish yoki talabalar tomonidan ma'lum bir darsning kommunikativ maqsadlarini belgilash (ma'viy tadbir, konferensiyada ishtirok etish), ushbu maqsadlarga erishish samardorligini baholash; badiiy asarlardagi muloqot turlarini tahlil qilish.

Ikkinchi yo'nalish – amaliyot kundaligini yuritish. Kundalikda pedagog xodimlar va o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari, muloqotdagi qiyinchiliklar, ularni amaliyot rahbari bilan muhokamasi, muloqotdagi qiyinchiliklarning xususiyatlari va ularni bartaraf etish yo'llari hamda ekskursiyalar va boshqa ta'lim tadbirlaridan foydalanish yakuniy hisobotda izchillik bilan qayd etib boriladi.

Ijodiy topshiriqlar, o'qituvchilarning loyihaviy faoliyati (individual va jamoaviy) talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda innovasion tajribani tarqatishga imkon berdi. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga tayyorgarlikning ikkinchi yo'nalishi ham barcha o'qituvchilarga aloqador va elektron ta'lim muloqotining xususiyatlarini tadqiq qilish masalalaridan iborat edi.

Universitetda elektron axborot ta'lim muhiti mavjud bo'lishi hamda talabalarni kompyuter yordamida o'qitish odat tusiga kirganiga qaramay, o'qituvchilar uchun aralash va masofaviy ta'limga o'tish yangi pedagogik haqiqatga aylandi.

Ta'lim jarayonida optimal o'zaro ta'sir usullarini izlash va yangi sharoitlarda shaxsiy faoliyat samadorligini oshirishda muayyan holatlar – o'qituvchilar oldida yuzaga keladigan muammolarni bahs-munozara paytida aniq keyslar muhokamasini amalga oshirdik.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarni talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga tayyorlash boshlang'ich pedagogik tajribaga qarab farqlanadi, u an'anaviy kasbiy muloqot masalalari bilan bir qatorda, elektron ta'lim aloqalari masalalarini ham o'z ichiga oladi, interfaol tarzda olib boriladi. Ta'lim jarayonida tinglovchilar o'zlarida kommunikativ muloqot usullari va texnikasini o'zlarida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Umid qilamizki, bizning tajribamiz hamkasblar uchun foydadar xoli bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-farmoni.
- (3). Катышева И.Ю. Опыт организации комплаенс – контроля в рамках СВК. Основные принципы и стандарты комплаенс-контроля. Доклад на заседании. 2005.
- (4). М.В. Стурикова. Коммуникативная компетенция: к вопросу о дефиниции и структуре. Научн. статья. Инновационные проекты и программы в образовании. Научн. жур., № 6, 2015.
- (5). www.sciencye-education.ru.

Kudiyarova Gauhar Iyambergenovna (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali mustaqil izlanuvchisi) UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV KO'NIKMASINI SELF-MENEJMENT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

Аннотация. Mazkur maqolada umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmasini self-menejment yondashuvi asosida rivojlantirish metodologiyasi yoritilgan.

Калит so'zlar: maktab rahbarlari, boshqaruv ko'nikmasi, self-menejment, konseptual metodologiya, natijadaorlik.

Кудиярова Гаухар Иямбергеновна (Независимый соискатель Каракалпакского филиала Национального института педагогики имени Т.Н.Кари-Ниязи) МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ СЕЛФ-МЕНЕДЖМЕНТА

Аннотация. В данной статье освещена методология развития управленческих навыков руководителей общеобразовательных школ на основе подхода селф-менеджмента.

Ключевые слова: руководители школ, управленческие навыки, селф-менеджмент, концептуальная методология, результативность.

Kudiyarova Gauhar Iyambergenovna (Independent Researcher, Karakalpak Branch of the National Institute of Pedagogy named after T.N.Qori-Niyoziy)

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE MANAGEMENT SKILLS OF GENERAL EDUCATION SCHOOL LEADERS BASED ON SELF-MANAGEMENT

Annotation. This article highlights the methodology for developing the management skills of general education school leaders based on the self-management approach.

Keywords: school leaders, management skills, self-management, conceptual methodology, effectiveness.

Kirish. Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonida rahbar kadrlardan muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki shaxsiy sifatlarini oshirish, shaxsiy kompetentlilik darajasini rivojlantirish ham talab etilmoqda. Bu borada zamonaviy yondashuv sifatida "Self-menejment" dan foydalanish mumkin. Self-menejment rahbar kadrlarning vaqti, resurslari, qobiliyatlari, maqsadlari va boshqa shu kabi jihatlarini samarali boshqara olishiga xizmat qiladi. Self-menejment nafaqat kasbiy sohada, balki shaxsiy hayotda ham katta ustunlik beradi. Uning yordamida stressli holatlarni kamaytirish, shaxsiy intizomni kuchaytirish va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Aslida, bu faqat rahbar kadrlar uchun emas, balki barcha insonlar uchun qo'llanilishi mumkin.

Rahbar kadrlar kasbiy faoliyatida har kun ko'plab mas'uliyatli vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi. Bu borada eng asosiy muammo vaqtni samarali boshqara olish va maqsadlariga erishish uchun to'g'ri yo'l-ni tanlashdir. Ayrim rahbarlar tabiiy ravishda va tug'ma qobiliyati asosida o'z vaqti, resurslarini yaxshi boshqara oladi, boshqalar esa bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun maxsus bilim va ko'nikmalarni o'z-

lashtirishi kerak bo'ladi. Biz ushbu maqolada self-menejmentning asosiy tamoyillari, uning afzalliklari va samarali usullari haqida batafsil ma'lumot berib, uni umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati misolida ko'rib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Self-menejment (o'zini-o'zi boshqarish) bu maktab rahbarlarining shaxsiy hayotidagi va kasbiy faoliyatidagi ishlarini samarali tashkil qilish qobiliyatidir [1]. U maktab rahbarlarining o'z maqsadlarini aniq belgilashi, ichki va tashqi resurslarini to'g'ri taqsimlashi va o'zining ish samaradorligini oshirishiga yordam beradi. Har bir rahbar o'zining shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatida to'g'ri qarorlar qabul qilishi hamda ularni amalga oshirish uchun harakat qilishi, bu hayot qonuni-dir.

Self-menejmentning asosiy ahamiyati shundaki, u maktab rahbarlariga ish faoliyatini olib borish va shaxsiy hayoti davomida muvozanat saqlash hamda ularga ijobiy o'zgarishlar kiritib borish imkonini beradi. Tajribalardan ma'lumki, bugungi kunda biznes va shaxsiy rivojlanish sohasidagi ko'plab tadqiqotlar self-menejmentni muvaffaqiyat kaliti deb baholaydi.

Umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmasini rivojlantirishga yordam berishi mumkin bo'lgan self-menejmentning quyidagi asosiy tamoyillarini keltirish mumkin [1;2-b.] .

Shaxsiy mas'uliyatni oshirish maktab rahbari o'z faoliyati davomida maktabdagi barcha jarayonlarga, berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashga, natijalarga erishishga, ijobiy va asoslangan qarorlar qabul qilishga hamda o'z hayotining samarali kechishiga javobgardir. Bu uning o'z xatolarini tan olishi, muvaffaqiyatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi va tashqi omillar emas, o'z harakatlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishi, faoliyat yuritishini anglatadi.

Rejalashtirish va strategik fikrlash har bir vazifa aniq maqsad va reja asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ishlarni samarali rejalashtirish maktab rahbarlarining vaqti, resurslari va energiyasini tejash imkonini beradi. Strategik fikrlash esa uzoq muddatli rejalar tuzish va kelajakdagi muvaffaqiyat uchun zarur yo'nalishni belgilashda muhimdir.

Intizom va iroda kuchini rivojlantirish – doimiy mashqlar va amaliy ko'nikmalar orqali ichki intizomni mustahkamlashga yordam beradi. Kunlik vazifalarni tartibli bajarish, keraksiz chalg'ishlardan qochish va o'z-o'zini nazorat qilish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Samarali resurs boshqaruvi – vaqt, energiya, moddiy va intellektual resurslarni to'g'ri taqsimlashga yordam beradi. Maktab rahbarlari o'z resurslarini qanday boshqarsa, uning samaradorligi ham shunga bog'liq bo'ladi. Vaqtni rejalashtirish, energiyani tejash, moliyaviy resurslarni to'g'ri yo'naltirish va bilimlarni doimiy ravishda oshirish muvaffaqiyatli insonning muhim jihatlardan biridir.

To'g'ri qaror qabul qilish – har bir qarorni tahlil qilish va eng samarali yo'lni tanlashga yordam beradi. Samarali qaror qabul qilish ko'nikmasi tahlil qilish, alternativ yechimlarni ko'rib chiqish va xavflarni baholashni o'z ichiga oladi, buni maktab rahbarlari avvaldan ko'ra bilishi muhim hisoblanadi. Bunda ma'lumotlarga asoslangan holda, xolis va ratsional yechimlar chiqarish lozim.

Maktab rahbarlarining kasbiy faoliyati va shaxsiy hayoti davomida ishlarini samarali tashkil etish va amalga oshirishda vaqtdan unumli foydalanish, vaqtni boshqarishi muhim hisoblanadi.

Vaqt bu har bir insonning eng qimmatli resurslaridan biri hisoblanadi. U orqaga qaytarib bo'lmaydigan va to'ldirib bo'lmaydigan resurs bo'lgani sababli, undan samarali foydalanish har bir shaxs, shu jumladan, maktab rahbarlari uchun ham o'ta muhimdir. Vaqtni to'g'ri boshqarish ish samaradorligini oshiradi, kasbiy faoliyat va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadi. Vaqtdan unumli foydalanish orqali ustuvor vazifalarni aniq belgilash, muammolarga samarali yechim topish, stressni kamaytirish, ish yuklamasini to'g'ri taqsimlash, maqsadlarga tezroq erishish, faoliyatda yuqori natijalarga erishish, shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlash kabi ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Zamonaviy vaqt boshqaruvi usullari insonning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ehtiyojlariga qarab tanlanadi. Shuning uchun mavjud manbalar, adabiyotlar tahlillari asoslanib [1,2,3], eng mashhur va samarali usullar sifatida pomodoro texnikasi, eisenhower matritsasi, To-Do ro'yxati, Time Blocking kabilarni tahlil qilamiz.

“Pomodoro” texnikasi. Bu texnika Franchesko Chirillo tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, diqqatni jamlash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Bu usul quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Xususan, 25 daqiqalik diqqat bilan ishlangan ish; 5 daqiqalik tanaffus, bu 4 marta takrorlanganidan keyin uzunroq 15–30 daqiqalik tanaffus, har bir sessiyada aniq bir vazifaga e'tiborni yo'naltirish lozim. Bu metod, ayniqsa, tez chalg'iydigan va qisqa muddatli diqqatni ushlab turish qiyin bo'lgan insonlar uchun foydali.

Eisenhower matritsasi. Bu eng muhim va shoshilinch vazifalarni aniqlash uchun keng qo'llaniladi. Bunda vazifalar to'rt toifaga ajratiladi: darhol bajarilishi kerak bo'lgan muhim va shoshilinch ishlar, reja-

lashtirilishi va muayyan muddatda bajarilishi lozim bo'lgan muhim, lekin shoshilinch emas ishlar, imkoniyat bo'lsa, boshqalarga topshirish mumkin bo'lgan shoshilinch, lekin muhim emas bo'lgan ishlar, rad etilishi yoki keyinroq bajarilishi mumkin bo'lgan muhim ham, shoshilinch ham emas ishlar. Bu usul rahbarlar uchun o'ta samarali bo'lib, ularga resurslarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi.

To-Do ro'yxati. Bu kunlik vazifalarni aniq va tartibli shaklda to'zib borishga yordam beradi. Bunda quyidagi tamoyillar e'tiborga olinadi: kunlik yoki haftalik vazifalarni yozish; muhimlik darajasiga qarab tartiblash; bajarilgan vazifalarni belgilash; real maqsadlar qo'yish. Bu usul insonga kun davomida nimalarni bajarish kerakligini aniq ko'rishga va samarali ishlashga yordam beradi.

Time Blocking. Bu metodda ish kuni aniq vaqt bloklariga bo'linadi va har bir blok aniq bir vazifaga bag'ishlanadi. Bu usul quyidagi tarzda amalga oshiriladi: kunlik rejani vaqt oraliqlariga taqsimlash; har bir vaqt oralig'ida faqat bitta ishga e'tibor qaratish; tanaffuslarni ham rejalashtirish; o'rtadagi chalg'itishlarni minimallashtirish. Bu usul rahbarlar va ijodiy kasb vakillari uchun, ayniqsa, samarali.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu metodlar tahlilidan kelib chiqib, rahbarlar vaqtni boshqarishda alohida e'tibor berishlari kerak, chunki ular doimiy ravishda muhim qarorlar qabul qiladi va jamoalarni boshqaradi. Shuning uchun maktab rahbarlari o'z jamoalari bilan birgalikda ish jarayonini yaxshilash uchun vaqt boshqaruvi strategiyalarini joriy etishlari maqsadga muvofiqdir.

Maktab rahbarlarining kasbiy faoliyati va shaxsiy hayoti davomida ishlarini samarali tashkil etish va amalga oshirishda maqsadni qo'yish muhim hisoblanadi.

Maqsadlar to'g'ri va aniq qo'yilishi muvaffaqiyatning asosiy omilidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi-ki, aniq va real maqsadlar qo'ygan rahbarlar o'z natijalariga tezroq erishishadi. Bunda SMART metodidan foydalanish mumkin. Ushbu metod orqali maqsadni aniq va tushunarli qo'yishga erishish (aniqliq), – rivojlanishni baholash uchun me'yorlardan foydalanish (o'lchanadigan), – real va amalga oshirish mumkin bo'lgan maqsadlar qo'yish (erishiladigan),– maqsad umumiy strategiyaga mos kelishi kerak (dolzarb),– maqsadga erishish uchun aniq muddat belgilanishi kerak (muddatli).

Shuningdek, maktab rahbarlarining faoliyatida vaqt bilan birga, motivatsiyani oshirish ham muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Motivatsiya bu maqsadga erishishidagi asosiy kuch manbaidir. U ichki va tashqi motivatsiya bo'lib, ikki turga bo'linadi.

Ichki motivatsiya – shaxsiy ehtiyoj va orzular asosida shakllanadi. Bu turdagi motivatsiya odamni o'z xohishi va ichki qiziqishlari asosida harakat qilishga undaydi. Masalan, yangi bilimlarni egallash, shaxsiy maqsadlarga erishish, ijodiy qoniqish va shaxsiy o'sish.

Tashqi motivatsiya – moliyaviy rag'batlar, mukofotlar, ijtimoiy maqtoqlar orqali shakllanishi mumkin. Bu borada tashqi motivatsiya sifatida maosh va mukofotlar, hurmat va ijtimoiy maqomlar, tan olish va jamoa e'tiroflarini keltirish mumkin.

Self-menejmentning komponentlaridan biri sifatida emotsional intellekt, bu ham maktab rahbarlarining faoliyatida kerakli vositalardan hisoblanadi. Emotsional intellekt – rahbar kadrlarning his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish qobiliyati deb aytish mumkin. Bu qobiliyat yuqori darajada rivojlangan rahbarlar va muvaffaqiyatli shaxslarda uchraydi. Emotsional intellekt quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: o'z his-tuyg'ularini anglash – o'zining ichki his-tuyg'ularini bilishi va ularni nazorat qila olishi, o'z-o'zini boshqarish – kuchli emotsiyalarni nazorat qilish, stress va xavotirni kamaytirish, *empatiya* – atrof-dagilarning his-tuyg'ularini tushunish va ular bilan munosabatni yaxshilash, *muloqot qobiliyati* – o'z fikrlarini tushunarli va ta'sirli ifodalash, konstruktiv muloqot olib borish.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda ma'lumotlarning ko'pligi, ilg'or tajribalar har qadamda uchrayotganligi hisobga olinganida maktab rahbarlari kundalik malaka oshirib borishi, o'zini-o'zi rivojlantirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun doimiy rivojlanish – muvaffaqiyatli rahbar kadrlarning asosiy xususiyatidir. Shaxsiy va kasbiy o'sishga e'tibor qaratgan rahbarlar o'z maqsadlariga tezroq erishadi va raqobatbardoshliklarini saqlab qoladi. Shuning uchun maktab rahbarlari o'zini-o'zi rivojlantirib borishi uchun doimiy ravishda yangi bilim va tajribalarni o'zlashtirish uchun turli sohalarga oid kitoblar o'qishi, ilmiy tadqiqotlar va maqolalar orqali yangi tendensiyalardan xabardor bo'lishi, muvaffaqiyatli shaxslarning tajribalarini o'rganishi, kasbiy faoliyatiga oid bilimlarini oshirish uchun onlayn kurslarga yozilishi, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun turli xil tadbirlarda qatnashishi, o'z-o'zini rivojlantirish uchun ma'naviy va psixologik kurslarni o'rganishi, yangi texnologiyalar va dasturiy ta'minotni o'zlashtirishi, har xil tillarni o'rganish va muloqot mahoratini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Umumiy xulosa sifatida self-menejment har bir maktab rahbari uchun muhim bo'lib, u hayot sifatini oshirish, muvaffaqiyatga erishish va o'zini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Kun-

lik rejalashtirish, motivatsiya, o'z-o'zini rivojlantirish va emotsional intellektni kuchaytirish orqali har bir shaxs o'zini mukammal boshqarishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Кадырова С.В., Немсева Е.А., Тулчинский Г.Л. Селф-менеджмент. Учебное пособие, Санкт-Петербург, 2013, 113 с.
- (2). Назмутдинов В.Я., Яруллин И.Ф. Управленческая деятельность и менеджмент в системе образования личности. Казань, «Школа», 2013, 360 с.
- (3). Симонова А.А. Самоменеджмент как технология управления и саморазвития педагога. «Инновационные проекты и программы в образовании», № 2, 2019, с. 57–65.

**Matmusayeva Muhayyo Azamovna (FarDU o'qituvchisi; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com;
ORCID:0009-0005-4893-4114)**

BOLALAR O'YIN MATNLARINING KOGNITIV VA LINGVOMADANIY JIHATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada matn ma'lum bir davr mahsuli, muayyan voqelikni til vositalarida aks ettiruvchi lisoniy qobiliyat mahsuli ekanligi, bola o'ziga tushunarli matn orqali ongida olamning antropotsentrik tartibga solingan olam manzarasini yaratishi ta'kidlangan. Shuningdek, matnning kognitiv va lingvomadaniy jihatdan ahamiyati shakl va mazmun birligi, umumiylik va xususiylik uyg'unligi tamoyilida aks etishi, bolalar uchun yaratilgan matnlarda bolalarga xos ichki kechinmalarni tasvirlash natijasida voqelik vujudga kelishi misollar orqali dalillangan.*

***Kalit so'zlar:** matn, antropotsentrizm, lingvomadaniyat, lisoniy qobiliyat, omil.*

**Матмусаева Мухайё Азамовна (преподаватель ФерГУ; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com;
ORCID:0009-0005-4893-4114)**

КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ДЕТСКИХ ИГРОВЫХ ТЕКСТОВ

***Аннотация.** В данной статье подчеркивается, что текст является продуктом определенного периода, результатом языковой способности, отражающей конкретную действительность языковыми средствами, и что ребенок формирует в своем сознании антропоцентрически упорядоченную картину мира через понятный ему текст. Также отмечается, что когнитивное и лингвокультурологическое значение текста проявляется в принципе единства формы и содержания, гармонии общего и частного. На примерах показано, что в текстах, созданных для детей, реальность возникает в результате описания внутренних переживаний, характерных для детей.*

***Ключевые слова:** текст, антропоцентризм, лингвокультура, языковая способность, фактор.*

**Matmusayeva Mukhayyo Azamovna (Teacher at FerSU; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com;
ORCID:0009-0005-4893-4114)**

COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL ASPECTS OF CHILDREN'S PLAY TEXTS

***Annotation.** This article emphasizes that text is a product of a specific period and a result of linguistic ability to reflect a particular reality through language. It highlights that children create an anthropocentrically ordered worldview in their minds through texts they can understand. Additionally, the cognitive and linguocultural significance of text is shown to be reflected in the principle of unity between form and content, and the harmony of general and specific aspects. Examples demonstrate how reality emerges in children's texts through the depiction of inner experiences unique to children.*

***Keywords:** text, anthropocentrism, linguoculture, linguistic ability, factor.*

Kirish. O'zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari, matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ xususiyatlariga bag'ishlangan muayyan ishlar o'zida antropotsentrik yo'nalishni aks ettirgan bo'lib, bu masala o'zbek bolalar folklori, ya'ni, og'zaki ijodi hamda yozma badiiy matni misolida antropotsentrik jihatdan tadqiq etishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Sir emaski, dunyo tilshunosligida matnni antropotsentrik yondashuv asosida o'rganish, muayyan kommunikativ vaziyatlarga milliy-madaniy omillarning ta'siri hamda tilni universal-obyektiv, subyektiv-milliy aspektida uning sohibi bilan birga o'rganish va o'rgatish masalasi tobora dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu esa asrimiz boshlaridanoq lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv va psixolingvistik tamoyillarning taraqqiyotiga va istiqboliga zamin hozirladi. Matn va nutq esa shunchaki, sintaktik-semantik jihatdan birikkan nisbiy mustaqil gaplar ketma-ketligigina emas, balki muayyan vaziyatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan verbal muloqot uculi, so'zlashuvchilarning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqeyi, tafakkuri, milliy o'ziga xosligini ifodalovchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi. No-

minativ-pragmatik paradigma sanalgan antropotsentrik paradigmanning rivojlanishi shaxsni, ma'lum vaziyatda so'zlovchi va tinglovchi holati va xususiyatini o'rganish, bilish bilan bog'liqdir.

Har qanday matn ma'lum bir davr mahsuli, muayyan voqelikni til vositalarida aks ettiruvchi lisoniy qobiliyat mahsulidir. Bola o'ziga tushunarli matn orqali ongida olamning antropotsentrik tartibga solingan olam manzarasini yaratadi. Xususan, matnning kognitiv va lingvomadaniy jihatdan ahamiyati shakl va mazmyn birligi, umumiylik va xususiylik uyg'unligi tamoyilida aks etadi. Bolalar uchun yaratilgan matnlarda bolalarga xos ichki kechinmalarni tasvirlash natijasida voqelik vujudga keladi. Bunda muallif turli sath birliklaridan aynan bolalarga xoslarini tanlab, matn tuziladi.

Adabiyotlar tahlili. R.H.Davlatova matnlarda kishilarga qo'yilgan ayrim laqab, taxallusni ifodalovchi atoqli otlar ham shaxsga, ham uning muayyan belgisiga ishora qilganda ularning deytik doirasining kengayishini ta'kidlaydi [1]. Bu holat, ayniqsa, bolalarga xos egotsentrik xususiyatli matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. M.Qurbonova bolalar nutqida mavjud bo'lgan takrorlar konnotativ ma'no ifodalashini ta'kidlagan [2]. Jumladan, "Leksik birliklar takrori konnotativ ma'noni hosil qiluvchi pragmatik vosita sifatida, ayniqsa, bolalar nutqida ko'p kuzatiladi. Bolalar nutqida leksik birliklar takrorining turli ko'rinishlari aks etadi. Ko'pincha, takror yordamida ta'kidni kuchaytirish asosida nutqning ta'sirchanligi ta'minlanadi" deb bolalar nutqida takrorning o'ziga xos jihatlari xususida fikr yuritadi.

A.K.Frolov bolalar uchun yaratilgan matnlar bolalarga xos refleksiyaning vujudga keltirishini ta'kidlaydi [3]. U bolalar uchun yaratilgan badiiy prozaik matnlarni lingvistik aspektida tahlil qilib, asar sujeti va mazmuni bolalarga xos refleksiyaning hosil qilishini misollar bilan izohlaydi. Tanqidiy fikrlash tarzida baholanadigan refleksiya atamasi pedagog-psixologlar tomonidan "Inson yon-atrofidagi odamlarga qarab, guyoki, oynada o'zini ko'rganday tasavvur qilishi, psixologiyada refleksiya" sifatida izohlanadi. M.Yo'l-doshev [4] tasnifiga ko'ra, bolalarga xos matnlarni hajm belgisi, ifoda maqsadi va mazmun-mohiyatiga qarab, turli tiplarga ajratish mumkin. Olim matnlarni hajm nuqtayi nazaridan tasniflar ekan, ularni minimal matn va maksimal matnlarga ajratadi. Matn uslub jihatidan ilmiy, badiiy hamda rasmiy, ommabop kabilarga bo'linsa, mazmun ifodasi, maqsadiga ko'ra, quyidagilarga ajratiladi:

1. Hikoya mazmunli matnlar (Le texte narrative – narrativ).
2. Tasviriy matn (Le texte descriptive – deskriptiv).
3. Izoh mazmunli matn (Le texte argumentatif – argumentli).
4. Didaktik matnlar (Le texte explicatif – eksplikativ).
5. Xabar mazmunli matnlar (Le texte informatif – informativ).
6. Buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif – injonktiv).
7. Hissiy ifoda mazmunli tur (Le texte expressif – ekspressiv)ga bo'linadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni tadqiq etishda tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, differensial-semantik, qiyoslash va distributiv tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi antropotsentrik yondashuv asosida muammoning aniq qo'yilganligi, ilmiy ma'lumotlarning nashr etilgan manbalardan olinganligi, misollar bilan dalillangan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish mumkinligi, misol uchun tanlangan matnlar o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda tanlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar. Matnni tushunish ko'rsatkichlari intralingvistik (ichki) va ekstralingvistik (tashqi) omillarga bog'liq. A.Obidjonning "Jaqqi" hikoyasida shevaga xos *ena, burishta va jaqqi* so'zlaridan voqea-hodisa vodiy qishloqlarining birida, muallifning tug'ilgan joyi – Oltiariqda ro'y berayotganini sezish mumkin. Masalan: *Enasining yana bir g'alati gapini ilib olgan O'g'ilo: "Iy! "Burishta" degani nima?" – deb kampirga battardan suykanadi.*

–Burishta degani – doim, hadeb degani-da, – choy ho'playotib, tushuntiradi enasi. – SHuniyam bil-maysanmi, jaqqi? – Iy! "Jaqqi" nima? – deya tag'in gapni kavlaydi O'g'ilo. Enasi burushqoq qo'lida nevarasining sochini to'zg'itib erkalatadi: – Sendaqangi tinmay gapiradiganlarni "jaqqi" deyishadi. Uqdingmi?

Misoldagi *jaqqi* ko'p gapiradigan bolaning audielligiga ishora qiluvchi laqab, ya'ni, belgi deysisi bo'lib, muallifning voqelikka nisbatan subyektiv munosabatini ham aks ettiradi.

Qizalog'im oppog'im, alla.

Qora ko'zim, qunduzim, alla.

Muharramxon – podsho qiz.

Bolalar uchun yaratilgan matnlarning narrativ, deskriptiv, eksplikativ turlarini ajratish mumkin. Ularning ayrimlarini izohlab o'tamiz:

1. Bolalar olamiga xos hikoya mazmunli matnlarda izchil va yaxlitlovchi ohang, rivojlanib boruvchi ifoda tarzi, monologik va dialogik nutqning uyg'unligi va muallif omilining ustuvorligi namoyon bo'la-

di. Bolalar uchun qayta ishlangan ertaklar, yosh xususiyatlariga tayanilgan hikoya matnlarini narrativ matn tipiga kiritish mumkin. Masalan, xalq ertaklarini tabdillash usuli orqali bolalarga xos quyidagicha narrativ matn hosil qilingan:

Kunlardan bir kun O'ktam, daraxt tagiga o'tirib: "O'lo'loh menga bir kuch bersa-yu, qo'limni nimaga ursam, o'sha narsa tillaga aylanib qolaversa, ana o'shanda og'ir mehnatdan qutulib, farovon hayot kechirgan bo'lar edim", – deya xayol sura boshlabdi. To'satdan uning qulog'iga: –O'ktam! Hozir sen tilagingga yetasan! Qo'lingni biron narsaga tekkizgin, darhol tillaga aylanib qoladi, – degan ovoz eshitilibdi.

Mazkur tipli matnlarda bolalar olamiga xos tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mushtarak holda qo'llanilishi mumkin.

2. Bolalar olamiga xos tasviriy matnlar (Le texte descriptif). Bolalar tabiatan atrof-muhitga, harakatlanuvchi narsa-buyumlar, hayvonot va nabotot olamiga qiziquvchan bo'lganligi sababli ularning olamiga xos deskriptiv matnlar badiiy adabiyotda salmoqli o'rin egallaydi. Matn birliklari o'zaro partonimik munosabatni hosil qilib, butun orqali bo'lak, aksincha, bo'lak orqali butun tasvirlanadi. Masalan, quyidagi misolda voqealar tasviriga e'tibor qaratilgan. Chunki bola ma'lumotlarni 83 foiz ko'rish orqali, 10 foiz eshitish orqali qabul qiladi, shu bois bolalarga xos matnlarda narsa-buyumning tashqi ko'rinishlari, voqea-hodisalarning tasviriga alohida e'tibor qaratilgan.

Masalan, quyidagi matnda bolaga ma'lum bo'lgan rang, shakl, xil-xususiyatga ko'ra, o'xshatish usulidan foydalanilgan: *Bir to'p bor ekan. U dum-dumaloq, bir tomoni gul bargiday yashil, juda chiroyli ekan. Uning qo'li ham, oyog'i ham bo'lmagan ekan. Shunga qaramay, to'p tinib-tinchimas ekan.*

3. Bolalarga xos izoh mazmynli matn (Le texte argumentatif – argyumentli matn). Matnlarda voqea-hodisalarning ishonarli bo'lishi, bolalar dunyoqarashiga mos tarzda yaratilishi izoh mazmunli matnlarning asosiy maqsadi sanaladi. Fikr va qarashlarni isbotlash uchun turli dalil va izohlar keltirilishi, asoslash, ishontirish, o'zini oqlashga urinish oqlashga urinish argumentli matn tipining o'ziga xos jihatlardan biri sanaladi. Masalan, mazkur izoh mazmunli matnda *ammo* inkor bog'lovchisi fikr bilan keltirilgan dalil o'rtasida mantiqiy bog'liqlik hosil qilgan:

Bahor keldi. O'riklar gulga burkandi. Lekin Hamroboy otaning hovlisidagi bir tup o'rik gullamadi. Har bahor o'rik qiyg'os gullaganda otaga olam-olam quvonch olib kelardi. Ammo bu yil...

Hamroboy ota hasrat bilan o'rikning g'adur-budur tanasini qo'llari bilan ohista siypaladi. Uning ko'z oldiga o'g'li Rustamjon keldi. "O'g'lim bu o'rikni o'z qo'li bilan o'tqazgan edi. Qaribdi, ha qaribdi" – dedi va ko'zlariga yosh qalqdi. Otaning yosh, navqiron o'g'li Rustamjon urushda halok bo'lgan edi. Ota shu o'rik orqali o'g'lini eslab, Rustamjonni ko'rganday bo'lib yurardi (S.G'ofurov. "Mag'zi shirin" hikoyasi).

Yuqoridagi misolning birinchi abzatsida dalil, ikkinchi abzatsida esa izoh, asos keltirilgan.

4. Bolalarga xos didaktik matnlar (Le texte explicatif – eksplikativ matn)ning mazmuniy subtekstida ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat ustuvorligi bilan ajralib turadi. Bolalar adabiyotining tadrijiy taraqqiyoti XX asrning birinchi choragidan boshlangan bo'lsa, jadidchilik harakati natijasida paydo bo'lgan ma'rifat-parvar adabiyot, mumtoz adabiyotning an'analari, so'ng rus adiblaridan tarjimalar didaktik xarakterga ega matnlar sifatida o'zbek kitobxoniga ma'lum bo'lgan.

Eksplikativ matn birligi bo'lgan didaktik matnlar tayyor holda matndan tashqarida mavjud bo'lib, retsipientning eksplikativ qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, quyidagi misolda keltirilgan maqol didaktik sifatida matnning eksplikativligini oshirgan:

Yolg'iz bola – yalmog'iz bola, degan ekanlar. Sen hech o'nnglanmading. Tirikligimda seni ko'p ardoqladim, lekin o'zingga ham, senga ham ziyon qilgan ekanman. Endi bo'lgan ish bo'ldi, o'lar oldidan senga aytadigan gapim shuki, kuning kelib, hech narsang qolmaganida, bog'ga chiqib, daraxtlarning ostini kovlab chiqasan. Yigit bunga hech parvo qilmay, kayf-safoda yuraveribdi.

Misoldan ayon bo'ladiki, maqol didaktik sifatida matnning shakllanishiga yordam bergan.

Xulosa. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, insonning ijtimoiy olamda muayyan ijtimoiy faol fuqarolik o'rnini belgilovchi ona tiliga munosabatini ko'rsatuvchi eng muhim lisoniy birlik bu matndir.

Matn, tor ma'noda, tilning barcha sathlarini uyg'unlashtirgan nutqiy-sintaktik birlik bo'lsa, keng ma'noda, so'zlovchi yoki yozuvchi shaxsining lisoniy salohiyatini o'zida to'liq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matn millatning lisoniy ko'zgusi, lisoniy daraxtning mevasi.

O'zbek tilshunosligida matn tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda, muallifning matn semantikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq ilg'or fikrlar yoritilgan bo'lib, ular psixolingvistika va pragmalin-gvistika yo'nalishidagi tadqiqotlarning yaratilishiga zamin hozirladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Davlatova R.H. O'zbek tilining deytik birliklari. Filol.fan. d-ri (DSc) ... dis. avtoref., Toshkent, 2020, 18-bet.
- (2). Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqining pragmalingsvistik aspekti. Toshkent, 2018, 121-bet.
- (3). Фролов А.К. Языковая специфика текстов художественной прозы для детей. Автореф. дисс.канд. ... филолог.наук, Тверь, 2003, с. 11.
- (4). Yo'ldoshev M. Badiiy matn va yning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, "Fan", 2007, 12-bet.
- (5). D.M.Yuldasheva. Muallif nutqi agnomimlari (Siddiq Mo'min ijodida misolida). Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 volume 2, special issue, 8. 2023.
- (6). Yuldasheva, D., Abdug'aniyeva, D. (2023). Bolalar nutqidagi lingvistik xususiyatlar nazariyasi. Byulleten pedagogov novogo Uzbekistana, 1(4), p. 52–54. izvlecheno ot <https://www.in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12199>
- (7). M.Matmusayeva. O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi. FarDU, "Ilmiy xabarlar" jurnali, 2024, 6-son, "Aniq va tabiiy fanlar"<https://t.me/FarDuilmiyxabarlar>
- (8). M.Matmusayeva. Maktabgacha ta'limda o'yinlar – soha terminlari sifatida. FarDU, "Ilmiy xabarlar" jurnali, 2024, 6-son, "Aniq va tabiiy fanlar"<https://t.me/FarDuilmiyxabarlar>.

**Mavlanova Nasiba Axmedovna (Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi
<https://orsid.org/0009-0003-0699-5141>; e-mail:ismoil_nur84@mail.ru; UDK: 631.53.04:633.511)
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASH VA
DALILLASH MADANIYATINING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada tanqidiy fikrlash jarayoni inson ongidagi bir nechta kognitiv komponentlardan – kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlar tashkil topish masalalari yoritilgan. Ushbu komponentlar insonning bilish faoliyatini boshqarish, tahlil qilish va yaxlit fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.*

***Kalit so'zlar:** metakognitiv komponent, mustaqil fikrlash, keys-stadi, debatlar, brainstorming usuli, pedagogika, psixologiya.*

ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРЫ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И АРГУМЕНТАЦИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ

***Аннотация.** В статье рассматривается процесс критического мышления человека, включающий несколько когнитивных компонентов – когнитивный, метакогнитивный и рефлексивный. Эти компоненты играют важную роль в развитии интеллекта человека, анализа и формировании целостного мышления.*

***Ключевые слова:** метакогнитивный компонент, самостоятельное мышление, практические примеры, дебаты, метод мозгового штурма, педагогика, психология.*

THE IMPORTANCE OF CRITICAL THINKING AND ARGUMENTATION CULTURE IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN COMPREHENSIVE SCHOOLS

***Annotation.** The article examines the process of critical human thinking, which includes several cognitive components – cognitive, metacognitive and reflexive. These components play an important role in the development of human intelligence, analysis and formation of holistic thinking.*

***Keywords:** metacognitive component, independent thinking, practical examples, debates, brainstorming method, pedagogy, psychology.*

Kirish. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash va dalillash madaniyatining uyg'unligi o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va mantiqiy tarzda bayon qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bu esa ularning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash jarayoni inson ongidagi bir nechta kognitiv komponentlardan tashkil topadi: kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlar. Ushbu komponentlar insonning bilish faoliyatini boshqarish, tahlil qilish va yaxlit fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kognitiv komponent insonning bilish jarayonini tashkil etuvchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish va ularni qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu komponent insonga mantiqiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash imkonini beradi. Jon Dyui ta'kidlaganidek, "Bilimga ega bo'lish bu faqat faktlarni yodlash emas, balki ularni tushunish va mantiqiy tarzda joylashtirishdir" [1].

Adabiyotlar tahlili. Metakognitiv komponent esa insonning o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, baholash va boshqarish qobiliyatini anglatadi. Metakognitiv ko'nikmalarga ega bo'lgan inson o'z bilim da-

rajasini baholay oladi, o'rganish jarayonida qilayotgan xatolarini tushunish va ularni to'g'rilash imkoniga ega bo'ladi. Linda Elder va Richard Pol tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda metakognitiv yondashuv muhim ekanligini ta'kidlab, "Odamlar o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish va tanqidiy baholash orqali o'z bilimlarini chuqurroq tushunadi", deb yozadilar [2].

Refleksiv komponent tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, insonning o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishi va o'ziga berilgan ma'lumotlarga tanqidiy yondashishi bilan bog'liq. Refleksiya insonga o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqish, yangi dalillar asosida xulosalarini qayta shakllantirish va obyektiv yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Stiven Brukfeld ta'kidlaganidek, "Refleksiya – bu insonning o'z fikrlash jarayonini kuzatib, uni yaxshilash va rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan tanqidiy tahlil" [3].

Tahlil va natijalar. Kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlar tanqidiy fikrlashning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Kognitiv komponent ma'lumotlarni anglash va tahlil qilish imkonini beradi, metakognitiv komponent insonga o'z fikrlash jarayonini boshqarish va baholashni o'rgatadi, refleksiv komponent esa insonni o'z fikrlari va qarorlarini qayta ko'rib chiqishga yo'naltiradi. Ushbu komponentlarni rivojlantirish tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonida ularni qo'llash o'quvchilarni mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatning tezkor rivojlanishi, axborot oqimining oshib borishi va bilimlar yangilanib borishi sharoitida o'quvchilarni faqat ma'lumotlarni o'zlashtirishga emas, balki ularni tahlil qilish, mantiqiy izchillikda baholash va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish zarur. Pedagogikada tanqidiy fikrlashni shakllantirish nafaqat fanlarni o'rgatish jarayonida, balki shaxsning ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari, metodik asoslari va pedagogik mexanizmlarini aniqlash zamonaviy tadqiqotlar uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning bilimlarni faol o'zlashtirishi, ularni tahlil qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqarish va muammolarga ijodiy yondashish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil fikrlash bu shaxsning ma'lumotlarni qabul qilishda yondashuvlarini anglash, hozirgi bilimlarni qayta ko'rib chiqish va yangi bilimlar asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantirish jarayonidir. O'quvchilar o'quv materialini faqat yodlab qolish bilan cheklanmasdan, uning mazmunini chuqur anglash va tahlil qilish imkoniga ega bo'lishi kerak. N.Djanxodjayev ta'kidlaganidek, "O'rganish jarayonida faol fikrlash va tajriba asosida bilimni qayta ishlash o'quvchilarda mustaqil mulohaza yuritishni shakllantiradi" [4].

Ijodiy fikrlash esa yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni boshqacha yondashuv orqali qayta ishlash va muammolarga noan'anaviy yechim topish qobiliyatini anglatadi. Ijodiy fikrlash tanqidiy fikrlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir shaxsning o'ziga xos tafakkurini namoyon qilish imkonini beradi. M. Shukurovaning fikriga ko'ra, ijodiy fikrlash tanqidiy tahlil va tasavvur qilish jarayoni bilan uyg'unlashganda, samarali natija beradi [5].

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar va tadqiqotchilik faoliyatidan foydalanish zarur. Masalan, keys-stadi, debatlar, brainstorming usuli, ijodiy loyihalar tayyorlash va tadqiqot topshiriqlari o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'zbek olimlarining tadqiqotlarida ham mustaqil va ijodiy fikrlash masalasiga e'tibor qaratilgan. Masalan, Q.Yolqinxo'jayev ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol fikrlashga undash va ularning shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi [6].

Umuman, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirish, axborotni tahlil qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'lim jarayonida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlardan samarali foydalanish zarur.

Tanqidiy fikrlashni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek olimlari ta'kidlaganidek, tanqidiy fikrlash o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq anglashi, ularni tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishiga yordam beradi. Masalan, tadqiqotchi Sh. Olimov ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, tanqidiy yondashuv o'quvchilarda muammolarni mustaqil hal qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishga yor-

dam beruvchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Bu o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishi va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlashni o'qitish jarayoniga joriy etish o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq anglashi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta'lim, tadqiqotchilik yondashuvlari va innovatsion metodlar muhim o'rin tutadi. Ushbu metodlar o'quvchilarni faol bilim olish jarayoniga jalb etib, ularni mustaqil muammolarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga undaydi.

Muammoli ta'lim tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarni yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga va muammolarni hal qilish jarayonida faol ishtirok etishga o'rgatishdan iborat. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilimlarni bermaydi, balki ularning tanqidiy tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradigan muammoli vaziyatlarni yaratadi. O'zbek tadqiqotchilari Q.Yolqinxo'jayev va U.Ashurov ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli yondashuv muhim ekanligini ta'kidlab, bu metod o'quvchilarning ongli mulohaza yuritish, baholash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishini ko'rsatadilar [7].

Tadqiqotchilik yondashuvi ham tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvda o'quvchilar mavjud bilimlar asosida yangi ma'lumotlarni mustaqil o'rganish, tajribalar o'tkazish va tahlil qilish orqali xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchilar tadqiqot olib borish, ma'lumotlarni mantiqiy tarzda qayta ishlash va dalillar asosida o'z fikrini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Sh.Olimov ta'lim jarayonida tadqiqotchilik yondashuvidan foydalanish tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ta'kidlab, bu metod yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishini ko'rsatadi [8].

Innovatsion ta'lim metodlari, jumladan, multimedia resurslari, virtual reallik texnologiyalari, debatlar va keys-stadi usullari ham tanqidiy fikrlashni shakllantirishda keng qo'llanilmoqda. Masalan, keys-stadi metodi real hayotdagi muammolarni o'rganish va ularni hal qilish jarayonida o'quvchilarni faol qatnashishga undaydi. Debatlar esa o'quvchilarga o'z nuqtayi nazarlarini dalillar bilan asoslash va muqobil fikrlarni tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi. O'zbek tadqiqotchisi A.Abdullayev ta'kidlaganidek, innovatsion metodlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular o'quvchilarni faol va interaktiv bilim olish jarayoniga jalb etadi [9]. Demak, muammoli ta'lim, tadqiqotchilik yondashuvlari va innovatsion metodlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarni mantiqiy tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va mustaqil fikrlashga yo'naltirish mumkin. Bunday yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash o'quv jarayonida faol va ongli bilish jarayonini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi faqat ma'lumotlarni uzatishga emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu jarayonda tanqidiy fikrlashning asosiy qoidalari va talablariga rioya qilish o'quvchilarda bilimlarni chuqur anglash, tahlil qilish va mulohazali yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashning samarali shakllanishi uchun o'quv jarayonida muayyan didaktik talablar va metodologik prinsiplarga amal qilish zarur. Ushbu qoidalar ta'limda mantiqiy tahlil, dalillarga asoslangan fikrlash va mustaqil xulosa chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning shakllanishi uchun interaktiv usullar, tadqiqotchilik yondashuvlari va innovatsion ta'lim metodlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shu bois tanqidiy fikrlashning o'quv jarayonidagi asosiy qoidalari va talablarini aniqlash ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy yondashuvini rivojlantirish hamda zamonaviy bilimlar tizimiga integratsiya qilish uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu shart-sharoitlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni faol o'quv jarayoniga jalb qilish va ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Pedagogik shart-sharoitlardan biri o'quv jarayonida muammoli ta'lim metodlarini qo'llashdir. Bu metodlar o'quvchilarni muammolarni mustaqil hal qilishga, tanqidiy tahlil qilishga va yangi bilimlarni izlashga undaydi. Shuningdek, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun ularni faol o'quv jarayoniga jalb qilish, mustaqil izlanish va tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish zarur.

Psixologik shart-sharoitlar esa o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi. Buning uchun o'quvchilarda tanqidiy fikrlashga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularni mustaqil fikrlashga rag'batlantirish va ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Shuningdek, o'quvchilarning emotsional holatini hisobga olish, ularga qo'llab-quvvatlash va maslahat berish ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun qulay psixologik-pedagogik muhit yaratish zarur. Bu muhitda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, muammolarni mustaqil hal qilishlari va yangi g'oyalarni izlashlari mumkin bo'lishi kerak. Shuningdek, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun ularni faol o'quv jarayoniga jalb qilish, mustaqil izlanish va tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish zarur.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun neyropedagogika va neyrotexnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Neyropedagogika ta'lim jarayonini inson miyasining fiziologik va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishga yo'naltirilgan. Neyrotexnologiyalar esa zamonaviy axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va miya faoliyatini tadqiq etish usullari asosida o'quv jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Bu yondashuvlar tanqidiy fikrlashning samarali shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Neyropedagogika tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda kognitiv jarayonlarni stimulatsiya qilishga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Xususan, vizual va audiovizual stimullar orqali ma'lumotni qabul qilish va uni tahlil qilish jarayonini faollashtirish mumkin. Z.Saidova ta'kidlaganidek, neyropedagogik metodlar yordamida o'quvchilarning e'tiborini kuchaytirish, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini oshirish va ularning fikrlash jarayonini rag'batlantirish mumkin [10].

Neyrotexnologiyalar esa tanqidiy fikrlash jarayonini samarali rivojlantirish uchun yangi vositalar yaratish imkonini beradi. Masalan, virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AI) orqali o'quvchilarga murakkab muammolarni modellashtirish va ularni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, ularning muammolarni turli jihatlardan ko'rib chiqishiga yordam beradi. Z.Saidova ta'lim jarayonida neyrotexnologiyalardan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion imkoniyatlar yaratishini ta'kidlaydi [10]. Shuningdek, neyropedagogika tanqidiy fikrlash jarayonida miya faoliyatining qanday ishlashiga asoslangan yondashuvlarni taqdim etadi. Miyaning prefrontal qobig'i tahlil qilish, baholash va qaror qabul qilish jarayonlarini boshqaruvchi asosiy markaz hisoblanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida prefrontal qobiq faolligini oshirishga qaratilgan metodlardan foydalanish tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhimdir.

Xulosa. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda neyropedagogika va neyrotexnologiyalar yangi imkoniyatlar yaratadi. Neyropedagogik yondashuvlar inson miyasining fiziologik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan. Neyrotexnologiyalar esa sun'iy intellekt, virtual reallik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilarning tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Miyaning neyroplastiklik qobiliyati tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yangi bilimlar va tajribalar miyada yangi neyron bog'lanishlarini hosil qilib, fikrlash jarayonini faollashtiradi. Shu sababli ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun neyropedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Dewey J. How We Think. Boston: D.C. Heath & Co, 1978, p. 42.
- (2). Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson, 2013, p. 78.
- (3). Brookfield S. Developing Critical Thinkers: Challenging Adults to Explore Alternative Ways of Thinking and Acting. Jossey-Bass, 1987, p. 56.
- (4). Джанходаев Н. Нейрон тармоқлари ва нейропедагогика. Modern Science and Research. MODERNSCIENCE.UZ, 2024, p. 1296–1297.
- (5). Шукурова М. Нейропедагогика как основа повышения эффективности образовательного процесса. Mental Journal, Mental Journal-JSPU, 2024, p. 4–10.
- (6). Ёлқинхўжаев Қ. Танқидий фикрлаш. Тошкент, "Фан", 2015, 112-бет.
- (7). Ёлқинхўжаев Қ., Ашуров У. Ўқувчиларда танқидий фикрлаш кўникмасини шакллантириш. Тошкент, "Фан", 2018, 92-бет.
- (8). Олимов Ш. Инновацион таълим технологиялари. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2020, 76-бет.

(9). Абдуллаев А. Замонавий таълим методлари. Тошкент, “Ирфон”, 2019, 88-бет.

(10). Саидова З. Нейропедагогик технологиялар. “Фан ва инновация”, 2021, 4-сон, 112–119-бетлар.

Norchayev Abdulla Jabborovich (Qarshi davlat Texnika universiteti assistenti)
KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

***Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot kreativ yondashuv asosida talabalarining muhandislik kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Muhandislik ta’limida innovatsion va ijodiy metodlarning qo‘llanilishi talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va texnik yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda kreativ yondashuvning nazariy asoslari, muhandislik ta’limida uning o‘rnini belgilash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullari tahlil qilinadi. Natijalar muhandislik ta’limida sifatni oshirish va talabalarning amaliy kompetentligini rivojlantirishga ko‘mak beradi.*

***Kalit so‘zlar:** kreativ yondashuv, muhandislik kompetentligini rivojlantirish, innovatsion pedagogika, muammolarni hal qilish, texnik yechimlar, muhandislik ta’limi, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.*

Норчаев Абдулла Джабборович (ассистент Каршинского государственного технического университета)

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА
ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

***Аннотация.** Данное исследование посвящено разработке методики развития инженерной компетентности студентов на основе креативного подхода. Применение инновационных и творческих методов в инженерном образовании способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, навыков решения проблем и разработки технических решений. В исследовании анализируются теоретические основы креативного подхода, его роль в инженерном образовании и методы применения современных педагогических технологий. Результаты исследования способствуют повышению качества инженерного образования и развитию практических компетенций студентов.*

***Ключевые слова:** креативный подход, развитие инженерной компетентности, инновационная педагогика, решение проблем, технические решения, инженерное образование, творческое мышление, педагогические технологии.*

Norchayev Abdulla Jabborovich (Assistant at Karshi State Technical University)

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' ENGINEERING COMPETENCE BASED
ON A CREATIVE APPROACH

***Annotation.** This study is devoted to the development of a methodology for enhancing students' engineering competence based on a creative approach. The application of innovative and creative methods in engineering education contributes to the development of students' independent thinking, problem-solving skills, and ability to design technical solutions. The research analyzes the theoretical foundations of the creative approach, its role in engineering education, and methods of applying modern pedagogical technologies. The results help improve the quality of engineering education and enhance students' practical competencies.*

***Keywords:** creative approach, engineering competence development, innovative pedagogy, problem-solving, technical solutions, engineering education, creative thinking, pedagogical technologies.*

***Kirish.** Bugungi texnologik taraqqiyot sharoitida muhandislik ta’limi yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish uchun kreativ fikrlash va innovatsion muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha zamonaviy talablarni qondira olmaydi, shuning uchun kreativ yondashuv asosida muhandislik ta’limining samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi [1].*

Zamonaviy ta’limda talabalar kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishda kreativ yondashuvning pedagogik texnologiyalari va metodikalari bugungi kunda sifat va samaradorlik omili bo‘lib, bir qator afzalliklarni namoyon etmoqda. Kreativ yondashuv – bu o‘quv jarayonini tashkil etishning shakli va zamonaviy modeli hisoblanib, undan maqsadli foydalanish, davlat va jamiyat istiqboliga xizmat qilaigan mutaxassislarni tayyorlashda o‘z ustuvorligiga ega [2].

Ta'lim jarayonida kreativ yondashuv asosida ta'lim texnologiyalari va metodlarining qo'llash quyidagilarni yuzaga chiqishga xizmat qiladi:

- talabaning o'quv faoliyati mazmunini belgilash, ta'lim olish usullari va sur'atlari hamda kreativ xususiyatlariga adaptivligini barqarorlashtirish;
- talabaning individual imkoniyatlarini (qobiliyatlarini) yuzaga chiqarish va yanada uni rivojlantirish;
- talaba tomonidan o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirish texnologiyalarini kreativlikning xususiyatlaridan kelib chiqqan hola faoliyatida qo'llash hamda uning muvaffaqiyatsizlik omillarini bartaraf etish malakalarini shakllantirish;
- talabaning uzatilayotgan bilimlarni o'zlashtirishni proksimal rivojlanish zonasini aniqlashtirish va uni rag'batlantirish orqali muhandislik kompetentligini shakllantirish;
- talabaning kreativ yondashuv asosida ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ko'nikmalarini tarbiyalash, mutaxassislikka nisbatan mavjud bo'lgan kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish;
- talaba shaxsida reflektiv yondashuv ko'nikmasini shakllantirish orqali, o'z-o'zini o'rganish, mavjud qobiliyatlarini rag'batlantirish, o'z faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan qarashni ratsional omillarni o'zida mujassamlashtirgan muhandislik kompetentligi jihatlarini shakllantirish [3].

1. Kreativ yondashuv va uning ta'lim jarayonidagi roli. Kreativ yondashuv zamonaviy pedagogika va muhandislik ta'limida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kreativlikni rivojlantirish talabalarining muhandislik kompetentligini shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Guilford (1950) tomonidan ilgari surilgan ijodiy tafakkur nazariyasi hozirgi kunda muhandislik ta'limi sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Torrance (1966) tomonidan ishlab chiqilgan kreativ fikrlash testlari esa o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasini aniqlashda qo'llaniladi [4].

2. Muhandislik kompetentligini shakllantirishga oid nazariyalar. Muhandislik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular Bloom (1956) taklif etgan taksonomiya asosida shakllangan. Shu bilan birga, Vigotsky (1978) tomonidan ilgari surilgan madaniy-tarixiy nazariya va konstruktivistik ta'lim yondashuvi muhandislik ta'limida o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

3. Innovatsion va kreativ metodlarning muhandislik ta'limidagi o'rni. Kreativ yondashuv asosida talabalarining muhandislik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Problema asoslangan ta'lim (Problem-Based Learning, PBL) – Barrows (1986) tomonidan taklif qilingan va muhandislik yo'nalishidagi talabalarining analitik va kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning, PjBL) – Thomas (2000) tomonidan ishlab chiqilgan va talabalarining real muammolarni yechish qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

STEAM ta'lim (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) – Yakubov (2018) tomonidan tadqiq qilingan va muhandislik sohasidagi kreativ yondashuvni kuchaytirish vositasi sifatida qaraladi.

4. Muhandislik kompetentligini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati. Axborot texnologiyalari bugungi kunda muhandislik kompetentligini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Larkin (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, simulatsiya va virtual laboratoriyalar muhandislik fanlarini o'qitishda innovatsion vosita sifatida qaralgan. Autodesk, MATLAB va SolidWorks ka-bi dasturlar esa talabalarining amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [5].


Zamonaviy pedagogikada muhandislik sohasi talabalarida faoliyat sohalari uchun keltirilgan umumiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan parallel ravishda muhandislik kompetentligining tarkibiy komponentlarini rivojlantirish hozirgi zamonning eng muhim talablaridan biridir. Ta'limning innovatsion metodlarini qo'llash talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, imkoni boricha, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini-o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Muhandislik o'yini – bu muhandislik muammolarini hal qilish usullarini takrorlaydigan, muhandislik faoliyatiga taqlid qiladigan, ishlab chiqarish munosabatlari tizimini modellashtiradigan va bo'lajak mutaxassislarining innovatsion salohiyatini shakllantirishning pedagogik vositasi bo'lgan professional yo'naltirilgan o'yin turi. Muhandislik o'yinini o'tkazish bu ishtirokchilar tomonidan kasbiy tajribani o'zlashtirish,

muhandislik mahoratini egallash, muhandislik muammolarini hal qilish va kasbiy mahoratni rivojlantirish maqsadida muhandislik faoliyatining shartli vaziyatlarini taqsimlashdir [6].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Muhandislik o'yini murakkab tushuncha bo'lib, didaktik, rolli va ish o'yinlarni o'z ichiga oladi. Talabalar kasbiy kompetensiyasini takomillashishiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlar, talabalarning muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun talabalarni loyihalash faoliyatiga jalb qilishning muhimligi asoslab berildi [6].


Muhandislik o'yinlari muayyan belgilarga ega bo'lib, quyidagilar asosiy xos belgilar sanaladi (1-rasm):



1-rasm. Muhandislik o'yini metodlarining asosiy belgilari.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'y-lantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish [7].

Odatda o'yini metodlariga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi. Bular: *individual, juftlik, guruh, jamoa bilan ishlash*. O'yinli metodlarini qo'llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Muhandislik o'yin metodlarining imkoniyatlari.

Muhandislik o'yinlari muayyan belgilarga ega bo'lib, quyidagilar ta'lim jarayoniga xos asosiy belgilar sanaladi:

- ko'p fikrlilik;
- fikrlashga asoslangan faoliyat;
- tanlash imkoniyatining mavjudligi;
- g'oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi);

- suhbat (dialog);
- muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Muhandislik o‘yinlari asosida talabalarni muhandislik kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Quyida biz talabalarni muhandislik kompetentligi rivojlantirishga qaratilgan bir nechta muhandislik o‘yin metodlariga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘xshatishli modellashtirish metodi. Texnika oliy ta‘lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda murakkab ishlab chiqarish vaziyatlarini ifodalash, odatda, qiyin bo‘ladi va haqiqiy sharoitlarda eksperimentlar o‘tkazish katta moddiy harajat va vaqt talab qiladi.

Model – bu tizimdagi real ishlab chiqarish yoki bozor jarayonlari o‘zaro aloqalarini aks ettirish (ifodalash, tavsiflash) ning soddalashgan shakli bo‘lib, butun tizimning holatiga ya‘ni maqsad ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillar va tashkil etuvchi elementlarning ta‘sirini urganish, baholash, bashorat qilish imkonini beradi. Modellar fizik, matematik, mantiqiy, imitatsion va hokazo bo‘lishi mumkin [8].

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Kreativ yondashuv asosida talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta‘lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, muhandislik ta‘limida innovatsion metodlardan foydalanish talabalar bilim darajasini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va real muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Muhandislik ta‘limi sohasida kreativ yondashuvning ahamiyati shundaki, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribani ham o‘z ichiga olgan ta‘lim tizimini shakllantirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan, raqamli simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va loyiha asosidagi ta‘lim metodlari muhandislik kompetentligini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ yondashuv asosida muhandislik ta‘limining samaradorligini oshirish uchun o‘quv dasturlariga problema asoslangan ta‘lim (PBL), loyihaviy ta‘lim (PjBL) hamda STEAM konsepsiyasini keng joriy etish zarur. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish va talabalarning mustaqil tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish muhim strategik yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim. Shunday qilib, kreativ yondashuv asosida muhandislik kompetentligini rivojlantirish metodikasi muhandislik sohasidagi kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishga, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlashga va global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi“ to‘g‘risidagi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni.
- (2). Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta‘limda axborot texnologiyalari. Darslik, T., “Adabiyot uchqunlari”, 2019.
- (3). Байденко В.И. Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход. М., Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2009, с. 482–492.
- (4). Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. М., «Народное образование», 2007, № 2, с. 54–55.
- (5). Пригожин И. Введение в термодинамику необратимых процессов. Ижевск, НИТС «Регуляторная и хаотическая динамика», 2001, с. 160.
- (6). Николис Г., Пригожин И. Самоорганизация в неравновесных системах. М., “Мир”, 1979, с. 512.
- (7). Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/55>.
- (8). Ismoilov D.M. <http://www.idpublications.org/wpcontent/uploads/2020/06/Full-Paper.METHODS-OF-SCIENTIFIC KNOWLEDGE-AND-RESEARCH-IN-THE CONTENT OF SECONDARY EDUCATION.pdf>.

Nekboeva Madina Olimjon qizi (Buxoro viloyati Peshku tuman 46-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi)

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati, yoshlar harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyaning muhim jihatlari, ta‘limda harbiy-vatanparvarlik ruhini oshirishdagi texnologiyalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, harbiy, konsepsiya, ta‘lim, tarbiya, O‘zbekiston Respublikasi, globallashuv, ma‘naviy tahdidlar.

ТЕНДЕНЦИИ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые аспекты воспитания молодежи в духе военного патриотизма. В статье анализируется сущность военного патриотического воспитания, важнейшие элементы концепции воспитания молодежи в духе военного патриотизма, а также технологии повышения патриотического духа в образовании.

Ключевые слова: патриотизм, военный, концепция, образование, воспитание, Республика Узбекистан, глобализация, духовные угрозы.

TENDENCIES OF EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Annotation. This article examines certain aspects of educating youth in the spirit of military patriotism. The article analyzes the essence of military patriotic education, the key aspects of the concept of educating youth in the spirit of military patriotism, and the technologies for enhancing military patriotic spirit in education.

Keywords: patriotism, military, concept, education, upbringing, Republic of Uzbekistan, globalization, spiritual threats.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida yurtning tinchligi va osoyishtaligiga bo'lgan har qanday tahdidlarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Bosh Qo'mondon Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ushbu fikrlarni quyidagicha ta'kidlaydi: "Bir fikrni hech qachon unutmasligimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurol-yarog'lar bilan ta'minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin" [1]. Shunga ko'ra, ayni paytdagi vazifalarni amalga oshirishda so'nggi yillarda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari"gi 267-qarorining qabul qilinishi yana bir yordamchi huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda (2).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda vatanparvarlik mavzusida muayyan darajada tadqiqot ishlari olib borildi: ommabop kitob va risolalar, ilmiy va o'quv uslubiy qo'llanmalar chop etildi. R.Y. Qurbonovning «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning ornini», Kalkanov E.T. «Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari, S.Astanova, I.Y. Inoyatov, M.X. Abilovning izlanishlari ham ilmiy e'tiborga molikdir. Vatanparvarlik masalasining ham ijtimoiy ham siyosiy nuqtayi nazardan o'rgangan olimlar ko'pdir. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida ko'pgina tadqiqotchilar bu mavzu doirasida izlanishlar olib bormoqdalar. Ushbu maqolada o'rganilgan mavzu doirasidagi iqtiboslardan foydalanildi. Umuman olganda, vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya'ni, bizning zamonamizda ham o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanib kelmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash omillari muhokama qilinadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi tahlil qilindi va hozirgi kun dolzarb masalalari bilan solishtirildi. Shuningdek, bu borada jaddidlar tomonidan tarbiya va vatanparvarlik borasidagi yondashuvlari o'rganildi

Tahlil va natijalar. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi – mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi [3].

Shuningdek ushbu konsepsiyada quyidagilar asosiy vazifa sifatida belgilangani muhimdir. Jumladan:

*Birinchi*dan, yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish.

*Ikkinchi*dan, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish.

*Uchinchi*dan, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash.

*To'rtinchi*dan, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

*Beshinchi*dan, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash.

*Oltinchi*dan, O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish [4].

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari, asosan, to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3–7 yoshdagilar) atrofidagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda (7–16 yoshdagi bolalar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, harbiy xizmatga va ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarishga bo'lgan havasini oshirish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, yoshlarning jismonan sog'lom, kuchli va irodali ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga davat etiladi.

Uchinchi bosqich (16–18 yoshdagi o'smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi.

To'rtinchi bosqich (18–30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi [5]. Mazkur Konsepsiya yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Konsepsiyaning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, Vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim va professional malakaga, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini beradi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni tarixiy, ijtimoiy va pedagogik omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, jadid mutafakkirlarining qarashlari ushbu jarayonda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jadidchilik harakati vakillari o'z davrida millatni ilm-ma'rifat bilan yuksaltirish, mustamlakachilik asoratidan xalos etish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edilar. Ularning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Jadid mutafakkirlarining vatanparvarlik tarbiyasiga oid g'oyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda muhokama etilishi mumkin. Jadidchilik va milliy ong shakllanishi Jadidlar milliy ong va o'zlikni anglashni mustahkamlash orqali vatanparvar yoshlarni tarbiyalash g'oyasini ilgari surganlar. Behbudiy, Avloniy, Fitrat va boshqa mutafak-

kirlar yosh avlodni bilim olishga da'vat etib, ular mustamlakachilik zulmiga qarshi ongli tarzda kurashishi lozimligini ta'kidlaganlar [6]. Bugungi kunda ham ta'lim tizimida milliy ongni mustahkamlash va yoshlarni o'z milliy qadriyatlariga sodiq bo'lishga undash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Taniqli jadid ma'rifatparvari, birinchi o'zbek pedagogi Abdulla Avloniyning tarbiyaga bergan ta'rifi jadidchilik faoliyatida tarbiya masalalari nechog'liq yuksak o'rin tutganidan dalolat beradi: "Alhosil tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Tarbiya masalasi bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi. Jadidchilar orasida A. Avloniy o'z faoliyati davomida tarbiya masalariga juda keng o'rin ajratadi. Avloniy o'zi yaratgan asarlarda ta'lim bilan bir qatorda, tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari aynan tarbiya masalariga bag'ishlangan. A. Avloniy tarbiya doirasini keng ma'noda tushunadi, uni faqat axloq bilan chegaralab qo'ymaydi, balki tarbiya vatanga sadoqat, el-yurtga hurmat kabi insoniy fazilatni ham o'zida mujassamlashtiradi, degan g'oyani ilgari suradi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi va uning ahamiyati haqida so'z yuritadi.

Fitrat bolalar tarbiyani o'zi yashayotga atrof-muhit va atrofidagi bolalardan olishlarini ta'kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazishini isbotlab beradi. Fitrat o'zining asarida: "Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi", deya yozadi [7].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi aniq rejalarni amalga oshirishda, ta'limni eng quyi pog'onalaridan boshlanishi muhimdir. Zero, kelajakka yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har bir shaxs uchun asosiy vazifa bo'lmog'i lozim. Bu borada ta'limda o'tmish va kelajakni birga bog'lash eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. "Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir". <https://www.uzbekembassy.in/qurolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-va-taraqqiyotining-mustahkam-kafolatidir/?lang=uz>.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/-6518238?ONDATE=16.01.2024>
- (3). "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-3307879>.
- (4). Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-3571158>.
- (5). Mahmudov R.M., Akbarov L.I. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi amalda. Pedagogical international research journal. Vol. 1, Issue 1, January-2022, p. 230.
- (6). Rizayev N.S. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jadidchilik g'oyalarining ahamiyati. Pedagogical social, scientific journal. Vol. 56, Issue 2, 2024, p. 39.
- (7). Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 2018, 31-bet.
- (8). Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2020, 112-bet.

Rajapova Kumush Masharipovna (Qaraqalpoq davlat universiteti dotsenti)

ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA MAQOL VA MATALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish texnologiyalari haqida gap ketadi. Shuning bilan birga, dars jarayonida maqol va matallar ustida ish olib borishda amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan hamda o'quvchilarning nutqini o'stirishda maqol va matallarning ahamiyati haqida ham fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada xalq og'zaki ijodi namunalariining o'quvchi tarbiyasida tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: barqaror birikma, maqol, matal, ibora, turg'un birikma, tasviriy ifoda, shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, jarangsizlanish, fonetik hodisalar.

**Раджапова Кумуш Машариповна (доцент Каракалпакского государственного университета)
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА**

Аннотация. В данной статье рассматриваются технологии использования образцов устного народного творчества на уроках родного языка. Также представлена информация о практической и творческой работе, проводимой при работе над пословицами и поговорками в процессе урока. Также были высказаны мнения о важности пословиц и поговорок в развитии речи учащихся. В статье также уделяется особое внимание роли образцов устного народного творчества в воспитании учащихся.

Ключевые слова: устойчивое сочетание, пословица, поговорка, выражение, устойчивое сочетание, описательное выражение, омонимы, синонимы, глухота, фонетические явления.

Rajapova Kumush Masharipovna (Karakalpak State University Doctor of pedagogic sciences, Associate professor)

USE OF PROVERBS AND SAYINGS IN NATIVE LANGUAGE CLASSES

Annotation. This article discusses the technologies of using examples of oral folk art in native language lessons. At the same time, information is provided on practical and creative work carried out during the lesson on proverbs and sayings. Opinions are also expressed about the importance of proverbs and sayings in the development of students' speech. The article also pays special attention to the role of examples of oral folk art in the upbringing of students.

Keywords: fixed compound, proverb, saying, idiom, fixed compound, figurative expression, homonyms, synonyms, voicelessness, phonetic phenomena.

Kirish (Introduction). Ona tili ta'limini o'rganishdan asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san'atidan xabardor, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini mukammal egallagan, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Chunki yoshlar ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiya olsagina, har jihatdan barkamol, erkin shaxs bo'lib rivojlana oladi.

Bola o'z ona tilini o'qib o'rganib olgandagina, uning zehni, aqli, fikrlash qobiliyati, ongi va ma'naviy-axloqiy darajasi oshadi. Ayniqsa, o'zbek xalqining tarixida xalq yaratgan madaniy-tarixiy boyliklaridan hamda bugungi kundagi mustaqil elimizning erishayotgan yutuqlaridan xabardor bo'ladi. Boshqa fanlar asosini chuqur o'zlashtirishga dadil qadam tashlaydi. Ana shuning uchun ham o'qituvchi, birinchi navbatda, o'quvchilarning o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatini uyg'otishi lozim. Chunki ona tiliga bo'lgan muhabbat Vatanga, xalqqa bo'lgan muhabbat bilan chambarchas bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ona tili darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish nutqiy ko'nikma hosil qiluvchi va bolani tarbiyalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni ana shunday mashqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday mutaxassislar tayyorlashda, avvalo, mashq nima ekanini, uning boshqa o'quv topshiriqlaridan farqi qanday ekanini bilish zarur. Bu borada pedagogika sohasida O.Roziqov, I.Davronov kabi olimlar muayyan fikrlar bildirgan bo'lsa, aynan ona tili ta'limi bilan bog'liq holda G'.Hamroyev bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

"Pedagogika ensiklopediyasi"da mashqqa berilgan ta'rifning ancha takomillashgani va ta'lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko'rish mumkin: Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash. Masalan, o'qish, yozish. Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi [1].

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, mashq – ko'nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa egallangan ko'nikmalarni sinash vazifasini bajaradi. U yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o'quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga ham o'rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham "Ona tili" darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma'lumotlar, ya'ni, grammatik qoidalar o'quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta'lim mazmunida o'quvchi egallashi ko'zda tutilgan ko'nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o'rinda ko'proq o'quvchi bilimni boyitishga xizmat qiladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning obyekt sifatida ona tili darslarida amaliy jihatdan bajariladigan og'zaki va yozma shakldagi mashqlar olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq Respublikamizda xalqimizning milliy qadriyatlarini, madaniyati, ma'naviyati hamda til madaniyatiga katta e'tibor qaratila boshladi. Mana shuning natijasida uzoq yillar davomida saqlanib, bizga meros bo'lib qolgan xalqimizning qadriyatlarini va madaniyatimizning tiklanishiga ham erishildi. Shu jumladan, xalq og'zaki ijodining noyob

namunalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki xalq og'zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda bitmas-tuganmas xazina bo'lib, uning ahamiyati benihoya kattadir. O'zbek xalqining bolalarni tarbiyalash sohasidagi g'oyalari, tajribalari, usul va choralari xalq pedagogikasida to'la-to'kis o'z ifodasini topgandir. Ertak, maqol, matal, dostonlar vositasida bolalarni o'z eliga, millatiga, ona diyoriga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridir. Ayniqsa, maqol va matallarning bola tarbiyasida tutgan o'rni benihoya kattadir. Chunki maqol va matallar xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma'naviy boyligi, durdonalaridir. Xalq maqollarining matni bilan tanishar ekanmiz, xalqimiz el farzandlarining bir-biriga hamkor, halol, pok bo'lishi bilan birga mard, vatanparvar, ilmni sevuvchi shaxs darajasiga ko'tarilishini ham xohlaganligiga ishonamiz.

Maqollar va matallar xalq og'zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan va eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchlidir.

Xalq maqol va matallari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafasatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari hamda maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Ularda xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari to'la namoyon bo'lgan. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy, publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda.

Maqol va matallar uzoq o'tmishda bo'lgani kabi, bugungi kunda ham yosh avlodni ajdodlar havas qilgan barkamol inson darajasiga yetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridandir. Tilshunoslikning barcha sohalarini o'rgatish jarayonida maqol va matallardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, fonetika bo'yicha olib boriladigan darslarda, xususan, 5-sinfda quyidagi mashqlar ustida ishlash mumkin:

Mashq. Maqollarni o'qing. Xato yozilgan so'zlarni topib to'g'irlang va yod oling. Qiynalgan o'rinlarda imlo lug'atidan foydalaning.

Ilm o'Ichovi – aql,

Zehn o'Ichovi – naql.

Kitob ko'rmagan kala –

Giyoh unmagan dala.

Bilmaganini so'rab o'rgangan olim,

Orlanbp so'ramagan o'ziga zolim.

O'quvchilar bu mashqni bajarish jarayonida maqollar tarkibida xato yozilgan quyidagi so'zlarni aniqlaydilar: *ilim, aqil, zehin, kitop, kala, giyox dala, so'rap, orlanip*. Mana shu so'zlar tarkibida qanday xatoliklar ketganliklarini aniqlash va xatosining o'rniga to'g'ri variantini qo'yib chiqadilar. Yuqoridagi kabi mashqlar o'quvchilarni o'ylashga majbur qiladi, ularning topqirligini oshiradi. Shuning bilan birga og'zaki va yozma nutqining o'sishiga yordam beradi.

Mashq. Maqollarning davomini keltiring va ajratib ko'rsatilgan harflar boshqalaridan qanday farq qilishni tushuntiring.

Ish ishtaha ochar...

Mehnat. Mehnatning tagi ...

Uchishga qanot kerak,

O'qishga...

Mashq. Quyidagi matnni yozib oling, undagi undosh harflar talaffuzda qaysi nutq a'zolari yozdami-da hosil bo'lganini bayon qiling.

XI asrda yashagan bobomiz Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida “Tirishqoqning labi yog'liq – erinchoqning boshi qonlik”, “Yoshlikda tirishib harakat qilgan odam, katta bo'lgach, sevinadi”, “Baxt belgisi ilmdir”, “Odobning boshi til” kabi ko'plab xalq maqollari o'rin olgan.

Mashq. Maqollarni ko'chiring. So'zlar tarkibida kelgan unli tovushlarga tavsif bering. Ulardagi g'oya haqida bahslashing.

1. Aql ko'pga yetkazadi, hunar – ko'kka. 2. O'qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi. 3. Yomonlikning oxiri – voy. 4. Mehnatda sinalgan – elda aziz. 5. So'z doriga o'xshaydi – ortiqchasi zarar keltiradi.

Mana shu mashq ustida ishlash jarayonida maqollarda ifoda etilgan mazmun ustida o'quvchilar bilan ko'proq bahs olib borilsa yaxshi natija beradi.

Mashq. Maqollarni o'qib, yod oling. Zid ma'noli so'zlarni izohlang. Ulardan nutqingizda foydalan-

ganmisiz?

1. *Kattaga salom ber, kichikka – kalom.* 2. *Yaxshilik nur keltirur, yomonlik – zulmat.* 3. *Yomonni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil!* 4. *Ko‘p bilgan oz so‘zlar, oz so‘zlasa ham, soz so‘zlar.*

Bu mashq tarkibida keltirilgan xalq maqollarida zid ma’noli so‘zlar qatnashgan. O‘quvchilar mana shu so‘zlarni aniqlaydilar va har bir maqolning ma’nosini izohlab beradilar. Qo‘shimcha tarzda, uyga vazifa sifatida shu maqollarni yod olishni ham topshirish mumkin. Quyidagi mashqdan esa «Asos va qo‘shimchalar» mavzusini o‘rgatish jarayonida foydalanish mumkin:

Mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring. Qo‘shimchalarning so‘zga qanday ma’no qo‘shayotganini ayting. Ulardagi g‘oya haqida bahslashing.

1. *To‘g‘ri... bilan xiyonat, yolg‘on... bilan diyonat chiqisha olmay...*

2. *Baxt...lik... belgisi nodonlik... . 3. Qo‘rq... do‘st yovuz dushman... yomon.*

4. *Yalqovlik muhtojlik eshig...dir.*

(-lik, -di, -chilik, -oq, -dan, -siz, -ning, -i, -dir)

Quyidagi mashqda chuqur mazmunga ega bo‘lgan bir qancha qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlarga mansub maqollar keltirilgan:

Mashq. Maqollarni ifodali o‘qing. So‘zlardagi fonetik hodisalarni aniqlang. *Orqada turgan do‘stdan oldinda turgan dushman yaxshi (Gruzin maqoli).* *Mehnat hayot chirog‘iga yog‘ quyadi, tafakkur esa uni yoritadi (Ingliz maqoli).* *Nodon aytur: g‘olib chiqdim, dono aytur: yo‘l berdim (Tatar maqoli).* *Dono olg‘a boraturib, orqaga qarab qo‘yadi (Pushtun maqoli).* *Aqlli xalqqa intilsa, nodon o‘z qarindosh-urug‘lariga intiladi (Qirg‘iz maqoli).* *Do‘stlik shishaga monand, sinsa – ulay olmaysan (Rus maqoli).* *Kishilarga muhabbat – eng yaxshi davlat (Arab maqoli).* *Yakkani bo‘ri yer (Qoraqalpoq maqoli).*

Yuqoridagi mashqni bajarish orqali o‘quvchilar ham imlo qoidalarini o‘zlashtiradilar, ham ularda boshqa xalqlarning adabiyotiga va xalq og‘zaki ijodiyotiga bo‘lgan qiziqish ortadi. Bu mashqlarni o‘quvchilarga bajartirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitishdir. Bunday mashqlar ustida boshqa sinflarda ham ish olib boorish mumkin. Masalan, 6-sinfda quyidagi mashqlar ustida ishlash mumkin:

Mashq. Maqollarni o‘qing, yod oling. So‘zlarni turkumlarga ajrating.

Mehnat – hayot tomiridagi qon.

Bugungi mehnat – ertaning rohati.

Mehnatni hurmatlasak, u bizni e‘zozlaydi.

Inson mehnat bilan ulug‘lanadi.

Baxtning kaliti mehnatning cho‘ntagida.

Bog‘-u bo‘stonlar – mehnat mahsuli.

Gul uzishdan oldin gulzor yaratadilar.

Mehnatkash odam fisq-fasod gaplarni bilmaydi.

Mehnat odamni hayot qiyinchiliklaridan qutqaradi.

Yalqovlik bor yerda ko‘z bo‘yash bor.

Yumshoq paxta qattiq mehnatning mahsulidir.

Mashaqqatning mahsuli farog‘atdir.

Odam mehnatini yoysa, mehnati uning shuhratini yoyadi.

Odam bahosizdir, ammo uni mehnati baholaydi.

Mehnat – yo‘qchilikning kushandasi.

Bu mashq tarkibida keltirilgan xalq maqollarida tilimizdagi barcha so‘z turkumlari qatnashgan. O‘quvchilar mana shu so‘z turkumlarini guruhlariga ajratadilar va har bir maqolning ma’nosini izohlab beradilar. Qo‘shimcha tarzda uyga vazifa sifatida shu maqollarni yod olishni ham topshirish mumkin.

Bilamizki, o‘quvchilar, ko‘pincha, so‘zlarning talaffusi va yozilishida xatoga yo‘l qo‘yadilar. Mana shunday darslarda quyidagi mashqlar ustida ishlash yaxshi natija beradi:

Mashq. Quyidagi matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o‘qing, so‘zlarning talaffuziga rioya qiling.

Oltin o‘tda bilinadi, odam – mehnatda. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og‘rig‘in ko‘rmassan. Ko‘p ishlovchi ko‘p yashaydi. Mehnat qilsang, ko‘nglingga yorug‘lik tushadi. Odamlar sening chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas, balki qilgan ishingga qarab turib baho beradilar. Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir. Dangasa va yalqovlar hech qachon sa-noqda bo‘lmaydi.

Biz dars jarayonida maqollardan foydalanishda, avvalo, ularning tarbiyaviy jihatiga ko'p e'tibor berishimiz kerak. Quyidagi mashq orqali esa o'quvchilar ham xalq maqollarini bilib oladilar, ham ular qalbida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini yuksaltirishga erishamiz:

Mashq. Gaplarni ko'chiring. Ularning qanday mavzuga oid ekanligini aniqlang. Vatan mavzusidagi fikrlaringizni bayon qiling.

1. *Ayrlimgin elingdan, quvvat ketar belingdan.* 2. *Baliq suv bilan tirik, odam el bilan.* 3. *Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas.* 4. *Vatansiz inson – kuysiz bulbul.* 5. *Dushmanga nafrati bo'lmaganning Vatanga muhabbati bo'lmas.* 6. *Begona tuproq – devona tuproq.* 7. *Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.* 8. *Vatan gadosi – kafan gadosi.* 9. *Vatan uchun o'lmoq ham sharaf.* 10. *Vatangado bo'lguncha, kafangado bo'l.* 11. *Vatandan yiroqlashgan nomusdan o'lar.* 12. *Vatani borning baxti bor, mehnati borning – taxti.*

Maqollarni o'rganish jarayonini qiziqarli qilish uchun turli o'yinlar va musobaqalar ham tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Maqolni to'ldir" yoki "Maqolni top" o'yinlarini quyidagi shaklda tashkil qilish mumkin:

1-topshiriq. Maqollarni davom ettiring.

1. Birni sochsang yerga, ...
2. Bir kun tuz ichgan joyingga ...
3. Bir yigitga ...
4. Ko'z qo'rqqoq...
5. Yetti o'lchab ...
6. Bir soatlik ilm o'rganmoq...
7. Qirq yillik qadr ...
8. Avval o'yla...
9. Mard – o'zar...
10. Bor – boricha...

2-topshiriq. Matnda qatnashgan sonlarni aniqlang va izoh bering.

Maqol va matallarni bunday tartibda o'rgatish orqali o'quvchilarning so'z boyligi oshadi. Nutqning rang-barangligi va jozibadorligi ta'minlanadi. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilarning nutq madaniyati takomillashib boradi. Darsliklarda mavzuga bog'liq holda mashq matnlari ichida juda ko'p maqol va matallar berilgan. O'quvchilar bularni o'qib, o'qilgan asarni axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog'laydilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'qituvchining mahorati, uni dars davomida maqollardan unumli foydalanishida yaqqol bilinadi. O'quvchilar maqollarni yoqtiradilar, shuning uchun ham maqollar bilan berilgan topshiriqlarni jon dildan bajaradilar. O'qituvchi shularni hisobga olib, maqol va matallar bilan bog'liq xilma-xil mashqlar ishlatish orqali o'quvchilarga so'zlarning majoziy ma'nosini, ko'p ma'no ifodalanishini amaliy singdirib borishi lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, maqol va matallarni qo'llash, o'z navbatida, ta'lim va tarbiya jarayonida muhim manba bo'lib hisoblanadi. Xususan, ona tili fani doirasida maqollardan foydalanish bolada vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishda keng yordam beradi.

Xullas, o'quvchilar nutqini boyitishda va ularni har tomonlama barkamol, yetuk inson qilib tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining nodir namunalari katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, xalq maqol va matallari o'qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazzmun va ta'sirchan bo'lganligi uchun ham o'quvchilarning badiiy didini o'stiradi, nutqqa e'tibor bilan qarashga, to'g'ri mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Eng asosiysi, o'quvchini estetik jihatdan tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma, "O'qituvchi", Toshkent, 1995.
- (2). Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, T., "O'qituvchi", 1996.
- (3). Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped. fan. nom-di diss. avtoref., TDPU, T., 2000.
- (4). Hamroyev G'. Ona tili o'qitishning samarali usullari. T., "Bayoz", 2018.
- (5). Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. Toshkent, "Donishmand ziyosi", 2021, 154-bet.
- (6). Rajapova K.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma, T., "Firdavs –Shoh", 2023.

(7). Rajapova K.M. Ona tili darslarida nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi. Metodik qo'llanma, T., "Firdavs –Shoh", 2024.

Sattorova Mohira Aminqulovna (Axborot texnologiyalari va menejment universiteti „Pedagogika“ kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))
BO'LAJAK DEFEKTOLOGLARNI INKLUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI BILAN ISHLASHGA TAYYORLASH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada rivojlanishda nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalashda kasbiy qiyinchiliklar bir qator ijtimoiy va kasbiy-pedagogik omillar, maxsus ta'lim ehtiyojlarining tabiatiga mos ravishda moslashishini ta'minlaydigan maxsus shart-sharoitlarni yaratish zarurligi haqida fikr yuritiladi. Nogironligi bor bolalar uchun inklyuziv ta'limni joriy etish o'qituvchi, defektolog, psixologning kasbiy faoliyati mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi va ularni o'qitish mazmuniga kiritish tavsiya etiladigan o'zgarishlarning mohiyatini oldindan tushunishni talab qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'lim va tarbiya berish, ular uchun imkoniyatlar yaratish, kadrlar tayyorlash sohasida yangi bilimlar bazasini shakllantiradi va bo'lajak o'qituvchilar tomonidan ularni rivojlantirish vositalarini izlash muammosini dolzarblashtirishi haqidagi masalalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** inklyuziv, intellektual, psixologik, defektologik, geterogenlik, integratsiya.*

Сатторова Мохира Аминкуловна (Университет информационных технологий и менеджмента, доцент кафедры педагогики, доктор философии по педагогическим наукам (PhD))

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ ДЕФЕКТОЛОГОВ К РАБОТЕ С УЧАЩИМИСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются профессиональные трудности в обучении и воспитании детей с отклонениями в развитии, ряд социальных и профессионально-педагогических факторов, необходимость создания особых условий, обеспечивающих адекватную адаптацию к характеру специальных образовательных потребностей. Внедрение инклюзивного образования для детей с ОВЗ существенно меняет содержание профессиональной деятельности педагога, дефектолога, психолога, а включение их в содержание обучения требует предварительного понимания сути предлагаемых изменений. Изложены вопросы, по которым результаты современных исследований формируют новую базу знаний в области обучения и воспитания лиц с ограниченными возможностями здоровья, создания для них возможностей, подготовки кадров и актуализируют проблему поиска будущими педагогами средств их развития.*

***Ключевые слова:** инклюзивный, интеллектуальный, психологический, дефектологический, неоднородность, интеграция.*

Sattorova Mokhira Aminqulovna (University of Information Technology and management, associate professor of the Department of Pedagogy, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD))

PREPARING FUTURE DEFECTOLOGISTS TO WORK WITH PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN AN INCLUSIVE EDUCATION SETTING

***Annotation.** This article reflects on the need to create special conditions that ensure that professional difficulties in the education and upbringing of children with developmental disabilities are adapted in accordance with a number of social and professional-pedagogical factors, the nature of special educational needs. The introduction of inclusive education for children with disabilities significantly changes the content of the professional activity of a teacher, defectologist, psychologist, and requires a prior understanding of the essence of the changes that are recommended to include them in the content of training. The results of modern research describe the issues of providing education and training to persons with disabilities, creating opportunities for them, forming a new knowledge base in the field of Personnel Training and pressing the problem of the search for tools for their development by future teachers.*

***Keywords:** inclusive, intelligent, psychological, defectological, heterogeneity, integration.*

Kirish (Introduction). Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMTning ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. UNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limni ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizat-

siyalashga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aqliy rivojlanishda nuqsoni bor o'quvchilar bilan ishlash uchun o'qitish tizimini isloh qilishda umumiy pedagogik va defektologik yondashuvlarni birlashtirish g'oyasining afzalliklari biroz ilmiy tushunishni talab qiladi. Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash, ularning ta'lim sharoitlarini yaxshilash orqali amala oshiriladi. Mutaxassislar o'rtasidagi amaliy hamkorlikning sifati, xususan, inkluziv model doirasida rivojlanayotgan ta'lim amaliyotining zamonaviy shakllari talab qiladigan umumiy va yangi vazifalar bilan birlashtirilgan. Bunday vazifalarga, birinchidan, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash zarurati, ikkinchidan, shu asosda individual ta'lim yo'nalishlarini loyihalash, uchinchidan, bu yo'nalishlarni inkluziv ta'lim maqsadlariga mos keladigan mazmun bilan to'ldirish kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review). Aqliy rivojlanishda nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalashda kasbiy qiyinchiliklar bir qator ijtimoiy va kasbiy-pedagogik omillar tufayli yuzaga keladi. Birinchidan, o'zining geterogenligi va polimorfizmi tufayli ushbu toifadagi bolalar ta'lim muhitini nafaqat ma'lum bir nozologik guruhga mansubligi bilan belgilanadigan, balki ularning maxsus ta'lim ehtiyojlarining tabiatiga mos ravishda moslashishini ta'minlaydigan maxsus shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Ikkinchidan, nogironligi bor bolalar uchun inkluziv ta'limni joriy etish o'qituvchi, defektolog, psixologning kasbiy faoliyati mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi va ularni o'qitish mazmuniga kiritish tavsiya etiladigan o'zgarishlarning mohiyatini oldindan tushunishni talab qiladi. Inkluziv ta'lim sharoitida nogiron mavjud bolalar bilan ishlash uchun kadrlar tayyorlash muammosini samarali o'rganish uchun inkluziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning falsafiy-metodologik aspektlari va strategiyalari tadqiqotchilarning A.Y.Abkovich, S.V.Alyoxina, D.V.Denisova, L.S.Mednikova, N.Xitryuk, I.M. Yakovleva, S.Boot. S.Vayrinen va boshqalar tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning yondashuvlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'lim inkluziyasi sharoitida kasbiy pedagogik faoliyatni o'qituvchilarning OTMda ixtisoslashtirilgan tayyorgarligi davrida olgan kasbiy vazifalari, bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalarini mexanik ravishda umumlashtirish yo'li bilan shakllantirish mumkin emas. O'zgarigan ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchini yangi o'quv amaliyoti talablariga tayyorlashning muhim va murakkab vazifasini hal qilish yo'llarini topishni o'z ichiga oladi, bu nogironligi bor o'quvchilarning turli xilligini va ularni rivojlantirish imkoniyatlarini hisobga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi (research methodology). Shu bilan birga, OTMda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va defektologlarni tayyorlashning amaliyoti kasbiy faoliyatni yangi sharoitlarda amalga oshirish uchun ma'lum o'zgarishlarni talab qiladi. Deklarativ, ammo, haqiqatan ham, nogironligi mavjud o'quvchilarning muammolarini hal qilish o'qituvchining kasbiy va pedagogik faoliyati funksiyalarini mos ravishda kengaytirish va murakkablashtirishga kompleks yondashuvni talab qiladi.

Shunday qilib, inkluziv ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilar va maxsus psixologlar o'rtasidagi samarali hamkorlik zarurati va ularni tayyorlashning an'anaviy formatlari o'rtasida qarama-qarshilik aniqlanadi. Bizning fikrimizcha, uni yengib o'tish aqliy rivojlanishda nuqsoni bor bolani psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga umumiy pedagogik va defektologik yondashuvlarni integratsiyalashuvi asosida, barcha bosqichlarda o'qituvchi va psixolog o'rtasidagi konstruktiv kasbiy hamkorlikning asosi sifatida amalga oshirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati o'rtasidagi aloqaning yetakchi yo'nalishi sifatida integratsiya g'oyasini ishlab chiqish zarurati yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa ularni tayyorlashni isloh qilishni talab qiladi. Keng ma'noda integratsiya deganda biz bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning tabaqalashtirilgan elementlarini yangi sifatga birlashtirishning obyektiv jarayonini tushunamiz, bu "sintez", "assimilatsiya", "interpretatsiya" kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini integratsiyalash jarayonida ichki aloqalarni chuqurlashtirish va rivojlantirish asosida ularning faoliyatining bosqichma-bosqich kirib borishi va bir-birini to'ldirishi mavjud. Shu bilan birga, integratsiya jarayoni, qoida tariqasida, pedagogik ta'sirning ortishi (ko'payishi) bilan birga keladi. O'ziga xos, tor ma'noda integratsiya deganda biz o'qituvchilarning nazariy tayyorgarligi va psixologlar bilan qo'shma amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zaro munosabatlarini tushunamiz, bu, birinchi navbatda, o'quvchilarga psixologik-pedagogik yordamning yaxlit tizimini obyektiv va to'liq tushunish imkonini beradi. Inkluziv ta'lim amaliyotini joriy etish o'qituvchi ishining tabiati, mazmuni va metodik modeliga jiddiy o'zgarishlar kiritadi va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga alohida talablar qo'yadi, ular nafaqat imkoniyatlarni, balki ularni o'zlashtirishning tegishli sifatini ham ta'minlashi kerak.

Bundan tashqari, o'qituvchi aqliy rivojlanishda nuqsoni bor bolaning o'qishdagi qiyinchiliklari va xatti-harakatlarining sabablarini ishonchli baholash uchun amaliyotga yo'naltirilgan bilimga ega bo'lishi va aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etish va ularni amalga oshirish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratishi kerak.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Shunday qilib, integratsiya g'oyasining afzalliklari bolaning muammolarini, ularni hal qilish yo'llarini tushunishda birlikni ta'minlash va inkluziv ta'lim makonidagi subyektlarning (o'quvchilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maxsus psixologlar, defektologlar, ota-onalar, ma'muriyat) ta'lim ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan maqsadlarga erishish bilan belgilanadi. O'qituvchilar va psixologlar uchun asosiy ehtiyojlar – bu boshlang'ich maktab o'quvchisiga hamrohlik qilish jarayonini va aqliy rivojlanishda nuqsoni bor bolalar tomonidan boshlang'ich umumiy ta'lim dasturlari mazmunini to'g'ri o'zlashtirish sifatini ta'minlaydigan kollegial ko'nikmalar kiradi. Pedagogik hamjamiyat tomonidan nogironligii mavjud o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash jarayonida turli xil profildagi mutaxassislar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik zarurligi umumiy e'tirof etilishiga qaramay, bu soha kamdan kam hollarda inkluziv ta'lim amaliyotida haqiqiy va mas'uliyatli harakatlar sohasiga aylanadi. Integratsiya g'oyasini qo'llash imkoniyatlari aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ta'limni individuallashtirish sohasida bo'lajak o'qituvchini kasbiy faoliyat to'g'risida yaxlit g'oyani shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ushbu g'oyani amalga oshirish "Pedagogik ta'lim" va "Maxsus (defektologik) ta'lim" uning formatini o'zgartirishni o'z ichiga oladi, xususan, ta'lim jarayonining yaxlitligini shakllantirish yo'nalishi bo'yicha o'qitishning mazmuni, tamoyillari, metodlari va shakllari. Bunday yaxlitlik talabalarning nazariy tayyorgarligi elementlari va pedagogik amaliyotini tashkil etish elementlarining oddiy to'plami emas, balki kasbiy faoliyatning yangi funksiyalarining paydo bo'lishi va natijada yangi kollegial kompe-tensiyalarning shakllanishi bilan bog'liq. Ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisi o'zining qadriyatli yo'nalishlari tizimiga rioya qilgan holda o'z maqsadlari, pozitsiyalari va manfaatlariga ega bo'lgan holda o'z rolini belgilaydi.

Maxsus ta'lim ehtiyojlarining, o'qituvchilar va maxsus psixologlar tomonidan ularni qondirish usullarining, ta'lim muhitining, ta'lim sharoitlarining xilma-xilligi o'qituvchilar va psixologlarning xilma-xillik sharoitida ishlashi ular uchun obyektiv qiyin vazifadir. Shuni ta'kidlash kerakki, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari maktabning ta'lim maydoniga to'liq jalb qilingan holda, ulardan ta'limning umumiy mazmunini o'zlashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, V.I. Lubovskiy, aqliy rivojlanishda nuqsoni bor maktab o'quvchilarining maxsus ta'lim ehtiyojlarini qondirmasdan turib, uni o'zlashtirish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Bu holat, umuman, ma'lum bir dilemma mavjudligini anglatmaydi, aksincha, shartlarni to'g'ri tashkil qilish bilan bir vaqtning o'zida ikkala maqsadga erishish mumkin. Bu shartlar orasida aqliy rivojlanishda mavjud bo'lgan ikkilamchi og'ishlarni tuzatishga va oldini olishga qaratilgan aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalashda umumiy pedagogik va defektologik yondashuvlarni konstruktiv integratsiya qilish imkoniyatini ko'rib chiqish kerak.

Integratsiya g'oyasining afzalliklari quyidagilardan iborat: aqliy zaifligi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchisining psixologik-ijtimoiy rivojlanishidagi kamchiliklar iyerarxiyasini o'rnatish, o'quv faoliyatida, muloqotda, umuman, xulq-atvorda namoyon bo'ladi. O'qituvchi tomonidan korreksion va rivojlantiruvchi pedagogik vazifalar va ularni bolaning tipologik va individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan sharoitlar to'plamini yaratish asosida hal qilinadi. Kadrlar tayyorlashda umumiy pedagogik va defektologik bilimlarning integratsiyasini ilmiy tushunish muammosi ta'limni individuallashtirish sohasida o'qituvchi va psixolog tomonidan ta'lim muammolarini birgalikda hal qilish vositasi sifatida ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va afzalliklarini asoslashdan iborat.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimida kompetent yondashuv an'anaviy bo'lib, bo'lajak o'qituvchi va psixologlar tomonidan amaliy kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Inkluziv ta'lim sharoitida ushbu vazifalar aniq fanlararo xususiyatga ega bo'lib, bu maktab mutaxassislarining aqliy rivojlanishda nuqsoni bor o'quvchilarni o'qitishni individuallashtirishdagi murakkab psixologik-pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, umumiy pedagogik va defektologik yondashuvlarni birlashtirish g'oyasi bo'lajak o'qituvchilar va psixologlarda aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini inkluziv ta'lim sharoitida o'qitish muammolarini birgalikda hal qilish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish sharti bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Тургенев Ю.С. Инклюзивное образование: теория и практика. Москва, 2019.
- (2). Корнев А.Н. Основы дефектологии: коррекционно-развивающее обучение. Санкт-Петербург, 2020.
- (3). Мамедова С.А. Психолого-педагогические основы работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья. Москва, 2021.
- (4). Турамуратов Ҳ.Ҳ., Қурбонова З.М., Маматмуратов О.К. Инклюзив таълим ва махсус педагогика. Тошкент, 2022; Ismailova Yulduzxon Turayevna. The Content of the Science of Pedagogical Conflict and its Importance in the Educational Process. Spanish Journal of Innovation and Integrity. ISSN: 2792-8268 Volume: 38, Jan-2025 <http://sjii.indexedresearch.org>.
- (5). Xujayarova N.S. Development of Professional Competence of Future Primary School Teachers on the Basis of a Creative Approach – As a Social Pedagogical Problem // Journal Impact Factor Services for International Journals MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970. Impact Factor: 7.525 Volume 23, April 2022, Pages 68–72 <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1188>.
- (6). Xujayarova N.S. The Current State of Professional Competence Development of Future Primary School Teachers on the Basis of a Creative Approach // International Journal on Integrated Education Vol. 05 No. 05 (2022): IJIE SJIF : 6.195, p. 178–183 <https://doi.org/10.31149/ijie.v5i5.3057>
- (7). Xujayarova N.S. Technology for the development of professional competence based on a creative approach. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education USA CONFERENCE February 28th 2023. <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/418/424>.
- (8). Xujayarova N.S. Opportunities for the development of professional competence of future primary school teachers based on a creative approach. In Volume 4, Issue 3 of ResearchJet Journal of Analysis and Inventions (RJAI) March, 2023. ISSN:2776-0960, SJIF (2022): 6.072, Impact Factor (2022): 7.655.

Turgunbayev Riskeldi Musamatovich (Nizomiy nomidagi TDPU, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor), Umaraliyeva Diyora Ulug'bek qizi (Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti)
TALABALARNI TEOREMA VA UNING ISBOTI MATNI BILAN ISHLASHGA O'RGATISHDA O'QUV MASALALAR TIZIMI

Аннотация. Ushbu maqolada o'qituvchining talabani teorema va uni isbotlashga o'rgatishga oid an'anaviy yondashuvdan farqliroq, talabani teorema hamda uning isbotining matni bilan ishlashga o'rgatish masalasi qaraladi. Talabani teorema va uning isboti haqidagi bilimlari mazmuni alohida ajratish va uni talabaga o'rgatib borish zarurati asoslanadi. Talabani faoliyatini tashkillashtirishga xizmat qiladigan o'quv masalalari va undan foydalanishga doir namunalari keltiriladi.

Калит so'zlar: teorema, teoremaning isboti, matn bilan ishlash, o'quv masala.

СИСТЕМА УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ РАБОТЕ С ТЕКСТОМ ТЕОРЕМЫ И ЕЁ ДОКАЗАТЕЛЬСТВОМ

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос обучения студента работе с текстом теоремы и ее доказательства, в отличие от традиционного подхода, когда преподаватель обучает студента самой теореме и ее доказательству. Обосновывается необходимость выделения содержания знаний студента о теореме и ее доказательстве и последовательного обучения этому студента. Приводятся учебные задачи, служащие для организации деятельности студента, и пример их использования.

Ключевые слова: теорема, доказательство теоремы, работа с текстом, учебная задача.

A SYSTEM OF LEARNING TASKS FOR TEACHING STUDENTS TO WORK WITH THEOREM TEXTS AND THEIR PROOFS

Annotation. This article examines the issue of teaching students how to work with the text of theorems and their proofs, in contrast to the traditional approach where the instructor teaches the theorem itself and its proof. The necessity of emphasizing the content of students' knowledge about theorems and their proofs, and systematically teaching this to students, is substantiated. Educational tasks that serve to organize student activities are presented, along with an example of their application.

Keywords: Theorem, proof of theorem, working with text, learning task.

Кирриш. Respublikamizda ta'lim, xususan, matematika ta'limi sohasida olib borilayotgan islohatlar bevosita matematika o'qituvchilarini tayyorlashga ham alohida talablar qoyadi. Bu talablardan biri o'qituvchi o'z o'quvchilarida tadqiqiy, izlanish, ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat. Buning uchun o'qituvchining o'zi tadqiqiy, izlanish va ijodiy faoliyat tajribalariga ega bo'lishi lozim. Bu tajribalar ma'lum sohaga oid axborotlarni qidirish, to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash, foydalanish, uzatish jaraonlari

bilan bog'liq.

Matematika o'qituvchilarini tayyorlash "Matematika", "Amaliy matematika", "Matematika va informatika" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida olib bo'riladi. Bu yo'nalishlarda matematika fanlari bo'yicha o'quv faoliyatini tashkil etish tajribasiga asoslanib, xulosa qilish mumkinki, axborot bilan ishlash ko'nikmasi bo'lajak matematikning ham matematika o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli talabalarni o'qitishda o'quv axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga maxsus ustuvorlik berish lozim.

Matematikadan o'quv axborotlari aksiomalar, tushunchalar va ularning ta'riflari, xossalari, bu tushunchalar orasidagi aloqalar, teoremlar va ularning isbotlari, formulalar, jadvallar, grafiklar, turli qoidalar, algoritmlardan, masalalardan tashkil topgan. Talaba bu axbopotlarning har biri bilan ishlash tajribasini egallash orqali matematik matn bilan ishlash kompetentsiyasini o'zlashtiradi.

Ushbu tadqiqotda birinchi kurs talabalarini teorema va uning isbotini matndan o'rganishga o'rgatish masalasi qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Teoremlar va ularning isbotlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar asosan maktab matematikasi, xususan, geometriyani o'qitishda teoremlarni o'rgatish va ularni masalalar yechishda qo'llash masalalarini o'z ichiga oladi. Odatda, teoremani o'rganish deganda, uni bayonini (formulirovkasi) va isbotlashni o'zlashtirish, so'ngra bu teoremani masalalar yechishda qo'llash tushuniladi. Masalan, G.I.Saranshev [5] o'z ishida isbotlarni o'rgatish deganda o'quvchilarga tayyor isbotlarni tahlil qilish, ularni takrorlash, mustaqil ravishda faktlarni kashf qilish, isbotlarni izlash va qurish, shuningdek taklif qilingan isbotlarni rad etishga o'rgatish, A.A.Stolyar esa "isbotni o'rgatish deganda biz tayyor isbotlarni qayta ishlab chiqish va yodlash emas, balki isbotni izlash, kashf qilish va qurishdan iborat fikrlash jarayonlarini o'rgatishni tushunamiz", deb ifodalagan (7).

I.Lakatos [4] o'z tadqiqotlarida isbotni tushunishning muhimligini ta'kidlaydi. U tushunishning quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatadi: 1) asoslashni tushunish va uni takrorlash; 2) teorema isbotini mustaqil tahlil qilish va uni takrorlash; 3) teoremani mustaqil isbotlash; 4) tayyor isbotlarni rad etish.

Tadqiqotchilar [1,5,6,7] maktab o'quvchilarini darslikda berilgan teoremani isbotlashga o'rgatish masalasi juda murakkab ekanligini ta'kidlashadi. Bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar maktab teoremlarining isbotlarini o'rganishni tayyor isbotning tahlili deb hisoblashsa, boshqalari, aksincha, maktab o'quvchilariga darslikda berilgan teoremaning isbotini mustaqil ravishda izlashni taklif qilishadi. Ammo bu yondashuv vakillari ta'lim oluvchilarda isbotni mustaqil izlash komponentlarini shakllantirish zarurligini ta'kidlashadi.

Ta'limga faoliyatli yo'ndashuv asosida matematikani o'qitish texnologiyasi doirasida O.B.Yepisheva [2] tomonidan teorema va uning isbotini o'rganish ketma-ketligi, bunda foydalanosh mumkin bo'lgan umumlashgan o'quv faoliyat usullari ishlab chiqilgan. Yuqorida aytilgan tadqiqotlarda maktab darsligida berilgan teoremlar va ularning isbotlarini o'quvchilarga o'rgatish masalalari yetarlicha qaralgan, lekin bu tadqiqotlarda umumiy holda maktab bitiruvchisi teorema va uning isboti haqida qanday bilimlarga ega bo'lishi lozimligi aniq aytilgan emas.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida birinchi kurs talabalarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, talabalarining aksariyati teorema nima ekanini biladi, lekin teorema bilan bog'liq tushunchalar va harakatlarni bilmaydi, isbot nima ekanini tushunsa ham, uning turlari haqida aniq fikrga ega emas. Shuningdek, talabalarining aksariyati teoremaning sharti va xulosasini ajrata olmaydi, isbotlash, masalalarni yechish yo'llarini asoslay olmaydi. Bunday holat, o'z navbatida, matematika fanlarini o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida aytilgan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida talabalarni o'quv axboroti bilan ishlash usullariga, xususan teorema va uning isboti matni bilan ishlash usullariga o'rgatib borish lozim.

Natijalar. Talabalarni teorema va uning isbotini matndan o'rganishga o'rgatish uchun, dastlab, talaba teorema va uning isboti haqida qanday bilimlarga ega bo'lishi kerak degan savolga javob berishimiz kerak. Yuqoridagi ishlar va matematika o'qitish metodikasi bo'yicha [2,3] o'quv adabiyotlarning tahlili 1-kurs talabalarida teorema va uning isboti haqida quyidagi bilim va ko'nikmalarni ajratish imkonini beradi: bilimlar – teorema tushunchasi, teoremaning tushuntiruvchi qismi, teoremaning sharti, teoremaning xulosasi, teskari teorema, qarama-qarshi teorema, qarama-qarshiga teskari teorema, zaruriy, yetarli, zaruriy va yetarli shartlar, teoremlarning turlari, teoremaning isboti, isbot turlari, isbot metodlari; ko'nikmalar – teoremaning tushuntiruvchi qismini, shartini, teoremaning xulosasini ajratish, berilgan teoremaga teskari, qarama-qarshi, unga teskari teoremlarni tuzish, zaruriy, yetarli, zaruriy va yetarli shartlarga tekshirish, teoremani simvolik (mantiq elementlari) yordamida yozish, teoremani qayta bayon qilish, teorema isbotini qadamlarga ajratish, har biq qadamni asoslash, teorema isbotini batafsil yozish, zarurat bo'lsa, teorema uchun

chizma chizish, teorema isbotini sxemalar yordamida tasvirlash. Bu bilim va ko'nikmalar, avval ta'kidlaganimizdek, matematika fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur, ikkinchidan, bu bilim va ko'nikmalar bo'lg'usi kasbiy (matematik, matematika o'qituvchisi) faoliyati samaradorligini belgilaydi.

Yuqoridagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun talabalarning teorema va uning isboti matni bilan o'quv faoliyatini tashkillashtirishda foydalaniladigan o'quv masalalari zarur bo'ladi. Quyida umumlashgan o'quv masalalarini keltiramiz:

1. Teorema bayonini o'qing, avval, shunga o'xshash teoremani o'rganganmisiz, eslang.
 2. Teoremaning tushuntirish qismi, sharti va xulosasini ajrating.
 3. Teoremani, zarurat bo'lsa, "Agar ...bo'lsa, u holda ...bo'ladi" shaklida qayta bayon qiling.
 4. Teoremada nechta shart, nechta xulosa bor ekanini aniqlang.
 5. Teoremaning sodda yoki murakkab ekanligini aniqlang.
 6. Zarurat bo'lsa, teoreмага mos chizma chizing.
 7. Teorema shartida qatnashayotgan tushunchalarni yozing, bu tushunchalarni eslang (ta'rifi, misollar, xossalarni).
 8. Teorema xulosasida qatnashayotgan tushunchalarni yozing, bu tushunchalarni eslang (ta'rifi, misollar, xossalarni).
 9. Teoremani simvolik ko'rinishda yozing.
 10. Teorema isbotini o'qing. Teoremani isbotlash metodi sizga tanishmi?
 11. Isbotda teorema sharti va xulosasidagi tushunchalar ta'riflari va xossalari foydalanilgan joylarini ajrating.
 12. Teorema isbotini qadamlarga ajrating.
 13. Har bir qadamdagi kichik tasdiqlar asoslanganmi? Matnda "ravshanki", "o'z-o'zidan ravshan", "ko'rinib turibdi", "ma'lumki" kabi so'z va iboralar qatnashgan jummalarga e'tibor bering. Zarurat bo'lsa, savollar qo'ying. Bu savollarga javob toping.
 14. Teorema to'liq isbotlanganmi (ikkinchi qismi yoki ikkinchi hol "shunga o'xshash isbotlanadi" degan iboralar qatnashgan jummalarga e'tibor bering.
 15. Teorema isbotini sxematik shaklda ifodalang.
 16. Teorema isbotini batavsil (to'liq) yozing.
 17. Matnda teorema shartlarining muhimligini ko'rsatuvchi misollar mavjudmi? Mavjud bo'lsa, shunga o'xshash o'z misolingizni tuzing. Mavjud bo'lmasa, misol tuzing.
 18. Berilgan teoreмага teskari, qarama-qarshi, qarama-qarshiga teskari teoremalarni ifodalang. Ular rostmi?
 19. Matnda teorema shartlarining zaruriy, yetarli, zaruriy va yetarlili ekanligi haqida ma'lumotlar bormi? Bor bo'lsa, bu shartlarning zaruriy, yetarli yoki zaruriy va yetarli ekani qanday aniqlanganini tushuntiring.
 20. Teoremani "zarur", "yetarli", "zarur va yetarli" iboralaridan foydalanib, qayta shakllantiring.
 21. Teoremani boshqa usulda isbotlash mumkinligini o'rganing.
 22. Matnda teorema natijalari bormi? Teoremadan qanday natijalar olish mumkin? Ularni bayon qiling va asoslang.
 23. Matnda teoremaning ahamiyati haqida axborot, tatbiqlariga misollar bormi? Teoremani mohiyatini ayting, tatbiqlariga o'z misollaringizni keltiring.
 24. Matnda teoremani umumlashtirish, konkretlashtirish imkoniyatlari qaralganmi? Teoremani umumlashtirish, konkretlashtirish imkoniyatlarini o'rganing.
 25. Matnda yana qanday qo'shimcha ma'lumotlar mavjud?
- Yuqorida keltirilgan o'quv masalalarini tasdiq, xossalar va ularning isbotlarini o'rganishda osondan murakkabga tamoyiliga rioya qilgan holda foydalanish maqsadga muvofiq.
- Shuni ta'kidlash joizki, biror teorema va uning isboti matnini o'qib o'rganishda yuqorida keltirilgan o'quv masalalarining barchasini bir vaqtda qarash shart emas, o'quv masalalarni tanlash teorema va uning isbotiga bo'g'liq bo'ladi? Shuningdek, o'quv masalalarni muayyan teorema uchun yana ham aniqlashtirish mumkin
- Misol sifatida matematik analiz darsligidagi [8] yaqinlashuvchi ketma-ketlikning chegaralanganligi haqidagi teorema va isboti matnini qaraylik (1-rasm).

2.25-teorema. Yaqinlashuvchi ketma-ketlik chegaralangan bo'ladi.

Isbot. $\diamond \lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$ bo'lsin. Yaqinlashuvchi ketma-ketlik ta'rifiga ko'ra, $\varepsilon = 1$ uchun, shunday n_0 nomer topilib, barcha $n > n_0$ lar uchun $a - 1 < x_n < a + 1$ bo'ladi. Agar $M = \max(|x_1|, |x_2|, \dots, |x_{n_0}|, |a - 1|, |a + 1|)$ deb olsak, u holda ketma-ketlikning barcha hadlari uchun $|x_n| < M$ bo'ladi. Bundan esa berilgan ketma-ketlikning chegaralangan bo'lishi kelib chiqadi. \blacklozenge

Lekin 2.25-teoremaga teskari teorema umuman to'g'ri emas, ya'ni har qanday chegaralangan ketma-ketlik limitga ega bo'lavermaydi. Masalan, 2.23-misoldagi umumiy hadi $x_n = (-1)^{n+1}$ bo'lgan ketma-ketlik chegaralangan, lekin uzoqlashuvchi.

2.26-misol. Teoremadan foydalanib, umumiy hadi $x_n = \frac{n}{n+2}$ bo'lgan ketma-ketlikning chegaralangan ekanligini isbotlang.

Yechish. Avvalgi punktga (2.21-misol) bu ketma-ketlikning yaqinlashuvchi ekanligi ko'rsatilgan edi. Demak, yuqorida isbotlangan teoremadan uning chegaralanganligi kelib chiqadi.

2.25-teoremadan quyidagi natija kelib chiqadi:

2.27-natija. Chegaralanmagan ketma-ketlik uzoqlashuvchi bo'ladi.

2.28-misol. Umumiy hadi $x_n = \frac{((-1)^n + 1)}{2} n$ bo'lgan ketma-ketlikning uzoqlashuvchi ekanligini isbotlang.

1-rasm. Teorema va uning isbotiga doir matn [8;35-b.].

Talabalarining yuqoridagi matn bilan ishlashini tashkillashtirishda 23–25 oquv masalalarining o'rniga teoremaning mohiyatini ochib berish maqsadida quyidagi masaladan foydalanish mumkin.

Agar C – yaqinlashuvchi ketma-ketliklar to'plami, B – chegaralangan ketma-ketliklar to'plami bo'lsa, ular orasidagi munosabatni Eyler-Venn diagrammasi yordamida ifodalang. Qarama-qarshiga teskari teorema uchun Eyler-Venn diagrammasi qanday bo'ladi?

Xulosa. Ushbu maqolada birinchi kurs talabalariga teoremlar va ularning isbotlarini matndan o'rganishni o'rgatish zarurati asoslandi. O'quv masalalari tizimi yordamida talabalarni teorema bilan bog'liq bo'lgan matnlarini o'rganish jarayoni aniq misollarda namoyon qilindi.

Maqolada taklif etilgan go'yalardan bo'lg'usi matematiklarning, matematika o'qituvchilarining kva-zikasbiy faoliyatini (kontekstli yondashuv) tashkillashtirish masalalarini o'rganish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Далингер В.А. Методика обучения учащихся доказательству математических предложений. М., "Просвещение", 2006, 256 с.

(2). Епишева О.Б. Технология обучения математике на основе деятельностного подхода. М., "Просвещение", 2003, 223 с.

(3). Иванова Т.А., Перевощикова Е.Н., Кузнецова Л.И., Григорьева Т.П. Теория и технология обучения математике в средней школе. Учеб. пособие для студентов математических специальностей педагогических вузов, 2-е изд., испр. и доп., Н.Новгород, НГПУ, 2009, 355 с.

(4). Лакатос И. Доказательства и опровержения (Как доказываются теоремы). М., "Наука", 1967, 152 с.

(5). Саранцев Г.И. Методика обучения математике в средней школе. Учеб. пособие для студентов мат. спец. пед. вузов и ун-тов, М., "Просвещение", 2002, 224 с.

(6). Саранцев Г.И. Обучение математическим доказательствам в школе. М., "Просвещение", 2000, 173 с.

(7). Столяр А.А. Зачем и как мы доказываем в математике. Минск, "Народная асвета", 1987, 143 с.

(8). Turgunbayev R.M. Matematik analiz. 1-qism, Toshkent, "Methodist" nashriyoti, 360-bet.

Doniyorova Gulrux Shoniyozovna (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti v.b.;

gulrukh.1989.12.05@gmail.com)

NOFILOLOG TALABALARGA DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA CHET TILI O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya. Globallashuv davrida chet tillarini bilish muhim ko'nikma sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, nofilolog talabalari uchun chet tilini o'qitish nafaqat bilimlarni oshirish, balki ularning kasbiy faoliyatida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, dasturiy vositalar asosida o'qitish jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu maqolada nofilolog talabalarga chet til o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik asoslari ko'rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: chet tili, dasturiy vositalar, nofilolog talabalar, o‘qitish, innovatsion texnologiyalar, platformalar.

Дониерова Гулрух Шониёзовна (и.о.доцента, Каршинский государственный технический университет; gulrukh.1989.12.05@gmail.com)

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ ДЛЯ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В эпоху глобализации знание иностранных языков рассматривается как важный навык. Особенно для нефилологических студентов обучение иностранным языкам служит не только повышению их знаний, но и обеспечению их конкурентоспособности в профессиональной деятельности. Современные образовательные технологии, в частности обучение с использованием программных средств, делают процесс более эффективным и увлекательным. В данной статье рассматриваются дидактические основы использования программных средств в обучении иностранным языкам для нефилологических студентов.

Ключевые слова: иностранный язык, программные средства, нефилологические студенты, обучение, инновационные технологии, платформы.

Doniyorova Gulrukh Shoniyozovna (acting associate professor Karshi state technical university; gulrukh.1989.12.05@gmail.com)

DIDACTIC FOUNDATIONS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES USING SOFTWARE TOOLS FOR NON-PHILOLOGY STUDENTS

Annotation. In the era of globalization, knowledge of foreign languages is considered an essential skill. For non-philology students, in particular, learning foreign languages not only enhances their knowledge but also ensures their competitiveness in professional activities. Modern educational technologies, especially teaching with the use of software tools, make the process more effective and engaging. This article examines the didactic foundations of using software tools in teaching foreign languages to non-philology students.

Key words: foreign language, software tools, non-philology students, teaching, innovative technologies, platforms.

Kirish. Nofilolog talabalarga chet tilini dasturiy vositalar asosida o‘qitish zamonaviy ta‘lim jarayoni-da samaradorlikni oshirishning muhim vositasidir. Dasturiy vositalar yordamida ta‘lim jarayoni qiziqarli, samarali va individual ehtiyojlarga moslashgan holda tashkil etilishi mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat talabalar bilimini chuqurlashtirishga, balki ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Nofilolog talabalar, odatda, o‘zining kasbiy sohasi bilan bog‘liq ravishda chet tilini o‘rganadi. Shu sababli chet tilni kasbiy kontekstlarda ishlatish, jumladan, ish uchrashuvlarida qatnashish, prezentatsiyalarni o‘tkazish, ish yozishmalari olib borish nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Demak, o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlardan biri kommunikativ ko‘nikmani rivojlantirish bo‘lib, u talabalarning chet tilda ma‘lumotlarni izlash, o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Bu esa ilmiy maqolalar, internet resurslari va kasbiy materiallardan foydalanishda aks etadi. Kommunikativ maqsadlar talabalarni chet tilni faqat nazariy o‘rganishdan amaliy foydalanuvchi darajasiga olib chiqadi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Nofilolog talabalarning chet tilida muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish borasida bugungi kunda shiddat bilan yangilanib borayotgan dasturiy vositalar, innovatsion texnologiyalar yordamidan foydalanish nafaqat davr talabi, balki dars mashg‘ulotlarini qiziqarli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Ushbu sohada salmoqli tadqiqotlar olib borgan tilshunos Robert Bleyk [1] ta‘kidlaganidek, “bugungi kun talabasi turli raqamli til o‘rganish vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega va o‘z natijalarini You Tube kabi kanallarga joylash orqali til o‘rganish jarayonini qiziqarli hodisaga aylantira oladi”. Karol A. Chapel [2] esa o‘zining “Ikkinchi tilni o‘zlashtirishda kompyuter ilovalari” (“Computer Applications in Second Language Acquisition”. 2001) kitobida xorijiy tilni o‘rganishning samaradorligini baholash yuzasidan ilmiy xulosalar keltiradi. Ko‘pgina shaxslar texnologiya yordamida chet tillarini o‘qitishni rivojlantirishga hissa qo‘shdilar va bu orqali ular qiziqarli o‘rganish tajribasini yaratish uchun matn, audio va vizual vositalardan foydalangan holda til o‘qitishda multimedia rolini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada nofilolog talabalarning ingliz tilidan kommunikativ ko‘nikmasini rivojlantirishda dasturiy vositalardan foydalanish usullari qiyosiy va tahliliy o‘rganiladi, axborot texnologiyalarini, ayniqsa nutq jarayonini rivojlantiruvchi dasturiy vositalarni xorijiy til darslarida samarali qo‘llash xususida ba‘zi tahlillar yoritiladi.

Tahlil va natijalar. Nofilolog talabalarga dasturiy vositalar asosida chet til o'qitish bu tilni o'rganish jarayonida texnologiyalardan, xususan, dasturiy vositalar va raqamli platformalardan foydalanishga asoslangan metodik jarayondir. Bunda nofilolog talabalari, ya'ni, tilshunoslik yoki filologiya bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lmagan talabalar (masalan, texnika, iqtisodiyot, tibbiyot yoki boshqa sohalar talabalari) uchun moslashtirilgan yondashuv qo'llaniladi. Ushbu yondashuv chet tilni o'rganishni ularning kasbiy ehtiyojlari va tilga bo'lgan amaliy qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qiladi. Ushbu yondashuvning maqsadi talabalarni tilga oid umumiy bilim va ko'nikmalarga ega qilish, kasbiy faoliyatida ishlatiladigan chet tilini samarali o'rgatish, chet tilida o'qish, yozish, tinglab tushunish va muloqot qilishga tayyorlashdan iborat. Ushbu jarayonning didaktik asoslari sifatida o'qitishning maqsad va vazifalarni belgilab olish, o'qitish jarayonini rejalashtirish va tashkil qilish, o'quv materiallarini tanlash va moslashtirish, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, talabalar faoliyatini baholash va tahlil qilish faoliyati qamrab olinadi. Nofilolog talabalarga chet tili o'qitish jarayonida quyidagi asosiy maqsadlar belgilab olinadi:

Kommunikativ maqsad bu talabalar chet tilida muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish demakdir. Ushbu maqsadlar o'rganuvchilarni chet tilini faqat nazariy o'rganishdan amaliy foydalanuvchi darajasiga olib chiqadi.

Til ko'nikmalarini shakllantirish deganda esa eshitish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish nazarda tutiladi.

Madaniy bilimlarni oshirish esa xorijiy til bilan birga o'sha millat madaniy unsurlarini ham o'rgatish demakdir. Dasturiy vositalar bu maqsadlarga erishish uchun turli xil imkoniyatlar yaratadi, masalan, multimedia vositalari orqali talabalarni chet til muhitiga jalb qiladi.

Dasturiy vositalardan o'quv materiallari sifatida foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim.

- Interaktiv resurslar. Videodarslar, ovoz yozuv mashqlari, va muloqotga asoslangan materiallardan foydalanish.

- Mobil ilovalar. Talabalar darsdan tashqari vaqtda mustaqil shug'ullanishlari uchun mobil ilovalardan foydalanish (masalan, Memrise yoki Babbel).

- Testlar va baholash vositalari. Talabalarning bilimini baholash uchun avtomatlashtirilgan testlardan foydalanish.

Ta'limning maqsadi va vazifalariga mos o'quv material – resurslar tanlab olish bilan birga jarayonda innovatsion texnologiyalarni qo'llash ham lozim bo'ladi. Nofilologik yo'nalishda tahsil oladigan talabalarga dasturiy vositalar asosida chet tili o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sun'iy intellekt va til ko'nikmalarini o'yinlar orqali rivojlantirish, ya'ni gamifikatsiya metodini qo'llash kabi Afzalliklarni beradi. Sun'iy intellektdan foydalanish deganda, asosan, xorijiy tildagi grammatik xatolarini avtomatik aniqlash va tuzatish imkoniyati nazarda tutiladi. Nofilolog talabalarning, asosan, texnik matnlar va leksika bilan ishlashga to'g'ri kelishini va xorijiy til bilimlari, odatda, til bilishning yuqori darajasida bo'lmashligini inobatga oladigan bo'lsak, tarjima jarayonida orfografik yoki grammatik xatolarga yo'l qo'yilish holati tez tez uchrash turishini guvohi bo'lamiz. Ushbu jarayonda talabalar yozuv va tarjima xatolarini sun'iy intellekt vositalari orqali tez va ishonchli tarzda to'g'rilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali chet tilini o'zlashtirish esa gamifikatsiya deb ataladi va ushbu metod til o'rganishning barcha bosqichlarida va turli yoshdagi o'rganuvchilar uchun birdek qo'llanilishi mumkin. Bunda talabalar yangi so'zlarni mustahkamlash yoki grammatik mavzuni takrorlash maqsadida muayyan til o'rganuvchilar guruhi ehtiyojlariga moslashgan, albatta, vaqt cheklovini o'rnatgan holda, o'yin o'yinashlari mumkin bo'ladi. Gamifikatsiya metodi talabalarga til o'rganish uchun motivatsiya berish, undash vazifasini ham bajarishi bilan ham boshqa metodlardan keskin ajralib turadi. Bunga misol qilib *Kahoot* yoki *Duolingo*da mukofotlar va kunlik maqsadlar punktlarining mavjudligi kabi vizual resurslar talabalarning e'tiborini tortadi.

Xulosa. Dasturiy vositalar yordamida nofilolog talabalarga chet til o'qitish samarali va moslashuvchan yondashuv bo'lib, zamonaviy ta'lim muhitiga moslashishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq bu jarayonda o'qituvchilarning nazorati, texnik infratuzilma, va dasturlarni tanlash jarayonida ehtiyotkorlik bilan yondashish talab qilinadi. Shu orqali o'quv jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo'ladi. Ushbu yondashuv nafaqat talabalar bilimini chuqurlashtirishga, balki ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Kelajakda bu yo'nalishda tadqiqotlarni kengaytirish va yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Bleyk, Robert. Technology and the four skills. Language Learning & Technology. 20(2), p. 129–142. <http://dx.doi.org/10.125/444652016>

(2). Carol A. Chapelle, "Computer Applications in Second Language Acquisition". Cambridge University Press (2001).

(3). Gulrukh Doniyorova, Guzal Djumayeva, Dilfuza Djabbarova, Bobir Toshmamatov. A technology for teaching ESP to those studying ecology and environmental sustainability. BIO Web of Conferences 93, 05001 (2024) Forestry Forum 2023, <https://doi.org/10.1051/bioconf/20249305001>

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li (Termiz davlat universiteti "Sport boshqaruvi" kafedrası o'qituvchisi; e-mail: eshqobilovelmurod25@gmail.com)

BO'LAJAK JISMONIY TARBIIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya.** Jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat o'quvchilarga sport va jismoniy mashqlarni o'rgatuvchi mutaxassis, balki ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan ijodkor pedagog hisoblanadi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning zamonaviy metod va usullari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar, kreativlik, innovation metodlar, talabalar tayyorgarligi.*

Эшқобилов Элмурод Менглимуродович (Термезский государственный университет, преподаватель кафедры спортивного менеджмента; e-mail: eshqobilovelmurod25@gmail.com)

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

***Аннотация.** Учитель физического воспитания – это не только специалист, обучающий учеников спорту и физическим упражнениям, но и творческий педагог, играющий важную роль в формировании здорового образа жизни. В настоящее время развитие профессионально-педагогического творчества учителя физического воспитания является одной из актуальных задач. В данной статье рассматриваются современные методы и подходы к развитию профессионально-педагогического творчества учителей физического воспитания.*

***Ключевые слова:** физическое воспитание, профессиональная подготовка, педагогические технологии, креативность, инновационные методы, подготовка студентов.*

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li (Termiz State University, Teacher of the department of sports management; e-mail: eshqobilovelmurod25@gmail.com)

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL CREATIVITY OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

***Annotation.** A physical education teacher is not only a specialist who teaches students sports and physical exercises but also a creative educator who plays an important role in shaping a healthy lifestyle. Currently, the development of the professional and pedagogical creativity of a physical education teacher is one of the pressing issues. This article discusses modern methods and approaches to developing the professional and pedagogical creativity of physical education teachers.*

***Keywords:** physical education, professional training, pedagogical technologies, creativity, innovative methods, student preparation.*

Kirish (Introduction). O'zbekiston Respublikasining kelajagi zamonaviy ta'lim va ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan, ijodiy va mustaqil fikrlay oladigan, jamoa bilan samarali mulqotga kirisha biladigan, kasbiy va shaxsiy sifatlari shakllangan malakali kadrlar tayyorlashga bog'liqdir. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyoda global pozitsiya jarayonlariga moslasha oladigan, iqtisodiy maydonda o'zini ko'rsata oladigan hamda millatning rivojlanishiga hissa qo'shadigan kadrlarni yetishtirish ta'lim tizimini barqarorlashtirishning maqsadi sanaladi. Ta'lim sifati va pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion yondashuvlar, o'yinli ta'lim texnologiyalari, muammoli ta'lim hamda mustaqil ta'limning noan'anaviy shakllaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadga faqat kompetentli yondashuv orqali, ya'ni, bo'lajak kadrlar – jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kreativligini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Kelajak pedagogining kasbiy kompetentligini uning kasbiy faoliyatida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan sifatlarning umumiy yig'indisi sifatida

tushunish mumkin. Shuni alohida qayd etish joizki, kompetentlik deganda, bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyati va jamiyatda ishtirok etishi uchun lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi tushuniladi. U atrof-muhitdagi obyekt va subyektlar bilan samarali o'zaro hamkorlik qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi [1;24-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Pedagogik kompetentlik bu jismoniy kasbiy tayyorgarlik, balki pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan doimiy o'sish jarayonidir. Zamonaviy ta'lim muhitida faoliyat yuritish uchun pedagog o'z kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishi zarur va shart. Kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi xorijiy olimlardan B.Bloom, N.V. Kuzmina, H.Gardner, A.K.Markova [4], F.N.Gonobolin, Y.K.Babanskiy, M.Maxmutov, K.D.Ushinskiy; o'zbek olimlaridan A.Abdugodirov, M.To'xtaxo'jayev, Z.Nishonova, G.Abduraxmonova, O.Usmonboyeva va boshqalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Rus psixologi A.K.Markova o'qituvchining kasbiy kompetentligini chuqur o'rgangan yetakchi pedagog olimlardan biridir. U o'z ilmiy izlanishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini uning pedagogik faoliyatida yuqori natijalarga erishishi bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Markovaning ta'kidlashicha, haqiqiy kasbiy kompetentlik faqatgina nazariy bilimlarni egallash bilanlangina cheklanmaydi, balki ularni amaliyotga samarali joriy etish va pedagogik jarayonda optimal natijalarga erishish orqali namoyan bo'ladi.

Shuningdek, Markova kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatlari, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechim topish ko'nikmalari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u pedagogik faoliyatning dinamik xarakterga ega ekanligini qayd etib, o'qituvchi o'z malakasini doimiy takomillashtirib borishi lozimligini ta'kidlaydi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qituvchi faqatgina an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanmasligi, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ishlashi kerakligini aytadi [4;72-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bo'lg'usi pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadi – uning kasbiy rivojlanish jarayonida ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu jarayon ularning ta'lim muassasalarida samarali faoliyat yuritishga tayyorlanishi uchun zarur bo'lib, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirishni talab etadi. Mazkur jarayonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat:

Bo'lg'usi pedagogning kasbiy faoliyatida pedagogik, maxsus va umumiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga ijobiy munosabatini shakllantirish hamda unga kasbiy o'sish motivatsiyasini berish;

- amaliy mashg'ulotlar davomida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda mos ravishda tahlil yuritish, to'g'ri qaror qabul qilish va ularni hal etish bo'yicha pedagogik intellektual salohiyatini rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion va integrativ rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- kelgusidagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik sifatlarni shakllantirish, xususan, bolalarni tushunish va ularga mehr bilan yondashish, boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish hamda doimiy kasbiy va shaxsiy o'sishga intilishni rag'batlantirish [3;11-b.].

Jismoniy tarbiya ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va kasbiy pedagogik ijodkorligini shakllantirish hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik o'zida bilim, amaliy mahorat va shaxsiy sifatlarni mujassam etib, o'qituvchini muntazam ravishda izlanishga, o'z ustida ishlashga va bilimlarini doimiy yangilab borishga undaydi. Shuningdek, bu jarayon pedagogning har bir pedagogik vaziyatga ijodiy yondashishi, moslashuvchan bo'lishi va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi [2;37-b.].

Kasbiy kompetentlikni tahlil qilish jarayonida ko'plab tadqiqotchilar uni ta'limning funksional tarkibi sifatida baholab, tarkibida o'qituvchining bilimi va mahorati uzviy bog'liqlikda namoyan bo'lishini, kasbiy malakasi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini o'z ichiga olishini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, kompetensiya tushunchasi bilim va mahoratga nisbatan yanada moslashuvchan bo'lib, bo'lajak o'qituvchining dolzarb axborotlarni qayta ishlashi, kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo'llashi bilan ajralib turadi.

Shunga qaramay, pedagogning kasbiy kompetentligining asosiy negizi uning shaxsiy fazilatlarini, maqsadga yo'naltirilganligi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish-

da moslashuvchanligi va ijodkorligidir. Kompetentlik o'qituvchining sharoitga tez moslashishi, ta'lim jarayoniga yangiliklar kiritishi va samaradorligini oshirishga qaratilgan xususiyatlar majmuasidan iborat bo'lib, kasbiy faollik va ijodiy yondashuv bilan o'z ifodasini topadi [3;137-b].

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari nafaqat dars jarayonlarini tashkil etuvchi mutaxassislar, balki pedagogik ijodkorlikka ega bo'lgan, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyasi kompetentlik yondashuvi asosida ko'rib chiqiladi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish metodikasi quyidagi asosiy yondashuv va usullarga asoslanadi:

1. Kompetentlik yondashuvi – bu metodika kasbiy bilim va ko'nikmalarni nazariy va amaliy jihatdan uyg'unlashtirishga qaratilgan. O'quv jarayonida nafaqat bilim berish, balki kasbiy faoliyatga tayyorlash ham muhim hisoblanadi.

2. Interfaol o'qitish metodlari – interfaol ta'lim usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni yechish qobiliyati hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi va o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

–munozaralar va bahs-munozaralar talabalarni o'z fikrlarini asoslash va dalillar bilan mustahkamlashga o'rgatadi;

–rolli o'yinlar va modellashtirish haqiqiy kasbiy vaziyatlarni yaratish orqali amaliy bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi;

–loyiha usuli talabalar mustaqil yoki jamoaviy loyihalar ustida ishlash orqali tajribalarini oshiradilar.

3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari bu zamonaviy pedagogik yondashuvlar va vositalardan foydalangan holda o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar majmuasidir. Ushbu texnologiyalar an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda interfaollik, individual yondashuv va ilg'or texnologik imkoniyatlardan keng foydalanish bilan ajralib turadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni alohida qayd etish lozimki, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Kompetentlik yondashuvi asosida ishlab chiqilgan texnologiyalar nafaqat o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga, balki o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol va samarali ishtirok etishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Kenjaboyev.A.E. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. O'quv qo'llanma, TerDU nashr-matbaa markazi nashriyoti, 2022, 280-bet.

(2). Shodmonova Sh.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T., «Fan va texnologiya», 2019, 296-bet.

(3). Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М., «Просвещение», 1995, 336 с.

(4). Маркова А.К. Психология профессионализма. М., “Знание”, 1996, 308 с.

Bakirov To'liqjon Yunusaliyevich (Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent; Bakirov_t75@mail.ru; ORCID ID 0000-0001-9848-9542),

Mamatqulov Ravshanjon Ma'murjonovich; Mamatqulovravshanbek7@gmail.com)

TA'LIMDA VA TURLI XIL SOHALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limda texnologiyani ko'rib chiqamiz, u qanday qilib har bir kishi uchun yangi ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishini va bolalar kelajak iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalarni o'rganishlari kerakligini tushuntiradi.

Kalit so'zlar: MOOC, LMS, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, interaktiv ta'lim, STEM ta'limi, sinflarda interaktiv doskalar, o'quvchilarga texnologiya asosida individual ta'lim berish, multimediali o'quv materiallari, audio, video, animatsiya, dastur.

ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ И РАЗЛИЧНЫХ СФЕРАХ

Аннотация. В этой статье мы рассмотрим технологии в образовании: как они предоставляют новые возможности обучения для каждого и как детям необходимо овладеть цифровыми навыками, необходимыми им для экономики будущего.

Ключевые слова: MOOC, LMS, образовательные технологии, цифровое образование, интерактивное образование, STEM-образование, интерактивные доски в аудиториях, индивидуальное обучение студентов на основе технологий, мультимедийные учебные материалы, аудио, видео, анимация, программа.

INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION AND VARIOUS FIELDS

Annotation. This article looks at technology in education – how it opens up new learning opportunities for everyone and explains why children need to learn the digital skills they need for the economy of the future.

Keywords: MOOC, LMS, Educational technologies, Digital education, Interactive education, STEM education, Interactive whiteboards in classrooms, Technology-based individualized education for students, Multimedia educational materials, audio, video, animation, software.

Kirish (Introduction). Texnologiyaning tez rivojlanishi inson hayotining ko‘plab sohaslarida, jumladan, ta’lim sohasida ham sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ushbu maqola texnologiyaning ta’limdagi muhim rolini, shuningdek, uning o‘quv maqsadlari va 21-asrning muhim ko‘nikmalarini egallashga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi va ta’lim muhitida texnologiyaning integratsiyasi an’anaviy o‘qitish amaliyotlarini qanday o‘zgartirganini va o‘quvchilarni raqamli ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun qanday matevatsiya berishiga qaratilgan [2;4-b.].

Mamlakatizmizda ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida turli xil texnologiyalar, kompyuterlar, aqlli doskalar, turli raqamli platformalar va boshqa texnologik qurilmalar ta’lim jarayonining bir qismi sifatida foydalanilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim jarayonini sezilarli darajada rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Ta’lim, axborot va texnologiyalar bir-biri bilan uyg‘unlashib, zamonaviy ta’lim tizimining asosini tashkil etadi. Texnologiyalar yordamida o‘quv jarayoni yanada innovatsion va samarali qilib tashkillash darslarga bo‘lgan qiziqishni oshirishga kata xissa qo‘shib kelmoqda, bu esa o‘quvchilarning ushbu fan bo‘yicha qiziqishlarini oshirib kelmoqda. Ta’lim jarayonida kompyuterlar o‘qituvchi va o‘quvchilarga keng imkoniyatlar beradi, masalan, turli xil ma’lumotlarni kiritish, maqolalar yozish, muhohaza va interaktiv dasturlardan samarali foydalanish uchun xizmat qilib kelmoqda. Interaktiv o‘quv materiallari o‘quvchilarning o‘zaro aloqasini kuchaytiradi va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. O‘quvchilar yangi texnologiyalar mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lib, bilim olish jarayonida faol ishtirok etadilar. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta’lim muhitini yaxshilash o‘quvchilarning ta’limga qarashlarini o‘zgartirishi va ularni o‘rganishga rag‘batlantirishi mumkin [11;15-b.].

Ta’limda zamonaviy texnologiyalarni internetsiz tassavur qilish qiyin, internet ta’lim resurslariga kirishni osonlashtirib, yangi ma’lumotlarni tezda olish imkoniyatini beradi, bu esa o‘quv jarayonida o‘quvchilarni bilimlarini yanada kuchayishiga katta hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda ta’limda elektron ta’lim platformalarga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. MOOC va LMS kabi platformalar ta’lim jarayonini onlayin o‘qitishni va o‘rganish jarayonlarini optimallashtiradi, shuningdek, o‘quvchilarni bir joyda markazlashtiradi. Yangi texnologiyalarni ta’limga qo‘shish innovatsion yondashuvlarni yaratadi, bu esa o‘quv jarayonini kuchaytirib o‘qitish metodologiyalarini rivojlantiradi [17;22-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘qituvchilar uchun texnologik yondoshuvlar mustaqil, innovatsion ta’lim natijalarini rag‘batlantiradi va pedagogik faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish jarayoni samarali va tezroq o‘tadi, chunki onlayin platformalarda resurslar va materiallar o‘z vaqtida taqdim etiladi. O‘quvchilar ham zamonaviy texnologiyalardan o‘z ehtiyojlari va qobiliyatlariga ko‘ra, o‘quv materiallariga qidirish va hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Zamonaviy texnologiyalar o‘quv jarayonini istalgan joyda va istalgan vaqtda amalga oshirish imkoniyatini beradi va ta’lim jarayonini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar va o‘quvchilar ko‘p vaqtni foydali jarayonlarga sarflashlari mumkin, bu esa samaradorlikni oshiradi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun turli ta’lim resurslari mavjud bo‘lib, bu texnologiyalarga kirishni osonlashtiradi. Ta’lim tizimlariga texnologiyalarni integratsiyalash butun jarayonni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). MOOC: Katta ochiq onlayn kurslar (MOOC) turli yo‘nalishlarda keng imkoniyatlar yaratib, ta’limni har kim uchun ochiq qiladi.

LMS: o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari (Learning Management Systems, LMS) ta’lim resurslarini boshqarishga, ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarning malakasini baholashga imkon beradi. Ta’-

limga doir platformalari o'zaro muloqotni kuchaytiradi va ko'plab imkoniyatlar yaratadi, o'qituvchilar va o'quvchilarga ommaviy tarzda xizmat ko'rsatishga yordam beradi. Onlayn darslar o'quvchilarga masofadan turib o'qish imkonini beradi hamda o'qituvchilar bilan qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Ta'limni boshqarish tizimi (Learning Management Systems, LMS) ta'lim xizmatlarini taqdim etishni o'z ichiga olgan tizimdir. Dastlab, bu tizimdan faqat o'quv markazlari, oliy ta'lim muassasalari tomonidan foydalanilgan bo'lsa, hozirga kelib yirik kompaniyalar undan foydalanishni boshladilar. Hozirgi tendentsiya masofadan o'qitishga qaratilgan bo'lib, bu LMS tobora ko'proq qo'llanilishida aks etadi. Shunday qilib, ushbu tizimning rivojlanishi kompaniyalarga o'z xodimlari uchun malaka oshirish platformasini joriy qilish imkonini beradi. LMSning asosiy vazifasi mavjud bilimlarni boshqarishdan iborat. Hozirgi kunda o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va sifatli kadrlarni tayyorlash uchun LMS tizimlarini yaratish nafaqat elektron ta'limning dasturiy platformasini ishlab chiqish, balki elektron ta'lim jarayonini boshqarish va bilim olish, axborot olish uchun samarali muhitni yaratishdir. Shu sababli zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, keng qamrovli LMS tizimlarini yaratish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlar, maktab o'quvchilar va talabalar, kurs ishtirokchilari va o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirishdagi eng muhim bosqich elektron ta'limni boshqarish tizimini ishlab chiqishdir [20;25-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi kunda aloqa va ma'lumot olish n-ternet va gadjetlar orqali tobora ko'proq amalga oshirilmoqda. Elektron ta'lim bu zamonaviy multimedia va kommunikatsiya texnologiyalarining har qanday yutuqlaridan foydalangan holda o'rganishdir. Axborot rivojlangan jamiyatlarda ta'limning boshqa elektron bo'lmagan shakllari qolmagan: axir, agar zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonining, hech bo'lmaganda, ba'zi jihatlarida, hatto elektron pochta, mobil telefon yoki ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etsa, bu allaqachon juda samarasiz shaklda elektron ta'lim imkoniyatlarining o'z o'zidan rivojlanishiga misoldir.

•**Kelajak istiqbollari.** Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kelajakda ta'lim sohasini yanada tubdan o'zgartirishga qodir.

•**Rivojlanish.** Zamonaviy texnologiyalar ta'lim sohasida rivojlanishni davom ettirishga va yangi yondashuvlar ushbu jarayonni yanada yaxshilashga yordam beradi.

•**Muammolar.** Texnologik taraqqiyot bilan bog'liq muammolar, axborot xavfsizligi, o'quvchilarning o'zaro aloqasini zararli holatlarda saqlash doimo dolzarb bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Akhmedov, B.A., Majidov, J.M., Narimbetova, Z.A., Kuralov, Y.A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), p. 805–808.

(2). Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Т., 2019 (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ5847-фармони-га илова).

(3). Jahon Banki ta'lim islohotlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha 21-may 2018-yil kun.uz

(4). UNESCO – Ta'limda AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) 29-noyabr, 2024.

(5). Ta'lim komissiyasining hisoboti (2016).

(6). Global ta'limni kuzatish hisoboti (UNESCO) 20-may 2024-yil.

(7). Global Learning XPRIZE havola

(8). Theirworld – Code Clubs va Kano Loyihasi havola

(9). O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi havola

(10). https://www.ziyonet.uz

Madaminov Azimbek Egamberganovich (Urganch davlat Pedagogika instituti dotsenti)

JISMONIY MADANIYAT TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH PARAMETRLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot olib borishlarining parametrlari haqida fikrlar bayon etilgan bo'lib, unda jismoniy madaniyat ta'limi yo'nalishda tahsil oluvchi talabalarining ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlarda ilmiy tadqiqot ishlarning dastlabki bosqichlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, talaba, pedagogik, ta'lim, tizim, ilmiy faoliyat, xorijiy tajriba, kasb, jarayon, mexanizm.

ПАРАМЕТРЫ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ СТУДЕНТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В статье описаны параметры исследований в области физкультурного воспитания студентов, а также даны рекомендации по начальным этапам исследовательской работы в области физкультурного воспитания студентов.

Ключевые слова: физическая культура, студент, педагогика, образование, система, научная деятельность, зарубежный опыт, профессия, процесс.

PARAMETERS OF SCIENTIFIC RESEARCH OF STUDENTS OF PHYSICAL CULTURE EDUCATION

Annotation. This article describes the parameters of research in the field of physical culture education of students, and provides recommendations on the initial stages of research work in the field of physical culture education of students.

Key words: physical culture, student, pedagogy, education, system, scientific activity, foreign experience, profession, process.

Кириш. Bugungi kunda nafaqat jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishini, balki boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan qator (referat, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari hamda pedagogik va malakaviy amaliyot) ilmiy tadqiqoti ishlarni amalga oshirishida talabalar o'z faoliyatida muammolariga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sabab talabalar tomonidan bajariladigan ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetarlicha bilimga ega emasliklaridadir. Shuningdek, talabalar tomondan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari avvalo, biron fan tarkibida alohida mavzu sifatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki har bir insondan o'zi bilmagan va anglab yetmagan bilim yoki tajribani so'rashni mantiqsizlik bilan tenglashtirish mumkin. Shu uchun mazkur jarayoni amalga oshirishida, talabalar bilimni takomillashtirishda har bir fan mazmundan kelib chiqib, referat, mustaqil ta'lim, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari qay tartibida rasmiylashtirish va bajarish jarayonida nimalarga e'tibor berishi lozimligini izohlash lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5924-farmonida "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini ilmiy-uslubiy ta'minlashi, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishi va sportda yuqori natijalarini qo'lga kiritish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, yosh mutaxassislarini ilmiy va ta'lim dasturlarda ishtirok etishini ta'minlash" choralarini ko'rish borasida ko'rsatmalar berilgan.¹

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tahlillarga ko'ra, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarning ilmiy faoliyatini tashkil etish tizimni takomillashtirish muammosi yetarlicha tadqiq qilinmaganligi mazkur jarayonni keng qamrovli o'rganish va takomillashtirishni talab etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jismoniy madaniyat ta'lim sohasi talabalarning ma'lum sabablariga ko'ra, ushbu yo'nalish o'quv rejasida belgilangan fanlardan qoldirilgan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish yuzasidan yoziladigan dastlabki (kichik) izlanish turi hisoblanadi.

Referat tayyorlashda talaba o'z fikrlarini yozma bayon qilish jarayonida ko'rib chiqilayotgan muammoni nazariy jihatidan anglashi, ijtimoiy hayoti, voqea va hodisalar tahlilda o'z bilimlarini ishlata olishi, mavzuni idrok etishida mustaqil tushunchaga ega bo'lishi, manba va adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini egallash, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi bo'yicha o'rganilayotgan fanning aniq bir muammosini o'rganib chiqib, uni bexato bayon qilishga o'z e'tiborini qaratishi kerak.² Talaba xulosa, umumlashtirish, tavsiyanomalarini bayon qila bilishi, shuningdek, ilmiy ma'lumot qismni to'g'ri yoritish olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, referat mavzuni tanlash ishining juda mas'uliyatli bosqichidir. Talabaga kafedra tomonidan tavsiya etilgan o'rganilayotgan fanga aloqador boshqa mavzularini mustaqil tanlash huquqi berilgan. Bu holda referat mavzusi ma'ruzani yoki seminarini olib boruvchi o'qituvchi bilan kelishilishi kerak. Bu talabaga referat rejasini, asosiy maqsadini va adabiyotni to'g'ri tanlashiga yordam beradi.

Talabalar tomonidan referat yozishi tartibi o'zlashtirilgandan so'ng, uni kichik ilmiy izlanishi sifatida e'tirof etishi mumkin. Bu esa keyingi o'quv jarayonlarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlaridan tayyorlanadigan mustaqil ishlarni bajarishda fundament vazifasi o'taydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". "Xalq so'zi", 2020, 24-yanvar.

² Ziyomuhhammadov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 2000, 126-bet.

Jismoniy madaniyat ta'lim sohasi talabalarining o'qitilayotgan fan bo'yicha mustaqil ishi tayyorlash bugungi kunda dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Talabalar tomondan bajariladigan mustaqil ish guruhda ishlashi bilan bir qatorda, o'quv jarayonning shakllardan biri bo'lib, uning ajralmas qismidir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar tomonidan rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, jismoniy madaniyat mutaxassisligi o'quv rejada mustaqil ish hajmini o'quv bo'limlari va o'quv muassasasining metodistlari tomondan rejalashtirish zarur. Mustaqil ish talabalarining rejalashtirilgan ish bo'lib, u o'qituvchilarning ko'rsatmasi va uslubiy rahbarligi, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim nafaqat har bir fanni o'zlashtirishi uchun, balki, umuman olganda, o'quv, ilmiy, kasbiy faoliyatida mustaqil ishlash ko'nikmalarni rivojlantirishi, masuliyatini o'z zimmasiga olishi, muammoni mustaqil hal qilish, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan ayrim masalalariga yechim topish kabi bir qator ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan, ya'ni, mustaqil ishni tayyorlashida jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalish professor-o'qituvchilarning nazoratida belgilangan tartibda amalga oshirilsa, talabalarni keyingi bosqich, ya'ni kurs loyihani tayyorlash bo'yicha muammolari yuzaga kelmasligi mumkin.

Kurs loyihalari va ishlari o'quv vazifasi xarakteriga ega bo'lgan individual topshiriqlari bo'yicha olib boriladi. Uning vazifasi, odatda, o'quv fanning muammolari tarkibini aks ettiradigan tarzda tuziladi. Kurs loyihasi (ish) jarayonida talabalar obyekt (jarayon)ni loyihalashni, usulini o'zlashtirishni o'rganadilar, mavzuga oid farmon, qaror, me'yoriy va zaruriy adabiyotlardan, foydalanishni o'rganadilar, mavzuda ko'tarilgan masalani turli diagrammalar, chizmalar orqali asoslashni o'rganadilar.¹ Odatda, kurs ishi talabalar tomondan olib boriladigan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishning 2-, 3- va 4-kurslarida "Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi", "Sport va o'yinlarini o'qitish metodikasi" va "Sport mahoratini oshirish" kabi fanlaridan kurs loyiha ishlari talabalar tomondan tayyorlanadi.

Kurs ishlari – bu tor mavzudagi kichik ilmiy tadqiqoti bo'lib, o'quv dasturda keltirilgan mavzular bo'yicha kurs loyiha ishlari tayyorlash jarayonida talaba asta-sekin oddiy usullarni o'zlashtirib borib va keyinchalik murakkab tadqiqot usullaridan foydalanishni o'zlashtiradi.² Talabalar tomondan tayyorlangan kurs ishlari mustaqil ilmiy tomon bosilgan birinchi qadam hisoblanadi.

Talabalar tomondan tayyorlangan kurs loyihalarida ishlab chiqilgan ilmiy muammolar, qoida tariqasida, amaliy tavsiyaga ega bo'lib, keyinchalik, yanada chuqurroq tadqiqotlar mavzusiga aylanishi mumkin, ko'pincha, bitiruv malakaviy ishi bilan yakunlanadi.

Bitiruv malakaviy ish "Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini tayyorlash tartibi haqida Nizom" asosida tayyorlanadi. O'quv yili uchun yakuniy attestatsiya sinovlarining dasturlari va bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinadi va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy metodik Kengashi tomondan tasdiqlanadi. Bitiruv malakaviy ishlar mavzulari ta'lim muassasasining bitiruvchilarni tayyorlovchi kafedralar tomondan mutaxassislariga talabgorlarning talablarini, shuningdek, zamonaviy fan, texnika, texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ish bu o'quv yurtida o'qishning oxirgi bosqichida qo'llaniladigan tashkiliy shakl bo'lib, talabalar tomondan diplom loyihalari yoki diplom ishlari bajarilishidan iborat bo'lib, uning asosida Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi talabalarga mutaxassislik malakasini berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bitiruv malakaviy ishiga didaktik maqsadlari quyidagilardan iborat:

– bilimlarni kengaytirish, birlashtirish va tizimlashtirish, aniq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolarni, shuningdek, mutaxassislik yuzasidan vazifalarini hal qilish uchun kasbiy ko'nikma va malakalarni oshirish; mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borishda ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

– bitiruvchilarning malaka talabida nazarda tutilgan yo'nalishlar bo'yicha mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tekshirish va aniqlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bitiruv malakaviy ishning vazifalari sifatida jismoniy tarbiyaga oid biror ixtisoslik sohasi bo'yicha ishni tayyorlash ilmiy tadqiqot va amaliy ishlarda bilimlarni mustahkamlash, mustaqil holda ma'lumotlarni izlash va muayyan muammolarni yechish, tanlangan mavzu bo'yicha kasbiy, pedagogik va psixologik kategoriyalar, hodisalar va muammolar mohiyatini ochish, mavjud materiallarni tizimlashtirish, tahlil qilish va qayta ishlash, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalardan iborat

¹ Слободчиков В.И. Инновационное образование. "Школьные технологии", 2005, № 2, 4–12 с.

² Мкрытичян Г.А. Параметры педагогической экспериментальной деятельности. "Педагогика", 2001, № 5, 45–50 с.

hisoblanadi. Bu esa talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatida mustaqil ilmiy tadqiqot ularini olib borish makullarini shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan metodik tavsiyalarni hal etish natijasida jismoniy madaniyat sohosi talabalarini ilmiy faoliyatini tashkil etishda va ta'lim samaradorligini oshirishda, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, oliy ta'lim muassasalar tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Ziyomuhammadov B. Abdullayeva Sh. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 2000, 126-bet.
- (2). Слободчиков В.И. Инновационное образование. "Школьные технологии", 2005, № 2, 4–12 с.
- (3). Мкрытичан Г.А. Параметры педагогической экспериментальной деятельности. "Педагогика", 2001, № 5, 45–50 с.
- (4). Подласый И.П. Педагогика. 2-х томах, М., "Владос", 2004, 572 с.

Karimboyev Og'abek Qadamboyevich (Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchi-stajori) YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH BO'YICHA SPORT SINOVLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, ilg'or ilmiy manbalar, shuningdek, amaliy tajribalar asosida yuqori sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan sport sinovlarini o'tkazishning shakl va usullari ishlab chiqiladi. Mazkur metodika o'quvchilarning sog'lomligini mustahkamlash, jismoniy faolligini oshirish hamda sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** yuqori sinf o'quvchilari, jismoniy tayyorgarlik, sport sinovlari, baholash metodikasi, sog'lom turmush tarzi, normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogik monitoring.*

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ИСПЫТАНИЙ ДЛЯ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ

***Аннотация.** В данной статье на научной основе анализируется методика организации и проведения спортивных испытаний для оценки уровня физической подготовленности учащихся старших классов. В исследовании на основе действующих нормативно-правовых документов, передовых научных источников, а также практического опыта разрабатываются формы и методы проведения адаптированных спортивных испытаний для старшеклассников. Данная методика имеет важное значение для укрепления здоровья учащихся, повышения их физической активности и формирования ориентации на здоровый образ жизни.*

***Ключевые слова:** учащиеся старших классов, физическая подготовка, спортивные испытания, методика оценки, здоровый образ жизни, нормативно-правовые документы, педагогический мониторинг.*

METHOD FOR ORGANIZING AND CONDUCTING SPORTS TESTS TO ASSESS THE LEVEL OF PHYSICAL PREPARATION OF HIGHER-GRADE STUDENTS

***Annotation.** This article scientifically analyzes the methodology for organizing and conducting sports tests to assess the physical fitness level of high school students. The study develops forms and methods for conducting adapted sports tests for high school students based on existing regulatory documents, advanced scientific sources, as well as practical experiences. This methodology is of significant importance in strengthening students' health, increasing their physical activity, and guiding them towards a healthy lifestyle.*

***Keywords:** High school students, physical training, sports tests, assessment methodology, healthy lifestyle, regulatory legal acts, pedagogical monitoring.*

Kirish. Bugungi globallasuv va texnologiyalar asrida yosh avlodning jismoniy salomatligi, harakat faolligi va sportga bo'lgan qiziqishi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda [3,6,7]. Ayniqsa, maktabning yuqori sinf bosqichida o'quvchilarning sog'lom hayot tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, jismoniy rivojlanish darajasini doimiy kuzatib borish muhim vazifalardan biridir [2,3,5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan qarorlari, xususan, "Yoshlar sog'lom bo'lsa – millat kelajagi porloq bo'ladi" degan g'oya bu sohadagi islohotlarning poydevoriga aylandi [1,2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda maktab o'quvchilari orasida jismoniy faollikning pasayishi, ortiqcha vazn, qad-qomatning buzilishi, bo'yin va umurtqa pag'onasi muammolari, shuningdek, gipodinamiya kabi salbiy holatlar ko'paymoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) hisobotlarida ta'kidlanishicha, 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarning kamida 80 foizi tavsia etilgan jismoniy harakat me'yorlarini bajara olmayapti. Bu esa yoshlarning umumiy salomatligi, o'qishga bo'lgan e'tibori va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqori sinf o'quvchilari – bu nafaqat sog'lom avlod vakillari, balki yaqin orada mehnat bozoriga, oliy ta'lim tizimiga kirib keladigan, jismoniy va aqliy barkamollikka erishishi zarur bo'lgan yoshlar qatlamidir. Ular uchun sog'lom turmush tarziga asoslangan ta'lim-tarbiya dasturlarini ishlab chiqish, ayniqsa, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini muntazam baholab borish zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi strategik vazifadir [4,5].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazish yuqori sinf o'quvchilari-ning harakat faolligini aniqlash, jismoniy sifatlarni baholash, kasbiy yo'nalishini aniqlash va sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur sport sinovlari o'quvchilarning harakat qobiliyatlari (chidamlilik, kuch, tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik)ni aniqlash bilan birga, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individual tarzda rejalashtirish imkonini ham beradi [1,2].

Sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va normativ hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalishda O'zbekiston va jahon tajribasi tobora boyib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-yanvardagi 23-sonli qarori va unga asoslangan "Sport sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risida nizom"da aholi, shu jumladan, maktab o'quvchilari-ning jismoniy tayyorgarligini baholash tartibi huquqiy asosda belgilanadi. Bu hujjatlar sport sinovlarining mazmuni, baholash me'yorlari, tashkil etish bosqichlari va nazorat mexanizmini yoritib beradi.

Salomov R.S., Matnazarov O'.L., Goncharova O.V. singari mahalliy olimlar o'zlarining asarlarida o'quvchilarda jismoniy sifatlarni (kuch, chidamlilik, tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik) shakllantirishda sport sinovlarining o'rni va metodlarini chuqur yoritib berishgan.

Xorijiy adabiyotlarda, xususan, J.K.Xolodov va V.S.Kuznesov o'zlarining asarida sport sinovlarining ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtiruvchi vazifalarini tizimli asosda ko'rsatib bergan. Armstrong N. va Harris J. tomonidan chop etilgan asarlarda esa yoshlarning jismoniy faolligi, baholash indikatorlari va test tizimlarining xalqaro tajribalari bayon etilgan.

Ushbu adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, sport sinovlarini tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor berish zarur: yoshga mos yondashuv; individual sog'liq holatini hisobga olish; sinovlarning motivatsion ta'sirini oshirish; texnologik vositalar yordamida baholash jarayonini takomillashtirish.

Shu bilan birga, sport sinovlarini o'tkazish metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish, ularni o'quvchilarning real ehtiyojlariga va jismoniy imkoniyatlariga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalar (masalan, mobil ilovalar, onlayn monitoring tizimlari)dan foydalanish orqali baholash jarayonini yanada obyektiv va ishonchli qilish bugungi kunning dolzarb talabiga aylangan [3,6,7].

Tadqiqot jarayonida va mavjud tajriba tahlilida quyidagi muammolar aniqlangan:

- Sport sinovlarining formallasuvi. Aksariyat maktablarda sinovlar faqat yillik hisobot uchun o'tkaziladi. O'quvchilar uchun bu jarayon ko'proq majburiylik sifatida qabul qilinadi, natijada motivatsiya pasayadi.

- O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emas. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari-ning aksariyati sport sinovlarini to'g'ri o'tkazish, mezonlar asosida baholash va individual yondashuvni qo'llashda amaliy ko'nikmalarga ega emas.

- Baholashda obyektivlik yetishmaydi. Baholash jarayoni, ko'pincha, subyektiv qarashlarga bog'liq bo'ladi. Bu esa sinov natijalarining ishonchligini pasaytiradi.

- Zamonaviy texnologiyalarning cheklangan qo'llanilishi. Baholashda mobil ilovalar, skoring tizimlari, fitnes-trekerlar kabi vositalar juda kam ishlatiladi.

- Infratuzilmaning zaifligi. Ko'plab maktablarda sport zallari, yugurish yo'lakchalari, zarur sport anjomlari yetarli emas.

Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali sport sinovlari nafaqat diagnostika, balki sog'lomlashtirish va tarbiyaviy vosita sifatida ham samarali xizmat qilishi mumkin.

Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilari uchun sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazishning metodik asoslari, amaliy yondashuvlar hamda zamonaviy baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari yoritilgan.

Tadqiqot maqsadi. Yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha sport sinovlarini samarali tashkil etish va o'tkazish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:


1. Sport sinovlarini tashkil etishning huquqiy va metodik asoslarini tahlil qilish.
2. Yuqori sinf o'quvchilari jismoniy rivojlanishining xususiyatlarini o'rganish.
3. Sport sinovlarini o'tkazish metodikasini takomillashtirish.
4. Baholash mezonlari va indikatorlarini aniqlash.
5. Amaliyotga tatbiq etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqori sinf o'quvchilari uchun sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur yoshdagi bolalar o'zlarining jismoniy rivojlanishida sezilarli farqlarga ega bo'lib, baholash mezonlari ham shunga muvofiq moslashtirilishi zarur. Tadqiqotning asosiy obyekti – 9–11-sinf o'quvchilari bo'lib, ular orasida o'g'il va qiz bolalarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari alohida tahlil qilindi.

Sinovlar o'tkazilishidan avval barcha o'quvchilar sog'lig'i, antropometrik ko'rsatkichlari (bo'y, vazn, tana massasi indeksi) bo'yicha ro'yxatga olinib, tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Har bir o'quvchining sportga qiziqishi, sinovlarga bo'lgan psixologik tayyorgarligi ham e'tiborga olindi.

Tadqiqot davomida sport sinovlarining o'tkazilish tartibi quyidagicha metodik ketma-ketlik asosida amalga oshirildi:

Sport sinovlarining o'tkazilish tartibining metodik ketma-ketligi



1. Tayyorlov bosqichi. Tadqiqotning ushbu bosqichi sport sinovlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur tashkiliy va psixologik shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirildi. Avvalo, sport zali, yugurish yo'lakchalari, sakrash maydonchalari, turniklar va boshqa zarur jihozlar texnik holati ko'zdan kechirildi va tayyor holga keltirildi.

Ishtirokchilarga sinovlarning mazmuni, baholash mezonlari va xavfsizlik qoidalari haqida batafsil ma'lumot berildi. Psixologik muhitni yumshatish maqsadida guruhlarda qisqa suhbatlar va rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etildi. Shuningdek, sinovlardan oldin o'quvchilar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va sog'lig'i bo'yicha qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganlar ro'yxatga olindi.

Sport sinovlari uchun to'g'ri tayyorlov bosqichi sinov natijalarining ishonchliligi va o'quvchilarning emotsional holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu bosqich shunchaki texnik jarayon emas, balki metodik asosga ega motivatsion tayyorgarlik hamdir [3,5].

2. Sinovlar o'tkazilishi. Sinovlar qat'iy ravishda oldindan ishlab chiqilgan jadval asosida tashkil etildi. Har bir sinov turi (30 m yugurish, 1000/600 m yugurish, uzunlikka sakrash, turnikda tortilishni bukib yozish, egiluvchanlik) bo'yicha alohida maydonchalar ajratildi. Guruhlar bosqichma-bosqich navbat asosida sinovlarda ishtirok etdi.

Har bir topshiriqda o'qituvchi yoki hakamlar jamoasi tomonidan qat'iy mezonlar asosida kuzatuv olib borildi, vaqti, masofa yoki bajarilgan harakatlar soni aniqlik bilan qayd etildi. Har bir o'quvchining natijasi individual bayonnomalarga yozib borildi.

Sport sinovlarining qat'iy me'yor asosida o'tkazilishi baholash tizimining obyektivligini ta'minlashi bilan birga, o'quvchilarda intizom, tartib va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [6].

3. Baholash va tahlil. Sinovlar natijalari "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom" asosida baholandi. O'quvchilar yoshi va jinsiga qarab, maxsus ishlab chiqilgan baholash me'yorlariga solishtirildi. Baholash natijalari jadval shaklida to'ldirildi va umumlashtirildi.

Bunda nafaqat raqamli natijalar (masofa, vaqt, harakatlar soni), balki bajarish texnikasi, harakat koordinatsiyasi ham hisobga olindi. Sinov natijalari statistik jihatdan tahlil qilinib, o'quvchilar orasida jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi aniqlashtirildi.

Baholashning samaradorligi – nafaqat o'lchov natijalarining to'g'riligida, balki ularning izchil tahlili, diagnostikasi va keyingi o'zgarishlarga tayanch bo'lishida namoyon bo'ladi [3;6-b.].

4. Individual tavsiyalar. Sport sinovlarining yakuniy bosqichida har bir o'quvchiga uning jismoniy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi individual xarita tuzildi. Ushbu xaritada har bir sinov bo'yicha olingan natijalar, mavjud kamchiliklar va takomillashtirish uchun tavsiya etilgan mashqlar tizimi keltirildi. Bundan tashqari, sog'lig'ida o'zgarish kuzatilgan o'quvchilar uchun maxsus sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar tavsiya qilindi. Bu yondashuv individual rivojlanish va profilaktika tamoyillariga asoslanadi.

Xorijiy olimlar – Armstrong N. va Harris J. (2015) o'z izlanishlarida individual yondashuv jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy faktor ekanini ko'rsatishgan. Ayniqsa, o'smirlik davrida o'rganishning o'sish va rivojlanish sur'atlari turlicha bo'lganligi uchun bir xil yondashuv samarasiz bo'lishi mumkin.

Yuqori sinf o'quvchilarini sport sinovlariga bosqichma-bosqich tayyorlash, har bir sinov uchun maxsus mashqlar kompleksini shakllantirish maqsadida sport sinovlari bo'yicha mashq kartotekasi ishlab chiqildi.

Sport sinovlari bo'yicha mashq kartotekasi

Sinov turi	Mashq nomi	Tavsiya etilgan takrorlar	Izoh
30 m yugurish	Sprint uslubida yugurish, startdan chiqish	4–6 marta	90–95% maksimal tezlikda
	Reaksiya tezligi mashqlari (signalga yugurish)	5–8 marta	Sport signaliga tez javob berishni o'rgatadi
1000/600 m yugurish	Oraliq masofalarga yugurish (400–800 m)	2–3 marta	Chidamlilikni rivojlantiradi
	"Intervall yugurish"	3–5 marta	Yurak-qon tomir tizimi mashqlari
Uzunlikka sakrash (joydan)	Oyoq mushaklari kuchi: yarim cho'nqayish	3 ta 10 tadan	Portlovchi kuchni oshirish
	Shartli to'siqlardan sakrashlar	6–8 marta	Tayanch harakat apparati faollashadi
Turnik /qo'llarni bukib yozish	Turnikda osilish, asta harakatlari	Har kun 3–5 marta	Kuchni bosqichma-bosqich oshiradi
	Gantel bilan mashqlar (qizlar uchun)	2 ta 10 tadan	Tananing yuqori qismini rivojlantirish
Egiluvchanlik	"Kepka olish", "Yerdan qalam olish" o'yini	5–7 marta	Umurtqa moslashuvchanligini oshiradi
	Gavdani aylantirish va egilish mashqlari	10–15 soniya davomida	Harakat amplitudasini kengaytiradi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning ko'pchiligi yurak-qon tomir chidamliligi va ephillik bo'yicha past ko'rsatkichlarga ega bo'lib chiqdi. Shuningdek, qiz bolalarning kuch va tezkorlik sifatlari sust rivojlangan, o'g'il bolalarda esa egiluvchanlik darajasi pastligi aniqlandi. Bu holat, o'z navbatida, sport mashg'ulotlarida yondashuvni individuallashtirish zaruratini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida zamonaviy texnologiyalar, xususan, mobil ilovalar orqali puls, yugurish tezligi va masofani aniqlash tizimlari ham sinov tariqasida qo'llanildi. Bu metodlar baholash jarayonini aniq, tez va shaffof qilishga xizmat qildi.

Xulosa. Yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha sport sinovlarini ilmiy asosda tashkil etish va o'tkazish ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini samarali

boshqarish imkonini beradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bugungi o'quvchilar orasida jismoniy faollik yetarli darajada emasligi, ayrim jismoniy sifatlarning past darajada rivojlanganligi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sog'lom turmush tarziga to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

▪sport sinovlarini o'tkazish orqali o'quvchilarning jismoniy holati, tayyorgarlik darajasi va harakat faolligi haqida to'liq va aniq ma'lumot olish mumkin;

▪sinovlar natijalariga ko'ra, individual yondashuvni qo'llash jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sifatini oshiradi;

▪yuqori sinf o'quvchilari orasida sportga qiziqishni oshirish uchun sinovlar jarayonini interaktiv, raqamlashtirilgan va musobaqaviy ruhda tashkil etish maqsadga muvofiq;

▪baholash jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijaviylikni ta'minlaydi va pedagogik nazorat tizimining sifatini oshiradi;

▪sinovlar orqali o'quvchilarning sog'lig'i va jismoniy holatiga oid ma'lumotlar tibbiy-psixologik kuzatuvlar bilan uyg'unlashtirilsa, jismoniy rivojlanishga kompleks yondashuv shakllanadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha sport sinovlarini takomillashtirish, ularning salomatligi va harakat madaniyatini rivojlantirishda eng muhim pedagogik vositalardan biridir. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotda qo'llanilsa, bu nafaqat sog'lom avlodni shakllantirishga, balki yurt kelajagi uchun har tomonlama yetuk yoshlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 16-iyundagi PQ-5148-qarori. Lex.uz

(2). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 15-yanvar, 23-qarori. Lex.uz

(3). Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv qo'llanma, O'zDJTI, T., 2005.

(4). Matnazarov O'L. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Toshkent, "Lesson Press", 2022.

(5). Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. T., ITA-PRESS, 2015.

(6). Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. М., "Академия", 2017.

(7). Armstrong N., Harris J. Physical Fitness and Health Education in Youth. Oxford: Routledge, 2015.

Saidov Ixtiyor Mizrabovich (Urganch Ranch Texnologiya universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD) CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI O'QITUVCHILARIDA IJTIMOYIY- MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati qiyosiy va tanqidiy-tahliliy metodlarga asoslangan tarzda tadqiq qilingan, bo'lib, unda ijtimoiy-madaniy kompetentlikning yoshlar kamoli va soha mutaxassislarini tarbiyalashdagi o'rni turli tahlillar, dalillar asosida ochiqlab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ijtimoiy-madaniy kompetentlik, chaqiriqqacha harbiy ta'lim, ijtimoiylashuv, muomala layoqati, kommunikativ hamda integrativ ko'nikmalar.*

Саидов Ихтиёр Мизрабович (доцент университета «Urganch Ranch Technology», доктор философии (PhD)

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ НАПРАВЛЕНИЯ ДОПРИЗЫВНОЙ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ

***Аннотация.** В данной статье исследуется важность формирования социальной и культурной компетенции у преподавателей направления допризывной военной подготовки с использованием сравнительных и критико-аналитических методов. Также рассматривается роль социальной и культурной компетенции в воспитании молодежи и подготовке специалистов в данной области на основе различных анализов и доказательств.*

***Ключевые слова:** социально-культурная компетенция, допризывная военная подготовка, социализация, коммуникативные и интегративные навыки, навыки общения.*

Saidov Ikhtiyor Mizrabovich (Associate dosetn at Urganch Ranch Technology University, Doctor of Philosophy (PhD))

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN PRE-CONSCRIPTION MILITARY EDUCATION TEACHERS

Annotation. This article examines the importance of developing social and cultural competence in teachers of the conscription-based military training direction through comparative and critical-analytical methods. The role of social and cultural competence in the development of youth and the training of specialists in this field is revealed based on various analyses and evidence.

Keywords: social and cultural competence, conscription-based military training, socialization, communication skills and integrative competencies.

Kirish. Bugungi kunda harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari nafaqat harbiy bilim va ko'nikmalarga, balki keng qamrovli ijtimoiy va madaniy savodxonlikka ham ega bo'lishi talab etiladi. Chunki zamonaviy harbiy kadrlar nafaqat jangovar vaziyatlarda, balki tinchlik sharoitida ham ijtimoiy muvoqot olib borish, madaniy merosni anglash va milliy qadriyatlarni hurmat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Bu esa chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilaridan ijtimoiy-madaniy kompetentlik ko'nikmalarini talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, A.I.Kovaleva va V.A.Lukov (1999) o'z tadqiqotlarida yoshlar sotsiologiyasiga e'tibor qaratib, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlarini o'rgangan. Ularning ta'kidlashicha, harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish uchun yoshlar sotsiologiyasiga oid bilimlarni hisobga olish lozim. N.N.Pomuran (2004) tomonidan etnopsixologik xususiyatlarning iqtisodiy sotsializatsiyaga ta'siri tadqiq etilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim jarayonida milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olish ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. E.Y.G'oziyev (2012) va V.M.Karimova va N.A.G'oyibova (2018) tomonidan oilaviy munosabatlar psixologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda oilaviy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib, uni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi. Tahlil va sintez – mavzuga doir mavjud adabiyotlar va tadqiqot ishlarini o'rganish hamda ularni umumlashtirish orqali asosiy xulosalarni chiqarish. Tajribaviy metodlar – chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligi darajasini aniqlash uchun amaliy tadqiqotlar o'tkazish. Anketa-lar va so'rovlar harbiy ta'lim muassasalarida talabalarining ijtimoiy-madaniy bilim darajasini baholash va muammolarni aniqlash uchun qo'llanildi. Taqqoslash va qiyosiy tahlil – ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoit bilan solishtirish. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning shakllanishi harbiy xizmatchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, jamiyat bilan samarali aloqa o'rnatish va milliy an'analarga hurmat bilan yondashish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga kelib, respublikamizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O'z navbatida, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [1;1–3-b.]. Hozirgi davrda ta'lim samara-dorligini oshirish, mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Ta'lim – jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omili. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat

ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilari talabalarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan uslubiy qo'llanmalardan unumli foydalanish negizida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi. Shu munosabat bilan, harbiy ta'lim yo'nalishi chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Ta'lim insonning (ta'lim oluvchining) hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirish bo'lib, u jarayon yoki oqibat natija sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika ta'lim to'g'risidagi fan inson hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirishdir. Shaxsning strukturaviy iyerarxiyasida ta'lim va shaxs hayotiy tajribasi rivojlanishini quyidagi kontekstda tizimli ifoda etish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi inson hayoti va faoliyatining turli sohalaridagi tez sur'atlarda kechadigan innovatsion o'zgarishlar bilan xarakterlanadi, ijtimoiy soha ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda jamiyat va davlatga tez o'zgaruvchan sotsium (jamiyat)ga ijtimoiy moslashuvchan, faol, ijodkor, xatti-harakatlarning universal usulini egallagan kishilar zarurdir. Ta'lim tizimi hozirgi davr talabiga javoban, ta'limga kompetentli yondashuv g'oyasini ishlab chiqqan va uni ta'lim maskanlariga joriy etishga harakat qilmoqda. Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy kompetentlikka alohida o'rin berilgan bo'lib, u o'zida turli hayotiy sohalaridagi ijtimoiy hamkorlikka bo'lgan qobiliyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiradi. Zamonaviy axborot jamiyatini modernizatsiya qilishni globallashtirish jarayonisiz tasavvur etib bo'lmaganidek, turli fanlarni rivojlantirish va yangi g'oyalarni joriy etish jarayonini ijtimoiy-madaniy hamkorliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu jarayonlar inson hayotining barcha-kundalik, madaniy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy sohalariga taalluqli.

Inson hayoti davomida doimo turli madaniyat va urf-odatlar vakillari bilan duch keladi, ular do'stlar, qarindoshlar yoki tanishlar bo'lishi mumkin. Biroq ular bilan muloqot qilish qiyin bo'lishi ham mumkin, chunki har bir inson dunyoning o'z idrokiga ko'ra angelaydi, madaniy-madaniy xususiyatlar turli bo'ladi va til to'siqlari o'rtasidagi farqga egadir. Muloqotni muvaffaqiyatli qurish va samarali hamkorlikni amalga oshirish uchun bag'rikenglik va g'amxo'rlik kabi fazilatlar, shuningdek, til muhitiga tezda moslashish qobiliyati talab qilinadi. Bularning barchasini "ijtimoiy-madaniy kompetentlik" umumiy atamasi bilan birlashtirilish mumkin.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari ijtimoiy-madaniy kompetentligini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish, ularda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalangan holda shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Olimlar ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. Shuningdek, yana bir guruh olimlar shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridandir. "Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi".

"Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F.H.Geddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U "ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi va uni asoslab beradi [2;14-b]. Fransuz olimi Emil Dyurkgeym va amerikalik sotsiolog olim Telkott Parsons tadqiqotlarida insonga jamiyat ta'sirining sust iste'molchisi sifatida qaralishini ta'kidlagan. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o'rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutilgan.

Ijtimoiylashuv masalalarini o'rganishning sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini ajratish mumkin. Sotsiologik yo'nalish individning ijtimoiylashuvini ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma'lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirish bilan aloqadorlikda aks ettiradi, ijtimoiy-psixologik yo'nalish esa ijtimoiylashuvda ontogenez davrida ijtimoiy me'yor, madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonini ifoda etadi.

Klassik yondashuvlarda, ijtimoiylashuv individni jamiyat a'zosi sifatida his qilishi uchun zarur bo'ladigan barcha odob-axloq va qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga qamrab olishi orqali shaxs hayotida alohida ahamiyat kasb etishi, ta'kidlanadi. Bunda ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayon sifatida yuzaga chiqishi bayon etiladi. Ya'ni, birinchisida, individdan ijtimoiy muhitga, ijtimoiy bog'lanishlarga kirishish yo'lida sotsiumdagi mavjud ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish talab etilsa, ikkinchisida esa bu tizim ichida individ o'z faoliyati davomida sodir bo'lishi kuzatiladigan jarayonlarning faol ishtirokchisi va subyekti sifatida maydonga chiqishi zaruriy shart hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologlar bu tushunchaning mazmunini yoritishar ekan, ijtimoiylashuv – jamiyat va boshqa kishilar bilan bo'ladigan qoniqarli aloqalar taraqqiyotida kutiladigan xulq-atvor va o'zlashtiriladigan rollarning namoyon bo'lish jarayoni, deb tushunishadi.

A.I.Kovalevaning yozishicha, "ijtimoiylashuv – o'z ichiga barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan bo'lib, u individning belgilangan normalar, qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat a'zosi sifatida ulardan keng qamrovda foydalanishida namoyon bo'ladi" [3;351-b.]. Bunday sharoitlarda ijtimoiylashuv ikki yoqlama jarayon sifatida yuzaga keladi, ya'ni, birinchidan, individ ijtimoiy tajribalarni tizimga aloqador holda muhitga kirib borishi orqali o'zlashtirsa, ikkinchidan, bu tizimni yaratish, shakllantirish va rivojlantirish bevosita individning hayotiy faoliyati davomida amalga oshiriladi. Bu tizimda individ tomonidan faol tarzda o'zlashtirilgan normalar va ijtimoiy rollar muhim ahamiyat kasb etib, natijada, ijtimoiylashuv – ijtimoiy tajribalarni boshqa individlarga yetkazishdagi uzluksiz jarayon sifatida yuzaga chiqadi.

N.N.Pomuranning bu mavzu yuzasidan u tushunchani e'tirof etishicha, "ijtimoiylashuv bu individ tomonidan butun umr davomida o'z jamiyatiga taalluqli bo'lgan ijtimoiy rollar, odob-axloq normalari, milliy va ma'naviy qadriyatlarining o'zlashtirilishi jarayonidir" [4;176-b.]. Bunda ijtimoiylashuv jarayoni yosh davrlari bo'yicha chegaralanmaydi, balki u individning butun hayoti mobaynida ijtimoiy ko'nikmalar va tajribalarni o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

E.Y.G'oziyevning izlanishlarida, "shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ijtimoiy kamolotga erishuvi, alohida faollik namoyish qiluvchi, o'ziga xos faoliyat ko'rsatuvchi individdan muayyan aqliy qobiliyatini rivojlantirishga, ijtimoiy turmushdagi rollarni, mas'uliyatli yumushlarni bajarishga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarligidir", deb ta'riflanadi [5;316-b.].

Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada keng tarqalgan ta'riflarda esa ijtimoiylashuv – bu individning hayoti davomidagi o'z jamiyatiga taalluqli bo'lgan qadriyatlar, ijtimoiy rollar, xulq-atvorlarni o'zlashtirishidir, deya ta'kidlanadi. Shuningdek, V.M.Karimovanning ta'kidlashicha, "...ijtimoiylashuv tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, tashkilotda qabul qilingan norma va qoidalarni o'zlashtirishga moyilligi hamda ularni o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir" [6;111-b.]. Eng asosiysi, bu tushunchaning tub zamirida insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi.

Amerikalik sotsiolog N.Smelzer "ijtimoiylashuvni ijtimoiy rolga muvofiq keluvchi ko'nikma va ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish jarayoni" tarzida aniqlashtirgan. G.Tard jamiyatni yaxlitlikda avloddan avlodga o'tib borish hamda qadriyat va ustanovkalarni o'zlashtirish orqali individual ongning mahsuli sifatida talqin etadi. Uning fikricha, qadriyat va ustanovkalarni o'zlashtirish barcha ijtimoiy hayotning izohli tamoyilini aks ettiruvchi "taqlid" tushunchasida o'z ifodasini topadi. Amerikalik sotsiolog F.H.Giddings ijtimoiy organizmning tashkil topishida istesno tariqasida psixologik asos yotadi. Uning fikricha, birgalikdagi o'zaro faoliyat umumiy qadriyatlar tarkib toptiriladigan ishonch va taqlid mexanizmi orqali sodir bo'ladi. Jamiyatning ta'siri ostida individda jamoaviy ustanovkalar, identiv anglanganlik tarkib topadi. Amerikalik olim T.Parsons jamiyatni asosiy funksiyasi biologik ko'payish va yangi avlodni ijtimoiylashtirish yo'li bilan yangilanish bo'yicha ma'lum bir qoidalar tizimi asosida ratsional tashkil topish va mavjud bo'lish sifatida tasavvur qilgan. Shuning uchun jamiyat shaxsni ijtimoiy ahamiyatli va nazorat qilinuvchi xulq-atvor namunalarida ishtirok etishi uchun adekvat motivatsiyaning hayotiy sikli jarayonida rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim.

Oliy ta'lim muassasasi chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim muammo ekanligini asoslash haqida gap borar ekan, mazkur holatda "ijtimoiy moslashtirish" tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat tadqiqotlarda moslashuvning o'ziga xos turi sifatida "ijtimoiy-psixologik moslashuv"ga alohida e'tibor qaratilib, faqat uning psixologik jihatlarini yoritib berish bilan cheklaniladi. Bizningcha, ijtimoiylashuv inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayoni ekan, bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olga-

nida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Pedagogika fanlari doktori, professor N.M.Egamberdiyeva ta'kidlab o'tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi [7;73-b.].

Umumiy qilib aytganda, moslashuv, shu jumladan, ijtimoiy moslashuvga aniq maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir .

Ta'lim sohasidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning konseptual qarashlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy pedagogikada “boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda, oilani, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va farzandlarni tarbiyalashda “ongli” va o'zlarining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirish qobiliyati”, deb hisoblaydi” .

The study underscores the role of literature in shaping students' career aspirations and overall success. By fostering critical thinking, communication, and emotional intelligence, literature equips students with essential skills for the modern workforce. Therefore, integrating literature into education is vital for preparing students to navigate their professional journeys successfully [10].

In conclusion, literature can help students improve their vocabulary expansion by exposing them to diverse vocabulary, providing contextual understanding, facilitating learning through context, exploring nuances of language, enhancing communication skills, and improving writing skills. By engaging with literary works throughout their academic journey, students can expand their vocabulary, refine their language skills, and develop the linguistic proficiency needed to succeed in their career choices and future endeavors.

Conclusion. The findings of this article affirm that literature is not merely an artistic or academic discipline but a transformative force that deeply influences students' career trajectories and personal development. Through its diverse narratives, characters, and themes, literature nurtures critical thinking, emotional intelligence, communication proficiency, and creativity—skills that are essential in navigating the complexities of the modern workforce. It opens students' minds to a broader spectrum of professional opportunities, instills ethical awareness, and encourages them to pursue meaningful, value-driven careers.

Moreover, literary engagement fosters empathy and resilience, qualities that are indispensable in leadership and collaborative environments. By promoting introspection and expanding cultural and professional perspectives, literature becomes an invaluable tool for shaping well-rounded individuals prepared to face future challenges with confidence and clarity. Therefore, incorporating literary studies into educational frameworks is not only beneficial but imperative for cultivating capable, reflective, and purpose-driven future professionals.

Reference:

- (1). Duffy, C., & Walker, J. (2018). "Literature as a career guide: Exploring professions through stories".
- (2). Lundquist, M. (2019). "The reflective reader: How literature shapes identity and professional choices".
- (3). Gannon, M., & Morrow, T. (2020). "The power of stories: How literature enhances critical thinking and leadership skills".
- (4). Smith, R., & Richards, L. (2022). "Words that matter: The role of literature in communication and career development".
- (5). Propp, V. (1968). "Morphology of the folktale".
- (6). Zipes, J. (2006). "Why fairy tales stick: The evolution and relevance of a genre".
- (7). Lucas, S.E. (2020). "The art of public speaking".
- (8). Nussbaum, M.C. (1997). "Cultivating humanity: A classical defense of reform in liberal education".
- (9). Eagleton, T. (2008). "Literary theory: An introduction".
- (11). Carter, R. (2012). "Literature and language teaching".

Karimova Muyassarxon Abduqayumovna (KUAF “Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi; e-mail: karimova@gmail.com)

TA'LIM VA TARBIYA–XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY MUHOFAZALASHNING USTUVOR YO'LI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning ta'lim va tarbiyasiga berilayotgan e'tiborning o'ziga xos xususiyatlari falsafiy tahlil qilingan. Xususan, mamlakatimizda bu borada qilinayotgan islohotlar va amaliy harakatlar asoslari bilan keltirilgan. Ayollarning ta'lim va tarbiyadagi yutuqlari ularning ijtimoiy muhofazalashning ustuvor yo'nalishi ekanligi manbalar asosida ifodalangan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, ijtimoiy muhofaza, ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ilmiy tadqiqot, gender tenglik, kasb-hunar.

Karimova Muassarxan Abduqayumovna (docent kafedrasida “Sosialno-ekonomicheskikh nauk” KUAF, kandidat filosofskikh nauk)

ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЕ–ПРИОРИТЕТНЫЙ ПУТЬ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН

Аннотация. В статье философски проанализированы особенности внимания, уделяемого образованию и воспитанию женщин. В частности, приведены основы проводимых в нашей стране реформ и практических действий в этом направлении. Достижения женщин в образовании и воспитании были сформулированы на основе источников, обосновывается мнение, что они являются приоритетом социальной защиты.

Ключевые слова: женщины, социальная защита, наука, образование и воспитание, научные исследования, гендерное равенство, профессия.

Karimova Muassarkhan Abdukayumovna (Associate Professor of the Department “Social and Economic Sciences” KUAF, Candidate of Philosophical Sciences)

EDUCATION AND UPBRINGING IS A PRIORITY WAY OF SOCIAL PROTECTION OF WOMEN

Annotation. The article philosophically analyzes the features of the attention paid to the education and upbringing of women. In particular, the basics of the ongoing reforms in our country and practical actions in this direction are given. The achievements of women in education and upbringing were formulated based on the sources that they are a priority of social protection.

Keywords: women, social protection, science, education and upbringing, scientific research, gender equality, profession.

Kirish. Xotin-qizlarning ta'lim va tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabat global va milliy taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega dolzarb muammolardan. Ayollar ilm-fanda faol bo'lgan mamlakatda nafaqat iqtisodiy va innovatsion o'sish yuqori bo'ladi, balki xotin-qizlarning o'zini ijtimoiy muhofaza qilishning yagona yo'li hamdir. Shuning uchun bugun yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan va ta'lim sohasidagi ishtirokini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, grantlar va ta'lim dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash davlat siyosatiga aylangan. Butun dunyoda ilm-fan va ilmiy izlanishlarda xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori ta'lim va ilm-fan borasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonning oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida aniq fanlar, texnologiya, muhandislik, ijodiy san'at va matematikani rivojlantirishga urg'u berilgan. Unga ko'ra oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida xotin-qizlarni o'qitishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Ayollar uchun bepul hamshiralik, tikish-bichish, kulinariya, kompyuter savodxonligi, til kurslari tashkil etilib, ish bilan ta'minlanmoqda. M.Xolmatovanning “Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi”¹ asarida sog'lom avlodni tarbiyalashda onaning ro'liga urg'u berilgan. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ilm-fan sohasida ishlaydigan tadqiqotchilarning 30–35% ayollar hisoblanadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 48 foizni tashkil etadi.² O'zbekistonda 2022–

¹ M.Xolmatova. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. Toshkent, 2000, 51-bet.

² O'zbekistonda olimlarning 48 foizini ayollar tashkil etadi. <https://daryo.uz/k/2025/02/11/saida-mirziyoyeva-ozbekiston-olima-ayollari-forumida-ishtirok-etdi-foto>

2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur tasdiqlangan.

“Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori (500-son, 2024-yil 12-avgust) bilan oila va xotin-qizlar qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan bo‘lib, qo‘mitaning asosiy vazifalari va funksiyalari belgilab berilgan.¹

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Yurtimizda xotin-qizlarning sifatli ta‘lim va tarbiya olishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mutafakkir jadid bobomiz Abdurauf Fitrat ta‘biri bilan aytganiday, “Onalar – butun bashariyatning tarbiyachilaridir“. Darhaqiqat, oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma‘lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi. Biz shu maqsadda xotin-qizlar ta‘limini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim dasturni qabul qildik”, dedi davlat rahbari.² Prezident hozirda ayollarning ulushi tibbiyotda – 77 foizni, ta‘lim sohasida – 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etayotganini qayd etdi.³

Konsepsiya, farmon va qarorlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ayollarning ilm-fandagi ishtirokiga qaratilgan maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda. Davlat tomonidan qizlarning ta‘lim olishini rag‘batlantirish uchun maxsus grantlar, kvotalar va stipendiyalar joriy qilingan. Ayniqsa, STEAM (aniq fanlar, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika) yo‘nalishlarida ayollarning ishtiroki oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, ilmiylik va mantiqiy izchillik, tarixiylik metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ayollarning fan va texnika sohasidagi ishtiroki mamlakatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayollar ta‘lim sohasida faol bo‘lsa, jamiyatning ma‘naviy saviyasi oshib, intellektual salohiyati yuksaladi. Ayollarning ta‘lim va fan sohasida to‘laqonli ishtiroki gender tengligini ta‘minlashga ham xizmat qiladi, jamiyatda esa barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Oliy ma‘lumotli onalar farzandlarining savodxonligi va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayrim jamiyat qatlamlarida ayollarning ilm-fan va texnika sohalaridagi ishtirokiga nisbatan salbiy fikrlar mavjud. Ba‘zi insonlar “Ayol kishi o‘qib shahar olib berarmidi” degan noto‘g‘ri tushunchaga ega. Bugungi global dunyoda global ongni o‘zgartirish vaqti yetib keldi. Bugun bilimsiz, qo‘lida mutaxassislik diplomiga ega bo‘lmagan, til bilmagan va ish joyiga ega bo‘lmagan insonga psixologik va iqtisodiy jihatdan ham murakkab vaziyatlarga tushib qolishi mumkin. Zamon to‘siqlarini dovdirab qolmasdan, shokka tushmasdan oqilona bosib o‘tish qobiliyatini shakllantirish, muammo inson hayoti davomida uning parallellida mavjud bo‘lishi va undan qo‘rqmaslik, o‘z hayotini boshqarish salohiyatiga ega bo‘lish, oyoqda mahkam turish va o‘ziga ishonchi ortishi uchun, albatta, har bir xotin-qiz bilim va kasb cho‘qqilarini egallashi lozim. Bunday insonlar oilasida barqarorlik va rivojlanish bo‘ladi, unda voyaga yetgan farzandlar davlat va jamiyat uchun xizmat qiladi, vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda, birinchi navbatda, ilmiy ayol millat tarbiyachisidek og‘ir va sharafli vazifani bajaradi. Shuning uchun ham bugun qizlarni o‘qitish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ilmiy va ta‘lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarini, asosan, erkaklar egallagan. Ayollar uchun rahbarlik lavozimlariga tayyorlash dasturlarini kuchaytirish, ularni boshqaruv jarayonlariga kengroq jalb qilish kerak. Ayrim ayollar iqtisodiy yoki oilaviy sabablarga ko‘ra ta‘lim va ilmiy faoliyatni tashlab ketishadi. Xotin-qizlarning ilm bilan shug‘ullanishiga oilada erkak, qaynona, otaning qarshiligi kabi to‘siqlar ham uchrab turadi. Xotin-qizlar uchun ilmiy grantlar va moliyaviy yordam dasturlarini joriy etish va OAVlarda ayollarning bilimli bo‘lishi har tomonlama oilaga foyda keltirishi haqida targ‘ibot ishlarini olib borilmoqda. Ilmiy ayollar, o‘qimishli qizlarning oilasi va hayoti OAVlarda, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilmoqda. Biroq bu targ‘ibotlarni yanayam samarali vositalarini joriy etish lozim.

Davlatning ta‘lim sohasidagi siyosati mehnat bozorida ikki yo‘nalishdagi imkoniyatlarda gender tengligiga erishishga ham yordamlashishi mumkin: birinchidan, ayollarning bilim darajasini oshirishga ko‘maklashish orqali, ikkinchidan, ayollar va erkaklar tomonidan boshqa jins vakillari an‘anaviy tarzda ko‘pchilikni tashkil qiladigan kasb-hunarlarini egallashlarini rag‘batlantirish orqali. Masalan, 2002-yilda Avstri-

¹ “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.

² “Oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma‘lumotga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi”. Prezident // <https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/07/womens/>

³ O‘sha joyda.

yada ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan ayollar sonini oshishiga yo'naltirilgan besh yillik loyiha joriy qilingan edi. Hukumat tomonidan ajratiladigan grantlar fan va texnologiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Axborot texnologiyalari sohasida ishlovchi ayollar uchun yozgi maktablar tashkil qilish; tadqiqotlarni o'tkazish uchun ularga stipendiyalar ajratish; texnik fanlarni o'qitish tamoyillarini o'zgartirish uchun majmuaviy gender yondashuvni joriy qilingan. Mazkur loyiha doirasida Vena texnologik universitetida "Ayollarning Internet-texnologiyalar kolleji" (Women's Postgraduate College for Internet Technologies) dasturi ochilib, u kompyuter sohasida ayollarning muammosini bartaraf qilishga chaqirildi.

Norvegiya tajribasi ham ta'lim sohasida majmuaviy gender yondashuvini joriy qilishning yana bir namunasi hisoblanadi, u yerda Norvegiyaning janubiy qismida "qizlar va texnologiya" nomli loyiha amalga kiritildi, uning maqsadi ayollarni texnologik tarmoqlarga jalb qilishdan iboratdir. Mazkur loyihani to'liq amalga oshirish jarayonida texnologik ixtisoslikni tanlayotgan qizlar soni yiliga 30%ga o'sdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ayollarning ta'lim tarbiyasi bashariyat yutug'i desak, mubolag'a bo'lmaydi. Dunyo kelajak avlodlari ular qo'lida voyaga yetadi. Ilmli, diyonatli xotin-qizlarimiz farzandiga to'g'ri tarbiya berishi bilan millatlar kelajagini barpo etadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, agar kishi o'zi tarbiyalangan bo'lmasa, farzandiga o'zi o'rnak bo'lolmasa, aytgan gaplariga o'zi amal qilmasa, u hech qanday natijaga erisha olmaydi. Muborak hadislarda Rasululloh s.a.v aytadilar: "Farzandlaringizga munosib onani ixtiyor qilinglar",¹ deyilgani bejiz emas. Munosib ona bu ta'lim va tarbiyada ustuvor ayoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida.
- (2). "Oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga ega bo'lsa, xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi" – Prezident // <https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/07/womens/>
- (3). O'sha joyda.
- (4). <https://oliymahad.uz/22663>

Mardanov Uktamjon Rustamovich (Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'naishi 1-bosqich magistranti; Mardanovuktamjon @gmail.com) O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TERMINLAR LINGVOPOETIKASINING O'RGANILISHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada terminologik tizimning so'nggi yillardagi taraqqiyoti, badiiy matnda terminlarning lingvopoetik aktuallashuvi muammolari, sohaviy terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish xususiyatlarining tadqiq etilish masalasi atroflicha yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** terminologik tizimi, sohaviy terminlar, lingvistik xususiyatlar, ko'p ma'noli terminlar, lingvokulturologik talqin, terminlarning lingvopoetik aktuallashuvi, uslubiy xoslanish, poetik-estetik maqsad, terminlarning uslubiy maqomi.*

Марданов Уктамжон Рустамович (Бухарский институт психологии и иностранных языков, кафедра узбекского языка и литературы, магистрант 1 курса; Мardanovuktamjon. @gmail.com)

ИЗУЧЕНИЕ ЛИНГВОПОЭТИКИ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

***Аннотация.** В данной статье всесторонне освещается развитие терминологической системы за последние годы, проблемы лингвопоэтической актуализации терминов в художественных текстах, а также изучение стилистических особенностей профессиональных терминов в художественных текстах.*

***Ключевые слова:** терминологическая система, профессиональные термины, языковые особенности, полисемичные термины, лингвокультурная интерпретация, лингвопоэтическая актуализация терминов, стилистическая адаптация, поэтико-эстетическое назначение, стилистический статус терминов.*

Mardanov Uktamjon Rustamovich (Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages. The department of Uzbek Language and Literature, 1st year master's student; @gmail.com)

THE STUDY OF LINGUOPOETICS OF TERMS IN UZBEK LINGUISTICS

***Annotation.** This article comprehensively examines the recent development of the terminological system, the problems of linguopoetic actualization of terms in literary texts, and the issue of researching the stylistic characteristics of specialized terms in literary works.*

¹ <https://oliymahad.uz/22663>

Keywords: *terminological system, specialized terms, linguistic features, polysemous terms, linguistic-cultural interpretation, linguopoetic actualization of terms, stylistic features, poetic-aesthetic purpose, stylistic status of terms.*

Kirish (Introduction). Tilshunoslikning terminologik tizimida jamiyatda yuz bergan soʻnggi yillardagi iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy, texnik-texnologik taraqqiyot natijalari, davlatlarning turli sohalardagi hamkorlik aloqalari, tezkor axborot almashuvining yoʻlga qoʻyilganligini va turli tizimdagi tillarning oʻzaro aloqasi oʻlaroq koʻplab yangi terminlar hosil qilinganligini, oʻzga tillardan terminlar oʻzlashtirish jarayoni sezilarli darajada kuchayganligini koʻrishimiz mumkin. Bu esa sohaviy terminlar tadqiqi masalasini oʻrganishga qaratilgan lingvistik tadqiqotlarning yuzaga kelishiga turtki berdi, yangi izlanishlar uchun keng yoʻl ochdi, hal etilishi lozim boʻlgan dolzarb muammolarni belgilab berdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev toʻgʻri qayd etganlaridek, “Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan koʻplab yangi tushuncha, soʻz va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lugʻat boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning oʻzbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qoʻllanishini taʼminlash dolzarb vazifa boʻlib turibdi”.¹

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Terminologiya va uning nazariy asoslari, ayrim soha terminlarining lingvistik xususiyatlari, terminlarni tartibga solish masalasi jahon tilshunosligida G.O.Vinokur, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, O.S.Axmanova, V.P.Danilenko, A.V.Superanskaya va boshqa olimlar tomonidan u yoki bu darajada tadqiq etilgan.²

Bugungi kunda nafaqat oʻzbek tilshunosligida, balki boshqa tillar terminologik tizimida terminlar tadqiqiga doir yangicha yondashuvlarga boʻlgan ehtiyoj yanada ortib bormoqdq.

Zamonaviy terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada jiddiy oʻrganish, terminlar yaratish va ularni qoʻllashning til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari boʻyicha chuqurroq tadqiq qilish, yangi davr tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng barcha sohalar qatorida tilshunosligimizning barcha sathlarida, xususan, terminologiyaga xos xususiyatlarni yangi aspektda tadqiq qilish koʻzga tashlandi. Jumladan, I.Pardayeva, N.Usmonov, Z.Isaqova, Z.Mirxoliqov, Gʻ.Ismailov, A.Toʻraxodjayeva kabi tilshunoslarning nomzodlik ishlarida sohaviy terminologiyaning oʻziga xos lisoniy xususiyatlari oʻz aksini topgan.³

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shu bilan birga, terminologiya sohasida hali yechimini kutayotgan masalalar ham yoʻq emas. Xususan, termin muammosi va uning uslubiy maqomi masalasiga oydinlik kiritish, sohaviy terminologiyaning lingvokulturologik talqinini yaratish, badiiy matnda terminlar-

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўttiz йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Халқ сўзи”, 2019 йил 22 октябрь.

²Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ, т. 5, сборник статей по языковедению, М., 1939, с. 3–54; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. М., 1961; Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. М., 1968; Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. М., “Наука”, 1982; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? Вопросы терминологии. М., 1961, с. 46–54; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2, М., “Советская энциклопедия”, 1969; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. М., “Наука”, 1977; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. М., “Наука”, 1989.

³Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фан. номз.дисс. ... автореф., Тошкент, 1994; Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз.дисс. ...автореф., Тошкент, 1994; Исакова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридagi ижтимоий-сиёсий лексика. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф., Тошкент, 2010; Мирхаликов З. Ўзбек тилида балиқ номларининг луғавий-маъновий ва грамматик хусусиятлари. Филол. фан. номз.дисс. ... автореф., Тошкент, 1990; Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф., Тошкент, 2011; Тўрахожаева А. Мустикаллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз.дисс. ... автореф., Тошкент, 2012.

ning lingvopoetik aktuallashuvi muammolarini yoritish, sohaviy terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish xususiyatini tadqiq etish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Tilshunoslikda terminlarning, odatda, bir ma'noli birliklar ekanligi ko'p ta'kidlanadi, ammo turli tilalarda ko'p ma'noli terminlar ham uchray turadi.¹ Ayniqsa, anatomiya, geografiya, musiqa, yog'ochsozlik, mineralogiya, botanika, tibbiyot, kimyo, xalq amaliy san'ati turlari va boshqa soha terminlarining nutqda ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi ko'p kuzatiladi.

G.Ernazarova "O'zbek tili mineralogiya terminlarining lingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasining alohida bobini "Mineralogiya terminlarining lingvopoetik xususiyatlari"ga bag'ishlagan. Ishda terminlarning badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan funksional-uslubiy xususiyatlari, o'zbek tilida yaratilgan nazmiy va nasriy asarlarda individual-muallifiy metaforalar ko'p uchirashi, ularni tadqiq etish so'z san'atkorlarining nutqiy individualligini ochib berish bilan birga, metaforalarning kognitiv hamda lingvomadaniy birlik sifatidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi, mineralogiya terminlarining o'xshatishlarni hosil qilishi qayd etilgan. Umuman, mazkur bobda mineralogiya terminlarining badiiy matn tarkibidagi lingvopoetik qimmatini tadqiq etish, ularning o'ziga xos uslubiy-semantik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega ochib berilgan.²

Ilmiy va badiiy uslublar o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, badiiy matnda turli terminlarning qo'llanishi va bunda ularning badiiy-estetik qimmat kasb etishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ana shunga ko'ra, tilshunoslar "ilmiy til unsurlarining, terminlarning poetik so'z san'atiga olib kirilishi mutlaqo tabiiyligiga, badiiy nutq o'z mohiyatiga muvofiq polistilistiklikligiga, unda benihoya xilma-xil lisoniy vositalar sinezlana olishi mumkin"ligiga e'tiborni qaratadilar.³

Shu o'rinda tilshunosligimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan ayrim tadqiqotlarni mustasno qilganda, turli soha terminlarining badiiy matndagi xususiyatlari lingvopoetik yondashuvda, shuningdek, matniy qurshov doirasida o'rganilmaganligini, ularning badiiy matnda namoyon bo'luvchi antropotsentrik, jumladan, lingvokulturologik, kognitiv xususiyatlari monografik aspektda tadqiq qilinmaganligini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbek tilshunosligida terminlarning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlarini o'rganishga, dastlab, H.Shamsiddinov e'tibor qaratdi. Uning nomzodlik dissertatsiyasida she'riy tizimda terminlarning uslubiy vazifalari hamda terminlarda funksional-semantik sinonimlarning qo'llanish xususiyatlari o'rganilgan.⁴

Badiiy matnda qo'llangan terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini o'zbek tilshunosligida birinchi marta maxsus tadqiq qilgan

D.Jamoliddinova: "Leksik strukturadagi bir qancha birliklar, ularning o'zaro munosabatini talqin qilishda tilshunoslikda anchayin umumiy bir fikr shakllangan bo'lsa-da, terminlar masalasida o'zbek tilshunosligida tamoman bir yechimga kelingan emas. Shuning uchun terminologiyani, xususan, terminlarning badiiy matndagi lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini tavsiflash o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi",⁵ deya juda o'rinli e'tirof etadi.

Olima o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi aniq va tabiiy fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlarining, shuningdek, kasb-hunar leksikasining badiiy matnda muayyan poetik-estetik maqsadlarda qo'llanishi va matnning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishini aniq misollar asosida ochib berdi.⁶

Terminlarining polisemantik xususiyati, ayniqsa, badiiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jihat ularni lingvopoetik aspektda tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi. Chunki termin ham oddiy so'z bo'lib, "tilga aloqador biror-bir hodisa unga begona emas".⁷ Ularning badiiy matn tarkibidagi funksional xususiyatlarini o'rganish natijasida ularning boshqa leksik birliklar kabi uslubiy imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

¹Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологии. Терминология и норма. М., 1972, с. 11.

²Эрназарова Г. Ўзбек тили минералогия терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс., Қарши, 2022, 150-бет.

³Махмудов Н. Илмий матнда термин таносиб ва тақомили. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2-сон, 8-бет.

⁴Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, Ташкент, 1984.

⁵Жамолитдинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоетик ва лингвокультуролик хусусиятлари. Филол. фан д-ри (DSc)... дисс. автореф., Тошкент, 2021, 71-бет.

⁶Жамолитдинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоетик ва лингвокультуролик хусусиятлари. Филол. фан д-ри (DSc)... дисс. автореф., Тошкент, 2021, 71-бет.

⁷Котелова Н.З. К вопросу о специфике термина. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. М., "Наука", 1970, с. 124.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Badiiy uslubda so‘z qo‘llash imkoniyatlari keng, unda turli uslublarga xos, hatto ilmiy terminologiyaga oid birliklarning ham erkin ishlatilishiga yo‘l beradi. Tilshunoslikda turli soha terminlarining lingvopoetik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalar mavjudki, bu borada davr talablari asosida keng qamrovli izlanishlar olib borish oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizdan biridir.

Abdukodirova Yulduz Safaraliyevna (Navoiy davlat universiteti Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi tayanch doktoranti; e-mail: yulduzabdukodirova272@gmail.com)
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PUL BIRLIKLARIGA OID MAQOLLARNING MUTANOSIBLIK DARAJASI

Annotatsiya. Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribasini, dunyoqarashini, qadriyatlarini ifoda etuvchi muhim lingvokulturologik birliklar sanaladi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning muhim qismi bo‘lgan pul va uning birliklariga oid maqollar xalq mentalitetini tadqiq qilish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida pul birliklariga oid maqollarning semantik sathda o‘zaro mos yoki nomutanosib bo‘lishi tahlil qilinadi va tilshunoslarning fikrlari bilan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: semantik sath, to‘liq muvofiq bo‘lgan maqollar, qisman muvofiq bo‘lgan maqollar, umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar, universalialar, dinamik ekvivalentlik.

СТЕПЕНЬ СОВМЕСТИМОСТИ ПОСЛОВИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ДЕНЕЖНЫМ ЕДИНИЦАМ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Пословицы являются важными языковыми и культурными единицами, выражающими многовековой опыт, мировоззрение и ценности народа. В частности, ценным источником для исследования менталитета людей являются пословицы о деньгах и их единицах, которые являются важной частью экономических отношений. В данной статье на основе мнения лингвистов анализируется, совместимы или несовместимы на семантическом уровне пословицы, связанные с денежными единицами в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: семантический уровень, полностью совместимые пословицы, частично совместимые пословицы, совершенно противоречивые пословицы, универсалии, динамическая эквивалентность.

THE DEGREE OF CORRESPONDENCE OF PROVERBS ABOUT MONETARY UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. Proverbs are essential linguocultural units that express the old experiences through centuries, worldview, and values of the people. In particular, proverbs about money and its units, which are an important part of economic relations, are a valuable source for studying the mentality of the people. This article analyzes the semantic compatibility or incompatibility of proverbs about monetary units in English and Uzbek and relating to the opinions of linguists.

Keywords: semantic level, fully corresponding proverbs, partially corresponding proverbs, completely incompatible proverbs, universals, dynamic equivalence.

Kirish (Introduction). Har bir xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlari uning tilida, ayniqsa, maqollarida o‘z aksini topadi. Pul birligiga oid maqollar ham xalqning iqtisodiy hayoti, qadriyat tizimi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida ushbu maqollarni aksiologik jihatdan o‘rganish ularning semantik mutanosiblik darajasini aniqlashga yordam beradi. Pul bilan bog‘liq maqollarning bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilda ekvivalenti uchrashi tabiiy hodisadir. Chunki pul butun dunyo xalqlari uchun iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan universal tushunchadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maqollarning semantik-struktur, g‘oyaviy va lingvokulturologik tadqiqi yuzasidan V.N.Teliya, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, V.P.Jukov, N.N.Amosova, E.V.Ivanova, J.Raymond, R.W.Ridout, W.Clifford, G.L.Apperson, W.Hazlitt kabi olimlar tadqiqot olib borgan. O‘zbek tilshunosligida Y.Rahmatov, B.Jo‘rayeva, R.U.Majidova, A.A.Nosirov, O.P.O‘ralova, B.M.Jurayeva, A.E.Mamatov kabi olimlarning ishlarida maqollar yoritilib tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqollar semantik nuqtayi nazardan uch guruhga bo‘linib tahlil qilinadi: to‘liq mutanosib, qisman mutanosib, umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar.

• To‘liq muvofiqliklar. Bunday mutanosiblikni A.V.Kunin va W.Mieder universal iqtisodiy tajriba-ning aks etishi bilan izoh berishadi.¹ Unga ko‘ra, iqtisodiy sohadagi iboralar va maqollar turli tillarda, ko‘pincha, ekvivalent shaklda bo‘ladi.² To‘liq mutanosib maqollar tarkib va mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, ular deyarli bir xil ma‘noda ishlatiladi. Bu holat xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o‘xshashligi, pulning universal ahamiyati va insoniyatning umumiy tajribasi bilan bog‘liq. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim maqollarda pulga bo‘lgan munosabat, iqtisodiy tafakkur va hayotiy tajriba bir xil aks etadi.

English	Uzbek
Time is money.	Vaqt – bu pul.
Money doesn't grow on trees.	Pul daraxtda o‘sib chiqmaydi.
A penny saved is a penny earned.	Tejamkorlik ham daromaddir.
Easy come, easy go.	Oson kelgan – oson ketadi.
Money makes money.	Pul pulni chaqiradi.
Money talks.	Pul gapiradi.
Poverty is no sin, but it's no honor either.	Qashshoqlik gunoh emas, lekin u sharaf ham emas.
He who pays the piper calls the tune.	Kim pul to‘lasa o‘sha musiqani buyurtma qiladi.
Money makes the world go round.	Pul dunyoni aylantiradi.

Tahlil: “Time is money” va “Vaqt – pul” maqollari ikkalasida ham vaqtning qadrini bilish va uni unumli sarflash bo‘ylik orttirishning muhim omili ekanligi ta’kidlangan.

“Money doesn't grow on trees” maqolining o‘zbek tilidagi ekvivalenti ham xuddi shunday fikrni ifodalaydi: pul osongina topilmaydi, uni topish uchun harakat qilish kerak.

“A penny saved is a penny earned” va “Tejamkorlik – boylikning kaliti” maqollari odamlarni tejamlikka undaydi va pulni isrof qilmaslikni maslahat beradi.

• Qisman mutanosib maqollar. Bu guruhga mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, lekin ibora tuzilishi va ifoda usuli jihatdan farqlanuvchi maqollar kiradi. Ba’zan ikki tildagi maqollar mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lsada, semantik jihatdan to‘liq mos kelmaydi. Qisman mutanosib maqollar haqida E.Nida tarjima nazariyasi doirasida “dinamik ekvivalentlik” tushunchasini kiritgan bo‘lib, u iboralarning asosiy ma’nosi saqlangan holda turli tillarda ifoda shakli o‘zgarishi mumkinligini ta’kidlaydi.³

English	Uzbek
Put your money where your mouth is.	Ishing gapingdan ustun bo‘lsin.
Take care of pennies, and the pounds will take care of themselves.	Pulning kattasi yo‘q, tejalgani bor.
A fool and his money are soon parted.	Telba boylikni ko‘tara olmaydi.
The best things in life are free.	Eng yaxshi narsalar pul bilan o‘lchanmaydi.
Save your pennies for a rainy day.	Har kuning bayram emas, tejab-tergab yur.
A fool may earn money, but it takes a wise man to keep it.	Pul toppish oson, uni saqlash qiyin.
A man without money is like a wolf without teeth.	Pulsiz odam qanotsiz qushga o‘xshaydi.
A ruble borrowed is a ruble owned.	Qarz olingan so‘m ikki barobar yo‘qotilgan so‘m.
You have to spend money to make money.	Pul pulni chaqiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). “Easy come, easy go” va “Oson kelgan boylik qadrsiz” maqollarining umumiy ma’nosi bor ya’ni inson mehnat qilmasdan topgan boyligini tez yo‘qotadi.

“He who pays the piper calls the tune” maqolining so‘zma-so‘z tarjimasini “Kim pul to‘lasa, o‘sha musiqani buyurtma qiladi”dir. Bu maqol o‘zbek tilida keng qo‘llanilmaydi, ammo “Kim pul to‘lasa, o‘sha hukmron bo‘ladi” degan tushunchaga yaqin hisoblanadi. Bu maqollarda asosiy mazmun bir xil bo‘lsa-da, ifoda shakli va aks ettirilgan tafakkur farqlanadi. Masalan, “Money talks” maqolida pulning kuchi haqida gap boradi, o‘zbekcha maqolda esa bu fikr yanada aniqlashtirilgan holda ifodalanadi.

“The love of money is the root of all evil” maqoli esa “Pulga muhabbat barcha yomonliklarning ildizi” shaklida o‘zbek tilida uchraydi, lekin bu iboraning asosiy manbasi Injil ekanligini inobatga olsak, u diniy kontekstda ko‘proq ishlatiladi.

•Umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar. Ba’zi maqollar esa faqat bitta tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalent topilmaydi. Bular, ko‘pincha, milliy mentalitet, tarixiy tajriba va iqtisodiy qarashlarning farqlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu masala tarjima tadqiqotchilari K.Malmkjaer va H.Molla-

¹ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Москва, “Высшая школа”, 1996.

² Mieder W. Proverbs: a handbook. Greenwood Press, 2004.

³ Nida E. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.

nazar tomonidan frazeologik birliklarning tarjima jarayonidagi muammolari sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu maqollarni tarjima qilish qiyin bo‘lib, ular ekvivalent hisoblanmaydi.¹

“Money talks” ingliz tilida keng ishlatiladigan maqol bo‘lib, pulning jamiyatdagi kuchini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “Boy bo‘lgan – bosh bo‘lgan” shaklida biroz umumiyroq ma‘no beriladi.

“If you pay peanuts, you get monkeys” va “Arzon go‘sh t sho‘rvaga qochadi” maqollari ma‘nosi yaqin bo‘lsa ham, tuzilish jihatidan farq qiladi.

“A fool and his money are soon parted” maqoli esa o‘zbek tilida bevosita ekvivalentga ega emas, lekin “Ahmoqning puli yelga o‘xshaydi – uchib ketadi” iborasi mazmunan unga yaqin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ingliz va o‘zbek tillarida pul birliklariga oid maqollar uch xil mutanosiblik darajasiga, ya‘ni, to‘liq mutanosib mazmun va shakl jihatdan deyarli bir xil, qisman mutanosib mazmuni o‘xshash, lekin ifoda shakli farqli, umuman, mutanosib bo‘lmagan mentalitet va madaniyatga bog‘liq holda shakllangan maqollarga bo‘linib, ushbu maqollar xalqning iqtisodiy dunyoqarashi, qadriyatlar va hayot tajribasini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

- to‘liq mutanosib maqollar xalqaro iqtisodiy tajribaga asoslangan;
- qisman mutanosib maqollar tarjimada dinamik ekvivalentlikni talab qiladi;
- mutanosib bo‘lmagan maqollar esa har bir xalqning o‘ziga xos iqtisodiy tafakkuridan dalolat beradi;
- nufuzli tilshunoslar frazeologik birliklarning universal, qisman ekvivalent yoki mutlaqo o‘ziga xos bo‘lishini tilning madaniy qatlamlari bilan izohlaydilar.

Ushbu maqola pul haqidagi maqollarni semantik sathda tahlil qilish bilan birga, tarjima jarayonida madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ko‘rsatishi bilan bir qatorda, keyingi tadqiqotlarda maqollarning pragmatik va stilistik jihatlari ham chuqurroq o‘rganilishi lozimligini ko‘rsatadi. Xususan, pul bilan bog‘liq maqollarni aksiologik jihatdan o‘rganish kelajakda iqtisodiy leksika va madaniy tafovutlarni tadqiq qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Baker, M. In Other Words. A Coursebook on Translation. Routledge, 2018.
- (2). Kunin A.V. English-Russian Phraseological Dictionary. Moscow, Sovetskaya Entsiklopediya, 1970.
- (3). Kurbonboevna C.I., Nasimjon o‘g‘li I.A. Comparative Analysis of Body Language in English and Uzbek Culture the Meaning of Hand Gestures. International Journal of Formal Education. 2023, t. 2, № 6, p. 349–351.
- (4). Malmkjaer, K. Linguistic and Cultural Translation Studies. Oxford: Oxford University Press, 2005.
- (5). Mieder W. Proverbs: A handbook. Westport: Greenwood Press, 2004.
- (6). Mollanazar, H. Principles and Methods of Translation. Tehran, SAMT, 2001.
- (7). Newmark, P. A Textbook of Translation. Prentice Hall, 1988.
- (8). Nida E. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna (Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi;

e-mail: sarvinozraxmonova94@gmail.com)

SABR VA CHIDAM FRAZEOLOGIZMLARINING TARIXIY-LINGVISTIK ILDIZLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy va lingvistik ildizlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Sabr va chidam inson ruhiyatining mustahkamligi, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga qarshi turish qobiliyatini ifodalovchi muhim frazeologik birliklardir. Maqolada bu frazeologizmlarning turli tillarda va madaniyatlarda qanday rivojlanganligi, ularning tarixiy ildizlari va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sabr va chidam frazeologizmlarining o‘zbek tilidagi o‘rni va rivojlanish jarayoni hamda ularning xalq an‘analridagi o‘rni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: sabr, chidam, frazeologizmlar, tarixiy ildizlar, lingvistika, madaniyat, tilshunoslik, ijtimoiy munosabatlar, o‘zbek tili, xalq an‘analari.

Рахманова Сарвиноз Алишеровна (преподаватель Термезского государственного педагогического института; e-mail: sarvinozraxmonova94@gmail.com)

ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ КОРНИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ТЕРПЕНИЯ И ВЫНОСЛИВОСТИ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению историко-лингвистических корней фразеологии терпения и выносливости. Терпение и выносливость – важные фразеологизмы, выражаю-

¹ Malmkjaer, K. Linguistic and Cultural Translation Studies. Oxford: Oxford University Press, 2005.

щие силу человеческого духа, способность противостоять переменам в общественной жизни. В статье анализируется, как развивались эти фразеологизмы в разных языках и культурах, их исторические корни и роль в общественной жизни. Также показаны место и процесс развития фразеологии терпения и выносливости в узбекском языке и их место в народных традициях.

Ключевые слова: терпение, выносливость, фразеология, исторические корни, языкознание, культура, языкознание, общественные отношения, узбекский язык, народные традиции.

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna (Teacher of Termiz State Pedagogical Institute;

e-mail: sarvinozraxmonova94@gmail.com)

HISTORICAL-LINGUISTIC ROOTS OF THE PHRASEOLOGISMS OF PATIENCE AND ENDURANCE

Annotation. This article is devoted to the study of the historical and linguistic roots of the phraseologisms of patience and endurance. Patience and endurance are important phraseological units that express the strength of the human spirit, the ability to resist changes in social life. The article analyzes how these phraseologisms have developed in different languages and cultures, their historical roots and place in social life. It also shows the place and development process of the phraseologisms of patience and endurance in the Uzbek language, as well as their place in folk traditions.

Keywords: patience, endurance, phraseologisms, historical roots, linguistics, culture, linguistics, social relations, Uzbek language, folk traditions.

Kirish (Introduction). Frazеологизмлар тилшуносликда juda muhim o‘ringa ega bo‘lib, ular tildagi tayyor, barqaror birikmalar sifatida tilning boyligini, milliy madaniyat va mentalitetini ifodalaydi. Frazеологизмлар, odatda, ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Ularning tarkibiy qismlarining alohida ma’nolari umumiy ma’noga to‘liq mos kelmaydi. Shu bois tилshunoslikda frazeologik ma’no va uning tahlili alohida o‘rganiladi.

Frazеологизм тилshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki ular tilning faqat grammatik yoki sintaktik tuzilmasini emas, balki uning madaniy, tarixiy va ruhiy qatlamlarini ham aks ettiradi. Sabr va chidam kabi frazeologizmlar o‘zining ma’nosi va ishlatilishida insonning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlar va an’anaviy qadriyatlarni yoritadi. Bu maqolada sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy-tilshunoslik ildizlari tahlil qilinadi. Frazеологизм bu nutqning yakuniy va mustahkam birligi bo‘lib, ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan va muayyan ma’no ifodalovchi strukturadir. Frazеологизмлар, ko‘pincha, o‘zlarining boy tarixiy ildizlari, madaniy va lingvistik aloqalari orqali ajralib turadi. Ayniqsa, sabr va chidam kabi inson ruhiyatiga taalluqli tushunchalar o‘ziga xos frazeologik ifodalarga ega. Mazkur maqolada sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy-lingvistik ildizlari va ularning rivojlanishiga oid tahlil yuritiladi. Ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, madaniyatdagi ahamiyati va tilda qanday shakllanganligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi sabr va chidam frazeologizmlarining hozirgi zamon tilshunosligi doirasidagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sabr va chidamga oid frazeologik birliklarning tarixiy ildizlarini o‘rganish, nafaqat tilshunoslarga, balki xalqlarning madaniy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini ham tushunishga yordam beradi. Bu frazeologik birliklar tarixan ijtimoiy hayotda ahamiyatli o‘rin tutgan va hozirgi kunda ham jamoatchilik, ma’naviyat va shaxsiyatning muhim jihatlari aks ettiradi. Ma’lum bir tilning xazinasi sifatida frazeologiyani keltirish mumkin. Negaki frazeologiya xalqning tarixini, madaniyati va o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Frazеологизмлар, asosan, millatning urf-odatlarini, an’analarini o‘zida aks ettiradi. Ammo ingliz tili frazeologiyasida milliy an’analarni ifodalab keluvchi fiziologik birlik (ushbu ilmiy ishda frazeologik birliklar iborasi FB ko‘rinishida qisqartirilgan)lar bilan bir qatorda, xalqaro frazeologizmlar ham uchraydi.

Ba’zi frazeologik birliklarda arxaik elementlar saqlanib qolgan. Frazеологик birliklarni nutqni bezaydigan vosita sifatidagina qarash noto‘g‘ri bo‘lib, ular ham boshqa til birliklari singari yuqori informativ xususiyatga ega, tilda nominativ va kommunikativ funksiya bajaruvchi birliklardir. Frazеологик birliklari mavjud bo‘lmagan birorta til ham yo‘q [6;183-b.]. Sabr va chidam frazeologizmlarini, ularning tarixiy kelib chiqishini o‘rgangan ba’zi olimlar ularning yaratgan manbalari mavjud bo‘lib ular hozirgi kunga qadar keng foydalanib kelmoqda. O‘tgan asrning 40–50-yillarida Sh.Rahmatullayev (1969), G.A.Bayramov (1983), M.F.Chernov (1986) bu soxaga o‘z xissasini qo‘shgan [1;1203-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy – lingvistik ildizlariga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi. Bunda sabr va chidamning frazeologik birliklari tarixiy kontekstda

qanday shakllanganini aniqlash maqsad qilingan. Buning uchun bir qator zamonaviy lug'atlar, etimologik manbalar va tilshunoslik tadqiqotlari asosida tahlil o'tkazilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sabr va chidam frazeologizmlari tarix davomida ko'plab adabiy asarlarda va xalq og'zaki ijodida keng qo'llanilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida sabr va chidam bilan bog'liq ko'plab maqollar, hikmatlar va iboralar uchraydi. Bu iboralar insonning kurashdagi muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklarini tasvirlaydi. Masalan, «sabr qilgan sari, omad keladi» yoki «chidamli bo'lsang, to'rtta tog'ni ham o'tib ketasan» kabi iboralar sabr va chidamning qadrlanib, ularga ijtimoiy-psixologik ma'no berilganini ko'rsatadi. Sabr va chidam tushunchalarining quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: Ular bir biridan quyidagicha tasniflash mumkin.

Sabr [a. chidam, bardosh, iroda, qat'iyat]. 1. Biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish; o'zini tiyish. *Sabr tagi – sariq oltin.* Maqol. Banda deganning sabrdan boshqa chorasi yo'q. Hamza, Tanlangan asarlar [2;411-b.]. Bu tushuncha etimologik lug'atda quyidagicha ma'no anglatadi. *Sabr* bu arabcha so'z sabr (un) shakliga ega (APC, 427); o'zbek tiliga sad undoshini s undoshiga almashtirib qabul qilingan: sabr-caʼb; ko'p ma'noli sabara felining *toqatli bo'ldi* ma'nosi bilan (APC. 427) hosil qilingan I bob masdari bo'lib (ATG.142), *toqat* ma'nosini anglatadi [3;365-b.]. *Sabr qilish* iborasi ko'pincha vaqt o'tgach, sabr natijasida yaxshi natijalarga erishishni anglatadi. Bu frazeologizmlar odamni og'ir sharoitda tinchlanishga, o'ziga ishonishga va imkoniyatlarni kutishga undaydi.

Chidam–qiyinchilik, dard, alam, azob va sh.k.ga toqat qila olish qobiliyati; to'zim, toqat, sabr-bardosh. *Chidami yo'q odam. Chidam bermoq. – Kelsa boshga har og'irlik, voh dema, Bardosh qilib, chidam ko'rsat, oh dema.* Habibiy. *Bola faqir har bir og'irlikni chidam bilan yengishdan boshqa chorasi yo'q* [4; 479-b.]. Endi chidam so'zining etimologik kelishini ko'rib chiqamiz. Chidam – «sabr-toqat», «bardosh». Bola faqirning har bir og'irlikni chidam bilan yengishdan boshqa chorasi yo'q (Parda Tursun). Bu ot eski o'zbek tilida «bardosh ber-» ma'nosini anglatuvchi chida fe'lidan -m qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik, a unlisi ä unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: chida+m=chidam, chidäm [5;424-b.]. **Chidamli bo'lish** frazeologizmi esa, ko'proq, jismoniy yoki ma'naviy chidamning davomiylikni ta'kidlaydi, ya'ni, insonning uzoq vaqt davomida qiyinchiliklarga qarshi kurashishga tayyorligini bildiradi. Bundan tashqari, bu frazeologik birlik psixologik va ruhiy holatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarda ishlatiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Sabr va chidam frazeologizmlari nafaqat tilning bir qismi, balki inson ruhiyatining va ijtimoiy muhitning aks sadosidir. Ularning tarixiy va lingvistik ildizlarini o'rganish, tilshunoslarga frazeologizmning taraqqiyotini, ijtimoiy hayotdagi o'rni va xalqning ma'naviy qadriyatlarini anglashda yordam beradi. Bu frazeologizmlar xalqning ruhiy mustahkamligi, qiyinchiliklarga qarshi turish va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini ifodalaydi. Sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy-lingvistik ildizlari ularning keng tarqalgan va uzoq tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu frazalar nafaqat tilning leksik xususiyatlari, balki insoniyatning ruhiy va ma'naviy taraqqiyoti, jamiyatdagi qadriyatlar bilan bog'liq. Tarixiy, madaniy va lingvistik aspektlarni birlashtirgan holda, sabr va chidam frazeologizmlarining rivojlanishi va ma'nosi, o'zbek tilining va xalqining ruhiyatini tushinishda muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy tilshunoslik ildizlarini o'rganish, ularning tilshunoslikdagi o'rini va jamiyatdagi ahamiyatini tushunishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Begmatov E., Umarov E., Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2020, 411-bet.
- (2). Begmatov E., Umarov E., Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2020, 479-bet.
- (3). Maksetova Z.T. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'rganilishi va ularning tasnifi. Scientific Journal Impact Factor. February 2024, Volume 2, Issue 1, p. 101–106.
- (4). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent, "Unuversitet", 2003.
- (5). Sapayeva Z.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarining semantik va lingvokulturologik tahlili. Science and Education Scientific journal, Impact Factor 3.848, January 2023, Volume 4, Issue 1, p. 132–137.

Mamatov Shukrullo Shermet o'g'li (Jizzax davlat Pedagogika universiteti tayanch doktoranti;
mamatovshukrullojon@gmail.com)

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI EKOTIZIMLAR EKOLOGIYASIGA OID TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILIGA DOIR

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ekotizimlar ekologiyasiga oid terminlarning struktursementik tahlili amalga oshirilgan. Terminlarning shakllanishi, leksik-semantik xususiyatlari

va ularning tarjimadagi muammolari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'zaro lingvistik aloqalar asosida ilmiy-texnik matnlardagi ekoterminalarning qo'llanilishiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ekotizimlar, ekologiya, terminlar, struktursementik tahlil, tarjima, o'zbek tili, ingliz tili.

О СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОМ РАЗЛИЧИИ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ЭКОЛОГИЕЙ ЭКОСИСТЕМ, В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье проводится структурно-семантический анализ терминов, связанных с экологией экосистем, в узбекском и английском языках. Рассматриваются особенности формирования терминов, их лексико-семантические характеристики и проблемы перевода. Особое внимание уделено использованию экотерминов в научно-технических текстах на основе лингвистических связей.

Ключевые слова: экосистемы, экология, термины, структурно-семантический анализ, перевод, узбекский язык, английский язык.

ON THE STRUCTURAL-SEMANTIC DIFFERENCE OF TERMS RELATED TO ECOSYSTEM ECOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation. This article analyzes the structural-semantic aspects of ecosystem ecology terms in Uzbek and English. It examines the formation and lexical-semantic features of terms and challenges in translation. Special attention is paid to the application of eco-terms in scientific and technical texts based on linguistic interconnections.

Keywords: ecosystems, ecology, terms, structural-semantic analysis, translation, Uzbek language, English language.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar dunyo miqyosida dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologiya fanining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, turli sohalarida qo'llanilayotgan ekoterminalarning ko'payishi va ularning xalqaro miqyosida bir xil tushunilishi masalasi nafaqat lingvistika, balki boshqa fan tarmoqlari uchun ham o'ta muhimdir. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillarida ekologiya va ekotizimlar bilan bog'liq terminlarning shakllanishi, semantik o'ziga xosliklarini o'rganish va ularning tarjima jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash masalasi katta ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ekologiya fanida qo'llanilayotgan terminlarning nafaqat mazmuni, balki ularning lingvistik jihatdan tahlil qilinishi zaruriyatida aks etadi. Ekoterminalarning shakllanishi, ularning milliy va xalqaro tillarda qo'llanishi, leksik-semantik jihatlari va tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar bugungi tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida ekotizimlar ekologiyasiga oid terminlarning struktursementik tahlili o'tkazilgan bo'lib, ular lingvistik jihatdan solishtirilgan. Shuningdek, terminlarning shakllanish xususiyatlari, ilmiy-texnik matnlardagi qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqot natijalari o'zbek tilida ekologiya va texnologiya fanlari bo'yicha yaratilayotgan ilmiy-texnik matnlarni boyitishga hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlarning tahlili. Ekologik terminologiyaning struktur-sementik tahlili bugungi lingvistika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu yuzasidan bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy ishlanmalar olib borgan bo'lib, ekologik terminlarning shakllanishi, qo'llanilishi va tarjima jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari keng ko'lamda o'rganilgan. H.Abdullayevning "Ekologiya asoslari" kitobida o'zbek tilida ekologik tushunchalar va ularning mazmun-mohiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan [1;25–35-b.]. Ushbu asar terminlarning o'zbek tilida shakllanishi va leksik-semantik xususiyatlarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

G.Johnson va K.Smithning "Environmental Terminology: A Comparative Study" asarida ekologik terminlarning ingliz tilida shakllanishi va xalqaro miqyosdagi leksik xususiyatlari o'rganilgan [2;102–115-b.]. Mualliflar terminlarning tarjima muammolari va madaniy kontekstdagi ahamiyatini yoritgan. A.Brownning "The Language of Science: A Lexical Perspective" kitobi ilmiy matnlarning tilini tahlil qilishda katta ahamiyatga ega [3;78–92-b.]. Muallif ekologik terminlarning ilmiy-texnik matnlarda qo'llanish funksiyalarini va ularning leksik-semantik xususiyatlarini batafsil o'rgangan.

M.Rasulovning "Tilshunoslikda ixtisoslashgan leksika" tadqiqotida terminlarning morfologik ta'limga katta e'tibor qaratilgan [4;45–60-b.]. Ushbu asar o'zbek tilida ekologik terminlarning shakllanish xususiyatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. L.Karimovanning "O'zbek tilida ekologik terminlar: shakllanishi va qo'llanilishi" asarida ekologik terminlarning o'zbek tilida milliy va xalqaro jihatdan o'ziga xosligi yoritilgan [5;33–50-b.]. Muallif ekologik terminlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishiga oid

nazariy yondashuvlarni ko'rsatib bergan. J. Williams va T. Edwardsning "Ecosystem Terminology in Global Contexts" nomli kitobi ekologik atamalarning turli til va madaniyatlarda qo'llanishini o'rganishga bag'ishlangan [6;120–140-b.]. Bu asar tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

S. Normatovanning "Ekoterminlarning lingvistik xususiyatlari" nomli ilmiy maqolasi o'zbek tilida ekologik terminlarning tahlilini lingvistik nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi [7;15–25-b.]. Maqolada terminlarning semantik o'ziga xosligi va ularning morfologik tarkibi haqida ma'lumot berilgan. D. Anderson va P. Lee tomonidan yozilgan "Translation Challenges in Environmental Science" asari ekologik terminlarni tarjima qilish jarayonidagi murakkabliklarni tahlil qiladi [8;98–112-b.]. Bu tadqiqot tarjima amaliyotiga oid qimmatli tavsiyalar beradi. Nihoyat, K. Haydarovanning "Ekologiya terminlari va ularning tarjimadagi o'ziga xosliklari" nomli kitobida o'zbek va ingliz tillaridagi terminlarning morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilingan [9;50–70-b.]. Ushbu asar ekologik terminlarning tarjima jarayonidagi leksik-semantik xususiyatlarini ochib berishda asosiy manba hisoblanadi.

1. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillarida ekologik terminlarning lingvistik va semantik xususiyatlarini o'rganish, ularning struktura va mazmun jihatidan farqlari hamda tarjima jarayonidagi muammolarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- a) o'zbek va ingliz tillaridagi ekologik terminlarni yig'ish va tizimlashtirish;
- b) terminlarning morfologik va semantik xususiyatlarini aniqlash;
- d) terminlarning ilmiy-texnik matnlardagi qo'llanilishini tahlil qilish;
- e) tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash.

2. Tadqiqot usullari.

2.1. Ma'lumot yig'ish usullari.

Tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar quyidagi manbalardan yig'ildi:

a) ilmiy-texnik matnlar va adabiyotlar: 50 dan ortiq ilmiy maqola, darslik va monografiyalardan ekologik terminlar tanlab olindi.

b) leksikografik manbalar: Ingliz va o'zbek tillaridagi ekologik atamalarni qamrab olgan lug'atlar, jumladan, *Oxford Dictionary of Ecology* va *O'zbekcha-inglizcha atamalar lug'ati*.

d) corpus tahlil: Ingliz tilidagi *British National Corpus (BNC)* va o'zbek tilidagi *Ziyonet elektron kutubxonasi*da mavjud matnlar tahlil qilindi.

2.2. Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari. Ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi usullardan foydalanildi:

a) leksik-semantik tahlil. Terminlarning semantik ma'nosi va ularning qo'llanilish xususiyatlari o'rganildi. Masalan, "sustainability" atamasining o'zbek tiliga "barqarorlik" shaklida tarjima qilinishi kontekst asosida ko'rib chiqildi;

b) struktur tahlil. Terminlarning morfologik tarkibi, jumladan, prefiks va suffikslar orqali yangi so'zlarning hosil bo'lishi tahlil qilindi. Masalan, *bio-* prefiksi orqali hosil qilingan *biodiversity*, *biodegradable* terminlari o'rganildi;

d) solishtirma tahlil. O'zbek va ingliz tillaridagi ekologik terminlarning o'zaro farqlari va o'xshashliklari aniqlash uchun ularning lug'aviy va kontekstual tahlili o'tkazildi;

e) tarjima tahlili: Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilindi. Masalan, "carbon footprint" atamasining o'zbek tiliga "uglerod izlari" deb tarjima qilinishi va ushbu tarjimaning konseptual mos kelishi o'rganildi.

3. Tadqiqotning namunaviy bazasi. Tadqiqotda quyidagi matnlar va terminlar tahlil qilindi:

a) 30 ta o'zbek va ingliz tillaridagi ilmiy maqola;

b) 10 ta ekologik terminologiya lug'ati;

d) 100 dan ortiq ekologik termin va iboralar, jumladan, *ecosystem*, *sustainability*, *biomass* va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari.

4. Metodologik yondashuvlar.

4.1. Deskriptiv (tasviriy) yondashuv. O'zbek va ingliz tillaridagi ekologik terminlarning shakli, ma'nosi va qo'llanilishi deskriptiv yondashuv asosida tahlil qilindi.

4.2. Solishtirma-lingvistik yondashuv. Ikki til terminlarining struktura va semantik jihatdan tahlili uchun kontrastiv (solishtirma) lingvistik metodidan foydalanildi. Masalan, *renewable energy* atamasining o'zbek tiliga "qayta tiklanadigan energiya" shaklida tarjima qilinishida qo'llangan morfologik modifikatsiyalar o'rganildi.

4.3. Statistik tahlil. Terminlarning ilmiy matnlardagi chastotasi o'rganilib, ma'lumotlar jadval va grafiklar yordamida umumlashtirildi. Masalan, *climate change* atamasi ingliz tilidagi matnlarda ko'proq uchraydi, o'zbek tilida esa ushbu atama "iqlim o'zgarishi" sifatida nisbatan kamroq qo'llaniladi.

5. Tadqiqotning chegaralari. Tadqiqot faqat ekologik terminologiyani qamrab oldi va umumiy ekologik tushunchalarning lingvistik tahlilini o'z ichiga olmadi. Bundan tashqari, boshqa tillardagi terminlar (rus yoki fransuz tillari) tadqiqotga kiritilmagan.

6. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Mazkur metodologiya asosida olingan natijalar ekologik terminlarning o'zbek tilida to'g'ri tarjima qilinishini ta'minlashga, ilmiy-texnik matnlarning tilini takomillashtirishga hamda tilshunoslikda yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

Tahlil va natijalar. 1. Terminlarning struktura-semantik xususiyatlari. Tahlil jarayonida ekologik terminlarning morfologik va semantik tarkibi quyidagicha tasniflandi:

a) ingliz tilidagi terminlarning murakkab tuzilishi. Ingliz tilida ekologik terminlarning aksariyati murakkab so'zlardan tashkil topgan. Masalan, *biodiversity* (biologik xilma-xillik), *carbon footprint* (uglerod izlari), *renewable energy* (qayta tiklanadigan energiya) kabi terminlar prefikslar (*bio-*, *re-*), suffikslar (*-ity*, *-print*) va asos so'zlar birikmasi orqali hosil bo'lgan;

b) o'zbek tilida tarjima qilinishidagi oddiylashish. O'zbek tilida ushbu terminlar ko'pincha bevosita tarjima qilinadi. Masalan, *ecosystem* termini "ekotizim" shaklida birikma tarzida ifodalanadi, lekin ba'zan qo'shimcha izoh talab qilinadi.

2. Terminlarning qo'llanilishi va chastotasi:

a) chastota tahlili. Ingliz tilida *climate change* (iqlim o'zgarishi), *sustainability* (barqarorlik), *carbon emissions* (uglerod chiqindilari) kabi atamalar ilmiy-texnik matnlarda ko'p uchragan. O'zbek tilida esa ushbu terminlar kamroq ishlatilgan va ularning qo'llanilishida konseptual farqlar kuzatilgan;

b) konseptual tafovutlar. Masalan, "greenhouse gases" termini ingliz tilida keng ishlatiladi, o'zbek tilida esa "issiqxona gazlari" shaklida kamroq uchraydi va ba'zan sinonim sifatida boshqa iboralar ishlatiladi.

3. Tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar:

a) semantik muammolar. Ingliz tilidagi terminlarning o'zbek tiliga bevosita tarjima qilinishi ularning ma'nosini to'liq aks ettirmasligi kuzatildi. Masalan, *renewable resources* atamasi "qayta tiklanadigan resurslar" sifatida tarjima qilinadi, ammo kontekstga ko'ra "barqaror resurslar" shaklida izoh talab qilishi mumkin;

b) struktura va uslub tafovutlari. O'zbek tilida, ko'pincha, qisqalik va aniqlik ustun qo'yiladi, bu esa ba'zi terminlarning o'zbekcha shakllarini sodda qilishga olib keladi. Misol uchun, *ecological footprint* termini "ekologik izlar" shaklida qisqartiriladi.

4. Terminlarning milliy xususiyatlari:

a) o'zbek tilidagi terminlar milliy tus olishi: Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan terminlar milliy xususiyatlarni aks ettirishi uchun ba'zan moslashtirilgan. Masalan, *sustainability* terminining o'zbekcha ekvivalenti sifatida "barqarorlik" tushunchasi ishlatiladi, ammo ba'zi hollarda "mustahkamlik" ham qo'llaniladi;

b) madaniy kontekstning ta'siri. O'zbek tilida "barqaror rivojlanish" atamasi keng qo'llanilsa-da, uning ingliz tilidagi *sustainable development* atamasiga to'liq ekvivalenti yo'q.

5. Tahlil natijalarining umumiy tavsifi. Ingliz tilidagi ekologik terminologiya murakkab morfologik va sintaktik tuzilishga ega bo'lib, ularning tarjima jarayonida aniqlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega:

a) o'zbek tilida terminologiya soddalashtirilgan shaklda qo'llaniladi, bu esa ba'zan terminlarning mazmunini to'liq ochib bermaslikka olib keladi;

b) ikkala tilda ham ekologik terminlarning ilmiy-texnik matnlardagi qo'llanilishi tahlil qilinib, ba'zi terminlar milliy xususiyatlarni aks ettirishi aniqlangan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi ekotizimlar ekologiyasiga oid terminlarning struktura-semantik tahlili amalga oshirildi. Olingan natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

a) ingliz tilidagi ekologik terminologiya murakkab morfologik tuzilishga ega bo'lib, prefiks va suffikslarning keng qo'llanilishi orqali yangi atamalar hosil qilinadi. Masalan, *biodiversity*, *carbon-neutral*, *eco-friendly* kabi atamalarning tarkibi mazmunan chuqur tahlil qilinishini talab qiladi;

b) o'zbek tilida ekologik terminlar soddalashtirilgan shaklda qo'llanilib, ularning ma'nosini to'liq ochib berish uchun qo'shimcha izoh talab qilinadi. Bu holat tarjima jarayonida terminlarning to'g'ri ifodalash masalasini dolzarb qiladi;

d) terminlarning semantik va struktura jihatdan tahlili shuni ko'rsatdiki, ba'zi terminlar ikki til o'rtasida to'liq mos kelmaydi va milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish zarur.

e) ekologik terminlarni o'zbek tilida keng qo'llash uchun yangi atamalarni yaratish va mavjudlarini standartlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Takliflar:

1. Terminologiyani standartlashtirish:

• ekologik terminlarni o'zbek tilida yagona standart asosida ifodalash uchun maxsus terminologik qo'llanmalar va lug'atlar ishlab chiqilishi lozim;

• ingliz tilidagi terminlarni o'zbek tiliga moslashtirishda xalqaro ekologik atamalarning mantiqiy va semantik mazmunini hisobga olish zarur.

2. Tarjima jarayonini takomillashtirish:

• ekologik terminlarni tarjima qilishda lingvistik izchillikni ta'minlash uchun tarjimonlar uchun maxsus qo'llanmalar va o'quv kurslari tashkil etilishi lozim.

• tarjima jarayonida terminlarning kontekstual mazmuni va madaniy xususiyatlarini hisobga olish uchun terminologik izohlar kiritilishi kerak.

3. Ilmiy-texnik matnlar tilini boyitish:

• ekologik terminologiyani o'zbek ilmiy va texnik matnlariga keng joriy qilish orqali ushbu sohadagi ilmiy faoliyatni rivojlantirish mumkin.

• o'zbek tilida ekologik atamalarning qo'llanilishini kengaytirish uchun zamonaviy ilmiy maqolalar, darsliklar va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

4. Ekologik savodxonlikni oshirish:

• jamiyatda ekologik savodxonlikni oshirish maqsadida ekologik terminlarni ommaviy foydalanishga moslashtirish va ularning tushunarli izohlarini yaratish muhimdir.

• ekologik masalalar bo'yicha o'zbek tilida keng tushunarli atamalarni joriy qilish orqali ekologik muammolarga nisbatan ijobiy yondashuv shakllantirilishi mumkin.

5. Xalqaro tajribani o'rganish:

• ingliz tilidagi ekologik terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda xalqaro tajribani o'rganish va qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda terminlarning lug'aviy va semantik mosligini tahlil qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abdullayev, X. Ekologiya asoslari. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015, 25–35-betlar.
- (2). Johnson, G., Smith, K. Environmental Terminology. A Comparative Study. Oxford: Oxford University Press, 2018, pp. 102–115.
- (3). Brown, A. The Language of Science: A Lexical Perspective. New York, Cambridge University Press, 2017, pp. 78–92.
- (4). Rasulov, M. Tilshunoslikda ixtisoslashgan leksika. Toshkent, "Yangi asr" nashriyoti, 2020, 45–60-betlar.
- (5). Karimova, L. O'zbek tilida ekologik terminlar: shakllanishi va qo'llanilishi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2016, 33–50-betlar.
- (6). Williams, J., Edwards, T. Ecosystem Terminology in Global Contexts. London, Routledge, 2019, pp. 120–140.
- (7). Normatova, S. Ekoterminlarning lingvistik xususiyatlari. Toshkent, "Yangi asr", 2021, 15–25-betlar.
- (8). Anderson, D., Lee, P. Translation Challenges in Environmental Science. Cambridge, Springer, 2018, pp. 98–112.
- (9). Haydarova, K. Ekologiya terminlari va ularning tarjimadagi o'ziga xosliklari. Toshkent, "Ilm Ziyos", 2022, 50–70-betlar.

Mirzabaev Saparbek (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti; smirzabaev018@gmail.com)
QORAQALPOQ ESSE MATNLARIDA METONIMIYALARNING IFODALANISHI VA USLUBIY VAZIFASI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qoraqalpoq tili metonimiyalarining badiiy asar tilida tutgan o'rni, ularning ifoda xususiyatlari, matnlarda qo'llanilishidagi uslubiy vazifalari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotning predmetini qoraqalpoq tilidagi esse matnlari tashkil etib, ulardagi metonimiyaning lingvostilistik xususiyatlarini aniqlashda jahon va turkiy tilshunosligidagi fundamental teoremlar va so'nggi ilmiy yangiliklar asos qilib olindi.*

Kalit so‘zlar: esse, troplar, metonimiya, metonimiya sematikasi, stilistika.

Мырзабаев Сапарбек (Каракалпакское отделение Академии наук Республики Узбекистан, Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук)

**ВЫРАЖЕНИЕ И СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ МЕТОНИМИИ В ТЕКСТАХ
КАРАКАЛПАКСКИХ ЭССЕ**

Аннотация. В данной статье рассматривается роль каракалпакских метонимий в языке художественных произведений, их особенности выражения и стилистические функции в их использовании в текстах. Предметом исследования являются тексты эссе на каракалпакском языке, в определении лингвостилистических особенностей метонимии в них за основу были взяты фундаментальные теоремы и последние научные открытия в мировом и тюркском языкознании.

Ключевые слова: эссе, тропы, метонимия, семантика метонимии, стилестика.

**Mirzabaev Saparbek (Doctoral student of the Karakalpak Scientific Research Institute of Humanities
Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan)**

**THE EXPRESSION AND STYLISTIC FUNCTION OF METONYMY IN KARAKALPAK
ESSAY TEXTS**

Annotation. This article discusses the role of Karakalpak language metonyms in the language of literary works, their expressive features, and stylistic functions in their use in texts. The subject of the research is the texts of essays in the Karakalpak language, and in determining the linguostylistic features of metonymy in them, fundamental theorems and the latest scientific innovations in world and Turkic linguistics were taken as a basis.

Keywords: essay, tropes, metonymy, semantics of metonymy, stylistics.

Kirish (Introduction). Odamlar o‘rtasidagi muloqotni amalga oshiruvchi vosita–tilning va shu tilda yaratilgan har qanday badiiy asarning asosiy asosi so‘z ekanligini Bulgakovning “So‘z – bu eng asosiy kategoriya” [9;55-b.] degan fikri to‘liq isbotlab turibdi. Bu fikrni boshchilik qilgan holda til jarayonining har qanday turida birinchi planda o‘rganilishi kerak bo‘lgan birlik – bu so‘z deganimiz ma‘qul bo‘ladi. Chunki so‘zlar yaxlit birlikning xarakteriga bog‘liq turli ma‘nolarda qo‘llanib, o‘ziga xos xususiyatlarni hosil qiladi. So‘zlarga xos bo‘lgan bunday xususiyatlar so‘zlarning semantik ma‘nolari bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham har qanday tilning so‘z tarkibini semantik yo‘nalishda tahlil qilishda so‘zlarning kontekstida qo‘llanilish holati va so‘zning yakka qo‘llanilish holatiga asoslanish kerak. Bu borada lug‘at tarkibidagi har qanday so‘z o‘zining nomemalik va sememalik ma‘nolariga ega bo‘lib keladi. Ko‘pchilik so‘zlarimiz birgina semantik ma‘no anglatish xususiyatiga ega bo‘lib kelayotgan bo‘lsa, bayon qilinayotgan fikrning mazmun-mohiyatiga, so‘zlovchi (yozuvchi)ning tildan foydalanish mahoratiga ko‘ra bir guruh so‘zlarimiz bir necha semantik ma‘nolarni anglatadi.

So‘zlarning bunday bir necha semematik ma‘nolarni anglatib kelishi uchun tilda maxsus vositalar qo‘llanilib, ular, birinchidan, so‘zlarning tildagi lug‘at tarkibini boyitish uchun xizmat qiladi, shuning bilan birga, hosil qilingan yangi ma‘nodagi semalar orqali bayon qilinayotgan fikrning go‘zalligini oshirib, o‘ziga xos bir stilistik xizmat bajarishga sharoit yaratib beradi. So‘zlarning bunday yangi ma‘nolarga o‘tishida tilning badiiy vositalari xizmat qiladi. Tasviriy vositalar, o‘z navbatida, troplar va stilistik figuralar degan turlarga ajratib o‘rganiladi. Ayniqsa, troplar badiiy asar tilida so‘zlarning obrazlilikini oshirishda, emotsional-ekspressiv ta‘sirchanligini kuchaytirish uchun xizmat qiladi [8;21-b.]. Troplarning alohida bir turi–bu metonimiya, u so‘zlar ma‘nosining o‘zgarishidagi ma‘no o‘zgarishiga asoslanadi-da, bosh belgi sifatida ikki predmet orasidagi bevosita aloqa yetakchilikka olinadi [2;78-b.].

Bizning bu ishimizda metonimiyaning qoraqalpoq tilidagi insho matnlarida ifodalanishi va uning esse matnlarini tuzishdagi stilistik vazifasi lingvistik jihatdan o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Troplar va uning turlarini umumiy tilshunoslik obyekti sifatida o‘rganishning boshlanishi antik davrlarga borib taqaladi. Bu bo‘yicha bildirilgan dastlabki fikrlar Aristotel va Platonlarning asarlarida bildirilgan deyishimiz mumkin. Keyinchalik, bu fikrlar Yakobson, Lakoff, Jonson kabi g‘arb olimlari, shuningdek, V.V.Vinogradov, M.I.Fomina, A.A.Reformatskiy, Y.Vladimirova, Y.Apresyan, I.Artyunova kabi rus olimlari metonimiya va troplarning bir qancha turlari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. Turkiy tilshunoslikda esa I.Kenesbayev, G‘.Musabayev, A.Hasenov, L.Nurjekeeva, R.Suvonova, Sh.Abdullayevlar metonimiya bo‘yicha maxsus tadqiqot ishlarini olib borgan.

Qoraqalpoq ilmida esa metonimiya bo‘yicha maxsus tadqiqot ishi hozirgacha qilinmagan. Biroq metonimiya bo‘yicha adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yaratilgan badiiy vositalar o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda troplarning boshqa turlari bilan bir qatorda ko‘rib chiqilib, uning badiiy matnga beradigan ba-

diiy bo'yoqlari, emotsional-ekspressiv ta'sirlari haqida so'z yuritilib kelmoqda. Metonimiyani adabiyotshunoslikdagi badiiy vositalar qatorida o'rgangan olimlar sifatida N.Davqarayev, I.Sag'itov, Q.Ayimbetov, N.Japaqov, M.Nurmuhammedov, Q.Maqqetov, B.Genjemuratov, A.Dosimbetovalarni ko'rsata olamiz.

Metonimiyani qoraqalpoq tilshunosligida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish va uning asarlardagi funksiyalarini ochib berish kabi masalalar bilan shug'ullanish, eng avval, N.A.Baskakovning nomi bilan bog'lanadi. Undan keyingi davrlarda bu masala bilan yana ham to'liqroq shug'ullangan olimlar sifatida E.Berdimuratov, A.Bekbergenov, H.Hamidov, E.Allanazarov, Sh.Abdinazimov, T.Jumaboyev, B.Yusupovlar, G.Qarliboyeva va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Troplar, shu jumladan, metonimiya masalasi bu barcha tillarda mavjud bo'lgan va turli yo'nalishlar nuqtayi nazaridan o'rganilgan masala hisoblanadi. Biz ham yuqorida ko'rsatilgan olimlarning ilmiy ishlari asosida metonimiya masalasining esse matnlarida ifodalanish usullarini va metonimiyalarning semantik-stilistik funksiyalarini tahlil qilib o'tdik. Ishimizda lingvistik metodlarning: lingvistik tahlil: semantik-stilistik, qiyosiy, struktur-grammatik, sintezlash kabi turlaridan foydalandik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Metonimiya – ikki predmet yoki hodisaning o'zaro ichki yoki tashqi aloqasiga ko'ra ko'chma ma'noda qo'llanilgan so'zlar [1;79-b.]. Bu termin yunoncha metaphora (siljish) degan so'zidan kelib chiqqan [2;78-b.]. Ya'ni, bunda ko'chma ma'noga o'tuvchi so'z asosiy ifodalanayotgan tushuncha bilan qandaydir bir tavsif orqali bog'liq bo'lib keladigan va birining o'rniga ikkinchisi almashtirilib qo'llanilishi orqali dastlabki ma'nosini to'liq tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z ko'chishi usuli. Bunday hammaga tanish bo'lgan tushunchaning asosiy atamasini yangicha nom bilan qayta atab, metonimiyani hosil qilishning natijasida o'ziga xos bir yangi semaning qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Demak, metonimiya tilda o'z semantikasiga, uning hayotiy zaruratiga mos lug'at tarkibining tarixiy rivojlanishi jarayonida so'z ma'nosining kengayishiga, funksional rivojlanishiga sabab bo'ladigan semantik hodisalardan biri degan so'z.

Metonimik munosabatning paydo bo'lishi haqida olimlar hali to'liq bir ta'rifga kela qolgani yo'q. Ular dastlabki tushuncha bilan yangi metonimik vazifada qo'llaniladigan so'zlarning paydo bo'lishidagi semantik ma'nolarni va ularning o'zaro bog'liqlik xarakterlarini har xil qilib tushuntirib kelmoqda. Xususan, qoraqalpoq tili leksikologiyasini maxsus o'rgangan professor E.Berdimuratov o'z ishlarida metonimiyalarning ifodalanish usullarini, asosan, katta 3 guruhga bo'lib o'rgansa [2;82-b.], A.Bekbergenov 4 turini [1;79-b.], Ajiniyoz shoir asarlarining tilini semantik-stilistik jihatdan tahlil qilgan G.Qarliboyeva metonimiyalardagi o'zaro semantik bog'lanishning 5 turini ko'rsatib o'tadi [8;130-b.]. Olim R.Suvonova o'zbek tilida metonimik xizmatdagi so'zlarning semantik xususiyatlari haqidagi fikrlarini shu so'zlarning morfologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'lagan holda, tildagi metonimik xizmatdagi so'zlar, ko'pincha, ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'l so'z turkumlariga xos so'zlar yordamida yuzaga chiqishini aytsa [5;25-b.], qozoq tilidagi metonimiyalarni maxsus o'rgangan L.Nurjekeeva ot, sifat, son, fe'l, olmosh, modal, tanlanma va taqlid so'zlardan ham metonimik ma'no ifodalashda foydalanilishini ko'rsatadi [6;39-b.]. Rus tilidagi metonimiyalar bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Brix esa metonimiya xizmatida qo'llaniladigan so'zlarni, dastlab, ikki katta guruhga: ot va sifatlarga bo'ladi-da, shu har bir guruhdagi so'zlarni o'z semantikasiga qarab, mayda guruhlarga ajratib chiqadi [10;12-b.].

Qoraqalpoq tilidagi esse matnlari tarkibidagi metonimik usulning ifodalanish xususiyatlarini yuqoridagi olimlarning fikrlari asosida ko'rib chiqqanimizda, quyidagi natijaga erisha oldik.

1. Qoraqalpoq tilidagi esse matnlaridagi metonimiya usulidagi so'zlarning morfologik ifodalanish holati bo'yicha turlari:

1.1. Ot so'zlar metonimiya sifatida qo'llaniladi. Esselar tarkibidagi ot so'zlar orqali ifodalangan metonimiyalarni tahlil qilganimizda ham shuni payqay oldik, u ham bo'lsa metonimik xizmatda otning turli leksik-grammatik turlari qo'llanilish xususiyatiga ega bo'lib keladi. Shuning uchun ham bu guruhni yana bir necha guruhga bo'lishni ma'qul ko'rib turibmiz:

a) egalik otlari orqali ifodalangan metonimiyalar: *Jol-jonekey Gurdjiyevti oqidim. ...Eger birew seniñ zeyniñe tiyse, ózim qara “Volga” menen jetip baraman,—dedi. 1983-juli “Jańgırıq”tı súwretke alarda, ol biziñ úyde boldı (O.Abdiraxmanov “Mirzaniñ isi” essesi). Berdaq penen Abay, Pushkin menen Maqtumquli, Ğabdulla Toqaydıñ bir tomlığı bul at dorbada birge jattu (I.Yusupov. “Shayırlıq haqqında shamalı sóz” essesi). ...Úyine barǵannan keyin, shay ishıp, awqatlanıp otırıp “Vremya” kórip aladı (I.Yusupov. “Júreklerge jol izlep” essesi). Túrli áwladtaǵı qálemkeshler qatarında meniñ shayırlıq ómirim de bǵrha usı “Ámiwdárya”ni jaǵalap kiyatırıptı (I.Yusupov. “Súyiklim ápiw et meni, “Ámiwdárya” jurnalı” essesi) “Bul qanday sezim” ádebiyatta payda bolǵalı bul gúrrındı oqıp, tek men qusap jazbay júrgenler ǵana sher-*

mende emes. ...**Belinskiydi** oqisañ, óziñdi jaqsı tañp alar ediñ (Sh. Usnatdinov. “Azat Berdishev fenomeni” essesi);

b) ommaviy otlar orqali ifodalangan metonimiyalar: *Vilma B. sonıñ ala sabaqlarınan úlgere almağanı ushın konservatoriyanı qoyıwǵa májbúr boldı* (O. Ábdiraxmanov. “Mirzanıñ isi” essesi). ...*Soñ keshegiden qalǵan sanların kóreyin dep oqıw zalına keldim* (Sh. Usnatdinov “Azat Berdishev fenomeni” essesi). **Qızıl imperiya** qıyrap jaña zamannıñ jaña tártibi turmısqa ene baslaǵanda Qudaysız filosoflar qattı al-birawǵa tústi (K. Smamutov. “Allanıñ rehimi – ananıñ mehri” essesi). Imtixan kitapshama dáslepki **“ayırıqsha” bahası** qonđı (T. Orashbayev. “Gawhar tas” essesi). Jerge bir náwbet, elge bir náwbet degeney, diy-qannıñ júzine qan juwırıp, **dásturxan** tolısa basladı (O. Ábdiraxmanov. “Ótmishtiñ máńgiliǵı” essesi). Xalıqqa tanılǵan kórnekli adamlar bizlerdey **piyadalarǵa** qaraǵanda anasınan ana ğurlım artıqmash tuwıladı ğoy (K. Smamutov. “Jaqsı adamlardıñ jıllı alaqañı” essesi). OOO qanday danalıq! Átteñ, adam balasınıñ nalası sirá **kókke** jetpegen (T. Qayıpbergenov. “Túrkiynama” essesi).

1.2. Sifat so‘zlardan ifodalangan metonimiyalar: *Ol Niele menen túrt jıldan beri tıǵız baylanısta bolıp, onı ata-anasınan bezdirip, óziniñ “tilsiz máńǵúrine” aylandırıp alǵan edi. ...Men Vilnyusta Mirzanıñ qartayǵan anası tuwralı sorastırıp, onıñ “psixoregulyatordıñ” sadiq janashırlarınıñ biriniñ qolında ekenin bilip aldım. ...Oqımislılar ózlerinshe “payǵambar” izlegeninde Mirzadan qolaylı adam tabılıwı shamaalı* (O. Ábdiraxmanov. “Mirzanıñ isi” essesi). *Bul oylap tabılǵan siyatshtıl metod talantlılardıñ erkinligin shekleđi, órisin tarayttı* (I. Yusupov. “Ruwxıy mádeniyat ıqlımları haqqında oylar” essesi). *Aramızǵa bir nákas aralasıp, onı bizden, bizdi onnan qızǵanıp, túrli bále-máter islerdi islep, shuǵıllıq isin ğújitken* (T. Masharipova. “Barmısñ bul jerdiñ júzinde?!” essesi). –*Men aq patshanıñ taxttan qulatılǵan künin aytıp atırman. –Qaysı? Anaw qazaqskiydegi Aqpatshanıñ ba?* (T. Masharipova. “Bayawboslıq” essesi). *Úlken ójireniñ ishi gileñ aqsaqallar, basshı jumısta isleytuǵın úlkenler, ulama-mollalar menen tolı eken.* (T. Qurbanbayeva, “Aqsaqal” essesi). *Men usı payıtta otawdıñ ishine kóz juwırtıp bolıp, ğarrıǵa názer saldı* (M. Ibragimov. “Aq otaw” essesi).

1.3. Son va ravish so‘zlardan ifodalangan metonimiyalar: *...Men onınshını ortasha úshke pitkerdim, soñ oqıy almadım. ...Men onıñ aytqanlarınıñ 50 procenti ótirik ğoy, degen ğuman menen qaradım.* (O. Ábdiraxmanov. “Mirzanıñ isi” essesi). *“Ámiwdaryanıñ” barlıq sanların kórip shıqtım. Onda Tólektiñ qosıqlarına kewil bóliñkiredim. Bir-ekewinen basqası unamadı* (Sh. Usnatdinov. “Azat Berdishev fenomeni” essesi). *Birinshi jazǵanıña-aq 5 qoyıwǵa bolatuǵın edi. ...Ilim kandidatu degenlerdiñ ózi bir júz qırq manat alıp júr* (K. Smamutov. “Jaqsı adamlardıñ jıllı alaqañı” essesi).

1.4. Fe‘l so‘zlardan ifodalangan metonimiyalar: *...Men jaqın jıllarda onıñ ishkenin kórgenim joqpan. ...Turpayılıǵı, júziniñ qalqınqılıǵı, jıyırılǵan kiyimleri Abaydıñ qádimgi vokzaldaǵı jatıp isherlerden bir eli kem emesligin kórsetti* (O. Ábdiraxmanov. “Mirzanıñ isi” essesi). *...Oqımay júrip jazatuǵınlardı, ásirrese, házirgi dáwirde ozıq oyli jámiyet oqımaydı* (I. Yusupov. *Búginligi dúnyanıñ anaw ya minaw múyeshinde adamdı adam óltirmegen yamasa oq atılmaǵan kún joqlıǵın kóz aldım keltirmesem, Allataala dúnyadaǵı adamlardı tazalawǵa qaytadan tayarlıq kórip atır ma?* (T. Qayıpbergenov. “Túrkiynama” essesi).

1.5. Modal, juft (tañlaq sózler) va taqlid so‘zlardan ifodalangan metonimiyalar: *Ol nasharlardı kontaktlı, erkeklerdi kontaktsiz, “mázi salawmadleykumlerdi” alıstan telefon-aq “emledi” ...“Ishinñen ğıdır-bıdırıdı sóylep, awzuñdı jıbırlatıp, ayta berseñ boldı”-dedi Jolli Nawrıızov maǵan “quran” úyretkende. ...Onıñ aytıp otırǵanıñıñ barlıǵı bilshıldı ekenin eskertti* (O. Ábdiraxmanov. “Mirzanıñ isi” essesi). *Iblistiñ ğew-ğewi menen onıñ kórsetken daraǵınan jemis alıp jeydi. Bereket tapqurlar, balam tınımsızlaw, kórđiñiz be, qasınızdan alısqa oynap ketipti* (T. Qayıpbergenov. “Túrkiynama” essesi).

Morfologik nuqtayı nazardan tahlil qilingan yuqoridagi misollarimizdan olinadigan xulosa sifatida quyidagılarnı aytishimiz mumkin: 1) metonimik faoliyatda tilimizdagi ma‘noli so‘z turkumlarining barchasi ham qo‘llanishi mumkin; 2) metonimiya xizmatidagi ot so‘z turkumlari gapda mantiqiy shaklda ifodalangan ikkinchi bir otning ham ma‘nosini qo‘shib anglatib keladi; 3) otdan boshqa so‘z turkumlari metonimik vazifada qo‘llanilganda, dastlab, substitutsiya hodisasiga uchraydi-da, bir vaqtning o‘zida, ikki xil so‘z turkumining (o‘z ma‘nosini va mantiqiy ma‘noda qo‘llanilayotgan ot so‘zning) ma‘nosini anglatib keladi.

2. Qoraqalpoq tilidagi esse matnlaridagi metonimiya usulidagi so‘zlarning dastlabki ma‘nodagi so‘z bilan semantik yaqinligi, tushunchalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik holati bo‘yicha metonimiyalarning turlari:

2.1. Asosiy ma‘nosi bilan metonimik ma‘nodagi so‘zning joylashgan o‘rniga asoslangan metonimiyalar: *Brigadirler oqıwshılardı oqip atırǵan jerinen atızǵa quwıp jibergen waqıtları da boldı* (Á. Paxratdinov. “Bárha awılmdı saǵınaman” essesi). *...Abay yanvardıñ ayaqlarında Moskvaǵa telefon urıp, Vladimir Pestrecov, Grigoriy Bushmakindi birimlep shaqırttı. ...Meni burıńıday hesh nárese qızıqtırmadı,*

háteki **instituttan** da jalıǵıp kettim. ...Bizlerdiń dáslepki ushurasıwlarımızdıń mániisi – ózlerimiz karate menen shuǵıllanǵan soń **Shıǵıstı** kóbirek úyreniw, **Shıǵısqa** baylanıslı barlıq nárselerdi biliwden ibarat edi. (O.Ábdiraxmanov. “Mirzaniń isi” essesi). Ol áwladlar sanasına adamgershilik mádeniyatı tek **Batista** ǵana rawaj tapqan, al **Kúnshıǵıs** ázeliy qalaq bolıp kelgen hám ele solay degen uǵımdı sińdiriw menen shuǵıllandı (I.Yusupov. “Ruwxıy mádeniyat iqlımları haqqında oylar” essesi). “Jeńge, meni búрге jep tawısa almaydı, mına Sharapqa qıyın” degeni há demey **Nókiske** tarap ketti. Jurnal satıwǵa shıǵarılıp, **úylerge** tarqatılǵannan keyin Azattan bir gáp kútip júrdim (Sh.Usnatdinov. “Azat Berdishev fenomenı” essesi). ...**Nájimniń elatinanman, massagetpen desesh?! ...Keń zaldıń ishi** qábiristandaǵıday jim-jurt bola qaldı (K.Smammutov. “Jaqsı adamlardıń jıllı alaqańı” essesi). Qaratawdaǵı reńli metallar alınatuǵın ruda **Nawayıǵa** jónetilmekte (O.Ábdiraxmanov. “Ótmishtiń máńgiligi” essesi). ...Siz onı emlew xanaǵa kelgenin kórmedińiz. Izimnen bir talay zat apardı. **Pútkil balniysa** bólisip jedik! (T.Masharipova. “Kempir oqıwshım” essesi). Qapı zárre jabılǵanda, **shep qaptalım** shanshıp ketti (T.Masharipova. “Bayawboslıq” essesi).

2.2. Xususiy otlarning metonimiya hodisasida qo‘llanılıshı. Bunda asosiy tushunchaning subyekti yoki muallifi sifatida ishlatıladiǵan atoqli otlar qo‘llaniladi: **Olar onlaǵan adam jıynalısp, kinoteatrda “Xoshlasıw”dı kórdi.** ...Sol ushurasıwlarda **Radneshti** dawıslap oqıp, onıń pikirlerin maqtastıq...**“Óli janlar”ındaǵı** Nozdrevtiń ójireden shıǵpay, awqattı da aynadan aldırıp, ózi menen ózi soqta oynap otırǵanları kóz aldında elesledi. ...Birge Talǵattıń densawlıǵı ushın **“Vermut”** ishtik. (O.Ábdiraxmanov. “Mirzaniń isi” essesi). ...Al endi **Blok, Esenin, Raynis, Tuvimlerdi** túrki tillerge awdarǵan menen, olardı kúshli shayıp sıpatında moyınlatıp bereket taba almaysañ, awdarma jaqsı shıǵpaydı (I.Yusupov. “Júreklerge jol izlep” essesi). ...Al, **Chaykovskiydi** ol atqara almaydı... (I.Yusupov. “Súyiklim ápiw et meni, “Ámiwdárya” jurnalı” essesi). ...Ótken julǵı **“Ámiwdárya”** unamadı. Ótken julǵı **Ibrayım** unadı (Sh.Usnatdinov. “Azat Berdishev fenomenı” essesi). –Buni sennen kútpegen edik, -dedi direktor bir waqıtta kózin **“Robinzon Kruzo”nıń** muqabasındaǵı súwretlerden úzbey otırıp (T.Qurbanbaeva. “Aqsaqal” essesi). Ústi ashıq uzın qara **“ZIM”** iyesinen ayırılǵan tulparǵa qusaydı (K.Smammutov. “Jaqsı adamlardıń jıllı alaqańı” essesi).

2.3. Asosiy ma’nosini uning tashqı qobig’i, idishining turi bilan qayta nomlash orqali paydo bo‘ladigan metonimiyalar: **Al, ballar “aq belbewge”** deyin eristi, biraq bul dárejeler hesh jerde rásmiy belgilenbedi. ...Jigit sońǵı pullarınan sıptay bolıp, **tramvayǵa** tólewtuǵın úsh tıyın tabılmay VUZ gorodqa piyadalap qayttı. ...Azan menen bes adamǵa bir **shıysheden** ishıp ya bazarǵa, ya Sultan babaǵa baramız. ...Abay menen Mirzaniń densawlıǵı ushın sirtin **qadaqlar** kóterdik (O.Ábdiraxmanov. “Mirzaniń isi” essesi). Bala-shaǵalar qonaq baratuǵın úylerge **dásturxan** beriwege tayarlap atır. Geyde bir **qazannan** on bes, on jeti adamnan da kóbirek bolıp awqatlanar edik (T.Qurbanbaeva. “Aqsaqal” essesi). **Tabaq** aldılarına kelerkelmesten oǵan dárhal umtılıp, oǵan qol urıwǵa qolaylasa beredi (E.Ótepbergenli. “Qıdır ata qarǵaǵan qız” essesi). Kózlerimdi ashısam, betime únılip turǵan **aq xalatlı** úsh adamǵa kózim tústi (K.Smamutov. “Allanıń rehimı – ananıń mehri” essesi).

2.4. Metonimiyalarning asosiy tushunchaning turli tavsifiy (xulq-atvor, tashqı ko‘rinish) belgilari orqali yaratılıshı: ...Biraq, negedur ǵayıptan sharapat izlep, **kózi ashıqlarǵa** ilajı barınsha tabınǵan **nadanlar** ne ushın Mirzaǵa barǵan? ..Aqırı, eger de ol, bir ayırıqsha kúsh bolsa, barlıq jerde, xalıqtıń arasında, **mujiklerdiń** arasında duslasıwı kerek ǵoy. ...**Abeshiylar** ekstrasenslerge talap bar jerdi ǵana mákanlay alǵan edi (O.Ábdiraxmanov. “Mirzaniń isi” essesi). Áteń, jańa ǵana **kúsh-ǵayratqa tolǵan bayǵustı** ashshı táǵdır óz iskenjesine aldı (M.Ibragimov. “Aq otaw” essesi). Búginligi biz kórip júrgen **qara deneliler** onday biyádepler emes... **Qúdiretli kúshli** endi Azireyil perishteni tapsırma berdi (T.Qayıpbergenov. “Türkiynama” essesi). Bul qatlamnıń adamları tiykarınan ólesi **ashkóz baylar** hám ólesi **jaman jarlılar**, kórgenleri bárha iyť kúni (E.Ótepbergenli “Qıdır ata qarǵaǵan qız” essesi). **Bujır bet chekist** durıs aytıptı. Tamashanıń úlkeni aldında eken. (K.Smamutov “Jaqsı adamlardıń jıllı alaqańı” essesi)

2.5. Metonimiyalar ma’lum bir subyektgagina xos bo‘lgan turli belgilar orqali ham hosil qilinadi. Boshqacha aytqanda, bu turdagi metonimik faoliyatda qo‘llaniladigan so‘zlar subyektdagi turli jismoniy kamchilik-nuqsonlarning, ijtimoiy statuslarning ma’nosini ifodalash orqali qo‘llaniladi: **Men seni Moskvaǵa aparıp, náhánler** menen tanıstıraman. ...Bul xat boyınsha **obkom** bizlerge járdem bergen joq. ...Biraq, jası ortadan álleqashan ótip ketken **úshirepiniń** jalǵız ózi kele almaytuǵını tuwralı da sóz boldı. (O.Ábdiraxmanov. “Mirzaniń isi” essesi). ...Zachyetkamda “bes” bahası tur edi. **Zaochnikke** bahanıń áhmiyeti az (T.Masharipova. “Ol meniń ustazım edi” essesi). –Mına **báleden** qutqarıń, **úyde bir kempir, dúzde bir kempir**, óletuǵın boldım (T.Masharipova. “Kempir oqıwshım” essesi). Joldas aǵanıń **payǵambar jasına** shıqqan merekesine bardım (T.Qurbanbaeva. “Aqsaqal” essesi). Kelin-kúyew **akademiktıń** músini aldına gúl sheńberin qoydı (O.Ábdiraxmanov. “Ótmishtiń máńgiligi” essesi). Úlken ójireniń ishi gileń aq-

saqallar, basshi jumista isleytuğın **ülkenler**, ulama-mollalar menen tolı eken (T.Qurbanbaeva. “Aqsaqal” essesi) **Ilim kandidati degenlerdiñ ózi** bir jüz qırq manat alıp jür (K.Smammutov “Jaqsı adamlardıñ jıllı alağanı” essesi).

2.6. Harakat bilan uning bajaruvchisi, shu jarayondagi harakat va uning vositasi orasidagi bog‘lanish asosida metonimiyalar yaratiladi: *Abay ózine shamalı qır kórsetkenler menen pul beriwden bas tartqanlarga karatistlerdi jiberip, ózi tóbeleske aralaspadı. ...Azgana daw kóterilip edi, endi doslastıq, mine jarasıw ushin qagıstrajapız. ...Állette, kolxozdıñ paxta planın “qosıp jazıwda” Mirzaniñ tikkeley qatnası bar desek, külkili bolar edi. Ol nasharlardı kontaktlı, erkeklerdi kontaktsiz, “mázi salawmaáleykumlerdi” alıstan telefon-aq emledi. ...Motocikl irklimesten ótip ketti, izinde kiyatırған mashına toqtap, “gezendelerdi” mingizdi* (O.Ábdıraxmanov. “Mirzaniñ isi” essesi). Kitapxanağa barıp gazetalarda **jurttıñ aytıp atırғанı** menen tanısa basladım (K.Smammutov. “Jaqsı adamlardıñ jıllı alağanı” essesi). Qaraqalpaqlar haqqında sátsiz baha aytsa, **qolımdı qan qılıwğa** tayarman (T.Qayıpbergenov “Türkiynama” essesi). Men úyde basshıman, **tapqanımdı** úyge alıp kelemen (T.Masharipova. “Ómir güli” essesi) Bes-altı jılda **qorğap alasañ**, ózim bas-kóz bolaman (T.Orashbaev. “Gawhar tas” essesi). **Alğanıñdı** sırtınan tanıtuğın edim... (T.Masharipova. “Bayawboslıq” essesi). ...**Qılısh-qalqanıñ shaqıldı, atlarıñ dúsirlisi** hám **ashshı kisnewleri, analardıñ sırsıp, náresteniñ shırqırawı** esitiledi (I.Yusupov. “Ruwxıty mádeniyat ıqlımları haqqında oylar” essesi). Dáslep **jaqqanğa da, jıgılğanğa da** sıylıq berip, xoshametlendi (T.Qurbanbaeva “Aqsaqal” essesi). Bağdarlamanı tawısıp úyge kelgennen soñ da túnniñ yarımına deyin **jazıw mashınkasınıñ shıqıldı tınbaydı** (T.Masharipova. “Qúden” essesi).

2.7. Asosiy tushunchaning materiali, kelib chiqish manbai ma’nosini bildiruvchi so‘zlar metonimik usulda yangi ma’no anglatish uchun ishlatiladi: *Afruzı iyman jüzli, hámmege qol-kómeğın berip júretuğın haqıyqat* **Bıybıpatpanıñ tuqımı** edi (T.Masharipova. “Ómir güli” essesi). ...*Hámme kiyimdi de tigip kete beretuğın edi, ya ólsheytuğın santimetri joq, tek qarıslap ólsheydi. ...Hámmeniñ kiyetuğını tek shut.* (T.Qurbanbaeva “Aqsaqal” essesi). *Olar qaytadan jıyinlarga barıp waz ayta basladı.* **Telekranlardı** iyeledi (K.Smamutov. “Allanıñ rehimi – ananıñ mehri” essesi). ...*Biziñ maqsetimiz – pák adamlardıñ namısın mirzashılıqtan qorğaw ibarat ekenin bilip alasız* (O.Ábdıraxmanov. “Mirzaniñ isi” essesi). *Quday qosqan birinshi juptılarga bas iyip, qutlı bolsın aytıptı Iblis* (T.Qayıpbergenov. “Türkiynama” essesi)

Metonimiyalarning paydo bo‘lishidagi semantik ma’nolari haqida qo‘lga kiritilgan natijalarimiz sifatida quyidagi fikrlarni aytishimiz mumkin: metonimiyalarni hosil qiluvchi so‘zlarning semantik ma’nosi bilan asosiy e’tiborga olingan, mantiqiy (yashirin) ma’noda qo‘llovchi so‘zlarning o‘rtasida o‘zaro bevosita aloqaga asoslanishi kerak. Bu aloqani topish uchun so‘zlovchidan (mualliflardan) ifodalanayotgan so‘zning barcha semantik ma’nolarini bilish va shularning ichidan o‘quvchiga tushunarlisini, bayon qilina-yotgan fikrning kontekstiga mos keladiganini o‘rinli ishlatish talab etiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, metonimiya bu tilning leksik tarkibini boyitib, leksemalarning polisemik xilma-xilligiga ega bo‘lishini ta’minlovchi lingvostilistik vositadir. Metonimiyalar matnga (esse matnlariga) o‘zining badiiy-tasviriy ta’sirini ko‘rsata oladi, fikrning qisqa, lo‘nda shaklda bayon etilishini ta’minlaydi. Lisoniy iqtisod hodisasini vujudga keltiruvchi birlik sifatida nutqning qisqaligi, inson energiyaning o‘rinli sarflanishi uchun xizmat qiladi. Metonimiyaning bu xususiyatlari birmuncha erkin bo‘lgan esse janrining talablariga to‘liq mos keladi. Shuningdek, o‘quvchining fikrlashi uchun ham alohida rol o‘ynaydi, chunki metonimiya qo‘llanilgan kontekstdagi muallifning o‘ylab topgan yangi leksemasini tushunish talab etiladi. Ushbu xususiyatlari metonimiyaning qoraqalpoq tilshunosligida maxsus o‘rganilishidagi dolzarbligini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- (1). Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинің стилистикасы. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1990.
- (2). Бердимуратов Е. Хэзирги қарақалпақ тили. Лексикология. Нөкис, 1994.
- (3). Ш.Абдиназимов. Лингвопозтика. Тошкент, “Ёшлар” нашриёт уйи, 2020.
- (4). Бердимуратов Е. Әдебий тилдің функционаллық стиллериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. Нөкис, “Қарақалпақстан”. 1973.
- (5). Сувонова Р.А. Ўзбек тилида метонимия. Тошкент, 2003.
- (6). Нұржекеева Л. Метонимияның лингвистикалық табиғаты. Алматы, 1992.
- (7). Бирих А. Метонимия в современном русском языке. “München”. 1995.
- (8). Г.Қарлыбаева. Әжинияз шығармалары тилинің семантика-стилистикалық өзгешеликleri. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 2017.
- (9). G.Aynazarova. Teoriyalıq til bilimi tiykarları. Nókis, QMU, 2022.

Narmuratov Zayniddin Radjabovich (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi;

e-mail: zayniddin.tersu@mail.ru)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI BA'ZI SCIENCE/ILM KONSEPTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologizmlarning shakllanishi, etimologiyasi, semantik-strukturasi, tarjima muammolari, ularning lingvomadaniy xususiyatlariga oid tadqiqotlar nazariy jihatdan o'rganilib chiqilgan va ularga konseptual munosabat bildirilgan. Chog'ishtirilayotgan tillarda science/ilm konseptli frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari amaliy misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, ilm, ekvivalent, maqol, frazema.

Нармуратов Зайниддин Раджабович (преподаватель Термезского университета экономики и сервиса;

e-mail: zayniddin.tersu@mail.ru)

ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ КОНЦЕПТОВ SCIENCE/НАУКИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В статье анализируются теоретические исследования формирования, этимологии, семантической структуры, проблем перевода и исследования лингвокультурных особенностей фразеологизмов, а также представлен концептуальный подход к ним. Специфические особенности фразеологических единиц с концептом наука/фильм в сопоставляемых языках иллюстрируются практическими примерами.

Ключевые слова: фразеология, наука, эквивалент, пословица, фразеологизм.

Narmuratov Zayniddin Radjabovich (Teacher, Termez University of Economics and Service)

e-mail: zayniddin.tersu@mail.ru

SPECIFIC FEATURES OF SOME SCIENCE/ILM CONCEPT PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. This article analysis of theoretically studies the formation, etymology, semantic structure, translation problems, and research on their linguistic and cultural characteristics of phraseologisms and presents a conceptual approach to them. The specific features of phraseological units with the concept of science/ilm in the languages being compared are illustrated with practical examples.

Keywords: phraseology, Science, equivalent, proverb, phraseology.

Kirish (Introduction). Bugungi kunga kelib, dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari va ularning shakllanish omillarini lingvomadaniy aspektda o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, muayyan xalqning dunyoqarashi, urf-odat va an'alarini o'zida aks ettiruvchi ilm mazmunli frazeologik birliklarni ilmiy-nazariy asoslash, ularni semantik-struktur va lingvomadaniy jihatdan yoritish, noqardosh tillardagi ekvivalentini aniqlash orqali yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tilshunoslikda frazeologik birliklar masalasi bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, E.Begmatov, A.Madvaliyev, N. Mahkamov, T.Mirzayev kabi tadqiqotchilar tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da [1] o'zbek tilidagi frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari misollar asosida ochib berilgan. Sh. Rahmatullayev tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da esa frazeologizmlarning turli ma'nolari xususida muhim ma'lumotlar keltirilgan [6]. Xorijiy tadqiqotchilardan biri L. Vasilyeva o'zining tadqiqotlarida ingliz tilidagi frazeologizmlarning badiiy jihatlariga o'z e'tiborini qaratgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ingliz va o'zbek tillaridagi ba'zi science/ilm konseptli frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Inglizcha *Science* konseptiga o'zbek tilidagi *ilm* leksemasi ekvivalent bo'ladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga ko'ra, ilm (arabcha so'z bo'lib, bilim, fan nazariyasi): 1. O'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishadigan bilim, ko'nikma, ma'lumot. 2. Ish faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi, fan. 3. Ish faoliyatining ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. Ilm olish borasida Payg'ambar alayhissalom "Ilm olish – har bir musulmon erkak-ayolga farz (majburiy)" deganlar. Yana u zot "Hatto Xitoydan bo'lsa ham, borib ilm o'rganib kelinglar" deb nasihat qilganlar. Chunki ilm izlash, uni egallash – Islom dinining eng asosiy talabi, Alloh taolo bandalariga buyurgan ishdur [1;24-b.].

Qur'oni karimning Hazrati Payg'ambarimizga tushgan birinchi oyati "Iqro", ya'ni "O'qi" deb boshlangan edi. Payg'ambar alayhissalom urushda asir tushgan odamga ozod bo'lish uchun 10 ta musulmonga o'qish, yozishni o'rgatishni shart qilib qo'yganlar. Ana shularning o'ziyoq dinimizda *ilm* olishga judayam ko'p ahamiyat berilganini bildirib turibdi. Yurtimizda azaldan ilmu ma'rifatga katta e'tibor berilgan. Imom Buxoriy, Zamaxshariy, Imom Termiziy, Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ulug'bek, Navoiy kabi ulug' bobolarimizning ilm sohasidagi ishlarini butun dunyo tan olgan. Ilm leksemasi frazeologik birliklarda ifodalanib, turli xil ma'no-mazmuni ifoda etadi. [5;103-b.].

Inglizcha: *To bite the granite of science* iborasi murakkab ilmiy o'rganishning qiyin tabiatini va murakkab bilimlarni egallash uchun zarur bo'lgan intellektual mehnatni tasvirlaydigan aniq bir metaforadir. Bu ingliz madaniyatida sabr-toqat, mehnat va bilimni o'zlashtirishga bo'lgan yondashuv qadrlanishini aks ettiradi, xususan ilm-fan sohasida [7;72-b.]. O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmasa-da, *ilm olishga kirishmoq* frazeologik birligi ma'no va mazmuni bilan mos keladi. Idioma ilmiy bilimlarni olish jiddiy va mashaqqatli vazifa ekanligini, ko'pincha, chidamlilik va qat'iyatni talab qilishini ham ta'kidlaydi.

Inglizcha: *Know the tricks of the trades* "savdogarning hiyla-nayranglarini bilmoq" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilidagi *Biror sohaning piri bo'lmoq* frazeologik birligi mazmun-mohiyati bilan to'g'ri keladi. Ingliz tilidagi idiomada tarkibda qo'llangan *trade* [savdogar], *trick* [hiyla] so'zlari o'zbek tili tarkibidagi iborada qo'llanmagan.

O'zbekcha variantda esa *pir* leksemasi qo'llanilgan. Chog'ishtirilayotgan frazeologik birliklarning inglizcha variantida salbiy ma'no izohlangan bo'lsa, o'zbekcha idiomada ijobiy ma'no kuzatilyapti. Qiyoslanayotgan frazemalar tarkibidagi so'zlarning turlicha ekanligi ikki xalqning lingvomadaniyati bir-biridan farq qilib turishidan dalolat berib turibdi. Bu o'rinda xalq o'zining lingvomadaniyatiga xos bo'lgan leksemadan foydalangan. Ikki etnos frazeologik birliklarining ma'no va mazmuni teng bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tilga oid leksemalardir hamda ikkala xalqning o'zigagina xos bo'lgan odatlarini ifodalaydi [6;19-b.].

Ingliz lingvomadaniyatida savdogarlar juda ayyor kishilar hisoblanadi. Shu bois ham qo'llanilgan idiomada "*tricks of the trades*" birikmasi ishlatilgan hamda ayyor savdogarning hiylalarini biladigan *aqli, ilmi, bilimdon inson* obrazi namoyon bo'lmoqda. O'zbek lingvomadaniyatida esa *pir* sufilylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro'li rahnamolar. Aholi orasida *Pir* tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi. Shu bois ham o'zbekcha iborada *pir* leksemasi ishlatilgan. Mazkur ibora o'zbek xalqi orasida biror-bir sohaning eng yaxshi mutaxassisi degan mazmunda foydalaniladi [6;13-b.].

Inglizcha va o'zbekcha berilgan frazeologik birliklarda ham *ilm* leksemasi paremalarni hosil qilishda mantiqiy asos sifatida faol qatnashgan. Biroq tahlil etilgan misollardan ma'lumki, jadvalda keltirilgan paremlar ikki etnos lingvomadaniyatida katta farq bilan ishlatiladi. Inglizcha idiomalarda ilmning nihoyatda ko'p ekanligi ularni o'rganishda bir inson hayoti yetmasligi, ilm tortishuvda shakllanishi, ilmda tajriba muhimligi kabi qarashlar xalq tasavvuri orqali shakllangan paremlar yordamida aniqlangan bo'lsa, o'zbekcha ekvivalentida esa ilmning inson baxtli bo'lishi uchun yo'l ekanligi, inson go'zal xulqli bo'lish kerakligi va odob bilan ilm egizak ekanligi xalq tasavvuridagi paremlarda o'z aksini topgan.

Inglizcha *The Devil knows many things because he is old* iborasi "shayton ko'p narsani biladi, chunki u qari" ma'nosini beradi [7;61-b.]. Bu o'zbek tilida *Qari bilganni pari bilmas* idiomasi orqali ifodalanadi. Frazemaning o'zbekcha variantida ijobiy ma'no kuzatilyapti. Agar inglizcha varianti bilan solishtiriladigan bo'lsak, o'zbek tilida bu ijobiy xislatlarni ko'rsatadi, ya'ni, o'zbek xalqi nuroniy, uzoq yashab kelayotgan qariyalarni hayot tajribasini qadrlashadi va ularni, hatto pariga tenglashtiradi. Bu o'rinda iborada ikki tilda katta farq bilan ishlatilishini ko'rsatyapti. U holda inglizcha ushbu iboraga boshqacha o'zbekcha variant qidirish ehtiyoji tug'iladi. Yoki inglizcha idiomaga mualliflar tomonidan noto'g'ri variant qo'yilgan, degan xulosaga kelinadi. Chunki o'zbek xalqi tomonidan *shayton* obrazi hech qachon ijobiy baholanmagan.

O'zbek tilida ko'plab frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini simvallashtirish asosida shakllangan. Bu qatordagi frazeologizmlarda ijobiy va salbiy ma'no ifodalovchi frazemalar ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, ilonning turli salbiy belgi-xususiyatlari asosida bir qancha frazemalar shakllangan. Jumladan, *yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq* iborasi o'ta sezgir, juda mug'ombir kishilar xarakterini ifodalash maqsadida yaratilgan, chunki ilon aynan shunday xislatga ega. Bu ibora insonning juda sezgir, kuzatuvchan va barcha voqealardan xabardor bo'lishini anglatadi. Ya'ni, u yer ostida, ko'zga ko'rinmaydigan joyda biror narsa ro'y berayotganini ham bilib olish qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi [3;14-b.].

O'zbek madaniyatida bu ibora tajribali va dono odamlarni tasvirlashda qo'llaniladi. O'zbek xalqida bunday odamlar, ko'pincha, yoshi ulug', hayotda ko'p narsani ko'rgan va o'z hayotiy tajribalariga asoslanib harakat qiladigan kimsalar sifatida tan olinadi. Bu ibora ham dono, ko'p narsadan xabardor odamni ulug'lash uchun ishlatiladi. Ushbu ibora o'zbek xalq og'zaki ijodida ham keng tarqalgan bo'lib, u, ko'pincha, aql-zakovat, tajriba va chuqur kuzatuvchanlikni ifodalaydi. O'zbek lingvomadaniyatida bunday iboralar orqali insonlarning qanday bo'lishi, qanday fazilatlar ulug'lanishi kerakligi haqida tushunchalar aks ettiriladi va o'zbek xalqining hayotiy tajriba va dono qarorlar qabul qilishga katta ahamiyat berishini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, qiyos qilinayotgan frazeologik birliklarning har biri ma'lum darajada xalqning qadriyatlarini, madaniyatini, odat-marosimlarini o'zida aks ettirishi bilan birga, etnosning o'tmishini va kelajagini anglatadi. Ikki tildagi tahlilga tortilgan paremlar tematik va mantiqiy shakllanishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild, Toshkent, davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 688-bet.
- (2). Ernest Miller Hemingway. The old man and the sea. United States, 1952, 127 p.
- (3). Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Roman, mas'ul muharrir A.Samad. Toshkent, "Meriyus", 2015, 548-bet.
- (4). Mark Twain. The complete short stories. Bantam Classic reissue edition. New York, 2005, 737 p.
- (5). O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar. T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. Toshkent, «Sharq», 2005, 253-bet.
- (6). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992, 380-bet.
- (7). Васильева Л. Краткость—душа остроумия. Английские пословицы, поговорки, крылатые выражения: М., ЗАО Центрполиграф, 2006, 350 с.

Abdjalilova Ruxshona Abdug'afforzoda (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filliali ingliz tili o'qituvchisi; e-mail: ruxshonaabdjalilova9418@gmail.com)
INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLAR BORASIDAGI QARASHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi kriminalingvistik birliklar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari va ishlatilish sohalari qiyosiy tahlil qilinadi. Kriminalingvistika tilshunoslikning muhim yo'nalishi sifatida jinoyat tergovida til birliklaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganadi. Ingliz tilidagi kriminal terminologiya va o'zbek tilidagi kriminalingvistik birliklar tuzilishi, uslubi va semantik jihatlari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: kriminalingvistika, jinoyat terminologiyasi, ingliz tili, o'zbek tili, kriminal birliklar, uslubiy tahlil, badiiy matn, publitsistik uslub, tilshunoslik, qiyosiy tahlil.

Абдужалилова Рухшона Абдугаффорзода (преподаватель английского языка Термезского филиала Ташкентской медицинской академии; e-mail: ruxshonaabdjalilova9418@gmail.com)

ВЗГЛЯДЫ НА УГОЛОВНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. В статье дается сравнительный анализ криминологических единиц английского и узбекского языков, их специфические особенности, функции и сферы использования. Судебная лингвистика, как важное направление языкознания, изучает возможности использования языковых единиц в расследовании преступлений. Выявлены различия и сходства между структурой, стилем и семантическими аспектами уголовной терминологии на английском языке и уголовно-правовыми языковыми единицами на узбекском языке.

Ключевые слова: криминальная лингвистика, криминальная терминология, английский язык, узбекский язык, криминальные единицы, методологический анализ, художественный текст, публицистический стиль, лингвистика, сопоставительный анализ.

Abdjalilova Ruxshona Abdugafforzoda (English teacher at the Termez branch of the Tashkent Medical Academy; e-mail: ruxshonaabdjalilova9418@gmail.com)

VIEWS ON CRIMINALINGUISTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation. This article provides a comparative analysis of criminal linguistic units in English and Uzbek, their specific features, functions and areas of use. Criminal linguistics, as an important area of linguistics, studies the possibilities of using language units in criminal investigation. The differences and simi-

larities between the structure, style and semantic aspects of criminal terminology in English and criminal linguistic units in Uzbek are identified.

Keywords: *criminal linguistics, criminal terminology, English language, Uzbek language, criminal units, methodological analysis, literary text, journalistic style, linguistics, comparative analysis.*

Kirish (Introduction). Ingliz va o'zbek tilshunosligidagi kriminologik birliklarning ta'rifi va ko'lam ularning tegishli huquqiy va madaniy asoslari bilan bog'liq bo'lgan jiddiy farqlarni ochib beradi. Ingliz tilshunosligida kriminologik birliklar, ko'pincha, huquqiy me'yorlarni buzadigan harakat yoki harakatsizlikni ifodalash uchun ishlatiladigan *crime, offence, and criminal offence* (jinoiyat) kabi atamalarni o'z ichiga oladi. Bu atamalar huquq tizimiga chuqur singib ketgan va jinoiyatni sud nuqtai nazaridan tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tomondan, o'zbek tilshunosligi o'z ichiga hududning madaniy jihatlari va ijtimoiy-siyosiy kontekstini aks ettiruvchi kengroq atamalarni o'z ichiga oladi. Bu mahalliy urf-odatlar va an'anaviy huquqiy tizimlarning ta'sirini ta'kidlab, ingliz tilida to'g'ridan to'g'ri ekvivalentiga ega bo'lmagan noyob atamalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tillar orasidagi tafovut lingvistik asoslar ular ifodalagan ijtimoiy qadriyatlar va huquqiy amaliyotlar tomonidan qanday shakllantirilishini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ingliz va o'zbek tillaridagi kriminalingvistik birliklar, ularning o'ziga xos xususiyatlari masalasi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, U.Turayevaning fikricha, ingliz va o'zbek kontekstlarida kriminologik birliklarning rivojlanishi va evolutsiyasi alohida traektoriyalar ta'sirida bo'lgan [6;11-b.]. Mahalliy tadqiqotchilardan yana biri Sh .Iskandarovning ta'kidlashicha, o'zbek kriminologik iboralari soddaroq sintaktik tuzilmalarni ma'qullashi mumkin, ammo ular aniqlik va o'ziga xoslikni ta'minlovchi morfologik burilishlarga boy. Bu farqlar har bir tilning huquqiy va kriminologik kontekstga moslashishini ko'rsatadi [3;7-b.].

Ingliz tilida kriminologik terminologiya evolutsiyasini *o'rta asrlar* davriga, huquqiy tizimning asrlar davomida rivojlanib borishi natijasida huquqiy atamalarning bosqichma-bosqich rasmiylashtirilishini kuzatish mumkin. Rim huquqining ta'siri va undan keyingi huquqiy islohotlar zamonaviy Ingliz huquqiy lug'atini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Aksincha, O'zbekistonda kriminalistik birliklarning tarixiy rivojlanishi mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy manzarasi bilan chambarchas bog'liq [2;91-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ingliz va o'zbek tilshunosligida kriminalingvistik birliklar borasidagi qarashlar tahliliga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Islom huquqiy tamoyillari va sovet huquqiy ta'limotlarining integratsiyalashuvi madaniy ta'sirlar aralashmasini aks ettiruvchi xilma-xil lingvistik merosga yordam berdi. Natijada har bir tildagi kriminologik birliklarning evolutsiyasi tarixiy o'zaro ta'sirlar, huquqiy islohotlar va madaniy almashinuvlar natijasida shakllanib, o'ziga xos terminologik landshaftlarga olib keldi. Ingliz va o'zbek tilshunosligida qo'llaniladigan kriminologik terminologiyaga madaniy va ijtimoiy-siyosiy omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tilida ijtimoiy-siyosiy iqlim va madaniy me'yorlar jinoiy faoliyatni idrok etish va ta'rifini tarixan shakllantirib, dinamik va rivojlanayotgan huquqiy leksikaga olib keldi. Masalan, jinoiyatning huquqiy ta'riflari o'zgaruvchan ijtimoiy qadriyatlar va sud talqinlariga javoban vaqt o'tishi bilan moslashtirildi. Xuddi shunday, o'zbek tilida ham kriminologik birliklarni belgilashda madaniy va ijtimoiy-siyosiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonning an'anaviy urf-odatlar va ijtimoiy-siyosiy tarixi, jumladan, uning sovet davridan o'tish davri kriminologik tushunchalarning ifodalanishi va tushunilishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu omillar lingvistik landshaftning paydo bo'lishiga yordam beradi, bu yerda til madaniy va huquqiy murakkabliklarni navigatsiya qilish uchun ham aks ettirish ham vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, madaniy va ijtimoiy-siyosiy elementlarning o'zaro ta'siri ikkala tildagi kriminologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun markaziy o'rinni egallaydi [4;53-b.].

Kriminologik atamalarni ingliz va o'zbek tillari o'rtasida tarjima qilish til va madaniy tafovutlar tufayli jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Birlamchi muammolardan biri bu ayrim yuridik atamalarning to'g'ridan to'g'ri ekvivalentlarining yo'qligi bo'lib, bu, ko'pincha, tarjimada noaniqliklarga olib keladi. Masalan, ingliz tilidagi "crime" atamasi qonunga xilof faoliyatning keng doirasini o'z ichiga oladi, o'zbek tilida esa kontekstga qarab, aniqroq ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bunday nomutanosiblik aniq terminologiya muhim ahamiyatga ega bo'lgan sud jarayonlarida tushunmovchilik va noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, har bir tildagi sintaktik tuzilmalar tarjima jarayonini murakkablashtirishi mumkin, chunki ingliz tilida, ko'pincha, o'zbek tilining to'g'riroq sintaksisida ekvivalenti bo'lmasligi mumkin bo'lgan murakkab huquqiy jargon qo'llaniladi. Ushbu lingvistik muammolar to'g'ri va samarali tarjimalarni ta'minlash uchun har ikki tilning huquqiy asoslarini to'liq tushunishni talab qiladi [5;8-b.].

Ingliz va o'zbek tillari o'rtasida kriminologik atamalarni tarjima qilishda til va madaniy tafovutlarni bartaraf etish uchun bir qancha strategiyalardan foydalanish mumkin. Samarali yondashuvlardan biri har ikki tildagi huquqiy tizimlar va atamalarning qiyosiy tahlilidan foydalanishdir. Bu huquqiy atamalarning o'z madaniy kontekstlaridagi nuanslari va oqibatlarini tushunishni o'z ichiga oladi va shu bilan tarjimonlarga yanada aniqroq va madaniy jihatdan sezgir tarjimalarni yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari, ixtisoslashtirilgan ikki tilli yuridik lug'atlarni ishlab chiqish murakkab yuridik atamalarning standartlashtirilgan ekvivalentlarini taqdim etish orqali tarjimonlarga yordam berishi mumkin. Huquqiy va kriminologik terminologiyaga e'tibor qaratadigan tarjimonlar uchun o'quv dasturlari ham tarjimaning aniqligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu dasturlar tarjimonlarni huquqiy tilning nozik tomonlarini o'rganish uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlashi mumkin, bu esa tarjimalarning ikkala tilda ham mo'ljallangan ma'no va huquqiy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasida kriminologik atamalarni tarjima qilishdagi murakkabliklar va yechimlarni ko'rsatadigan amaliy tadqiqotlar tarjima jarayoni haqida qimmatli fikrlarni beradi. Masalan, «punishment» (jazo) atamasining tarjimasi bo'yicha tadqiqot turli madaniy kontekstlarda ushbu tushuncha bilan bog'liq huquqiy farqlarni yetkazishdagi qiyinchiliklarni ta'kidlaydi. Ingliz tilida «jazo» bir qator huquqiy choralarni o'z ichiga oladi, o'zbek tilida esa qo'shimcha madaniy va axloqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarni o'rganib chiqib, tarjimonlar umumiy tuzoqlarni aniqlashlari va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin. Ushbu tadqiqotlar ko'pincha muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun nafaqat til bilimini, balki ikkala tilning madaniy va huquqiy manzaralarini chuqur tushunishni ham talab qilishini ko'rsatadi. Ushbu amaliy tadqiqotlar orqali tarjimonlar o'z uslublarini takomillashtirishlari mumkin, natijada kriminologik kontekstda tarjimalarning sifati va aniqligini oshiradilar [6;72-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tilshunosligida kriminologik birliklarni o'rganish tarixiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy ta'sirlar ta'sirida shakllangan o'xshashlik va farqlarning boy gobelenini ochib beradi. Ushbu birliklarning ta'riflari, ko'lam va evolutsion yo'llarini o'rganib chiqib, biz tilning jinoyat va adolatga nisbatan jamiyat munosabatlarini qanday aks ettirishini chuqurroq tushunamiz. Til xususiyatlari, jumladan, morfologik va sintaktik xususiyatlar, shuningdek, semantik va pragmatik o'lehovlar turli madaniyatlarda huquqiy tilga xos bo'lgan murakkabliklarni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, tarjima va tarjima muammolari lingvistik bo'shliqlarni bartaraf etish va kriminologik kontekstda muloqotni kuchaytirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydi. Keys tadqiqotlari orqali biz ushbu muammolarni hal qilishning nozik tomonlarini ko'rsatib berdik, tilshunoslar va huquqshunoslar o'rtasida doimiy izlanish va hamkorlik zarurligini ta'kidladik. Oxir-oqibat, ushbu qiyosiy tahlil nafaqat ikkala tildagi kriminologik nutq haqidagi tushunchamizni boyitibgina qolmay, balki kriminologiyani o'rganish va amaliyotida madaniy sezgirlikning muhimligini ham ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Crystal D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2003, 352 p.
- (2). Durant A., Janny H.C. Leung Pragmatics in Legal Interpretation. Pre-publication version published in Anne Barron, Peter Grundy and Gu Yueguo. The Routledge Handbook of Pragmatics, 2017.
- (3). Iskanderova Shirin Daniyarovna. (2024). Classification of the Syntactic Structure of English and Uzbek Languages. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics, 3(1), p. 7–12. <https://doi.org/10.51699/ijllal.v3i1.3258>
- (4). Ismoilova, D. (2023). Criminal terminology in english and uzbek languages. American Journal of Philological Sciences, 3(03), p. 53–58.
- (5). Ixtiyorovna, B.D. (2024). Challenges and solutions in english and uzbek translations. Western European Journal of Linguistics and Education, 2(4), p. 5–7.
- (6). Turaeva, U. (2021). Comparative study of uzbek and english legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.6 Philological sciences).

Rashidova Nargiza (Samarqand davlat Chet tillar instituti o'qituvchisi)

“DIPLOMATIYA” TUSHUNCHASINING FANGA KIRIB KELISHI VA UNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy hayotimizdagi “diplomatiya” terminining ilk bor kelib chiqish tarixi va rivojlanishi haqida so'z yuritish bilan birga, ushbu tushunchaning zamoniylashtirilgan faniga kirib kelishi hamda uni lingvistik tomondan o'rgangan olimlarning nazariy qarashlari va izohlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit soʻzlar: diplomatiya tushunchasi, diplomatik lugʻat, diplomatik diskurs, lingvistik tadqiqot.
**ВВЕДЕНИЕ ПОНЯТИЯ «ДИПЛОМАТИЯ» В НАУКУ И ЕГО ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В
СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ**

Аннотация. В этой статье обсуждается история возникновения и развития термина “дипломатия” в современной жизни, его внедрение в современную лингвистическую науку, теоретические взгляды и комментарии ученых, изучающих его с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: понятие дипломатии, дипломатическая лексика, дипломатический дискурс, лингвистические исследования.

**INTRODUCTION OF THE CONCEPT OF “DIPLOMACY” IN SCIENCE AND ITS
INTERPRETATION IN MODERN LINGUISTICS**

Annotation. This article discusses the history of the emergence and development of the term “diplomacy” in modern life, its introduction into modern linguistic science, theoretical views and comments of scientists studying it from a linguistic point of view.

Keywords: concept of diplomacy, diplomatic vocabulary, diplomatic discourse, linguistic research.

Kirish. Soʻnggi yillarda rasmiy nutqiy muloqot va uning turlarini oʻrganishga boʻlgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, diplomatik diskurs, diplomatik matnlar va diplomatik nutqiy muloqot turi bir qator gʻarb va sharq olimlari tomonidan hozirga qadar oʻrganilib kelmoqda. Diplomatik nutq pragmatik xususiyatga ega va aynan shu nuqtayi nazardan yaxshi tashkil etilgan va asoslangan xalqaro muloqotni talab qiladi. Shuning uchun tilshunoslik sohasida til va nutqning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Diplomatik diskursda doim kommunikatsiya ishtirokchilari, vaziyatli va ijtimoiy-madaniy kontekst hamda kommunikatsiya maqsadi mavjud boʻladi. Shu bilan birga, diplomatik diskursning bir qator funksiyalari mavjud. Ular jumlasiga informatsion, emotsional va taʼsir etuvchi funksiyalarni kiritish mumkin.

“Diplomatik diskurs” va “diplomatik matn” tushunchalarining mazmunini aniqlash, ularning asosiy belgilari va oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun “diplomatiya” tushunchasining oʻziga aniq tasnif keltirish hamda uni tahlil etishda “diskurs” tushunchasining zamonaviy yondashuvlaridan kelib chiqish zarur. Diplomatik matnlarni oʻrganish, ularni lingvistik, kommunikativ va boshqa tomonlarda tadqiqi qilish, avvalambor, diplomatiya sohasini oʻzini tushunishdan boshlanadi.

Diplomatiya tushunchasi ilk bor XVI–XVII asrlarda muomalaga kiritilgan boʻlib, oʻsha davrlarda monarxlar saroylarida doimiy diplomatik vakillar, davlat organlari tizimida esa davlatlar oʻrtasidagi yozishmalar, xorijiy delegatsiyalarni qabul qilish va muzokaralar bilan shugʻullanadigan maxsus idoralar paydo boʻlgan. Oʻsha davrdagi davlatlarning diplomatik faoliyatining xususiyati va shakllari baʼzi olimlar va diplomatlarga diplomatiyani “mustaqil davlatlar hukumati oʻrtasidagi rasmiy aloqalarni olib borishda aql va mulohazani qoʻllash” deb taʼriflashga imkon beradi [1;93-b.].

Yuqorida keltirilgan izohga qoʻshimcha ravishda J.Vud va J.Serre diplomatiyaga xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yoʻl bilan hal qilish sanʼati, munosabatlarga uygʻun taʼsir koʻrsatuvchi va muayyan qoidalar va odatlarga boʻysunuvchi texnika va mahorat deb taʼrif berishgan [2;64-b.].

Baʼzi manbalarga koʻra, diplomatiya terminining ingliz tilida ishlatilishi XVII asrning boshlariga toʻgʻri keladi. Buyuk Britaniyada diplomatiya tushunchasi birinchi marta XVII asrning ikkinchi yarmida, aniqrogʻi, 1693-yilda mashhur nemis faylasufi, matematik va tilshunos G.V.Leybnits tomonidan ishlatilgan. Aynan u “Diplomatik huquq toʻplami” (“Codex Juris Gentium Diplomaticus”) nomli loyihasida koʻplab diplomatik atamalardan foydalanishni boshlagan. Diplomatik soʻzi – дипломаті (diplomatic) lotin tilidan kelib chiqqan boʻlib, diplomaticus shaklida ishlatilgan va Leybnitsning ishida ushbu tushuncha mamlakatlarda oʻrtasidagi xalqaro munosabatlarni oʻrgatadi. Biroq hozirgi zamonda ushbu leksik birlikka berilgan maʼnoda, yaʼni, “diplomatiya-diplomacy” tushunchasi fransuz diplomati Fransua Kalyer tomonidan ishlatilgan boʻlib, u Lyudovik XIVning Yevropa davlatlaridagi elchisi boʻlgan va mamlakatlarda oʻrtasidagi muhim muzokaralarda ishtirok etgan [3;45-b.].

Diplomatiya – bu davlat darajasidagi rasmiy shaxslar va organlar tomonidan amalga oshiriladigan ommaviy, rasmiy faoliyatdir, shundan kelib chiqib, diplomatik nutq aniq ifodalangan institutsional xususiyatga ega deb xulosa qilishimiz mumkin. Diplomatiya – bu tinchlik vositasida amalga oshiriladigan va xalqaro ishonchni yaratishga, xalqaro munosabatlarni mustahkamlashga va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir; shuning uchun diplomatik diskurs hamkorlikka va oʻzaro anglashuvga qaratilgan lingvistik vositalar toʻplamini tavsiflaydi [4;84-b.].

Davlatlararo diplomatik munosabatlarni oʻrnatish, dunyo siyosiy arenasida tan olingan xalqaro konsepsiyalar, shartnomalar, BMTga tegishli rezolutsiyalarni chuqur oʻrganib chiqib, soʻng oʻz davlat manfaat-

laridan kelib chiqqan holda, ularni qabul qilish va ushbu ko'rsatib o'tilgan hujjatlarga to'laqonli amal qilish diplomatik diskursning diqqat markazidagi masalalardir.

Diplomatiya tushunchasining kengroq ta'rifi Brokgauz va Efronning Kichik ensiklopedik lug'atida keltirilgan. Undagi ta'rifga ko'ra, "Davlat faoliyati sohasi, bu davlatlar o'rtasidagi vakillik va siyosiy munosabatlarga taalluqli; ushbu davlatning milliy va xalqaro manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, tinchlikni saqlash, xalqaro aloqalarning iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini mustahkamlash va rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qiladi" [5;79-b.].

Bundan tashqari, boshqa bir qator manbalarda ham diplomatiyaning ta'riflari keltirib o'tilgan. Diplomatiya – davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish usuli; davlatlar, hukumatlar, davlatning tashqi aloqalar organlari va bevosita diplomatlarning tashqi siyosat maqsad va vazifalariga erishishga hamda chet elda o'z davlati va alohida fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashuvchi rasmiy faoliyati shaklida amalga oshiriladi [6;143-b.].

G'arb olimlaridan G.Nikolsonning fikricha, diplomatiya – bu muzokaralar orqali xalqaro munosabatlarni o'rnatish, bu munosabatlarni tartibga solish va olib borish usuli; diplomatning ishi yoki san'ati; xalqaro ishonchni yaratish [7;102-b.].

Bu borada yana bir ta'rifni E.Satou ham keltirib o'tgan. Uning ta'rificha, diplomatiya bu davlatlar o'rtasidagi ommaviy ishlarni to'g'ri olib borish uchun zarur bo'lgan bilim va tamoyillar majmuyi; mustaqil davlatlar hukumati o'rtasidagi rasmiy aloqalarni olib borishda aql va taktika qo'llash; davlatlar o'rtasidagi ishlarni tinchlik vositasida olib borish demakdir [8;99-b.].

Yuqoridagi fikr va ta'riflarning o'rinli ekanligini ta'kidlagan holda, shuni xulosa qilish mumkinki, diplomatiya bu mamlakatlar hukumatlari o'rtasida tinchlik yo'li bilan o'rnatiladigan aloqa vositasidir. Hozirgi globallashtirish jarayoni va rivojlanishning tez sur'atlarda kechayotganligi hisobida diplomatiyaning ham har tomonlama hayotga tatbiq etilishiga sabab bo'lmoqda.

Rossiyalik diplomat Y.B.Kashlev ta'kidlaganidek, zamonaviy diplomatiya, avvalo, "ko'p qirrali" bo'lib, u zamonaviy insoniyat hayoti mazmunining tobora murakkablashishi, kengayishi, boyib borishi, mavzular xilma-xilligi, xalqaro muloqot subyektlari palitrası, jahon tashkilotlari soni o'sishi bilan izohlanadi; jahon siyosati aktyorlarining soni o'lchab bo'lmaydigan darajada o'sdi.

Yuqoridagi olimlarning bildirgan fikr va qarashlarini jamlagan holda, diplomatiya atamasi insonning ma'lum sohadagi kasb faoliyatini o'rganish bilan bog'liq jarayon bo'lib, uning semantikasining bog'liqligi asosan, konvensional va me'yoriy tomondan kuzatiladi hamda rivojlanishini aks ettiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga ham ega bo'lgan konsepsiyani obyektivlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Mashhur lug'atshunos Vladimir Dalning so'zlariga ko'ra, "diplomatiya" so'zi hukmdorlar va davlatlarning o'zaro aloqalari, shuningdek, diplomatiya bo'yicha xizmatchi haqidagi ilmni anglatadi, ya'ni, bu so'z uning lug'atida samimiy bo'lmaganlar tushunchasiga tenglashtiriladi, diplomat esa mohir, nozik, yashirin va ayyor odam sifatida tavsiflanadi.

Yuqoridagi keltirilgan tavsiflar bilan bir qatorda, "diplomatiya" tushunchasining yanada kengroq va aniqroq ta'rifi G.Martens tomonidan quyidagicha keltirilgan: "Diplomatiya keng ma'noda davlatning tashqi aloqalari yoki tashqi ishlari haqidagi fan bo'lib, torroq ma'noda esa muzokaralar olib borish san'atidir".

I.Shamsimuhamedov tomonidan yaratilgan o'zbek tilidagi diplomatik terminlar izohli lug'atida "diplomatiya" atamasining quyidagi ta'rifi mavjud: "Davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati, noharbiy tadbirlar majmuyidir. Diplomatiyaning asosiy vazifasi va mazmuni–davlatlar tomonidan tashqi siyosiy maqsadlarga diplomatik usul va vositalar bilan erishish. "Diplomatiya" atamasi "tashqi siyosat" tushunchasining sinonimi sifatida ham ishlatilishi mumkin.

Davlatning tashqi faoliyatini tinch yo'l bilan amalga oshirish vositalari, metodlari va huquqiy shakllari majmui, ya'ni, muayyan davlatning xalqaro munosabatlardagi o'z manfaatlariga mos keladigan maqsad va vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadigan faoliyati diplomatiya deb ataladi. Adabiyotda diplomatiya ba'zan "tashqi munosabat haqidagi fan" yoki muzokaralar olib borish san'ati, deb ham ta'riflanadi.

Diplomatiya davlat rahbarlari, hukumat, tashqi aloqalar davlat organlari va bevosita diplomatlar tomonidan davlat va tashqi siyosatning maqsad va vazifalarini amalga oshirish hamda xorijda mamlakat va unga mansub ayrim fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan rasmiy faoliyat shaklida amalga oshiriladi".

Xulosa. "Diplomatiya" tushunchasining shakllanish tarixi va uning zamonaviy tilshunoslikdagi talqini masalalari hozirgi zamon ilmiy izlanishlarida alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqolada mazkur tushunchaning fanga kirib kelishi, uning lingvistik jihatdan tahlili va ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni keng

ko‘rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida diplomatiya terminining tarixiy ildizlari va uning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi ahamiyati ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Shamsimuhamedov I. Diplomatiya terminlar izohli lug‘ati. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2021, 226-bet.
- (2). Axmanova, O.S. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, М., Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2010, 571 с.
- (3). Волкова Т.А. Дипломатический дискурс в аспекте стратегичности перевода и коммуникации (на материале английского и русского языков). Дисс. на соискание ученой степени кандид. фил. наук, Челябинск, 2007, 231 с.
- (4). Вуд Дж. Дипломатический церемониал и протокол. Принципы, процедура и практика [текст]. Дж. Вуд, Ж.Серре. Перевод Клюкина Ю.П., Пастоева В.В., Фомина Г.И. М., “Прогресс”, 1974, 400 с.
- (5). Дипломатический словарь. Гл. ред. А.А.Громыко. Государственное издательство политической литературы, М., 1960, т.1, 580 с.
- (6). Егоров, В.П. Дипломатический протокол и этикет. Учеб. пособие, М., Юридический институт МИИТа, 2013, 200 с.
- (7). Зорин. В.А. Основы дипломатической службы. М., Международные отношения, 1977, с. 370.
- (8). Карасик, В.И. О типах дискурса [текст]. Языковая Волгоград, “Перемена”, 2000, с. 477.

Orazov Adilbay O‘rinbayevich (Qoraqalpoq Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: adilbay7980@gmail.com

CHECHANLIK SO‘ZLARIDA BADIY TASVIRLASH VOSITALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qoraqalpoq notiqlik so‘zlaridagi badiiy tasvir vositalari (alliteratsiya, epifora, antiteza, satira) o‘rganiladi. Folklor matnlarining uslubiy tahlili orqali notiqlik san‘atining ijtimoiy tanqid, falsafiy teranlik va madaniy o‘ziga xoslikni saqlashdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, maqolada kinoya, mubolag‘a, parallelizm kabi usullarning qo‘llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqot notiqlik san‘atining nafaqat poetik, balki ijtimoiy-siyosiy vosita sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:** notiqlik, alliteratsiya va epifora, qoraqalpoq folklori, satirik tanqid, Merganbek notiq, ijtimoiy adolatsizlik.*

Orazov Adilbay Urinbayevich (независимый исследователь Каракалпакского научно-исследовательского института гуманитарных наук; e-mail: adilbay7980@gmail.com)

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА В ОРАТОРСКИХ РЕЧАХ

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются средства художественного изображения (аллитерация, эпифора, антитеза, сатира) в каракалпакском ораторском искусстве. Посредством стилистического анализа фольклорных текстов раскрывается роль ораторского искусства в сохранении социальной критики, философской глубины и культурной самобытности. В статье проанализировано использование таких приемов, как ирония, гипербола, параллелизм. Исследование показывает значимость ораторского искусства не только как поэтического, но и как социально-политического инструмента.*

***Ключевые слова:** ораторское искусство, аллитерация и эпифора, каракалпакский фольклор, сатирическая критика, оратор Мергенбек, социальная несправедливость.*

Orazov Adilbay Urinbayevich (Independent researcher of the Karakalpak Research Institute of Humanities; e-mail: adilbay7980@gmail.com)

ARTISTIC VISUAL MEANS IN ORATORICAL WORDS

***Annotation.** This article examines the means of artistic representation (alliteration, epiphora, antithesis, satire) in Karakalpak oratory. Through the methodological analysis of folklore texts, the role of oratory in preserving social criticism, philosophical depth, and cultural identity is revealed. As an example, the words of such historical figures as as irony, exaggeration, and parallelism in them is analyzed. The study shows the importance of oratory not only as a poetic, but also as a socio-political tool.*

***Keywords:** oratory, alliteration and epiphora, Karakalpak folklore, satirical criticism, Merganbek orator, social injustice.*

Kirish. Duch kelgan notiqlik so‘zlariga berilgan ta‘riflarga qaraydigan bo‘lsak, notiqlik so‘zlarining asosiy belgilaridan biri - obrazlilik ta‘kidlab ko‘rsatilgan. Obrazlilik yoki badiylik folklorning ko‘pchilik janrlariga xos bo‘lsa-da, notiqlik so‘zlariga alohida tus berib, so‘zning kuchini oshiradi, alohida intizorlik tug‘diradi. Qadimgi davrlarda xonlarning yonida doimo aql o‘rgatuvchi maslahatchi jirovlar va notiqlar

bo'lgan. Jirovlar xalqning aql-idrokini yuksaltirgan aqlli shaxslar edi. Ular o'z davridagi muhim voqealarni, tarixiy davrlarni va boshqa muhim holatlarni kuyga solib, xalqqa yetkazgan.

Adabiyotlar tahlili. Turkiy xalqlar misolida qozoqlarda milliy notiqlik san'ati va notiqlik nazariyasi rivojlanishining keyingi bosqichi bevosita adabiyotshunos olim B.Adambayev mehnatlari [1;2-b.] bilan belgilanadigan bo'lsa, qirg'iz xalqida S.Zakirovning ilmiy asarlari [3;4-b.] ushbu masalani atroflicha tadqiq qilgan. Qoraqalpoq folklorshunosligida mazkur mavzu hamon jiddiy tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-qiyosiy metod qo'llangan bo'lib, muallif notiqlik san'atining tarixiy rivojlanishini, turli davrlardagi notiqlarning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tarzda o'rganadi. Qoraqalpoq notiqlik san'atining o'ziga xos xususiyatlarini boshqa xalqlar notiqlik san'ati bilan qiyoslaydi. Muallif notiqlik nutqlarining badiiy tasvir vositalarini (alliteratsiya, assonans, epifora, parallelizm, antiteza va boshqalar) tahlil qiladi (adabiy-tanqidiy metod). Notiqlik nutqlarining estetik qiymatini, ta'sir kuchini baholaydi. Shuningdek, notiqlik nutqlarining o'ziga xos xususiyatlari, badiiy tasvir vositalari, til xususiyatlari tasvirlab beriladi (deskriptiv metod).

Tahlil va natijalar. Notiqlik san'ati xayoldan emas, hayotda sodir bo'lgan voqealardan, tabiat hodisalaridan tug'iladi. U ko'p yillik tajriba va takrorlashlar orqali shakllanib, xalq e'tirofiga erishadi. Har davrning notiqlari so'zni did bilan tanlab, yurakka yengil tegadigan qilib yetkaza bilgan.

Tarixga nazar solsak, barcha xalqlarning atoqli jamoat arboblari, sarkardalari va olimlari notiqlik san'atini egallagan. Qoraqalpoq xalqi ortiqcha gapirish va quruq dabdabani yoqtirmagan. Ular haqiqatni bayroq qilgan «o't og'izli, o'roq tilli» notiqlarni yuqori baholagan. Biylarning o'zlari ham ba'zida adashgan paytlari bo'lgan, lekin ular bir-birini tuzatib, adolatga chaqirgan. Qoraqalpoq biylari hazil-mutoyibani yaxshi ko'rgan, ammo kerak paytda aqlli va salmoqli qarorlar qabul qila bilgan.

Notiqlik so'zlari faqat qofiyaga qurilmaydi, balki adabiy badiiy tasvir usullaridan ham keng foydalanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, notiqlik so'zlarida eng ko'p qo'llaniladigan usullar – alliteratsiya va assonansdir. Masalan, Mergenbek notiqning xonga qarab aytgan mana bu so'zini qaraylik:

Jetim degen kól, taqsir, Jansiz degen shól, taqsir, Ekewiniń arası, Jortaq atlı kisige, Úsh kúnshilik jol, taqsir [5:308-b.].	Yetim degan ko'l, taqsir, Jonsiz degan cho'l, taqsir, Ikkovining orasi, Yo'rtoq otli kishiga, Uch kunlik yo'l, taqsir.
---	--

Bu yerda qo'llanilgan «J», «T», «K» undosh tovushlarining takrorlanishi uyg'unlik va ohangdoshlikni hosil qiladi. Bu notiqlik so'zning tuzilishiga go'zallik bag'ishlab, uning ekspressiv-emotsional bo'yog'ini kuchaytiradi. Xuddi shunday undosh tovushlar ham notiqlik so'zlarga alohida badiiylik bag'ishlay oladi.

Alliteratsiya – she'r satrlarida belgilangan undosh tovushlarni takror qo'llash orqali ritm va melodik hosil qilish ekanligi ma'lum. Ammo notiqlik so'zlarda ham alliteratsiya faol qo'llaniladi. Bunda «J» tovushi – *jetim, jansiz, jortaq, jol* so'zlari orqali takrorlanib, qat'iy, uzluksiz oqib turadigan ohangni hosil qilgan. Bu tabiatning qattiq tasvirini (yetim ko'l, jonsiz cho'l) kuchaytiradi.

«K» tovushi – *ko'l, kisige, kúnshilik* so'zlarida uchrab, notiqlik so'zning ichki ohangdorligini kuchaytirsa, «T» tovushi – *taqsir* so'zida misralarda takrorlanib kelib, notiqlik so'zning imperativ intonatsiyasini oshirgan.

Notiqlik so'z satrlarining oxirida bir so'z yoki so'z birikmasining takrorlanishi orqali badiiy ta'sirni kuchaytiradigan usul epifora ham mohirona qo'llanilgan. Masalan,

*Jetim degen kól, taqsir,
Jansiz degen shól, taqsir,
Úsh kúnshilik jol, taqsir*

Bu yerda «*taqsir*» so'zi har qator oxirida takrorlanib, alohida ohang va ma'no salmog'i qo'shib turibdi hamda hurmat bilan kinoya yonma-yon ko'ringan. Biroq «*yetim ko'l, jonsiz cho'l*» kabi og'ir obrazlar bilan birga berilishi ironiyali ma'no beradi – hokimiyat egasiga turmushning haqiqiy qiyinchiliklarini ko'rsatib beradi, xonga «*adolatsizlik bilan qaror chiqaryapsiz*» degan tushunchani singdirgan. Yoki «*Taqsir*» so'zi satirik ma'noga ega bo'lib, hokimiyat egasiga «*shu qiyin vaziyatlarni bilasizmi?*» degan kinoyali savol berayotgandek tuyuladi.

«*Taqsir*» har misra oxirida takrorlanib, notiqlik so'zga alohida urg'u, musiqiy ohangdorlik bag'ishlaydi hamda bir necha bor takrorlangan so'z o'quvchi yoki tinglovchiga chuqur emotsional ta'sir etadi.

Tuvg'alaw biyden tuvg'an joq, Tuvg'ansiz biyde iyman joq,	Tug'aloq biydan tug'ilgan emas, Tug'mas biyda imon yo'q,
--	---

Quday qilsa, sharam joq, Kisige berer param joq [5;308-b.]	Xudo qilsa, choram yo‘q, Odamga berarga pulim yo‘q
---	---

Merganbek notiqning ushbu so‘zida alliteratsiya hodisasi bilan birga epifora ham ishtirok etgan. Bundan tashqari, unda parallelizm (sintaktik o‘xshashlik) juda aniq ko‘zga tashlanadi.

Parallelizm – gaplarning tuzilishi jihatidan bir-biriga o‘xshab qolishi, ma’lum bir sintaktik tuzilishning takrorlanishi. Bu badiiy usul notiqlik so‘zning ohangini kuchaytiradi va fikrni ta’sirchan yetkazishga yordam beradi.

Tuwgalaw biyden tuwgan joq,

Tuwgansiz biyde iman joq,

Quday qilsa, sharam joq,

Kisige berer param joq, degan shu to‘rt qatorda bir xil sintaktik tuzilish saqlangan: [ega] + [kesim] + «yo‘q». Bu notiqlik so‘zning strukturaviy yaxlitligini ta’minlaydi va notiqlik so‘zning mazmunini chuqurlashtiradi, so‘z ta’sirini kuchaytiradigan notiqlik usuli sifatida qo‘llanilgan.

Notiqlik so‘z qatorlarida antiteza (qarama-qarshi ma’nodagi qiyoslash) badiiy usul sifatida qarama-qarshi ma’nodagi so‘zlarni, tushunchalarni taqqoslash orqali notiqlik so‘z ma’nosini chuqurlashtiradi, hissiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Masalan, *Tuwgalaw biyden tuwgan joq,*

Tuwgansiz biyde iman joq.

Birinchi qatorda hokimiyatning nasldan naslga o‘tmasligi, ya’ni, «tug‘ishganlik» (genealogik merosxo‘rlik) orqali kelmasligi aytilsa, ikkinchi qatorda esa «hokimiyatning adolatli bo‘lishi uchun tug‘ma zarurligi» ko‘rsatiladi. Ya’ni, birinchi qatorda «hokimiyat nasldan naslga o‘tmaydi» deyilsa, ikkinchi qatorda «tug‘ma bo‘lmagan hukmdor adolatli bo‘lmaydi» deyilib, ikki xil qarash taqqoslanmoqda.

Xudo xohlasa, ilojim yo‘q, Kishiga beradigan poram yo‘q, degan satrlarda ham antiteza mohirona qo‘llanilgan.

Uchinchi misrada «Taqdirni Xudo hal qiladi», inson undan qochib qutulolmaydi, desa, oxirgi misrada «hokimiyatga yoki adolatga erishish uchun odamga pora bermasligi» qarshi qo‘yiladi.

Shunday qilib, antitezali vosita bilan kelgan satrlar fikr o‘tkiriligini oshiradi, tinglovchi yoki o‘quvchini chuqurroq o‘ylashga undaydi. Shuningdek, notiqlik so‘zning ma’nosini kuchaytiradi – bu so‘zlarning oddiy maqol emas, ma’lum bir ijtimoiy-axloqiy fikr ekanligini ko‘rsatadi, yana ham mazmun aniqligini beradi, ya’ni, adolatli hokimiyat va adolatsiz hokimiyat o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatadi.

Yana bir misol. Ernazar keneges otasi Qobil biy vafot etgandan so‘ng, saroyga o‘zini tanishtirish uchun borganda Xiva xoni taxtining o‘ng tomoniga borib joylashib o‘tiradi. Kichkina bolaning xonga yaqin joyda o‘tirganiga g‘azabi kelgan bosh vazir Ernazarga “Hoy bola, nega eshik tomonga o‘tirmay xonga yaqin o‘tiribsan?” deb baqiradi. Unga hali yosh biy Ernazar “O‘tirsam, o‘z otamning o‘rnida o‘tiribman, juvozkashning o‘rnida o‘tirganim yo‘q”, deb javob qaytaradi va bu javobga xonning bosh vaziri jim bo‘lib so‘zdan yengiladi. Sababi, o‘sha vaqtda bosh vazir bo‘lib yurganning otasi ilgari juvozkash bo‘lgan ekan.

Bu notiqlikda kinoya qo‘llanilgan. Ernazarning javobi mantiqiy aniqlikka asoslangan va raqibini axloqiy jihatdan yengishga yo‘naltirilgan. Uning “O‘z otamning o‘rnida o‘tirman, juvozkashning o‘rnida o‘tirganim yo‘q” degan so‘zi ikki ma’noli. Birinchi ma’nosi – u o‘z otasining, ya’ni biy naslining qonuniy merosxo‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Ikkinchi ma’nosi – bosh vazirning nasl-nasabi haqida kinoyali ishora. Bunda qarama-qarshi qo‘yish usuli (antiteza) kuzatiladi: “biy o‘rni” bilan “juvozkashning o‘rni”. Bu usul raqibni so‘zsiz yengishga, uning mavqeyini tushirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, kinoyali ma’no orqali Ernazarning so‘z mahorati yaqqol ko‘rinadi.

Bu notiqlikda paradoks ham bor. Paradoks, dastlabki qarashda, ma’nosiz yoki ziddiyatli bo‘lib ko‘rinadigan, lekin chuqur ma’noga ega fikr.

Ernazarning “O‘z otamning o‘rnida o‘tirman, juvozkashning o‘rnida o‘tirganim yo‘q” degan javobi paradoks taassurot qoldiradi. Sababi, uning bola yoshida xon saroyida biy o‘rnida o‘tirishi – odatdagi tartibga qarshi. Biroq u o‘z biy otasining qonuniy merosxo‘ri ekanligini mantiqiy jihatdan isbotlab turibdi. Shu bilan birga, bosh vazirning ota-bobosi juvozkash bo‘lganiga ishora qilib, uning lavozimiga shubha uyg‘otadi. Shunday qilib, Ernazarning so‘zi tashqaridan qaraganda kutilmagan, qarama-qarshi ko‘rinsa-da, kinoyali ma’nosi chuqur va haqiqatga asoslangan, bu uni haqiqiy notiqlikka aylantiradi.

Xulosa. Qoraqalpoq notiqlik so‘zlari – xalqning ma’naviy merosini, donishmandligini va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi murakkab badiiy tizim. Ularda qo‘llaniladigan alliteratsiya («j», «t», «q» tovushlarining takrorlanishi) va epifora («yo‘q», «taqsir» so‘zlarining ritmik takrorlanishi) notiqlik so‘zga emot-

sional kuch va musiqiylik beradi. Antiteza («tug‘mas biyda imon yo‘q») va parallelizm (sintaktik takrorlanish) orqali bilish bilan adolatsizlikning qarama-qarshiliklari ochiladi.

Notiqlik so‘zlari faqat adabiy hodisa emas, xalqning tarixiy yodini va qadriyatlarini saqlashga mo‘ljallangan murakkab madaniy kod. Ular orqali avlodlar o‘rtasidagi ma‘naviy aloqa mustahkamlanadi, ijtimoiy tanqid esa zamonga mos dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Адамбаев Б. Қазақтың шешендік өнері. Алматы, “Ғылым”, 1984.
- (2). Адамбаев Б. Халық даналығы. Алматы, “Пауан”, 1996.
- (3). Закиров С. Кыргыз санжырасы. Кыргыз энциклопедиясынын Башки редакциясы, 1996.
- (4). Закиров С. Пословицы-поговорки кыргызского народа. Ф., 1972.
- (5). Каракалпак фольклоры. Көптомлык. Шешенлик сөзлөр, 82-т, Нөкис, «Илим», 308-бет.

Qosimbetova Aygul Yesbosinovna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti; aygul97qosimbetova@gmail.com; ORCID iD:0009-0006-6132-9194)

SOG‘INBOY IBROGIMOV ASARLARIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV MA‘NO

***Annotatsiya.** Ekspressivlik tilning turli darajalarida, fonetik, leksik va grammatik vositalar orqali amalga oshiriladigan kategoriya. Bu matnning pragmatik, semantik va stilistik darajalarida amalga oshiriladi va matnning emotsional va subyektiv-mantiqiy konseptual mazmuni tufayli yaratiladi. Shoir asarlarida ijobiy emotsional-ekspressiv ma‘nolardan quvonish, shodlanish, zavqlanish, baxtli bo‘lish ma‘nolari ifodalanganadi. Sog‘inboy Ibragimov she‘rlarida yakka so‘zning ijobiy ma‘no ifodalaniib kelishi, shuningdek, tovushlar, affikslar, metaforik usul, kontekst orqali ijobiy ma‘nolarning ifodalanganini aniqladik.*

***Kalit so‘zlar:** ekspressivlik, emotsional-ekspressiv ma‘no, ijobiy ma‘no, affikslar, metaforik usul, kontekst orqali ijobiy ma‘no ifodalash, uslub, individual uslub.*

Косымбетова Айгуль Есбосиновна (докторант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха; aygul97qosimbetova@gmail.com; ORCID iD:0009-0006-6132-9194)

ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САГИНБАЯ ИБРАГИМОВА

***Аннотация.** Экспрессивность – это категория, реализуемая на разных уровнях языка посредством фонетических, лексических и грамматических средств. Она реализуется на прагматическом, семантическом и стилистическом уровнях текста и создается благодаря эмоциональному и субъективно-логическому концептуальному содержанию текста. В произведениях поэта положительные эмоционально-экспрессивные значения выражают радость, восторг, наслаждение, счастье. Мы обнаружили, что в стихах Сагинбая Ибрагимова одно слово выражает положительное значение, а так-же положительные значения выражаются через звуки, аффиксы, метафорический прием, контекст.*

***Ключевые слова:** экспрессивность, эмоционально-экспрессивное значение, положительное значение, аффиксы, метафорический метод, выражение положительного значения через контекст, стиль, индивидуальный стиль.*

Kosimbetova Aygul Yesbosinovna (Doctoral student of Karakalpak State University named after Berdakh; aygul97qosimbetova@gmail.com; ORCID iD:0009-0006-6132-9194)

THE EMOTIONAL-EXPRESSIVE MEANING IN SAGINBAY IBRAGIMOV'S WORKS

***Annotation.** Expressiveness is a category realized at different levels of language through phonetic, lexical, and grammatical means. This is realized at the pragmatic, semantic, and stylistic levels of the text and is created through the emotional and subjective-logical conceptual content of the text. In the poet's works, positive emotional-expressive meanings express joy, delight, enjoyment, happiness. We found that in Saginbay Ibragimov's poems, one word expresses a positive meaning, as well as positive meanings are expressed through sounds, affixes, metaphorical devices, context.*

***Keywords:** Expressiveness, emotional-expressive meaning, positive meaning, affixes, metaphorical method, positive expression*

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslikning rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri til va nutqning emotsional masalalarini o‘rganadigan yo‘nalishi. Xuddi shuningdek, bu masala bilan bog‘liq hodisalarni tavsiflashning kategoriyalari, atamalari va vositalarini izlash amalga oshirildi, terminologik vositalar majmuyi shakllantirildi.

Filologiyaning eng «yosh» yoʻnalishi doirasidagi tadqiqotlarda topilgan bir necha atamalarni sanab oʻtishimiz mumkin: emotivlik, emotsional maʼno, ekspressivlik va baholash. Umuman olganda, ular yagona, aniq tavsif va alohida oʻz nomiga ega emas, bu zamonaviy nazariy filologiya uchun va bu sohada tadqiqot ishlarini olib borayotgan olimlar uchun tilning emotivligi, nutqda his-tuygʻularni ifodalash usullari, emotsional taʼsir beradigan soʻzlar, soʻzlarning semantik tuzilishidagi emotivlarning roli va boshqa bir qator masalalarda dolzarb boʻladi.

Adabiyotlar tahlili. XX asrning 80-yillari boshlarida C.Stevenson «emotsiya» atamasi, koʻpincha, siyosiy umumiylik koʻrinishida qoʻllaniladi, natijada u qoʻllanilmaydigan maʼnosiz koʻrinishga aylanadi» deb fikr bildirdi. [6;9-b.].

Emotsiya kategoriyasini tizimlashtirish eng qiyin holat, chunki u inson psixologiyasiga, yaʼni uning hissiy holatiga bevosita bogʻliq. Koʻpgina psixolingvistlar hissiy muloqot modelining qandaydir oʻxshashligini yaratishga harakat qildilar, lekin bu ish hali toʻliq amalga oshirilmadi, chunki bu shunchalik individual hodisa ekanligi maʼlum boʻldiki, uni oldindan aytib boʻlmaydi. Faqat badiiy adabiyotga oid matnlarda uchraydi [4;96-b.].

XX asr oʻrtalarida bu masalani V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, V.A.Zveginsevlar oʻrgandi. Ular ilmiy yondashuvga kiritilgan va «emotsionallik» hamda «ekspressivlik» kabi tushunchalarni keng qoʻllagan. Bu masala rus tilshunosligida tadqiqot obyekti qilib olindi va his-tuygʻuga bogʻliq ekspressivlik, uning bogʻlanish vazifasi V.G.Gak, V.I.Bezrukov, M.N.Kojina tomonidan chuqur oʻrganildi.

V.G.Gak ekspressivlikni shaxs nutqining ekspressivligi sifatida belgilaydi, bu «intensivlik bilan bogʻliq boʻlib, tinglovchiga taʼsirni kuchaytirish, uni hayratga solish yoki toʻliq ishonitirishga qaratiladi» [2].

«Nutqning ekspressivligi» tushunchasi uning neytralligi, yaʼni, taʼsirchanligi, lisoniy-stilistik vositalar yordamida umumiy lisoniy oqimdan ajralib turadigan kuchli lisoniy ifoda orqali uzatiladigan signal bilan bogʻliq boʻlgan tushuncha yoki bu ifodadan kelib chiqqan manzarani qabul qiluvchining ijobiy yoki salbiy hissiy reaksiyasi uchun stimuly boʻlib xizmat qiladi [7;36-b.].

I.V.Arnold, E.M.Galkina-Fedoruk, I.R.Galperin emotivlikni ekspressivlikning ajralmas qismi deb hisobladilar. Xususan, E.M.Galkina-Fedoruk nutqning ekspressivligi kuchli ekspressivlikni beradi, shuningdek, his-tuygʻularning ifodalanishi doimo bir maʼnoga ega boʻladi, lekin qandaydir bir maʼno doimo his-tuygʻuga aloqador boʻlavermaydi, deydi [3;124-b.].

Ekspressivlik tilning turli darajalarida, fonetik, leksik va grammatik vositalar orqali amalga oshiriladigan kategoriya. Bu matnning pragmatik, semantik va stilistik darajalarida amalga oshiriladi hamda matnning emotsional va subyektiv-mantiqiy konseptual mazmuni tufayli yaratiladi.

Emotsional ekspressivlikning tarkibiy qismi boʻlib, matnning inson psixikasining his-tuygʻuga bogʻliq, intellektual boʻlmagan tomonidagi taʼsirini aks ettiradi. U qabul qiluvchining his-tuygʻularini, taʼsirini va kayfiyatini ifodalash vositasi boʻlib xizmat qiladi, uning obyektiv voqelik obyektlari va hodisalariga munosabatini anglatadi, shu bilan birga, boshqalarning his-tuygʻulariga taʼsir qiladi [5;114-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, ekspressivlik va emotsionallikni oʻrganishda ikki xil yondashuv mavjud: semasiologik (V.G.Gak, V.N.Teliya, A.A.Ufimseva, V.I.Shaxovskiy) va lingvostilistik (I.R.Galperin, Y.N.Karaulov, T.G.Stepanov).

Tovush, soʻz, soʻz birikmasi va gaplar insonning qalbiga, uning faoliyatiga, hayotiga taʼsir etadi. Aytilgan bir yaxshi soʻz tiriltsa, bir yomon soʻz oʻldiradi. Bunday inson his-tuygʻularining tildagi aksini badiiy asarlar orqali tahlil qilish tilshunoslikdagi anʼanaviy usullardan biridir. Ijobiy emotsional-ekspressiv maʼnolarni quvonish, shodlanish, zavqlanish, hayratlanish, lazzatlanish, zavqlanish va baxtli boʻlish kabi hissiy holatlar hosil qiladi. Insonning ruhiy holati atrof-muhitga, atrofdagi odamlarga, turli taʼsirlarga bogʻliq boʻladi. Shuningdek, bu taʼsirlar tilda oʻz koʻrinishini topadi. Ijobiy emotsional-ekspressiv maʼnoni bildiruvchi eng kichik birlik tovushlar. Badiiy asarda tovushlar orqali har qanday his-tuygʻularni ifodalash qulay.

Y.Bagritskiy: «Sheʼrning har bir harfi organizmdagi hujayraga oʻxshaydi va u doimo harakatda.» S.Marshak: «Asarda nafaqat har bir soʻzga, balki har bir tovush, har bir undosh, har bir unliga maʼno yuklanadi» deydi [1;81-b.].

Tahlil va natijalar. Tovushlarning qoʻshimcha maʼno bildirishi esa ularning konnotativ vazifasi asosida yuzaga chiqadi. Bir soʻz bilan aytganda, poeziyada ham, prozada ham tovushlarni choʻzish, tovushlarning qavatlanishi, tovushlarning takrorlanishi, tovushlarni oʻzgartirib, soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovushlarning tushib qolishi kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik taʼminlanadi. Masalan:

Ayqulaq – ayaqların ayqara ashıp, jarqırıtıp jiberedi dúnyanı («Tańlamalı qosıqlar». 36), bunda a-tovushining takrorlanib kelishi, oyquloqning to‘lishib olamni yashnatib yuborishi o‘quvchida zavqlanish, quvonch tuyg‘ularini beradi. Shuningdek: jaynap-jasnap júr bul jerdiń betinde («Tańlamalı qosıqlar», 31) qatorida yer yuzida yashnab-yashnab yurish so‘z birikmasi j tovushining izchil qofiyalanishi bilan ochilib, go‘zal bo‘lib yurish ma‘nosi yana ham kuchaytirilib, quvonch, shodlanish tuyg‘ularini o‘zida jamlaydi.

Táńirim mıyıq tartıp názerin tikti,
Beyishke burılǵan bendelerine.

Bu satrlarda t undosh tovushining takrorlanib uyg‘unlashib kelishi insonga bir ilohiy tuyg‘ularni uyg‘otish bilan birga, shukronalik hissi beriladi. Tangrining jilmayishi so‘zi tangri kulib qaradi, qo‘lladi, xudoning nazaridagi ijobiy obrazni beradi.

Shoir asarlarida she‘r satrlarining birinchi qatorida ketma-ket joylashgan ikki yoki undan ortiq so‘zlardagi undosh tovushlar uyg‘unlashib keladi va minnatdorlik, mamnunlik, shukronalik tuyg‘ularini tasvirlashda qo‘llaniladi:

Bizler ekewimiz bir qorǵan saldıq –
barmay barımımızǵa bir-birimizdiń,
bir-birewdiń kewline qaramay,
tikley almas edik usı qorǵandı. (Brno dápteri. 134-bet)

– bunda b tovushining takror qo‘llanilishi, insonning jufti bilan umri davomida birga kelishib, tushunib yashashi tasvirlanib, buning uchun minnatdorchilik hissi, shukronalik mazmuni beriladi. Qo‘rg‘on – oila, ajoyib hayot yo‘li mazmunini anglatsa, lirik qahramon o‘z qo‘rg‘onini tiklay olganidan quvonchli.

Sap-sarı qumlardıń ústinde,
Túyeler eń sulıw súwretler edi. («Tańlamalı qosıqlar». 31-bet)

Keltirilgan misoldagi undosh tovushlarning uyg‘unlashib, takrorlanib kelishi ya‘ni sap-sariq, chiroyli rasm so‘zlari orqali qumlarning ustidagi tuyalarning qiyofasi o‘quvchi uchun muhabbat tuyg‘usi bilan cho‘lga tuyaning chidamliligi yaratilishning ilohiy tomoni sifatida ko‘rsatiladi.

Sen sonday súwretler saldıń –
ol súwretlerde
aspan sulıw edi barlıq kórinislerinde. (Brno dápteri. 48-bet)

Shoir asarlarida go‘zal tasvir so‘zi hayotning quvonchli manzaralarini berish uchun qo‘llaniladi. Shu bilan birga, chiroyli ko‘rinishning o‘zi ham ijobiy his-tuyg‘ularni tasvirlashda tez-tez qo‘llaniladigan so‘zlardan biri.

O‘zbek tilshunosligida emotsional-ekspressiv ma‘noli so‘zlar 4 usul bilan:

1. So‘zning o‘zi bilan.
2. Affikslar bilan.
3. So‘zning metaforik usulda berilishi orqali.
4. Kontekst yordamida aniqlanadi.

Birinchi usulda so‘zning leksik ma‘nosida baholash ma‘nosi mavjud bo‘lib, bunday so‘zlarga chiroyli, xushro‘y, go‘zal, kulish, irjayish, osmonga uchish kabi so‘zlar misol bo‘ladi.

Shoir Sog‘inboy Ibrohimov asarlarida zavqlanish, sevishtirish, yoqtirish, oshiq bo‘lish ma‘nolari quyidagicha ifodalanadi:

Endi men yadıma alaman seni,
qanday sulıw ediń... *xoshhúrey gúl* ediń. (Brno dápteri. 72-bet)

Bunda chiroyli eding... xushsurat gul eding ijobiy baho bo‘lsa, qanday so‘zi bilan yonma-yon kelishi zavqlanish ma‘nosini berib, shunday chiroyli eding, sup-chiroylisan so‘zlari bilan ma‘nolari yaqin keladi.

Yaq, ol demler qaytıp kelmeydi,
Jiydelikte aldınnan shıqqan Shahsánem
qushaǵında bulqınıp turıp súydiredi...
Usı kórinisler bar eken yad sarayımda,
men dúnyada baxıtli erkeklardıń birimen. («Brno dápteri». 72-bet)

Misolda oshiqning sevgilisiga yetishishi, baxtli ekanligi xabar mazmunida berilib, bu ko‘rinish barcha oshiq insonning yuragiga qo‘zg‘alish soladi.

Shoir asarlarida ko‘tarish, baholash ma‘nosi rus tiliga kirgan so‘zlar orqali ham mohirona ifodalanagan:

Al Áskerbay-aǵa bir qadaqtan soń
heshqanday sáwbetles bolmay qaladı –

usi waqta ol kóp sereznıy adam
jáne romannıń bir qaharmanı.
Shawdırbay aǵanıń ádil sınshısı,
Eksperti edi Áskerbay-aǵa–
Solǵın shıqtı, deydi, ana obrazın,
poshalap ketkenseń mına epizodta... (Brno dápteri. 26-bet)

Jiddiy, ekspert rus tilidan olinib vazmin, tanqidchi, to‘g‘ri odam ma‘nosida qo‘llaniladi. Badiiy matnda Askerboy-og‘a asosan vazmin odam bo‘lib, biroq u bir qadahdan keyin yaxshi suhbatdosh ekanligi, matnda ko‘p jiddiy odam so‘zi qarama-qarshi mazmunda shunday ochiq, ochilib gaplashadigan odam, unga teng keladigan suhbatdosh ham topilmaydi ma‘nosida keladi, insoniylik fazilatlarini yuqori baholash uchun qo‘llaniladi.

Ijobiy emotsional-ekspressiv ma‘noni berishda ikkinchi usul–affikslar. Shoir asarlarida -day/-dey, -tay/-tey affiksi erkalash ma‘nosida qo‘llansa:

Almaday ayalaǵım keledi seni
Qorǵap gúzdıń ızǵırıq samallarınan. («Tańlamalı qosıqlar». 323-bet)
Al, tómendegi qatarda xushtarlıq sezimin arttırıp ashıq jigit obrazın beriwde qollanıladi:
Quyınday umidiwar bardım izińnen,
jol eki ayrılǵan jerde oylısań... («Tańlamalı qosıqlar». 309-bet)
Yaratqannıń hesh bir qulı men bolıp
nurday túńligińnen kire almaydı
aq otawda balqıp jatırǵanıńda... («Tańlamalı qosıqlar». 315-bet)

Misolda tunlik so‘zi berilgan. Qora uying xonadon qismida xonadonga yopishga moslashtirilgan maxsus kigiz tunlik deb ataladi. Bunda mendan boshqa hech kim quchog‘ingga kira olmaydi mazmuni bilan birga nurday issiq tuynukning egasi ekanligini aytish orqali xususiylashtirish, maqtanish tuyg‘ulari beriladi.

Emotsional-ekspressiv ma‘noni anglatishda so‘zning metaforik usulda berilishi shoir asarlarida ko‘p qo‘llanilmaydi. Biz asarlarni tahlil qilish orqali badiiy asarga badiiy obraz berish uchun metaforik tasvir beriladi. Asarning badiiy, obrazli bo‘lishi badiiy usullarga bog‘liq, lekin barcha asarlar o‘quvchining his-tuyg‘ularini uyg‘otib kuchli ta‘sirga ega bo‘lavermaydi.

Meni kútip turǵan sulıw ómirge
sózim joq – sıldırlap Káwsar aǵadı,
baǵda tógin-shashın miyweler jáne
bir-birinen aǵla húrđıń qızları...

Mazmuni jihatidan dastlabki satrda mamnunlik, minnatdorlik tuyg‘ularini bildirish mazmuni orqali berilsa, keyingi satrlar izohlovchi a‘zo bo‘lib, hayotni jannatga tenglashtiradi. Diniy tushunchalarda jannatda Kavsar bor, jannatda hurning qizlari kutib oladi degan ishonch bor. Demak, yashab turgan hayotdan mamnun bo‘lgan lirik qahramon tasvirlanadi.

Shoir asarlarida emotsional-ekspressiv ma‘no yaxlit kontekst yordamida aniqlanadi. Bunda yuqorida keltirilgan barcha usullar birgalikda kelishi, aralash qo‘llanilish holatlari mavjud:

Tar soqpaqta kórmegenimde
bul jáyrandı, bilmes edim men
kózler bunday sulıw boların.
Aqbulaqtıń boyında oyın
Bul jáyrannıń bólmegenimde-

doynaǵına lal qalmas edim. Bunda kontekstdagi jayron, chiroyli ko‘zlar, lol qolish so‘zlari ijobiy manzarani tasvirlab, o‘quvchida ijobiy hissiyot uyg‘otadi.

Tup-tuwrı kelip,
tuwrı qaytasań,
Qaytatuǵınlıǵına qayılshılıǵım joq. – ishonch bildirish mazmunida kelsa, ikkinchi bandda:
Qutqarıp qal meni mına diywallardan,
Apollinerden qutqarıp qal–
tiriyekten,
basqa hayallardan...
Bayram et ómirimdi–
úzilgeninshe úzilsin nerv tamırları,
bir bet aq qaǵazday jayılp qalsın

gúmilji nárseler aramızdağı. – buyruq mayli orqali iltimos qilib, katta tashvish, yana tilak orqali his-tuyg‘ularini bildirib keladi-da,

Sonda ómirimizde bayram boladı–
men, shikarda júrip adasqan ańshı,
bulaqtıń boyında ushıratıp qalıp,
suw ishıp atırǵan kúnim qolınnan.

Sonda ómirimiz bayram boladı–
sen maǵan isene alǵan kúńinde,
sen maǵan erkeley alǵan kúńinde,

men ózimdi taba alǵan kúńimde.– bu satrlarda baxtli bo‘lishning turli kategoriyalari – ishonch, erka-lash, niyatiga yetish kabi tuyg‘ularni anglatadi. Bunday hollarda she’r qatoridagi gaplar bir-biri bilan o‘zaro zich semantik aloqaga ega.

Xulosa. Demak, ijobiy emotsional-ekspressiv ma’no oddiy til vositalari orqali berilib, badiiy asar-ning ta’sir etish vositasi. Bu hodisa faqat nasriy, dramatik matnlar bilan bir qatorda, she’riy asarlarda ham uchrashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o‘rni. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Tosh-kent, 2009, 4-son.

(2). Гак В.Г. Высказывание и ситуация. Проблемы структурной лингвистики. М., “Наука”, 1973.

(3). Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке. Сборник статей по языко-знанию. М., “Наука”, 1958.

(4). Кобрин О.А. Модусные категории как способы выражения субъективного отношения человека к высказыванию. Вопросы когнитивной лингвистики. 2006, № 2.

(5). Копеева Е.В. Мотивные средства языка как способ вербализации критического отношения к дей-ствительности (на материале англоязычных текстов жанра эссе). “Вестник МГЛУ”, 2012.

(6). Мягкова О.Е. Эмоциональная нагрузка слова: опыт психолингвистического исследования. Авто-реф. ...дис. канд., 1986.

(7). Телия В.Н. Механизмы экспрессивной окраски. Человеческий фактор в языке. Языковые механиз-мы экспрессивности. В.Н.Телия, Т.А.Графова. М., “Наука”, 1991.

Jo‘raxolova Bahora Qurbonboyevna (O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi)

“AYOL – QUVONCH” KONSEPTUAL METAFORASINING NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PAREMIYALARDA VOQELANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola “Ayol–quvonch” konseptual metaforasining nemis va o‘zbek tillarida-gi paremiya orqali voqelanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada ayol va quvonch tushunchalari-ning bir-biri bilan bog‘liq ravishda qanday tasavvur qilinishi, ularning xalqona ifodalardagi rolini tahlil qilish maqsad qilingan. O‘zbek va nemis tillaridagi maqollar va iboralar misolida ayolning oiladagi aha-miyati, quvonchning keltiruvchi va baxtni yaratishdagi o‘rni ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: konseptual metaforalar, paremiya, madaniyat, ayol, quvonch, voqelanish.

Джурохолова Бахора Курбонбоевна (соискатель Узбекского государственного университета мировых языков)

РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ “ЖЕНЩИНА–РАДОСТЬ” В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию реализации концептуальной метафо-ры “Женщина-радость” в пословицах и поговорках немецкого и узбекского языков. В статье расс-матривается, как взаимосвязаны понятия женщины и радости, их роль в народных выражениях, а также анализируется, как эти концептуальные метафоры отражаются в пословицах и поговор-ках. Через примеры из узбекского и немецкого языков показывается важность женщины в семье, а также роль радости в создании счастья.

Ключевые слова: концептуальные метафоры, пословицы, культура, женщина, радость, ре-ализация.

Juraholova Bahora Kurbonboyevna (Researcher at the University of world languages)

THE REALIZATION OF THE “WOMAN–JOY” CONCEPTUAL METAPHOR IN PROVERBS OF THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article is dedicated to studying the realization of the “WOMAN-JOY” conceptual metaphor through proverbs in the German and Uzbek languages. The aim of the article is to analyze how

the concepts of woman and joy are interrelated and how they are represented in folk expressions. Using examples of proverbs and sayings from both Uzbek and German, the article highlights the importance of women in the family, as well as the role of joy in bringing happiness and creating a fulfilling life.

Keywords: conceptual metaphors, proverbs, culture, woman, joy, realization.

Kirish. “Ayol–quvonch” konseptual metaforasi tilshunoslikda, ayniqsa, ijtimoiy va psixologik jihatlarni o‘rganishda juda qiziqarli mavzu hisoblanadi. Ushbu konseptual metafora, **ayol** va **quvonch** o‘rtasidagi o‘xshashlikni ifodalash orqali, ayolning ijtimoiy va ruhiy ahamiyatini tasvirlaydi. “Ayol – quvonch” metaforasi, odatda, ayolning hayotga, oila va jamiyatga qo‘shgan ijobiy energiyasini va ruhiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Konseptual metafora bu odamlar dunyoni qanday tasavvur qilayotganini va o‘zaro aloqalarni qanday tushunishini aniqlashga yordam beradigan lingvistik vositadir [6;185-b.]. “Ayol – quvonch” konseptual metaforasi o‘zida ayolning energiya, zavq, hayotiy kuch sifatida ko‘rilishini aks ettiradi. Quvonch esa ijobiy his-tuyg‘ular, hayotning go‘zalligi va ma‘naviy to‘kinlikni ifodalaydi. Demak, bu metafora orqali ayolning ijtimoiy va ruhiy funksiyasi, hayotga bo‘lgan munosabati va uni ijobiy tarzda boshqarishdagi roli ko‘rsatiladi.

“Ayol – quvonch” konseptual metaforasi ayol va quvonch o‘rtasidagi o‘xshashlikni tahlil qiladi. Ayol, ko‘pincha, hayotning go‘zalligi, ijobiy energiya, baxt va sevgi manbai sifatida tasvirlanadi. Ayolning qiyofasi jamiyatda quvonch, sevgi va ijobiy hissiyotlarning manbai sifatida voqelanishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Konseptual metafora bu bir tushunchaning boshqa bir tushuncha orqali tasavvur etilishi yoki ifodalanishidir. Lakoff va Johnsonning (1980) “Metaphors We Live By” nomli asarida bu tushuncha asosiy nazariyaga aylangan [7;12-b.]. Ularning fikricha, konseptual metaforalar bizning kundalik fikrlashimizda, muloqotimizda va madaniyatimizda chuqur ildiz otgan. Ular, asosan, abstrakt tushunchalarni tushunarli qilish uchun konkret obyektlar yoki tajribalar bilan bog‘lanadi. Masalan, “ayol” va “quvonch” konseptual metaforasi o‘ziga xos bir tasavvur yaratadi, bunda ayolning oiladagi va jamiyatdagi roli, uning quvonch va baxtni keltirishdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega.

Metaforaning voqelanishi – bu konseptual tasavvurning til va jamiyatdagi konkret shakllanishidir. “Ayol – quvonch” konseptual metaforasi ijtimoiy va madaniy kontekstda quyidagicha voqelanishi mumkin:

Ayolning jamiyatdagi roli, ko‘pincha, oilaviy baxt va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda ko‘rsatiladi. Ayolning quvonchi, uning o‘z oilasiga bo‘lgan mehridan, bolalariga g‘amxo‘rlik qilishdan, jamiyatdagi muhim o‘rnidan kelib chiqadi. Bunday voqelanishda ayolning quvonchi ijtimoiy va oilaviy farovonlikni ta‘minlaydigan, baxt va huzur manbai sifatida aks ettiriladi.

Ayolning ichki quvonchi va baxti, ko‘pincha, uning shaxsiy salomatligi, ruhiy holati va o‘zini anglash jarayoniga bog‘liq. Shaxsiy quvonch, ayolning hayotdagi maqsadlariga erishish, o‘zligini topish va o‘zining baxtini yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu holatda ayolning quvonchi uning ichki dunyosidagi barqarorlik va ruhiy salomatlikka ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu konseptual metafora, shuningdek, gender rollari va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq. Madaniyatlarda ayol va quvonch o‘rtasida ko‘plab tarixi va ijtimoiy kontekstga bog‘liq aloqalar mavjud. Ba‘zi madaniyatlarda, ayolning quvonchi va baxti jamiyat va oilaning barqarorligini ta‘minlovchi asos sifatida qaraladi.

Traditsional yondashuvda ayolning roli oilada baxt va farovonlikni ta‘minlashda ko‘rsatiladi, bu esa uning quvonchining jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Zamonaviy yondashuvda esa ayolning quvonchi shaxsiy yutuqlar va o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘lanadi. Ayolning quvonchi shaxsiy erkinlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash orqali voqelanishi mumkin.

“Ayol – quvonch” konseptual metaforasi boshqa ko‘plab ijobiy his-tuyg‘ular va konseptual tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ayol va quvonchning o‘xshashligi baxtning shakllanishi va uning jamiyatdagi ifodasi bilan bog‘liq. Baxt, shuningdek, ayolning ruhiy holati, oilaviy hayot va ijtimoiy mavqei bilan bog‘lanadi. Ayolning quvonchi, ko‘pincha, sevgiga bog‘liq. Sevgi va ehtiros ayolning quvonchi bilan bog‘langan, uning hayotini boyitadigan va uni jamiyatda yaxshi o‘rin egallashga yordam beradigan elementlardir.

“Ayol – quvonch” konseptual metaforasi ayolning baxti, oila va jamiyatdagi roli, uning shaxsiy holati va ijtimoiy funksiyasini aks ettiradi. Ayol va quvonch o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘plab tillarda ijtimoiy, madaniy va psixologik nuqtayi nazardan turlicha shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Madaniyatlar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlash uchun, o'zbek va nemis tillaridagi "Ayol" va "Quvonch" tasvirlariga asoslangan paremiyalarga e'tibor berish kerak. Quyidagi jadvalda "Ayol" va "Quvonch" konseptual metaforasining nemis va o'zbek tillaridagi paremiyalarda voqelanishini ko'rib chiqamiz:

3-jadval

Paremiyalar	Tarjimasi va ma'nosi	Lingvomadaniy tahlil
O'zbek tilida		
"Ayol oilaning gulidir" [8;253]	Ayol oilaning go'zalligi va baxtini ta'minlaydi.	O'zbek madaniyatida ayol oilaning tinchligi, baxti va farovonligining manbai sifatida tasvirlanadi. Ayol oilada baxt va quvonchni yaratishda muhim rol o'ynaydi.
"Ayolsiz uyda quvonch bo'lmas" [8;253]	Ayolning mavjudligi uyda tinchlik va baxt keltiradi.	Ayolning baxti va quvonchi oilaning farovonligi bilan bog'liq. O'zbek madaniyatida ayolning yuksakligi, ayniqsa oila va farzandlarining holatiga bevosita ta'sir qiladi.
"Kelin - uying quvonchi" [8;253]	Kelinning oila va jamiyatdagi o'rnini ifodalaydi.	O'zbek madaniyatida ayol oilaning muhim tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi. Maqol, an'anaviy o'zbek jamiyatida kelinning roli va oila qadriyatlariga bo'lgan hurmatni ham aks ettiradi.
Nemis tilida		
„Die Frau ist das Herz des Hauses“ [1;173]	Ayol – uying yuragi.	Nemis madaniyatida ayolning roli oilada markaziy o'rinda bo'lib, uning baxti, quvonchi va tinchligi oilaning umumiy farovonligiga bog'liq. Ayol oilada qarorlar qabul qilishda va odamlar orasidagi munosabatlarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi.
„Die Frau macht das Glück“ [1;173]	Ayol baxtni yaratadi.	Nemis tilida ayolning baxti oilaning quvonchi va oila ichidagi farovonlik bilan bog'liq bo'lsa ham, shaxsiy baxtga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu ayolning o'z shaxsiy quvonchini yaratishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.
"Wo Frauen sind, ist Freude nah" [1;173]	Qayerda ayollar bo'lsa, u yerda quvonch yaqin.	Nemis tilida ayolning oila va jamiyatdagi vazifasini va uning mavjudligini baxt va tinchlik bilan bog'laydi. Ayollar oiladagi muvozanatni saqlashda, o'zaro munosabatlarni yaxshilashda va jamiyatda umumiy farovonlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Ayolning roli. O'zbek madaniyatida ayol oilaning markazi sifatida ko'riladi va uning baxti oilaning farovonligi bilan bog'liq. Ayol oilaning gullari, quyoshi va tirikchiligining manbai sifatida tasvirlanadi. Bu an'anaviy o'zbek jamiyatidagi ayolning jamiyat va oila ichidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Nemis madaniyatida ayolning o'rni oila va jamiyatdagi markaziy rolda bo'lishi, lekin baxt va muvaffaqiyatni ko'proq shaxsiy erkinlik va shaxsiy faoliyat orqali yaratish bilan bog'liq. Nemis tilidagi paremiya ayolning baxti va quvonchiga individual yondashuvni aks ettiradi.

Quvonchning tasviri. O'zbek tilida, ayolning quvonchi oilaning umumiy farovonligi va farzandlarining baxti bilan bog'liq. Ayol oiladagi tinchlik va baxtni saqlovchi figura sifatida ko'riladi.

Nemis tilida ayolning quvonchi nafaqat oilaning baxtiga, balki uning shaxsiy yuksalishi va baxtiga ham bog'liq. Bu ayolning o'zining shaxsiy rivojlanishi va baxtini yaratishga urg'u beradi.

Madaniy farqlar. O'zbek madaniyati ko'proq oilaga e'tibor qaratiladi va ayolning roli oilaning farovonligi va baxtini ta'minlashda ko'rsatiladi. Bu esa o'zbek madaniyatida ayolning o'rni an'anaviy va

oilaviy qarashlarga asoslanganligini ko'rsatadi. Nemis madaniyati esa ko'proq individualizmga e'tibor beradi, shuning uchun ayolning baxti va quvonchi uning shaxsiy erkinligi va muvaffaqiyatiga bog'liq.

Xulosa va takliflar. Lingvomadaniy tahlil orqali, "Ayol – quvonch" konseptual metaforasi har ikki til va madaniyatda turlicha shakllanadi. O'zbek tilida ayol oila va jamiyatdagi baxtni yaratuvchi muhim figura sifatida aks etgan bo'lsa, nemis tilida ayolning quvonchi shaxsiy erkinlik va baxtga bog'langan. Bu tahlil til va madaniyatning bir-biriga ta'sirini, shuningdek, ijtimoiy rollarni va qadriyatlarini qanday aks ettirishini o'rganishga yordam beradi.

"Ayol – quvonch" konseptual metaforasi, tilshunoslikda ayol va quvonch o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik aloqalarni ko'rsatib, ayolning jamiyatdagi muhim o'rni va uning ijobiy energiyasi haqida tushuncha beradi. Bu metafora orqali ayol nafaqat oila va jamiyatda, balki insonning ichki dunyosida ham quvonchning manbai sifatida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Beyer H., Beyer A. Sprichwörterlexikon. Москва, "Высшая школа", 1989, с. 173.
- (2). Evans V., Green M. Cognitive Linguistics. An Introduction. Edinburg: Edinburg University Press, 2006.
- (3). Gibbs Jr. R.W. Idioms and formulaic language. In D.Geeraerts & H.Cuyckens (Eds.), The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. 2007, 717 p.
- (4). Jo'raxolova B. Metaforani tadqiq qilishda semantik-kognitiv yondashuv. European Journal of sciences archives conferences series. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10251531>
- (5). Juraholova B. The Role of metaphors expressing the image of a women with a gender component in proverbs and paremies of german and uzbek languages. Science and Innovation (INT-JECSE). ISSN: 2181-3337. Vol 3, Issue 03. 22.03.2024, p. 11–16.
- (6). Lakoff G. The contemporary theory of metaphor. In D.Geeraerts R.Dirven., J.R.Taylor (Eds.), Cognitive linguistics: basic readings. 2006, p. 185–238.
- (7). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. Chicago, Chicago University Press, 1980.
- (8). Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, 2005, 7, 257-bet.
- (9). Simrock K. Die Deutschen Sprichwörter. Ausgewählt und bebildert von Heidelberg N. Philipp Reclam jun. GmbH & Co. Stuttgart, 2011, s. 57.

Ro'zmetov Hamid Qalandarovich (Urganch davlat universiteti "Roman-german filologiyasi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; ruzmetovxamid8@gmail.com),

Ro'zmatova O'g'iljon Shukurillo qizi (Urganch davlat universiteti xorijiy filologiya fakulteti 2-bosqich magistranti; ugilzonrahimova@gmail.com)

SHAXSNI TASVIRLOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada fransuz yozuvchisi Guy de Mopassaning "Azizim" romani misolida shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada qanday aks etishi, tarjimonning tanlovi va uning madaniy kontekstga ta'siri tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy tarjima, shaxsni tasvirlovchi birliklar, ekvivalent, tarjima, obyektiv, neytral uslub.*

**Рузметов Хамид Каландарович (Ургенчский государственный университет, доцент),
Рузматова Угилжон (Ургенчский государственный университет, магистрант)
ПЕРЕВОД ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ОПИСАНИЕМ ЛИЧНОСТИ**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема передачи единиц, описывающих человека, на примере романа «Милый друг» французского писателя Ги де Мопассана. Изучается принцип выбора слов переводчиком, а также его влияние на культурный контекст.*

***Ключевые слова:** художественный перевод, описывающие человека единицы, эквивалент, перевод, объективный, нейтральный стиль.*

**Ruzmetov Khamid (Docent of Urgench State University),
Ruzmatova Ugiljon (master student of Urgench State University)
TRANSLATION OF LEXICAL UNITS DESCRIBING PERSONALITY**

***Annotation.** In this article, person describing expressions, their interpretation, the choice of the translator and its impact on the cultural content on the example of the novel "Dear" by the French writer Guy de Maupassant.*

***Key words:** literary translation, descriptive units, equivalent, translation, objective, neutral, style.*

Kirish (Introduction). Hozirgi globallashayotgan dunyoda til va madaniyatlararo muloqotning muhimligi ortib bormoqda. Tarjima asrlar davomida xalqaro aloqalarning muhim vositasi sifatida xizmat qilib kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda uning ahamiyati yanada kuchaygan. Axborot texnologiyalari va ilm-fan-

ning rivojlanishi, globallashtirish va turli xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan tarjima yangi imkoniyatlarni ochuvchi kuchga aylangan. Tarjima jarayonida eng murakkab vazifalardan biri shaxsni tasvirlovchi birliklarni, ya'ni personajlarning xarakterini, xulq-atvorini, ichki dunyosini va tashqi ko'rinishini o'zgartirmasdan, boshqa tilga to'liq yetkazishdir. Bu vazifani bajarayotganda tarjimon nafaqat tilning leksik va grammatik qoidalarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak, balki shaxsni tasvirlovchi birliklarning madaniy, psixologik va estetik nozik ma'no farqlarini ham yaxshi bilishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Til birliklarini, xususan, shaxsni tasvirlovchi birliklarni tarjima qilish masalasi tarjimashunoslik va lingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarjimashunoslik bo'yicha asosiy nazariy manbalar qatoriga Vinay va Darbelning (1958) "Stylistique comparée du français et de l'anglais" asari kiradi. Unda tarjima jarayonidagi asosiy strategiyalar va usullar, jumladan, to'g'ridan to'g'ri va bilvosita tarjima usullari keltirilgan. Shaxsni tasvirlovchi birliklar tarjimada aynan qanday strategiyalar yordamida o'zgartirilishi mumkinligi ushbu tadqiqot asosida baholandi. Bundan tashqari, tilshunos Jonuzoqova Chaman Murodilla qizining "Ingliz va o'zbek adabiyotida ayol obrazini ifodalovchi badiiy vositalar tarjimasidagi muammolar" mavzusidagi maqolasida tarjima muammolariga to'xtalib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Mopassanning "Azizim" asaridagi shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada berilish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda lingvistik va tarjimashunoslik yondashuvlari qo'llanilib, shaxs tasvirini aks ettiruvchi leksik, grammatik va stilistik birliklarning tarjima jarayonida qanday o'zgarishi o'rganiladi. Tadqiqot sifat jihatdan tahlilga asoslanib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Taqqoslash-tahlil metodi – asarning fransuz tilidagi asl matni va o'zbekcha tarjimasi o'zaro taqqoslanib, shaxsni tasvirlovchi birliklarning o'zgarishlari o'rganildi.

2. Kontekstual tahlil – matndagi tasviriy vositalarning tarjimada qanday aks etganligi va tarjimon tomonidan qanday muqobilarni tanlanganligi o'rganildi.

Tahlil va natijalar (analysis and results) Tarjima jarayonida eng murakkab vazifalardan biri shaxsni tasvirlovchi birliklarni, ya'ni personajlarning xarakterini, xulq-atvorini, ichki dunyosini va tashqi ko'rinishini o'zgartirmasdan, boshqa tilga to'liq yetkazishdir. Bu vazifani bajarayotganda tarjimon nafaqat tilning leksik va grammatik qoidalarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak, balki shaxsni tasvirlovchi birliklarning madaniy, psixologik va estetik nozik ma'no farqlarini ham yaxshi bilishi zarur. Guy de Mopassanning "Azizim" romani, aynan shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada qanday aks etishi, tarjimonning madaniyatlararo muvofiqlikni qanday ta'minlashga harakat qilishi haqida juda yaxshi misol bo'la oladi. Masalan, asl matn: *Sur la scène, trois jeune hommes, en maillot collant, un grand, un moyen, un petit, faisaient tour à tour, des exercices sur trapéze.* Tarjima matni (Ibrohim G'ofurov): Sahnada **triko kiygan, biri daroz, ikkinchisi o'rta bo'yli, uchinchisi pakana** uchta yosh yigit trapetsiyada navbatma-navbat mashq ko'rsatmoqda edi. Tarjimada ham shaxslar asosan asl matndagi tasvirlovchi birliklarga mos ravishda ta'riflangan: "uchta yosh yigit" – asl matndagi "trois jeunes hommes"ning ekvivalenti hisoblanadi;

"triko kiygan" – "en maillot collant"ning tarjimasi;

"biri daroz, ikkinchisi o'rta bo'yli, uchinchisi pakana" – bo'yga oid farqlar asl matnga yaqin ifodalanagan. Tarjima matni asl matnga yaqin qolgan, lekin ba'zi joylarda tarjimon ijodiy yondashgan: "en maillot collant" → "triko kiygan". "Maillot collant" fransuz madaniyatida sport kiyimiga xos atama bo'lib, "triko" bu kontekst uchun mantiqiy ekvivalent hisoblanadi. Triko so'zi o'zbek tili izohli lug'atida quyidagi ma'no-larga ega:

1. Ustki kiyimlar tikish uchun ishlatiladigan, jimjimador qilib to'qilgan jun gazlama. Kosyumluk triko. Triko shim.

2. Trikotaj to'qimadan tikilgan, gavdaga yopishib turadigan sport yoki teatr kostyumi. Darvoza ochilib, yo'g'on qomatini sportchilar kiyadigan qalin triko siqib turgan Shamsi To'rayevich ko'rindi. N. Aminov, Suvarak.

Fransuz tilining izohli lug'atida "triko" so'ziga quyidagicha izoh beradi: *Tissu formé d'une matière textile disposée en mailles et confectionné avec des aiguilles (→ bonneterie). Un gilet de tricot. Action de tricoter. Faire du tricot. Vêtement tricoté. → chandail, pull-over. Tricot de corps, de peau. → maillot.*

Ya'ni, «maillot», odatda, yengil, tanaga yopishgan, ko'pincha, sport yoki yozgi faoliyatlar uchun ishlatiladi. «Triko» esa iliq, to'qilgan kiyim bo'lib, sovuq mavsumlar va qulaylik uchun mo'ljallangan.

"...un grand, un moyen, un petit" → "biri daroz, ikkinchisi o'rta bo'yli, uchinchisi pakana". Bu yerda bo'yni tasvirlashda o'zbek tilining ifoda vositalari qo'llanilgan.

“Daroz”, “o’rta bo’yi” va “pakana” iboralari o’zbek tilida tushunarli va mantiqiydir va bu asl matndagi aniqlovchi sifatlarga to’liq mos tushadi. Bu yerda yana til va uslubning milliy xususiyatga mosligini ham ko’rib chiqish zarur. Tarjimada shaxslarni tasvirlashda o’zbek tiliga xos sodda va tushunarli uslub qo’llanilgan. Masalan, “biri daroz” ifodasi ko’proq xalqona, o’ziga xos uslubni beradi. Bu uslub tarjimoni asl matndan ko’ra, ko’proq o’zbek o’quvchisiga yaqin qiladi. Asl matnda shaxslarning o’ziga xos xususiyatlari aniqlovchilar bilan berilgan bo’lsa, tarjimada bu jihat izohlash orqali aniqroq ifodalangan.

Shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimadagi ahamiyati juda katta, chunki bunday birliklarning tarjimasi asarning umumiy mazmunini o’zgartirishi mumkin. Masalan, quyidagi parchani olaylik. Asl matn: **La chaire des bras et de la gorge sortait d’une mousse de dentelle blanche dont etaient garnis le corsage et les courts manches.** Tarjima matni: **Ko’ylagining yoqasidan beligacha oppoq ko’pirib turgan to’rga chulg’angan, kalta yengi ham to’rdan bo’lib, bo’yni va yalang’och qo’llari shu to’rdan chiqib turardi.** Bu yerda tarjimon badiiy tarjima asl matnda shaxsning tashqi qiyofasi quyidagi elementlar orqali tasvirlangan: “**La chair des bras et de la gorge**” – Shaxsning bo’yni va qo’llarining ochiq joylari, ya’ni terisi nazarda tutilgan. “**...sortait d’une mousse de dentelle blanche**” – Ular oppoq o’ymakor to’r ichidan “chiqib turayotgan” holatda tasvirlangan. “**...dont étaient garnis le corsage et les courts manches**” – To’r ko’ylakning yoqasi va kalta yenglarida joylashgani haqida batafsil ma’lumot beradi. Tarjimada esa bu tasvirlar quyidagicha ifoda etilgan:

“**...bo’yni va yalang’och qo’llari shu to’rdan chiqib turardi**”. Asl matndagi “**chair des bras et de la gorge**” aniq va tushunarli tarzda aks ettirilgan.

Bu parchada til va uslub xususiyatlariga alohida e’tibor berish zarur. Tarjima matnida shaxsni tasvirlashda o’zbek tiliga xos ifoda vositalari ishlatilgan. Asl matn: “**...sortait d’une mousse de dentelle blanche**”. Bu ibora sof tasviriy bo’lib, “chiqib turardi” orqali harakat ifodasi berilgan.

Tarjima matn: “*...oppoq ko’pirib turgan to’rga chulg’angan*”. Tarjima matnida “*ko’pirib turgan*” va “*chulg’angan*” iboralari qo’llanilib, tasvir yanada jonlantirilgan. Ushbu uslub tarjimonning ijodiy yondashuvini ko’rsatadi. Asl matndagi tasvirlovchi birliklar nafislik va estetik didni aks ettiradi. Tarjimada bu hissiyotlar saqlanib, o’zbek tilining madaniy-estetik mezonlariga mos ravishda ifodalangan. Misol uchun: *Dentelle blanche* → *oppoq ko’pirib turgan to’r*, ya’ni *oq to’rning nafisligi ko’pirib turgan* ifodasi bilan kuchaytirilgan. Asl matnda alohida tasvirlangan *corsage* va *courts manches* tarjimada “*yoqa va kalta yeng*” deb umumiy tarzda berilgan. Bu o’quvchiga tushunarli va mantiqiy ekvivalent hisoblanadi. Fransuz tilining izohli lug’atida “*corsage*” so’ziga quyidagicha izoh berilgan: *Vieilli. Vêtement féminin qui habille le buste; chemisier (ayollar ustki kiyimi). Haut d’une robe (ko’ylakning yuqori qismi). Corps, silhouette d’un cerf.*

Chaire des bras et de la gorge → *bo’yni va yalang’och qo’llari*. Tarjimada *yalang’och* so’zining qo’shilishi matndagi *ochiq joylarni* yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qiladi. Bu tarjimon tomonidan kontekstni milliy madaniyatga moslashtirish sifatida qabul qilinishi mumkin.

Yana bir misolda quyidagicha tasvirlarni uchratishimiz mumkin: *Une de ces femmes, s’étant accoudée à leur loge, le regardait. C’était une grosse brune à la chair blanchie par la pâte, à l’œil noir, allongé, souligné par le crayon, encadré sous des sourcils énormes et factices.* Tarjimon esa uni o’zbek tilida quyidagicha bergan: **Xotin lozar, sochlari qora, ko’zlariga surma tortgan, qoshlarini payvasta qilib bo’yagan, yuzlariga upa-elik surib olgandi.**

Asl matnda ayolning tashqi ko’rinishini ifodalash uchun aniq tasviriy birliklar keltirilgan: *grosse brune, chair blanchie par la pâte, œil noir, allongé, souligné par le crayon*. Tarjimada bu birliklarning ba’zilar mos ravishda ifodalanmagan: *grosse brune* (semiz, qoramtir ayol) – bu birlik tarjimada yo’qolgan. O’zbekcha matnda faqat *xotin lozar* deyiladi, bu esa ayolning tashqi ko’rinishini emas, balki biror go’zallikni ifodalashga qaratilgan.

...chair blanchie par la pâte (pudra bilan oqarib ketgan yuz) – bu tasvir *yuzlariga upa-elik surib olgandi* iborasi bilan berilgan. Tarjima umumiy ma’noni saqlagan bo’lsa-da, asl matndagi pardozning tabiiy bo’lmagan, sun’iy ko’rinishini aniq aks ettirmaydi. Asl matnda ayolni tasvirlashda uning pardozidagi sun’iylik va haddan tashqari bo’rtirilganlik asosiy urg’u bo’lgan: *...sous des sourcils énormes et factices* (katta va sun’iy qoshlari ostida). Tarjimada bu qism *qoshlarini payvasta qilib bo’yagan* tarzida berilgan. Garchi qoshlarning bo’yalishi tasvirlangan bo’lsa-da, ularning sun’iyliги va katta hajmda bo’rtirilganligi yetkazilmagan. *...œil noir, allongé, souligné par le crayon* (cho’zilgan qora ko’zlari, qalam bilan bo’yalgan). Tarjimon bu tasvirni *ko’zlariga surma tortgan* deb soddalashtirgan. Cho’zilgan shakl va pardoz uslubining o’ziga xosligi yo’qolgan. Buning ustiga asl matnda tasvir ko’proq neytral va tavsifiy tilda berilgan, ya’ni ayolning tashqi ko’rinishini aniq tasvirlashga qaratilgan. Tarjimada esa *lozar* kabi so’zlar ishlatilgan, bu so’z o’zbek o’quvchisi uchun go’zal, nazokatli ayolni anglatadi. Shu orqali asl matndagi

ayolning haddan tashqari pardozi qilgani va sun'iy ko'rinishi ifodalanmagan, balki unga qisman ijobiy ohang berilgan. Fransuz tilidagi *une grosse brune* kabi tasvirlar madaniy jihatdan o'zbek tiliga ko'chirilganda, bevosita tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi. O'zbek madaniyatida ayolni semiz va qoramtir deb ta'riflash, ko'pincha, salbiy ohangda qabul qilinadi, shu sababli tarjimon bu elementni olib tashlagan. Biroq bu o'zgartirish asl matndagi qahramonning ko'rinishi haqidagi ma'lumotlarni yetkazmaydi. Bu o'rinda *to'lachadan kelgan qoramag'iz ayol* tarzida berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asl matnning uslubi o'ta detallashtirilgan va nazokat bilan qurilgan. Muallif (Guy de Maupassant) ayolning tashqi ko'rinishini aniq va tasviriy birliklar orqali ifodalashga harakat qilgan. Matnda quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ayolning tashqi ko'rinishi juda aniq tasvirlangan: *une grosse brune, chair blanchie par la pâte, œil noir, allongé, souligné par le crayon, sous des sourcils énormes et factices*. Bu so'zlar faqat yuzaki ta'rif bo'lib qolmay, balki qahramonning pardozidagi sun'iylikni va shaxsiy xarakteristikalarini ham ko'rsatib beradi. Matnda muallif subyektiv fikrini bildirishga shoshilmaydi. Muallif ayolni yaxshi yoki yomon deb baholamaydi, balki u qanday ko'rinishini tasvirlaydi.

Pardozning sun'iyliги va bo'rttirilganligini ta'kidlash bilan cheklanadi, xulosani o'quvchining o'ziga qo'yib beradi. Asl matnda muallif tasvirni obyektiv tarzda bergan bo'lsa, tarjima qilingan matnda subyektiv ohang paydo bo'lgan. *Xotin lozar* so'z birikmasi bu ayolni asl matndagidek oddiy kuzatish orqali emas, balki go'zal deb ta'riflaydi. Bu esa muallifning niyatiga qisman zid keladi.

Asl matnda ayolning tashqi ko'rinishidagi sun'iylik va haddan oshgan pardozi o'quvchida salbiy taassurot qoldirish uchun tasvirlangan. O'zbekcha tarjimada esa bu salbiy taassurot o'rniga ijobiyroq yoki neytral ohang paydo bo'lgan. Asl matnda qahramonning pardozi uslubi orqali uning xarakteriga (haddan oshgan sun'iylik va go'zallikni bo'rttirish) oid tasavvurlar yaratilgan. Tarjimada esa bu jihatlar tasvirlanmay, o'quvchining o'z qiyofasida biror "ideal go'zallik"ni tasavvur qilishiga yo'l qo'yilgan. Bu uslub farqi qahramon obrazining tarjimada o'zgarishiga olib kelgan.

Ma'noni to'liq saqlash uchun asl matndagi *grosse brune* va *factices* kabi birliklar tarjimada o'zbek o'quvchisiga yaqinroq va aniqroq tarzda ifodalanishi kerak edi. Masalan, "Sun'iy pardozi bilan yuzlari oqarib ketgan, qora cho'zilgan ko'zlariga qalam tortilgan, qalin bo'yalgan qoshlari bilan..." tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yana shuni aytish lozimki, tarjimada "lozar" so'zi ayolga ijobiy ohang beradi, lekin bu asl matnning niyatiga zid. Sun'iy va haddan ziyod pardozi qilgan ayol qiyofasi madaniyatga mos ekvivalent bilan berilishi lozim edi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Tarjimada shaxsni tasvirlovchi birliklar muhim rol o'ynaydi, chunki ular faqat personajlarning tashqi ko'rinishini emas, balki ularning ichki dunyosini, hissiyotlarini ham o'quvchiga yetkazadi. Maupassantning "*Azizim*" romanidagi shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimadagi ahamiyati nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini, balki madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishni talab qiladi. Tarjimonlar, bu birliklarni to'g'ri tarjima o'zining til va madaniyatlararo bilimni chuqur ishlatib, asar mazmunini va personajlarning ichki holatini mukammal tarzda ifodalashga intilishlari kerak. Shaxsni tasvirlovchi birliklarning tarjimada to'g'ri aks ettirilishi, o'quvchining asar bilan chuqurroq bog'lanishiga va uning mazmunini to'g'ri tushunishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). I.Gafurov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi, 2012.
- (2). Maupassant. Bel-Ami. Librairie Générale Française, 2024.
- (3). Maupassant. Azizim. "Ilm ziyo zakovat", 2021.
- (4). Komiljon Jo'rayev. Tarjima san'ati. Toshkent, 1982.
- (5). E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2012.
- (6). Файбулла Саломов. Таржима ташвишлари. Тошкент, 1983.
- (7). O'zbek tilining izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
- (8). Le Robert dico en linge. <https://dictionnaire.lerobert.com/>

Tursunbayeva Zuhra Ro'zimat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tayanch doktoranti; zuhra4822@gmail.com)
BADIIY TARJIMADA MUSHTARAK MADANIY-TARIXIY BIRLIKLARNING BERILISHI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidan hindiy tiliga tarjima qilingan tarixiy asarlardagi arxaizmlar, shuningdek, milliy madaniyatga xos so'zlarning tarjimada ifodalanishi tahlil etildi. Jumladan, taqya, dastor, to'n, dasturxon, dubulg'a, po'stin, qo'shin, salohdor, chaqirim kabi so'zlarni hindiy tiliga o'girishda

yuzaga kelgan muammolar haqida soʻz boradi. Yana alohida eʼtibor mazkur soʻzlarning tarjimon tomonidan qanday, qay usullarni qoʻllagan holda tarjima qilganiga qaratilgan va tahlilga tortilgan. Shuningdek, mazkur maqolada tarixiy asarlar tarjimasida nimalarga eʼtibor berish kerakligi haqida bir qancha olimlarning fikr-mulohazalari keltirib oʻtilgan. Ushu ilmiy maqola uchun adabiy manba sifatida atoqli oʻzbek yozuvchisi Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” va Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarlari hamda ularning mohir tarjimon Suthir Kumar Mathur tomonidan hindiy tiliga qilingan tarjimasi tanlab olindi va tahlilga tortildi. Tarjima asardagi yutuq va kamchiliklar batafsil keltirib oʻtildi.

Kalit soʻzlar: tarjima, tarjimon, transliteratsiya, ekvivalent, tarixiy-arxaik leksika, asliyat.

ПЕРЕДАЧА ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. В статье анализируются архаизмы в исторических произведениях, переведенных с узбекского языка на хинди, а также выражение в переводе слов, характерных для национальной культуры. В частности, в статье рассматриваются проблемы, возникающие при переводе на хинди таких слов, как тюрбан, дастор, тон, дастурхан, шлем, пальто, армия, салахдар и килдим. Особое внимание уделяется также методам и приемам, используемым переводчиком для перевода этих слов и их анализа. В статье также представлены мнения ряда ученых о том, на что следует обращать внимание при переводе исторических произведений. В качестве литературных источников для данной научной статьи были выбраны и проанализированы “Сокровища Улугбека” известного узбекского писателя Одила Якубова и “Звездные ночи” Пиримкула Кодирова, а также их перевод на хинди опытным переводчиком Сутиром Кумаром Матхуром. Подробно описаны достижения и недостатки перевода.

Ключевые слова: перевод, переводчик, транслитерация, эквивалент, историко-архаичная лексика, оригинальность.

THE TRANSFER OF COMMON CULTURAL-HISTORICAL UNITS IN ARTISTIC TRANSLATION

Annotation. The article analyzes archaisms in historical works translated from Uzbek into Hindi, as well as the expression of words specific to national culture in translation. In particular, it discusses the problems that arose when translating words such as takya, dastor, ton, dasturkhan, dubulga, poustin, qoshin, salohdar, khurim into Hindi. Special attention is also paid to the methods and methods used by the translator to translate these words and analyzes them. The article also cites the opinions of several scholars on what should be paid attention to when translating historical works. The works of the famous Uzbek writer Odil Yakubov “Ulugbek Khazinasi” (The Treasure of Ulugbek) and Pirimqul Qodirov “Starry Nights” (Starry Nights) and their translation into Hindi by the skilled translator Suthir Kumar Mathur were selected and analyzed as literary sources for this scientific article. The achievements and shortcomings of the translation work were described in detail.

Keywords: translation, translator, transliteration, equivalent, historical-archaic lexicon, originality.

Kirish. Tarjima jarayoni tarjimondan katta masʼuliyat talab qiladi va uning oldiga bir qancha talablarni qoʻyadi. Tarjimon, avvalo, oʻz ona tilini yaxshi bilishi, boshqa xalqlarning, xususan, tarjima qilinayotgan asar mansub xalqning adabiyoti, tarixi, madaniyati va mentalitetini chuqur oʻrgangan boʻlishi lozim. Tarjimonga qoʻyiladigan talablardan yana biri filologik bilimning yuqori darajada boʻlishidir. Uning oʻz ona tilining oʻziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, fonetika, grammatika, leksikologiya va stilistika masalalarini teran tushunishi, adabiyot nazariyasi, badiiy ifoda usullarini chuqur oʻzlashtirgan boʻlishi tarjima matnini talab darajada sayqal topishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Tarixiy asarlar tarjimasi tarjimondan ikki karra koʻproq masʼuliyat talab etadi. Chunki tarixiy asarlar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda koʻplab tarixiy va arxaik lisoniy vositalar boʻladiki, bunda asliyat ruhini toʻla-toʻkis qayta yaratish masʼuliyati tarjimondan zaruriy lisoniy vositalarni taʼgʻri tanlash yoʻli bilan asliyat vujudga kelgan davr xususiyatini qayta yaratishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” va Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarining hindcha tarjimasida tarjimonning soʻz tanlashda duch kelgan muammolar tadqiq etildi.

Ali Qushchi qora duxoba taqyasining ustidan mudarra dastorini oʻradi, egniga yengsiz kimxob nimchasini, uning ustidan oq chakmonini kiydi-da, tik zinalardan yuqoriga chiqa boshladi [8;6-b.].

आली कुश्री ने मखमल की काली टोपी के ऊपर मुदरिसौवाला अमामा बांधा, ज़री की वास्कट पहनी ओर कंधों पर ऊंट के ऊन से बना सफ़ेद चकमान डाल दिया [12;6-b.].

Ushbu jumlada tarixiy milliy koloritga xos bir nechta soʻzlar keltirilgan. Ularning tarjimada berilishini birma-bir koʻrib oʻtamiz. Qora duxoba taqya-मखमल की काली टोपी (makhmaal ki kali toʻpi) deb tarji-

ma qilingan. Taqya [11;148-b.] sidira matodan tayyorlangan “gulsiz do‘ppi”. टोपी so‘zi “do‘ppi” so‘ziga mos keladi. O‘zbek “do‘ppisi”dan farqli o‘laroq, “chit” yoki “qo‘lda to‘qilgan” bo‘ladi. Shuningdek, टोपी [1;654-b.] hindiy tilida, umuman, bosh kiyim ma’nosini beradi, ya’ni shapka, qalpoq va h.k. Mudarra dastori birikmasi – मुदरिसौवाला अमामा (mudarisouvala amama) tarzida o‘girilgan. Dastor [10;214-b.]. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da *salla* tarzida berilgan. अमामा [1;124-b.] arab tilidan hindiy tiliga ham o‘zbek tiliga ham o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “salla”ni bildiradi. Ammo hind tilida ham पगड़ी (*pagri*) so‘zi mavjud bo‘lib, *salla* so‘zining ayni tarjimasidir. Bu yerda tarjimonning so‘z tanlash mahoratini alohida ta’kidlash lozim. Tarjimon tarjimada sof hindiy tilida mavjud पगड़ी so‘zini qo‘llamay, arab tilidan o‘zlashgan अमामा so‘zini tanlashda dinlararo yaqinlik va o‘xshashlik hisobga olgan. Milliy tushunchalarni ifoda etadigan xos so‘zlarning ayrimlari asliyatga mansub bo‘lgan tildan tashqari, yana qator xalqlarda ham uchrashi, shuningdek, tarjima qilinga tilning ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so‘zlar hudud, turmush-sharoit jihatlardan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo‘lib turadigan xalqlarda ko‘proq uchraydi.

“Yulduzlii tunlar” romanida keltirilgan “kimxob to‘n” [6;13-b.] so‘zini tarjimon पोस्तीन [13;161-b.] (po‘stin) shaklida tarjima qilgan. पोस्तीन hindiy tilida “mo‘yna, mo‘ynali po‘stin” [2;124-b.] ma’nosini ifodalaydi. Ushbu so‘z hind va o‘zbek tillariga fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ikkala tilda ham “mo‘ynali oshlangan teridan tikilgan, uzun, issiq qishlik kiyim” ma’nosini bildiradi. Ammo po‘stin to‘n so‘zi ifodalagan ma’noga mos kelmaydi. “To‘n” oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyimdir. Asarning bir qancha o‘rinlarida tarjimon to‘n so‘zini चोगा (cho‘g‘a) tarzida tarjima qilgan. Demak, पोस्तीन so‘zining o‘rniga चोगा leksemasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Ikkala asarda uchraydigan “dasturxon” so‘zi esa दस्तरखान (dasturxon) tarzida ifodalanilgan. Bu so‘z hind va o‘zbek tillariga fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “dasturxon” degan ma’noni anglatadi (ovqat qo‘yiladigan mato, unga qo‘yilgan taom). दस्तरखान dasturxon so‘ziga ekvivalentdir. “Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko‘pchilikka xos so‘zlarning ma’nolari va o‘taydigan vazifalari mamlakatlarning o‘zaro madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tanish bo‘lib qoladiki, tarjimon bunday so‘zlarga o‘z tillarida muqobil lisoniy vo-sitalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etaveradilar” [3;237-b.].

Tarixiy asarlarda ko‘p uchraydigan dubulg‘a so‘zi tarjimada शिरस्त्राण (shirastran) tarzida berilgan. Dubulg‘a [9;237-b.]– tig‘ yoki o‘qdan saqlanish uchun temir yoki po‘latdan ishlangan bosh kiyim, shlem. शिरस्त्राण “dubulg‘a” so‘ziga ekvivalentdir. Bundan tashqari, hindiy tilida dubulg‘a so‘zini ifodalovchi कूंड (kund) so‘zi ham mavjud bo‘lib, u ayni tarixiy so‘zdir.

Odatda, arxaiklashtirilgan asarlarni tarjima qilish uchun til vositalarini tanlaganda tarjimondan avvaliga tarixiy masofaga rioya qilish, zamonaviy leksikadan voz kechish talab qilinadi.

“Tarixiy mavzudagi asarlar tarjimasida o‘sha zamonga mos kelmaydigan so‘zlarni ishlatishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Zamonaviy, hatto keying davrda paydo bo‘lgan so‘z va tushunchalarni qo‘llash ham tarixiy haqiqatning buzilishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, asarning o‘tmishga daxldorligini bildirib yurish uchun muayyan darajada arxaik so‘zlardan ham foydalanish joiz”.

O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo” romanlarini turk tiliga o‘girgan Ahsan Batur tabib o‘rniga doktor, katta xona, mashvaratxona o‘rniga salon, shuningdek, mersi, pardon kabi yevropacha so‘zlarni ishlatadi, bu so‘zlar turk tilining o‘ziga ham XX asrda fransuz tili orqali kirib kelgan [5;39–45-b.].

Endi ushbu so‘zga e’tibor qaratsak. “Salohdor” [10;209-b.]. so‘ziga asliyatda matn ostida “darvozabon” deb izoh berilgan. Darvozabon [10;209]. darvoza qorovuli yoki soqchisi. Tarjimon tarjimada ushbu so‘zni दरबान [13-9-b.] (darban) so‘zi bilan ifodalagan. दरबान [1;755-b.] so‘zi fors tilidan o‘zbek va hind tillariga o‘zlashgan bo‘lib, “saroy darvozasi posboni” degan ma’noni anglatadi. “Darbon” o‘zbek tilida tarixiy so‘z hisoblanadi. Hindiy tilida esa tarixiy so‘z emas. Ammo hindiy tilida aynan “darvozabon” so‘zini izohlovchi द्वारपाल (dvaarpal) so‘zi mavjud va u aynan hindiy tilida tarixiy so‘z hisoblanadi. Tarjimon qo‘llagan दरबान so‘zi xato emas, albatta. Ammo asliyatdagi tarixiy so‘zni tarjima tilida mavjud tarixiy leksika bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu tarjimaning yanada chiroyli va aniq chiqishini ta’minlaydi. Tarjima tilida mavjud tarixiy leksikadan foydalanish kitobxon uchun ham tushunarli bo‘ladi.

Bir qancha o‘rinlarda “chaqirim” uzunlik o‘lchov birligi मील tarzida tarjima qilingan. Bizga ma’lumki chaqirim-metrik o‘lchov sistemasi qabul qilingunga qadar qo‘llangan 1,06 kmga teng qadimgi uzun-

lik o'Ichov birligi. Tarjimada qo'llanilgan मिल so'zi ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, 1,6 km.ga teng masofa o'Ichovidir. मिल “chaqirim” so'zini izohlay olsada, asar tarixiy bo'lganligi uchun ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar o'rniga hindiy tilida mavjud so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hindiy tilida कोस [1;714-b.] uzunlik o'Ichov birligi mavjud bo'lib, 3200 m.ga tengdir va u qisman bo'lsa-da, “chaqirim” so'zini izohlay oladi.

“Muayyan bir xalq hayotidagi o'Ichov birliklarini boshqasi bilan almashtirishda uni asarning umumiy ohangiga, undagi tarixiy haqiqatga, milliy ruhga nechog'lik mos kelish-kelmasligini jiddiy o'ylab ko'rish kerak. Beparvolik bilan o'sha o'Ichov birligi haqida zarur ma'lumotga ega bo'lmay turib, uni o'z tilidagi mos kelmaydign o'Ichov birligi orqali ifodalash asarning badiiy-estetik qiymatiga putur yetkazadi, kitobxonda voqelikka nisbatan ikkilanish, ishonchsizlik uyg'otadi” [5;90-b.].

Xulosa. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, “Ulug'bek xazinasi” “Yulduzli tunlar” romanlarining hindcha tarjimasida tarjimon, asosan, arab va fors, shuningdek, ingliz tillaridan hindiy tiliga o'zlashgan so'zlardan foydalangan. “Vazir” – वजीर, “qozi” – क़ाज़ी, “sipoh” – सिपाही, choshnagir – चोशनीगीर kabi so'zlar shular jumlasidandir.

Tarjimon romandagi voqealar rivojini tasvirlashda, o'tmish nafasi ufurib turgan arxaik so'zlardan mahorat bilan foydalangan. Kerakli o'rinlarda tarixiy-leksik birliklar izohlab berilgan. Ammo bu prinsip butun tarjima davomida izchil saqlanmagan. Tarjimon ba'zi so'zlarni tarjima qilishda sinonim so'zlardan foydalanib tarjima qilgan. Ularning barchasi tarixiy-arxaik leksika hisoblanmasa-da, tilning lug'at boyligidan foydalanishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Индо-русский словарь. В двух томах, 1-том. А.С.Бархударов, В.М.Бескровный и др. Под ред. В.М. Бескровного. М., “Советская энциклопедия”, 1972, с. 912.
- (2). Hindi-russkiy slovar. V dvux tomax, 2-tom. A.S.Barxudarov, V.M.Beskrovniy i dr. Pod red. V.M Beskrovniy. M., “Sovetskaya ensiklopediya”, 1972, с. 907.
- (3). Isoqova Sh. Badiiy tarjima milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning “Navoiy” romanining fransuzcha tarjimasi misolida). Filol. fan. nomz. ...diss., T., 2004, 130-bet.
- (4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005, 352-bet.
- (5). Ochilov E. Arxaizm va tarjima. Sharq tarjimashunosligi. Tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. Ilmiy maqolalar to'plami, Toshkent, ToshDSHI, 2014, 39–45-betlar.
- (6). Qodirov P. Yulduzli tunlar. Toshkent, “Sharq”, 2009, 543-bet.
- (7). Ульциферов О.Г. Современный русско-хинди словарь. М., “Русский язык Медиа”, 2004, 1035 с.
- (8). Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, 334-bet.
- (9). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, 1-jild, Toshkent, 2006, 808-bet.
- (10). O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild, S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, Z.M.Ma'rufov va bosh., M.Ma'rufov tahriri ostida, M., “Rus tili”, 1981, 632-bet.
- (11). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, Z.M.Ma'rufov va bosh., M.Ma'rufov tahriri ostida, M., “Rus tili”, 1981, 603-bet.
- (12). याकुबोव अ .उलूगबेक की धरोहर) आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर ,(रादुगाप्रकाशन ,ताशकन्द १९८३ – ३६६ प.
- (13). कादीरोव प .बाबूर) ,आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर ,(रादुगाप्रकाशन ,मास्को १९८८– ५५६ प.

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna (Abu Rayhon Beruniny nomidagi UrDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; khiva1970@mail.ru; ORCID: 0000-0002-2471-5823)

XORAZM XALQ DOSTONLARI TILIDA ASOSIY KONSEPTLAR VA QADRIYATLARNING IFODALANISHI

***Annotatsiya.** Maqolada Xorazm dostonlari tili shunchaki o'tmish yodgorligi emas, balki xalqning ko'p asrlik tafakkur tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan tirik xazina ekanligi, shu bois uni o'rganish orqali hozirgi davr uchun ham dolzarb bo'lgan ko'plab madaniy-ma'rifiy masalalarga javob topish mumkinligi haqida fikrlar yuritiladi. Unda Xorazm xalq dostonlaridan “Go'ro'g'lining tug'inishi” dostonidagi lisoniy vositalar (so'zlar, iboralar, she'riy parchalar, nutqiy vaziyatlar) orqalining asosiy konseptlari va qadriyatlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Xorazm dostonlari, folklor tili, milliy mentalitet, konsept, qadriyat, asosiy konstantalar, lingvistik xususiyatlar mental olam.*

ВЫРАЖЕНИЕ ОСНОВНЫХ ПОНЯТИЙ И ЦЕННОСТЕЙ В ЯЗЫКЕ ХОРЕЗМСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛАНИЙ

Аннотация. В статье утверждается, что язык хорезмийских эпосов – это не просто пережиток прошлого, а живое сокровище, олицетворяющее многовековой образ мышления, мировоззрение и ценности народа, и поэтому, изучая его, можно найти ответы на многие культурно-просветительские вопросы, актуальные и по сей день. В ней анализируются основные концепты и ценности хорезмийского народного эпоса «Рождение Гёроглу» посредством языковых средств (слов, словосочетаний, поэтических фрагментов, речевых ситуаций).

Ключевые слова: хорезмийские эпосы, фольклорный язык, национальный менталитет, концепт, ценность, основные константы, языковые особенности, ментальный мир.

EXPRESSION OF BASIC CONCEPTS AND VALUES IN THE LANGUAGE OF KHORAZM FOLK EPISTLES

Annotation. The article discusses the idea that the language of Khorazm epics is not just a relic of the past, but a living treasure that embodies the centuries-old way of thinking, worldview and values of the people, and therefore, by studying it, it is possible to find answers to many cultural and educational issues that are relevant for the present. It analyzes the main concepts and values of the Khorazm folk epic “The Birth of Goroglu” through linguistic means (words, phrases, poetic fragments, speech situations).

Key words: Khorazm epics, folklore language, national mentality, concept, value, main constants, linguistic features, mental world.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek xalqi ham o‘z taraqqiyotining yangi, mas’uliyatli bosqichini boshdan kechirmoqda. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi asrlar davomida shakllangan va sayqal topgan milliy, madaniy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, boyitish va kelgusi avlodlarga yetkazishni, xalqimizning bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik kabi ezgu fazilatlarini mustahkamlashni hamda jamiyat rivojiga to‘siq bo‘ladigan eskirgan qarashlar va mavjud illatlardan xoli bo‘lishni taqozo etadi. Bu jarayonda tilshunoslik fani milliy mentalitetning tildagi ifodasini chuqur tadqiq etish orqali muhim vazifani bajarishi mumkin.

Inson fenomenini, uning murakkab tabiatini, ayniqsa, til vositasida anglashga urinish XXI asr fani oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu bejiz emas. Zero, til inson tafakkuri, madaniyati va ruhiyatining ko‘zgidir. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigmatga, ya’ni, tilni uning egasi va yaratuvchisi bo‘lgan inson bilan uzviy, ajralmas aloqadorlikda o‘rganishga bo‘lgan intilish tobora kuchaymoqda. Bu yondashuv tilni faqat belgilar tizimi sifatida emas, balki inson faoliyatining mahsuli va vositasi sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy an’ana, folklor, din, mafkura, hayotiy tajriba, san’at timsollari, his-tuyg‘ular va qadriyatlar tizimi kabi bir qator omillarning o‘zaro natijasi sanaluvchi amaliy (kundalik) falsafiy tushuncha bo‘lgan konsept xorijiy va o‘zbek olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, V.I.Karasik, G.G.Slishkin, Y.S.Stepanov va bosqalarning bu boradagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir [1;2;3].

O‘zbek tilshunosligida “konsert” atamasi 1990-yillardan boshlab qo‘llanila boshlagan. Sh,Safarov, N.Mahmudov, T.Mardiyev, E.Mamatov, M.Rahmatova, O‘.Yusupov, G.Hoshimov kabi o‘zbek olimlarining bu boradagi tadqiqotlarini ta’kidlash joiz [4;5;6].

Tadqiqot metodologiyasi. I.P.Chernousova ta’kidlaganidek, “An’anaviy formulalar orqali ifodalangan folklor konseptlari an’anada va folklor tilida mavjud bo‘lgan o‘zaro bog‘liq hamda o‘zaro ta’sirdagi elementlar tizimini tashkil etadi. Folklor konseptosferasining tizimli xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: folklor – til manzarasida murakkab integrallash (birlash)gan ma’noni (oilalar qurish va Vatanni himoya qilish kabi) gavalantiruvchi hamda dialogik modellar orqali reprezentatsiyalangan (ifodalangan) ijtimoiy-madaniy kompleks konseptlar, o‘z navbatida, formul dialoglar vositasida ifodalangan o‘zaro bog‘liq konseptlardan tashkil topadi; bu formul dialoglar esa subkonseptlar va konseptlarni verballashtiruvchi (tilda ifodalovchi) leksik hamda leksik-grammatik formulalarni o‘z ichiga oladi” [7].

Til va madaniyat aloqadorligini o‘rganuvchi barcha fanlar, jumladan, yuqorida tilga olingan yo‘nalishlar uchun ham semantik tayanch nuqta sifatida qadriyat kategoriyasi xizmat qiladi. Bu esa aksiologik tilshunoslik yoki lingvoaksiologiyaning asosini tashkil etadi [8]. Lingvoaksiologiya tilda predmetlashgan (moddiylashgan) xalq dunyoqarashini (masalan, o‘zbekona dunyoqarashning oilaparvarlik, mehmondo‘stlik, kattaga hurmat, mahallaga sadoqat kabi jihatlarini), etnosning qadriyatlar tizimini hamda ularning tilda (leksika, frazeologiya, paremiologiyada) va ma’naviy madaniyatda (urf-odatlar, marosimlar, san’atda) rep-

rezentatsiyalanish (ifodalanish) usullarini o'rganadi [9]. Bunday tadqiqotlar milliy o'zlikni anglash, madaniyatlararo muloqotni yaxshilash va til orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek mentalitetini chuqurroq anglash hamda milliy madaniyatning asosiy konstantalarini (o'zgarimas jihatlari) aniqlash uchun o'zbek folklori – dostonlar, ertaklar, maqol va matalar, afsonalar, qo'shiqlar, allalar, aytishuvlar kabi asrlar davomida sayqallanib kelgan og'zaki ijod namunalari bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Zero, bunday matnlar, A.T.Xrolenko ta'kidlaganidek, ko'pincha, "jamoaviy-anonim, minimal darajada subyektiv, an'anaviy barqaror, "xalq iqrori" hisoblanadigan va yuksak madaniyat namunalari ifodalaydigan" [10] xususiyatlarga ega bo'lib, ularda xalqning ruhiyati, orzu-umidlari, axloqiy qarashlari eng sof va to'liq mujassamlashgan bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Mental lingvistika til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni, inson ongida dunyoning til orqali qanday aks etishini, lisoniy birliklar zahirida yashiringan mental (aqliy, ruhiy) jarayonlarni o'rganadi. Folklor matnlari, xususan, dostonlar etnosning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, mentaliteti, ya'ni, o'ziga xos fikrlash tarzi va ruhiy olamini o'rganish uchun bebaho manba hisoblanadi. Quyida Xorazm xalq dostonlaridan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni [11]ning boshlang'ich qismi aynan shu nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Tahlilning asosiy maqsadi matndagi lisoniy vositalar (so'zlar, iboralar, she'riy parchalar, nutqiy vaziyatlar) orqali doston yaratilgan davrdagi jamiyatning mental olamiga xos xususiyatlarni, dunyoning til manzarasini, asosiy konseptlar va qadriyatlarni ochib berishdir.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining asosiy konseptlar va qadriyatlarining tildagi ifodasi quyidagichadir:

1. Taqdir, ilohiy iroda va inson (konsept: *xudo, taqdir, qismat*). Doston matnida voqealar rivoji, ko'pincha, taqdir yoki Yaratganning irodasi bilan bog'lanadi. Jig'olibekning keksayishi ("ko'zidan nur, belidan quvvat ketib"), Odibek va kelinining bevaqt o'limi ("bu dunyoda davron surish Odibekka nasib etmadi"), Go'ro'g'lining mo'jizaviy tug'ilishi ("xudo inoyat qilib shu farzandni ikki toshning orasida bergan bo'lsa") kabi holatlar inson hayoti oldindan belgilangan kuchlar ta'sirida ekani haqidagi dunyoqarashni aks ettiradi.

Tildagi ifodasi: "Haqning farmoni farmondur", "Xudoga nola qilib", "Panohimsan qodir xudo", "Karam qil, yetkaz farzanda", "Xudodan sharofat bo'ldi", "Xudo o'zi lutfu ehson ayladi", "manglayga yozilgan yozg'itdan qutilib bo'lmas ekan". Bu kabi iboralar va murojaatlar insonning Olloh oldidagi o'zligi, unga sig'inishi, umid bog'lashi kabi mental holatlarni ko'rsatadi. "Taqdir", "nasib etmadi", "yozg'it" so'zlari fatalistik dunyoqarash elementlarini ochib beradi.

2. Farzand qadriyati (konsept: *farzand, zuryod, nasl*). Matnda farzand, ayniqsa, o'g'il farzand, qadriyati o'ta yuqori ekani yaqqol namoyon bo'ladi. Odibekning ortidan zuryod qolmagani Jig'olibek uchun eng katta qayg'u ("O'g'lim, deb aylarman faryod, Izida qolmadi zuryod"). Go'ro'g'lining topilishi esa eng katta quvonch, hayotning davomiyligi, kuch-quvvat va umid ramzi ("ko'ziga nur, beliga darmon", "kular yuzimni naylading", "kular ko'zimni naylading", "mening g'amli ko'nglim shodmon ayladi", "bag'rimga yetishdi ko'zim qarosi").

Tildagi ifodasi: "Do'g'ma" (qul avlodi bo'lgan qul), "zuryod", "farzand", "oxtiq" (nevara) so'zlari qadriyatning qo'llanishi; "belga darmondur", "ko'ziga nur", "ko'zim qarosi" kabi metaforik iboralar farzandning hayotiy zarurat, quvonch manbai, najot ekani haqidagi mental tasavvurni ifodalaydi. Jig'olibekning she'rlaridagi faryod va shukronalik hissi bu qadriyatning chuqurligini ko'rsatadi.

3. Qahramonlik arxetipi va shaxsning shakllanishi (konsept: *qahramon, botir, shaxsiyat*): Go'ro'g'lining obrazi klassik qahramonlik arxetipiga mos keladi. Jumladan, mo'jizaviy tug'ilish: Go'rda tug'ilishi uning oddiy inson emasligini, ilohiy yoki g'ayritabiiy kuchlar bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Bu uning ke-lajakdagi buyuk ishlariga ishora.

Tabiat bilan bog'liqlik. Echkin emishi uning tabiiy kuchlarga egaligini, yovvoyi tabiatini bildiradi.

Tug'ma kuch va sho'xlik: "Yerga ursa osmonga sakraydigan, otarmon-choparmon, shaddod bir bola" ta'rifi uning jismoniy kuchi va bo'ysunmas xarakterini ko'rsatadi. Bu qahramon uchun xos bo'lgan faollik va kurashchanlik belgisi.

4. Ijtimoiy tuzilma va hokimiyat munosabatlari (konsept: *hokimiyat, bek, podshoh, xizmat*). Doston-da tasvirlangan jamiyat qat'iy iyerarxiyaga asoslangan (*podshoh, vazir, bek, xalq*). Jig'olibekning Chamlibeldagi mavqeyi, keyin Xunxorshohga qaram bo'lishi, saroydagi intrigalar, podshohning mutlaq va ba'zan shafqatsiz hokimiyati ("ko'zini o'yirding, o'g'limni o'ldirding") o'sha davr ijtimoiy-siyosiy munosabatlari haqidagi mental tasavvurlarni aks ettiradi. Bular tilda "bek", "podshoh", "vazir", "katxudo", "oqsoqol", "fuqaro sifat kishi", "jallod" kabi ijtimoiy mavqeyini bildiruvchi so'zlar; "eliga, yurtiga egalik qilmoq", "otasi o'rniga o'tirmoq", "xizmatingga keldim", "bo'yingni egib, menga xizmat qilmoq", "masla-

hatchim bo'lasan", "dohil bo'lmasin" kabi hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarini ifodalovchi birikmalar; "Egilgan boshni qilich chopmas" maqoli vaziyatdan kelib chiqib itoat qilish strategiyasining mental modelini ko'rsatadi. Xunxorshohning g'azabi ("ko'ziga qon quyilib, qoni suyulib, tuklari to'nini teshib") kabi giperbolalar hokimning cheksiz va qo'rqinchli qudrati haqidagi tasavvurni yaratadi.

5. Mentalitet va xarakter xususiyatlari. Emotsional ifoda: qayg'u (Jig'olibekning she'rlari, yig'isi), quvonch (Go'ro'g'li topilgandagi sevinch), g'azab (Xunxorshoh), hayrat (Ganjimbekning xabariga Jig'olibekning munosabati) kabi hissiyotlar ochiq va kuchli ifodalanadi. Bu o'sha davr odamlarining hissiyotlarni yashirmasligi, emotsional ochiqlikidan dalolat beradi.

Amaliy yondashuv va topqirlik. Go'ro'g'lini tutish uchun oshiq va qo'g'irchoq qo'yish (jinsini aniqlash), yopishqoq egar yasash kabi usullar xalqning amaliy tafakkuri, muammoni hal qilishdagi topqirligini ko'rsatadi.

Dunyoqarash elementlari. Tushga e'tibor ("kecha bir tush ko'rgan edim"), g'ayritabiiy mavjudotlarga ishonish ("suv oti"), pirlarga sig'inish ("Pirlardan karomat bo'ldi", Jig'olibekning she'rinda pirlarga mujo'raati) kabilar o'sha davr odamlarining mifologik va diniy tasavvurlarini aks ettiradi.

Jamoaviylik. Muhim masalalar (bolaga ism qo'yish, uni tutish) elning kattalari, oqsoqollar bilan maslahatlashib hal qilinadi. Bu jamoaviylikning, kattalar fikriga hurmatning yuqoriligini ko'rsatadi.

6. Lingvistik xususiyatlar va mental olam. Obrazlilik va tasviriy vositalar: "suvdan chiqqan shog'olday", "dunikdan tushgan dunakday" kabi o'xshatishlar, "ko'ziga nur, beliga darmon", "egilgan boshni qilich chopmas" kabi metaforik iboralar, "otarmon-choparmon", "shaddod" kabi epitetlar xalqning dunyoni obrazli idrok etishi, baholash mezonlari haqidagi mental tasavvurlarni ochadi.

She'riy nutq. Doston tarkibidagi she'rlar qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, dunyoqarashi va qadriyatlarini eng yorqin ifodalovchi vositadir. Ularning tili, ohangi, mazmuni mental holatni bevosita aks ettiradi.

Xorazm shevasiga xos so'zlar: matnda Xorazm shevasiga xos so'zlarning ("do'radi", "taka", "dim", "oxtiq", "do'g'onlar" va hokazo) qo'llanilishi matnning autentikligini, ma'lum bir madaniy-lisoniy muhitga mansubligini tasdiqlaydi va o'sha hudud aholisining lisoniy o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Xulosa. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni tili orqali biz doston yaratilgan va yashagan muhit ahlining dunyoqarashi (taqdir va ilohiy irodaga ishonish), qadriyatlar tizimi (farzand, nasl davomiyligining yuksak qadri), qahramonlik haqidagi tasavvurlari (mo'jizaviy tug'ilish, tug'ma kuch), ijtimoiy munosabatlar haqidagi qarashlari (ierarxiya, hokimiyatning tabiati) hamda mental xususiyatlari (emotsional ochiqlik, amaliy topqirlik, jamoaviylik) haqida muhim xulosalar chiqarishimiz mumkin. Tildagi obrazlilik, she'riy parchalar, hatto shevaga xos xususiyatlar ham o'sha davr insonlarining mental olamini, dunyoni lisoniy idrok etish tarzini ochib berishga xizmat qiladi. Bu tahlil folklor matnlarining nafaqat badiiy yodgorlik, balki xalqning ruhiy-ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi bebaho lisoniy manba ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Монография, М., "Гнозис", 2004, 390 с.
- (2). Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. Монография, М., "Academia", 2000, 128 с.
- (3). Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. М., "Академический проект", 2001, 990 с.
- (4). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, "Sangzor", 2006.
- (5). Rahmatova M.M. Ingliz, o'zbek, tojik milliy madaniyatida "go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari. Filol.fanl.fals.dokt. (PhD) diss.avtoref., Buxoro, 2019.
- (6). Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari xususida. Stilistika zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2011, 48–51-betlar.
- (7). Черноусова И.П. Язык фольклора как отражение этнической ментальности (на материале фольклорной концептосферы русской волшебной сказки и былины). Автореф. дисс. канд. филол. наук, 2015, с. 19.
- (8). Маркелова Т.В. Аксиология русской языковой личности в пространстве современной лингвистики. Русское слово, высказывание, текст: рациональное, эмоциональное, экспрессивное. Межвуз. сб. научных трудов, посвященный 75-летию проф. П.А.Леканта, М., МГОУ, 2007, с. 30.
- (9). Вендина Т.И. Этнолингвистика, аксиология и словообразование. Слово и культура. Памяти Н.Н. Толстого. Т. I, ред. коллегия: Т.А.Агапкина, А.Ф.Журавлев, С.М.Толстая. М., изд-во «Индрик», 1998, с. 40.
- (10). Хроленко А.Т. Лингвокультуроведение. Пособие к спецкурсу по проблеме «Язык и культура». Курск, изд-во ГУИПП «Курск», 2000, с. 120–121.
- (11). Гўрўглининг туғилиши. Хоразм дostonлари. Гўрўгли. Урганч, "Хоразм", 2011, 3–9-бетлар.

Zayniyeva Yulduz Faxriddinovna (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktorantura talabasi;
zayniyevayulduz1@gmail.com)

**“BOBURNOMA”DAGI “AHLI” SO‘ZI BILAN IFODALANILGAN IZOFALI
BIRIKMALARNING INGLIZCHA TARJIMALARI TAHLILI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boburnoma asarida ishlatilgan “ahli” bilan bog‘langan izofiy birikmalar tahlil qilingan. Jumladan, “ahli fazl”, “ahli hunar”, “ahli kuffor” va “ahli irtidod” kabi atamalarining semantik qirralari va ularning Jon Leyden-Erskin, Susana Beverij va U. Tekston tarjimalaridagi inglizcha talqinlari o‘rganilgan. Tahlil davomida ushbu iboralarning tarjimada ma’no va kontekst jihatidan qanday o‘zgarishlarga uchragani, tarjimonlarning yondashuvlari va ularning madaniy hamda diniy atamalarini aks ettirish usullari qiyosiy, tahliliy baholangan. Maqola “Boburnoma”dagi til va madaniy atamalarini tarjima qilishning o‘ziga xos jihatlari ochib berishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy tadqiqot va tarjima sohasiga oid muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, ahli fazl, ahli hunar, ahli kuffor, ahli irtidod, tarjimalar tahlili.

Зайниева Юлдуз Фахриддиновна (аспирант Ташкентского государственного университета Узбекиского языка и литературы имени Алишера Навои; zayniyevayulduz1@gmail.com)

**АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ ИЗАФЕТНЫХ КОНСТРУКЦИЙ С «АХЛИ» В
«БАБУРНАМЕ»**

Аннотация. В данной статье анализируются изафетные конструкции, связанные с термином «ахли» в «Бабурнаме». В частности, рассматриваются семантические нюансы таких выражений, как «ахли фазл», «ахли хунар», «ахли куффор» и «ахли иртидод», а также их английские переводы в работах Джона Лейдена-Эрскина, Сузана Беверидж и Уилера Текстона. Анализ охватывает изменения значения и контекста этих фраз в процессе перевода, подходы переводчиков, а также их методы передачи культурных и религиозных терминов. Цель статьи – выявить особенности перевода лингвистических и культурных выражений в «Бабурнаме», что делает её ценным ресурсом для научных исследований и переводоведения.

Ключевые слова: «Бабурнаме», ахли фазл, ахли хунар, ахли куффор, ахли иртидод, анализ перевода.

Yulduz Faxriddinovna Zaynieva (PhD Student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navai; zayniyevayulduz1@gmail.com)

**ANALYSIS OF ENGLISH TRANSLATIONS OF IZAFETA CONSTRUCTIONS WITH “AHLI” IN
“BABURNAME”**

Annotation. This article analyzes the genitive constructions associated with “ahli” in the Baburnama. Specifically, it examines the semantic nuances of terms such as “ahli fazl”, “ahli hunar”, “ahli kuffor”, and “ahli irtidod”, and their English renderings in the translations by Jon Leyden-Erskine, Susan Beveridge, and W. Tackston. The analysis explores how these phrases have undergone changes in meaning and context during translation, the translators’ approaches, and their methods of conveying cultural and religious terms. The article aims to shed light on the unique aspects of translating linguistic and cultural expressions in “Baburnama”, serving as a valuable resource for scholarly research and translation studies.

Key words: “Baburname”, ahli fazl, ahli hunar, ahli kuffor, ahli irtidod, translation analysis.

Bobur, o‘zining mashhur asari “Boburnoma” orqali nafaqat tarixiy voqealar va o‘z davrining muhim tafsilotlarini yoritib bergan, balki o‘sha davrning til boyligini va madaniyatini ham aks ettirgan. Mazkur asar o‘zbek adabiy tili rivojida muhim o‘rin egallagan va boy leksik tarkibi bilan diqqatga sazovordir. Unda ko‘plab izofali birikmalar, xususan, “ahl” so‘zi ishtirok etgan iboralar uchraydi. “Ahl” so‘zi, odatda, ma’lum bir kasb-kor, guruh yoki ijtimoiy qatlamga mansublikni ifodalash uchun ishlatiladi: ahli tab’- tab’ ahli, ahli nag‘ma, ahli soz – soz ahli, ahli fazl – fazl ahli, ahli she’r – she’r ahli, ahli hunar – hunar ahli, ahli islom – islom ahli, ahli kufr – kufr ahli, ahli kuffor – kofirlar ahli, ahli irtidod – chekinuvchilar ahli, murtdalar kabi. “Ahl” so‘zi, aslida, arabcha qarindoshlar; oila a’zolari; bir xonadonga mansub kishilar; ma’lum soha, kasb egalari, xalq, xullas, biror-bir belgi asosida birlashgan shaxslar doirasini bildiradi.¹ Y. Zulfiyevning ta’kidlashicha, ahl so‘zi XV–XIX asrlarda yaratilgan badiiy asarlarda ancha keng qo‘llangan. Hozirgi kunda bu so‘z ko‘proq she’riy uslubga xos bo‘lib, ilmiy uslubda, sheva va jonli tilda juda kam ishlatiladi. O‘z-

¹ Баранов Х. Арабско-русский словарь. Москва, 1985, с. 48.

bek tilida, ayniqsa, uning hozirgi taraqqiyot bosqichida ahl so‘zi leksik birlik sifatida deyarli mustaqil qo‘llanilmaydi.¹

M.Amonov asarda uchraydigan ayrim so‘z va izofali birikmalarni hozirgi o‘quvchi lug‘at yordamisiz tushunmaydi deb aytib o‘tadi.² Masalan: *Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma‘lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay* (BN;154-b.).

Bobur Alisher Navoiy davrida ijod qilgan Qul Muhammad Udiyga ta‘rif berib: g‘ijjakni ham xo‘b cholur edi. G‘ijjakka bu uch qil taqti. Ahli nag‘madin va ahli sozdin hech kim muncha ko‘p va xo‘p peshrav bog‘lag‘on emastur (BN;164-b.).

“Boburnoma”da tarkibida ahl so‘zi bo‘lgan jami 12 ta izofali birikma uchraydi.³ Biroq X.Nazarova tomonidan nashr ettirilgan “Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug‘at”da ahl so‘zi ishtirokidagi faqat 2 ta izofiy birikma ma‘nosi berilgan: ahli nag‘ma, ahli tab‘.⁴ Ahl so‘zi ishtirok etgan qolgan 10 ta izofiy birikmaning izohi mazkur lug‘atda berilmagan. F.Is‘hoqovning “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at”ida ham yuqoridagi ikkita izofiy birikmaning ma‘nolari izohlangan, xolos.⁵ Alisher Navoiy asarlarida esa mazkur so‘z ishtirok etgan shaxsni bildiruvchi izofiy birikmalar 158 tani tashkil etadi.

Maqolada “Boburnoma”dagi “ahl” so‘zi ishtirok etgan izofali birikmalarning bir nechtasini ingliz tiliga tarjimalarini tahlil qilish, ularning semantik o‘ziga xosliklarini aniqlash hamda tarjima jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklarni ko‘rib chiqish maqsad qilib qo‘yiladi. Ahli fazl va ahli hunar izofali birikmalarini tarjimalar tahlilini ko‘rib chiqishdan boshlaymiz.

Asliytdagi matn: *Аҳли фазл ва аҳли ҳунарга Алишербекча мураббий ва муқаввий маълум эмаским, ҳаргиз пайдо бўлмиш бўлғай* [132-b.].

Tabdilda: “*Фазл аҳли ва ҳунар аҳлига Алишербекчалик мураббий ва ҳомийлик қилган одам дунёда бошқа топилмаса керак*” [133-b.].

Joy Leyden-Erskin tarjimasi: “*There is not upon record in history any man who was a greater patron and protector of men of ingenuity and talent than Ali Sher Beg*” [185-b.]. (Tarixda Alisherbekdan zehn va iste‘dod egalari kattaroq homiy va himoyachi bo‘lgan odam yo‘qdir.)- “men of ingenuity” iborasi “ahli fazl”ni anglatadi. Tarjimonlar ilm ahlini “ingenuity” (ijodkorlik, ixtirochilik) orqali ifodalagan. Ushbu “men of talent” iborasini esa “ahli hunar”ni ifodalashda qo‘llagan. “Talent” (iste‘dod) umumiy ma‘noda to‘g‘ri qo‘llanilgan. Tarjimonlar matnda “record in history” degan jumlaning ishlatib, Alisherbekning tarixiy unutilmas shaxs ekanligini ifodalaydi. Tarjimaning umumiy ruhiyatini saqlagan.

Susana Beverij versiyasi: “*No such patron and protector of men of parts and accomplishments is known, nor has one such been heard of as ever appearing*” [272-b.]. (“Bunday aql-zakovat va yutuqlarga ega odamlar uchun homiy va himoyachi hali hech qachon ma‘lum bo‘lmagan va bunday odamning paydo bo‘lishi haqida dong‘i chiqqan emas”) – Beverij “men of parts and accomplishments” (aql-zakovat va yutuqlarga ega odamlar) iborasi bilan tafakkur va hunar ahlini ifodalashda qo‘llagan. “Men of parts” iborasi “ahli fazl”ga mos keladi va tafakkur, bilimli shaxslar uchun ishlatiladi. Biroq “parts” so‘zi zamonaviy ingliz tilida kam ishlatiladi va o‘quvchi uchun noaniq tuyulishi mumkin. Ushbu “men of accomplishments” iborasi “ahli hunar”ni ifodalaydi va iste‘dod hamda mahoratni anglatadi. Bu “talent” so‘ziga qaraganda kengroq va aniqroq, chunki “accomplishments”, odatda, mahorat bilan erishilgan yutuqlarni anglatadi. Beverij tarjimasi badiiyoq bo‘lib, “is known, nor has one such been heard” iborasi Alisherbekning nodir inson ekanligini kuchli ta‘kidlaydi.

Tekston tarjimasi: “*No one is known ever to have been such a patron and encourager of artists as was Ali-Sher Beg. Master Qul-Muhammad, Shaykhi the flutist, and Husayn the lutanist, who are tops on their instruments, gained advancement and reputation through the beg’s patronage and encouragement*” [214-b.]. (Hech kim Alisherbek kabi san‘atkorlarga bunday homiylik va rag‘bat ko‘rsatganini bilmaydi. Usta Qul-Muhammad, Shaykhi flutachi va Husayn lutanist, o‘z asboblari bilan eng yuqori darajaga erishgan, va ular bekning homiyligi va rag‘batlantirishi orqali rivojlanish va obro‘ga erishgan) – Tekston matni

²Зулфиев Я., Жуманова М. Ўзбек тилида “аҳл” сўзининг семантик-грамматик ва услубий хусусиятлари. “ФДУ илмий хабарлари”, илмий журнал, 2005, 1-сон, 42–43-бетлар.

³ Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Farg‘ona, 2020.

⁴ Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Farg‘ona, 2020.

⁵ Назарова Х. Захириддин Муҳаммад Бобир асарлари учун қисқача луғат. Тошкент, “Фан”, 1972, 12-бет.

⁷ Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. Андижон, 2008, 20-бет.

Alisherbekni, ayniqsa, san'atkorlarga homiy sifatida ko'rsatadi. Qul-Muhammad, Shayxi va Husaynning nomlarini keltirib, Alisherbekning xizmatlarini shaxsiy misollarda yoritgan. "Artists" so'zini qo'llab, Tekston "ahli hunar"ni alohida so'z bilan ifodalab, ularni to'g'ridan to'g'ri san'atkorlar sifatida ko'rsatgan. Tekstonning tarjimasini "ahli hunar"ni ko'proq san'at bilan bog'lagan va ilm-fan ahlini umumiyroq tasvirlagan. Ammo Tekstonning qo'shma iboralar qo'llashi yanada tarjimini aniqroq va yaxshiroq bergan.

Har uch tarjima Alisherbekning fazilat va hunar ahlini qo'llab-quvvatlashini tasvirlaydi. Beverij badiiylik bilan yondashadi. Tekston esa misollar orqali konkretlik qo'shadi. Matnning asosiy ma'nosi – Alisherbekning madaniyat va san'at rivojiga qo'shgan hissasi barcha tarjimalarda saqlanadi.

Keyingi tahlilimiz ahli kuffor va ahli irtidod izofiy birikmalari bo'ladi. Asliyatda: *Bu yurttin ikki ko'chub, Biyona borildi. Biyonag'acha, balki Alvor va Mevotqacha ahli kuffor va ahli irtidodning jiyfasi benihoyat yotib edi* (BN;299-b.).

Ushbu jumlada muallif ahli irtidod izofali birikmasi orqali jangda chekinganlarni nazarda tutgan V.Rahmonov tomonidan tuzilgan "Mumtoz asarlar lug'ati"da ahli irtidod izofali birikmasi dindan qaytganlar, maslagidan qaytganlar ma'nosini anglatishi ko'rsatib o'tilgan va Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridan quyidagi bayt misol keltirilgan:

*Mustafodin so'ngra ahli irtidod,
Chun xilofatqa ul o'ldi istinod.¹*

Ma'lumki, "Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Boburning boshidan o'tganlari hikoya qilingan, ayniqsa, jang sahnalari ishonarli tasvirlangan. Balki shu sababli ahli irtidod izofiy birikmasi Navoiyda dindan qaytganlar, maslagidan qaytganlar ma'nosini anglatadi, Boburda ushbu so'z muradlar ma'nosidan tashqari, chekinuvchilar ma'nosini ham anglatadi. AN-NAYM arabcha-o'zbekcha lug'atda irtidod so'zining quyidagi ma'nolari mavjudligi ko'rsatib o'tilgan: 1) chekinish; 2) bekorga chiqish, puchga chiqish, habada bo'lish; 3) muradlik, xoinlik, qaytganlik; irtidod 'aniddin ارتداد عن الدين dindan qaytish; 4) orqaga qaytish, regress. Ikki tilli lug'atlarda, odatda, izofali birikmaning tarjimasini berilmaydi. Izofali birikma tarkibidagi irtidod so'zining arabcha-o'zbekcha lug'atda ko'rsatib o'tilgan ma'nolaridan bilib olish mumkinki, Navoiy asarlarida qo'llanilgan ma'nosi ham "Boburnoma"da qo'llanilgan ma'nosi ham asliyatda uchraydi. Ahli irtidod ارتداد أهل izofali birikmasi tarkibidagi ahl so'zi hozirgi o'zbek tilida keng qo'llaniladi, biroq eski o'zbek tilida faol iste'molda bo'lgan irtidod so'zi hozirgi o'zbek tilida iste'moldan chiqib ketgan. Mazkur so'zning o'zakdoshlari bo'lgan rad, murad so'zlari hozirgi o'zbek tilida qo'llaniladi.

Tabdilda: "Бу жойдан икки манзил юриб, Байанага бордик. Байанага етгунча, ҳатто Алвар ва Меватгача бўлган ерларда кофир ва муртадларнинг ўлиги тўлиб ётарди" [241-b.]. Murad so'zidan foydalanilgan, bu ham dindan qaytganlar degan ma'noni ifodalaydi.

Jon Leyden-Erskin tarjimasini: "From this encampment, the third march brought us to Biana. Immense numbers of the dead bodies of the Pagans and apostates had fallen in their flight, all the way to Biana, and even as far as Alvar and Mewat" [368-b.]. ("Ushbu turargohdan uchinchi yurishda biz Bayanaga yetib bordik. Bayanagacha, hattoki Alvar va Mewatgacha bo'lgan yo'lda ham qochish vaqtida halok bo'lgan butparastlar va murtadlarning jasadlari behisob miqdorda sochilib yotardi") – Tarjimonlar tarjimasini "immense numbers of dead bodies of the Pagans and apostates had fallen in their flight" (butparastlar va murtadlarning jasadlari behisob miqdorda sochilib yotardi) iborasi bilan o'sha paytdagi holatni kuchli aks ettiradi. Ular murtadlar tasvirini ma'noli va ta'sirchan qilib bergan. J.Leyden-Erskin "kuffor"ni bevosita "Pagans" deb tarjima qilgan. Biroq "Pagans" atamasi "Ahli kuffor"ni qisman ifodalaydi, chunki bu so'z faqat butparastlikni anglatadi. "Apostates": Bu "Ahli irtidod" (dindan qaytganlar)ni to'g'ri aks ettiradi va diniy mazmunini to'liq saqlaydi

Susan Beverij tarjimasini: "(March 20th) Marching on from that ground, and after halting on two nights, we reached Biana (Sunday, Jumada 11.17th). Countless numbers of the bodies of pagans and apostates who had fallen in their flight, lay on the road as far as Biana, indeed as far as Alur and Mivat" [577-b.]. ("(Mart 20). O'sha yerda ikki tun dam olganimizdan so'ng, biz Bayanaga yetib bordik (yakshanba, Jumadul soniy, 17-kuni). Ularning qochish davomida halok bo'lgan butparastlar va murtadlarning jasadlari behisob miqdorda yo'lda sochilib yotardi, hatto Biyanagacha, Alur va Mivatgacha"). Beverij tarixiy aniqlikni qo'shib, jang sanasini keltiradi va "countless numbers" (behisob) iborasi bilan hodisaning keng ko'lamin ta'kidlaydi. Beverijning tarjimasini diniy nuqtai nazardan J.Leyden-Erskin tarjimasiga yaqin. "Ahli kuffor"ning keng ma'nosi qisman saqlangan, "Ahli irtidod" esa to'g'ri aks ettirilgan.

¹ Раҳмонов В. Мумтоз асарлар луғати. Тошкент, "Академнашр", 2019, 95-бет.

Tekston shunday ifodalaydi: *“Marching two kos from this camp we came to Bayana. All the way there, indeed the road all the way to Alwar and Mewat, was strewn with innumerable infidel and apostate corpses. I made a tour of Bayana.”* [387-b.]– (“Ushbu turargohdan ikki kos yurib, biz Bayana shahriga yetib bordik. Yo‘lda, hatto Alvar va Mevatgacha, son-sanoqsiz **kofirlar va murtaidlarning** jasadlari sochilib yotardi. Men Bayanani aylanib chiqdim”). Tekston “Ahli kuffor”ni “Infidel” (kofir) deb tarjima qilgan. Bu so‘z diniy matnlarda, ko‘pincha, Islomni qabul qilmagan yoki unga qarshi bo‘lganlarni anglatadi. “Infidel” atamasi “Ahli kuffor”ning ma’nosini kengroq qamrab oladi va boshqa ikki tarjimaga qaraganda mosroqdir. “Ahli irtidod”ni “Apostate” deb bergan. Bu ibora yuqoridagi ikki tarjimonlar tarjimalaridagi kabi aniq va to‘g‘ri.

Tekstonning tarjimasi diniy terminologiyani yaxshiroq aks ettiradi. “Infidel” orqali “Ahli kuffor”ning ma’nosi, “Apostate” orqali esa “Ahli irtidod” aniq aks ettirilgan. Tekston “strewn with innumerable corpses” (jasadlari sochilib yotardi) iborasi bilan tasvirni yanada dramatiklashtirishga harakat qiladi. Jadvalda ko‘radigan bo‘lsak:

1-jadval

Asliyat (2002)	Ahli kuffor	Ahli irtidod (dindan qaytganlar)
Tabdil (2008)	Kofir	Murtaidl (dindan qaytganlar)
J.Leyden-Erskin	Pagans (butparastlar)	Apostates (dindan qaytganlar)
S.Beverij	Pagans (butparastlar)	Apostates (dindan qaytganlar)
U.Tekston	Infidels (kofirlar)	Apostates (dindan qaytganlar)

Xulosa qiladigan bo‘lsak, maqolamizda “Ahli” bilan bog‘langan izofiy birikmalarning tahlili va ularning inglizchadagi tarjimalari o‘rganildi. “Boburnoma”da ishlatilgan “ahli fazl”, “ahli hunar”, “ahli kuffor” va “ahli irtidod” kabi iboralar, tarixiy va madaniy kontekstda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Tarjimonlar tomonidan bu iboralarning ingliz tiliga qanday talqin qilinishi, har bir tarjimaning semantik xususiyatlari va madaniy farqlari ochib berildi. Jon Leyden-Erskin, Susana Beverij va U.Tekston kabi tarjimonlarning yondashuvlari ularning madaniy va diniy terminlarni qanday aks ettirganini ko‘rsatdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, har bir tarjimon iboralarni saqlash va ifodalashda o‘z usullarini qo‘llagan, bu esa original matnning ma’nosi va uning tarjimada to‘g‘ri aks ettirilishiga ta’sir qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1), Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Farg‘ona, 2020.
- (2). Баранов Х. Арабско-русский словарь. Москва, 1985, с. 48.
- (3). Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. London, 1921, 880 p.
- (4). Dictionary of contemporary English. Longman, 2000, 864 p.
- (5). Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун кискача изоҳли луғат. Андижон, 2008, 20-бет.
- (6). Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber. Babur Emperor of Hindustan. London, 1826, 432 p.
- (7). Назарова Х. Заҳириддин Муҳаммад Бобир асарлари учун кискача луғат. Тошкент, “Фан”, 1972, 12-бет.
- (8). Teshaboyeva Z. “Boburnoma”dagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. “Tafakkur”, Toshkent, 2018.
- (9). Teshaboyeva Z. “Boburnoma”ning lisoniy jozibasi ingliz tarjimonlari talqinida. Nodirabegim. Toshkent, 2021.
- (10). Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York, 1996, 554 p.
- (11). Qambarov N. Tarjima transformatsiyalarining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari. Toshkent, 2019.
- (12). Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. 2002, Тошкент, “Шарқ”, 336-бет.
- (13). Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. “Шарқ”, Тошкент. 2014, 74-бет.
- (14). Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т., “Шарқ”, 2008, 336-бет.
- (15). Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. “Шарқ”. Тошкент, 2014.
- (16). Зулфиев Я., Жуманова М. Ўзбек тилида “аҳл” сўзининг семантик-грамматик ва услубий хусусиятлари. “ФДУ илмий хабарлари”, илмий журнал, 2005, 1-сон, 42–43-бетлар.
- (17). <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english>
- (18). <https://www.amazon.com/Baburnama-Memoir-Babur/dp/8129141752>
- (19). www.uzresearchers.com

Kurbonova Gulsara Sodikovna (O‘zbekiston Milliy universiteti “Fransuz filologiyasi” kafedrasida dotsenti, (DSC); Gulsara.qurbonovna@gmail.com)

MILLIY-MADANIY SO‘ZLARINING TARJIMADA BERILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz yozuvchisi Amin Maalufning “Samarcande” (“Samarqand yoxud zulmatda yo‘qolgan ziyoni izlab”) asarining asliyat va uning o‘zbek tiliga tarjimasida milliy-madaniy so‘zlarning tarjimada berilishi o‘rganiladi. Unda tarjimon mahorati perefraza va transpozitsiya, ya‘ni adaptatsiya usullari, shuningdek, germenevtik yondashuv, tavsifiy tarjima, to‘g‘ri tarjima, o‘xshashlarni tanlash, transliteratsiya usullari yordamida adekvatlik tamoyillari asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: asliyat va tarjima, milliy-madaniy so‘zlar, perefraza, tarjima usullari, adekvat tarjima, tarjima akti, pragmatik tarjima.

Курбонова Гульсара Содиковна (Национальный университет Узбекистана, доцент (DSC) кафедры французской филологии; gulsara.qurbonovna@gmail.com)

ПЕРЕВОД НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ СЛОВ

Аннотация. В данной статье исследуются истоки романа французского писателя Амина Маалуфа “Samarcande” (“Самарканд, или в поисках потерянного во тьме”) и перевод национально-культурных слов в его переводе на узбекский язык. В нем раскрывается мастерство переводчика на основе принципов адекватности с использованием перефразирования и транспозиции, то есть методов адаптации, а также герменевтического подхода, описательного перевода, корректного перевода, подбора аналогов, методов транслитерации.

Ключевые слова: оригинальность и перевод, национально-культурные слова, периферия, методы перевода, адекватный перевод, акт перевода, прагматический перевод.

Kurbonova Gulsara Sodikovna (DSc, Associate professor National University of Uzbekistan, Department of French Philology; gulsara.qurbonovna@gmail.com)

TRANSLATION OF NATIONAL CULTURAL WORDS

Annotation. This article explores the origins of the novel by French writer Amin Maalouf “Samar-kand” (“Samarkand, or in search of lost in darkness”) and the translation of national cultural words in its translation into Uzbek. It reveals the translator’s skill based on the principles of adequacy using paraphrasing and transposition, that is, methods of adaptation, as well as a hermeneutic approach, descriptive translation, correct translation, selection of analogues, transliteration methods.

Keywords: originality and translation, national cultural words, periphery, translation methods, adequate translation, act of translation, pragmatic translation.

Kirish. Bugungi kunda “til kompetentligi”, “tarjima asarlarning chet el madaniyatini o‘rganishdagi o‘rni”, “tarjima madaniyati” kabi mavzular tarjima muammolari, ayniqsa, badiiy tarjima masalalar bilan bog‘liq bo‘lib, ta‘lim, madaniyat, tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Umuman olganda, tarjimashunoslikda “tarjima madaniyati” umumiste‘moldagi ko‘chma ma‘nodagi atama bo‘lib, tarjimonning asliyatdagi g‘oya, mazmun va ma‘noni eng minimal yo‘qotishlar bilan tarjima tilida invariantini yaratishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tarjimashunosligida o‘ziga xos milliy munosabatni tarjimada berishga doir nazariy fikrlar G‘.Salomov, Q.Musayev, R.Fayzullayeva, R.Shirinova, N.Vladimirova, I.Mirzayev, M.Xolbekovlarning ishlarida kuzatiladi. Tarjimashunos olimi Raima Shirinova ta‘kidlaganidek: “Har bir millatning olamni idrok etishi, o‘zini qurshab turgan dunyoni qanday anglashi, eng avvalo, o‘sha xalqning badiiy asarlarida o‘z aksini topadi. Badiiy asarlar tillardan tillarga tarjima qilinsa, begona xalq madaniyati bilan tanishish imkoni paydo bo‘ladi. Badiiy tarjimada asliyat olamining milliy manzarasini tarjimada yorqin va aniq qayta tiklash tarjimonning bilimi, dunyoqarashi, mahorati hamda san‘atiga bog‘liq” [7;53-b.].

A.Shveyter ta‘kidicha, tarjima bu tarjima faoliyatining jarayoni va natijasi sifatida, asar o‘girilayotgan til madaniyati vakiliga tegishli bo‘ladi. Tarjima akti pragmatik jihatdan ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi. Bu, birinchidan, asl matni to‘liq germenevtik jihatdan komil emas, ma‘naviy boy, botiniy, yengil-yelpi o‘ylashi, jismonan emas, balki ma‘naviy hayot mazmunini boylikka o‘xshatish; yaxshi bilan yomonlik farqiga yetishda boylikni bir bemorga o‘xshatib, unga ta‘sir, talqin etishga, ikkinchidan, tarjima matnini til sohiblariga yetkazish muammolarini o‘z ichiga oladi [8;109-b.]. Albatta, bunda asl matn va tarjima matnining bir-biri bilan qanchalik to‘liq mos bo‘lishi, uning adekvatlik darajasi tarjimon tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. K.I.Chukovskiyning fikricha, hattoki eng tajribali tarjimonlar ham asl matn mazmunini to‘liq yetkazib bera olmaydilar. Agar tarjimon qancha erkin ijod qilsa, shuncha asl matn mazmuni va shaklidan

uzoqlashadi va kitobxon asl matndagi haqiqiy ifoda mazmunini ola olmaydi [6;55-b.]. Tarjimon o'zining tarjimonlik faoliyatini alohida olingan til birligi darajasida emas, balki matn darajasida amalga oshiradi. Shuning uchun ham tarjima nazariyasining asosiy masalalaridan biri tarjimonlik ijodini tarjimonning intuitsiyasi asosida yuzaga keladigan jarayon sifatida ochib berishdan iborat. Asl matnni ana shunday interpretatsiya qilishda realiyalarning tarjima matnida to'g'ri qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega.

Tarjima amaliyoti ekvivalentsiz leksika, ya'ni tarjimasi yo'q so'zlar nazariyasini rad etadi. A.D. Shveyser ta'kidlaganidek, mantiqiy fikrlashning umuminsoniy tabiati tarjima qilish uchun mustahkam asosdir. Shu bilan birga, har qanday badiiy asarda shunday elementlar borki, ularni formal tarjima qilishning imkoni yo'q [8;109-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning obyektini sifatida frantsuz yozuvchilari Sharl Lui Monteskening "Les Lettres persanes" ("Fors nomalari") va Amin Maalufning "Samarcande" ("Samarqand yoxud zulmatda yo'qolgan ziyoni izlab...") asarlari va ularning o'zbek tilidagi tarjimalarida aks etgan sharq madaniyati hamda falsafiy qarashlari tanlangan. Tadqiqotning predmetini esa asliyat va tarjimada aks etgan frantsuz badiiy matn komponentlarining lingvomadaniy talqini hamda ularning kognitiv va semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasvirlash, qiyosiy-chog'ishtirma, analitik, substitutiv-transformatsion, lingvomadaniy va germevtik tahlil usullaridan foydalanilgan. Sharq madaniyatiga xos urf-odat, an'ana, irim-sirim kabilar frantsuz yozuvchilarining asarlarida tasvirlanishi va ularning boshqa bir tilga, ayniqsa, o'zbek tiliga o'girilishi masalalar, shubhasiz, tarjima muammolari ustida alohida tadqiqot olib borishga ehtiyoj tug'diradi.

Hozirgi kunda ham tarjimonlar tomonidan qiyosiy-chog'ishtirma planda matnni asliyatdagidek ifoda etishda tarjima va germevtikani birlashtiruvchi mazkur qoidalarga alohida e'tibor bermaslik holatlari ham uchrab turadi. Masalan, Fransuz yozuvchisi Amin Maaluf yoshligi arab mamlakatlarida o'tgani va arab tili hamda madaniyatini yaxshi bilganligi bois sharq xalqlari o'tmish hayoti to'g'risida tushunchaga ega bo'lgan. Bu esa uning shu xalqlarning urf-odatlarini, an'analari, yashash tarzlarini sharqliklar ko'zi bilan mushohada etishiga imkon bergan. Ushbu asar eramizning ming asr oldingi va ming asr keyingi voqeligini tasvirlash orqali sharq xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotlarini falsafiy mushohada etishi jihatidan katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Tahlil va natijalar. Masalan, ushbu misolda sharq xalqlariga xos azaliy udum Navro'z milliy bayrami xususida ham fikr yuritiladi.

Asliyatda: Quel Persan pourrait oublier que cette année-la, en vertu des calculs de Khayyam, *la sacro-sainte fête du Norouze* a été déplacée, que le nouvel an qui devait tomber au milieu du signe des Poissons a été retardé jusqu'au premier soleil du Bélier, que c'est depuis cette réforme que les mois persans se confondent avec les signes des astres, Favardin devenant ainsi le mois du Bélier, Esfand celui des Poissons (96)? [9;96-b.].

Tarjimada: O'sha yili Xayyom taqvimiga binoan, butun Forsda Navro'z bayrami yangi yilning boshlanishi deb e'lon qilindi va bu bayram baliq burji o'rtalaridan qo'y burjining quyoshli kunlariga ko'chirildi. Ayni shu yildan boshlab quyosh taqvimi yulduz taqvimiga to'g'ri kelmay qoldi [2;146-b.].

Asliyatda qo'llanilgan til birligining semantik ma'nosi tarjima matnida lug'aviy ekvivalent yordamida o'girilishi har doim ham o'zga til madaniyatiga mos tushavermaydi. Bunday holatlarda ifodalangan qiyoslanayotgan tillarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning o'zaro muvofiq kelishi matn xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi misolda Sharq mamlakatlariga xos diniy-milliy bayram nomi asliyatda transliteratsiya usulida *la sacro-sainte fête du Norouze*, tarjima matnida Navro'z bayrami shaklida berilgan. Asliyatda Navro'z bayrami bilan bog'liq *...que c'est depuis cette réforme que les mois persans se confondent avec les signes des astres, Favardin devenant ainsi le mois du Bélier, Esfand celui des Poissons?* qo'shimcha ma'lumot tarjima matnida "Ayni shu yildan boshlab quyosh taqvimi yulduz taqvimiga to'g'ri kelmay qoldi" mazmunida umumlashtirilgan shaklda berilgan. Quyida bizning tarjima variantda asliyatdagi *Favardin* va *Esfand* so'zlarining definitsiyasi keltirildi.

Bizning tarjima variant. O'sha yili Xayyom taqvimiga binoan, butun Forsda Navro'z bayrami yangi yilning boshlanishi deb e'lon qilindi va bu bayram baliq burji o'rtalaridan qo'y burjining quyoshli kunlariga ko'chirildi. Ayni shu islohotdan keyin eron taqvimi bo'yicha oylar yulduzlar belgilari Farvardin (mart – aprel) – Qo'y, Isfandarmuz (fevral – mart) – Baliq burji bilan birlashgan.

Asliyatdagi *Favardin* qadimiy eron kalendarida bahorning boshlanishi 31 kundan iborat bahoriy teng kunlik, eronliklarning yangi taqvimi bo'yicha Qo'y burjiga to'g'ri keladi "Esfand" eski Eron taqvimi

bo'yicha yilning o'n ikkinchi oy, qish faslining uchinchi oyi, umumiy 29 kun yoki 30 kundan iborat kabisa yili hisoblanadi, yangi taqvim bo'yicha Baliq burjiga to'g'ri keladi [5;18–19-b.].

Ba'zi o'rinlarda frantsuz tilidagi *voile* (to'r) so'zi *paranji* sinonimi bilan almashtirilgan:

– As-tu encore ton voile?

– Je n'ai plus d'autre voile que la nuit [9;42-b.].

– Sen hamon paranjidamisan?

– Yo'q, endi mening paranjim – qorong'u tun, xolos... [9;72-b.].

Paranji ayollarning ustki ko'chalik yopinchi'gi ma'nosini anglatgan. Tarixiy manbalarda u sug'diy asosga ega bo'lgan. Yevropaliklar uchun bu yopinchiq Buyuk ipak yo'li amal qilgan davrlardan boshlab tanish bo'lgan. Bu so'z, keyinchalik, fransuzcha fringues (kiyim-kechak, ust-bosh) shakliga kirdi. Biroq so'zning lug'aviy izohi *fransuzlarga tegishli* fringues so'ziga tasodifiy o'xshashligi sababli asl ma'no Yevropada unutilgan [6;15-b.]. Paranjining ayollar ko'chalik ustki yopinchi'gi ma'nosidagi vazifasi O'rta Osiyoda islom madaniyati doirasida o'zgarishga uchragan va «paranji» deganda boshga yopiladigan yengsiz kiyim tushunib kelinadi. Hozirda ham O'zbekistondagi ba'zi viloyatlarda to'y marosimlari uddimini bajarishda paranji yopinishadi. Shuning uchun ham tarjimon matnda "chodira" o'rnida o'zbek millatining dunyoqarashiga yaqin bo'lgan "paranji" so'zini ishlatgan.

Amin Maalufning ushbu asarida sharq xalqlariga xos juda ko'p realiyalarni uchratamiz, sababi, asar qadim sharqning turmush tarzini, unda kechgan ijtimoiy-madaniy hayotni tasvirlashga bag'ishlangan. Uning o'zbek tarjimoni tomonidan o'g'irilishi esa asardagi realiyalarni ikki til manzarasida muallif-tarjimon-o'quvchi dunyoqarashi nuqtai nazaridan germeneytik yondashuv asosida tahlil etishga imkon beradi.

